TURKİSTON

ILK O'RTA ASRLARDA:

TARIX VA TARIXİY GEOGRAFIYA

(VI–VIII va IX–XIII asrlar)

ORIENTAL UNIVERSITETI
“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI
PROFESSORI KAMOLIDDIN SHAMSIDDIN SIROJIDDIN O‘G‘LINING 70 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN “TURKISTON ILK O‘RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI – VIII VA IX – XIII ASRLAR)” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI

TOSHKENT – 2025

Mas'ul muharrir:
N.A.Mamataxunov – tarix fanlari bo‘yicha PhD

Tahrir hay’ati a’zolari
Sh.Kamoliddin - Tarix fanlari doktori, professor
I.Bobojonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
I.Xo‘jaxonov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Y.Cankaloğlu – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar
H.Hamidov – Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professori, Tarix fanlari bo‘yicha doktori
J.Kamolov – O‘zMPU “Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur ilmiy to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Oriental universiteti “Tarix” kafedrasi tomonidan 2025-yil 20-noyabr kuni taniqli sharqshunos olim, t.f.d. Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professori **Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin o‘g‘lining 70 yilligi** munosabati bilan “**Turkiston ilk o‘rta asrlarda: tarix va tarixiy geografiya (VI – VIII va IX – XIII asrlar)”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezislari o‘rin olgan.

Unda ko‘zga ko‘ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o‘rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, pedagoglar, oliy o‘quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To‘plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas’uldir!

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 27-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan 4-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2025

KIRISH

Turkiston mintaqasining ilk o‘rta asrlardagi (VI–VIII hamda IX–XIII asrlar) siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini tadqiq etish Markaziy Osiyo tarixshunosligining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu davr o‘zining murakkab geosiyosiy harakati, davlat tuzilmalarining o‘zgaruvchanligi, etnik jarayonlarning faolligi hamda shahar madaniyatining takomillashuvi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu jarayonlar Turkistonni Sharq va G‘arbni bog‘lovchi tarixiy hudud sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lgan.

VI–VIII asrlar manbalarda turk qabilalarining siyosiy birlashuvi, ularning yarim ko‘chmanchi davlat tizimini shakllantirishi hamda bu tuzumning Markaziy Osiyo vohalari bilan o‘zaro aloqalari keng yoritilgan. Xitoy yilnomalari, arab muarrixlarining xabarlarida turkiy qabilalarning siyosiy integratsiyasi, Ipak yo‘li bo‘ylab savdo-sotiq ustidan nazorati va mahalliy o‘troq aholiga ta’siri haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Turk xoqonligi davrida mintaqada kuchli harbiy-siyosiy markazlashuv yuz berib, bu jarayon iqtisodiy va madaniy almashuvga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

IX–XIII asrlar Turkiston tarixida yangi davrning boshlanishi bo‘lib, unda islom sivilizatsiyasining chuqur ta’siri, shahar hayotining yuksalishi va ilm-fan taraqqiyotining jadallashuvi kuzatiladi. Somoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti barqarorlashib, Buxoro, Samarqand, Marv, Termiz kabi yirik shaharlarda ilmiy-madaniy markazlar shakllangan. Bu esa keyinchalik qoraxoniylar, g‘aznaviylar va saljuqiylar siyosiy hokimiyatining mustahkamlanishiga zamin yaratgan. Qoraxoniylar sulolasi davrida turkiy davlat an’analarining islomiy boshqaruv modeli bilan uyg‘unlashuvi ko‘zga tashlanadi.

Mintaqaning tarixiy geografiyasini tadqiq etish ham ushbu davrni chuqurroq anglash uchun katta ilmiy ahamiyatga ega. Arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar, qadimgi irrigatsiya tizimlarining izlari, qadimiy harbiy yo‘llarning qayta tiklanishiga imkon yaratadi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari, Zarafshon vodiysi, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo havzalari davlatlararo raqobatning, savdo tranzitining va shahar madaniyatining yirik markazlariga aylangan. Iqlim o‘zgarishlari, suv manbalarining yo‘nalishidagi tarixiy siljishlar, yangi sug‘orish tizimlarining barpo etilishi kabi ekologik jarayonlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Turkiston hududida kechgan siyosiy jarayonlar – arab qo‘shinlarining kirib kelishi, mahalliy sulolalarning mustaqillik uchun kurashi, turkiy qabilalarning migratsiyasi, yirik davlatlarning o‘zaro raqobati va nihoyat, XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar istilosi arafasidagi murakkab vaziyat – mintaqa tarixiy manzarasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu jarayonlar etnik tarkibning o‘zgarishi, siyosiy chegaralarning qayta belgilanishi, madaniy qatlamlarning o‘zaro qo‘shilib borishi kabi jarayonlarni taqozo qilgan.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Turkistonning VI–VIII va IX–XIII asrlardagi tarixiy taraqqiyotini kompleks o‘rganishga, manbashunoslik materiallarini qayta tahlil qilishga, arxeologik va tarixiy geografik tadqiqotlar natijalarini ilmiy jamoatchilik orasida keng muhokama qilishga qaratilgan. Anjuman doirasida tarixshunoslikning turli yo‘nalishlari vakillari tomonidan ilgari

surilgan ilmiy qarashlar, yangi topilmalar, kartografik rekonstruksiyalar, arxeologik ma’lumotlar va matnshunoslik tadqiqotlari asosida shakllangan xulosalar taqdim etiladi.

To‘plamda e’lon qilinadigan ilmiy maqolalar Turkistonning ilk o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, siyosiy jarayonlari, etnik tarkib shakllanishi, karvon yo‘llarining rivoji, shahar hayoti, diniy-madaniy jarayonlarning evolyutsiyasi hamda tabiiy-geografik omillarning tarixiy voqealarga ta’siri kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu ilmiy izlanishlar mintaqa tarixining uzoq davrlardan buyon davom etib kelayotgan sivilizatsiyaviy jarayonlarini chuqur tushunishga, zamonaviy tarixiy talqinlarga ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

“TURKISTON ILK O‘RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI–VIII VA IX–XIII ASRLAR)” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2025 yil 20 noyabrda Oriental universitetida yirik sharqshunos olim, tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinning 70 yillik yubileyi munosabati bilan “Turkiston ilk o‘rta asrlarda: tarix va tarixiy geografiya (VI–VIII va IX–XIII asrlar)” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Mazkur anjuman Sharq va Turkiston mintaqasining ilk o‘rta asrlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlariga oid ilmiy masalalarni kompleks tadqiq etish, tarixiy geografiya bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ilgari surish va ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlarni yangi metodologik bosqichga ko‘tarish maqsadida tashkil etildi. Anjumanda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya va boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy markazlaridan taniqli sharqshunoslar, tarixchilar, professor-o‘qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. Anjuman davomida yozma tarixiy manbalarni tahlil qilish, arxeologik ma’lumotlarning ilmiy interpretatsiyasi, toponimika masalalari, davlatchilik model va tamoyillari, shuningdek, Turkistonning geosiyosiy o‘rni va uning tarixiy dinamikasi bo‘yicha ma’ruzalar tinglandi.

Konferensiya ishi Oriental universiteti rektori N. A. Mamatoxunovning kirish va tabrik so‘zi bilan boshlandi. Yalpi majlisni Oriental universiteti prorektori M. Nasirova va “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri I. U. Bobojonov olib bordilar. Majlisda E. Axundjanov, L. M. Boboxo‘jayeva, I. Bekmirzayev, H. Nazirova, J. Mirzayev, Sh. Saidjabbor, M. Kamoliddinov, G. Boboyorov, Sh. Kuldashev, B. Pasilov, F. Jumaniyozova, R. Xudoyberganov, S. Bekmurodov, M. Xotamova va boshqalar tabrik so‘zlari bilan chiqdilar.

Shundan so‘ng anjuman quyidagi yo‘nalishlardagi sho’balarda o‘z ishini davom etdirdi:

- Turk xoqonligi davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Uyg‘ur xoqonligi davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Arab xalifaligi davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Somoniylar davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Qoraxoniylar davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- G‘aznaviylar davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Saljuqiylar davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Xorazmshohlar davri tarixi va tarixiy geografiyasi;
- Tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari;
- Tarixiy kartografiya: xaritalar va globuslar;
- Tarixiy toponimika: joy nomlari;
- Etnogenez va etnik tarix masalalari.

Oriental universiteti jamoasi taniqli olim, tarix fanlari doktori, professor Kamoliddin Shamsiddinning muborak 70 yoshlari bilan samimiy tabriklab ustozga mustahkam sog‘lik, farzandlar va shogirdlar kamolini tilaydi! Ustozning boy ilmiy merosi va fidoyiligi butun ilmiy hamjamiyat uchun ulkan namuna bo‘lib xizmat qiladi.

MANBALARNI TILGA KIRITGAN OLIM

Sanjar T. Bekmuradov

Ushbu maqola yirik sharqshunos olim, tarix fanlari doktori, professor Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin o‘g‘lining ilmiy faoliyati haqidadir. U o‘zbek, rus, ingliz, arab tillarida jami 50 dan ortiq ilmiy monografiya va kitoblar, 400 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi hisoblanadi. U umr bo‘yi sharq manbashunosligi, tarix- shunoslik, tarjimashunoslik va xaritashunoslik kabi sohalarda ilmiy faoliyat olib borib kelmoqda. Xatto uning ba’zi ilmiy tadqiqotlari hamda xulosalari nafaqat O‘zbekiston tarixida balki jahon tarixida ham dolzarb hisoblanib, ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Faoliyati davomida Sh. Kamoliddin Vatanimizning o‘rta asrlari tarixiga doir bir qancha manbalarni, arxiv hujjatlarini tarjima qilib, izoh va sharhlar bilan muomalaga kiritib kelmoqda va shu bois uni shubhasiz manbalarni tilga kiritgan olim deb atay olamiz.

O‘zak so‘zlar: Pavel Georgiyevich Bulgakov, Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin o‘g‘li, Ibn al-Asir “al-Komil fi-t-tarix”, Ibn Havqal “Surat al-ard”, al-Balozuriy “Futux al-buldon”, Janubiy Sug‘d va Toxariston tarixiy geografiyasi, Somoniylar tarixi, qadimgi turklarda dehqonchilik va shaharchilik madaniyati.

O‘zbekiston Respublikasida ikkita yirik sharqshunoslik markazi mav- jud. Ulardan biri Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bo‘lsa, ikkin- chisi O‘zbekiston FA ning Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqunoslik institutidir. Mazkur universitet O‘rta Osiyoda sharqshunoslik sohasiga ixti- soslashgan yagona oliy o‘quv yurti bo‘lib, qo‘shni mamlakatlar uchun ham sharqshunoslik fanining turli sohalari bo‘yicha malakali mutaxassislar ye- tishtiradi. Universitetda arab, fors, xind, xitoy, yapon, koreys va boshqa sharq tillari va adabiyoti, shuningdek Markaziy Osiyo va xorijiy sharq mamlakatlarining tarixi, madaniyati, falsafasi, iqtisodi, siyosatshunoslik kabi fanlar o‘qitiladi.

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti esa o‘zining sharq qo‘lyozmalari xazinasi bilan butun dunyoga mashhur. Unda o‘rta asrlarda arab, fors, turk va boshqa sharq tillarida yozilgan qariyb 40 mingta asarni o‘z ichiga oluvchi jami 18 mingta qo‘lyozma, shuningdek 3 mingdan ziyod vaqf hujjatlari, yorliqlar va boshqa hujjatlar saqlanadi. Institutda XX asrning o‘rtalaridan boshlab ko‘p yillar davomida jahon ilm fani taraqqi- yotiga katta hissa qo‘shgan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ah- mad Farg‘oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek singari mashhur O‘rta Osiyolik olimlarning asarlari tarjima qilingan, ularning il- miy merosi chuqur o‘rganilgan. Bu ishlarni amalga oshirgan olimlar, xusu- san, U. I. Karimov, B. Axmedov, P. G. Bulgakov, A. O‘rinboyevlarning amalga oshirgan ilmiy ishlari jahonga mashhur. Endilikda ularning ishlarini bir qator o‘zbek olimlari davom etdirmoqdalar. Ana shunday olimlardan biri mashhur beruniyshunos olim akademik P. G. Bulgakovning shogirdi Shamsiddin Sirojiddin o‘g‘li Kamoliddindir.

U 1955-yil 20-noyabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Otasi O‘zbek madaniyati va san’atining XX asr ikkinchi yarmidagi butun faoliyati davomida san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent, olim, taniqli va hurmatli davlat

va madaniyat arbobi Sirojiddin Kamoliddinov, onasi esa taniqli o‘zbek shoirasi, adibasi va publisisti E’tibor Oxunovadir. Sh. Kamo- liddin 1973-yilda o‘rta maktabni bitirib, Toshkent Davlat universiteti sharq fakultetiga o‘qishga kirdi. Universitetda o‘qish davrida, 1977 – 1979-yil- larda Jazoir Xalq Demokratik Respublikasida tarjimon bo‘lib ishladi. 1980-yilda oliygohning Sharq tillari kafedrasini tamomlab, arab tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘ldi. Universitet yo‘llanmasi bilan u O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomi- dagi Sharqshunoslik institutiga ishga kirib, 1996-yilga qadar avval “Qo‘lyozmalarni ilmiy tavsif etish va kataloglar tuzish” bo‘limining kichik va katta ilmiy xodimi, keyin “Qo‘lyozmalarni tadqiq etish va nashr etish” bo‘limining yetakchi ilmiy xodimi bo‘lib ishladi.

1988-yilda “Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam’oniy (XII asr) ning “Kitob al-ansob” asari O‘rta Osiyo tarixi va madaniyati tarixi bo‘yicha muhim manba” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffa- qiyatli yoqladi va tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Bu ishning ilmiy ahamiyati shundan iborat ediki, unda ilk bor tadqiqot ob’yekti sifatida islom madaniyati tarixi tanlangan edi. Ma’lumki, sovet davrida ateizm hukmronlik qilib, xalqimizning diniy qadriyatlari e’tibordan chetda qolgan edi. Ushbu dissertatsiyada IX – XII asrlarda O‘rta Osiyoda yasha- gan tarixchi olimlar, shoirlar va adiblar, shuningdek diniy ulamolar, xusu- san fiqh, xadis, tafsir kabi islomiy fanlarda faoliyat olib borgan jami 1200 dan ortiq olimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Dissertatsiya 1993-yilda O‘zbekiston FA ning “Fan” nashriyotida nashr etildi.1

1990-yilda Sh. Kamoliddin o‘sha davrdagi eng yirik ilm fan markazi bo‘lgan Moskva va Leningrad shaharlarida Sovet Ittifoqi FA Sharqshunos- lik institutining doktoranturasida ilmiy faoliyatini davom etdirib, 1993-yilda “IX – XIII aslarning arab tilidagi manbalarida Janubiy Sug‘d va To- xariston tarixiy geografiyasi” mavzusi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffa- qiyatli yoqladi va tarix fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. Unda O‘zbekistonning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari (Janubiy Sug‘d), Tojikiston va Afg‘onistonning shimoliy qismi (Toxariston)ning shaharlari va karvon yo‘llari haqida arab tilidagi manbalarda keltirilgan ma’lumotlar kompleks tarzda tadqiq etilgan. Unda arab tilidagi manbalar- dan tashqari ilk o‘rta asrlarda fors, xitoy, arman va boshqa tillarda yozilgan manbalar, shuningdek, arxeologik, numizmatik, epigrafik va etnografik ma’lumotlar ham keng jalb etilgan. Natijada mazkur mintaqa tarixiy geog- rafiyasiga oid ayrim yechilmagan masalalar o‘z yechimini topdi, ko‘p munozarali masalalarga oydinlik kiritildi. Eng muhimi dissertatsiyada O‘rta Osiyoda Turk xoqonligi davri tarixi va qadimgi turklarning mintaqada tutgan o‘rni yangicha yondashuv asosida yoritildi. Dissertatsiya 1993-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida nashr etildi.2

Shundan keyin, Sh. Kamoliddin bir necha yil arab mamlakatlarida xiz- mat safarida bo‘lib, xususan, 1994 – 1995-yillarda Birlashgan Arab Amir- liklarining

1 Камалиддинов Ш. С. “Китаб ал-ансаб” Абу Са’да Абдалкарима ибн Мухам- мада ас-Сам’ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Ташкент: Фан, 1993. 210 с.

2 Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – нач. XIII вв. Ташкент: Узбекистан, 1996. 534 с.

Dubay shahridagi Juma al-Mojid qo‘lyozmalar markazida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. Safardan qaytib kelgach, Toshkentdagi Ichki ishlar Akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi va boshqa oliy o‘quv yurtlarida kafedra mudiri va professor lavozimida ishladi. Shu bilan birga u IX – XIII asr boshlariga mansub arab, fors va turk tillaridagi man- balarda O‘rta Osiyo tarixi va tarixiy geografiyasi sohasida ilmiy izlanish- larini davom etdirdi. 1997 – 2001-yillarda olim “Tufon” tarixiy arxeologik kompleks ekspedisiyasi, bo‘lim boshlig‘i sifatida faoliyat olib bordi. 1999-yilda quvaytlik shayx Abd al-Aziz al-Baptin tomonidan ta’sis etilgan “Imom al-Buxoriy avlodlariga” nomli islom tadqiqotlari sohasidagi xalqaro mukofot- ga sazovor bo‘lgan.

2002 – 2005-yillarda u O‘zbekiston FA Tarix institutida yetakchi il- miy xodim sifatida“O‘rta Osiyo tarixiy geografiyasi” ilmiy loyihasiga rahbarlik qildi. Ushbu loyiha doirasida u Yevropaning bir qancha kutub- xonalarida ilmiy ish olib borishga muyassar bo‘ldi. Yaponiya, Xitoy, Hin- diston, Eron va Turkiyaning ilmiy markazlariga borib, ularning olimlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. 2004 – 2005-yillarda u O‘zbekiston Milliy universiteti “Manbashunoslik” kafedrasi mudiri va professori lavozi- mida, 2006-yilda esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika uni- versiteti, “Vatan tarixi” kafedrasi professori lavozimida ishladi.

Sh. Kamoliddinning navbatdagi muhim ilmiy ishi “O‘rta Osiyoning qadimgi turk joy nomlari” mavzusida bo‘ldi. Bu kitob 2006-yilda Tosh- kengda “Sharq” nashriyotida nashr etildi.3 Mazkur ishning ilmiy axhami- yati shundan iboratki, unda ilk bor Markaziy Osiyoning qadimgi turk joy nomlari tadqiq etilgan. Shu vaqtgacha turk joy nomlari mintaqada nisbatan keyingi davrlarda, o‘rta asrlarda tarqalgan deb hisoblanar edi. Kitobda ilk o‘rta asrlarga mansub arab va fors tilidagi manbalar, shuningdek qadimgi yunon, xitoy, arman, vizantiya va boshqa tillardagi manbalarda qayd etil- gan turk joy nomlari tahlil etilgan. Bu ma’lumotlar shundan dalolat bera- diki, qadimgi turk joy nomlari O‘rta Osiyoda kamida m. a. III – II asrlardan boshlab tarqala boshlagan, VI – VII asrlarga kelib esa ularning soni ancha ko‘payib, shimolda Balkash ko‘lidan janubda Xuroson va Hindistonning shimoli, sharqda Sharqiy Turkistondan g‘arbda Kaspiy dengizigacha bo‘l- gan hududlarda keng tarqalgan. Bu esa turkiy tilli xalqlarning bu hudud- larda qadimdan yashab kelganligidan dalolat beradi. 2010-yilda bu kitob ingliz tiliga tarjima qilinib, Germaniyadagi “Lambert Academic Publishing” nashriyotida bosib chiqarildi.4

2006-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida XIII asr arab tarixchisi Ibn al-Asirning “al-Komil fi-t-tarix” asarining ruscha tarjimasi ilmiy izohlar va sharxlar bilan nashr etildi. 5 Bu tarjimaning asosiy qismini uning ustozi P. G. Bulgakov amalga

3 Камолиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006. 223 с.

4 Shamsiddin Kamoliddin. Ancient Turkic Toponyms of the Middle Asia. Turkic Place-Names in Ancient and Medieval Textual Sources. Saarbrücken: LAP. 2010. 192 p.

5 Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории. Избранные от- рывки / Перевод с арабского, примечания и комментарии П. Г. Булгакова. До- полнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш. С. Камолиддина. Ташкент: Ўзбекистон, 2006. 560 с.

oshirgan bo‘lib, ishini oxiriga yetkaza olmasdan vafot etgandi. Sh. Kamoliddin uning ishini davom etdirib, tugatdi va nashr etdi.

Olim 2007 – 2019-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik insituti- ning “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida, 2019 – 2021-yillarda Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Gumanitar fanlar” kafedrasida, 2021 – 2023-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida professor lavozimida faoliyat olib bordi. Hozirda Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafed- rasi talabalariga manbashunoslik va tarixshunoslik fanlaridan taxsil berib kelmoqda.

Shu bilan birga u o‘z ilmiy izlanishlarida to‘xtab qolmadi. Xususan, arab va fors tillaridagi manbalarni tarjima qilish va nashr etish ishlari bilan shug‘ullandi. Bir qator ilmiy kitoblarni nashr ettirdi. Jumladan, 2011-yilda ikkita kitob, ya’ni birinchisi, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyotida X asr arab geograf olimi Ibn Havqalning “Surat al-ard” (“Yerning surati”) asarining o‘zbekcha tarjimasi ilmiy izohlar va sharhlar bilan nashr etildi.6 Ikkinchisi, Toshkentda SMI-ASIA nashriyotida X asr tarixchisi Abu Ja’far Narshaxiyning fors tilidagi “Buxoro tarixi” asarining ruscha tanqidiy tarjimasi ilmiy izohlar va sharhlar bilan chop etildi.7 2012-yilga kelib Sh. Kamoliddin ustozi P. G. Bulgakovning Abu Rayhon Beru- niyga bag‘ishlangan so‘ngi nashr etilmagan fundamental ilmiy ishini Ger- maniyadagi “Lambert Academic Publishing”da nashr etdi.8 Mazkur yilda olim yana Shimoliy Afgonistonda topilgan VIII asrga mansub arab tilidagi hujjatlarni ilmiy izohlar va sharhlar bilan Germaniyada nashr ettirdi.9 2014-yilda nasaflik mashhur qomusiy olim Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning “al-Qand fi zikr ulamo Samarqand” asaridagi tarixiy-geogra- fik ma’lumotlar tahliliga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotini nashr ettir- di.10 2017-yilda Ibn Havqalning “Surat al-ard” asaridagi Kaspiy dengizi atroflaridagi xalqlar va mamlkatlarga bag‘ishlangan qismining ruscha tarji- masini nashrdan chiqardi.11 Bu yilda yana “O‘zbekiston Milliy Ensiklope- diyasi” nashriyotida IX asr arab tarixchisi al-Balozuriyning “Futux al-buldon” asarining o‘zbekcha tarjimasi ilmiy izohlar va sharhlar bilan nashr etildi.12

---

6 Ибн Ҳавкал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннаҳр / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энцикло- педияси, 2011. 400 б.

7 Мухаммад ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары / Вступительная статья Д. Ю. Юсуповой. Перевод комментарии и примечания Ш. С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е. Г. Некрасовой. Ташкент: SMI-ASIA, 2011. 600 с.

8 Булгаков П. Г., Камолиддин Ш. С. Вселенная, Земля и Человек в трудах Абу Райхана Беруни. Аналитический свод избранных тематических фрагментов из сочинений Абу Райхана Беруни. Saarbrücken: LAP, 2012. 656 с.

9 Камолилдин Ш. С. Новые арабские документы из Тохаристана (третья чет- верть VIII в. н. э.). Текст. Перевод. Коментарии. Saarbrücken: LAP, 2012. 228 с.

10 Камолиддин Ш. С. Новый источник по исторической географии Средней Азии. Новейшие исследования сочинения «ал-Канд фи зикр ‘улама’ Самарканд» Абу Хафс Умар ибл Мухаммада ан-Насафи. Saarbrücken: LAP, 2014. 372 с.

11 Камолиддин Ш. С. Ибн Хаукал и его труд «Сурат ал-ард». Часть 1: Картина земли. Джурджан. Море ал-Хазар. Saarbrücken: LAP, 2017. 188 с.

12 Абу-л-‘Аббос Аҳмад ибн Йаҳйо ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон. Хуросон- нинг фатҳ этилиши / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: ТДШИ, 2017. 440 б.

Bulardan tashqari Sh. Kamoliddin boshqa olimlar bilan hamkorlikda “Buxoroda isloxot loyixasi”13, “Amir Temurning turkiy yorlig‘i”14, “Buxo- rodagi Arslonxon madrasasining vaqfnomast”.15 kabi manbashunoslikga oid kitoblarni nashr etgan. Ayniqsa uning shogirdlari bilan birga qilgan ishlari diqqatga sazovor. 2012-yilda Sh. Kamoliddin boshchiligida magist- ratura talabasi Muhayyo Mahmudovaning “Samarqanddagi Tamg‘achxon madrasasi vaqfnomasi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi asosida Ba- hodir Musametov bilan hamkorlikda kitob nashr etildi.16 2017-yilla esa Bahodir Musametovning “Ismoil Somoniy avlodlarining vaqfnomasi” mav- zusidagi magistrlik dissertatsiyasi asosida yana bir kitob nashr etildi.17

Sh. Kamoliddin o‘zining manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlarida nafaqat yozma manbalar, balki boshqa manbalardan ham keng foydalandi. Xususan, uning tarixiy xaritalarga oid ishlari diqqatga sazovor.18 O‘rta asrlarda Yevropada nashr etilgan bu xaritalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ularda “O‘zbekiya” va “O‘zbekiston” atamalari qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlarda “O‘zbekiston” atamasi 1924-yilda ruslar tomonidan o‘ylab topilmagani, balki tarixiy asosga ega bo‘lib, XVI – XVII asrlarda yozma manbalarda va xaritalarda butun O‘rta Osiyo mintaqasiga nisbatan keng qo‘llanilgani haqida so‘z boradi. Sh. Kamoliddinning oxirgi yillarda olib borgan eng muhim ilmiy ishlaridan biri Somoniylarning kelib chiqishi masalasidir. Uning bu masalaga bag‘ishlangan bir qator maqolalari va maxsus monografiyasi rus va ingliz tillarida nashr etilgan.19 Bu tadqiqot- larlarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ularda O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin egallagan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi g‘arbiy turk xoqonlarining oilasi bilan bog‘liq ekanligi isbotlangan. Bu esa o‘zbek dav- latchiligi tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga egadir.

Sh. S. Kamoliddinning oxirgi yillarda amalga oshirgan dolzarb va mu- him ilmiy tadqiqotlaridan yana biri “Qadimgi turklarlda dehqonchilik va shaharchilik madaniyati” mavzusidagi ilmiy loyiha bo‘lib, ushbu loyiha doi- rasida u “Qadimgi turklarda dehqonchilik va bog‘dorchilik”20, “Qadimgi turk- larda temirchilik va

13 Остонова Г., Маннонов Б., Камолиддин Ш. Проект реформ в Бухаре. Текст. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2015.

14 Остонова Г., Маннонов Б., Камолиддин Ш. Жалованная грамота амира Ти- мура. Гекст. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2015.

15 Камолиддин Ш. С., Чехович О. Д. Тяжба о вакфе мадраса Арслан-хана в Бухаре. Текст. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2015.

16 Камолиддин Ш., Махмудова М., Мусаметов Б. Два вакфа Тамгач Бугра-хана в Самарканде. Вакфные документы XI века на мадраса и дом больных в Самар- канде. Текет. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2012.

17 Камолиддин Ш. С., Мусаметов Б. Вакфные документы потомков Исмаила Самани. Текет. Перевод. Комментарии. Saarbrücken: LAP, 2017.

18 Камолиддин Ш. С. Две карты Средней Азии первой половины XVIII в. Новые источники по исторической этно-географии Средней Азии. Saarbrücken: LAP, 2012; Shamsiddin Kamoliddin. Two maps of Central Asia of the First Half of 18 Century. New Sources on the Historical Ethno-Geography of Central Asia. Saarbrücken: LAP, 2012.

19 Shamsiddin Kamoliddin. The Samanids. The First Local Islamic Dynasty of Central Asia. Saarbrücken: LAP, 2011; Камолиддин Ш. С. Саманиды: Из истории государ- ственности Узбекистана в IX – X вв. Saarbrücken: LAP, 2012.

20 Ш. С. Камолиддин. Земледелие и садоводство у древних тюрков. Ташкент: Extremum Press, 2015. 496 с.

hunarmandchilik”21 nomli ilmiy monografiyalar, va “Qa- dimgi turklarda shaharchilik madaniyati”22 nomli maqola nashr etdi. Endi esa u “Qadimgi turklarda shaharsozlik, me’morchilik va shahrchilik madaniyati” nomli ilmiy monografiya ustida ish olib bormoqda. Bu tadqiqotlarning shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turklarning hammasi ham ko‘chmanchilik hayot tarzi olib bormagan. Ularning bir qismi qadimdan o‘troq hayot tarzi olib borib, o‘zining boy dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik va shaharchilik madaniyatiga ega bo‘lgan.

Sh. Kamoliddin manbashunoslik va tarixiy geografiya sohalarida tad- qiqotlar olib borish bilan birga turli mavzularda xalqaro ilmiy to‘plamlarga masul muharrirlik qilib kelmoqda. Xususan, uning bugunga qadar Sug‘d tarixiga bag‘ishlangan to‘plamining 13 ta soni, Choch tarixiga bag‘ishlan- gan to‘plamining 12 ta soni, O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi masalalariga bag‘ishlangan to‘plamining 10 ta soni, Turkiston tarixi- ga bag‘ishlangan to‘plamining 4 ta soni nashr etilgan.23

Bundan tashqari Sh. Kamolidin o‘zining O‘rta Osiyo tarixiy geogra- fiyasi24 O‘rta osiyo toponomiyasi25 , O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi26, Turkiy xalqlarning tarixi va madaniyati tarixi27, O‘rta Osiyoda ilk islom davri tarixi28, O‘rta Osiyoda fan va madaniyat tarixi29, O‘rta Osiyo tarixi manbashunosligi30 masalalari bo‘yicha yuzlab yozilgan maqolalarini alohida to‘plamlar shaklida nashr etgan.31

Sh. Kamoliddin o‘zbek, rus, ingliz, arab tillarida jami 50 dan ortiq ilmiy monografiya va kitoblar, 400 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar nashr etgan. Ayrim maqolalari turk, turkman, xitoy va venger tillariga tarjima qilingan. Qolaversa, uning ilmiy rahbarligida tarixiy geo- grafiya, manbashunsolik va tarixshunoslik sohalarida o‘nlab nomzodlik, doktorlik dissertasiyalari yoqlandi.

---

21 Ш. С. Камолиддин. Металлургия и ремесленное производство у древних тюрков. В 2-х томах. Ташкент: Extremum Press, 2016 – 2017. 750 с.

22 Ш. С. Камолиддин. О градостроительной культуре у древних тюрков // Урбанизация и номадизм в Центральной Азии: история и проблемы. Материалы Международной конференции. Алматы: Дайк-Пресс, 2004. С. 354 – 373.

23 Mazkur to‘plamlar bilan quyidagi elektron manzil orqali tanishish mumkin: https://independentscholar.academia.edu/ShamsiddinKamoliddin/Books

24 Камолиддиш Ш. С. Исследования по исторической географии Средней Азии. Историко-кулгурные области. Города. Караванные пути. Saarbrücken: LAP. 2013.

25 Камолиддиш Ш. С. Исследования по исторической топонимии Средней Азии. Топонимы. Топоформанты. Этимологии. Saarbrücken: LAP, 2013.

26 Камолиддиш Ш. С. Исследования по этногенезу и этнической истории наро- дов Средней Азии. Народы. Династии. Лица. Saarbrücken: LAP, 2014.

27 Камолиддиш Ш. С. Исследования по истории и истории культуры тюрков Средней Азии. Кочевники. Земледельцы. Горожане. Saarbrücken: LAP, 2014.

28 Камолиддиш Ш. С. Исследования по истории Средней Азии. Эпоха арабских завоеваний и раннего ислама. Saarbrücken: LAP, 2014.

29 Камолиддиш Ш. С. Исследования по истории науки и культуры Средней Азии. Историки. Филологи. Поэты. Saarbrücken: LAP, 2014.

30 Камолиддиш Ш. С. Исследования по источниковедению истории Средней Азии. Рукописи. Документы. Сочинения. Saarbrücken: LAP, 2014.

31 Mazkur to‘plamlar va maqolalar bilan quyidagi elektron manzil orqali tanishish mumkin: https://independentscholar.academia.edu/ShamsiddinKamoliddin/Papers

2012-yildan boshlab “Moziydan sado / Echo of History”, 2016-yildan “Vodiynoma”, 2019-yildan “The Journal of Islamic Research” (Anqara, Turkiya), 2020-yildan “InfoLib”, 2022-yildan “Journal of Emerging Technology and Innovative Research” (Hindiston), 2023 yildan “Markaziy Osiyo tarixi / History of Central Asia”, “O‘zbe- kiston: til va madaniyat / Uzbekistan: language and culture” jurnallarining tahririyat a’zosi. 2011-yildan boshlab “Sogdiyskiy sbornik / Sogdian Stu- dies”, “Problemi drevney i srednevekovoy istorii Chacha”, 2016-yildan esa “Voprosi etnogeneza i etnicheskoy istorii narodov Sredney Azii” va “Tur- kiston to‘plami / Turkestanskiy sbornik / Turkistan Studies” nomli yillik xalqaro ilmiy to‘plamlariga mas’ul muharrir bo‘lib kelmoqda.

2010-yildan boshlab u “The Islamic Manuscript Association” (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya), 2012-yildan “The International Society of the Arabic Papyrology” (Leyden universiteti, Niderlandiya) xalqaro ilmiy jamiya- tlarining a’zosi bo‘ldi. 2023-yilda esa “Türk Tarih Kurumı” (Ankara, Turkiya) muxbir a’zosi etib saylandi.

Sh. Kamoliddin dunyoning turli mamlakatlarida o‘tkazilgan 50 dan ortiq xalqaro konferensiyalar, simpoziumlarda va seminarlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etgan. Xususan, Sant Endryus universiteti (Edinburg, Shot- landiya), Tokio Informatika instituti (Tokio, Yaponiya), Zurich universiteti (Zurich, Shveysariya), Cambridge universiteti (Cambridge, Buyuk Brita- niya), TIKA (Ankara, Turkiya), Xitoy Fanlar Akademiyasi Tarix instituti (Pekin, Xitoy Xalq Respublikasi), Xalqaro Turk Akademiyasi (Astana, Qo- zoqston) va Erasmus + (Yevropa Ittifoqi) ilmiy grantlariga sazovor bo‘lgan. Bir nechta xorijiy universitetlarda ma’ruzalar o‘qish va mahorat darslari olib borish ucun taklif etilgan. Xususan, AQSh ning Michigan Davlat universitetida ma’ruza o‘qigan (oktyabr 2017), Niderlandiyaning Leyden universitetida 2 ta ma’ruza o‘qigan va 1 ta mahorat darsi olib borgan (aprel 2018), AQSh ning Kaliforniya Devis universitetida ma’ruza o‘qigan (avgust 2018), Germaniyaning Hamburg universitetida onlayn ma’ruza o‘qigan (aprel 2025).

2025-yilning 20-noyabr kuni professor Shamsiddin Kamoliddin 70 yoshni qarshiladi. Uning tavalludi munosabati bilan Oriental universitetida “Turkis- ton ilk o‘rta asrlarda: tarix va tarixiy geografiya (VI – VIII va IX – XIII asrlar)” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim qadamlardan biri bo‘lgan ushbu anjumanda O‘z- bekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya va bosh- qa davlatlarning yetakchi ilmiy markazlaridan taniqli sharqshunoslar, tarix- chilar, professor-o‘qituvchilar hamda yosh tadqiqotchilar hamda Sh. Kamo- liddinning shogirdlari ishtirok etishdi. Mazkur anjuman Sharq va Turkiston mintaqasining ilk o‘rta asrlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda mada- niy jarayonlariga oid ilmiy masalalarni kompleks tadqiq etish, tarixiy geo- grafiya bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ilgari surish va ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlarni yangi metodologik bosqichga ko‘tarish maqsadida tashkil etildi. Anjuman davomida yozma tarixiy man- balarni tahlil qilish, arxeologik ma’lumotlarning ilmiy talqini, toponimika masalalari, davlatchilik model va tamoyillari, shuningdek, Turkistonning geosiyosiy o‘rni va uning tarixiy dinamikasi bo‘yicha ma’ruzalar tinglandi.

Xulosa qilib aytganda, Sh. Kamoliddinning boy ilmiy merosi va fido- yiligi butun ilmiy hamjamiyat uchun ulkan namuna bo‘lib xizmat qiladi.

УЧЕНЫЙ, ДАВШИЙ ВТОРУЮ ЖИЗНЬ ВОСТОЧНЫМ РУКОПИСЯМ

С. Т. Бекмурадов

Данная статья посвящена научной деятельности известного востоковеда, доктора исторических наук, профессора Шамсиддина Камолиддина. Он является автором более 50 научных монографий и книг, а также более 400 научных и научно-популярных статей на узбекском, русском, английском и арабском языках. На протяжении всей своей жизни он занимался и продолжает заниматься науч- ными исследованиями в таких областях, как источниковедение, историография, историческая география и картография Центральной Азии. Некоторые из его на- учных исследований и заключений имеют значение не только для изучения исто- рии Узбекистана, но и в мировой историографии, вызывая дискуссии среди мно- гих востоковедов. Ш. Камолиддин занимается также переводческой деятельнос- тью и за свою научную карьеру издал и ввел в научный оборот научно-коммен- тированные переводы ряда письменных источников и архивных документов по средневековой истории Центральной Азии, поэтому его, несомненно, можно назвать «ученым, давшим вторую жизнь восточным рукописям».

Ключевые слова: Павел Георгиевич Булгаков, Камолиддин Шамсиддин Сиро- жиддин оглы, «ал-Камил фи-т-тарих» Ибн ал-Асира, «Сурат ал-ард» Ибн Хаукала, «Футух ал-булдан» ал-Балазури, историческая география Южного Согда и Тохаристана, история Саманидов, земледелие и городская культура древних тюрков.

A SCHOLAR, WHO GAVE A SECOND LIFE TO ORIENTAL MANUSCRIPTS

Sanjar T. Bekmuradov

This article is dedicated to the scholarly works of the prominent orientalist, Doctor of Historical Sciences, and Professor Shamsiddin Kamoliddin. He is the author of over 50 scholarly monographs and books, as well as over 400 scholarly and popular articles in Uzbek, Russian, English, and Arabic. Throughout his life, he has pursued and continues to pursue scholarly work in such fields as oriental studies, historiography, translation of textual sourses, historical geography and cartography. Some of his scholarly research and conclusions are considered relevant not only in the history of Uzbekistan but also in world historiography, and have even sparked debates among many orientalists. During his career, Sh. Kamoliddin published scholarly commented translations of a number of sources

and archival documents on the medieval history of Central Asia, so he can undoubtedly be called “a scholar who gave a second life to oriental manuscripts”.

Keywords: Pavel Georgievich Bulgakov, Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin oglu, “al-Kamil fi-l-tarikh” by Ibn al-Athir, “Surat al-ard” by Ibn Hawqal, “Futuh al-buldan” by al-Baladhuri, Historical Geography of Southern Sogdiana and Tokharistan, History of the Samanids, agriculture and urban culture of the ancient Turks.

I SHO‘BA: TURK XOQONLIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

ПЕРИОДИЗАЦИЯ ЭТНИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Опыт приложения некоторых положений этнологической методики Л.Н. Гумилёва к этнической истории народов Средней Азии

Э.А. Ахунджанов, докт. ист. наук, проф.
Ташкентский государственный университет востоковедения
erkin@bk.ru +998935270847(телеграм)

Аннотация. *В тезисах на основе этнологической методики проф. Л.Н. Гумилёва рассмотрены вопросы этнической истории народов Средней Азии в средневековый период. Дана общая картина нового витка этногенеза после распада древних этносов Средней Азии. Утверждается что со времени правления первых местных тюркских династий здесь развивалась общность единого народа, говорящего на двух языках – тюрки и фарси.*

Ключевые слова: *язык, этногенез, эволюция, древних народов, интеграция, дифференциация, средневековый период, Средняя Азия, Туран, Туркестан Парфия, Бактрии, Хорезм, Согд, Кушан, Кангюй, Эфталиты государств, Сасаниды, Иран.*

Annotatsiya *Professor L.N. Gumilyovning etnologik metodikasi asosida tuzilgan tezislarda O‘rta Osiyo xalqlarining o‘rta asrlardagi etnik tarixi masalalari ko‘rib chiqilgan. Qadimgi O‘rta Osiyo etnoslarining parchalanishidan keyingi yangi etnogenez bosqichining umumiy manzarasi berilgan. Birinchi mahalliy turkiy sulolalar hukmronligi davridan boshlab bu yerda ikki tilda – turkiy va forsiy – so‘zlashuvchi yagona xalqning umumiyligi shakllangani ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *til, etnogenez, evolyutsiya, qadimgi xalqlar, integratsiya, differensiyatsiya, o‘rta asr davri, O‘rta Osiyo, Turon, Turkiston, Parfiya, Baqtriya, Xorazm, Sug‘d, Kushon, Kang‘yuy, Eftalit davlatlari, Sosoniylar, Eron.*

Abstract *In the theses, based on the ethnological methodology of Prof. L.N. Gumilev, the issues of the ethnic history of the peoples of Central Asia in the medieval period are examined. A general picture is given of a new stage of ethnogenesis after the disintegration of the ancient ethnic groups of Central Asia. It is asserted that since the rule of the first local Turkic dynasties, a common identity of a single people speaking two languages – Turkic and Farsi – developed here.*

Keywords: *language, ethnogenesis, evolution, ancient peoples, integration, differentiation, medieval period, Central Asia, Turan, Turkestan, Parthia, Bactria, Khorezm, Sogd, Kushans, Kangju, Hephthalite states, Sasanians, Iran.*

Анализ хода среднеазиатской истории первой половины I тыс. и.э. показывает, что после перехода древних народов Турана-Туркестана в постмемориальную фазу своего этногенеза и этнической истории, которая, по теории Л.Н. Гумилёва, характеризуется «утратой единства этнической

принадлежности и трансформацией культурной традиции, полным уничтожением этнических реликтов», социально Гуманитарная сфера жизни среднеазиатских народов пребывала в IV-VII вв. в состоянии глубочайшей депрессии. Такие поворотного характера исторические события в жизни состарившихся за последние 1800-2000 лет древних народов, как разложение государственности в Парфии, Бактрии, Южном Хорезме, Согде, распад Кушанского, Кангюйского, Эфталитского государств, Западного и Восточного Тюркского каганатов, а также падение Сасанидского Ирана (651 г.) под ударами арабских завоевателей, полное исчезновение к V в.н.э. парфянского языка, нарастающие в течение VI-IX вв. тенденции вытеснения и замещения старотюркским и новым фарси - дари - хорезмского языка в Хорезме, бактрийского в Бактрии, парфянского в Парфии, согдийского в Согде, зарождение на базе этнических реликтов новых субэтнических образований вес это взятое в комплексе свидетельствовало о системном политическом, этническом, социально-экономическом и в целом гуманитарном кризисе, охватившем не только Туран, но и Иран.

Обращение к фактам истории показывает, что в VII - начале VIII вв., т.е. в период непосредственно предшествовавший арабскому нашествию, земли Средней Азии были раздроблены на десятки мелких удельных княжеств. В частности, на юге, в долинах Сурхана и Шерабаддарьи, существовало государственное образование Чаганиан. Бухарское владение считалось полу самостоятельным государством во главе с правителями бухар-худатами. Кешская область (долина Кашкадарьи), земли Самаркандского оазиса входили в состав Согдийской конфедерации. Ташкентский оазис в политическом план находился в большей степени зависимости от Тюркского каганата: управлялся непосредственно ставленниками каганов - тудунами. В Ферганской долине существовало самостоятельное царство: правители носили титул царя Ферганы (Фраганик ихшид из согдийских источников). Именно в пост мемориальный период этнической эволюции и в условиях кризисного состояния государственности совершилось арабское завоевание и включение среднеазиатских земель в состав Арабского Халифата со всеми вытекающими последствиями, постепенной исламизации населения, повсеместного перехода на арабское письмо, изменений в образовательной системе, религии, культуре в целом.

После арабского завоевания туркестанские земли находились в составе Арабского Халифата около ста лет - со времени казни одного из предводителей антиарабской вооружённой борьбы согдийского царя Девашстича (722 г.) до восшествия на престол в Бухаре первой местной туркестанской династии Тахиридов в 821 г.

Системность постигшего народы Средней Азии в пост мемориальный период этнической истории кризиса означала проявление его не только на уровне социально-гуманитарной сферы, но и на популяционном уровне этносферы, совпав с началом нового витка этногенеза в Туркестане. Новый взрыв этногенеза зародился в недрах смешанного тюркоязычного и ираноязычного населения в 600-е годы и, пройдя инкубационный период

(600-900) фазы пассионарного подъёма на рубеже тысячелетий вступил в явный период фазы пассионарного подъёма (900-1200 гг.), затем четырёхсотлетнюю акматическую фазу этногенеза (1200-1600 гг.). Фаза надлома и резкого снижения пассионарности супэрэтноса приходится на 1600-2000 гг., инерционная фаза и плавное снижение пассионарности суперэтноса па 2000-2300 гг., фаза обскурации приходится на 2300-2500 гг.), мемориальная фаза на 2500-2700 гг.

Было бы слишком малопродуктивным и утомительным занятием простое перечисление около ста тюркоязычных и ираноязычных субэтнических образований Центральной Азии, Ирана и Аравии, что вместе с реликтами прежних древних парфян, бактрийцев, маргианцев, хорезмийцев, согдийцев, ферганцев и других этносов легли на протяжении I тысячелетия и первой половины II тысячелетия в основу вновь формировавшихся узбекского, таджикского, казахского, туркменского, кыргызского, каракалпакского и других этносов. Тем более что названия их приведены в специальных работах но этнической истории народов Средней Азии[32]. Подробному рассмотрению подвергнуты в них вопросы миграции и притока в Среднюю Азию многочисленных тюркских племён и субэтнических образований, начиная с середины II тыс. до н.э., вплоть до последней волны дашти-кипчакских племён в XVI-XVII вв. В работах К. Шониёзова и А. Аскарова мы насчитали 6 таких наиболее крупных миграционных волн и около десятка менее крупных.

Кроме периодически накатывавшихся на Туркестан тюркских миграционных волн, которые сами по себе, одним только фактом своего вторжения и присутствия, растягивали во времени и без того вялотекущие процессы этногенеза в силу отмеченной Л.Н. Гумилёвым монотонности и разнородности ландшафтов[33], в среднеазиатский плавильный котёл пародов вливались оседавшие в городах арабские завоеватели. Вместе с ними (образно говоря, на плечах арабов) в Туркестан мигрировали десятки тысяч ираноязычных хорасанцев из сопредельных областей Ирана. Вот как описывают процессы насильственного проникновения арабского и иранского элементов в период завоевательных походов в Туркестан в первой половине VIII в. авторы академического издания «История Узбекской ССР»: «Когда Кутейба в 709 г. завоевал этот город (речь идёт о Бухаре) арабы захватили там половину домов и полей. Часть шахристана от ворот базарных, или Аттаран (в южной части города), до ворот Нур (которые находились в его северной части) была отдана арабским племенам из группы рабиа и мудар. Много арабских домов находилось у ворот кухендиза, так как это было самое укреплённое место шахристана. Среди арабских племён, поселившихся в

[32] Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Т.: УзФАН, 1941.; Толстов С.Г1. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии // С.Э., 1947, № 6-7; Эрмагов М. Этногенез и формирование узбекского народа. Т., 1968.; Шониёзов К. Узбек халцининг шаклланиш жараёни Т.: Шарц, 2001. - 464 б.; Аскаров А. Узбек халцининг этногенези ва этник тарихи. Уцув цулланма. Т.: Университет, 2007, - 339 бет.

[33] «Там, где границы между ландшафтными регионами размыты и наблюдаются плавные переходы от одних географических условий и другим, процессы этногенеза будут менее интенсивны»: Гумилёв Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. М.: Мишель и К^0 , 1993. - С. 187188.

Бухаре, в источниках упоминаются племена бану-асад и бану сад (так назывались и двое ворот в шахристане Бухары в первой половине VIII в.). Ту же картину насильственного проникновения арабского элемента в состав городского населения мы наблюдаем в Самарканде и в некоторых других городах. Внедряясь в шахристаны, арабы представляли в них не только новый господствующий слой, но и новый этнический элемент. Вместе с арабским завоеванием шло и перемещение некоторой части населения Хорасана в Согд и в другие области Средней Азии. В составе арабского войска, завоевавшего Мавераннахр, было немало мавали (клиентов) из числа хорасанцев. Часть этих хорасанцев по окончании походов оседала в шахристанах Средней Азии»34.

Общую картину этнической истории в Туркестане последних тысячи двухсот лет дополняет анализ процессов этногенеза основоположника этой теории Л.И. Гумилёва: «В Средней Азии VII в. жили согдийцы, а термин «таджик» ещё в VIII в. значил «араб», т.е. воин халифа. Наср ибн Сейяр в 733 г., подавляя восстание согдийцев, был вынужден пополнять свои редевшие войска хорасанскими персами, уже принявшими ислам. Набрал он их много, и потому персидский язык стал господствовать в его арабской армии. После победы, когда мужчины-согдийцы были убиты, дети проданы в рабство, а красивые женщины и цветущие сады поделены между победителями, в Согдиане и Бухаре появилось персоязычное население, похожее на хорасанцев35. Но в 1510 г., судьбы Ирана и Средней Азии разошлись. Ираном овладел тюрк Измаил Сефеви, ревностный шиит, и обратил персов в шиизм. А Средняя Азия досталась узбекам-суннитам, и жившее там персоязычное население сохранило старое наименование «таджик», чему до падения бухарской династии Мангытов в 1920 г. никакого значения не придавалось. Когда же в бывшем Туркестанском крае были образованы Узбекская и Таджикская республики, то потомки хорасанских персов, завоевателей VIII в., жившие в Бухаре и Самарканде, при переписи записались узбеками, а потомки тюрок, завоевателей XI и XVI вв., жившие в Душанбе и Шахрисабзе - таджиками. Оба языка они знали с детства, были мусульмане, и им было безразлично, как их запишут. За последние 40 лет (сегодня это уже около 100 лет - Э.А.) положение изменилось: таджики и узбеки оформились в социалистические нации, но как рассматривать их до 20-х годов, когда религиозная принадлежность определяла этническую (мусульмане и кафиры), а родов у таджиков не было?. И ведь оба этнических

34 История Узбекской ССР. С древнейших времён до середины XIX в. Т., Фан, 1967. - С. 308. «Мавали (единственное число «маулла»), то есть клиенты, вербовались или из тех же арабов, или из представителей покоренных народов, перешедших в ислам, которые становились под покровительство какого-либо арабского племени, выполняли определенные обязательства и, прежде всего, несли военную службу. Было бы однако неправильным считать, что из мавали набирались только пехотинцы и изредка конники; в ряде случаев они поднимались до очень высокого положения. Например, Хаян ан-Набати, один из наиболее выдающихся маула, был главой иранского отряда в составе арабского войска. Взоры арабов были обращены на всю территорию Средней Азии, особенно на богатые земли Согда, Тохаристана, Чаганиана (владение в бассейне Сурхандарьи) и Хорезма». Там же, С. 184-185).

35 Гумилёв Л.Н. Древние тюрки. М., 1967. С. 359-360.

субстрата: тюрки и иранцы были в Средней Азии «импортными» этносами тысячу лет тому назад, срок, достаточный для адаптации. Видимо, здесь действует определённая закономерность, которую надлежит вскрыть и описать. Но ясно, что общность происхождения не может быть индикатором для определения этноса, потому что это – миф, унаследованный нашим сознанием от примитивной науки первобытных времён»36.

Виртуозное владение собственной авторской этнологической методикой и материалом, динамикой исторических фактов и неожиданно вольное, но в пределах логики исследования обращение с ними наряду с нестандартными неупоминаниями промежуточных выводов на пути к аналитическим обобщениям и умозаключениям не делают «парадоксов друга» Л.Н. Гумилёва менее точным, убедительным и понятным. Ответ на поставленный им вопрос, как рассматривать до 20-х годов XX столетия потомков хорасанских персов (вкупе с арабскими переселенцами) и тюрок, напрашивается сам с собой: эта турано-туркестанская мозаичная общность многочисленных субэтносов прошла за тысяча двухсотлетний период VIII-XIX вв. длительный путь взаимоассимиляции, смешения и скрещивания, интеграции и дифференциации, взаимопереходов, не только па языки друг друга, • но и этносы. Рассчитать с математической точностью все эти названные процессы при современном уровне развития вычислительной техники наверное возможно, хотя для этого и потребовалось бы громадное количество показателей, параметров, сведений социально-гуманитарного и даже антропологического и этногенетического порядка. Но тогда это граничило бы с абсурдом и находилось за гранью общепринятых норм морали. Одно можно сказать с определённостью: уже со времени правления первых независимых политически и экономически от Халифата местных тюркских династий общность эта развивалась как один народ, говорящий на двух языках - тюрки и фарси с незначительными языковыми, диалектными, этнографическими, антропологическими различиями и, конечно же, с медленно развивавшимися различиями на этническом уровне. На протяжении всего Средневековья и вплоть до устроенного большевиками в Туркестане с целью его расчленения так называемого «национально-государственного размежевания» эта общность функционировала без каких-либо существенных различий в культуре, быте и образе жизни (за исключением различий между городом и деревней), обычаях, обрядах, в изобразительном, музыкальном, народно-прикладном искусстве, народных промыслах, ремесле, в книжно-информационной культуре.

На всем протяжении 1200-летнего периода VIII–XIX вв. народы Туркестана являлись частью, подсистемой гигантского арабо-ирано-тюркского суперэтноса, системы, издавна именуемой в науке «мусульманским культурным миром». Переходный период от зороастризма к исламу, в процессе которого наряду с преемственным развитием культурных традиций произошло значительное их изменение по форме и содержанию,

36 Гумилёв Л.Н. Этногенез и биосфера земли. М.: Мишель и К°:, 1993. - С. 59-60.

что определило собой новую ментальность пародов Туркестана, появление нового типа личности и общества, унаследовавшего все позитивное и рациональное в старой культуре и вобравшего в себя через принятие ислама и новую образовательную систему содержание новой мусульманской культуры, означал в то же время и трансформацию авестийско-тенгрианского культурного мира и типа культуры в новое качество. Совершился их переход в такое качественно иное состояние, при котором осуществилось совмещение еще не отживших свой век традиционных народных, авестийских и тенгрианских по духу и сути культурных традиций и системы ценностей культуры мусульманства, произошла естественная в тех социально-исторических условиях постепенная трансформация культуры местных народов в мусульманский на основе взаимоприемлемого синкретизма и взаимопроникновения элементов авестийского и тенгрианского типов, их дальнейшее преемственное развитие уже при верховенстве принципов и установок ислама. Именно таковым был в средневековом Туркестане тип культуры в его чистом виде: мусульманским по форме и содержанию, но в значительной степени обогащенным и впитавшим в себя естество, суть и дух традиционной народной культуры автохтонного ираноязычного и тюркоязычного населения. Поэтому мы можем утверждать, что в историческом плане туркестанское средневековье было (с учетом оснований культуры местных народов и их традиционной народной культуры) единой социокультурной эпохой с господствующей в обществе мусульманской идеологией, общими мусульманскими этическими, эстетическими, правовыми, морально-нравственными нормами и установлениями, системой ценностных ориентаций, схожим образом жизни, религиозным и мифологическим сознанием масс, повседневными культурными традициями и народными обычаями, преемственностью поколений, с социальной дифференциацией и связанной с ней борьбой различных идеологических и культурных течений. Культура средневекового туркестанского общества, (формы общественного сознания и социальные институты прошли все этапы эволюции от подъема и зрелости в IX – XVII вв. до застоя и разложения в XVIII – XIX вв. Господствовавшие в социуме способ производства и распределения материальных благ определяли характер форм существования и движения культуры общества.

Хотя положение о неразрывности мышления и языка имеет ключевое значение для становления этнического самосознания, общепринята все же неправомерность признания языка (как и антропологических, этнографических и т.п. данных) индикатором пределов этнической истории. Между тем факт двуязычия на бытовом уровне только усиливал возможности межэтнической интеграции внутри среднеазиатского общества. Процессы эти шли интенсивнее конечно же вокруг и внутри больших городов, где в новых условиях прежние племенные различия теряли значение. Этническая самоидентификация на протяжении почти всего среднеазиатского Средневековья вообще была весьма слабо выражена. Люди позиционировали себя как представителей земли Туран, Туркестан, или по

месту рождения, хотя параллельно с этим многие помнили и своё родоплеменное происхождение. Последнее относится исключительно к тюркским субэтносам. Если подняться над бытовым уровнем, то, например, любители познавательного и интеллектуального чтения не разделяли авторов и их произведения строго по этническому, языковому или тем более национальному признаку. Вся письменная литература на тюрки, фарси и арабском языках воспринималась как атрибут одного культурного феномена - единой мусульманской культуры.

Таблица фаз этногенеза народов Средней Азии в Средневековье и в Повое время

Фаза этногенеза пли фазовый период	**Возраст этноса, лет**	**Периоды и даты**
Пассионарный тол чо к	-	V в. н.э.
Инкубационный период фазы пассионарного подъема, образования нового этноса	300	600-900
Явный период фазы пассионарного подъема, начало перехода к акматической фазе	300-600	900-1200
Акматическая фаза этногенеза - образование суперэтноса и распространение его в пределах своего ландшафтного ареала	600-1000	1200-1600
Фаза надлома, резкое снижение пассионарности суперэтноса	1000-1400	1600-2000
Инерционная фаза, плавное снижение пассионарности суперэтноса	1400-1700	2000-2300
Фаза обскурации, резкое снижение пассионарности, разрушение системных связей	1700-1900	2300-2500
Мемориальная фаза - утрата единства эти и ческой принадлежности и трансформация культурной традиции. Полное уничтожение этнических реликтов	1900-2100	2500-2700

ДРЕВНЕТЮРКСКИЕ ТИТУЛЫ В СВЕДЕНИЯХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК» МАХМУДА КАШГАРИ

Источниковед Кубатин Андрей Викторович

Аннотация: В данной статье дан анализ сведений, касающихся древнетюркской государственности, в том числе, системы титулов, занявших место в произведении “Диван лугат ат-Турк” Махмуда Кашгари.

Ключевые слова: “Диван лугат ат-Турк”, древнетюркские титулы, традиции государственности, Тюркский каганат, Караханиды.

Аннотация: Мазкур мақолада Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит Турк” асаридаги қадимги турк давлатчилигига, шу жумладан, унвонлар тизимига оид маълумотлар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: “Девону луғотит Турк”, қадимги турк унвонлари, давлатчилик анъаналари, Турк хоқонлиги, Қорахонийлар.

Abstract: This article analyzes the information presented in Mahmud al-Kashgari’s “Dīwān_Lughāt al-Turk” about the ancient Turkic statehood, particularly the system of titles.

Keywords: Dīwān Lughāt al-Turk, ancient Turkic titles, statehood traditions, Turkic Khaganate, Qarakhanids.

В эпоху Тюркского каганата (VI-VIII вв.) и до конца следующего за ним тысячелетия в системе титулов десятков тюркских и нетюркских государственных объединений степных районов Евразии наблюдается наличие некоторых общих эталонов. Такое положение было характерно не только для государственных объединений с ведущим положением в верованиях и идеологии древнетюркских традиций, но и для тюркских государств, где поочередно господствующей идеологией были буддизм и манихейство, а позже, ислам. В частности, в Караханидском каганате, который являлся тюркским мусульманским государством, продолжала использоваться практически без изменений система титулов, присущая древним тюркам.

Одним из важных и надежных источников, в котором нашли свое отражение древнетюркские титулы, употреблявшиеся в эпоху Караханидов, является произведение Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-Турк», которое донесло до нашего времени бесценные лингвистические, этнографические, фольклорные, географические, исторические сведения о тюркоязычных этносах региона. Так, в произведении Кашгари заняли свое место следующие древнетюркские титулы и термины, связанные системой титулов эпохи Караханидов, позволяющие получить представление о социальной структуре общества того времени:

alp – «храбрый» .

alpağut – «богатырь, силач».

at – «титул». *bek aŋar at berdi* «правитель присвоил ему титул». Знатного человека называют *atlïğ*.

arslan – «лев». Этим словом называли царей.

ayağ – «титул».

begäč – так называют тегинов, например, *begäč arslan tegin*. Когда это слово произносят с тонким *к* (т.е. *г*), это значит «о маленький правитель», т.е. уменьшительное от «правитель», которое употребляют из нежности или сочувствия. Слово *bek* произносят с тонким *к* (т.е. *г*).

bek – «правитель».

bilge – «мудрый», «ученый», «умный». … *bilge bek* так называли человека: «ученый, умный, мудрый правитель». Хана Уйгур называли *kül bilge xan* «с умом, подобным озеру». *bögü bilge* «умный». Он уподобляется водным источникам по изобилию.

bïruq – так называют человека, который рассаживает знать согласно рангам при царском дворе. Это [слово] образовано от *buyruq* «приказ», т.к. он приказывает.

boğra – «верблюд-самец», отсюда и произошло имя *Boğra xan*'а.

bögü – «ученый, мудрец, разумный». Существует парное сочетание *bögü bilge* .

budrač – имя одного из вождей *Йабаку*, они покорились мусульманам во времена *Begäč Arslan Tegin'*а.

čaŋšï – имя правителя *Ҳутан*, благодаря которому был завоеван этот город [*Ҳутан*]. Говорят, что это измененное *Джамшид*.

čawuš – «тот, кто выстраивает отряды к битве и предотвращает бесчинства со стороны войска».

čuğlan – имя, которое носили некоторые из карлукских вождей.

čupan – «помощник деревенского старосты».

čuwğa – в кипчакском и огузском наречиях: «вожак, поводырь».

čuwï – титул, которым именуют тех, кто на две ступени ниже *хакана* согласно иерархии Ҳутан. И у тюрок существует подобная иерархия.

irkin suw – «вода (или др.), собравшаяся в одном месте». Отсюда карлукских вождей называют *kül irkin*, имея в виду, что ум их глубок, как полный водоем.

ïnal – так называют юношей, у которых мать *хатун*, а отец из простолюдья.

ïnanč – «надежный». Отсюда титул: *ïnanč bek* «надежный правитель».

kök yuq – титул, присваиваемый старейшинам и знати у Туркман.

ögä – титул умного, возмужалого, умудренного жизнью человека из народа, по чину следует за *тегином*.

ordu – «резиденция царя». *ordu bašï* называют личного прислужника царя.

qadïr – «тиран, жестокий (о царе)», отсюда титул одного из ханов *Хаканиййа – qadïr xan*….

qara – «что-либо черное». Так называли царей *ал-Хаканиййя*: *boğra qara xaqan*, об этом есть история.

qatun – титул всех дочерей и продолжательниц рода *Афрасийаба*.

qïlïč – «меч». … У *Хаканиййа* это почетный титул. *qïlïč xan* – «хан, решимость и поступки которого тверды как меч». ….

qunčuy – «женщина благородного происхождения, по рангу ниже, чем *хатун*. Говорят *qatun qunčuy*.

qutluğ. qutluğ näŋ – «что-либо благословенное». Есть такое мужское имя.

sağun – титул вождя у Қарлуқов. *ata sağun* – у тюрок: «лекарь».

tarïm – обращение, которое используют по отношению к взрослым и юным принцам [*ат-такакин*] и принцессам [*ал-хаватин*], являющимся потомками *Афрасийаба*. Ни к кому другому, кроме потомков *Хаканиййа*, так не обращаются, каким великим ни был [этот человек]. *altun tarïm* – обращение к принцессам.

tarxan – языческое слово, обозначающее «правитель» в наречии Аргу.

tawğač – …. [Этим словом] именуют царей: *tawğač xan* «великий» или «древний царь».

tayaŋu – слово, изначально обозначавшее «служитель, привратник». Позднее когда распространилось [арабское] слово *хаджиб*, оно было вытеснено. В его основе – форма *tayandï*, т.е. «он опирался». Царь опирается на служителей, и подданные его опираются на них, чтобы передать ему свои прошения, затем он на них отвечает.

teber – (так называют) двоих сыновей царя Кипчаков *Inal Uz'*а.

tegin – «слуга», в исходном значении. *kümüş tegin* «чистый, как серебро, слуга». *alp tegin* «сильный слуга». *qutluğ tegin* «благословенный слуга». Позднее это слово стали применять как особый титул для сыновей *хаканитов*, используя его в паре с названием одной из хищных птиц, например, *čağrï tegin* «тегин, подобный соколу в своей мощи», *küč tegin* «сильный тегин». Это слово было перенесено со слуг на сыновей *Афрасийаба*, потому что они почитали своих отцов и каждый раз, обращаясь к ним устно или письменно, говорили или писали: «Ваш слуга сделал то-то и исполнил то-то», проявляя смирение и почтение к своим отцам. С тех пор это слово стали связывать с ними, а имена для слуг продолжали употреблять в сочетаниях со словами, которые указывали бы на их явное отличие [от тегинов].

tegit – множественное число от *tegin*. Вначале это слово значило «раб». Позднее же оно стало титулом для сыновей *ал-Хаканиййя*. Это неправильная форма множественного числа. *öge tegit* «старшие среди простых людей и младшие среди потомков кагана». [Эти слова] употребляются в паре: *öge tegit*.

terken – обращение к *ал-Хаканиййя*, которые правят областями. Это слово употребляется лишь по отношению к тем, кто принадлежит к истинным *ал-Хаканиййя* и является правителем. Оно означает: «О, повелитель».

toğrïl – «хищная птица, которая убивает тысячу уток, а съедает лишь одну». Ее именем называют мужчин: *toğrïl*.

toŋa – «тигр», т.е. тот, кто может убить слона, таково первоначальное значение. Но у тюрок это слово сохранилось в измененном значении, его часто используют как титул: *toŋa xan, toŋa tegin* и т.п. Великого царя тюрок *Афрасийаба* называли *toŋa alp er* «храбрый и (сильный как) тигр, человек».

tuδun – «деревенский староста, распределитель воды»; *tuδun* – «распределитель воды среди жителей деревни».

tutuq – мужское имя.

tüksin – звание третьей степени, присваиваемое царем подданному.

xan – «самый великий из царей». Так называют тех, кто принадлежит к роду *Афрасийаба*, т. е. *ал-хакан*.

yağan – «слон», в одном из двух вариантов. Так называют и человека: *yağan tegin*.

yawğu – звание подданных, стоящих на две ступени ниже *хакана*.

yuğruš – «подданный, имеющий титул вазира у тюрок», по отношению к персам и прочим этот титул не применяется, даже если они и пользуются большим уважением. Он [т.е. обладатель этого титула] на одну ступень ниже *хакана*. Он получает черный шелковый навес, который носят над его головой в дождь, снег и жару.

Как видно из приведенного выше материала, большинство приведенных у Махмуда Кашгари терминов, связанных с системой титулов, являются исконно тюркскими и имеют свои параллели с Тюркским каганатом. В частности, это касается таких терминов, титулов и эпитетов, как *alp, alpağut, at, arslan, bek, bilge, bïruq* (в Тюркском каганате – *buyruq/buyuruk*)*, bögü, čawuš* (в Тюркском каганате – *čabïš*)*, irkin, ïnal, ïnanč, kül, ögä, qara, qatun, qunčuy, qutluğ, sağun* (в Тюркском каганате – *saŋun*) *tarxan* (в Тюркском каганате – *tarqan*)*, tayaŋu, teber* (в Тюркском каганате – *elteber*)*, tegin, toŋa, tuδun* (в Тюркском каганате – *tudun*)*, tutuq, xan, yağan, yawğu* (в Тюркском каганате *yabğu*).

При этом немаловажен тот факт, что «Диван лугат ат-Турк» Махмуда Кашгари понятие "титул", как и в эпоху Тюркского каганата, передается через термин *at*. Так, в письменных памятниках Второго Восточно-Тюркского и Уйгурского каганатов мы можем увидеть следующие выражения, где слово *at* использовано именно в значении "титул":

türk bäglär türk atïn ïttï, tabğačqï bäglär, tabğač atïn tutupan, tabğač qağanqa körmiš - Тюркские беки сложили (с себя) свои тюркские имена (т.е. звания и титулы) и, (Тюркские) беки (находящиеся) на услужении у Табгачей (Китая), приняв табгачские (китайские) титулы, подчинились кагану Табгачей (Китая); *bars bäg erti qağan at bunta biz birtimiz* Барс был беком, мы здесь (или: при тех обстоятельствах) даровали (ему) титул каган; *Töläs, Tarduš budunuğ anta etmiš. Yabğuğ, šadïğ anta bermiš* тогда же он дал устройство (т.е. управление крыльями) народам *Töles* и *Tarduš* и назначил тогда *yabğu* и *šad*а"; *inänču apa yarğan tarqan atïğ birtim – (ему) я даровал титул инанчу апа йарган таркан*; *qağan atïğ bunta biz birtimiz* - мы здесь (или: при тех обстоятельствах) даровали (ему) титул каган; *atsïz ...]qa at birtim* – не имеющим титула я даровал титул; *šad atïğ anta bermiš boltuqda toquz oğuz t[1]g[2] yağï ärmiš bädük ärmiš* – и тогда дал звание шада; после этого девять бегов (?) огузов были врагами, были значительными; *alpïn ärdämin üčün apa tarqan čïqan toñuquq atïğ bermiš* – за храбрость и доблесть я даровал (ему) титул *апа таркан чыкан тоньюкук*; *eki oğlïma jabğu šad at birtim tarduš, töläs bodunqa bertim* - двум моим сыновьям я дал титулы ябгу и шад, я дал (их в правители) народам Тардуш и Толес"; *täŋridä bolmïš el etmiš bilgä qağan el bilgä qatun, qağan atïğ qatun atïğ atanïp* – тенгриде болмыш эль этмиш бильге (Небом рожденный, устроивший державу, мудрый) каган, эль бильге (Державы мудрая) катун, назвались титулом каган и титулом катун.

Кроме того люди, имеющие титул, как видно, обозначались термином *atlïğ* – «именитый, знатный, имеющий титул», что можно видеть на примере следующего выражения из стелы Бильге-кагана: *kičig atlïğïğ ulğartdïm* – я

возвысил имеющих малые титулы. О том, что знатных именуют *atlïğ*, пишет в своем произведении и Махмуд Кашгари.

Термин *at* в значении «титул» употребляется также в произведении другого автора эпохи Караханидов Юсуфа Хас Хаджиба. Так, в подтверждение этого можно привести следующие стихотворные строки из его произведения «Кутадгу билиг»: *ata ornï atï oğulqa qalïr* – имя (должно титул – *А.К.*) и положение отца достаются сыну; *atïm qul tapuğčï kör ornum qapuğ* – звание мое раб-прислужник, место мое – у двери; *qayu kök ayuqluq üzä at alur* – некоторые же приобретают имя благодаря смиренности (если исходить из контекста, то здесь имеется в виду титул); *ya ol at bulup aš berür yatïŋa* – или же он, удостоившись титула, устраивает пир для других (; *bu has hacib atïn tegürmiš muŋa* – ему дал титул хас-хаджиба /он назвал его хас-хаджибом; *bu ol atqa tegmiš tapuğ qïlğučï* – вот он, удостоенный звания (~титула) служитель.

Таким образом, сведения «Диван лугат ат-Турк» позволяют говорить о том, что в эпоху Караханидов, несмотря на принятие ислама, продолжали существовать древнетюркские традиции государственности, в том числе и система титулов, характерные для Тюркского каганата.

Литература

1. Айдаров Г. *Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века.* – Алма-Ата: Ғылым, 1971. – С. 336, 347.
2. Беруний Абу Райҳон. *Китоб ал-Ҳинд* (матн таҳлили учун қаранг: Lagaturman – the Last Turk Shahi Ruler based on Beruni's "Kitab al-Hind").
3. Кашгари, Маҳмуд. *Диван лугат ат-Турк* / Пер. З-А.М. Ауэзовой, индексы Р. Эрмерса. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – С. 80 (далее: ДЛТ).
4. Кочнев Б.Д. *Нумизматическая история Караханидского Каганата (991–1209). Ч. I: Источниковедческое исследование.* – М.: София, 2006. – С. 28–31.
5. Малов С.Е. *Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии.* – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 10, 36, 40.
6. Малов С.Э. *Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования.* – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1951. – С. 37–38.
7. Tekin, T. *Orhon yazıtları. Kül Tigin, Bilge Kağan, Tunyukuk.* – İstanbul: Sanat Kitabevi, 2003. – S. 40–43, 54, 66–67, 76.
8. User, H.Ş. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı yazıtları. Söz varlığı incelemesi.* – Konya: Kömen Yayınları, 2009. – S. 294–295.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. *Қутадғу билиг (Саодатга йўловчи билим).* Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи: Қ. Каримов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 58, 59, 107; 144, 622, 682.
10. Древнетюркский словарь / Под ред. В.М. Наделяева, Д.М. Насилова, Э.Р. Тенишева, А.М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – С. 64–65.

TURK VA TURKISTON ATAMASINING TARIXI VA GEOGRAFIYASI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA.

A'zamova Mahliyo Panji qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: azamovamahliyo@9gmail.com
Orcid 0009-0003-5364 861X

Anotatsiya: Ushbu maqola “Turk” va “Turkiston” atamalarining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va geografik qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Miloddan avvalgi yozma manbalar, o‘rta asr arxeologik topilmalari, numizmatik dalillar hamda tarixiy xaritalar asosida ushbu atamalarning semantik taraqqiyoti tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar solishtirilgan holda, “Turkiston” atamasining etnik va madaniy kontekstda qanday shakllangani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turon, Turkiston, Transoksiana, Movarounnahr, Al-Haytal, Bilod al-Turk, Al-Ajam, Vorarud, O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo, o‘zbek, Tatariya.

Аннотация: Статья посвящена историографии использования термина «Туркистон». На основе данных историографии в хронологическом порядке анализируются труды античной эпохи, средневековья, царского периода, советского времени, периода независимости, а также работы зарубежных исследователей. В статье выделяются изученные аспекты термина «Туркистон», а также те его стороны, которые остаются недостаточно исследованными и требуют дальнейшего научного рассмотрения.

Ключевые слова: Туран, Туркестан, Мавераннахр, Моворауннахр, Аль Хайтал, Билад ат Тюрк, Аль Аджам, Ворарyд, Средняя Азия, Узбек, Тарария.

Abstract: This article is devoted to the historiography of the use of the term "Turkiston". Based on the foundations of historiography, the article analyzes works from ancient times, the Middle Ages, the Tsarist era, the Soviet era, the period of independence, and foreign researchers in chronological order. It highlights which aspects of the term "Turkiston" have been studied, and which remain open and require further research.

Keywords: Turan, Turkistan, Transoxiana, Movarounnahr, Al-Haytal, Bilad al-Turk, Al-Ajam, Vorarud, Central Asia, Uzbek, Tarariya.

Kirish

Turkiston atamasining qadimiy ildizi qanchalik chuqur ekanligi hali ham muhim tadqiqot masalalaridan biridir. Bu atama ilk o‘rta asrlardan boshlab turli tarixiy davrlar va hududiy chegaralar bilan talqin qilingan. Turkiston nomi ko‘proq qadimiy manbalarda, jumladan buyumlarda uchraydi. Nemis sotsiologi Alfred Veber bu atamaga izoh berishni murakkab va oson emasligini ta’kidlagan. Mazkur maqolada Turkiston atamasi bo‘yicha turli olimlarning qarashlari, tadqiqotlari yoritiladi. Turkiston hududi tarix davomida turli davlatlar – ayniqsa turk qabilalari tomonidan shakllantirilgan, rivojlangan va ba’zan yo‘qolgan, keng xilma-xillikka ega mintaqa sifatida namoyon bo‘lgan. Maqolamizda Turkiston atamasining tarixiy va zamonaviy tushunchalari yuzasidan fikrlarni bayon etish orqali ushbu sohadagi yangiliklarni izlab topishga intilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Turon-Turkiston hududini bronza chog‘idan hozirgacha qanday nomlar bilan atalishi juda ahamiyatli hisoblanadi. Dastlab qadimgi va o‘rta chog‘larga tegishli manbalardan foydalanildi. Avesta, Regvida, arxeologik manbalar. Bu mavzu yuzasidan izlanish olib borgan olimlar va ularning tadqiqotlari bilan tanishib chiqildi va tahlil qilindi. Bu borada taniqli olimlar Bartold V. V, Asqarov A,

Ahmedov A, Is’hoqov M, Kamoliddin Sh, xitoyshunos Xo‘jayev A va turkolog, Boboyorov G‘ kabilar tadqiqotlar olib borgan bo‘lishlariga qaramay, ushbu masala bo‘yicha haligacha munozarali qarashlar mavjud[Ўринбоев А.1960.84-85]. Bundan tashqari, chet ellik olimlarning asarlaridan ham foydalanildi. Sims Williams[Sims Williams. 2016.262-266], yapon olimi Y. Yoshida[Бобоёров Ғ.2015.17-24], eronshunos olim R. Fraylar[Фрай Р. 2002] Turon atamasi haqida o‘z asarlarida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

“Turk”, “Turon” va “Turkiston” atamalarining qadimiy ildizlari “tur” xalqiga borib taqaladi. Ushbu atamalar haqida ko‘plab munozaralar mavjud. Mazkur maqolaning maqsadi “Turkiston” atamasining dastlab qaysi davrdan qo‘llanila boshlaganligini yoritishdan iborat.

Qadimgi va o‘rta asr davri manbalariga ko‘ra, Turon mamlakatiga nom bergan turklar haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlar “Avesta” asarida uchraydi (Avesta, 2017). Fransiyalik tarixchi va arxeolog Frants Grene “Turon” va “Turkiston” atamalarining ildizlarini Avesto bilan bog‘laydi. Uning fikricha, Turon nomi ushbu hududda yashagan turlar yoki turyalar bilan bog‘liqdir (A’zamova M.2025). Xitoy tarixchilari “tele” atamasini “turo” deb ham atashgan, bu esa “tur” so‘zining ko‘plik shakli sifatida qaraladi (Хўжаев А.2001.11). “Turk” etnonimining Xitoy manbalarida yozilishi esa quyidagicha: miloddan avvalgi II-mingyillikda “tiek (di)”, miloddan avvalgi I-mingyillikda “tiauk (turk)”, III-V-asrlardan keyin “tieklik (turklik)”, VI-asrdan keyin esa “tietkiuat (turk)” shaklida qayd etilgan (Хўжаев А.2024.453).

Germaniyalik tarixchi Frans fon Shvars, Turkistonda chor Rossiya hukumatiga 15 yildan ortiq xizmat qilgan davrida, “Turkiston” atamasining ilk shakllarini tadqiq qilgan. Uning fikricha, mazkur atama miloddan avvalgi VII mingyillikdan to milodiy II asrgacha bo‘lgan davrda “Turkistanak” shaklida qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin. Bu nom Eron va Arman adabiyotlarida milodiy VI asrdan boshlab keng tarqalgan.

Ushbu fikrni tasdiqlovchi manbalardan biri – VIII asrda yashagan arman tarixchisi Muso Xorenskiyning geografik asaridir. Unda “Turkistanak” atamasi qadimgi yunon manbalarida uchraydigan “Skitiya” atamasiga muqobil tarzda ishlatilgan. Ayniqsa bu nom hududning shimoliy qismini anglatgan.

Muso Xorenskiy "Turkistanak" hududining chegaralarini ham ko‘rsatadi: g‘arbda Etil (hozirgi Volga) daryosi, sharqda Imaos (Tyanshan) tog‘lari, janubda esa So‘g‘diyona (Xuroson) – hozirgi Transoksiana mintaqalarini qamrab olgan. (J.Marquart.157-170)

Turkiston hududining nomlanishi uzoq tarixiy rivojlanish – evolutsion jarayonlarni bosib o‘tgan. Qadimgi yunon manbalarida, xususan miloddan avvalgi IV–III mingyilliklarga oid yozmalarda, Amudaryo “Ox” (yoki “Oks”) nomi bilan tilga olingan. Keyinchalik esa, aynan shu daryodan shimolda joylashgan hududlar “Transoxiana” deb atalgan. Bu atama yunon tilidan olingan bo‘lib, “Oks daryosining narigi tomoni” degan ma’noni anglatadi.

Xitoy manbalarida "Xi-yu" (ya’ni “G‘arbiy o‘lka”) atamasi miloddan avvalgi II mingyillikdan boshlab uchraydi. Mazkur atama ilk bor xitoy tarixchisi Sima

Syan (miloddan avvalgi II asr) tomonidan yozilgan mashhur “Tarixiy xotiralar” (“Shiji”) asarida tilga olingan. Asarda “G‘arbiy o‘lka” hududlari va u yerda yashovchi xalqlar haqida muhim ma’lumotlar bayon etilgan bo‘lib, bu manba keyinchalik turli tarixiy va madaniy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. [Хўжаев А.2001.11].

Arab manbalarida Turon va Turkiston hududlari “Movarounnahr” – ya’ni “daryoning (Amudaryoning) narigi tomoni” deb atalgan. Shuningdek, arab tarixchilari va geograflari turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarni umumiy holda **al-Ajam** (“begona”, “g‘ayriarab”) atamasi bilan ifodalaganlar. Bu nom arablar tomonidan o‘zga tilli va o‘zga madaniyatga mansub xalqlarni tasvirlashda keng qo‘llanilgan bo‘lib, ayniqsa Eroniy va Turkiy xalqlarni umumlashtirishda ishlatilgan. (Камолиддин. III. С.2023.109-bet).

Forslar “Movarounnahr” atamasini o‘z tillariga tarjima qilgan holda ba’zan “Vorarud” yoki “Varojayhun” – ya’ni “daryoning orqa tomoni” deb ataganlar. Bu atamalar, asosan, Amudaryo (Yayhon) daryosining geografik o‘rniga asoslanib shakllangan. Arab geograflaridan biri – X asr olimi al-Muqaddasiy o‘zining mashhur asarida Turon mintaqasini “al-Haytal” deb ataganini ko‘rish mumkin. Bu nom arablar tomonidan Eftaliylar (qadimgi Xaytalliklar)ga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, al-Muqaddasiyning 1897-yilda nashr etilgan asarida bu holat aniq qayd etilgan [Al-Muqaddasiy, 1897, s. 98]. Demak, arablar davrida faqatgina *Movarounnahr* atamasi emas, balki ushbu mintaqani ifodalash uchun boshqa nomlardan ham foydalanilganini kuzatish mumkin. Masalan, X asrda *al-Haytal* atamasi islom dinini qabul qilgan turk xalqlari yashagan hududlarga nisbatan qo‘llanilgan. Bu nom arablar tomonidan Eftaliylar davlati va undan keyingi turkiy aholiga ega mintaqalar bilan bog‘liq tarzda ishlatilgan. XI asrga kelib esa mashhur olim Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida “Bilād al-Turk” (“Turklar yurtlari”) atamasini “Turon” mintaqasining sinonimi sifatida qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Beruniyning yondashuvi bu davrga kelib turkiy xalqlar islom dunyosida muhim o‘rin egallaganini va ularning yashash hududlari geografik nomlar tizimida alohida o‘rin olganini anglatadi.

“Bilād al-Turk” atamasi islom dinini qabul qilmagan turk xalqlarining yashash hududlariga nisbatan ishlatilgan. Ushbu atama ostida qaysi geografik mintaqalar tushunilishi mumkinligi haqida savollar tug‘iladi. Bu hududlar haqida Mahmud Qashg‘ariy o‘z asarida quyidagicha tasvir beradi: “Bilād al-Turk” Xazar dengizidan boshlab, hozirgi Rossiya hududlarigacha bo‘lgan keng maydonlarni o‘z ichiga oladi [Mahmud Qashg‘ariy, 1963, 463-bet]. O‘rta asr manbalarida “Turkiston” so‘zining qo‘llanilishi va uning geografik chegaralari turlicha talqin qilingan. Bu atama mintaqaning siyosiy, madaniy va etnik holatiga qarab turli davrlarda farq qilgan.

Arab sayyohi Ya’qubiy o‘zining “Kitob al-Buldon” (891-yil) asarida “Turkiston” so‘zini bevosita ishlatgan. U Turkiston chegaralarini Idil (hozirgi Volga) daryosidan boshlab, Tangri tog‘larining sharq tomonigacha bo‘lgan hududlar bilan chegaralagan. Ya’qubiy “Turkiston” atamasini Siyiston atrofi uchun ishlatgan bo‘lib, bu hududga shuningdek hozirgi Zarafshon daryosining yuqori

oqimi, Pomir, Qora Tigin va Dushanbe hududlari ham kirganligini tasvirlab beradi (Ya’qubiy, 295-bet).

Xitoy manbalarini chuqur o‘rgangan Bichurin o‘z asarlaridan birida xitoylarning Turkiston haqidagi qarashlarini quyidagicha ifoda etgan: “Xazar dengizidan Kuhinor (Qohinor) tog‘igacha bo‘lgan hududlarda joylashgan ko‘chmanchi bir qavm yashaydi. Ushbu qavm turk tilida so‘zlashadi va Muhammad qonunlariga (Islom diniga) ishonadi. Bu odamlar o‘zlarini ‘Turk’ deb ataydilar va yashayotgan hududlarini ‘Turkiston’ deb nomlashadi” (Xo‘jaev A., 2024, 453-bet).

“Turkiston” yoki arabcha nomi bilan *Movarounnahr* atamasi aslida “daryoning narigi tomoni” degan ma’noni anglatib, asosan Amudaryo daryosining narigi qirg‘og‘idagi hududlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Ba’zan bu atama o‘ziga xos tarzda Xurosondan aniq ajratilgan va Amudaryo tabiiy chegaralar vazifasini bajaruvchi markaziy geografik unsur sifatida ko‘rsatilgan (Bartold, 1971, 263-bet). Shuningdek, o‘rta asr adabiyotida, jumladan, X asrga tegishli “Shohnoma” dostonida Eron va Turon chegarasi sifatida Amudaryo ko‘rsatilgan. Bu tasvir hozirgi Turkmaniston hududining geografik va tarixiy jihatdan Turon (Turkiston) va Xuroson o‘rtasidagi muhim chegara sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Turkmaniston hududi ko‘pincha Xuroson va Movarounnahr mintaqalari kesishgan hududi sifatida ham qaralgan.

Natijada, Turkmaniston hududi tarixiy jihatdan *Movarounnahr* tarkibida bo‘lib, “Turkiston” atamasi doirasiga kiradi. Bu hududning ko‘plab tarixiy manbalarda alohida e’tibor bilan tilga olinishi uning geografik ahamiyati va turkiy hamda iran xalqlari madaniyati kesishgan markaz ekanligidan dalolat beradi.

“Turk” va “Turkiston” atamalarining XI asr hamda arxeologik manbalardagi qo‘llanilishi. XI asrda, ayniqsa Chingizxon avlodlariga nisbatan “turk” atamasining qo‘llanilishi keng tarqalganligini Rashididdin “Jome at-tavarix” asarida ko‘rish mumkin. U mo‘g‘ullar orasida yashovchi turklarni “mo‘g‘ul turklari”, “mo‘g‘ullar orasida yashovchi turklar” yoki “mo‘g‘ullashgan turklar” deb ta’riflab, ularning etnik va madaniy o‘ziga xosligini ta’kidlagan. Bu terminologiya turkiy xalqlarning mo‘g‘ullar bilan siyosiy va madaniy aloqalarining murakkabligini aks ettiradi.

Shuningdek, “Turkiston” atamasi nafaqat yozma manbalarda, balki arxeologik topilmalarda ham uchraydi. Hozirgi kunga qadar eng qadimiy yozma manbalar orasida bu atamaning dastlabki uchrashi Sosoniy sulolasiga oid bitiklarda qayd etilgan. Ushbu bitiklarda geografik nom sifatida “Turiston” shaklida – ya’ni “turklar mamlakati” ma’nosida qo‘llangan (Kamoliddin Sh., 2002, 61–68-betlar). Bu variant atamaning dastlabki shakli bo‘lib, keyinchalik “Turkiston” shakliga evolyutsiyalashgan.

“Turiston” nomining “Turkiston”ga o‘zgartirilishi tarixi haqida Sh. Kamoliddin o‘z asarida shunday ta’rif beradi: Eftaliylar davrida (V asr) hamda turkiylarning (VI–VIII asrlar) tarixida bu atama “Turkiston”, ya’ni “turklar mamlakati” degan ma’noni anglatgan [Kamoliddin, 2002, 61–68-betlar]. V–VI asrlarga oid Kesh hududida topilgan tangalarda tik turgan kamonchi va hukmdorning boshi tasvirlangan bo‘lib, ularda sug‘d tilida “Turk” yoki “Turak”

degan yozuvlar mavjud edi. Ushbu tangalar muomalada bo‘lgan va turkiy-sug‘d madaniyatining muhim yodgorliklaridan hisoblanadi.

VI–VIII asrlarga oid turk-sug‘d tangalarining bir guruhi alohida e’tiborli bo‘lib, ularda turkiy yuz qiyofasiga ega hukmdor tasvirlangan va “To‘rak hukmdori” yoki “Turon hukmdori” yozuvi tushirilgan [Kamoliddin, 1996, 15-bet]. Bu topilmalar “Turkiston” atamasining qadimiy tarixiy manbalarda nafaqat yozma, balki arxeologik tasviriy ifodalar orqali ham o‘z aksini topganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, “Turiston” atamasi dastlabki shaklidan “Turkiston”ga evolyutsiya qilib, tarixiy manbalarda turk xalqlari va ularning siyosiy markazlari bilan bog‘langan geografik nom sifatida mustahkam o‘rin olgan.

Shu tarzda, xorijiy tadqiqotlar ham “Turkiston” atamasi va unga aloqador tarixiy-geografik tushunchalarning shakllanishi, rivoji va talqinini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turkiston atamasi tarix davomida turli davr va manbalarda turlicha shakllarda qo‘llanilgan bo‘lib, uning hududiy chegaralari ham doimiy ravishda o‘zgarib kelgan. Bu holat atamaning murakkab tarixiy-geografik va etno-madaniy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Turkiston atamasining zamirida, shak-shubhasiz, “tur” etnonimi yotadi. Ushbu maqolada qadimdan – miloddan avvalgi I mingyillikdan to zamonamizgacha – O‘zbekiston hududining geografik nomlanish tarixiga oid manbalar tahlil qilindi. Ayniqsa, Turon va Turkiston atamalari bizning tarixiy xotiramizda chuqur ildiz otgan, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Shuningdek, bu kabi nomlarning kelib chiqishi faqat yozma manbalar bilan emas, balki arxeologik topilmalar orqali ham ishonchli tarzda tasdiqlanmoqda. Tangalar, bitiklar va toponimik yozuvlar tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab afsona va rivoyatlarda uchraydigan Turon atamasi ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas – u xalq xotirasida saqlanib qolgan tarixiy haqiqatning ramziy shaklidir. Bu atamaning tub mohiyati, avvalo, o‘z tarixiy identifikatsiyamizni aniqlashtirishda, tarixiy xotirani tiklashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A’zamova M. Turkistonning tarixiy hududiy chegaralari va fikriy yondashuvlar// Tamaddun nuri jurnali.-2025.-B 379
2. A’zamova M. Turon geografik joy nomining manbalarda keltirilishiga doir ba’zi mulohazalar // International Journal of Science and Technology. -2025.-B 196.
3. Al-Muqaddasi. The best divisions for knowledge of the regions translated by prof. Basil Collins: -1897.-B.98.
4. Avesto .-2017.
5. Is’hoqov M. Nomi azal – Turkiston / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi.-1993.-№ 45–46.–B.1–5.
6. Ömer Faruk. Öztürk ibn battûta [er-rihle], ibn fadlân [er-risâle], el-girnâtî [tuhfetu’l elbâb ve nuhbetu’l acâb] ve ibn havkal [sûretu’l arz] seyahatnamelerinde türk figürü. Istanbul: - 2019 йил.-B. 19.

7. J.Marquart. Eransahr.-B. 157-170
8. Sims-Williams.N. Dictionary:Christian Sogdian, Syriac and English.2016.–B.262–266.
9. V. Minorsky. A Greek Crossing on the Oxus', Bulletin of the School of Oriental and African Studies.1967.-B. 46.
10. Zeki Velidi Togan.Turk-Turkiston.1960. -B.9.
11. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк.Қ. Маҳмудов.-Тошкент.-1992 йил.15-16-бет.
12. Бартолъд В.В.Работы по Исторической географии и истории Ирана.-Москва.1971.-263-стр.
13. Бобоёров Ғ. Ғойибов Б. Кубатин А. Ўрта аср Самарқанд тангаларида 'Турон' топоними // Археология Ўзбекистонда. Самарқанд.-2015. -№2 [11-сон].-B.17-24.
14. Бобоёров Ғ. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси мақоласи//Oyna. Тошкент.- 2004.-B.3-4.
15. Камолиддин Ш. С. Марказий Осиё тарихи замонавий тарихшунослик-гида ёндашувлар.-Тошкент. 2023.-117-бет.
16. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони[Девону луғат-ут турк].-Тошкент.1963.- 463-бет.
17. Смирнова О. И. Очерк из истории Согда.- Москва.-1970.
18. Тур //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. 632-бет.
19. Ўринбоев. А.Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси. Тошкент.-1960. 84-85 бет
20. Фирдавсий.Шоҳнома. [Биринчи китоб]. Форсийдан Ш.Шомуҳаммедов таржимаси. Тошкент.-1975.-316-bet, ayniqsa 50-60-oyatlar.
21. Фрай Р. Наследие Ирана. Москва.-2002.
22. Хўжаев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги манбалари. Туркистон Хитой ёзма манбаларида. – Тошкент: Фан, 2024.-453 bet
23. Хўжаев А. Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. Тошкент.-2001.-11-бет.
24. Хўжаев.А. Комилжон Хўжаев. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши.- Тошкент. 2001.-B. 11.
25. Ш.С.Камолиддин. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по Арабоязычным источникам IX -начала XIII вв.-Тошкент.-1996.-15 стр.

ТУРКИЙ ҚАБИЛАЛАРИНИНГ СУЛОЛАЛАРИ ВА ДАВЛАТЧИЛИГИ ВАСФИ ИБН АЛ-АСИРНИНГ "АЛ-КОМИЛ ФИТ-ТАРИХ" АСАРИДА

УДК. Тож…9+902+908+39(575.3)+58

Одинаев Наим Абдулҳафизович
Тожикистон давлатчилик педагогий университети
Садриддина Айни номида, тожик халқи тарихи кафедрасини асперанти.
Адрес 734003, Душанбе шаҳри, Рудакий кўчаси 121. Тел: (+992)501850188,
G-mail: odinaevnaim760@gmail.com

Аннотация: Туркнажод қабилаларининг сулолалари ва давлатчилиги васфи Ибн ал-Асирнинг арабий “Ал-Комил фит-тарих” асарида Турк Хоқонлиги ҳукмронлиги бошланғич давридан, Қорахонийлар давлатлари баён этилган. Туркий қабилалар Ўрта Осиё юртларида, ҷумладан Қошғар, Хутан, Боласоғун, Тароз, Суёб, Самарқанд, Бухоро ва бошқа минтақаларда ҳукмронлик қилганлар. Ҳукмронлик даврлари тақрибан 551-552 йиллардан 1211-1212 йилларгача давом этган.

Калид сўзлар: Ибн ал-Асир, “Ал-Комил”, тарих, тарихчилар, Турк-Хоқонлиги, Қарлуқ, Қорахонийлар, давлатчилик, Қошғар, Боласоғун, Самарқанд ва Бухоро.

Аннотация: Упоминание о династиях и государственности тюркских племён в арабском труде «Ал-Камил фит-тарих» Ибн аль-Асира начинается с правления тюркских каганат и охватывает государства Караханидов. Тюркские племена правили на территориях Средней Азии, включая города Кашгар, Хотан, Баласагун, Тараз, Суяб, Самарканд, Бухара и другие регионы. Их правление охватывает период приблизительно с 551-552 годов до 1211-1212 годов.

Ключевые слова: Ибн аль-Асир, “Аль-Камиль”, история, источник, Тюркское-Каганати, Карлук, Караханиди, государства, Кашгар, Баласагун, Самарканд и Бухара.

Annotation: The mention of the dynasties and statehood of Turkic tribes in the Arabic work “Al-Kamil fit-tarikh” by Ibn al-Athir begins with rule of the Turkic Khagans and covers the states of the Karakhanids. The Turkic tribes ruled the territories of Central Asia, including the cities of Kashgar, Khotan, Balasagun, Taraz, Suyab, Samarkand, Bukhara and other regions. Their rule lasted approximately from the years 551-552 to 1211-1212.

Keywords: Ibn al-Asir, “Al-Kamil”, hitori, historical, Turkic-Khaghans, Karluk, Karakhanids, states, Kashgar, Balasagun, Samarkand and Bukhara.

Ибн ал-Асирнинг асари ҳамчун араби манбаъ “Ал-Комил фит-таърих” бўлиб, бугунги тарихчиларнинг айтишларича 555ҳ,қ\1160м йилда туғилиб, профессор Шамсиддин Камолиддин шундай келтирган: “4-инчи ҷимодил уло 555ҳ.қ\13-инчи май 1160м деб келтиради”.[16:8-9] 630\1234 йилда эса вафот этган.[34:38-39] Ибни Халликон ҳам шу йилнинг таъкидлаган.[18:3\349] Бугунги Тарихчилар Ибн ал-Асирни араб миллати ва баъзи бошқалари эса курд[27:234-238] деб айтишган.

Ибн ал-Асирнинг “Ал-Комил фит-таърих” китоби қимматбаҳо умуми таърихлардан бўлиб, Турк Хоқонлиги, Қарлуқ Хоқонлиги, Қорахонийлар давлари зикр этилиб, муаллифнинг ҳаётини охирига яқин яъне 628\1231 йилгача келтирилган. Ибн ал-Асирнинг “Ал-Комил фит-таърих” асари ва бошқа араб-форс манбаларидан олинган маълумотлар бугунги илмий-тарихий китоблар билан таҳлил қилинганга кўра, бу мазкур маълумотлар кўплаб асарлару китобларда назарга тушади.

Ибн ал-Асирнинг тарихи ёзувлари мумтоз шевалардан бўлиб, унинг асари бошқа тарихчилар ва мусалмон ёзувчилардан арзандароқ кўринади.[28:1\8\23] Ибни Имод унинг муаррих, адиб ва насабшунослик

илмини билувчи деб тарифлайди.[17:5\937] Ал-Комил фит-тарих Ибн ал-Асирни машҳур асаридан бири бўлиб, Тош Купризода Мифтоҳ ус-Саода ва Мисбоҳ ус-Сиёда, китобида уни кўп яхши асар деб таъкидлайди.[30:236] Ибни Ҳаҷари Асқалони ёзишича: “Ал-Комил фит-таърих тарихларни беҳтарини бўлиб унда забт, очиқ ёзма ва воқеаларни мушаххас қилган”.[19:33]

Турк сулолалари VI аср ўртуларида Турк Хоқонлиги номи билан катта бир давлат қурдилар, тарихчилар ёзишича шундай келтирилган: “Турк авлодларидан бири Ашин бўлиб, уларнинг Ашина турклари деб аташган, ки унинг набераси Бумин (Тумин) 551 йили ўзининг Турк Хоқони деб эълон қилган.[3:255] Бошқа муаррихларнинг айтишига қараганда Турк Хоқонлигини ташкил қилиш учун 550-551 йиллари Туркум Улук Ябғунинг ўғли яъне Бумин қавму қабилаларини Истамилар билан бирлаштириб, Турк Хоқонлигига асос солган.[1:31] Гумилев Л.Н. ёзишидан маълум, ки Истами Хоқон (Ябғу) Бумин Хоқоннинг энг кичик укасидур.[10:34] Турк Хоқонлигини VIм асрни иккинчи яримида Чоч-да ташкил топиб, Истами Ябғу-Хоқон таин бўлган.

Турк Хоқонлиги ташкил қилиниши билан бирга Фарс давлати яъне Сосониларнинг подшоҳи Хусрав I-Анушервон замонига тўғри келади. Бу тўғрисига Ибн ал-Асир шундай келтиради: “Форс подшоҳи Турк Хоқонига нома ёзиб, дўстлик ва бирга бўлишни хоҳлади, ва қизига совчи жўнатиб хешу таборликни истади ва ҳар бирлари қизларини бирларига узатишти”.[12:441] Хусрави Анушервон ва Турк Хоқони бирбирлари билан дидор қилишди.[12:441] Ибни Асир айтишидан маълум бўлади, ки шу муомила сабаби Сосонилар подшоҳи ва Турк Хоқони икки миллатнинг яқинлашиши зикр этилган.

Аслан Турк Хоқонлиги 551-552 йилдан 603 йилгача давом берган, кейин икки гуруҳга тақсим бўлган. Шарқий Турк Хоқонлиги 603 йилдан 744 йилгача ва Ғарбий Турк Хоқонлиги 603 йилдан 742 йилгача ҳукмронлик қилганлар.[1:28-89] Турк Хоқонлиги даврида мансабий вазифалар 28 таси маъмурий вазифа бўлиб, 5 таси олий мансаб, шу каби: Хоқон, Ябғу, Шад, Тегин, ва Тудун аммо 23 таси пасроқ амалдорлар вазифаси сифатида фаолият қилганлар, шу каби: Элтабар, Хатун, Тутуқ, Тархон, Чўр, Эркин, Чабиш, Ихшид, Афшин, Хвабу, Хутав[5:26,6:51-52 ва 30:62] ва бошқалар зикр қилинган.

Бу мавзулардан бизга маълум бўлди, ки Турк Хоқонлиги VI аср ўртасидан VIII аср ўрталаригача ҳукмронлик қилаганлар. Шу қаторда рус туркшунослари ёзишича Қарлуқларнинг бошлиқлари 709 йиллари Тахористонда бўлиб, араблар томонидан Қутайба ибни Муслим 737 йил қатл қилинган, ва у Ҷабғу номи билан Табарийнинг асарида баён этилган.[11:143] Ва у Ябғу, VIII асрнинг иккинчи яримида (118\736) Тахористон бошчилиги уҳдасида бўлиб, Кишм шаҳрида яшар эди.

Турк Қабилалари бир неча гуруҳга тақсим бўлиб, хилмахил хислатлари бор эди, ҷумладан: “Нек симороқ, баланд қомад ва покизароқ ҳамадан Хазлуҷлар яъне Қарлуқлар Фарғона, Шош ва у ноҳиялар атрофида яшаб,

подшоҳлик уларга хос эди, Хоқон-ул-Хавоқин яъне Хонлар Хони бу қабиладан ва ҳама турк мамлакатлари шуларнинг атрофида бўлиб, ва турк подшоҳлари ундан итоат қилишарди. Турк Афросиёбе, ки Эронга ғолиб бўлди шу Хоқонлардан бўлиб, шу қабиладан эди".[20:1\129-130] Шундан маълум бўлади, ки Қарлуқлар Турк миллатлари ичида катта мақомга сазовор эдилар ва ўзларига хос ўрин топганлар. Қарлуқлар Турк қабилаларининг бири бўлиб, Қарлуқ Хоқонлиги номи билан 756 йилдан 840 йилгача ҳукмронлик қилганлар. Қарлуқ калимаси араби шаклида Ибн ал-Асирнинг асарида шундай келтирилган: " القارغلية-القارلغية" қорғулийя ва қорлуғийя, яъне қарлуқлар.[15:11\82-85]

Қорахонийлар сулоласи тўғрисида Ибн ал-Асирнинг ёзишича Қошғар ва Туркистон турк қавмларининг марказларидир ва Қашғар Туркистоннинг буюк шаҳарларидан бири бўлиб ва Мовароуннаҳр Турк Хонлари мамлакати ва улар мусалмон бўлиб Афросиёб наслидан ҳисобланади. Ва ислом келтирган сабаби боболари Сабуқ Қаро Хоқон (Сатук Буғрохон) бўлиб, уларнинг Ал-Қорғулийя ё Ал-Қорлуғия деб аташарди.[15:11\82-83]

Байҳақи шундай келтирган: "Қорахонийлар, Эликхонийлар ё Оли Афросиёб турк-қарлуқ силсилаларидан бўлиб, узоқ муддат Мовароуннаҳру Шарқий Туркистонда ҳукмронлик қилганлар".[4:111] Лубоб ул-Албоб асарининг муаллифи Муҳаммад Авфи ҳам шундай деган: "Мовароуннаҳр Хон ва Подшоҳларини Хокония, Илакхония ва Оли Афросиёб дейишган ва уларнинг салтанати Мовароуннаҳрда Сомонийлардан кейин ва Муғуллардан олдин қариб 230 йил, 380 то 609 йилигача бўлиб Султон Алоуддин Муҳаммад Хоразмшоҳ томонидан барҳам берилган".[22:1\301] Аслан Қорахонийлар давлатдорлиги 840 йилдан то 1212 йилигача давом берган, яъне 372 йил ҳукм сурганлар.[35:57-58]

Бу қабилалар ўрта асрларда Хоқонийлар, Қорахонийлар ва Илакхонийлар давлати номи билан машҳур бўлиб, 840 йилдан то 1212 йилларгача ҳукм сурганлар. Улардан араб-форс манбалари туркийзабон туркумларни қўйидаги номлар билан зикр этганлар Хоқонийлар,[24:46] Хонийлар,[2:5] Оли Афросиёб Қорахонийлар ва Илақхонийлар аммо улардан кўпчилиги қарлуқ турклари деб атаганлар. П. Омелчон ҳам Қорахонийларни қарлуқ туркларидан деб атаган.[26:1\30] Ш. Камолиддин айтишича: "Қорахонийлар сулоласи қарлуқлардан деб келтирилган".[33:44]

Ислом динини келтирганларидан кейин, биринчи буюк исломий туркий силсиласини қурдилар, улар Қорахонийлар ё Илакхонилар эди. Буғрохон ва Арслонхон ҳам Қорахонийларнинг ҳукмдорларига мансуб бўлиб, тангаларини юзига тамға урилиб буюк ва олий мафҳумини билдиради.[21:741] Абулқосим Фурузонӣ шундай ёзади: "Қорахонийлар Фароруд-Мовароуннаҳр туркий мусалмонларини биринчи силсиласининг асосчисидур. Исломни қабул қилганлар орасида биринчи бўлиб Сатук Буғрохон эди".[31:12] Буғрохоннинг бошланғич ҳукмдорлиги 315 бўлиб, мусулмонлик номи Абдукарим қўйилган эди.[25:335-337] Академик В. В. Бартольд шундай келтиради: "Хонзодалардан-Қорахонийлардан биринчи

бўлиб ислом келтирган киши Сатук Буғрохон-Абдукарим 344\955-956 йили вафот этган”.[7:26]

Кейинги қорахонийлар ҳукмдори Томғажхон Абумузаффар Иброҳим ибн Наср Илакхон, Имодуддавла лақаби билан Самарқанд ва Фарғонага ҳукм сурган.[13:9\300] Арслонхон Шаристонда кўплаб уйлар сотиб олди, жомеъ масжид қалъага яқинроқ қурдирди. Ва манора ҳам баланд қилиб кутарди ва унга ўхшаш бу атрофда йўқ эди. Арслонхон ўзининг холис шахсий маблағидан пишиқ ғиш билан жомеъ масжид 515\1121 йилда қурди.[23:100] Ҳамда у шаҳарлар Арслонхон ибн Юсуф Қадархоннинг мулки ҳисобланарди, ва ундан кейин мамлакат унинг ўғли Маҳмуд Буғрохонга тегишли бўлди, ва у Тароз ва Шош шаҳарларига ҳам ҳукм сурди. Ва Маҳмуд Буғрохоннинг ўлимидан кейин унинг укаси Туғралхон ибни Юсуф Қадархонга тегди. У бу йер ва Балосоғунга эга бўлиб, 16 йил подшоҳлик қилиб кейин вафот этди”.[13:9\302]

Қадирхон Ҷабраил ибн Умар Туғрулхон Самарқанд амири, Наршахӣ унинг Бухоро амири деган бўсаҳам, вале Ибн ал-Асир унинг Самарқанд соҳиби деб таъкидлаган. У 1102\495 йилда султон Санжар салчуқий томонидан қатл қилинган.[14:10\347-348] Ибн ал-Асир давомида 1102\495 Қадирхон вафотидан кейин Самарқанд подшоҳлиги Арслонхон Муҳаммад ибни Сулаймон, онаси Маликшоҳ Салчуқининг қизи ва отаси Сулаймон ибн Довуд Буғрохон Қорахоний бўлиб, подшоҳлик тахтига ўтирди.[14:10\350]

Ибн ал-Асир 536\1141-1142 йилларда Туркистон ерларини шундай шарҳлайди: “Туркистон Қошғар, Балосоғун, Хутан, Тароз ва ғайри шаҳрлардан иборат бўлиб, қўшни ерларидан Мовароуннаҳр ҳудудлари туркон хонлари мулки ва улар мусалмон бўлиб, Афросиёб турк насли дандир”.[15:11\82] Абумузаффар Юсуф Арслонхон Қошғарий рачаб ойининг 601\феврал ойининг 1205 йилда вафот этиб, унинг ўғли Абулфатҳ Муҳаммад Арслонхон ибн Юсуф Арслонхон ибн Муҳаммад Арслонхон ибн Иброҳимхон ибн Аҳмад Арслонхон ибн Ҳасан Тафғачхон ибн Сулаймон Арслонхон ибн Юсуф Қадирхон[8:280] ва у Абулфатҳ Муҳаммад Арслонхон 607\1211 йили муғуллар ва қорахитойлик Гурхон томонидан қатл қилинган.

Нусраттуддин Қилиҷ Арслон Усмон охирги Мовароуннаҳр Хони 600 ҳукмдори ва 609 йилда яқинлари билан Султон Муҳаммад Хоразмшоҳ томонидан қатл қилинган.[22:1\302] Бу Қарохони подшоҳ Усмон Улуғ Султон бўлиб, 1212 йили Хоразмшоҳ томонидан ўлдирилгани маълум бўлади. Бошқа манбаларга кўра Арслонхон 1221\618 йилда ҳаётда бўлиб,[32:1\52,125] суннати унвони билан қарлуқ хонадонидан Фарғона хони Арслонхон Хоразмшоҳнинг қатлиомидан қутулиб, Йеттисувда панагоҳ топган.[9:164]

Фойдаланган адабиётлар

1. Азимхўжа Отахўжаев. Илк ўрта асрлар марказий осиё цивилизациясида турк-суғд муносибатлари. Тошкент, 2010 м. С, 31.
2. Амир Мозии Нишопурӣ. Куллиёти девон. Бо тасҳеҳи Муҳаммад Ризо Қанбарӣ. Техрон, 1385 ҳ, ш. саҳ, 5.

3. Аҳмадали Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш таърихи. Тошкент, 2015м. С, 255.

4. Байҳақӣ Абулфазл Муҳаммад. Таҳияи матн Сайфуллоҳи Муллоҷон. Таърихи Байҳақи. Душанбе “Бухоро”,-2014 м. Саҳ, 111.

5. Баратова Л. С. Древтенюркские монеты Средней Азии VI-Хвв. – Ташкент, 1995. С, 26.

6. Баратова Л. С. Турк хоқонлиги ва унинг Ўрта Осиё давлатлари билан ўзаро алоқалари. Токент-Шарқ, 2001. С, 51-52.

7. Бартольд. В. В. “Очерк истории семиречья”. Фрунзе, 1943 м. Саҳ, 26.

8. Беляев Е. А. Араби, ислом и Арбский халифат в ранее средневекое. – М., 1965. – 280 саҳ.

9. Вараҳром Ғ. Р. Пажуҳише дар бораи аввалин силсилаи бузурги исломӣ Турк. Теҳрон, 1372 ҳ ш. Саҳ, 164.

10. Гумилев. Л. Н. Древние Тюрки. бо забони русӣ. Масква, 1993 мелодӣ. С, 34.

11. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964. – С. 143.

12. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит-таърих. Дор ус-Содир, Лубнон-Берут, 1979 м\1399 ҳ. Ҷ, 1. С, 441.

13. Ибн ал-Асир. Ал-камил фит-таърих. Дор ус-Содир, Лубнон-Берут, 1979 м\1399 ҳ.қ. Ҷилд, 9.

14. Ибн ал-Асир. Ал-камил фит-таърих. Дор ус-Содир, Лубнон-Берут, 1979 м\1399 ҳ,қ. Ҷилд, 10.

15. Ибн ал-Асир. Ал-камил фит-таърих. Дор ус-Содир, Лубнон-Берут, 1979 м\1399 ҳ,қ. Ҷилд, 11.

16. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит-таърих. Перевод с арабского языка, П. Г. Булгакова. Дополнения к переводу, Ш. С. Камолиддина. Ташкент-Цюрих, 2005м. 600 стр.

17. Ибни Имоди Ҳанбалӣ. Шазарот уз-Заҳаб фи ахбор мин заҳаб. Мусаҳҳеҳ Абдулқодир Арнавут. Дору Касир-Лубнон, 1986. Ҷилд, 5. Саҳ, 937.

18. Ибни Халликон, Аҳмад ибн Муҳаммад. Вафайат ал-аъйан ва анба абна аз-заман. В 6 томах. Байрут: Дор ас-Содир, 1970м. Том. 3. Стр. 349.

19. Ибни Ҳаҷари Асқалонӣ. Таҳзиб ут-Таҳзиб. Дор ус-Содир-Берут, 1426ҳ. Саҳ, 33.

20. Масъудӣ Абулҳасан Алӣ ибни Ҳусайн. Муруҷ аз-Заҳаб ва Маодин ул-Ҷавҳар. Мутарҷим, Абулқосим Поянда. Теҳрон, 1382 ҳ, ш. Ҷ, 1. С, 129-130.

21. Мирзо Муҳаммад Ҳайдарӣ. Таърихи Рашидӣ. Тарҷума, Аббос Ғаффорӣ. Теҳрон, 1383 ҳ, ш. Саҳ, 741.

22. Муҳаммад Авфии Бухороӣ. “Лубоб ул-Албоб”. Брил-Лийдан, 1906 м, 1324 ҳ, қ. Ҷилд, 1. Саҳ, 302.

23. Наршахӣ Абубакр Муҳаммад ибни Ҷаъфар. Мураттибони матн Ғ. Ғоибов, К. Олимов ва Н. Амиршоҳӣ. Таърихи Бухоро, муқаддимаи А. Шеърдуст. Душанбе, 2012. Саҳ, 64.

24. Низомии Арўзии Самарқандӣ. Чаҳор мақола. Таҳия ва тавзеҳ Ф Насриддинов. Хуҷанд, 2015. Саҳ, 46.
25. Нур Ризо. Турк тарихи расмли ва харитали. Истанбул, 1924. Саҳ, 335-337.
26. П Омелҷан. Ал-Бурҳан дер ислом. Берлин, 1952. Ҷилд, 1. Саҳ, 30.
27. Сайфуллоҳи Муллоҷон, Наим Одинаев. Ибни Асир ва асари ӯ “Ал-Комил фи-т-таърих”. Мақолаи илмӣ, Паёми Донишкадаи Забонҳо. 2022. № 4(48). Саҳ, 228-233.
28. Саид Ҷавод Мусавӣ. Ҷустуҷӯ бар равиши таърихнигории Ибн ал-Асир бо такия бар китоби ал-Комил фит-Таърих. Теҳрон, 1398-и ҳичрӣ. Саҳ, 1. соли 8-ум шумораи 23-юм.
29. Смирнова О. И. Заметки о среднеазиатской титулатуре \\ ЭВ. – 1961. – ВИП. С, 62.
30. Тош Купризода. Мифтоҳ ус-Саода ва Мисбоҳ ус-Сиёда фи мавзуотул улум. Ношир Муҳаммад Алӣ Байзун. Дорул кутуб ул-Илмия-Берут, 1422ҳ,қ. Саҳ, 236.
31. Фурузонӣ Абулқосим. Қарохониён бунёнгузорони нахустин силсилаи турки мусалмон дар Фароруд. Теҳрон, 1389 ҳ, ш. Саҳ, 105.
32. Ҷамол Қаршӣ. Мулҳақот ус-Суроҳ. В. В. Бартолд, дар Туркистоннома. Ҷилд, 1. Саҳ, 52 ва 125.
33. Ш. С. Камолиддин. Марказий Осиё тарихи замонавий тарихшунослигидаги ёндашувлар. Тошкент, 2023. 200 бет.
34. Ш. С. Камолиддин, З. А. Илхамов. ИСТОЧНИКИ ПО СРЕДНЕВЕКОВОЙ ИСТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ. Ташкент-2018. Саҳ, 38-39.
35. Шониёзов Карим Шониёзович. “Қарлуғ давлати ва Қарлуғлар”. Тошканд, 1999. Саҳ, 57-58.

QADIMGI TURKLAR TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI

Rahimjonov Mirzohid
Oriental universiteti o‘qituvchisi
rahimjonovmirzohid98@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qadimgi turklar tarixshunosligining asosiy yozma manbalari, ularning tasnifi hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlari IMRAD (Kirish, Materiallar va metodlar, Natijalar, Muhokama, Xulosa) tuzilishi asosida tizimli tahlil qilinadi. O‘rxun-Enasoy bitiklari, Xitoy yilnomalari, Vizantiya, arab va fors mualliflari asarlari qadimgi turklar tarixini yoritishda muhim manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarixshunoslikning Yevropa sharqshunosligi, sovet davri va mustaqillikdan keyingi bosqichlari qiyosiy-tarixiy metod asosida baholanadi. Shuningdek, sivilizatsion, etnogenez va geosiyosiy yondashuvlar orqali qadimgi turklarning davlat tizimi, madaniyati va xalqaro munosabatlardagi o‘rni izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi turklar, O‘rxun bitiklari, turkologiya, tarixshunoslik, Xitoy yilnomalari, etnogenez, Tangrichilik, Turk xoqonligi.

ABSTRACT: This article presents a systematic analysis of the primary written sources on the historiography of the ancient Turks, structured according to the IMRAD format (Introduction, Materials and Methods, Results, Discussion, Conclusion). The Orkhon-Yenisei inscriptions, Chinese chronicles, and Byzantine, Arab, and Persian historical writings are examined as key sources for reconstructing the political and cultural history of the ancient Turks. Using a comparative-historical method, the article evaluates the evolution of Turkological research from early European Orientalism through the Soviet period to post-independence Central Asian scholarship. It further discusses civilizational, ethnogenetic, and geopolitical approaches that clarify the statecraft, culture, and international role of the ancient Turks.

Keywords: Ancient Turks, Orkhon inscriptions, Turkic studies, historiography, Chinese chronicles, ethnogenesis, Tengrism, Turkic Khaganate.

АННОТАЦИЯ: В статье в соответствии со структурой IMRAD (введение, материалы и методы, результаты, обсуждение, заключение) систематически анализируются основные письменные источники по историографии древних тюрков и их классификация. Орхоно-енисейские надписи, китайские династийные хроники, а также византийские, арабские и персидские исторические сочинения рассматриваются как ключевые источники по политической и культурной истории древних тюрков. С применением сравнительно-исторического метода оценивается эволюция тюркологических исследований – от раннего европейского востоковедения до советской школы и постсоветских центральноазиатских исследований. Освещены цивилизационный, этногенетический и геополитический подходы к анализу государственности, культуры и международной роли древних тюрков.

Ключевые слова: Древние тюрки, Орхонские надписи, тюркология, историография, китайские хроники, этногенез, тенгрианство, Тюркский каганат.

KIRISH

XXI asr boshiga kelib dunyo davlatlari o‘rtasida keskin siyosiy vaziyat yuzaga keldi. Turli mintaqalarda davom etayotgan mojarolar fonida tarixan bir bo‘lgan millat va xalqlarning birlashuv jarayoni kuzatilmoqda, bu esa o‘z o‘rniga ega bo‘lgan turkiy dunyo mamlakatlarining integratsiyaga intilishini alohida ahamiyat kasb ettiradi. Ushbu zamonaviy jarayonlarning tarixiy ildizlarini tushunish uchun turkiy xalqlarning uzoq o‘tmishini ilmiy asosda o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, VI asrda Mo‘g‘uliston hududida turkiylarning birinchi davlati – Turk xoqonligi tashkil topdi. Xoqonlikning keng hududlar bo‘ylab hukmronligini o‘rnatishi natijasida turkiy qavmlar turli mintaqalarga tarqalib ketdi, bu esa keyingi davrlarda turkiy xalqlar tarixini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo‘ldi.

XIX asr mobaynida turkiy xalqlar tarixi asosan turk olimlari ishtirokisiz, Yevropa va rus sharqshunos tarixchilari tomonidan o‘rganildi. Bu holat, bir tomondan, turkiy xalq vakillarining o‘z tarixini ilmiy yoritishda hali yetarli

tajribaga ega bo‘lmaganligi, ikkinchi tomondan, sharqshunoslarning davr ijtimoiy-siyosiy qarashlariga uyg‘un tarzda tadqiqot olib borgani bilan izohlanadi. XX asrga kelib esa ko‘plab turk va tatar olimlari yetishib chiqdi, ular chet el olimlaridan farqli o‘laroq turkiy xalqlar tarixiga o‘z ona tarixi sifatida yondashdilar. Bu yondashuv turkiy xalqlar tarixini nisbatan xolisona o‘rganishga imkon berdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – qadimgi turklar tarixshunosligining asosiy yozma manbalarini tizimli tasniflash, ularning tarixiy ahamiyatini aniqlash hamda tarixshunoslikning Yevropa sharqshunosligi, sovet davri va mustaqillikdan keyingi bosqichlaridagi rivojlanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning manbaviy negizini ikki asosiy toifadagi manbalar tashkil etadi: yozma va moddiy manbalar. Ushbu maqolada, xususan, yozma manbalar tahlil predmeti sifatida olindi va quyidagi olti toifaga ajratib o‘rganildi: 1) O‘rxun-Enasoy bitiklari; 2) Xitoy yilnomalari; 3) Vizantiya, arab va fors manbalari; 4) Yevropa sharqshunosligi tadqiqotlari (XVIII-XIX asrlar); 5) sovet davri tarixshunosligi; 6) mustaqillik davri tarixshunosligi.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-tarixiy tahlil, manbashunoslik (manba tanqidi) va tarixiy-tipologik metodlarga asoslanadi. Manbashunoslik metodining asosiy tamoyili sifatida yozma manbalarning "ichki" (birinchi qo‘l, bevosita xoqonlik tomonidan yaratilgan) va "tashqi" (qo‘shni davlatlar kuzatuvchilari tomonidan yaratilgan) turlarga ajratilishi qo‘llanildi. Bu yondashuv har bir manba guruhining kelib chiqish konteksti, mualliflik pozitsiyasi va mumkin bo‘lgan mafkuraviy tomonlanishini baholash imkonini beradi.

Tahlil davomida har bir manba guruhi bo‘yicha uch bosqichli tartib qo‘llanildi: (a) manbaning kelib chiqish konteksti va mualliflik pozitsiyasi aniqlandi; (b) manba mazmunidagi asosiy tarixiy ma‘lumotlar (siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy) tizimlashtirildi; (v) manbaning ilmiy ahamiyati va zamonaviy tarixshunoslikdagi o‘rni baholandi.

1. O‘rxun-Enasoy bitiklari

O‘rxun-Enasoy yozuvlari Turk xoqonligi davriga oid eng muhim ichki manbalar hisoblanadi. Ular davlat boshliqlari tomonidan bevosita xalqqa va kelajak avlodga murojaat tarzida bitilgan bo‘lib, voqealar xoqon saroyining rasmiy pozitsiyasidan bayon etiladi. Shuning uchun ular "ichki" (birinchi qo‘l) tarixiy manba sifatida talqin qilinadi.

Ushbu bitiklarda asosan Turk xoqonligidagi siyosiy voqealar, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar, ijtimoiy tuzum va tarixiy shaxslar faoliyati haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bunga qo‘shimcha, turkiy davlatlarning siyosiy modeli “il tutmak”, ya‘ni “davlatni qo‘lga olib saqlash” g‘oyasiga asoslanganligini ta‘kidlash mumkin [1, B-41]. Shuningdek, Kultegin bitiktoshida turklarning qarluqlar, qirg‘izlar, uyg‘urlar va Tan imperiyasi bilan bo‘lgan munosabatlari tasvirlangan.

2. Xitoy yilnomalari - tashqi manbalar majmuasi

Qadimgi turklar, xususan Turk xoqonligi tarixini o‘rganishda Xitoy tomonidan yozilgan yilnomalar eng muhim tashqi tarixiy manbalar majmuasi sanaladi. Bu manbalar imperator saroyidagi rasmiy tarixchilar tomonidan voqealarga tashqi kuzatuvchi pozitsiyasidan yozilgan bo‘lib, unda turklar, qabilalar

va ularning Xitoy bilan munosabatlari davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan aks ettiriladi.

Qadimgi Xitoy manbalarida turklarning chorvachilik, temirchilik, qurol yasash san‘ati haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan [2, B-133]. Shuningdek, siyosiy voqealar va xoqonlikning hokimiyatga kelishi, harbiy to‘qnashuvlar xronikasi, diplomatik aloqalar va vasallik masalalari, qabilaviy ittifoqlar, ichki nizolar, hududlar, shaharlar, daryolar hamda turklarning turmush tarzi haqida ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Bu manbalarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

– Siu Shu (“Suy sulolasi tarixi”) - 589-618-yillar davrini o‘z ichiga olib, turklarning davlat tuzumi, Xitoyga bo‘lgan tahdidi, tashqi siyosati, davlat boshqaruvi va harbiy qudrati haqida ma‘lumot beradi.

– Tang Shu (“Tan sulolasi tarixi”) - turklar va Xitoy o‘rtasidagi diplomatiya, urushlar, sulhlar va siyosiy bosim jarayonlarini batafsil aks ettiradi.

Bulardan tashqari, 294 jilddan iborat "Davlat boshqaruvi uchun umumiy ko‘zgudagi tarix" nomli yilnomada ham turklarning harbiy yurishlari, Xitoy uchun strategik saboqlar, diplomatik yozishmalar, urush taktikalari va davlat xavfsizligi masalalariga oid ma‘lumotlar uchraydi.

Umuman olganda, Xitoy yilnomalari - markazlashgan o‘troq imperiya saroyi tomonidan yozilgan, siyosiy-harbiy va diplomatik tarixga oid birinchi qo‘l bo‘lmagan, ammo ma‘lumotlar aniqligi bilan muhim ahamiyat kasb etuvchi rasmiy xronikalar majmuidir.

3. Vizantiya, arab va fors manbalari

Vizantiya manbalari. Menandr Protektor turklarni Vizantiya ittifoqchilari sifatida tasvirlaydi; ularning eftalitlarga qarshi hamkorlik qilgani qayd etilgan [3, B-206-211-bet]. Vizantiya manbalarida turkiy qavmlarning urf-odatlari, jangovar salohiyati, geografik tasvirlari hamda etnogenezi, siyosiy tuzumi (yabg‘u, xoqon, bekliklar tizimi), savdo va diplomatiyasi, arab-fors ekspansiyasi bilan bog‘liq voqealar, cho‘l ittifoqlari va ko‘chmanchi davlatlar bilan Vizantiya aloqalari yoritilgan.

Arab tarixchilari. Tabariy va Ishtaxriy asarlarida turklar haqida ma‘lumotlar uchraydi. Arab manbalari turklarning tangachilik tizimi, savdo yo‘llari va chorvachilik iqtisodiyotini bayon qiladi [3, B-315-bet]. Bundan tashqari, geografik hududlar, diniy, siyosiy, etnografik, iqtisodiy ma‘lumotlar, shuningdek shaharlar, qal‘alar, daryolar, karvon yo‘llari va tog‘lar haqida keng ma‘lumot keltirilgan.

Fors manbalari. Sosoniy davr yilnomalari turklar bilan chegaraviy nizolar, qullar savdosi va diplomatik aloqalar haqida ma‘lumot beradi. Fors manbalari, ayniqsa islomiy davrda shakllangan tarixiy geografiya va etnik qaydlar bo‘yicha boy hisoblanadi; ko‘pincha ular arab tilidagi asarlarning qayta ishlangan, tizimlashtirilgan va mahalliylashtirilgan varianti sifatida yuzaga chiqqan.

4. Yevropa sharqshunosligi (XVIII-XIX asrlar)

Radlov, Ramstedt, Bang, Malov, Tomsen kabi olimlar turkologiya faniga asos soldi. Ular turkiy tillarning qiyosiy grammatikasini yaratdi, turkiy-run

yozuvlarini o‘qib berdi va dasht madaniyatini etnografik jihatdan o‘rgandi. Ushbu davr turkologiyasida lingvistik yondashuv ustuvor bo‘ldi [4, B-25-bet].

5. Sovet tarixshunosligi

Sovet davrining eng muhim tadqiqotchilari L. N. Gumilyov, V. V. Bartold, S. G. Klyashtorniy, Yu. A. Zuev va V. P. Yudinlar hisoblanadi. Ular orasida Gumilyov tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi: u etnogenez nazariyasini (passionarlik nazariyasi) – turk etnosining paydo bo‘lishi va tarqalishini energetik-madaniy omillar bilan bog‘liq holda izohlaydi [5, B-95-bet]. Bu nazariya turklar tarixini o‘rganishda yangi yo‘nalish bo‘lib, keyinchalik turkologiya fani rivojiga katta hissa qo‘shdi.

6. Mustaqillik davri tarixshunosligi

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgach, turkologiya yangi paradigmalarga ega bo‘ldi. Bunga turkiy davlatlar tarixini integrativ ko‘rish, milliy adabiyotlarda turkologik tadqiqotlarning kengayishi hamda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonda arxeologik izlanishlarning kuchayishi kiradi. Shuningdek, Ko‘k Turklar, Qarluq davlati, O‘g‘uzlar va Qipchoqlar tarixini qayta o‘rganishga bag‘ishlangan yangi dissertatsiyalar yaratildi [6, B-71-bet]. Bugungi kunda ham ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar davom etmoqda va ko‘plab yosh turkolog olimlar yetishib chiqmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yozma manbalarning “ichki” va “tashqi” toifalarga bo‘linishi tarixiy voqealarni ko‘p qirrali baholash imkonini beradi. O‘rxun-Enasoy bitiklari xoqonlikning o‘z nuqtayi nazarini aks ettirsa, Xitoy yilnomalari tashqi kuzatuvchi – qo‘shni imperiya – pozitsiyasini, Vizantiya, arab va fors manbalari esa diplomatik, iqtisodiy va harbiy aloqalar nuqtayi nazarini taqdim etadi. Ushbu manbalarning bir-birini to‘ldirishi qadimgi turklar tarixini yaxlit tiklashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tarixshunoslikning davriy evolyutsiyasini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, Yevropa sharqshunosligidagi lingvistik-filologik yondashuvdan sovet davridagi etnogenez nazariyasi (Gumilyovning passionarlik konsepsiyasi)gacha, undan mustaqillik davridagi integrativ va arxeologik yondashuvlargacha bosqichma-bosqich rivojlanish yuz bergan. Har bir bosqich o‘z davrining ilmiy paradigmasi va mafkuraviy sharoitini aks ettiradi, bu esa manbalarni faqat mazmuni bo‘yicha emas, balki ular yaratilgan ilmiy-tarixiy kontekst nuqtayi nazaridan ham baholashni taqozo etadi.

Sivilizatsion, etnogenez va geosiyosiy yondashuvlarning birgalikda qo‘llanilishi Turk xoqonligining davlat tizimi, madaniyati va xalqaro munosabatlardagi o‘rnini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud manbalarning katta qismi tashqi kuzatuvchilar (Xitoy, Vizantiya, arab-fors mualliflari) tomonidan yaratilganligi sababli, ularda mafkuraviy va siyosiy tomonlanish ehtimoli mavjudligini e‘tiborda tutish zarur; bu holat manbalarni tanqidiy tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi va kelgusi tadqiqotlar uchun ochiq masala bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turklar tarixshunosligi turli davrlar, ilmiy maktablar va manba toifalari orqali shakllangan boy ilmiy yo‘nalishdir. "Ichki" va

"tashqi" manbalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili, shuningdek tarixshunoslikning Yevropa sharqshunosligidan mustaqillik davrigacha bo‘lgan evolyutsiyasini kuzatish, ularning siyosiy, madaniy va diniy tizimlarini yanada chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi. Turk sivilizatsiyasi Yevroosiyodagi eng qadimiy va eng ta‘sirchan tarixiy tizimlardan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tekin, T. A Grammar of Orkhon Turkic. Indiana University, 1968.
2. Liu Mau-Tsai. Die chinesischen Nachrichten über die Völker des Ost-Türkenreiches. Wiesbaden, 1958.
3. Menander Protector. History. Harvard University Press, 1985.
4. Thomsen, V. Inscriptions de l'Orkhon déchiffrées. Copenhagen, 1896.
5. Gumilev, L. N. Drevnie Tyurki. Moskva: Vostochnaya Literatura, 1993,
6. Karimov, A. Turkiy davlatlar tarixi tadqiqotlari. Toshkent, 2019.

TURK XOQONLIGIDA SUG ‘DIYONANING AVTONOM HUQUQLARI

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘gli
Andijon davlat univeristeti
Tarix yo‘nalishi
1-kurs magistri
Qodirjonovomadjon15@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqola, Turk xoqonligi davlatida iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Sug‘diyonaning tarixiy geografiyasi va uning bir qator muxtor huquqlari haqida asosli tarixiy manbalarga asoslangan holda yozildi. Barcha tarixchilarga ma’lumki sug‘diylar Buyuk Ipak yo‘li savdosida muhim ahamiyatga ega bo‘lishgan va o‘z mulklarini boshqarishda bir qator muhtor haq-huquqlarga ega bo‘lishgan.

Kalit so‘zlar: So‘g‘diyona, savdo, muhtor, soliq, boshqaruv, oqsoqollar kengashi, ixshid.

Abstract: This article is based on reliable historical sources about the historical geography of Sogdiana, which was an economically important state in the Turkic Khaganate, and its number of autonomous rights. All historians know that the Sogdians played an important role in the trade of the Great Silk Road and had a number of autonomous rights in managing their possessions.

Keywords: Sogdiana, trade, mukhtar, tax, administration, council of elders, ikhshid.

Аннотация: Статья основана на достоверных исторических источниках, описывающих историческую географию Согдианы, экономически важного государства в составе Тюркского каганата, и ряд её автономных прав. Всем историкам известно, что согдийцы играли важную роль в торговле на Великом Шёлковом пути и имели ряд автономных прав в управлении своими владениями.

Ключевые слова: Согдиана, торговля, мухтар, налог, администрация, совет старейшин, ихшид.

Kirish.

So‘g‘diyona nafaqat O‘zbekiston tarixida balki butun dunyo tarixida ham o‘zining muhim o‘rniga ega hisoblanadi, bunga ushbu tarixiy hududning faqatgina Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashganigina sabab bo‘lmasdan, ularning muvaffaqqiyatli savdo-sotig‘i, davlat boshqaruv usullarining o‘z davridan ilg‘orlab ketgani va hunarmandchilik sohasining yaxshi rivojlanganidir. Turk xoqonligi O‘rta Osiyo hududini egallaganidan so‘ng sug‘dliklar o‘z mulklarini Turk xoqonligiga qaram bo‘lsalarda o‘zlari boshqardilar va xoqonlikning tarixida muhim o‘rin egallab, ushbu davlatning muhim iqtisodiy markazlaridan biriga aylandilar.

Natijalar.

563-567-yillar oralig‘ida Turk xoqonligi va Eftallar davlati o‘rtasida sodir bo‘lgan urush natijasida O‘rta Osiyo, shu jumladan So‘g‘diyona ham turk xoqonligi tarkibiga qo‘shilgan [1. –B. 75]. Turk xoqonligi davrida Sug‘d mulklari tarkibida Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Maymurg‘, Qo‘bodiyon, Panjikent, Kesh, Nasaf va boshqa bir qator hududlar kirgan [2. –P. 10].

Sug‘diyona Turk xoqonligi tarkibiga qo‘shilsada u o‘zining mustaqil boshqaruv tizimini saqlab qola oldi. Turk xoqonligining ushbu mintaqaga kirib kelishi natijasida sugdliklar o‘z konfederatsiyalarining avtonom huquqlarini saqlab qolish uchun turklarga soliq to‘lashga majbur bo‘lgan bo‘lsalarda, ular ushbu davlat tarkibiga qo‘shilish orqali bir qator imkoniyatlarni ham qo‘lga kiritdilar. Jumladan, ular Turk xoqonligi fuqarolari sifatida butun xoqonlik hududida emin-erkin harakatlana olishgan va savdo ishlarini xavfsiz usulda amalga oshirishgan.

Sug‘d davlatini hukmdori ixshid xisoblansada, amalda hokimyat oqsoqollar kengashining ixtiyorida bo‘lgan. Davlat boshqaruvida, ular ichki erkinliklaridan foydalanganlar. Bu esa konfederatsiyaning o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan boshqalarga nisbatan yaxshiroq foydalanishlariga imkon yaratgan.

So‘g‘diyonaliklar turklarning harbiy qudratidan foydalangan xolda Xitoy bilan savdoda bir qator haq-huquqlarga ega bo‘lishgan. Nafaqat ular bu qudratdan Xitoy balki Eron bozorlariga kirib borishda ham foydalanishar edi [3. –P. 217]. Bu esa shuni ko‘rsatadiki So‘g‘diyonaliklarning avtonom huquqlari faqatgina ichki bo‘lib qolamy balki tashqi savdo-sotiq masalalarida ham Turk xoqonligidan va boshqa davlatlardan imtiyozlarga ega bo‘lib olishgan.

Umuman olganda Sug‘d mulklari O‘zbekistonning Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo‘lib, juda katta savdo bozorlariga va ancha yaxshi tashkil etilgan ichki boshqaruv tizimiga ega edi. Yuqorida aytilgan oqsoqollar kengashining mavjud bo‘lgani va ushbu organning ixshid hokimyatini cheklab qo‘ya olgani shuni ko‘rsatadiki, davlatda asosiy rolni boy zodagonlar qatlami egallagan va ularning ichki haq huquqlarni saqlab qola olgani esa, bu ularning diplomatiya mahoratidan yaxshigina habardor bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, sug‘diy elchilari Xitoy, Hindiston va Eron saroylariga muntazam ravishda borib turgan. Ular ko‘pincha Turk xoqonlari nomidan diplomatik aloqalar o‘rnatgan, bu esa sug‘diylarning xalqaro siyosatdagi nufuzini yanada oshirgan. Shuningdek, sug‘diy tilining o‘sha davrda diplomatik

yozishmalarda keng qo‘llanilganligi ham ularning madaniy ta’sir doirasining kengligini ko‘rsatadi.

Sug‘diyonada mavjud bo‘lgan avtonom boshqaruv tizimi ijtimoiy tabaqalashuv bilan chambarchas bog‘liq edi. Oqsoqollar kengashi a’zolari ko‘pincha yirik savdogarlar va zodagonlardan iborat bo‘lib, ular davlat ichki siyosatini belgilashda katta rol o‘ynagan. Ixshid esa nomigagina hukmdor bo‘lib, u siyosiy barqarorlikni ta’minlash, soliqlarni xoqonlikka yetkazish va tashqi siyosatni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullangan. Bu tizim o‘z davriga xos “shahar-konfederatsiya” shaklidagi boshqaruv modelini yaratgan.

Sug‘diyonaliklarning iqtisodiy mustaqilligi, ularning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarga ham chiqish imkoniyatini bergan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo tufayli Sug‘diyona xalqaro miqyosda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mintaqalardan biriga aylangan. Bu jarayon o‘z navbatida Turk xoqonligining iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Turk xoqonligi va Sug‘diyonaning o‘zaro munosabatlari o‘sha davr Markaziy Osiyo tarixida bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘lgan. Sug‘diylar turklar uchun iqtisodiy vositachilar bo‘lgan bo‘lsalar, turklar sug‘diylar uchun harbiy himoya va siyosiy barqarorlik kafolati vazifasini bajargan. Bu hamkorlik uzoq muddat davom etib, ikki xalqning madaniy integratsiyasiga ham zamin yaratgan.

Turk xoqonligi davrida Sug‘diyonaning siyosiy tuzilmasi va iqtisodiy mustaqilligi haqida tarixiy manbalar aniq ma’lumot beradi. Masalan, É. de La Vaissière o‘zining “*Sogdian Traders: A History*” nomli asarida shunday deydi: “Sogdiylar faqat savdogar xalq emas, balki o‘z siyosiy tizimiga ega bo‘lgan avtonom jamoalar bo‘lib, ular turklar bilan ittifoq asosida o‘z manfaatlarini himoya qilishgan” [3. –P. 315].

Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, Turk xoqonligi Sug‘diyona ustidan to‘liq siyosiy nazorat o‘rnatmagan, aksincha, o‘zaro manfaatga asoslangan hamkorlik shaklida siyosiy barqarorlikni ta’minlagan.

Shuningdek, tarixchi S. B. Sulaymanova ham o‘z tadqiqotida sug‘diylar boshqaruv tizimining o‘ziga xosligi haqida to‘xtalib, quyidagicha yozadi: “Sug‘diy hukmdorlari – ixshidlar o‘z shaharlarini markaziy hokimiyatdan mustaqil boshqargan bo‘lsalar-da, ular Turk xoqonlari bilan siyosiy ittifoqni saqlab qolish orqali o‘z ichki barqarorligini ta’minlagan” [2. –P. 12].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turk xoqonligi davrida Sug‘diyonaning siyosiy-iqtisodiy mavqei yuqori bo‘lib, u o‘zining ichki boshqaruv tizimini saqlab qolgan avtonom hudud sifatida faoliyat yuritgan. Sug‘d mulklarining Turk xoqonligi tarkibiga qo‘shilishi ularning mustaqillikni to‘liq yo‘qotishi emas, balki yangi iqtisodiy va diplomatik imkoniyatlar ochilishiga sabab bo‘lgan. Sug‘diylar o‘zlarining boy savdo an’analari, oqsoqollar kengashiga asoslangan boshqaruv tizimi hamda ixshidlar orqali davlatni idora etish tajribasi bilan ajralib turgan. Ular Turk xoqonligi bilan tuzilgan siyosiy ittifoq orqali Buyuk Ipak yo‘li savdosida ustun mavqeni saqlab qolishgan va tashqi aloqalarda ham o‘z manfaatlarini ilgari sura olganlar. Shuningdek, Sug‘diyonaliklarning ichki va tashqi siyosatda erkin

harakat qila olganligi ularning diplomatik salohiyatini, iqtisodiy faolligini va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini namoyon etadi.

Natijada, Sug‘diyonaning Turk xoqonligi tarkibidagi avtonom huquqlari Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos davlat boshqaruvi modeli sifatida namoyon bo‘lib, mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Shamsutdinov R, Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr 2019.

2. Sulaymanova Sokhiba Bakhodirovna. (2022). TURKIC TITLES IN EARLY MEDIEVAL SOGD RULE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 8.036*, *11*(10), 10–15. Retrieved from https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/944

3. De La Vaissière, É. Sogdian Traders: A History / É. de la Vaissière; transl. by J. Ward. – Leiden; Boston: Brill, 2005.

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ ПОЛИТИКО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ, НУМИЗМАТИЧЕСКИХ И ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКОВ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи
Студентка 2 курса факультета дошкольного и начального образования,
Жиззахский государственный педагогический
университет имени Абдуллы Кадыри
ottesh@mail.ru , +998 91 625 05 55

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ политико-культурного развития Тюркского каганата (VI–VIII вв.) на основе археологических, нумизматических и письменных источников раннего Средневековья. Исследование направлено на реконструкцию политической структуры, идеологических основ власти и культурного взаимодействия народов Евразии. Впервые предпринята попытка системного сопоставления археологических находок, монетных материалов и текстов орхонских надписей, что позволило уточнить хронологию и структуру государственного управления. Научная новизна работы заключается в применении междисциплинарного подхода и использовании цифровых методов картографирования древних политических центров. Результаты исследования вносят вклад в развитие источниковедения, археологии и исторической антропологии, открывая новые перспективы в изучении тюркской цивилизации раннего Средневековья.

Ключевые слова: Тюркский каганат, археология, нумизматика, источниковедение, письменные памятники, раннее Средневековье, Евразия, политическая культура, идеология, историческая реконструкция.

Annotatsiya. Maqolada ilk o‘rta asrlardagi Turk xoqonligining siyosiy-madaniy rivojlanishi arxeologik, numizmatik va yozma manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – siyosiy tuzilma, hokimiyatning mafkuraviy asoslari hamda Evroosiyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rekonstruksiya qilishdir. Ilk bor arxeologik topilmalar, tangalar va Orxon yozuvlari tizimli tarzda solishtirilib, tarixiy xronologiya va boshqaruv tizimi aniqlashtirilgan. Ishning ilmiy yangiligi multidisiplinar yondashuvni qo‘llash hamda qadimiy siyosiy markazlarni raqamli kartalashtirish metodlaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari manbashunoslik, arxeologiya va tarixiy antropologiya sohalarining rivojiga hissa qo‘shadi hamda Turk sivilizatsiyasining o‘rta asr davridagi o‘rnini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Turk xoqonligi, arxeologiya, numizmatika, manbashunoslik, yozma yodgorliklar, ilk o‘rta asrlar, Evroosiyo, siyosiy madaniyat, mafkura, tarixiy rekonstruksiya.

Abstract. The article presents a comprehensive analysis of the political and cultural development of the Turkic Khaganate (6th–8th centuries) based on archaeological, numismatic, and written sources from the early Middle Ages. The study focuses on reconstructing the political structure, ideological foundations of power, and cultural interactions across Eurasia. For the first time, archaeological findings, coinage materials, and the Orkhon inscriptions are systematically compared to refine historical chronology and the administrative organization of the Khaganate. The scientific novelty lies in applying an interdisciplinary methodology combined with digital mapping of ancient political centers. The results contribute to the advancement of source studies, archaeology, and historical anthropology, offering new perspectives for understanding the Turkic civilization of the early medieval period.

Keywords: Turkic Khaganate, archaeology, numismatics, source studies, written monuments, early Middle Ages, Eurasia, political culture, ideology, historical reconstruction.

История Тюркского каганата занимает особое место в политико-культурном развитии раннесредневековой Евразии. Образовавшись в VI веке на территории Центральной Азии, каганат стал первым государственным объединением тюркоязычных племён, заложив основы их этнополитической консолидации и идеологической общности [Ochilov 2021: 72].

Важнейшими источниками по истории каганата служат археологические комплексы (Орхон, Талас, Енисей), нумизматические находки и письменные памятники, включая знаменитые орхонские надписи, китайские хроники и согдийские документы.

Несмотря на масштаб исследований, в историографии до сих пор остаются дискуссионными вопросы – механизм функционирования власти, идеологическая символика, дипломатические отношения и культурные взаимодействия с соседними цивилизациями. Современные методы источниковедческого анализа, включая геоинформационные технологии и междисциплинарные подходы, позволяют по-новому взглянуть на структуру и динамику развития Тюркского каганата.

Методы и материалы исследования. Исследование базируется на принципах историзма, системности и междисциплинарного анализа. Использованы три типа источников:

1. *Археологические материалы* – мемориальные комплексы Кюль-тегина, Бильге-кагана и Тоньюкука в долине Орхона, курганы в Семиречье, наскальные изображения и культовые каменные изваяния (балбалы), отражающие воинскую символику и представления о власти.
2. *Нумизматические данные* – серебряные дирхамы и медные монеты, найденные в Ферганской долине, Восточном Туркестане и на территории Казахстана, где фиксируются тамги, солнечные знаки и китайские иероглифы, что указывает на взаимопроникновение культурных кодов и торгово-политическую интеграцию [Karimova 2022: 114].
3. *Письменные источники* – орхонские надписи (VIII в.), китайские хроники («Цзю Тан шу», «Бэй ши») и согдийские тексты, в которых описаны политические события, идеология «Небесного мандата» и структура власти каганата [Yuldasheva 2024: 77].

При анализе данных применялись методы сравнительно-исторического анализа, контент-анализа письменных текстов, нумизматической типологии и геоисторического картографирования.

Результаты и обсуждение. Археологические исследования показывают, что Тюркский каганат обладал сложной административной структурой. Центром власти являлась Орхонская долина, где сосредоточены основные мемориальные комплексы. В планировке сооружений наблюдается сакральная ось – от ворот к стеле с текстом, что символизирует связь между земной и небесной властью.

Погребальные комплексы, найденные в Монголии, на территории Казахстана и в Восточном Туркестане, свидетельствуют о высокой социальной стратификации общества. Наличие предметов роскоши, китайского фарфора и согдийских тканей в захоронениях указывает на активные торгово-дипломатические контакты.

Нумизматические находки позволяют уточнить экономические связи и степень влияния внешних держав. Так, анализ серебряных дирхамов с согдийскими надписями и тюркскими символами выявил, что Тюркский каганат активно участвовал в Великом шелковом пути, обеспечивая безопасность торговых маршрутов [Rakhimov 2022: 103].

Письменные источники, особенно орхонские надписи Кюль-тегина и Бильге-кагана, раскрывают идеологию тюркской государственности. В них встречаются формулы типа: *“Türük bodun elin törüsin tutup”* – «тюркский народ держал свою страну и закон», что отражает идею сакрального единства народа и власти.

Китайские хроники фиксируют дипломатические миссии между Тюркским каганатом и Танской империей, описывая не только военные, но и культурные обмены: приезд посольств, взаимные дары, брачные союзы. Всё это подтверждает высокий уровень международных отношений и культурного диалога [Ganieva 2023: 58].

Анализ письменных и археологических данных также показывает, что каганат был не просто военным союзом, а сложной политико-культурной системой, в которой формировались ранние формы законодательства, дипломатии и символической власти. Использование ГИС-технологий позволило локализовать центры власти и подтвердить существование устойчивой сети городов и укреплений, контролирующих ключевые караванные пути.

Источниковедческая реконструкция политико-культурного развития Тюркского каганата показывает, что этот период был эпохой становления новых форм государственности и идеологических систем в Евразии. Комплексное изучение археологических, нумизматических и письменных данных позволяет раскрыть внутренние механизмы власти, роль идеологии и культурных ценностей в укреплении политического единства.

Научная новизна исследования заключается в применении междисциплинарного подхода, который впервые позволяет объединить разнородные источники в единую аналитическую модель. Это открывает новые возможности для понимания закономерностей исторического развития и культурного взаимодействия в Центральной Азии.

Практическая значимость работы заключается в том, что результаты исследования могут быть использованы при преподавании истории, источниковедения, археологии и этнологии, а также в цифровом моделировании древних государств Евразии.

Использованная литература

1. Ganieva D. Sh. *Rannye tyurki i ikh kul'turnoe nasledie*. – Samarkand, 2023. – C. 58.
2. Karimova Z. *Innovative Methods in Early Medieval Archaeology*. – Journal of Asian Studies, 2022. – C. 114.
3. Ochilov U. *O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari*. – Toshkent: Yangi asr, 2021. – C. 72.
4. Rakhimov S. *Numismatics and Political Power in Early Turkic States*. – Central Asian Review, 2022. – C. 103.
5. Yuldasheva G. *Pismennoe nasledie Tyurkskogo kaganata i ego ideologicheskie osnovy*. – Tashkent: Fan va taraqqiyot, 2024. – C. 77.

“TURK XOQONLIGI TARIXI VA TARIXIY JARAYONLARI”

Ilmiy rahbar :Baltayeva Ma’mura
UrDPI “Milliy g‘oya va falsafa”
kafedrasi o‘qituvchisi
+99897-513-79-90
mamura381@gmail.com
Ermatova Umida Kenjaboy qizi
UrDPI “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi
2-bosqich talabasi +998977-306-21-10
umidaermatova80@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Turk xoqonligining shakllanish jarayoni, siyosiy va ijtimoiy hayoti, davlat boshqaruvi tizimi hamda tarixiy geografiyasi tahlil qilinadi. Maqolada xoqonlikning G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘linish sabablari, ularning O‘rta Osiyo xalqlari tarixidagi o‘rni, iqtisodiy hayoti va madaniy merosi haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O‘rxon-Yenisey bitiklari orqali turkiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turk xoqonligi, Elterish xoqon, Bumin xoqon, o‘rxon bitiklari,G‘arbiy turk xoqonligi,Sharqiy turk xoqonligi, tarixiy geografiya ,O‘rta Osiyo.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования, политическая и социальная жизнь Тюркского каганата, система государственного управления, а также его историческая география. В статье представлены научные сведения о причинах разделения каганата на Западную и восточную части, их месте в истории народов Средней Азии, хозяйственной жизни и культурном наследии. Также через орхоно -kсейские надписи освещаются особенности древней культуры и государственного устройства тюркских народов.

Ключевые слова: Тюркский каганат, Эльтериш-каган, Бумын-каган, Орхонские надписи, Западно-Тюркский каганат, Восточно-Тюркский каганат, историческая география, Средняя Азия.

Annotation: this article analyzes the formation process, political and social life, state administration system and historical geography of the Turkish khanate. the article presents scientific information about the reasons for the division of the Khaganate into Western and Eastern parts, their place in the history of the peoples of Central Asia, their economic life and cultural heritage. also, through Orkhan-Yenisei inscriptions, the ancient culture of the Turkic peoples and specific features of the state system were illuminated

Keywords: Turkic khanate, Elterish khanate, Bumin khanate, Orkhan inscriptions, Western Turkic khanate, Eastern Turkic khanate, historical geography, Central Asia

Turk xoqonligi Markaziy Osiyo tarixining eng muhim davlatlaridan biridir. Bu davrda turkiy xalqlar ilk marta yagona siyosiy tuzum ostida birlashib, o‘z davlatlarini barpo etdilar. Xoqonlikning shakllanishi turkiy xalqlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk xoqonligi VI asr o‘rtalarida Bumin xoqon tomonidan asos solingan bo‘lib, u Rouran (Juan-juan) xoqonligini mag‘lub etgach, o‘zini “El xon” deb e’lon qilgan. Shu tariqa tarix sahnasida “Turk” nomi bilan ataluvchi birinchi siyosiy davlat vujudga keldi.Shuningdek turk xoqonligi 552-yilda tashkil topgan bo‘lib, qisqa vaqt ichida katta hududlarni o‘z tasarrufiga olgan. Bumin xoqondan so‘ng taxtga o‘g‘li Mug‘on xoqon chiqqan. Shu davrda Turk xoqonligi Sharqda Manjuriyadan G‘arbda Qora dengizgacha cho‘zilgan ulkan imperiyaga aylandi.Natijada turk xoqonligining siyosiy kuchi ikki asosiy omilga tayanardi:

1. Harbiy kuch – chorvador qabilalarning harakatchanligi va intizomi

2. Markazlashgan boshqaruv tizimi – xoqon boshchiligidagi qat’iy ierarxiya.

Turk xoqonligi tez orada ikki qismga bo‘lindi:

Sharqiy Turk xoqonligi – markazi Orxon daryosi havzasida joylashgan.

G‘arbiy Turk xoqonligi – markazi Yettisuv (hozirgi Qozog‘iston va Qirg‘iziston) hududida joylashgan.Bu bo‘linish siyosiy raqobat va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi natijasida yuz bergan. G‘arbiy Turk xoqonligi VII asrda Istami yabg‘u boshchiligida gullab-yashnagan. Uning markazi Yettisuvda joylashgan bo‘lib, bu hudud Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan.O‘rta Osiyo shaharlarida – Samarqand, Buxoro, Farg‘onada savdo, hunarmandchilik va madaniy aloqalar rivoj topgan. G‘arbiy Turk xoqonlari Eron (Sosoniylar) va Vizantiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatganlar. Bu davrda turkiy xalqlarning xalqaro nufuzi sezilarli darajada oshgan.VII asr oxirlariga kelib xoqonlik ichki nizolar va Xitoy bosqinlari tufayli zaiflashdi. Shunga qaramay, G‘arbiy Turk xoqonligi turkiy xalqlarning keyingi siyosiy tarixida muhim o‘rin tutdi. Sharqiy Turk xoqonligi va yuksalish davri 682-yilda Elterish xoqon boshchiligida Sharqiy Turk xoqonligi qayta tiklandi. Bu davrda davlat mustahkamlanib, siyosiy va harbiy qudrati ortdi.Elterish xoqondan keyin taxtga o‘g‘illari – Bilga xoqon va Kultegin chiqdi. Ularning davrida davlat boshqaruvi yanada takomillashdi, xalq farovonligi oshdi, yozuv va madaniyat rivojlandi. Aynan shu davrda Orxon-Yenisey bitiklari yaratilgan bo‘lib, ular turkiy xalqlarning eng qadimiy yozma manbalaridir. Bu bitiklarda davlat tuzumi, xalqning birdamlik g‘oyasi, xoqonlarning adolatli siyosati haqida ma’lumotlar berilgan.

Turk xoqonligi geografik jihatdan ulkan hududni egallagan edi. Uning chegaralari quyidagicha bo‘lgan:Sharqda: Manjuriya va Xingan tog‘lari,G‘arbda: Qora dengiz va Kaspiy dengizi,Shimolda: Baykal ko‘li va Irtish daryosi,Janubda: Tyan-Shan, Pomir va Hindukush tog‘lari.Bu hudud turli iqlim va tabiiy zonalarga bo‘lingan bo‘lib, chorvachilik, savdo va metall ishlov berish asosiy iqtisodiy tarmoqlar hisoblangan. Xoqonlikning geografik joylashuvi Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro savdo va madaniy almashinuvni ta’minlagan.

Turk xoqonligining madaniy va ma’naviy merosi turk xoqonligi davrida turkiy xalqlarning tili, dini, yozuvi va madaniy qadriyatlari shakllangan. Ular o‘z davrida Turkiy Run yozuvi (Orxon yozuvi)ni yaratdilar.

Orxon bitiklarida “Turk buduni” – ya’ni “turk xalqi” degan ibora ilk bor uchraydi. Bu esa milliy o‘zlikni anglash jarayonining boshlanishini bildiradi.Shuningdek, bu davrda:diniy e’tiqodlarda tengrichilik (osmon xudosi Tengri) ustuvor edi. San’at, tosh o‘ymakorligi va haykaltaroshlik rivojlandi. Siyosiy birlik va vatanparvarlik g‘oyalari mustahkamlandi.

XULOSA

Turk xoqonligi Markaziy Osiyo tarixida ilk yirik turkiy davlatchilik tizimini shakllantirgan qudratli imperiya sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu davrda turkiy qabilalar siyosiy va madaniy jihatdan birlashib, o‘ziga xos davlat boshqaruvi, ijtimoiy tuzilma hamda madaniyatni yaratdilar. Xoqonlik davrida vujudga kelgan yozma yodgorliklar, til va an’analar keyingi asrlarda turkiy xalqlarning milliy o‘zligini saqlab qolishida muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Turk xoqonligi merosi

bugungi kunda ham turkiy xalqlarning tarixiy o‘zligini anglash va davlatchilik an’analarini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barthold, V.V. Turk xalqlari tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Sodiqov, A. O‘rta Osiyo tarixi va madaniyati. Toshkent, 2010.
3. Qosimov, B. Turkiy xalqlar qadimiy davlatchiligi. Samarqand, 2015.
4. Orxon-Yenisey bitiklari. Tarjimalar to‘plami. Toshkent, 2004.

II SHO‘BA: UYG‘UR XOQONLIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

УЙҒУР ХОҚОНЗОДАСИ ҚАРИ ЧОР ТИГИН АНТРОПОНИМИ ХУСУСИДА (Циан битиги матни асосида)

Дустмуродов Маъруфжон Мансур ўғли
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
доцент. Ориентал университети.
E-mail: *maruf_dust@mail.ru*
ORCID: *0009-0003-4954-9504*

Аннотация. Туркийларнинг илк ўрта асрлар тарихига тегишли ёзма манбалари фақатгина улар яшаган ёки ҳукмронлик қилган территориялардан топилган эмас. Шундай ёзма ёдгорликлар борки, улар қўшни йирик сулолалар марказида тикланган ва ҳозир ҳам ушбу тарихий сулолалар вориси бўлган замонавий давлатлар томонидан муҳофаза этилади. Бу жараён қадим туркийларнинг мазкур ғайриторкий тузумлар ҳарбий-сиёсий, ижтимоий, қолаверса, маданий соҳасидаги ҳаётига таъсири, ундаги тутган муҳим ўрни билан изоҳланса керак. Шундай битиглардан бири уйғур хоқонзодаси шарафига хитой ва туркий (икки тилда) битилган Циан дафн ёдномасидир. Қуйида мазкур битиг тегишли бўлган *Qaṛï Čoṛ Tägin* антропоними ҳақида қисқа бўлса-да илмий мулоҳазаларни ёритамиз.

Калит сўзлар. *Уйғур хоқонлиги, Яғлақарлар, Қари Чор Тегин (Циан) битиги, эпитафия, турк-руник ёзуви.*

Abstract. Written sources of the early medieval history of the Turks were not found only in the territories where they lived or ruled. There are such written monuments that were restored in the centers of neighboring major dynasties and are still protected by modern states that are the successors of these historical dynasties. This process can be explained by the influence of the ancient Turks on the military-political, social, and cultural life of these non-Turkic regimes, and the important role they played in it. One of such monuments is the Qian funerary inscription, written in Chinese and Turkic in honor of the Uyghur khaganate. Below we will briefly discuss the scientific considerations about the anthroponym *Qaṛï Çoṛ Tägin*, to which this inscription belongs.

Keywords. *Uyghur khaganate, Yaglakars, Qari Chor Tegin-(Xian) inscription, epitaph, Turkic-runic inscription.*

Аннотация. Письменные источники по раннесредневековой истории тюрков были обнаружены не только на территориях их проживания или правления. Существуют такие письменные памятники, которые были восстановлены в центрах соседних крупных династий и до сих пор охраняются современными государствами, являющимися преемниками этих исторических династий. Этот процесс можно объяснить влиянием древних тюрков на военно-политическую, социальную и культурную жизнь этих нетюркских государств и той важной ролью, которую они играли в ней.

Одним из таких памятников является погребальная надпись Цянь, написанная на китайском и тюркском языках в честь Уйгурского каганата. Ниже мы кратко рассмотрим научные соображения об антропониме *Qaṛï Çoṛ Tägin*, к которому принадлежит эта надпись.

Ключевые слова: *Уйгурский каганат, Яглакары, надпись Кари Чор Тегин-(Циан), эпитафия, тюркская-руническая надпись.*

Qaṛï Čoṛ Tägin номи VII–VIII асрларда шаклланган уйғур хоқонзодалари номлари уясига мансуб бўлиб, Тан сулоласи манбалари (Циан битиги)да тилга олинган. Бу исм тегишли шахс Хоқон уруғидан чиққан шаҳзодалар *(Tägin)* қатламига тегишли олийнасаблардан бири сифатида баҳоланади. Айтиш лозимки, уйғурлар ва умумтуркий ҳукмдорлар орасида *Tägin* унвони меросий ҳокимият иерархиясининг асосий белгиси бўлиб, у хоқон авлодидаги шахснинг сиёсий-ҳукумат салмоғини ифодалаган. Биз эътибор қаратган ёднома 795 йилда вафот этган ва Чанъан (ҳозирги Циан) яқинидаги Чжандюан ҳудудида дафн этилган уйғур хоқонзодаси Қари Чор Тегиннинг эпитафиси эканлиги аниқланган. Хитой бўлимига кўра, Танг сулоласининг чап қанот ҳарбий бўлинмаси қўмондони даражасига кўтарилган Қари Чор 19 ёшида касалликдан вафот этган. Қари Чор Тегин Уйғур хоқонлигининг иккинчи ҳукмдори Тангридан Бўлмиш Эл Этмиш Билга Хоқоннинг набираси ва Чавиш Тегиннинг ўғлидир. Манбаларга кўра қабр тошини Танг сулоласи (618-907) ҳукмдори Танг Дезонг (779-805) 795 йилда ясаттирган. Циан битигида келадиган мазкур ном Уйғур хоқонлиги (744-840) ва Тан сулоласи муносабатлари тарихини ёритадиган ёзма манбалардан бири сифатида муҳимдир. Матнда *Qaṛï Čoṛ Tägin* шахси аввало ҳарбий дипломатик элчи сифатида тилга олиниши, унинг Тан саройи билан муносабатларда иштирок этгани, шунингдек, хоқонлик сиёсатида муҳим ўрин тутган шаҳзодалардан бири эканлиги қайд этилади. Бу маълумотлар унинг уйғур-хитой сиёсий-дипломатик муносабатларида фаол шахс бўлганини кўрсатади. Юқорида қайд этганимиздек, битигдаги маълумотлар икки тилдадир. Туркий матн қуйидагича: “*(1) ḅu k(i)m(i)ŋ (2) tis(ä)r ·b(ä)zg(ä)k (3) Yaγḷ(a)q(a)ṛ·qaṇ (4) aṭï : č(a)ḅ(ï)š (5) täg(i)n : oγḷï (6) qaṇ ṭuṭuγ· (7) aṭïṣï: (8) bögü : bil(-) (9) -gä : t(ä)ŋri· (10) qaṇ inisi (11) q(a)ṛï čoṛ (12) täg(i)n ṣïṇï (13) ẏoγï : ṭ(a)ḅγ (a)č· (14) q(a)ṇ·ẏoγḷ(a)ḍï· (15) ḷ(a) γzïṇ ·ẏïḷ· (16) (a)ḷṭ(ï)nč· aẏqa· (17) yiti : ẏaŋïqa*[37] (1) Бу кимнинг (мозори) (2) деса ҳайбатли, (3) Яғлақархон (сулоласидан бирига оид) (4) (унинг) унвони човуш (зобитдир) (5) Тегиннинг ўғли (6) Хон Тутуқ(нинг) (7) жияни (8) Бўгу Бил- (9) -га Тангри (10) Хоннинг укаси (11) Қари Чор (12) Тегин мозори(дир) (13) ёғ-ўлим (маросими) Табғач (Танг Хитойи) (14) хони (томонидан) ўтказилди (15) чўчқа йил(ининг) (16) олтинчи ой (ининг) (17) еттинчи (кунида)”.

Туркий тилдаги матнда бош образ Қари Чор Тегиннинг шажараси баён қилиниб, сўнгда унинг дафн вақти тавсифи билан якунланади. Шунинг қисқа матндаги асосий сўзлар от сўз туркумига тегишли бўлиб, шахс номлари, унвон-лавозим ва қавм-қарндошлик отларини ташкил этади. Матн 17 қаторли

[37] Матн Ч.Алйилмаз варианти олинди. *Бу учун қаранг:* [Cengiz Alyılmaz 2023: 188].

32, такрорларсиз 28 сўз, 222 белгидан ташкил топиб, таркиби қуйидагича туркумланади: отлар (*атоқли отлар: Yaγl(a)q(a)ŗ, Bögü Bilgä T(ä)ŋri, Q(a)rï Čoŗ Tig(i)n, Ţ(a)bγ(a)č); турдош отлар:* унвон-лавозим отлари: *č(a)b(ï)š, qaŋ, aţï, ţuţuγ;* қавм-қарндошлик отлари: *oγlï, aţïşï, inisi;* ҳайвон отлари: *l(a)γzïŋ;* замон (пайт) отлари: *ÿïl, aÿ(qa);* мавҳум-ҳолат отлари: *ÿoγï;* ўрин-жой отлари: *şïŋ(ï));* олмошлар (кўрсатиш ва сўроқ): *(bu, k(i)m(i)ŋ);* феъллар *(ti- -s(ä)r, ÿoγ- -l(a));* сифат *(b(ä)zg(ä)k);* сон *((a)lţ(ï)nč, yiti ÿaŋïqa)*лардан иборат. Шунингдек, матнда қуйидаги грамматик шаклларни ажратиш мумкин: *-ï; -şï* –3 шахс бирлик эгалик аффикси *(aţï: č(a)b(ï)š; oγlï; qaŋ ţuţuγ·aţïşï:; qaŋ inisi; tig(i)n şïŋï; ÿoγï); -(i)ŋ* – қаратқич келишиги *(bu k(i)m(i)ŋ);-l(a)* – фаол феъл ясовчи *(ÿoγl(a)dï); -dï* – ўтган замон *(ÿoγl(a)dï); -nč* – тартиб сон суффикси *((a)lţ(ï)nč); -qa (qï)* – тегишли (-га оид) маъносини англатувчи суффикс *(aÿqa).* Контекстда ҳозирги ўзбек тили учун ҳам аҳамиятли бўлган бир қанча лексик бирликлар бор.

Ёднома қаҳрамони шахсиятини англатиб келган *Qaŗï Čoŗ Tägin* номига алоҳида тўхталиш жоиз. Танг сулоласи сўл қўшинлари қўмондони бўлган *Qaŗï Čoŗ* Уйғур хоқонлигининг иккинчи хоқони Мўюн Чорнинг набираси (*Čaþïš Täginнинг* ўғли) эканлиги хитойча қисмда қайд этилган. *Qaŗï Čoŗ Tägin* номи хитойча қисмининг биринчи қаторида ҳам келтирилган. Манбаларда хоқондан қуйи, бегдан юқори даражадаги ҳарбий-маъмурий унвон эгасини билдирган ***čor*** унвони илк аввал Кул Тегин битигида кўзга ташланади: *“qïrγïz qaγanta Tarduš ïnanču čor kälti* – Қирғиз хоқондан Тардуш Инанчу чўр келди” (КТ, 53); *“Kül čor bašlayu ulayu šadapït bäglär* – Кул чўр бошлиқ кейинги шадапит беклар” (БХ, 13). Битигларда қўлланилган *čor* истилоҳи асосан ҳарбий қисм ёки маъмурий бирлик ёхуд муайян қавм етакчиси бўлган шахсларга бериладиган ҳарбий-маъмурий унвонни англатган. Турк хоқонлиги Ғарбий қанотини 603-611 йилларда идора этган ноибнинг номи *čora* эди. Бундан ушбу унвоннинг қадим туркийларда анчайин юқори даража эканлигини кўриш мумкин. “Туркча асосли ушбу сўз Хитой манбаларида *чхо* шаклида ёзилади ва Лиу Чиу Т’ан’да, Қутлуғнинг хоқон унвонини олишдан аввал қавмий меърос бўлган тудун *čor* унвонини олгани, иниси Қапғаннинг эса хитойчаси *Мо-čo* унвони билан аталганини қайд этилган” [Şirin 2015: 263]. Бу жиҳатдан *Qaŗï Čoŗ Täginнинг* насаби ҳисобга олинганда унинг номидаги иккинчи қисм мазкур унвоннинг юқоридаги маъноларига тўла мос келади. Айтиш лозимки, кейинчалик будда уйғур матнларида ушбу сўз юқори даражали лавозим номи эмас, балки оддий шахс оти сифатида қайд этилади: *“inällär čorlär äülärin barqlarïn qodup toyïn däntär bolmatïlar ärti* – иналлар ва чўрлар уйларини, молларини тарк этиб (Буддист) роҳиб бўлмадилар (Маитр, 1.01).

Ўрхун-Енисей битигларида учрайдиган *Kül Tägin, Toŋa Tägin, Yolluγ Tägin* [Donuk 1988: 48], уларнинг келиб чиқиши афсонасида тилга олинадиган *Or Tägin* ва уйғурларнинг инқирозга юз тутишида учрайдиган *Mäŋlig Tägin* [Cüveynî 1999: 41; Bahaeddin 1971: 61] ва Ахун тангаларида зарб этилган тегин номлари [Altheim 1960: 49] исломгача бўлган турк давлатларида сулола вакиллари учун ***tägin*** унвонининг тез-тез

ишлатилганлигини кўрсатади. Шу жиҳатдан *Qaṛï Čoṛ*нинг хоқон хонадони (Яғлақар)га тегишли эканлигини кўрсатган, шу билан бирга юқори даражали ҳарбий-маъмурий унвон сифатида билинган *tägin*ларга қўшин қўмондонлиги ёки бирор вилоят маъмурлиги берилганда улар *yabγu* ёки *šad* унвонини олишган [Altheim 1960: 49]. Сулола аъзоларини бошқа қуйи табақалардан фарқлаш учун ушбу сўзнининг бошига унинг феъл-атвори ва мавқейига мувофиқ эпитетлар қўшилиб айтилган ва кейинчалик ёзма нутқда ҳам ўз аксини топиб, анъана тусини олган. *Čaγrï Tägin, Küč Tägin, Alp Tägin, Qutluγ Tägin, Kümüš Tägin, Böri Tägin, Tuγ Tägin, Toŋa Tägin, Arslan Tägin, Toγrul Tägin, Yinäl Tägin, Yïγan Tägin, Qara Tägin* [Ömer 2011: 312] каби номлар шу жиҳатдан пайдо бўлган[38]. Шуни ҳисобга олганда *Qaṛï Čoṛ Tägin* номидаги биринчи сўзда айнан шу нуқтаи назар ҳисобга олингани ойдинлашади. Бу борада, яъни ***qaṛï*** сўзининг маъно-вазифавий ва этимологик тадқиқи борасида турли фикрлар илгари сурилган. Дастлабки тадқиқотларга кўра, қадимги туркий руник ёзувларда кўзга ташланадиган *qarï* сўзи *Qaṛï Čoṛ Tägin* номидаги биринчи сўз билан алоқалантирилади. Хусусан, ушбу сўз феъл шаклида қуйидаги манбаларда учрайди: *“qaγan alintä qarïp ädgü bäŋi körti* – қариб, хоқон юртида яхшилик (ва) бахт кўрди” (КЧ Ғ, 3); “*Özüm qarï(γ) boldum uluγ boldum* – ўзим қари бўлдим, улуғ (ёшли) бўлдим” (Тўн Ша, 6). Охирги гапдаги *qarï* сўзи *qrï* (охирги *γ* ундошисиз) тарзида ёзилади. Тўнюқуқ битиги ўқирманлари сўнгги товушда *γ* ундошининг бўлиши шарт эмаслигини таъкидласалар, от ясаш учун *qarï*- феълидан кейин *γ* товуши керак бўлади. Демак, *qarï* сўзидан кейин қўйилиши керак бўлган *-γ* қўшимчасининг (*qarï*-феълидан от ҳосил қилувчи) хусусияти унутилган дейиш мумкин [Aydin 2020: 151]. Г.Клаусон бу сўзни *qarï* (хотин) деб ўқиб, унинг одамларга ҳам, ҳайвонларга ҳам қўлланилиши мумкинлигини таъкидлайди, лекин *qarï*-феъли ҳақида ҳеч нарса демайди [Clauson 1972: 644]. Шундан келиб чиқилса, биз таҳлилга олган *Qaṛï Čoṛ Tägin* номидаги *qarï* қисми “оқсоқол” маъносини англатганда Тўнюқуқ битикидагидек *qarï(γ)* – сифат (феъл эмас) бўлиши керак эди. Агар *qarï* шакл тўғри бўлса ҳам, сулоладан бўлган хоқонзодага “қари, кекса, оқсоқол” маъносини билдирувчи унвон бериш семантик жиҳатдан тўғри келмайди, гарчи ушбу сўзнинг “улуғ, кўпни кўрган, доно” семалари активлаштириганда ҳам. Хусусан, “Девони луғатит турк”, “Қутадғу билиг” ва ДТСда ҳам *qarï* ва ундан шаклланган *qarïzan* сўзлари “қари; кучдан қолган; муккайган” маъноларида изоҳланган (ДЛТ III, 242; I, 419), (QBH, 60_{11}) (ДТС, 426-427). Хоқонзода номидаги ушбу илк сўзнинг таҳлили бошқа бир манбада анчайин асосли берилган. Хусусан, туркийча қисмда “қари” сўзининг имлосига назар ташланганда сўз охиридаги унли *ï* эканлиги аён бўлади. Битигнинг хитойча қисмига назар ташланганда у ерда “қари” сўзи *ге* ҳарфи билан ёзилгани кўзга ташланади. Хитой ёзувидаги *ге* белгиси синчиклаб ўрганиб чиқилса, у уйғур қабилаларининг “Яғлақар” (*Яолуоге*) шунингдек, “Қарлуқ” (*Гелуолу*) номларида ҳам учрайди [Giles 1912: 6060;

[38] Айтиш лозимки, *tägin* унвонининг даврлар ва ҳудудларга мувофиқ баъзи ўзгаришларни бошдан кечирганлиги кўриниб турибди.

Pulleyblank 1991: 106]. Уч уйғур қабила номининг ёзилишида қўлланилган *ге* белгиси турк тилидаги *qar* бўғинига мос келиши керак. Қари Чор Тегин унвонларининг биринчиси бўлган *qarï* сўзининг ўқилиши тўғри, лекин “оқсоқол” маъносини билдирмайди. Демак, хоқонзоданинг Яғлақарлар сулоласидан келиб чиққанлигини билдириш учун *“ге”* белгиси қўлланган бўлиши керак. Бошқача қилиб айтилганда, бу хитойча белги унинг бобоси Мўюн Чор (747-759)га ҳурмат сифатида ёзилган. *Qaṛï Čoṛ Tägin* номидаги *Qarï* сўзини Яғлақар уруғи номининг имлосида қўлланган *qar* маъносини англатувчи *“ге”* тарзида талқин қилиш керак, бу эса унинг мазкур сулолага мансублигини кўрсатади [Aydin 2020: 152]. Демак, *qarï* сўзи даъво қилинганидек “оқсоқол; кўҳна” деган маънони англатмайди, балки Яғлақарлар сулоласининг қисқартирилган шакли ва мазкур сулола номига ишора қилади. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, ёдномани яратишда бир қанча туркийча ёндашувлар ҳисобга олинган, хусусан, битиг ёзилиш санасини келтиришда хитой котиблари туркийча вақт тизимидан ҳам келиб чиқишган. Ҳар ҳолда битигни дунёга келишида хитой томони анчайин туркийча анъаналардан бохабар бўлишган ва уларга эҳтиром кўрсатишган. Демак, *Qaṛï Čoṛ Tägin* антропониминиг тузилиши ва морфологик таҳлилини ҳамда унинг семантик ва этнотаркибий қийматини қуйидагича кўрсатиш мумкин:

Қисм	Ёзилиши	Маноси	Изоҳ
Қари	*Qaṛï*	Яғлақар унвонидаги *-qaṛ’*дан. Сулолага ҳурмат юзасидан улуғлик, буюклик тимсоли	Сифат, эпитет хусусиятида
Чор	*Čoṛ/Čöṛ*	“саркарда; етакчи; жасур”: баъзи манбаларда қабила сардори ёки ҳарбий мақом сифатида келади	Туркий ҳарбий аристократия унвони. Бу ерда сулолавий ҳарбий қаҳрамонлик ёки қўмондонлик руҳини ифодалайди
Тегин	*Tägin*	“хоқонзода, шаҳзода”	Хоқон сулоласига тегишлиликни англатиб, унинг қон-қариндошлик йўли билан юксак ҳокимият доирасига мансублигини белгилайди

Сўнгда айтиш керакки, таҳлиллар антропонимнинг уч компонентли тузилиши – сифат-эпитет *(Qaṛï),* ҳарбий-аристократик унвон *(Čoṛ)* ва сулолавий мақомни билдирувчи насаб унвони *(Tägin)* каби бўғинлардан шаклланганини кўрсатади. Бу эса VII–VIII аср туркий ҳукмдорлик антропонимларига хос моделнинг тўлиқ намоён бўлишидан далолат беради. Шунингдек, *Qaṛï Čoṛ Tägin* шахсининг хоқонзодалар қатламида муҳим ўрин тутгани, дипломатик жараёнларда иштирок этгани ва туркий давлатчилик анъаналарида салмоқли мавқега эга зодагон шахс сифатида тарихга

кирганини кўзга ташланди. Антропонимнинг семантик-қиймат хусусиятлари эса туркий ономастикадаги насл, шараф, жасорат ва ҳурмат каби қадриятларнинг исм орқали ифодаланиш анъаналарини ёрқин намоён қилади.

Адабиётлар:

1. Altheim F. Geschichte där Hunnen I. – Berlin, 1960. – S. 49.
2. Aydin Erhan. “Yaglakar” Adı ve Karı Çor Tegin Yazıtındaki “Karı” Sözcüğünün Anlamı Üzerine. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi. Cilt 9 Sayı 23 Aralık 2020 – S. 151.
3. Aydin, E., Aziz, E. 2014. Xi’an Yaziti Uzerine yeni Okuma ve Anlamandirmalar. In: *Bilig*, 71, 65–80 (in Turkish).
4. Ayilmaz, C. 2013. Kari Cir Tägin Yaziti. In: *Uluslararasi Turkce Edebiyat Kultur Egiti Dergesi*, 2 (2), 1–61 (in Turksih).
5. Bahaeddin Ö. Türk Mitolojisi, – Ankara. 1971. – S. 61.
6. Cengiz Alyılmaz. Kari Çor Tigin Yaziti’nda Geçen “Bezgek” Sözcüğü Ve Uygurlarin Boy Damgasi Üzerine. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara, 2023 – S. 188.
7. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Oxford University. 1972. – P. 644.
8. Cüveynî. Tarih-i Cihan Güşâ, I, çev. Mürsel Öztürk, Ankara. 1999 – s. 41.
9. *Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.*
10. Ecsedy, H. 1965. Old Turkic titles of Chinese origin. In: *Acta Orientalia Hungarica*, 18, 83–104 (in English).
11. Giles H. A. A Chinese-English Dictionary. Second edition, Shanghai. 1912. P. – 6060.
12. Hayashi, T. 2013. Epitaph of an Uighur Prince Found in Xi’an. In: *Türk Dili Araşti rmaları Yıllığı – Belleten*, 61 (2), 209–214 (in English).
13, Kamalov, A. 2001. *Drevniye Uyghury. VIII–IX vv.* [Ancient Uyghurs. VIII–IX centuries] Almaty: Nash mir (in Russian).
14. Ölmez, M. 2015. Discussion on Old Uighur Runic Inscription from Chang’an. In: *Proceedings of the 12th Seoul International Altaistic Conference*. Seoul, 88–89 (in English).
15. Ömer Soner H. “Tegin”, DİA, XL, – Istanbul. 2011. – S. 312.
16. Oshan, Zh. 2013. Qary chor tegin epitafiyalyq eskertkishi metini zheni oghan qatynasty tarihi maghlumatlar [Text of the epigraphic monument Qara cor tegin and historical information related to it]. In: *Otan tarykhi* [History of the Homeland], 4 (64), 50–57 (in Qazaq).
17. Pulleyblank E. Lexicon of Reconstructed Pronunciation in Early Middle Chinese, Late Middle Chinese, and Early Mandarin. Vancouver: UBC Press. 1991. P. – 106.
18. Şirin H. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. – Istanbul. 2015. – 151 s.
19. Zhu Yu-qi. 2013. 朱玉麒. 葛啜墓誌”作者崔述考略 «Ge-zho muzhi» zuozhe Cui Shu kao lue. In:唐 研究*Tang yanjiu*, 27, 477–486 (in Chinese).

III BOB: ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

TÜRKISTANIN EMEVILER TARAFINDAN FETHI

Babayeva Turan
AMEA A.A. Bakıhanov Adlı Tarih ve Etnoloji Enstitüsü Doktora Öğrencisi
tbabayeva871@gmail.com

Annotatsiya: “Turkistonning Umaviylar tomonidan zabt etilishi” nomli maqola O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan “Ilk o‘rta asrlarda Turkiston: tarix va tarixiy geografiya (VI–VIII va IX–XIII asrlar)” nomli xalqaro konferensiyaga taqdim etiladi. Maqola 7 sahifadan iborat bo‘lib, unda Turkistonning Umaviylar – islom lashkari tomonidan zabt etilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Islom fathlari, Turkiston, Movarounnahr, Umaviylar, Iroq voliyligi, Xuroson, Qutayba, Nasr

Аннотация: Статья под названием «Завоевание Туркестана Омейядами» представляется на международную конференцию в Узбекистане под названием «Туркестан в раннем средневековье: история и историческая география (VI-VIII и IX-XIII века). Статья состоит из 7 страниц. В ней рассматривается завоевание Туркестана армией Омейядов-исламскими войсками.

Ключевые слова: исламские завоевания, Туркестан, Мавераннахр, Омейяды, наместничество Ирака, Хорасан, Кутайба, Наср

Annotation: The article titled "The Conquest of Turkistan by the Umayyads" is being submitted to the international conference to be held in Uzbekistan, "Turkistan in the Early Middle Ages: History and Historical Geography (6th–8th and 9th–13th Centuries)." The article consists of 7 pages and discusses the conquest of Turkistan by the Umayyad Islamic army.

Keywords: Islamic conquests, Turkestan, Transoxiana, Umayyads, Governorship of Iraq, Khorasan, Qutayba, Nasr

Özet

Arap-türk sınırı kabul edilen Ceyhun nehrini araplar geçerek İslam dinin Türkistanda yayılması için fetihler yapmışlar. Türkistana düzenli ve kalıcı ordu Emeviler zamanında gelmiştir. Dönemin şartları Emeviler lehine tezahür ettiğinden, kısa bir sürede inanılması güç bir fetih süresi yaşanmıştır. Emeviler bir devlet için kısa denilebilecek 90 yıl gibi bir sürede var oldukları müddetçe Türkistana seferler yapmışlar. Arap-İslam orduları Türkistana girdiği zaman tek devlet yerine birbiriyle savaş halinde olan küşük şehir devletleri vardır. Türklerin kendi aralarında birliği oluşturamaması Arapların bölgede rahat bir şekilde ilerlemesini sağlamıştır. Yine de Emeviler türk mukavemetiyle karşılaşmış ve iki taraf arasındaki mücadele Emevi dönemi boyunca sürmüştür. Bu makalede Emeviler döneminde Türkistanda yürütülen fetih politikaları ele alınacaktır.

Anahtar kelimeler: *İslam fetihleri, Türkistan, Maveraünnehir, Emeviler, Irak valiliği, Horasan, Kuteybe, Nasr*

İranın Horasan bölgesinden başlayarak Kuzey Afganistan dahil Pamir ve Hindukuş-Kunlun (Karanlık) dağlarının kuzey eteklerinden Çinin Tun-huang bölgesine kadar uzanan, oradan Mançuryanın batısına ulaşan, Moğolistanla birlikte Güney Sibiryanın tamamını içine alan, batıda Ural dağları ile Volga ırmağının Hazar denizine ulaştığı noktaya kadar devam eden geniş bir alanı kaplayan arazinin adı tarihi kaynaklarda XIX. yüzyıl ortalarına kadar Türkistandır (Türk yurdu). Çoğunluğunu günümüzde Uygur ve Kazak türkleri ile diğer türk gruplarının oluşturduğu Çin Halk Cumhuriyeti hakimiyetindeki bölgeye Doğu (Şarki) Türkistan, 1924-ten sonra Sovyet hakimiyetine giren alana Batı (Garbi) Türkistan adı verilmektedir. Doğu Türkistanın yüzölçümü 1.828.418 km^2, Batı Türkistanın 3.836.503 km^2-dir.

Türkistan adını ilk defa eski İranlıların, daha sonra Arapların Orta Asyada türklerin yaşadığı bölgeleri tanımlamak için kullandıkları bilinmektedir. Arap coğrafiyacısı Yakubi, Pamir yaylasının Türkistan denilen yer olduğuna işaret eder. Sasaniler döneminde ve İslam fetihleri devrinde Türkistan adı Maveraünnehirin doğusundaki dağlara ve kuzeyindeki ülkelere verilmiştir. [Taşağıl 2012: 556]

7. yüzyılda Müslümanlığın doğuşuna kadar Türkler ve Araplar bir-birlerinden haberdar olmakla beraber, doğrudan ilişkileri yoktur. Arapça eserlerde Hunlar ve Sakalar olarak anılan türkler 6. yüzyılda Köktürklerle birlikte türk diye anılmaya başlamıştır. Hz. Muhammedin vefatından sonra Hz. Ebu Bekir, Hz Ömer ve Hz. Osman zamanında İslam fütühatı başlamış ve sonralarda devam ettirilmiştir. Sasani devletinin yıkılması ve Köktürklerin zayıflamsıyla Maveraünnehir ve Harezmdeki mahalli hanedanlar bağımsızlıklarını ilan etmişlerdir. "Maveraünnehir" adı, Ceyhun/Amu Derya Nehrinin doğusunda Türkistan ve Turan adlarıyla anılan bölgeye Emeviler tarafından verilen bir isimdir. [Türkeş 2010: 150-152]

Arap devletinde çıkan iç karışıklıklardan sonra 661 yılında hilafet makamına oturan Muaviye b.Ebu Sufyan (661-680) Emeviler döneminde Türk-Arap ilişkilerinde yeni dönem başlatarak, Hz. Osman ve Hz. Ali döneminde ara verilen fetih hareketleri yeniden hız kazanmıştır. [Koyuncu 2002: 598; Yıldız 2015: 43] Basraya bağlı olan Horasan ve Maveraünnehirde hakimiyeti yeniden sağlaması için bölgeyi iyi bilen Abdullah b. Amr vali olarak atanmıştır. [Aycan 2014: 23-24] Sonralar Abdullah geçmişde savaşda tanıdığı Kays b. el-Heysemi 662 yılında Horasana tayin etmiş ve Heysem Belhi itaat altına alarak, burada imar faaliyetlerinde bulunmuşdur. İki yıl sonra yerine gelen Abdurrahman b. Semure Kabul, Belh ve Büst ele geçirilmiştir. Sind fethinde türklere yenilince görevden alınmıştır. [Yıldız 2015: 43]

Fetihleri yeniden başlamış ve Sind bölgesindeki (Şimdilerde Pakistanın arazisi olan bölge) Türkleri, 664 yılında mağlup edilerek hakimiyet altına alınmıştır. Horasan (Horasan İran coğrafyasında yer alan bir bölge olup, İran yaylasının en doğu kısmında Türkmenistan ile Afganistan sınırına kadar uzanır. Ortaçağ boyunca coğrafi ve idari bakımdan stratejik bir bölge olmuşt ur. Horasan şehirleri Ortaçağ İslam dünyasının önde gelen şehirleri arasındaydı. Horasan

eyaletinin önemli şehirleri: Nişabur, Belh, Herat, Merv olmuşdur. [Arifoğlu 2013: 4;18]) ve Sistana (İranın doğusuyla Afganıstanın güneybatısını kapsayan coğrafı bölge) yaptıkları planlı askeri harekatla Ceyhun/Amu Derye Nehrini geçerek Sağaniyan/Çağaniyana kadar ilerlemiş ve türklere karşı başarılar kazanmışlardır. Horasan valisi Rebi b. Ziyad el-Harisi döneminde buraya ilk defa araplar yerleştirilmiştir. Kufe ve Basradan yaklaşık 50.000 kişiyi Horasanın Merv, Herat, Nişabur gibi önemli merkezlerine yerleştirmişlerdir. Türkistana yapılacak seferleri Horasandan idare etmek üzere burayı askeri bir üs yapmışlardır [Türkeş 2010: 150-152].

674 yılında Ubeydullah b. Ziyad Horasan valiliğine atanmıştır. 25 yaşlı Ubeydullah b. Ziyad yirmidıɾtbin askeri ile nehri geɜerek Beykende geldi. Bu zaman Kabac Hatun (Buhara hakimi) Buhara şehrindeydi. Hatun elçi gönderib türklerden yardım istesede, onları hezimete uğrattılar ve ordugahlarını ele geçirdiler.

Hatunun sülh ve eman istemesine karşılık Ubeydullah, birmilyon ödemek şartıyla onunla andlaştı ve şehre girmiş oldu. Ayrıca Ramdin ve Beykendi de fethetti. Başka rivayete göre Ubeydullah, Sağanıyanı da feth etmişti.

676 da Horasan valisi olan Said b. Osman b. Affını göreve gelir gelmez Buhara ve Semerkant seferlerine çıktı. Çünkü Kabac, Said aleyhine Türk, Soğd, Kiş ve Nesef kuvvetleriyle güç birliği yapmıştı. Müttefikleri bozguna uğratan Said, ordusuyla Buhara'ya girdi. Ardından Semerkantı kuşatarak vergiye bağladı. Son olarak da bir ticaret merkezi olan Tirmizi ele geɜirdi. [Belazuri 2013: 471-472]

678 yılında Muaviye yanına gelerek ondan makam isteyen Abdurrahman b. Ziyadı Horasana vali tayin etmişti. İki yıl görevde kalan Abdurrahman hiç bir yürüş yapmamış, tarihde cömert olduğu kadar açgöz ve zayıf biri kimi anılmıştır. Muaviye öldüğünde de o burada vali olmuştur. [Tabari 1987: 200, Belazuri 2013: 474]

Muaviye dıɲemini ıɾzetle geɜersek Maveraünnehirin en önemli merkezleri üzerinde hakimiyet kurularak, gerçekleştirilecek fetihlerin alt yapısı oluşturulmuştur.

Muaviye öldükden sonra yerine geɜen oğlu Yezid b. Muaviye yalnızca 4 yıl hakimiyyetde kalmıştır.

Bundan sonra Yezid b. Muaviye. Selm b. Ziyadı vali tayin etmiştir. Belazuriye göre Selm eşini de yanına alarak nehri geçmiş ve Semerkanta ulaşmıştı. Buradan Hocend üzerine bir ordu gönderse de bu ordu mağlup olmuşdur. Bunun üzerine Merve dönmeye karar vermişti. [Belazuri 2013: 474-475]

Abdülmelik b. Mervan döneminde (685-705) fetihlerde görülen hareketlilik Maveraünnehir için pek değişmemeiştir. Bunun en önemli sebebi Zübeyri hareketidir. İbn Zübeyre biat eden Horasan valisi Abdullah b. Hazimin çıkardığı isyanı bastıran Abdülmelik, bu makama Bükeyr b.Vişahı (691), daha sonra Ümeyye b. Abdullahı atamıştı (693). Diğer valiler gibi Ümeyye de bölgenin siyasi merkezi olan Buharaya, ardında da Tirmize sefer düzenlemişti (696). [Akyürek 2013: 91]

Abdullah b. Hazim etkisiz hale getirilsede, oğlu Musa Tirmizde Emevi idaresine isyan etti. Musa b. Abdullah (704) yılında türkler, araplar ve tibetlilerden

müteşekkil bir orduyu mağlup edince bölgedeki gücünü pekiştirdi. Onun başarısı Emevi iktidarının Maveraünnehr hakimiyetini o kadar sarsıtmıştı ki, mahalli prensliklerin bazıları vergilerini Emevilere değil Musaya vermeye başlamışlardır.

Abdullah b. Zübeyr hareketini bastıran Abdülmelik doğu eyaletlerinde Arap hakimiyetini yeniden sağlamak amacıyla Irak umumi valiliğine Haccac b. Yusufu getirdi (697). Onun Horasana vali tayin ettiği Muhelleb b. Ebi Sufra (699) yılında Kiş üzerine düzenlediği seferde şehri iki sene muhasara etmesine rağmen ele geçiremedi. Ardından oğlu Yezid b. Mühelleb de bölgede başarısız seferler yapınca azledilip yerine üvey kardeşi Mufaddal geçti. Mufaddal, Emevilerin hakimiyetine gölge düşüren Musa b. Abdullahı ortadan kaldırmasına rağmen görevinden alındı. Bu şekilde Haccacın, Irak valiliğinin ilk yılları Aşağı Türkistan hakimiyeti için başarısız bir dönem oldu.[Apak 2002: 573]

Abdülmelik bin Mervan oğlu Velite Atlas Okyanusundan Ceyhun Nehrine kadar geniş topraklara sahip güçlü bir devlet bıraktı. Velit döneminde İslam coğrafiyası daha da genişlenecek, halife parlak fetihler yapmış olacaktır.

Velid döneminde (705-715) Haccac 705 yılında Horasan valisi olarak Kuteybe b. Müslim el-Bahiliyi tayin etmiştir. Kuteybe, Arap- Türk sınırı kabul edilen Ceyhun Nehrini aşarak Maveraünnehire girip Belh ile bir likte Toharistanı ele geçirdi (705). Daha sonra Buhara, Beykent ve Semerkant gibi Türk illerinde hakimiyet kurdu. [Aydınlı 2015: 69]

712 yılında Kuteybe kardeşi ile birlikde Harezme karşı yürüşe çıktı. 713 yılında Buhara, Kiş, Nesef ve Harezm halkı, Kuteybenin emri üzerine 20.000 asker vermeğe mecbur edildiler. Kuteybe Buhara, Semerkant ve diğer şehirlerde mescidler yaptırdı ve Buhara halkını şehirdeki evlerin yarısını araplara terketmeğe mecbur etti. (aynı usül Mervde, Horasanın ilk valileri zamanında uygulanmıştır). Bir kaynağa göre Semerkant ahalisi, şehri tamamiyle boşaltmaya mecbur edilmiştir. Araplar şehri işgal ederken Kuteybe, Ad ue Semud kavimlerinin mahvına dair ayeti okuyordu. [Barthold 1990: 201]

Kuteybe 713-715 yıllarında Turkistanda fetih hareketleri yaparak, Fergana ve Kaşgarı feth etmesine rağmen, kesin sonuç elde edemedi. Türkistanda çok uzun süren türk-arap mücadelesinde türkler, yurtlarını araplara karşı savunmuştular. Bu bölgedeki türklerin arap hakimiyetini kabul etmemesinin ilkin sebebi olarak, türklerin müslüman oldukları halde ağır vergi ödemeleri idi. Emevilerin bu uygulamaları bölgedeki fetihlerin kalıcı olmamasına, türklerin islama girişinin yavaşlamasına sebep olmuştur. [Aydınlı 2015: 69-70]

Halife Velid öldükten sonar yerine kardeşi Süleyman (715-717) keçmiştir. Kuteybe için zor zamanlar gelmişti. Зьnki o, Abdülaziz b.Velidin veliahtlığı noktasında Velide tam destek vererek Süleymana karşı cephe almıştı. Süleyman Yezid b. Mühellebi Irak genel valiliğine atamıştı. Küteybe geçmişte Mühellebi ailesi ile de problemler yaşamıştı. [Tabari 1989: 7; 32]

715 yılında Kuteybe yeni halife Süleymana karşı isyan ettiği zaman, birlikler tarafından terkedilerek katledildi. Onun ölümünden sonra araplar Ferganayı ve Seyhun (Sırderya) havzasındakı vilayetleri kaybettiler. [Barthold 1990: 201]

Emevi tahtına oturan Ömer b. Abdülaziz (717-720), Maveraünnehr ve Türkistanda fetihler ve yerli halka kötü muameleyle müslümanlığı yayma

politikasını bırakmış ve dostane ilişkilerle islamiyeti gönülden benimsetmek yolunu seçmiştir. Bu yeni politikayla, şiddet, haksız vergiler ve aşalayıcı davranışlardan vazgeçilince Maverünnehir ve Türkistanda müslümanlık hızla yayılmaya başlamıştı. Lakin Ömer b. Abdülazizin ölümünden sonra gelen yöneticiler tekrar katı bir tutum içine girmişlerdir. [Türkeş 2010: 153-154]

Ömer b. Abdilaziz halifeliği döneminde Horasan valiliğine Cerrah b. Abdullahı atandı. Lakin Cerrah Horasanı "kılıç ve kırbaç" sayesinde idare edile biliriz diye fikrini yürütdüğünden, dindar halife olan Ömer onu azlederek yerine Abdurrahman b. Nuaym el-Gamidiyi tayin etmişti. [Barthold 1990: 204]

Halife Ömer b. Abdülazizin 720 yılında Halepte ölmesi üzerine yerine geçen yeni halife Yezid b. Abdülmelik (720-724) ölen halifenin kaldırmış olduğu uygulamaları yeniden getirmiştir. Yezid iktidara gelince Horasana vali olarak Said b. Amr el-Harisiyi atamıştı. Saidin halka karşı gaddar davranışı sebebiyle görevden alınmıştı. Onun yerine Müslim b. Said b. Züraa el-Kilabiyi getirilmiştir. Türklerle savaşta ağır yenilgiye uğrayan Müslimin yerine 724 yılında Esed b. Abdullah atanmıştır. Talekan dağlarının arkasında bulunan Karsistan ve Gur bölgesini ele geçiren Esed Huttele yaptığı saldırıda türkler onu yenerek rezil etmişler. Halka karşı sert davranışlarından dolayı 728 yılında azledilen Esedin yerine Eşres b. Abdullah es-Sülemi vali olarak tayin edildi. Bu vali bölgede ilk "ribad" yaptıran şahıstır. (Ribadlar ülkeyi düşman hücumlarına karşı korumakla görevli süvari birliklerine mahsus hudut boylarındakı karakollardır.) [Aydınlı 2011: 265, Barthold 1990: 205]

Halife Hişam (724-743) zamanında vali tayin ettiği Eşreste umduğunu bulamadıkda Cüneyd b. Abdurrahmanı Horasan vali olarak atadı. Yeni vali türklerle savaşta başarılı oldu. Onun döneminde durumları kuvvetlenmeye başladı. El-Cüneyd Mervde ölmüştü. [Belazuri 2013: 492]

Horasan bölgesine tayin edilen valiler uzun yıllar Haris b. Süreyc isyanı ile uğraşmışlar. Fakat bölgeye atanan son Emevi valisi bu isyanı bastırmakta başarılı olmuştur. 738 yılında Horasan bölgesine atanan Nasr b. Seyyar el-Kinani 746 yılında Merv yakınlarında Haris b. Süreyci öldürmüştür. Onun döneminde Horasan Irak genel valiliğinden ayrılarak halifeye bağlı bağımsız bir valilik haline gelerek huzur ve istikrar sağlanmıştır. [Kitapçı 1988: 259-262; Kister 1986: 224]

748 yılı başlarında Nasr Horasanı terk etmeğe mecbur edildi ve aynı yılın sonbaharında İranda öldü. 749 yılı sonunda, hilafetin Emevilerden Abbasilere geçişi Batı Asyada da bir emri-vaki olmuştu. [Barthold 1990: 201]

Bu döneme kadar Emevi hanedanlığı Horasan bölgesini yakıp yıkmış adeta taş üstünde taş bırakmamışlardır. Türkistanı Araplar o kadar yakıp yıkmışlardı ki oralarda yanan yıkılan ocaklar ve yıkılan viranelerin direklerinden başka ortada bir işaret ve alamet kalmamıştı. [Kitapçı 1988: 260]

Diğer taraftan İslamiyet lehine çok hayırlı gelişmelerde olmuştur. Bu cümleden olmak üzere mahalli Türk hükümdarlarının birçoğu ve onların yakın çevreleri müslüman olmuşlardır. Ayrıca İslam dini, bölge sakinleri ve Türkler arasında çok süratli bir şekilde yayılmaya başlamış ve müslüman toplum, yine bu zaman zarfında güçlü bir varlık haline gelmiştir. Bu gelişmelerin devamı olarak

Türk yurtlarında aristokrat tabakaya mensup birçok kimse de müslüman olmuşlar[Kitapçı 2002: 481].

Kaynakэa

1.Taşağıl 2012-Taşağıl A. Türkistan. İslam Ansiklopedisi. İstanbul 2012

2.Türkeş 2010-Türkeş-Günay Umay. Türklerin tarihi (Geçmişten geleceğe). Ankara 2010

3.Koyuncu 2002-Koyuncu M. Türkler ve İslam dünyası. Yeni türk yay. Ankara 2002

4.Yıldız 2015-Yıldız H.D. İslamiyet ve türkler. İstanbul. İlgi kültür sanat yay. 2015

5.Aycan 2014-Aycan, İ. ve Sarıçam, İ. Emeviler. Ankara: TDV Yay. 2014

6.Arifoğlu 2013- Arifoğlu Y. VIII. Yüzyıl ile XI. yüzyıllar arasında Horasanın dini ve sosyal yapısı. Yüksek lisans tezi. Aralık 2013

7.Belazuri 2013-Belazuri A. Ülkelerin fetihleri. İstanbul. Siyer yay. 2013

8.Tabarı 1987-Tabarı A. Between Civil Wars: The Caliphate of Muawiyah. (The History of al-Tabari) New York 1987

9.Akyürek 2013-Akyürek Y. Emeviler dönemi fetih politiksaı ve Maveraünnehirin fethi. Uludağ universitesi ilahiyat fakültesi dergisi.Bursa 2013

10.Apak 2002-Yrd. Doç. Dr Apak A. Emeviler dönemi Türk-Arap ilişkileri ve türklerin İslamlaşma sürecinin başlangıcı. Türkler cilt 4. Ankara 2002

11.Aydınlı 2015-Aydınlı O. Seçmeli İslam Tarihi. Devlet kitapları 2015

12.Barthold 1990-Barthold V. Moğol istilasına kadar Türkistan. Ankara 1990

13.Tabarı 1989-Tabarı A.The Empire in Transition. (The History of al-Tabari) New York 1989

14.Aydınlı 2011-Aydınlı O.Fethinden Samanilerin yıkılışına kadar (93-389/711-999) Semerkant tarihi. İstanbul: İsam yay 2011

15.Kitapçı 1988-Kitapçı Z. Türkistanda İslamiyet ve türkler. Konya. Nur Basımevi 1988

16.Kister 1986-Kister M.Jal-Harih b.Suraydj. In the encyclopedia of İslam (Vol III, p. 224) Leiden 1986

17.Kitapçı 2002-Kitapçı Z.Orta Asyanın Müslüman araplar tarafından fethi. Türkler cilt 4. Ankara 2002

QUR’ONIY (ISLOM) DAVRDA ARABISTON TARIXIY GEOGRAFIYASI (SAYID MUZAFARUDDIN NADVIYNING “QUR’ONNING TARIXIY GEOGRAFIYASI” ASARI ASOSIDA)

Azamat Sharipov
Oriental Universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi,
katta o‘qituvchi
✉ tarixiypochta@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pokistonlik olim Sayid Muzafaruddin Nadviyning “Qur’onning tarixiy geografiyasi” (*Arḍ-ul-Qur’ān*) asarida Arabiston

yarim orolining tarixiy geografiyasi borasidagi fikr-mulohazalari keltirib o’tiladi. Shuningdek, Arabiston yarim orolidagi tarixiy hududlar, viloyat va joylarning nomi kelib chiqishi borasidagi qarashlar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Arabiston, Hijoz, Najd, Yaman, Makka, Madina, Arud, Najron, O‘mon, Bahrayn, Arabiston Suriyasi, Arabiston Iroqi, Adnon, Qahton, Banu Ajal, Toif, Haybar, Ahqaf, Sano, Madyan, Hadramaut.

Аннотация. В данной статье представлены взгляды пакистанского учёного Саййида Музаффар-уд-дина Надви на историческую географию Аравийского полуострова, изложенные в его труде «Историческая география Корана» (Arḍ al-Qur’ān). Кроме того, в статье рассматриваются его взгляды на происхождение названий исторических областей, провинций и местностей Аравийского полуострова.

Ключивые слова: Аравия, Хиджаз, Неджд, Йемен, Мекка, Медина, Аруд, Наджран, Оман, Бахрейн, Аравийская Сирия, Аравийский Ирак, Аднан, Кахтан, Бану Аджаль, Та’иф, Хайбар, Ахкаф, Санаа, Мадьян, Хадрамавт.

Annotation. This article presents the views of the Pakistani scholar Sayyid Muzaffar-ud-din Nadwi regarding the historical geography of the Arabian Peninsula as discussed in his work “The Historical Geography of the Qur’an” (Arḍ al-Qur’ān). In addition, the article outlines his perspectives on the origins of the names of historical regions, provinces, and places within the Arabian Peninsula.

Keywords: Arabia, Hejaz, Najd, Yemen, Mecca, Medina, Arud, Najran, Oman, Bahrain, Arabian Syria, Arabian Iraq, Adnan, Qahtan, Banu Ajal, Taif, Khaybar, Ahqaf, Sana’a, Midian, Hadramawt (Hadramaut).

Arablar o‘zlari yashab turgan hududlariini “*Jazirat-ul-' Arab*” deb atashadi. *Sir William Muir va D.G. Hogart*[39] kabi islomshunos olimlar Arabistonni qadimgi dunyoning yuragi deb atashgan. Antik olimlardan Herodot, Pliniy, Strabon, Ptolomey, Diodor Qadimgi Arabiston geografiyasi haqida ma’lumot berib o‘tishgan. O‘rta asr islom davri olimlaridan Al-Ya’qubiy (Kitāb al-Buldān), Ibn Xurdodbeh (Kitāb al-Masālik wa-l-Mamālik), Al-Mas’udiy (Muruj adh–Dhahab), Al-Hamdaniy (Ṣifat Jazīrat al-‘Arab), Al-Idrisi (Nuzhat al-Mushtāq), Al-Balazuriy (Futūh al-Buldān) Arabiston geografiyasi haqida o‘z asarlarida bayon etishgan. Biz keltirib o‘tayotgan Sayyid Muzaffaruddin Nadviy yangi davr olimlaridan bo‘lib, Arabiston tarixiy geografiyasini “Qur’on davri tarixiy geografiyasi” asari bilan boyitgan. XX asrda Arabiston tarixiy geografiyasini asosan g‘arblik olimlar tadqiq qilgan. Ular orasida yagona musulmon olimi aynan Sayyid Muzaffaruddin Nadviy hisoblanadi.

Arabiston chegaralari. Arab geograflariga ko‘ra, Arabistonning g‘arbiy chegarasi Suriya cho‘lining bir qismi bilan (Balqodan Ila yaqinidagi Aqabaga qadar cho‘zilgan) belgilanadi; janubi-g‘arbda Qizil dengiz, Midyon hamda Jidda

[39] Devid Jorj Hogart — britaniyalik arxeolog va olim bo‘lgan, Sir Uilyam Myur esa shotlandiyalik sharqshunos, Britaniya Hindistonidagi mustamlaka ma’muri hamda Edinburg universitetining rektori edi. Hogart arxeolog bo‘lish bilan birga muzey kuratori va Qirollik Geografiya jamiyati prezidenti lavozimlarida ham faoliyat yuritgan, Myur esa muhim mustamlaka ma’muri va islomshunos olim sifatida tanilgan.

shahridan Yaman qirg‘og‘igacha bo‘lgan hudud bilan; sharqda Hind okeani, *Adan* va *Zafor*dan Muhragacha bo‘lgan yerlar bilan; sharqda yana O‘omn qo‘ltig‘i, Fors qo‘ltig‘i, Muhra, O‘mon hamda Bahrayndan Basra va Kufagacha bo‘lgan yerlarga tutashadi; shimolda esa Furot daryosi va *Balqo* bilan chegaralanadi. Boshqacha aytganda, Arabiston sharqda Fors qo‘ltig‘i va Ummon qo‘ltig‘i, janubda Hind okeani, g‘arbda Qizil dengiz, shimoli-g‘arbda Aqaba qo‘ltig‘i, Suriya va Falastin, shimoli-sharqda esa Furot daryosi bilan chegaralangan.

Arab geograflari chizgan Arabiston xaritasiga nisbatan yahudiylarlar, yunonlar va rimliklar tasvirlagan Arabiston nisbatan kichik tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Chunki unda *Sinay* yarimoroli to‘liq ko‘rsatilmagan hamda Arabiston va Suriyaning bir qismini o‘z ichiga olmagan. Buning sababi, yunonlar bosib olgan hududlargina tasvirlashganligi va bu hududlarni arablar Islom kelguniga qadar qaytarib ololmaganligidan edi. Shu sababli ular bu yerlarga Arabistondan tashqari hudud sifatida qaraganlar. Aslida esa, o‘sha hududlar har doim Arabistonning bir qismi bo‘lgan va juda yaqin etnik va madaniy aloqalarga ega edi.



Daniel Stoekl, Helene David-Cuny va Astrid Emery (2020-yil) tomonidan ishlangan Arabiston xaritasi

Arabiston hududi. Arab geograflari odatda biror yurtning maydonini uning bir chetidan ikkinchi chetiga borish uchun ketadigan vaqtga qarab tasvirlaydilar. *Abū*

al-Fidāʾ o‘zining Taqvīm al-Buldān[40] nomli kitobida Arabiston yurtini yetti oy o‘n bir kunda kezib chiqish mumkinligini yozadi. Arabiston hech qachon hozirgi zamonaviy ma’noda to‘liq o‘lchanmagan. Shunga qaramay, uning ulkan yurt ekani aniq hamda Hindiston yarimoroliga qaraganda kattaroq, Germaniya va Fransiya maydonining to‘rt baravariga teng. Shimoldan janubga (ya’ni Port-Saiddan[41] Adangacha[42]) u 1500 mil[43] uzunlikda, g‘arbdan sharqqa (Port-Saiddan Furot daryosigacha) esa 600 mil kenglikda bo‘lib, umumiy maydoni 1,200,000 kvadrat milni tashkil etadi.

Tabiiy xususiyatlar. Ulkan Arabiston yurti kam aholi yashaydigan, qumli va tog‘li hududdir. Bu – suvsiz cho‘l. Deyarli daryo nomiga arzigulik birorta suv havzasi yo‘q. Odamlar odatda tog‘lardan oqib tushadigan soylar, suv havzalari (hovuzlar) va ochiq maydondagi quduqlarga tayanadilar. Iqlimi issiq va quruq. Suriyadan Arabistonning shimoligacha cho‘zilgan ulkan cho‘lni arablar “*Suriya cho‘li*”, arab bo‘lmaganlar esa “*Arabiston cho‘li*” deb ataganlar. Ikkinchi katta cho‘l “*ad-Dahnā*” (ya’ni, *qumli cho‘l*) bo‘lib, “*Rub‘ al-Xolī*” (“*yolg‘izlik mamlakati*”) nomi bilan ham tanilgan. Bu cho‘l 11° shimoliy kenglik va 2° sharqiy uzunliklar oralig‘ida joylashgan bo‘lib, uning maydoni 250.000 kvadrat milga teng. Mamlakat bo‘ylab shimoldan (Suriya) janubga (Yaman) cho‘zilgan eng katta tog‘ tizmasi mavjud bo‘lib, u “*Jabal-us-Sarāt*” nomi bilan tanilgan; uning eng baland cho‘qqisi 8000 fut[44]dir.

Yuqorida aytilganidek, Arabistonda daryo nomiga munosib birorta suv havzasi yo‘q. Ammo bu kamchilik tog‘lardan doimiy ravishda oqib tushadigan soylar orqali yetarlicha qoplanadi. Ushbu soylar tog‘ etaklari va vodiylarni unumdor holatda ushlab turadi. Bu soylar yonma-yon oqib, oxir-oqibat sun’iy daryoga aylanadi va u esa cho‘l qumlariga singib ketadi yoki dengizga quyiladi. Qadim zamonlarda Arabiston podshohlari suv oqimini nazorat qilish uchun to‘g‘onlar qurganlar, chunki soylar ba’zan toshqin paytida xavfli tus olardi. Arabistonning qirg‘oq bo‘ylarida joylashgan shahar va viloyatlar, ayniqsa Hind okeani va Qizil dengiz qirg‘og‘ida joylashgan Yaman viloyati juda unumdor hisoblanadi. Shu sababli bu hudud yunonlar orasida “*Arabia fertilia*” (“Unumdor Arabiston”) nomi bilan mashhur bo‘lgan. ***O‘mon, Hadramavt, Najd va Toif*** Arabistonning eng serhosil va eng unumdor hududlari hisoblanadi.

Arabiston mahsulotlari. Arabistonning mahsulotlari asosan xurmo, olma va boshqa turdagi mevalardan iborat. Ba’zi joylarda dehqonchilik uchun yaroqli yerlar ham uchraydi. Qadimiy xalqlar orasida Arabiston kumush va oltin konlari hamda atirlar bilan mashhur bo‘lgan. Oltin konlari va kundur (ladan) haqida ma’lumotlar Bibliyada ham, antik manbalarda ham uchraydi. *Hamdaniy* o‘zining Ṣifātu Jazīrat al-‘Ara*b* [Müller,D.H., 1884] asarida Arabiston konlarini batafsil tasvirlagan. *R.F.Burton* esa *“**Madyanning Oltin Konlari**” [*Richard Francis Burton, 1878*]* nomli kitob yozgan. O‘mon va Bahrayn sohillari, go‘yo “*marvarid*

40 https://www.britannica.com/topic/Taqwim-al-buldan
41 Misrda Suvaysh kanali yaqinidagi shahar
42 Yamandagi port shahar
43 1 ***mill (mile)*** — bu uzunlik o‘lchovi bo‘lib, ***taxminan 1,609 kilometrga*** teng.
44 ***1 fut (foot)*** — bu uzunlik o‘lchovi bo‘lib**, *0,3048 metrga (***1 fut ≈ 30,48 sm*)* teng.

konlari”dir, chunki har yili minglab suv tubiga sho‘ng‘uvchilar marvarid ovlash bilan shug‘ullanadi. Biroq arab savdogarlari bu mehnatning foydasidan juda oz ulush olganlar, chunki daromadning “katta ulushi” ingliz kompaniyalari cho‘ntagiga ketgan. 1910-yilda faqat Bahrayn marvaridlarining o‘zi ***12 00 000 funt sterling*** (1,2 million funt) bilan baholangan edi.

Arabistonda uchraydigan hayvonlar ichida ot go‘zalligi va tezligi jihatidan tengsizdir, tuya esa eng foydali va qimmatli hayvondir. Bu yerda kiyiklar, sherlar va boshqa hayvonlar ham uchraydi. Tarixchi Gerodot Arabistonning yirqich qushlari va zaharli ilonlari haqida eslatib o‘tgan.

VI asr. Arabiston yarim oroli siyosiy xaritasi

ARABISTON VILOYATLARI

Arab geograflari Mesopotamiya va Arabiston Suriyasini hisobga olmagan holda o‘z yurtlarini besh viloyatga bo‘lganlar. Bular: ***Tihāmah, Hijoz, Najd, Yaman va ‘Arūd*.** Ko‘plab zamonaviy geograflar *Tihāmah*ni Hijozning bir qismi deb hisoblaydi. Arabistondagi eng katta tog‘ tizmasi – ***Jabal-us-Sarāt***, shimoldagi Suriya chegarasidan tortib, janubda Arabiston (Yaman) chegarasigacha cho‘zilib, Arabistonni ikki qismga – ***sharqiy va g‘arbiy qism***ga bo‘lib turadi. G‘arbiy qism sharqiy qismga qaraganda kichikroq bo‘lib, Suriyadan Yaman chegaralarigacha, kengligi esa *Sarāt* tog‘laridan Qizil dengiz qirg‘oqlarigacha yetadi. Bu qism ***Hijoz*** nomi bilan mashhur. Hijozning janubiy tomonidagi pasttekisliklar (Yaman tomonga qaragan) ***Tihāmah*** va ***G‘avr*** deb ataladi (G‘avr – “*past yotgan yer*” degani). Sharqiy qism balandroq bo‘lib, *Sarāt* tog‘laridan Mesopotamiyagacha cho‘zilgan hudud ***Najd*** nomi bilan tanilgan (Najd – “*baland yer*” demakdir). Tihāmah va Najd oralig‘idagi tog‘li hudud ***Hijoz*** deb ataladi, chunki u ikki yurt orasida to‘siq bo‘lib turadi (*Hijoz* yoki *Hijiz* so‘zi aslida “*to‘siq, parda*” degan ma’noni bildiradi). ***Yamāmah, O‘mon, Bahrayn*** va Najd bilan Iroq oralig‘idagi Fors qo‘ltig‘i bo‘ylab joylashgan yerlar ***‘Arūd*** deb ataladi. “*Arūd*” so‘zi “*egri chiziq*” degan ma’noni bildiradi va bu hududning shakliga ishora qiladi.

Arabistonning janubiy qismi, Qizil dengiz qirg‘oqlaridan O‘mon qo‘ltig‘igacha cho‘zilgan (Hijoz va ‘Arūd qismlari bundan mustasno) ***Yaman*** deb ataladi. Yaman “*serhosil va barakali yer*” degan ma’noni anglatadi (Yamn – “*baraka*” demakdir).

ARŪD VILOYATI

U uchta tumandan iborat: *Yamāma, Bahrayn* va *O‘mon.*

Yamāma. U sharqda *O‘mon* va *Bahrayn*, janubda *Ahqāf* (qumli cho‘l), g‘arbda Hijoz va Yamanning bir qismi, shimolda esa Najd bilan chegaradosh. Yamāmaning shimoliy qismi juda unumdor.

Qadim zamonlarda Yamāma *Tasm va Jadīs* qabilalarining yurtlari bo‘lgan. Hududdagi mashhur shaharlardan *Hijr* **(**yoki *Qariyah***)** va *Ja‘da* nomlari ma’lum. Shu qabilalarga tegishli bino va qal’alar xarobalari Islom davriga qadar Yamāmada mavjud bo‘lgan. *Hijr shahri*, “*Qariyah*” deb ham atalgan, ushbu qabilalarning markazi bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra, ko‘kko‘z *Zarqā***’** ismli ayol shu qishloqda yashagan bo‘lib, uning ko‘rish qobiliyati shu qadar o‘tkir ediki, uch kunlik masofadagi (ya’ni 30 mil uzoqlikdagi) dushmanni ko‘ra olgan, deyiladi. Islom kelishidan biroz oldin *Yamāma* mashhur *Banū Hanīfa* qabilasining vatani edi. Bu qabila *Bakr ibn Voil* qabilasining bir bo‘lagi sanalgan. Ularning bir guruhi 8-hijriy yilda Payg‘ambar (S.A.V.) huzuriga kelib Islomni qabul qilgan. Abu Bakr (r.a.) davridagi *Al-Ridda* janglarida o‘ldirilgan kazzob payg‘ambar *Musaylima al-Kazzāb Banū Hanīfa* qabilasidan edi.

Bahrayn. Bahrayn “*al-Ihsā’*” nomi bilan ham tanilgan va bu qirg‘oqdagi port shahar. U g‘arbda Yamāma, sharqda esa Iroq bilan Fors qo‘ltig‘i o‘rtasida, janubda esa O‘mon bilan chegaralangan. Yuqorida aytilganidek, Bahrayn *marvarid*lari bilan mashhur bo‘lib, har yili minglab suv tubiga sho‘ng‘uvchilar marvarid ovlash bilan shug‘ullanadi. Bahrayn tarixida *Jadis qabilasi* (*Tasm*ni mag‘lub etgach *Yamāma*ni egallagan) Yamāma podshohi *Hisān* tomonidan quvib chiqarilgan va Bahraynga qochib ketgan. Keyinchalik u yerga **‘***Abdul Qays* qabilasi (*Adnon* naslidan) kelib joylashgan. *Rabi‘a* qabilasining ba’zi urug‘lari ham shu yerda yashagan. Milodiy *VI asrda* Bahrayn *forslar* hokimiyati ostida bo‘lgan, va *Manādḥira*(Laxmiylar) (Iroq va qo‘shni hududlarning fors noibi) hamda uning naslidan bo‘lgan kishilar bu yurtni boshqargan. Mashhur arab shoiri *Tarafoh* Bahraynda Manādḥira (Laxmiylar) avlodlaridan biri tomonidan o‘ldirilgan. Hijriy 6-yilda Bahrayn hukmdori *Munzir ibn Sāvīy* va o‘zining barcha arab fuqarolari bilan Islomni qabul qilgan va musulmon bo‘lgan. Bahrayndagi *Abdul Qays* qabilasidan bir guruh vakillar Payg‘ambar (S.A.V.) huzuriga kelib bay‘at qilgan. Islom davrida Bahraynda ro‘y bergan eng mashhur voqealardan biri – *Qarmatiylar* (yarim musulmon, yarim majusiy guruh)ning shu yerni o‘z siyosiy markaziga aylantirganidir.

O‘mon. Sharqda O‘mon qo‘ltig‘i, janubda Bahrayn, g‘arbda Ahqāf (qumli cho‘l), shimolda esa Yaman bilan chegaralangan. Qirg‘oq hududlari serhosil va boy. Bu yerning eng baland tog‘i *Jabal Akhdar* bo‘lib, balandligi 3000 metrga yetadi. O‘mon tog‘larida ko‘plab konlar, daryolarida qimmatbaho toshlar uchraydi, vodiylari esa g‘alla, meva va xushbo‘y o‘simliklarga boy. O‘mon yaxshi zotli otlari, sigir va echkilari bilan mashhur. Arab tarixchilari O‘mon shahrining asoschilarini *Qaḥṭon* naslidan deb biladilar, ammo *Qadimgi Ahd*ga (Injilning

Qadimgi Ahd qismi) ko‘ra u Lutning o‘g‘li – O‘mon ibn Lūt nasliga mansub bo‘lishi kerak. O‘monda Islomdan avval “*Asad*” nomi bilan tanilgan *Azd* qabilasi shu yerlarda yashagan.

NAJD VILOYATI

Bu viloyat Arabiston markazida joylashgan ***serhosil baland tekislik*** bo‘lib, dengiz sathidan ***1200 metr*** balandlikda joylashgan. U uch tomondan cho‘llar bilan o‘ralgan bo‘lib, shu sababdan tashqi hujum va aralashuvlardan yaxshi himoyalangan. U s***himolda*** – Suriya cho‘li, g***‘arbda*** – Hijoz cho‘li, s***harqda*** – Ahqāf (qumli cho‘l), j***anubda*** – Yamāma viloyati bilan chegaradosh.

Najd qadimda mashhur ***Bakr ibn Voil*** qabilasining yurti bo‘lgan. Ularning yetakchisi ***Kulayb***ning o‘ldirilishi *Bakr* va *Tag‘lib* qabilalari o‘rtasida ***40 yil davom etgan mashhur urush***ga sabab bo‘lgan. Arabistonning ***Kinda davlati*** ham Najd viloyatiga kirgan. No’shervonning otasi *Qobod* (sosoniy shoh, Kubod ham deyiladi) *Mazdak*[45] dinini qabul qilganida, Kinda hukmdorlari ham (Manozira sulolasiga qarshi kurashda Eron podshosining marhamatini qo‘lga kiritish maqsadida) ushbu diniy ta’limotni qabul qildilar. Biroq aynan shu qaror oxir-oqibat ularning tanazzuliga sabab bo‘ldi.

Adnon avlodi juda qadim zamonlardan beri Najdga joylashgan edi. Keyinchalik mashhur *Kahlani*lardan bo‘lgan ***Tay qabilasi*** tog‘li hududlarga kelib joylashdi. Yana bu yerda Payg‘ambar (S.A.V.) 4-hijriy yilda harbiy yurish uyushtirgan ***G‘atafon*** qabilasi ham yashardi. Najdning g‘arbiy qismini ***Havāzin*** va ***Salim*** qabilalari egallagan edi. ***Hatim*** qabilasining ayrim urug‘lari ham shu yerda yashagan.

YAMAN VILOYATI

Arabistonning ***eng serhosil va eng rivojlangan*** viloyatidir. Islomdan oldin ham, keyin ham ***ilm va madaniyat markazi*** bo‘lgan. Uning o‘tmishi boy bo‘lib, ko‘plab vayronalar, qadimiy binolar va qal’alar uning ulug‘ tarixidan darak beradi. Yaman o‘z tarixida ba’zida muvaffaqiyatli, ba’zida muvafaqqiyatsiz tarzda ***Rim, Fors va Habashiston*** kabi qo‘shni imperiyalar tomonidan bir necha bor bosib olingan. Yaman haqida yunon va rim tarixchilari juda ko‘p ma’lumot qoldirgan, arxeologlar ham bu borada sezilarli ishlar qilganlar. Yaman viloyatining ma’muriy chegaralari turli davrlarda, turli hukumatlar davrida o‘zgarib turgan. U janubda – Arab dengizi, g‘arbda – Qizil dengiz, shimolda – Hijoz, Najd va Yamāma, sharqda – O‘mon va Bahrayn bilan chegaralanadi. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, Yaman ko‘plab mustaqil davlatlarga bo‘lingan va bir nechta qabilalar – *Amoliklar, Main, Od, Sabo* qabilasi, *Himyariy*lar – turli davrlarda o‘z podsholiklarini barpo qilganlar. Ular bu yerda ulkan va go‘zal inshootlar qurdilar, ularning qoldiqlari hali ham ko‘rinib turadi. Tog‘lardan oqib tushadigan suvlarni boshqarish va sug‘orishda foydalanish uchun to‘g‘onlar qurilgan. Bu to‘g‘onlarning eng mashhuri – *Ma’rib* to‘g‘oni[46] bo‘lib, u Qur’onda ham tilga olingan. Hindiston, Fors, Habashiston (Efiopiya), Misr va Mesopotamiya Yaman aholisi orqali

---

45 *Mazdak dini* (Mazdakizm) — milodiy ***V–VI asrlarda*** Eronda (Sosoniylar davrida) paydo bo‘lgan diniy-ijtimoiy harakat bo‘lib, uning asoschisi ***Mazdak ibn Bomdod*** **(**Mazdak al-Buzurg) hisoblanadi. U zardushtiylikka yaqin bo‘lgan, ammo jamiyatni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan ***islohotchi-sotsialistik*** g‘oyalarni ilgari surgan.

46 *Ma’rib to‘g‘oni* haqida Qur’onda Saba’ surasi 15–17-oyatlarida zikr etilgan.

Arabiston bilan savdo aloqalariga ega bo‘lganlar. Yaman minerallar**,** ziravorlar va atirlar savdosining markazi bo‘lgan va o‘z mahsulotlarini dunyoning rivojlangan mamlakatlariga eksport qilgan.

Habashlar (Aksumiylar) Islomdan qariyb yuz yil oldin Yamanni bosib olib, 70 yil davomida boshqarganlar. Keyinchalik ularni forslar quvib chiqargan. Forslar tomonidan tayinlangan Yaman hokimi *Bādhān* 7-hijriy yilda Islomni qabul qilgan. Uning aholisi, asosan yahudiylardan bo‘lgan, ular ham 10-hijriy yilda *Ali ibn Abu Tolib* orqali Islomni qabul qilganlar. Yamanning mashhur qabilalaridan *Hamdan* ham shu davrda Islomni qabul qilgan.

Yamandagi qadimiy shaharlardan bir qismi hozirda kimsasiz yoki qum ostida qolib ketgan. Ba’zilari aholi yashaydi, ammo ularning nomlari o‘zgargan. Yaman hududining ulkanligi va aholining zichligi tarixchi *Ya‘qubiy*ning ma’lumotiga ko‘ra, bu yurt ilgari 84 dan ortiq tumanga bo‘lingan. Quyida mashhur tumanlar ro‘yxati:

Hadramaut. Hind okeani qirg‘og‘ida joylashgan. Shimolda – Hind okeani, janubda – *al-Rub‘ al-Xolī* (Yolg‘izlik mamlakati) va *Ahqāf cho‘li,* g‘arbda – *Sano* bilan chegaradosh.Bu hudud dastlab yamanlik arablarning ajdodi *Qahton* urug‘i yashagan (*Yoqton* yoki *Joktan*) yeri edi. *Qadimgi Ahd* (Injil) uning o‘n ikki o‘g‘lidan birining ismini *Hazarmaveth* deb keltiradi, shuning uchun bu yurtning nomi ham *Hadramau*t deb atalgan bo‘lishi mumkin. Hadramautda bir paytlar mustaqil davlat ham tashkil topgan bo‘lib, uning qisqa tarixi *Ibn Xaldun* tomonidan yozib qoldirilgan. Bu yurt qadimda *Od* va *Samud* qabilalarining ham vatani bo‘lgan. Keyinchalik *Od* qabilasi *Ahqāf* tomon ko‘chib ketib u yerga joylashgan.

Ahqāf shaharlari. *Rub‘ al-Xolī* (Yolg‘izlik mamlakati) Yamāma, O‘mon, Bahrayn, Hadramaut va Yamanning g‘arbiy qismigacha yoyilgan ulkan qumli cho‘l bo‘lib, odam yashashiga yaroqsiz hudud sanaladi. Biroq ayrim odamlar, xususan *Hadramaut*dan *Najron*ga cho‘zilgan joylarda istiqomat qilishgan. Bu hudud qadimda mashhur Od qabilasining vatani bo‘lib, ular Allohning g‘azabiga uchrab halok bo‘lgan47.

Sano. Yaman viloyatining yuragi va qadimgi Arabiston sivilizatsiyasining markazi hisoblanadi. U Hind okeani va Qizil dengizga tutash hududda, Arabistonning shimoli-g‘arbiy chekkasida joylashgan. Bu yerda *Mainliklar*, *Himyarlar* va *Sabo* qabilalari o‘z podsholiklarini barpo qilganlar. Mashhur *Ma‘rib to‘g‘oni* ham shu yerda qurilgan. *Zafar, Uzāl* va *Ma‘rib* turli davlatlarning poytaxtlari sifatida bo‘lgan. Sabo malikasi *(Qirolicha Sheba)* ham shu yerda yashagan. Sanoda qadimiy *G‘amdan, Na‘it, Rubdah, Sarvah* va *Madar* kabi qal’alar mavjud edi. Ularning xarobalarini IV asr islom tarixchisi Hamdaniy o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan deb rivoyat bor.

Najron. *Ahqāf* va *Asir* o‘rtasidagi kichik shahar. Qadimda u yerga Ismoil (a.s) avlodidan bo‘lgan shaxs *Bayjal ibn Nazār* kelib joylashgan. Islomdan oldin Najronda *nasroniylik* keng tarqalgan bo‘lib, u yerda yahudiylik va xristianlik

47 Od qavmi borasida Qur’onning Hud surasi (11-sura), 50–60-oyatlar, A’rof surasi (7-sura), 65–72-oyatlar, Sho‘aro surasi (26-sura), 123–140-oyatlar, Ahqof surasi (46-sura)21–28-oyatlar, Haqqa surasi (69-sura), 6–8-oyatlar, Qamar surasi (54-sura), 18–21-oyatlar, Zariyat surasi (51-sura), 41–42-oyatlar, Fussilat surasi (41-sura), 15–16-oyatlarda nozil bo‘lgan. Od qavmi Ahqof hududida Irom nomli ustunlari ko‘p bo‘lgan shaharda yashashgan.

o‘rtasida keskin diniy tortishuvlar bo‘lgan. Yaman yahudiy podsholigi48 najronlik nasroniylarni yahudiylikka o‘tkazishga uringan. Bunga javoban Rim va Habashiston imperiyalari Najron nasroniylarini himoya qilgan. Najronda arablar orasida ***“Ka‘ba-i Najrān”*** deb mashhur bo‘lgan ulkan, ajoyib bir cherkov bor edi.

Hijriy ***9-yilda*** Najrondan kelgan ***nasroniy elchilari*** Payg‘ambar (S.A.V.) huzuriga tashrif buyurdilar va ularga Payg‘ambar masjidida turishga ruxsat berildi.

HIJOZ VILOYATI

Qizil dengiz bo‘yida joylashgan bo‘lib, Qadimgi Ahdda ***Fārān*** nomi bilan qayd etilgan. Bu yer ilohiy zohir bo‘lish o‘rni sifatida tilga olinadi. Hijoz s***harqda*** – Najd, j***anubda*** – ‘Asir, g‘***arbda*** – Qizil dengiz, s***himolda*** – Arabiston Suriyasi (*Arabia Petra*) bilan chegaralanadi. Mamlakat bo‘ylab janubdan shimolga cho‘zilgan ***Jabal-us-Sarāt*** tog‘ tizmasi o‘tadi, uning eng baland cho‘qqisi ***8000 fut***ga yetadi. Tog‘lar orasidan oqib o‘tuvchi soylar bu yurtni unumdor, bog‘-rog‘larga boy va dehqonchilikka qulay qiladi. Hijozning eng serhosil qismi Qizil dengiz qirg‘og‘iga tutash bo‘lgan hududdir; qolgan joylari esa quruq ***cho‘l*** bo‘lib, dehqonchilik imkonsiz. Hijozning Makkaga olib boruvchi eng yirik port shahri – ***Jidda,*** Madinaga oli boruvchi ikkinchi yirik port shahri – ***Yambū port shahridir.*** Hijozning eng muhim shaharlari ***Makka, Madina va Toif***dir.

Makka. Makka (yoki Bakka), *Umm-ul-Qurā* – “*shaharlarning onasi*” deb ham ataladi va Hijoz viloyatining poytaxti hisoblanadi. Uni Payg‘ambar Ibrohim (a.s.) qurgan, keyinchalik o‘g‘li Ismoil (a.s.) shu yerda istiqomat qilgan va Islom payg‘ambari Muhammad (S.A.V.) ham shu yerda tug‘ilgan. *Geografik joylashuvi 21°38′* shimoliy kenglik, *40°9′* sharqiy uzunlikda joylashgan

Shahar dengiz sathidan ***330 metr*** balandda joylashgan bo‘lib, barcha tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan. Hozirda uning uzunligi sharqdan g‘arbga qariyb ***30 km***, shimoldan janubga esa ***1,5 km***ga teng.

Miloddan avvalgi ***2500-yilda*** Makka savdo karvonlari uchun muhim bekat bo‘lgan. Taxminan ***miloddan avvalgi 2000-yilda*** Ibrohim (a.s.) va uning o‘g‘li Ismoil (a.s.) bu yerda Alloh nomiga bag‘ishlab qurilgan muqaddas uy ***Ka’bani*** barpo etdilar. Ismoil avlodlari bu hududda ustun mavqega ega bo‘lib kelgan, biroq keyinchalik ***Qahtoniylar***ning kuchayishi bilan ularning siyosiy hukmronligi susaydi. Keyingi davrda Ismoil avlodidan bo‘lgan ***Qusay*** Makka ustidan hokimiyatni qo‘lga olib, mustaqil bir qirollikni shakllantirdi. U Qurayshlarning otasi va asoschisi bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan Quraysh qabilasi Makkaning mutlaq hukmdorlariga aylandi. Ular o‘zlariga xos boshqaruv tizimini o‘rnatib, shahardagi boshqaruv bo‘limlari oilaning turli a‘zolari qo‘liga topshirildi. Ismoil avlodidan bo‘lgan ayrim arablar Makkaga yaqin bo‘lgan boshqa shaharlarga ham joylashganlar.

Madina. Madina dastlab ***Yasrib*** deb atalgan. Payg‘ambar (S.A.V.) bu yerni o‘z vatanlari sifatida qabul qilganlaridan so‘ng, u ***Madīnat-un-Nabiy*** – “Payg‘ambar shahri” deb nomlana boshladi. Keyinchalik shahar nomi ***Madīna*** yoki ***Madīnah*** tarzida mashhur bo‘ldi. Shahar: dengiz sathidan ***619 metr*** balandda

48 Qur’onning Buruj surasi 4-9-oyatlarida “As’hab-ul-Ukhdud (Choh egalari)” yahudiy podsho Zu-Navos tomonidan Najron nasroniylarini olovda yoqilishi bobida keladi.

joylashgan, geografik joyi: ***24°15′ shimoliy kenglik, 39°55′ sharqiy uzunlik,*** ekvatordan shimolda joylashgan. Mashhur iqlim xususiyatlari: yozda harorat ***28° C*** gacha ko‘tariladi, qishda kunduz ***10° C***, tun esa –***5° C*** gacha tushadi, qishda suvlar hatto muzlab qoladi.

Yasribning dastlabki aholisi sifatida birinchi bo‘lib ***Amoliklar*** yashagan, keyin ***yahudiylar*** kelib joylashgan, undan so‘ng ***Azd qabilasi***ning ikki bo‘lagi – ***Avs*** va ***Xazraj*** yashay boshlagan. Payg‘ambar (S.A.V.) oldin, aynan Avs va Xazraj qabilalariga “***Ansor***” (“Yordamchilar”) unvoni bergan, chunki ular Islomni qabul qilib, musulmon muhojirlarga yordam berishgan. Ular Islomni birinchi bo‘lib qo‘llab-quvvatlagan arab qabilalaridan bo‘lib, Madinani Islom markaziga aylantirganlar.

Toif. Bu shahar go‘yo Hijozning “jannati” sifatida ta’riflanadi. U serhosil va sog‘lom iqlimli bo‘lib, Hijozning boy aholisi odatda yoz faslini shu yerda o‘tkazadi. Hijratdan oldin Payg‘ambar (S.A.V.) o‘z da’vatlarini yetkazish uchun Toifga borgan edilar, ammo hatto tinglashga ham ruxsat berilmagan. Hijriy *8-yilda* Payg‘ambar Toifga qarshi qo‘shin tortganlar. *9-hijriy yilda* Toif qabilasi boshlig‘i Islomni qabul qildi, lekin bu tufayli o‘z qabiladoshlari tomonidan o‘ldirildi. Biroq uning ovozi cho‘lda yo‘q bo‘lib ketmadi va o‘sha yili shu qabiladan yana bir elchilar guruhi kelib, Payg‘ambar (S.A.V.) huzurida Islomni qabul qildi.

Hijozning boshqa shaharlari. **Quyidagi diqqatga sazovor Hijoz shahar va joylari:**

1) Jauf yoki Vādī-ul-Qurā. Madinaning shimolida joylashgan. Bu yerni *Samud qabilasi* egallab, *Hijr* shahrini poytaxt qilgan. Qur’onda bu shahar va uning odamlari zikr etilgan. U *Madā’in Sāliḥ* nomi bilan mashhur.

2) Tabuk. Payg‘ambar (S.A.V.) Rim qo‘shinlariga qarshi tayyorgarlik ko‘rish uchun bir muddat shu yerda turganlar. Bu yurish chog‘ida ular Hijr shahridan ham o‘tganlar.

3) Haybar. Madinaning g‘arbida joylashgan bo‘lib, yahudiylarning siyosiy markazi va mustahkam qal’asi edi. Hijriy *7-yilda* Payg‘ambar (S.A.V.) tomonidan zabt etilgan.

4) Madyan. Qizil dengiz qirg‘og‘ida, Hijrga qarama-qarshi tomonda joylashgan. Bu yer *Yoshua* (*Yusha a.s.)*ning vatani, *Muso* (a.s.)ning qaynotasi *Shuayb* (*Yitro*)ning yurti va Midyon davlatining poytaxti bo‘lgan.

Islomning boshlanishida bu shaharlarda yahudiylar yashar edi va ular mustahkam qal’alarga ega bo‘lganlar, biroq Payg‘ambar (s.a.v.) hayotliklarida musulmonlar ularni zabt etdilar.

Arabiston Suriyasi (Arabian Syria). Yunonlar ***Arabia Petra*** deb atagan Arabiston Suriyasi quyidagi hududlarning barchasini o‘z ichiga olgan: *Suriya, Misr, Suriya cho‘li, Hijoz, Najd.* Bu hududning muhim tarixiy jihati shuki, Muso (a.s.) ***Tur tog‘ida (Sinay)*** Alloh bilan suhbat qilgan. Shu hududda Alloh tomonidan Bani Isroilga va’da qilingan yurt joylashgan. Zamonaviy arxeologik tadqiqotlar bu hududning tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq yoritmoqda. *Amoliklar* bu hududda yashab, juda qudratli bir podsholik barpo qilganlar. Ularning hukmronligi ba’zan *Hijoz*gacha yetgan va *Balqo, O‘mon, Busro, Tadmor* (Palmira) kabi shaharlarni o‘z ichiga olgan. Tadmor ayniqsa ***savdosi bilan mashhur*** edi.

Shuningdek, bu yurtning malikasi sifatida mashhur bo‘lgan ***Zabā (Zenobiya)*** haqida arablar orasida rivoyatlar qolgan. Islomdan biroz oldin *G‘assoniy*lar Suriyada hukmronlik qilib, ***Busro***ni poytaxt qilganlar. Tarixchi ***Hamdaniy***ning yozishicha, Islomdan keyin *Banu* ***Ajal*** qabilasining avlodlari Suriyaning katta qismiga, hatto Halabgacha tarqalgan. *Tay’* qabilasining bir urug‘i bo‘lgan *Rabi‘a* urug‘i ham bu yerga kelib joylashgan, Jadhima avlodining bir qancha bo‘linmalari esa G‘azo yaqinida ravnaq topgan. Islom paydo bo‘lgan vaqtda bu shaharlar va qishloqlar ***arab nasroniylari va yahudiylari*** qo‘lida bo‘lgan va ular Rim imperiyasi hokimiyati ostida yashaganlar.

Arabiston Iroqi. **Arablar Iroqning janubiy va g‘arbiy qismlarini *Arabiston Iroqi* deb ataganlar; yunon manbalarida esa bu hudud *Arabia Deserta* sifatida qayd etiladi. Bu keng hududga quyidagilar kirgan: *Fors ko‘rfazi bo‘ylari, Furot daryosi atrofi, Suriya cho‘li, Najd*. Qadimda Amoliklar bu yerda ham ulkan davlat barpo qilgan. *Rabi‘a* qabilasining bir bo‘lagi ham uzoq vaqt shu yerda yashagan. Islom davrida, hususan xalifa *Umar ibn Xattob(r.a)* davrida Iroqdagi *Kufa* va *Basra* shaharlariga asos solingan va ular keyinchalik *arab adabiyoti, ilm-fani va madaniyatining markazlari*ga aylangan.**

Tarixchi ***Ibn Xaldun*** yozishicha, Islomdan avval ***Abid*** qabilasi Iroqda Furot daryosi yaqinida Sanjar davlatini davlat tuzgan, uning so‘nggi hukmdori ***Dizān bin Mu‘oviyya*** edi. Bu sulolaga oid imorat xarobalari Sanjar tekisligida hozirgacha mavjud. *Tay’* qabilasining bir urug‘i ***Zubayd*** Yaman bo‘ylab tarqalgan, *Banu* ***Ajal*** qabilasining bir bo‘lagi butun bir Yaman va Iroqda bo‘ylab yoyilgan. Islom davrida ***Manādḥira (Laxmiylar) arab sulolasi*** Forslar hokimiyati ostida Iroqni boshqargan va ularning poytaxti ***Kufa yaqinidagi Hira*** bo‘lgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Arabiston hududi tabiiy-geografik tuzilishi, qabilaviy-urug‘chilik munosabatlari, savdo va iqtisodiy geografiyasi, diniy va mafkuraviy geografiyasi jihatidan farqli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Sosoniylar va Rum (Vizantiya) raqobati Arabistonning siyosiy va mafkuraviy qiyofasiga ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin. Diniy jihatidan ko‘p xudolik (butparastlik), yahudiylik, nasroniylik, zardushtiylik, hanif (Ibrohim dini) e’tiqodidagilar ham hududiy jihatidan alohida belgilarga ega ekanligi Sayid Muzafaruddin Nadviy asarida aks etgan. Ayniqsa, Arabiston viloyatlari, shaharlari, markazlarida yashovchi qabila-urug‘lar haqida keltirilgan ma’lumotlar qiymayli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Syed Muzaffar-ud-din Nadvi. A Geographical History of the Qur’an. Sh. Muhammad Ashraf printing Press. Lahore. Vol.1. 1992. 158 pages. 44-56 pages.

2. Sifat Jazīrat al- ʻArab أحمد, همداني، بن الحسن Müller, D.H. т. 1. https://books.google.co.uz/books?id=9lA_AQAAMAAJ 1884. بريل،

3. The Gold-Mines of Midian and The Ruined Midianite Cities. A Fortnight's Tour in Northwestern Arabia. By Richard Francis Burton. First edition of 1878. C. Kegan Paul: London. https://burtoniana.org/books/1878-The%20Gold%20Mines%20of%20Midian/index.htm.

“ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA EVOLUTSIYASI”

Ilmiy rahbar: Baltayeva Ma’mura
UrDPI “Milliy g‘oya va falsafa”
kafedrasi o‘qituvchisi
+99897-513-79-90
ma’mura381@gmail.com
Raimbergenova Farangiz Mansur qizi
UrDPI “Milliy g‘oya, ma’naviyat asosloari
va huquq ta’limi” yo‘nalishi
2-bosqich talabasi.+99894-201-80-44
farangizreimbergenova2@gamil.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Arab xalifaligi davrining shakllanishi, siyosiy tizimi va hududiy rivojlanishi tarixiy-geografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xalifalikning paydo bo‘lish omillari, boshqaruv shakllari, iqtisodiy va madaniy markazlari o‘rganilib, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Maqola tarixiy geografiyaning ahamiyatini ochib berish hamda Islom sivilizatsiyasi shakllangan hududlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Arab xalifaligi, tarixiy geografiya, Islom tarixi, Roshidun, Umaviylar, Abbosiylar, madaniyat, ilm-fan, Bag‘dod, sivilizatsiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется формирование, политическая система и территориальное развитие периода Арабского халифата с историко-географической точки зрения. Изучаются факторы возникновения халифата, формы правления, экономические и культурные центры, а также освещается его вклад в мировую цивилизацию. Цель статьи – раскрыть значение исторической географии и показать взаимодействие регионов, в которых формировалась исламская цивилизация.

Ключевые слова: Арабский халифат, историческая география, исламская история, Рашидуны, Омейяды, Аббасиды, культура, наука, Багдад, цивилизация.

ANNOTATION: This article analyzes the formation, political system and territorial development of the Arab Caliphate period from a historical and geographical perspective. The factors of the emergence of the Caliphate, forms of government, economic and cultural centers are studied, and its contribution to world civilization is highlighted. The article aims to reveal the importance of historical geography and show the interaction of the regions in which Islamic civilization was formed.

Keywords: Arab Caliphate, historical geography, Islamic history, Rashidun, Umayyads, Abbasids, culture, science, Baghdad, civilization**.**

KIRISH

Arab xalifaligi insoniyat tarixidagi eng yirik va ta’sirli siyosiy tuzumlardan biri bo‘lib, VII asrda Islom dini asosida shakllangan. Muhammad (s.a.v.) vafotidan so‘ng musulmonlar jamoasi siyosiy birlikni saqlab qolish maqsadida xalifalik tizimini yaratgan. Xalifalik nafaqat diniy boshqaruv shakli, balki ilm-fan, savdo, siyosat va madaniyat sohalarida ham ilg‘or tajribani namoyon etgan.Tarixiy

geografiya nuqtai nazaridan, xalifalikning rivojlanishi tabiiy sharoit, savdo yo‘llari, suv manbalari va strategik joylashuv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Arab yarim oroli, Suriya, Iroq, Misr, Andalusiya va Markaziy Osiyoni birlashtirgan bu imperiya Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan

Mazkur maqola Arab xalifaligi davrining siyosiy va madaniy taraqqiyotini, tarixiy geografik o‘ziga xosliklarini tahlil qilish hamda Islom olamining jahon tarixidagi o‘rnini yoritishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

1. Roshidun xalifaligi (632–661-yillar)

Roshidun xalifaligi Islom davlatining dastlabki siyosiy shakli bo‘lib, Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin musulmonlar jamoasini birlashtirgan. Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (r.a.) xalifalikni boshqargan. Bu davrda Arabiston yarim orolining deyarli barcha qabilalari islomni qabul qilgan va davlat chegaralari Iroq, Suriya hamda Misrgacha kengaygan. Madina shahri davlat markazi sifatida diniy va siyosiy boshqaruv markaziga aylangan. Roshidun davrida adolatli boshqaruv, maslahat (shura) tizimi va soddalikka asoslangan siyosat hukm surgan. Tarixiy geografik jihatdan esa bu davr xalifalikning asosiy poydevorini yaratgan davr sifatida ahamiyatlidir.

2. Umaviylar xalifaligi (661–750-yillar)

Umaviylar hokimiyati paytida xalifalik siyosiy jihatdan kuchaydi va kengayib, Ispaniya (Andalusiya), Shimoliy Afrika, Kichik Osiyo va Markaziy Osiyogacha yoyildi. Poytaxt Damashqqa ko‘chirilgach, Suriya hududi markaziy ahamiyat kasb etdi. Bu joylashuv savdo yo‘llari ustida bo‘lgani sababli xalifalik iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi. Umaviylar davrida arab tili rasmiy tilga aylantirilib, boshqaruvda markazlashuv kuchaydi. Qurilish, yo‘lsozlik, qishloq xo‘jaligi va savdo rivoj topdi. Andalusiya orqali arab madaniyati Yevropaga kirib bordi va ilm-fan sohalarida yangi bosqich boshlandi.

3. Abbosiylar xalifaligi (750–1258-yillar)

Abbosiylar davrida xalifalik siyosiy jihatdan zaiflashgan bo‘lsa-da, madaniy va ilmiy jihatdan gullab-yashnadi. Bag‘dod poytaxt sifatida o‘rta asrlardagi eng muhim markazlardan biriga aylandi. “Bayt ul-hikma” (Donishmandlik uyi) tashkil etilib, yunon, hind va fors manbalari arab tiliga tarjima qilindi. Algebra, tibbiyot, geografiya va astronomiya kabi fanlar rivoj topdi. Tarixiy geografik jihatdan Bag‘dodning Dajla daryosi bo‘yida joylashuvi uni savdo va madaniy almashinuv nuqtasiga aylantirdi. Bu davrda xalifalik hududi G‘arbda Andalusiyadan Sharqda Hind vodiysigacha cho‘zilgan.

4. Xalifalikning madaniy va geografik merosi

Arab xalifaligi davrida shakllangan madaniyat, shaharsozlik, ilm-fan va savdo tarmoqlari keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qolgan. Qohira, Damashq, Bag‘dod, Kordova, Samarqand kabi shaharlar ilm va ma’rifat markazlariga aylangan. Xalifalik tarixiy geografiyasi orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalar kuchayib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida yangi bosqich yuzaga kelgan.

XULOSA

Arab xalifaligi davri insoniyat tarixida siyosiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotning eng yuksak bosqichlaridan biridir. U uch qit’ani birlashtirgan holda,

Islom sivilizatsiyasining yuksalishiga zamin yaratgan. Xalifalikning tarixiy geografiyasi bugungi musulmon mamlakatlarining shakllanishi va ularning madaniy rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Shu bois, Arab xalifaligi davrini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki geosiyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Aliyev Islom tarixi va madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
2. S. Saidov Arab xalifaligi: siyosiy va madaniy rivojlanish bosqichlari. – Toshkent, 2021.
3. A. Muhammadjonov 7-sinf O‘zbekiston tarixi darsligi Toshkent 2017.
4. B.Yusupov Tarixiy geografiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.

ARAB XALIFALIGIDA ISLOM DINI VA BOSHQA DINLARNING TARQALISH GEOGRAFIYASI

Muyassarxon Djaxongirova Anvarovna
Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchi,
Oriental Universiteti Toshkent,
Olmazor tumani, 52B Norastepa ko’chasi, Toshkent, 100060, Uzbekiston

Annotatsiya: Maqolada Arab xalifaligi davrida islom dinining tarqalish jarayoni va uning geografik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda VII–VIII asrlarda arablar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy va harbiy yurishlar, savdo-sotiq aloqalari, diplomatik munosabatlar hamda madaniy almashinuvlar islom dinining keng hududlarga yoyilishida tutgan o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, islomning Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo va Iberiya (Ispaniya) yarimoroligigacha tarqalish bosqichlari, mintaqalararo o‘zaro ta’sirlar va mahalliy xalqlarning islomni qabul qilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar tahlil etiladi. Maqola doirasida islom dinining Arab xalifaligi hududlarida diniy e’tiqod sifatida shakllanishi bilan bir qatorda, uning siyosiy tizim, ijtimoiy hayot va madaniyat rivojiga ko‘rsatgan ta’siri ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Arab xalifaligi davrida islom dini global sivilizatsion jarayonlarning markaziy omiliga aylangan.

Kalit so‘zlar: Arab xalifaligi, islom dini, geografiya, tarqalish jarayoni, madaniyat, islom sivilizatsiyasi, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В статье представлен научный анализ процесса распространения ислама в период Арабского халифата и его географических особенностей. Раскрывается роль политических и военных походов, торговых связей, дипломатических отношений и культурных обменов, осуществлявшихся арабами в VII–VIII веках, в распространении ислама на обширных территориях. Анализируются этапы распространения ислама на Ближнем Востоке, в Северной Африке, Центральной Азии и на Пиренейском

полуострове (Испания), межрегиональные взаимодействия и факторы, влияющие на процесс принятия ислама местными народами. В статье рассматривается становление ислама как религиозной веры на территориях Арабского халифата, а также его влияние на развитие политической системы, общественной жизни и культуры. Результаты исследования показывают, что в период Арабского халифата ислам стал центральным фактором глобальных цивилизационных процессов.

Ключевые слова: Арабский халифат, ислам, география, процесс распространения, культура, исламская цивилизация, Ближний Восток, Центральная Азия.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the process of the spread of Islam during the Arab Caliphate and its geographical features. The study reveals the role of political and military campaigns, trade relations, diplomatic relations, and cultural exchanges carried out by the Arabs in the 7th–8th centuries in the spread of Islam over vast territories. It also analyzes the stages of the spread of Islam to the Middle East, North Africa, Central Asia, and the Iberian Peninsula (Spain), interregional interactions, and factors influencing the process of the adoption of Islam by local peoples. The article covers the formation of Islam as a religious faith in the territories of the Arab Caliphate, as well as its impact on the development of the political system, social life, and culture. The results of the study show that during the Arab Caliphate, Islam became a central factor in global civilizational processes.

Keywords: Arab Caliphate, Islam, geography, process of spread, culture, Islamic civilization, Middle East, Central Asia.

KIRISH Arab xalifaligi davri insoniyat tarixida diniy, siyosiy va madaniy jihatdan tub o‘zgarishlar yuz bergan davrlardan biridir. VII asrda Arabiston yarimorolida paydo bo‘lgan islom dini qisqa muddat ichida keng hududlarga tarqalib, yangi sivilizatsiyaning shakllanishiga asos soldi. Arab xalifaligi o‘z davrida Yaqin Sharqdan tortib Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo va Ispaniyagacha bo‘lgan ulkan mintaqalarni birlashtirib, turli xalqlarni yagona diniy va madaniy qadriyatlar atrofida birlashtirgan geosiyosiy tuzum sifatida shakllandi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, islom dinining tarqalish jarayoni nafaqat diniy omil, balki Arab xalifaligida yuz bergan siyosiy integratsiya, savdo-iqtisodiy aloqalar va madaniy almashinuvlar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘lgan. Bugungi kunda ham bu jarayonlarni o‘rganish islom sivilizatsiyasining tarixiy ildizlarini, shuningdek, musulmon dunyosidagi madaniy birlashuv mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

USLUBLAR

Islom paydo bo‘lishidan avval, ya’ni VI–VII asrlargacha bo‘lgan davrda Arabiston yarimorolida diniy e’tiqodlar juda xilma-xil bo‘lgan. Bu davr “Jahiliya davri” “Jaholat davri” deb ataladi. Arabistonda har xil Xudolar timsoli- sanamlar bir vaqtda paydo bo’lgan emas. Ular uzoq vaqt shakillangan. Kiyingi davr islom tarixchilarining ta’kidlahslaricha Arabistonga datstavval sanam keltirilgan va unga ibodat qilishni targ‘ib qilgan shaxs Amir ibn Luhay ismli kishi bo’lgan. U Shomga tez-tez tijorat qilish maqsadida safar qilgan. Amr ibn Luhay shomliklar odatlaridan

qattiq ta’sirlanib ularning butlaridan birini makkaga olib kelgan. Natijada arablar orasida butlarga sig‘inish keng tarqalgan. Bu esa dinning yangi bosqichi bo‘lgan. Ibn al – Kalbiyning (vafoti. 763 yil.) “Kitob al- asnom” asarida ta’kidlanishicha, mil.av. VIII asrda har bir arab qabilasi o‘z sanamiga ega bo‘lgan. Tez -tez bo‘lib turadigan qabilalararo urushlardan so‘ng, odatda mag‘lub qabila g‘lib qabilaning but sanamiga sig‘inar edilar. Ba’zida g‘olib qabila mag‘lub qabilaning samaniga ham o‘z sanamlariga qo‘shib sig‘inar edilar. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohlari bo‘lib ular ziyoratgohi mavjud edi. Ulardan biri Makkadagi Ka’ba edi. Ibn al – Asirning (vafoti 1232-y) ta’kidlashicha 630- yili Makka fath etilganida Ka’ba ichida 360 ta butlar bo‘lgan. Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari bo‘lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, sirat va tarixiy kitoblar xabar beradi. Bu xujjatlarning eng qadiymisi Nabonidga (mil. av. 5555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil.av. 552-542- yillarda Shimoli Arabistondagi Tayma shahrini o‘ziga poytaxt qilgan Nabonid u yerdagi shaharlarni o‘zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko‘chirgan. Ularning ko‘pchiligini yahudiylar tashkil qilgan. Bundan avval (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganganidan so‘ng 30 mimg yahudiyniasir olib bobilga keltirgan. Bobil asirligi 50 yil davom etgan. Shundan so‘ng ham ba’zi yahudiylar Falastinga qaytmay Bobilda qolib ketadilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu yerda keng targ‘ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Arabistonga qachon kirib kelganligi noma’lum. Odatda targ‘ibotchilar tibbiyot, mantiq ilmidan xabardor va kishilar qalbiga yo‘l topa oladigan bo‘lganlari uchun ko‘pgina qabila boshliqlariga ta’sir etganlari natijasida xristianlik dinini yoyilishiga sabab bo‘lganlar. Islomga qadar xristian rohiblari muntazam ravishda din targ‘iboti bilan shug‘ulanar edilar.

Hijoj shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qarmog‘i ostidagi Falastin va Shomdan ko‘chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al- Jandal, Eylat, Tayma, Yasrib, Makka va Toifda ham xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijratlari dalolat beradi. Qadimda o‘zlarining bobolari bo‘lgan Ibrohim (a.s) dinini saqlab qolgan bir jamoa ham mavjud edi. Ularni “Haniflar” deb atalar edilar. Ular yagona Xudoga e’tiqod qilar edilar. But-sanamlarga sig‘inmas edilar. Bu esa zodagonlarga yoqmas, shuning uchun ular darbadar hayot kechirar edilar. Bu toifa kishilardan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh, Usmon ibn Huvayris va Quss ibn Sayidolarni keltirish mumkin. Imom al - Buxoriy haniflardan Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayrislarning keyinchalik xristianlikni qabul qilganliklari haqida rivoyat qiladi.

Arabiston yarim orolida islom dinini vujudga kellishi va islom davlatini shakillanishi Muhammad (a.s) hayoti, uning yangi din targ‘ibotchisi va davlat arobi sifatidagi faoliyati asosiy o‘rin tutadi.

Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al- Muttalib Makka va uning atrofi fil voqeasi nomi bilan mashhur bo‘lgan 50 kun keyin tavallud topdi. Keyinchalik

Mahmud poshoning milodiy hisoblashi bo‘yicha payg‘ambarning tavallud topishlari milodiy sananing 571- yil 21- aprel kuniga to‘g‘ri keladi.

Ota-onadan yetim qolgan Muhammad (s.a.v) to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo‘lida tarbiyalandi. So‘ngra uni amakisi Abu Tolib o‘z himoyasiga oldi. Payg‘ambar yoshlik chog‘larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan safarga chiqdi.

Islom dinida ilk vahiy Muhammad (a.s) 40 yoshga yetganda Alaq surasining boshidagi 5 ta oyati nozil bo’ladi. Vaqt o‘tishi bilan islomni qabul qilganlar soni 30 kishiga yetdi. Ular o‘z dinlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Makkaliklarning qattiq qarshiliklaridan ko‘p ozor chekkan Payg‘ambar Toifga yo‘l oldi. Shu qiyinchilik yillarida “Isrov a Me’roj” voqeasi yuz berdi. Qur’ondagi “Isro” va “Najm” suralarida bu hodisa haqida keltirilgan.

Muhammad (s.a.v) Madinaga hijrat qilishlari Rabi’ al-Avvalning 8-kuni 622-yil 20- sentyabrda yuz bergan. 11- hijriy yil 12- Rabi’ al- Avval,632 milodiy yil 8-iyunda Payg‘ambar vafot etdi. Shu bilan islomda vahiy tugadi. Muhammad (s.a.v) ning islom diniga da’vat etishlari, o’sha davrda arablar orasida ijtimoiy -siyosiy nizolar, va ualrni bartaraf etishdagi olib borga oqilona siyosatlari tufayli turli arab qabilalari diniy asosda birlashdi, bu siyosiy birlik uchun asos bo‘ldi. Natijada Arabiston yarim orolida islom davlati tashkil topdi.

Bu davrdan boshlab musulmon arab davlati tarixida vahiy davri tugadi. Shu davrdan boshlab musulmon- arab davlati tarixida xalifalar, podisholar, islom dini me’rorlarini shakillantirish va rivojlaamtirishda diniy ilmlar bilimdonlari-ulamoqlarining roli oshib bordi.

Payg‘ambar (s.a.v) vafotlaridan so‘ng Rashidun xalifalari davri (632–661-yillar) boshlandi. Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali xalifalik davrida Islom davlati tez sur’atlarda kengaydi. Arab qo‘shinlari Suriya, Iroq, Eron, Misr va Shimoliy Afrikani zabt etdilar. Bu davrda xalifalik davlat sifatida markazlashdi, islom qonunlari (shariat) asosida boshqaruv tizimi shakllandi. Islom dini bilan bir qatorda nasroniylik va yahudiylik kabi monotestik dinlar ham rivojlandi. Shu bilan birga musulmonlar bilan nasroniylar va yahudiylar o’rtasida o‘zaro diplomatik munosabatlar shakillandi. Islomda boshqa din vakillariga yaxshi muomila qilish topshirilgan, lekin ularning diniga kirib ketishlariga ruxsat berilmagan. Islom musulmonlarning boshqa din vakillari bilan yaxshi aloqalar olib borishlari Allohning ko‘rsatmalari asosida bo‘lishini ta’kidlagan. Bu boradagi barcha ruxsat va kengchiliklar Islom va musulmonlarga zarar etkazmasligi va shariat qoidalariga xilof ish bo‘lmasligi shart.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) 622-yilda Madinaga hijrat qilganlaridan keyin Madina konstitutsiyasiga asos solganlar. Bu konstitutsiya musulmonlar, yahudiylar Banu Qaynuqa, Banu Nazir, Banu Qurayza va boshqa aholi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan. Payg‘ambar (s.a.v.) yahudiylar bilan bitim tuzilishi, ular uchun diniy erkinlikni ta’minladi, ularni islom diniga qilishga majburlamadi, aksincha, o‘z e’tiqodlarini tanlash erkinligini berildi. Ushbu bitimda yahudiylar o‘z huquqlariga ega bo‘lishdi, mol-mulklarini himoya qilish va adolatli munosabatlarda bo‘lishga kafolatlar berildi. Shunday qilib, Payg‘ambar

Muhammad (s.a.v.) va boshqa din vakillari o‘rtasida davlat miqyosidagi ilk munosabatlar tashkil etildi[49].

U nafaqat islom jamiyati, balki butun insoniyat tarixidagi eng muhim siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hujjatlardan biri. Bu hujjat dunlararo muloqot madaniyatiga asoslangan. U musulmonlar, yahudiylar va nasroniylarni o‘rtasida tuzilgan. Shuningdek, murakkab xolatni madaniyatli jamiyatga aylantirishni maqsad qilingan. Insoniyat tarixida birinchi marta “Sahifat al - Madina” nomi bilan mashhur bo‘lgan[50].

Mutaxassis olim Muhammad Hamidullohning fikricha “Sahifat al-Madina” deb nomlangan konstitutsiya tuzilgan arablarning hayoti va an’analarida yangi hisoblangan. Turli birlashgan guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy shartnoma edi. Chunki arab qabilalarining urf-odatlari qon rishtalari va qarindoshlik munosabatlariga asoslangan edi. Turli dinlarga, elatlarga va geografik joylashuvga ega bo‘lgan odamlar boshqa yangi ijtimoiy tizmni shakllantirish uchun birlashdilar[51].

Madina Konstitutsiyaning ikkinchi qismida yahudiy qabilalarini musulmonlar bilan bir jamiyatda bo‘lishiga imkon beradigan jamiyat ko‘lami kengaytirildi. Bu isloh bo‘layotgan jamiyat tushunchasi juda muhim, chunki islomiy davlat endi faqat musulmonlarga tegishli emas, balki zamonaviy ma’noda ko‘p dinli davlatga aylanadi. Islomiy davlatni boshqa din vakillariga bo‘lgan salbiy qarashlari Madina Konstitutsiyasining tamoyillariga ziddir. Madina Konstitutsiyasi tamoyillari quyidagicha:

1. Musulmon kishi boshqa din vakillariga yomonlik qilmasligi kerak, ular bilan yaxshi muomilada bo‘lishi, munosib aloqalarni o‘rnatishi mumkin. Bu Qur’oni karim mumtaxana surasi 8 - oyat bilan belgilab qo‘yilgan. “Alloh sizlar bilan din borasida urush qilmagan va sizlarni diyorlaringizdan quvib chiqarmaganlarga yaxshilik va adolat qilishdan sizlarni qaytarmas. Albatta Alloh adolat qiluvchilarni sevadir”[52]. Ushbu hukm islom dinini naqadar bag‘rikeng va insonparvar ekanligini yaqqol misolidir. Unga ko‘ra har bir yahudiy qabilasi musulmonlar bilan teng huquqlarga ega bo‘lib joylashgan, bu esa har bir millatning o‘z diniy e’tiqodiga erkin amal qilish huquqini anglatadi. Islomga qarshi bo‘lsa ham, boshqa dinlarga e’tiqod qilish erkinligi yuqori darajada bag‘rikenglikni ko‘rsatadi. Madina Konstitutsiyasi turli dinlar va millat vakillari o‘rtasidagi kelishuvdir.

2. Musulmon kishi boshqa din vakillarining ibodatxonalarini hurmat qiladi. Ularning diniy aqidaviy masalalariga aralashmaydi. Ularga nohaq jabr qilmaydi. Bunga dalil qilib “Qosim ibn Muxayrama Nabiy (s.a.v) ning sahobalaridan biri rivoyat qiladi. Rasulullоh (s.a.v): “Kim ahli zimmidan bir kishini o‘ldirsa, Jannatning hidini ham hidlamaydi. Albatta uning hidi yetmish yillik masofadan kelib turadi” dedilar. (Imom Buhoriy, Nasaiy, Musulm). Rasulullоh (s.a.v) “Kim bir ahdlashgan g‘ayri din kishiga zulum qilsa, yoki uning haqqini poymol qilsa, yoki uning toqati yetmaydigan narsaga buyursa, yoki undan o‘z roziligisiz bir

[49] Адҳам Иброҳим ўғли. Энг комил инсон. Тошкент. Шамсуддинхон Бобохонов. 2022. – B. 167.
[50] Dr. Muhammad Tahir-ul-Qadri. Constitutional Analysis of the Constitution of Madina.Bouziane.2014. – P. 3.
[51] Said Abdullah. Islamic Thought An Introduction. UK: Rootledge., 2006. – P. 2.
[52] Shayh Alouddin Mansur. Quroni Karim ma’nolar tarjimasi. Toshkent. Cho‘lpon 1992. – B.542.

narsa olsa qiyomat kuni men o‘shaning xusumatchisi bo‘laman” dedilar[53]. (Imom Buhoriy, Nasaiy, Musulm).

3. Musulmon kishi boshqa din vakillarini ishida ishlatsa, yoki ularning ishida ishlasa bo‘ladi. Bu holatda ham Islom diniga va musulmonlarga zarar yetmasligi va shariat xarom sanamagan ishlardan bo‘lishi shart. Bu tamoyilga Oiysha (r.a) dan rivoyat qilingan xadisni keltirish mumkin. Oyisha (r.a) onamizdan rivoyat qilinadi. “Nabiy (s.a.v) bir yahudiydan narxini keyin berishga taom sotib oldilar va temir sovutni garovga qo’ydilar. (Imom Buhoriy, Nasaiy, Muslim) rivoyat qilganlar[54].

4. Musulmon kishi boshqa din vakillari bilan qarz oldi, berdi qilishi joiz. Musulmon kishi boshqa din vakillardan qarz olishi yoki ularga qarz berishi mumkin. Bunday masalalarda ham ikki tomon o‘zaro kelishib olishlari kerak. Dinlararo muloqotda musulmon kishilar boshqa din vakillarini tushunishi va yordam berishlari ham islom dinini go‘zalligini ko‘rsatadi.

5. Dinlararo munosabatlarda musulmonlar boshqa din vakillari bilan moliyaviy ishlarida vakil bo‘lishi, yoki vakil qilishlari mumkin, bu esa munosabatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, musulmonlar boshqa din vakillariga omonat berishi, yoki ulardan omonat olishlari mumkin, lekin bu jarayonda har ikki tomon o‘z diniy qadriyatlariga rioya qilishi zarur, chunki barcha dinlar ezgulik va xayr-sahovatni targ‘ib qiladi[55].

Ushbu yozma konstitutsiya Madinani har qanday zo‘ravonlik va terrorizmdan xoli tinchlik va xavfsizlik davlati deb e’lon qiladi. Ushbu qo‘lyozma turli xil mavjudotlarning sababini aniqlaydigan ilk konstitutsiyadir. U tinish belgilarisiz uzluksiz qatorlarda matn sifatida yozilgan. Ikkinchi, uchinchi xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) va Umar ibn Xattob (r.a) Quddus nasroniylari bilan adolat, tenglik va diniy erkinlik tamoyillariga amal qilgan holda shartnoma tuzdi va mustahkamladilar. Volter aytganidek; “Buni o‘ylaganlar juda buyuk odamlar”[56].

“Islomga xristianlik nuqtayi nazaridan yondashish” kitobining muallifi yepiskop Mixal Nazir Ali islom tarixi davomida “Ummat” tushunchasining ma’nosidagi evolyutsiya haqida shunday degan: “Madina Konstitutsiyasining qiziq tomoni shundaki, unda bu odamlarning barchasini arablar, musulmonlar, ansorlar, muhojirlar va nasroniylar bir ummat ekanligi e’tirof etilgan. Ammo hozirda musulmonlar ko‘pincha ummat kalimasini faqat musulmonlar jamoasiga ishlatadi, lekin islom davlatining o‘sha birinchi konstitutsiyasida u bunday qo‘llanilmagan[57].

Muhammad (s.a.v) tomonidan olib borilgan isloxotlarni sahobalar davrida ham davom ettirildi. Misol uchun “Umariya” bitimi 638-yilda Umar ibn al-Xattob (r.a.) davrida Quddusni fath qilganidan keyin imzolangan. Bu bitim nasroniylarga

[53] Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Imom Buhoriy. Sahihul Buhoriy. Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991. – B. 70.
[54] O‘sha manbadan. – B. 85.
[55] Bouziane Mounira.Comparison Between the Constitution of Medina and the Constitution of the United States: the Application of Deconstruction and the Projections of Chaos Theory. Anglo-American Studie. 2013. – P. 34.
[56] Ahmed, Kassim. A Short Note on the Medina Charter. The First Written Constitution in the World, Sh. Muhammad Ashraf, Lohore 1968. – P. 46.
[57] Moaddel, Mansoor. The Study of Islamic Culture and Politics: an Overview and Assessment. Annual Review of Sociology.vol. 28. 2002. – P. 45.

o‘z dinini erkin ado etish va mulklarini himoya qilishni ta’minlagan. Mazkur bitimda quydagi asosiy vazifalar belgilangan.

-nasroniylar musulmonlar tomonidan himoya qilinishi va ular musulmonlar tomonidan o‘rnatilgan hukumatga bo‘ysunib, o‘z hayotlarini va mulklarini himoya qilish uchun jizya to‘lashlari belgilab qo‘yilgan.

-nasroniylar va musulmonlar o‘rtasidagi tinchlikni saqlash, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotlar o‘rnatish zarurati belgilangan.

Islomning tarqalishi bilan arab dunyosida diniy va madaniy aloqalar kuchaydi. Monoteistik dinlar o‘rtasida ko‘plab umumiy jihatlar bo‘lsa-da, ilmiy va savdo muloqotlari davomida ularning o‘zaro munosabatlari bahs-munozaralarga olib keldi. Masalan Andalusiyada musulmonlar va boshqa din vakillari birgalikda ilm-fan va falsafaga katta hissa qo‘shdilar. Bu davrda dinlararo ilmiy muloqot rivojlanib, ko‘plab muhim falsafiy va diniy asarlar tarjima qilindi[58].

Arablarning dastlabki harbiy yurishlari VII asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Islom dini payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) vafotidan (632-y.) so‘ng, musulmon jamoasi yangi rahbar Abu Bakr as-Siddiq boshchiligida birlashdi. Shu davrda “Riddat urushlari” (islomdan qaytgan arab qabilalariga qarshi janglar) orqali Arabiston birlashtirildi. Arabiston ichida birlik o‘rnatilgach, xalifalik tashqi yurishlarni boshladi. Bu yurishlar diniy g‘oyalar (“jihod”), siyosiy mustahkamlash va iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq edi.

1. Vizantiya imperiyasi Arabiston bilan chegaradosh hududlarda Suriya va Falastin allaqachon zaiflashgan edi. Fors bilan uzoq urushlar natijasida u iqtisodiy va harbiy jihatdan holdan toygan edi. Asosiy yurishlar quyidagicha bo‘lgan.

Abu Bakr va Umar ibn Xattob davrida arab qo‘shinlari Vizantiya hukmronligi ostidagi Suriya va Falastinga yurish boshladilar.

636-yilda Yarmuk jangi sodir bo‘ldi – bu jangda arablar (Halid ibn Valid boshchiligida) Vizantiya qo‘shinlarini yengdilar. Shundan so‘ng, Damashq, Xims (Homs), Quddus (Bayt al-Maqdis) va Antioxiya kabi yirik shaharlar musulmonlar qo‘liga o‘tdi. Suriya 636–640-yillar oralig‘ida to‘liq xalifalik tarkibiga kirdi va Damashq keyinchalik Umaviylar xalifaligining poytaxtiga aylandi.

2. Iroq va Fors (Sosoniylar davlati)ni zabt etish Forsdagi Sosoniylar imperiyasi uzoq davom etgan urushlar va ichki nizolar natijasida zaiflashgan edi. Xalifalik bu holatdan foydalanib, Eron va Iroq tomon yurish boshladi. 633-yilda arab qo‘shinlari (Musanna ibn Horisa va Sa’d ibn Abu Vaqqos boshchiligida) Iroq hududiga kirib keldi. 636-yilda Qodisiyya jangida arablar sosoniy qo‘shinlarini tor-mor etdilar. 637-yilda Ktesifon (Madain) – Sosoniylar poytaxti – qo‘lga olindi. 642-yilda Nihovand jangida sosoniylar butunlay mag‘lubiyatga uchradi. Shu jangdan so‘ng Eron xalifalik tarkibiga kirdi. Sosoniylar davlati tugatildi (651-yil). Islom dini va arab madaniyati Eron hududlariga tarqaldi, biroq eronliklar o‘z tili va madaniyatini saqlab qolgan holda islomni qabul qildilar.

3. Misrni zabt etish (639–642-yillar) Misr Vizantiya imperiyasi tarkibida edi. Arab qo‘shinlari bu hududni ham oz muddatda egalladi. 639-yilda arab sarkardasi

[58] Hasselblatt, Boris; Anatole Katok. A First Course in Dynamics: With a Panorama of Recent Developments. Cambridge University Press 2003. – P. 56.

Amr ibn Os Misrga yurish boshladi. 641-yilda Fustot (keyinchalik Qohira) shahriga asos solindi. 642-yilda Iskandariya (Aleksandriya) arablar qo‘liga o‘tdi. Misr musulmon dunyosining eng muhim ilmiy va iqtisodiy markaziga aylandi. Bu yerda arab tili davlat tili sifatida joriy qilindi va islom tez tarqaldi.

4. Shimoliy Afrikani zabt etish VII asr oxiri – VIII asr boshilariga to‘g‘ri keladi.

Arab qo‘shinlari Misrdan g‘arbga qarab yurish qildilar. Uqba ibn Nofi’ (670-yilda) Shimoliy Afrikaning katta qismini egallab, Kairouan (hozirgi Tunis) shahriga asos soldi. Arablar Berber qabilalari bilan uzoq vaqt kurash olib bordilar, ammo ko‘pchilik berberlar keyinchalik islomni qabul qildilar. VIII asr boshida Shimoliy Afrika to‘liq musulmonlashdi va bu hududdan keyinroq arablar Ispaniya (Andalusiya) ga o‘tib bordilar.

5. Ispaniya (Andalusiya)ni zabt etish (711–718-yillar).711-yilda arab sarkardasi Tariq ibn Ziyod Berber qo‘shinlari bilan Gibraltar bo‘g‘ozidan o‘tib, Ispaniyaga kirdi. Guadalete jangida Vizigotlar podshosi Roderix mag‘lub bo‘ldi. 718-yilgacha butun Ispaniyaning katta qismi arablar qo‘l ostiga o‘tdi. Ispaniyada Kordova xalifaligi tashkil topdi (VIII–XI asrlar). Andalusiya islom madaniyatining G‘arbdagi markaziga aylandi – bu yerda fan, san’at, falsafa va me’morchilik yuksak darajada rivojlandi[59].

Zabt etilgan hududlarning umumiy ahamiyati

Hudud	Zabt etilgan yillari	Muhim natijalar
Suriya va Falastin	634–640	Vizantiya ta’sirining pasayishi, Damashq poytaxtga aylanishi
Iroq	633–637	Arablar Fors bilan chegaradosh hududlarni egalladi
Eron (Fors)	636–651	Sosoniylar davlati tugadi, islom tarqaldi
Misr	639–642	Arab madaniyati Afrikaga yoyildi
Shimoliy Afrika	670–709	Kairouan markaz sifatida shakllandi
Ispaniya (Andalusiya)	711–718	Islom G‘arbiy Yevropaga kirib bordi

Tarixiy-geografik ahamiyati arablarning bu yurishlari natijasida Islom dini 100 yil ichida Arabistondan Atlantika okeanigacha yoyildi. Arab tili, madaniyati va boshqaruv tizimi yangi hududlarga kirib bordi. Turli xalqlar islom sivilizatsiyasi tarkibida birlashib, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Andalusiyada ilm-fan, adabiyot va madaniyat yuksaldi.

XULOSA

Arab xalifaligi davrida islom dini nihoyatda keng hududlarga tarqalib, Yaqin Sharqdan tortib Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo va Ispaniyagacha bo‘lgan ulkan

[59] Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi. T., Toshkent Davlat Sharqshunoslik inistituti, 1999.

mintaqalarda hukmron e’tiqodga aylandi. Bu jarayon faqat diniy targ‘ibot bilan emas, balki siyosiy barqarorlik, savdo yo‘llarining rivoji, madaniy almashinuvlar va xalifalik tomonidan yaratilgan ijtimoiy-administrativ tizim orqali ham kuchaydi.

Xalifalik tarkibiga kirgan xalqlarning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan islomni ixtiyoriy ravishda qabul qildi, biroq boshqa dinlar ham o‘z mavqeini saqlab qoldi. Nasroniylik, yahudiylik hamda zardushtiylik kabi e’tiqodlar musulmon hukmdorlar tomonidan "ahl ul-kitob" maqomi sababli muayyan huquqiy himoyaga ega bo‘ldi. Natijada hududlarda diniy rang-baranglik saqlanib qoldi, bu esa xalifalik madaniyatining o‘ziga xos ko‘p qirrali bo‘lishiga xizmat qildi.

Arab xalifaligi davrida islomning geografik kengayishi nafaqat diniy tarixda, balki siyosiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o‘ynadi. Bu jarayon Sharq va G‘arb tamaddunlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, keyingi asrlarda shakllangan global sivilizatsiya asoslaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYORLAR

1. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. Imom Buhoriy. Sahihul Buhoriy. Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991. – B. 70.
2. Ahmed, Kassim. A Short Note on the Medina Charter. The First Written Constitution in the World, Sh. Muhammad Ashraf, Lohore 1968. – P. 46.
3. Адҳам Иброҳим ўғли. Энг комил инсон. Тошкент. Шамсуддинхон Бобохонов. 2022. – B. 167.
4. Bouziane Mounira.Comparison Between the Constitution of Medina and the Constitution of the United States: the Application of Deconstruction and the Projections of Chaos Theory. Anglo-American Studie. 2013. – P. 34.
5. Dr. Muhammad Tahir-ul-Qadri. Constitutional Analysis of the Constitution of Madina.Bouziane.2014. – P. 3.
6. Hasselblatt, Boris; Anatole Katok. A First Course in Dynamics: With a Panorama of Recent Developments. Cambridge University Press 2003. – P. 56.
7. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi. T., Toshkent Davlat Sharqshunoslik inistituti, 1999.
8. Moaddel, Mansoor. The Study of Islamic Culture and Politics: an Overview and Assessment. Annual Review of Sociology.vol. 28. 2002. – P. 45.
9. Shayh Alouddin Mansur. Quroni Karim ma’nolar tarjimasi. Toshkent. Cho‘lpon 1992. – B.542.
10. Said Abdullah. Islamic Thought An Introduction. UK: Rootledge., 2006. – P. 2.

ARAB XALIFALIGIGA QARAMLIK DAVRIDA TURONDA TANGA-PUL MUOMALASI. (VII ASR O‘RTALARI- IX ASR BOSHLARI)

Azimqulov Javohir Zafarzoda
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi
azimkulob@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Arab xalifaligi tomonidan Movarounnahr hududi fath etilgan davrdan to Somoniylar sulolasi hokimiyatga kelgan vaqtga qadar bu

hududda yurtilgan tanga-pul munosabatlari haqida ma’lumot berilgan. Ma’lumki, arab fathlari Movarounnahrning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga katta ta’sir o‘tkazdi. Bu ta’sir o‘lkada mavjud bo‘lgan tanga–pul munosabatlarida ham sezildi. Movarounnahrda bu davrga kelib ilk musulmon tangalari zarb etila boshlandi va muomalaga kiritildi. Maqolada ushbu masalalar ustida bahs yurutilgan bo‘lib birlamchi xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: Turon, Arab xalifaligi, Abbosiylar, Muhammad Ibn Dahda, Buxoro, G‘itrif ibn Ato, Samarqand, Xo‘jand, Muhammadiy, Musayyabiy, G‘idrifiy.

Abstract: The article provides information about the coin-money relations in this area from the time of the conquest of the Movarounnahr region by the Arab caliphate to the time when the Samanid dynasty came to power. It is known that the Arab conquests had a great impact on the economic and social life of Movarounnahr. This effect was also felt in the coin-money relations existing in the country. By this time, the first Muslim coins were minted and put into circulation in Movarounnahr. The article discusses these issues and presents primary conclusions.

Key words: Turan, Arab caliphate, Abbasids, Muhammad Ibn Dahda, Bukhara, Gitrif ibn Ato, Samarkand, Khojand, Muhammadi, Musayabi, Ghidrifi.

Аннотация: В статье представлена информация о денежных отношениях, существовавших на территории Мавераннахра с момента завоевания этой области Арабским халифатом и до прихода к власти династии Саманидов. Известно, что арабские завоевания оказали значительное влияние на социально-экономическую жизнь Мавераннахра. Это воздействие проявилось и в системе денежного обращения региона. В этот период на территории Мавераннахра начали чеканиться первые мусульманские монеты, которые были введены в обращение. В статье рассматриваются данные вопросы и приводятся первичные выводы по теме.

Ключевые слова: Туран, Арабский халифат, Аббасиды, Мухаммад ибн Дахда, Бухара, Гитриф ибн Ата, Самарканд, Худжанд, Мухаммади, Мусайаби, Гидрифи.

VII asr o‘rtalaridan boshlab Turon hududiga Arab xalifaligi qo‘shinlari tomonidan yurishlar boshlandi. Ilk davrlarida bu yurishlar mintaqa aholisini o‘rganish, ularning harbiy salohiyatidan xabardor bo‘lish va shu bilan birga bu hududning boyliklarini qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshirildi. 651 yilda arablar o‘sha paytning boy va madaniy jihatdan rivojlangan shaharlaridan bo‘lgan Marvga yaqinlashib, uni deyarli jangsiz egallab oldilar. Basra voliysi Abdulloh ibn Omir (625-677/678) boshchiligidagi qo‘shin 652 yilda Hirot va Bodg‘isni jang qilmasdan egallaydi[Abu Jarir at-Tabariy. 4-jild. 1967 : 167] [60].

VII asrning o‘rtalarida Turon o‘lkasi Turk hoqonligi nazorati ostida bo‘lib, hoqonlik tomonidan tayinlangan turli xil mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilib kelinardi.

[60] Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. Qohira. 1967. J.4. 167- bet.

Turk xoqonligining boshqaruvida ikki xil tizim mavjud edi: 1) bo‘ysundirilgan ba’zi o‘lka va viloyatlarda mavjud mahalliy sulolalar saqlanib qolgan va ular xoqonlikka o‘lpon to‘lab turgan; 2) tobe o‘lka va viloyatlarning ayrimlari boshqaruviga tayinlangan xukmdor xonadonga mansub vakillar hokimiyati. O‘sha kezlarda Sirdaryo – Amudaryo oralig‘i hamda tutash hududlar G‘arbiy Turk xoqonligi qaramog‘ida bo‘lib, Chochda Teginlar va Tudunlar, Farg‘onada ixshidlar, Ustrushonada afshinlar, Sug‘dda ixshidlar, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda afrig‘iylar, Toxaristonda yabg‘ular hokimiyati mavjud edi. Ularning ba’zilarining kelib chiqishi Turk xoqonligining boshqaruvchi sulolasi – Ashina xonadoniga mansub bo‘lishgan. Jumladan, Choch Teginlari (605-750), Toxariston yabg‘ulari (620-750), Farg‘ona Ashina sulolasi (640-810)[Boboyorov. 2021: 35].[61]

VIII asr boshiga kelib Xuroson voliysi sifatida tayinlangan Qutayba ibn Muslim arablar tomonidan “Movarounnahr” deb nom berilgan hududni deyarli to‘liq Arab xalifaligiga bo‘ysundirdi.

Xalifalikda bu davrga kelib umaviylar (661-750) sulolasi, asosiy hududlar egallangan davrda xalifa Valid ibn Abdulmalik hokimiyatda bo‘lib, egallab olingan hududlarni o‘z hokimiyatlari ostida birlashtirib, bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’sir o‘tkazishdi.

VIII-IX asrlar davomida Turon hududida asosan kumushdan tayyorlanadigan dirhamlar, oltindan ishlanadigan dinorlar va misdan yasaladigan fuls chaqalardan o‘zaro oldi berdi munosbatlarida foydanilgan. Manbalarning guvohlik berishicha arablar o‘lkaga kirib kelishidan oldin Turonda asosan Turk hoqonligi tangalari namunasidagi milliy hokimliklar tomonidan zarb etilgan tangalar keng tarqalgan. Samarqand ixshidlari tomonidan VII asr ikkinchi yarmidan VIII asr o‘rtasigacha zarb qildirilgan xitoy taqlidi tangalarda sug‘diy yozuvda Ixshid Shishpir, Vahshuman (655-696), Tapaspadak (696-698), Tarhun (700-710), G‘urak (710-737), Turg‘ar (738–750) kabi hukmdorlar ismi o‘rin olgan bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlar asosan xitoy va arab manbalarida, qisman esa sug‘diy hujjatlarda uchraydi[Bahaeddin Ögel 1984:184].[62] Xoqonlikning o‘z vassallari ustidan bo‘lgan nazorati birmuncha zaiflashgan paytda Samarqand hukmdorlari o‘z tangalarini Xitoy ta’sirida zarb qila boshlaydilar. Shunga qaramay, xoqonlikning Samarqanddagi ta’siri VIII asr birinchi yarmigacha saqlanib qolgani ma’lum. Bu tangalar o‘lkaga islom kirib kelgandan keyin ham ma’lum vaqt musulmon voliylar tomonidan ham zarb etilgan.

VII– VIII asrlarda esa Farg‘ona vodiysida qadimgi turk-run va sug‘diy yozuvda “xoqon” unvonli tangalar bostirilgan bo‘lib, bu holat vodiyda Ashina sulolasibir tarmog‘ining o‘z boshqaruvini o‘rnatishi bilan bog‘liq edi. Ham Choch, ham Farg‘ona tangalarida deyarli bir xil qiyofadagi hukmdor tasviri va Ashina sulolasi tamg‘asi uchrashi bundan darak beradi.

VI asr so‘nggi choragi – VIII asr ilk yarmida Choch (Toshkent) vohasida sug‘diy yozuvda “jabg‘u”, “jabg‘u-xoqon” va “xoqon” unvonlari bilan,

[61]G‘. Boboyorov. G‘arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. Toshkent. 2021. 35- bet.
[62]Bahaeddin Ögel. Islamiyyetden Önce Türk Kültür Tarihi. Ankara. 1984. S. 184.

“Turkxoqon”, “Tardu xoqon”, “Tun jabg‘u-xoqon”, “Ishbara jabg‘u-xoqon”, “To‘n-xoqon” singari hukmdor ismi va etnosiyosiy nomlar bilan mis tangalar bostiradi.

Ayni shu asrlarda To‘xoriston (Janubiy O‘zbekiston)da Sosoniylar Eroni tangalari ustiga sug‘diy yozuv bilan bosma (kontramark) tarzda qadimgi turkcha “xoqon”, “tegin”, tarxon” unvonlari tushirilib, Ashina aslli To‘xoriston yabg‘ulari (620–750) shu tariqa ushbu tangalarning o‘z hududida muomalada bo‘lishini ta’minlaydilar[Boboyorov 2021: 262].[63]

Turon hududida bu davrda iste’molda bo‘lgan kumush tangalardan bir turi Narshaxiyning guvohlik berishicha Kono Buxorxudot tomonidan zarb etilgan kumush tangalar bo‘lib, ilk dahfa bu tangalar Abu Bakr r.a xalifalik davrida (632-634) yillarda bosilgan [Abu Bakr Muhammad Narshaxiy 2022: 63][64] va arablar Buxoroni egallagan davrda muomalada mavjud bo‘lgan. Bu tanga sof kumushdan ishlangan bo‘lib, unga Buxorxudotning toj kiygan holatdagi surati aks ettirilgan. Bu davrda Buxoroga qo‘shni hududlarda ham mahalliy hokimlar tomonidan kumush tangalar zarb etilgan, ayniqsa Xorazm kumush tangasi ancha keng tarqalgan.

Islom dini o‘lkaga kirib kelgan so‘ng o‘lkada ilk islomiy tangalarning zarb etilishi Panjikent xarobalaridan topilgan bu davrga oid tangalardan aniqlanishicha hijriy 143/760-761-yillarga to‘g‘ri keladi [Bahaeddin Ögel 1984:184].[65] Ya’ni xalifalikda Abbosiylar sulolasi hokimiyatga kelgandan keyin Turon hududida ilk musulmon tangalari zarb etilishi boshlangan bo‘lishi mumkin. Ustida arab harflari mavjud bo‘lgan bu tangalarning qolgan qismi 765, 768, 770-yillarda bosilganidan xulosa qilish mumkinki abbosiylar davrida Turonda musulmonlar andozasidagi tangalarni zarb qilishga etibor qarata boshlangan va voliylar tomonidan iqtisodiy hayotni nazoratda ushlash va uni rivojlantirish maqsadida bu kabi siyosat olib borilgan.

VIII asr oxiri IX asr boshlariga kelib Turon o‘lkasida muomalada bo‘lgan va hududlarning xiroj solig‘i bu tangalar bilan to‘plangan uch xil turdagi kumush tangalar keng tarqalgan bular *muhammadiy, musayyabiy va g‘itrifiy* bo‘lgan. Bu tangalar Turonning barcha hududlarida bir xilda ishlatilinmagan, balki ma’lum bir shaharlarga moslangan bo‘lib, xalifalik turli hududlardan o‘zlarida ishlatilinadigan tanga turida soliq yig‘ib olgan.

“Muhammadiy” dirhami Gardiziyning asarida keltirilishicha Xuroson voliysi Muhammad Dahda buyrug‘i bilan zarb etilgan bo‘lib asosan Samarqand va unga tutash bo‘lgan Kesh, Nasaf hamda Buttam va Farg‘ona hududlarida keng muomalada bo‘lgan. Bu hududlarning xiroji aynan muhammadi dirhamlari orqali to‘langan [Abu Said Muhammad Gardiziy 1944: 283].[66] Bu tangalar aynan Muhammad ibn Dahda buyrug‘i bilan zarb etilgani uchun ham “muhammadi” dirhamlari deb nom olgan. Lekin Gardiziy Xuroson voliysi sifatida keltirigan

[63]G‘. Boboyorov. G‘arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. Toshkent. 2021. 262- bet.
[64] Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 63-bet.
[65]Bahaeddin Ögel. Islamiyyetden Önce Türk Kültür Tarihi. Ankara. 1984. S. 184.
[66]Abu Said Muhammad Gardiziy. Tarixi Gardiziy. Tehron. Chopxnaye Armug‘on. 1944. 283 - bet.

Muhammad ibn Dahda Xuroson voliysi bo‘lmagan balki, Xuroson voliysi nazoratidagi arab noyiblaridan biri bo‘lgan [Osman Aydinli 2011: 369].[67]

“Muhammadiy” dirhamlari kumush, temir va boshqa m’adanlar qorishmasidan yasalgan bo‘lib, ularda islomiy tangalardan farqlanarli shakllar va arabcha bo‘lmagan harflar ham mavjud bo‘lgan.[68]

“Musayyabiy” dirhamlari 780-782-yillarda Xuroson voliysi bo‘lgan Musayyab ibn Zuhayr buyrug‘i bilan zarb etila boshlangan va “musayyabiy” nomi bilan atalagan. [69] “Musayyabiy” dirhamlari Xo‘jand, Shosh, Iloq va Ustrushona hududlarida keng tarqalgan va bu hududlarning xiroji shu turdagi tangalar bilan to‘langan. [70]

Buxoroda 632-634-yillarda Buxorxudot tomonidan zarb etirilgan dirhamlar IX asr boshida kelib aholi orasida kamayib bordi, Buxoro hududida qo‘shni Xorazmda zarb etilgan kumush tangalar ko‘p ishlatilina boshladi lekin Buxoro xalqi bu kumush tangalarni ishlatishni uncha xush ko‘rmasdilar. 801-yilda xalifa Horun Rashid tomonidan Xuroson voliysi etib tayinlangan G‘itrif ibn Ato buxoroliklarning bildirgan takliflari bilan Buxoroda oldingi Buxorxudot davridagi kumush tangalarga monand yangi tangalar zarb qilishga buyruq berdi.[71]

IX asr boshlarida Buxoroda kumush kamyob bo‘lib, tangani sof kumushdan emas balki oltin, kumush, rux, qalay, mis vat emir qorishmasidan tayyorlashga Buxoro xalqi kelishib olishgan va shu holatda tanga zarb qilish boshlandi.[72] Tangalar G‘itrif ibn Ato buyruqi asosida zarb qilingani uchun ham bu tangalarga “Siymi G‘itrifiy” ya’ni “g‘itrif kumushi” deb nom berildi. Odiiy xalq orasida esa bu turdagi tangalar “g‘itirifiy” nomi bilan shuhrat topdi. Avvalida tangalar sof kumushdan quyilmagani sababli qora rangli bu tangalar aholi orasida qabul qilinmadi, voliyning g‘azabiga uchrashdan qo‘rqqan xalq asta –sekin bu tangalardan foylana boshlagan. Bunga yana bir sabab olti g‘itrifiy tanganing bir sof kumush tangaga teng qilib qoyilgani ham bo‘ldi. Shu paytdan boshlab Buxoroliklar xiroj solig‘ini g‘idrifiy tangalari bilan to‘lashga buyurildi va ma’lum vaqt o‘tib g‘idriify tangalari ham aholi orasida kamaya boshladi vas of kumush tanga bilan endi oltiga bir holatda emas teng holga keldi.[73]

G‘itrifiy tangalarini Buxorodagi Ko‘shki Mohak nomli joyda zarb qilingan. Buxoro va unga tutash hududlarning xiroji g‘itirifiy tangalarida olingan va bu tangalar XII asrda ham Buxoroda muomalada bo‘lib, hatto sof kumush tangadan qiymat jihatidan yuqoriroq baholangan.[74] Buxoroda mahsulotlar, mulk va qullar savdosi, ayol mahri (falonchi falon ismli ayolga ming g‘itrifiy dirham mahr berdi kabi) va xaroj faqat shu dirham bilan to‘langan[75].

[67]Osman Aydinli. Semerkent tarihi. Istanbul. 2011. s. 369.
[68] Istaxriy. Al-masalik val-mamalik. Toshkent. 2019. 323- bet.
[69] Ibn Havqal. Kitab surat al-arz/ Movarounnahr. Toshkent. 2011. 490- bet.
[70] Ibn Xurdodbeh. Al-masalik va-l-mamalik. 38-39-betlar.
[71] Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 64- bet.
[72]Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 65- bet.
[73] Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 67- bet.
[74] Abu Rayhon Beruniy. Al-jamohir fi ma’rifat al-javahir. 401-402- bet.
[75] Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 51-bet.

G‘itrifiy tangalari kursi almashib turgan. 835 yilda 100 toza kumush dirham 85 g‘itrifiy dirhamga teng bo‘lgan, Ibn Fazlon 921 yilda 1 kumush dirham – 100 g‘itrifiy dirhamga, 1128 yilda esa 100 kumush dirham 70 g‘itrifiy dirhamga teng bo‘lgan. Bir misqol qizil tilla narxi yetti yarim g‘itrifiy dirhamga teng bo‘lgan[76]. Beruniy zamonida bir g‘itrifiy bir kumush dirhamga teng bo‘lgan, ba’zan undan ham narxi yuqori bo‘lgan.

G‘itrifiy tangalaridan oldin Xuroson va Movarounnahr hududida Xorazm kumush tangalari ko‘p ishlatilingan, Xorazm dirhami toza (tozcha) deb atalgan va u to‘rt yarim donaq bo‘lgan. Xorazm xaroji mana shu dirham bilan to‘langan. [77]

Buxoroda mis tangalar ham ishlatilgan va ularning qirqtasi bitta kumush tangaga teng bo‘lgan va samarqand tangalaridan oltitasi bir doniq kumush tangaga teng bo‘lgan[78].

Tangalar zarb etilgan asosiy zarbxonalar bu davrda Iloq, Shosh, Farg‘ona, Toxariston, Kesh, Naxshab, Qubo, Buxoro, Samarqand, Badaxshon, Termiz, Xuttal, Rasht, Chag‘oniyon, Xurosonda Balx, Panjhir, Toliqon, G‘arjiston, Marv, Nishopur, Hirotda joylashgan.

Zarbxonalarda ishchilar, tilla, kumush va boshqa metallar erituvchilari, naqqoshlar (o‘ymakorlar), tamg‘a bosuvchilar, zarroblar va tangalardagi qimmatbaho metal probasini tekshiruvchilar kabilar faoliyat ko‘rsatganlar. Bu ishni boshqaruvchisi “nozir” deb atalgan[79].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Arab xalifaligi tomonidan Turon hududi egallab olinishining ilk davrlarida xalifalik Turondagi tanga pul muomalasiga katta daxl qilmagan. Keyinchalik abbosiylar hokimiyatga kelgandan keyin esa Turonda eski tangalardan voz kechish va faqat xalifalik ma’murlari tomonidan belgilangan me’yorda zarb etiladigan musulmonlar andozasidagi tangalardan o’zaro oldi berdi munosabatlarida foydalanish keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YIXATI

1. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 155 b.
2. Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriy. Al-masalik val-mamalik. Toshkent. 2019. 480 b.
3. Abu Said Muhammad Gardiziy. Tarixi Gardiziy. Tehron. Chopxnaye Armug‘on. 1944. 320 b.
4. Abul Qosim Ubaydulloh ibn Abdulloh Ibn Xurdozbah. Al-Masalik va al-mamalik. – Bayrut: Dar sodir, 1889. 338 b.
5. Bahaeddin Ögel. Islamiyetden Önce Türk Kültür Tarihi. Ankara. 1984.
6. G‘. Boboyorov. G‘arbiy Turk xoqonligi tarixi va tanga-pul tizimi. Toshkent. 2021. 320 b.
7. Ibn Havqal. Kitab surat al-arz/ Movarounnahr. Toshkent. 2011. 389 b.

[76] Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 2022. 52-bet.
[77] Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. Bayrut. 1987. 286, 340- betlar.
[78] Ibn Havqal. Kitab surat al-arz/ Movarounnahr. Toshkent. 2011. 120-121-betlar.
[79] Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. Bayrut. 1987. 360- bet.

8. Ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. – Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya, 2005. 2260 b.
9. Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. Bayrut. 1987. 569 b.
10. Osman Aydinli. Semerkent tarihi. Istanbul. 2011. 596 b.

X –XI АСРЛАР АББОСИЙЛАР ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИДАН – АБУЛҲАСАН МОВАРДИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ, СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР

Jo’rayev Ziyovuddin Muhitdinovich
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti “Pedagogika va tillar” kafedrasi v.b. dotsenti., tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
mawardi964barlos@mail.ru (+99899)8931970

Аннотатция: Мазкур – “X –XI асрлар аббосийлар ҳукмронлиги даври алломаларидан – Абулҳасан Мовардийнинг ижтимоий, сиёсий ва ҳуқуқий фаолиятига бир назар” номли илмий мақолада инқирозга тобора юзтубан қулаётган араб халифалигининг аббосийлар даври қисқача сатрларда очиқлаб берилган.Шу билан бирга бу таҳликалаи вазиятлардан муваффақиятла ғалаба қозонишга бош вазир Абулҳасан Мовардий раҳнамолигида ва ўша давр туркийлари билан ҳамоҳанг уруниш аббосий ҳукмдорларга яхшигина натижалар олиб келингани борасида тўхтаб ўтилган. Хусусан, Қодир Биллоҳ ва унинг ўғли Қоим Биамриллоҳ аббосийлар даврида яшаб илмий ижод этган: машҳур фақиҳ, соитсиолог, муфассир, адиб, ижтимоий-сиёсий фаолиятда: сиёсий арбоб сифатида дипломат, қозиюл қуззот, машҳур элчилик фвазифалари, адлия вазири, бош вазир сифатидаги мансабларида фаолият олиб борганига ҳам озгина тўхталинган. Абулҳасан Мовардийнинг аббосий халифаларига маслаҳатгўй сифатидаги кўрсатмалари, салтанат қурилишидаги энг янги назарий ва амалий ҳамда унинг илмий меросидаги таълимотлари асосида муҳташам султонлик сиёсий ва ҳуқуқий жиҳатдан исботлаб берилди ва тезкорлик билан шиддатла амалда йўлга қўйилди. Бу қисқа даврда аббосийлар тамомила турғунлик даврини бошдан кечиришга маҳкум эдилар. Тарихнинг ғилдирагини ижтимоий барқарорликни таъминлашга қаратилган “Аҳли сунна вал-жамоа” мазҳабий тузилмаларини расмийлаштириш, самарали жамоалар ва жамиятларни юзага келтиришга қаратилган ҳаракатлар бошланган.

Абулҳасан Мовардий ана шу эзгу мақсад йўлида Туркийлардан Ғазнавийлар ва Слжуқийларга жаҳон давллатчилик тарихи ва тараққиётида илк бора султонлик мақомини беришни кашф этгани. Уларнинг адолатли салтанат юритишлари учун “ал-Аҳком ас-султонийя вал-валоёт ад-динийя” (“Салтанат тузиш аҳкомлари ва бошқарув таълимотлари”) асарини ёзиб бергани ва салтанат тузишларига имконият бериш орқали аббосийларга барқарорлик касб эттирилгани ёритилган.

Калит сўзлар: Султон, салтанат, халифа, ҳукмдор, сулола, аҳком, мазҳаб, ҳуқуқ, фиқҳ, шариъат, таълимот ва ҳоказо.

Abstract: This scientific article, titled "A Look at the Social, Political and Legal Activities of Abulhasan Mawardi, a Scholar of the Abbasid Rule of the 10th-11th Centuries," briefly describes the Abbasid period of the Arab Caliphate, which was collapsing into a crisis. At the same time, it is emphasized that the Abbasid rulers successfully overcame these dangerous situations under the leadership of Prime Minister Abulhasan Mawardi and in coordination with the Turks of that time, which brought good results to them. In particular, it is briefly mentioned that Qadir Billah and his son Qaim Biamrillah lived and worked during the Abbasid period: they were famous jurist, sociologist, commentator, writer, and worked in socio-political activities: as political figures, diplomats, judges, famous ambassadors, ministers of justice, and prime ministers. Based on Abulhasan Mawardi's instructions as an advisor to the Abbasid caliphs, the latest theoretical and practical teachings in empire building, and his scientific heritage, the magnificent sultanate was politically and legally proven and rapidly and rapidly implemented. During this short period, the Abbasids were doomed to experience a period of complete stagnation. Efforts aimed at formalizing the sectarian structures of "Ahli sunna wal-jama'a" aimed at ensuring the social stability of the wheel of history, creating effective communities and societies have begun. Abulhasan Movardi discovered that for the first time in the history and development of world statehood, the status of sultanate was given to the Ghaznavids and Slujikis from the Turks in the path of this noble goal. For their righteous reign it is explained that he wrote the work al-Ahkom al-sultaniyya wal-walayot ad-diniyya ("The rules of establishing a kingdom and the teachings of management") and that stability was gained for the Abbasids by giving them the opportunity to establish a kingdom.

Keywords: Sultan, kingdom, caliph, ruler, dynasty, rulings, sect, law, jurisprudence, Sharia, doctrine, etc.

Аннотация: В данной научной статье под названием «Взгляд на общественную, политическую и правовую деятельность Абулхасана Маварди, исследователя правления Аббасидов X–XI веков» кратко описывается период правления Аббасидов в Арабском халифате, который постепенно погружался в кризис. В то же время подчеркивается, что правители Аббасидов под руководством премьер-министра Абулхасана Маварди и в координации с турками того времени успешно преодолели эти опасные ситуации, что принесло им хорошие результаты. В частности, кратко упоминается, что Кадир Биллах и его сын Каим Биамриллах жили и работали в период Аббасидов: они были известными правоведами, социологами, комментаторами, писателями и занимались общественно-политической деятельностью: были политическими деятелями, дипломатами, судьями, известными послами, министрами юстиции и премьер-министрами. На основе указаний Абулхасана Маварди как советника халифов Аббасидов, новейших теоретических и практических учений по строительству империи и его научного наследия был политически и юридически обоснован и быстро воплощен в жизнь великолепный султанат. В этот короткий период Аббасиды

были обречены на период полной стагнации. Начались усилия по формализации сектантских структур «Ахли сунна валь-джамаа», призванных обеспечить социальную стабильность колеса истории, создать эффективные сообщества и общества. Абулхасан Моварди обнаружил, что впервые в истории и развитии мировой государственности статус султаната был предоставлен Газневидам и Слуджикам турками на пути к этой благородной цели. За их праведное правление. Объясняется, что он написал труд «Аль-Ахком ас-султанийя валь-валайот ад-динийя» («Правила создания государства и учения об управлении») и что стабильность была достигнута Аббасидами, поскольку им была предоставлена возможность создать государство.

Ключевые слова: султан, королевство, халиф, правитель, династия, постановления, секта, закон, юриспруденция, шариат, доктрина и т. д.

Абулҳасан Мовардий (964 – 1058 йй.) яшаган даврдаги ижтимоий-сиёсий вазият ўта таҳликали бўлган. Абулҳасан Мовардий ҳаёти ва илмий фаолияти X-XI асрлар Аббосийлар даврига тўғри келиб, Бағдод[1.حسن ابراهيم . 365.] шаҳри ислом дунёсининг илм-маърифат марказларидан бири эди. Аббосийлар давлати(ҳукм. дав. 132/750 – 656/1258 йй)да 37 нафар шахс халифалик тахтига чиқди. Бу давлат Шарқда Еттисув, Ғарбда Атлантика океани, шимолда Шимолий Кавказ, жанубда Африканинг шимолий ҳудудларини эгаллаган.

Абулҳасан Мовардий яшаган даврда ижтимоий-сиёсий жараёнлар кескинлашиб, Аббосийлар халифалигида тарқоқлик вазияти юзага келиб [2. Васильев А. А. 1902. – 230 с], империя Ирокдаги Аббосийлар (ҳукм. дав.VIII-XIII асрлар) [3. Семенова Л. А. 1990. – 328с.], Шимолий Африкадаги давлатлар (ҳукм. дав.VIII-XII асрлар) [4. Жюльен Ш. А. 1967. –138 с.], Андалусиядаги Умавийлар (VIII-XI асрлар) [5. Альтамира-и-Кревеа Р. 1957], Хуросон ва Мовароуннаҳрдаги давлатлар (IX-XI асрлар), Шом давлати (X-XII асрлар), Бувайҳийлар (X-XI асрлар) ва Салжуқийлар (XI-XII асрлар) [6. Семенова Л. А. 1990. – 280 с.] каби мустақил давлатларга бўлиниб кетган эди. Халифаликнинг ташқи муносабатларида ҳам зиддиятлар вужудга келганди. Улар Аббосийлар давлатининг инқирозига сабаб бўлди [7. Хотамий С. М. 2003. – Б. 192-203.].

Г.Э. Грюнебаум фикрича, “Аббосийлар “Мулуки тавоиф” номи остида мустақил ёхуд ярим мустақил давлатларга бўлиниб кетганди. Бу давр Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари давлатчилиги тарихида янги босқичга кўтарилиш даври эди”[8. Грюнебаум Г. Э. фон. 1981 г. – 180 с.].

Абулҳасан Мовардийнинг давлат ва ҳуқуқ назарияси ҳақидаги қарашлари мазкур халифалик тизими емирилиш даври шарт-шароити билан узвий боғланган эди. X-XI асрларда Аббосийлар бошқаруви кучли зиддиятларни бошдан кечирди. Бу даврда сиёсий бошқарув султон ва ноиблар қўлида бўлган[9. Аҳмет Угур. – В. 15 – 25;].

X-XI асрларга келиб, Аббосийларнинг ижтимоий-сиёсий бошқаруви Бувайҳий шиа (ҳукм. дав. 334-447/932-1055) ҳарбий амир-ул-умаролари

тасарруфида бир юз ўн уч йил давом этган. Мазкур даврда аббосий халифалар ўзлари тайинлаган амирларнинг сиёсий таъсирига тушиб қолганлар. Бувайҳийларнинг халифаларга нисбатан устунлиги кучайиб, халифалик заифлашиб борди. Сиёсий танглик ижтимоий-иқтисодий ҳаётда салбий аксини топди. Иқто (расмий амалдорларга ажратилган) ерларида етиштириладиган зироатчилик, боғдорчилик, чорвачилик ва ҳунармандчиликдан олинадиган солиқ турларининг кўпайиши турли минтақаларда халқ исёнларига сабаб бўлди[10. المسعودي، موروج الذهب. 3-قسم. –ص. 335].

Абулҳасан Мовардий давлат бошқарувида Мутиъ (ҳукм. дав. 334–363/946 – 974 йй.), Тойиъ (ҳукм. дав. 363–381/974–991 йй.), Қодир Биллоҳ (ҳукм. дав. 381–422/991–1031 йй.), Қоим Биамриллоҳлар (ҳукм. дав. 422/1031–1075 йй.) ҳукмронлик қилган даврларда яшаган[11.1370 محمد خواند شاه بلخي. شه آزر– ص. 85]. Абдулкарим ибн Мутиъ ҳамда Тойиъ замонида, халифаликнинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳаётида деярли ўзгариш содир бўлмади. Давлат бошқарувини Бувайҳий амирлари олиб борар эди. Тойиъ ўн етти йилу тўққиз ой халифалик қилгач, мансабидан туширилиб, Қодир Аҳмад ибн Исҳоқ ибн Муқтадир Қодир Биллоҳ халифаликка тайинланган. Мазкур халифа маънавий-маърифий ишларга алоҳида эътибор қаратди[12.1969 عبد الرفيع حقيقت.،– تهران].

Қодир Биллоҳ маърифатпарвар, очиқ кўнгил ва сахий шахс бўлса-да, мамлакат бошқаруви хусусида бироз уқувсиз эди. Аммо унинг даврида мамлакат тараққиёти учун бирмунча фойдали ишлар ҳам амалга оширилди. Қодир Биллоҳ 437/1017 йилда “Аҳли сунна ва-л-жамоа”дан ажралиб чиққан мўътазила таълимотига қарши “Рисолайи қодирийя” ёхуд “Эътиқоди қодирийя” асарини ёзиб[13. 1914 صلاح كمال، قازان.], унинг воситасида мўътазила, шиа ва имомий оқимларига жиддий зарба берган[14. Рашидаддин. – Москва: 1946.] бўлса-да, бироқ бу ҳаракат халифаликнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида жиддий ўзгариш ясамади.

Қодир Биллоҳ 86 ёшида вафот этгач, ўрнига ўғли валиаҳд шаҳзода Қоим Биамриллоҳ (ҳукм. дав. 422-467/1031–1075 йй.) халифалик тахтига ўтирди. У ҳам отаси каби қалби очиқ, маърифатпарвар, бағрикенг шахс бўлиб, халифалик тахтида 44 йил ўтирди. Бу пайтда Бағдод шаҳри ҳукмдори *амир ал-умаро*лик лавозимида (1035–1045 йй.) Жалолуддавла Бувайҳий ўтирган бўлиб, у аввалги ҳукмдор Аззудуддавла Бувайҳий даврида шуҳратга эришган. Лекин бу даврда Бувайҳийлар заифлашиб, араб халифалиги ҳудуди Бағдод атрофи билан чегараланиб қолганди[15.اليافعي – Варақ. 390.].

Ироқдаги бувайҳий султонларидан Жалолуддавла (1025–1044 йй.) туркий султон Тўғурбек Салжуқ ва акаси Чағрибек Довуд (ҳукм. дав. 1038–1118 йй.) ва булардан ташқари Форсдаги бувайҳий Султонуддавла (ҳукм. дав. 938–1112 йй.), Абу Шужоъннинг ўғли Имодуддавла (ҳукм. дав. 1112–1024 йй.), Абу Калижар (ҳукм. дав. 1112–1024 йй.) билан ичкикурашлар сиёсий инқирозларнинг тезлашишига сабаб бўлди.

Жалолуддавланинг ҳаёти сиёсий кураш ва қийинчиликлардан иборат бўлди. Унинг ўлимидан (ваф. 435/1044 й.) сўнг ўғли Абу Мансур Марзубон ибн Феруз Хусрав (ҳукм. дав. 1048–1055 йй.) амир ал-умаролик мансабига ўтирди. Халифа унга “Ал-малик ал-азиз” (халифанинг яқин кишиси) унвонини берди. У вафот этгач, Имодуддавла Абу Калижар Марзубон Бағдодни босиб олди. Аммо унинг ҳукмронлиги узоқ давом этмади. Тўрт йиллик бошқарувдан сўнг 40 ёшли Абу Калижар Марзубон бувайҳий оламдан ўтгач, “ал-малик ар-раҳим” унвонли (1048–1055 йй.) Абу Наср Хусрав Феруз ўғли ҳокимиятни қўлга олади[16. Стэнли Лэн-Пуль. 1996. – С. 356.].

Ислом тарихида юз берган тарихий жараёнлар аббосий халифа Қоим Биамриллоҳнинг ҳукмронлиги замонида фавқулодда сиёсий вазият янада жиддийлашади. Мисрлик фотимий ҳукмдорлар (ҳукм. дав. 909–1171 йй.)дан Абу Тамим Маъодд Мустансир Биллоҳ Алавий (ҳукм. дав. 427–487/1036 – 1094) Бағдодни забт этади[17. Воҳидов Ш. Ҳ., 2013. – Б. 209–211.]. Бағдодда ўз номига хутба ўқитади.

X-XI асрларда Аббосийларнинг ўтмишидан баҳс этган асарлар ёзилиши баробарида, тобе мамлакатлар ҳам ўзига хос маданиятга эга халқ сифатида миллий истиқлол ҳаракатини бошлаган эдилар[18. Большаков О. Г. 1989–1998.]. Улар ҳам ўз давлатчилик тарихига оид асарлар яратди. Лекин давлатнинг ижтимоий гуруҳларни бирлаштириш йўлидаги ҳаракати жиддий натижа бермади ва аниқ бир тизимга солинмаган сиёсий дастур йўқлиги сабабли барқарор бошқарув таъминланмади. Мансаблар суиистеъмол қилинди, хазина талон-тарож этилди.

X–XI асрларда Аббосийлар оғир ижтимоий-сиёсий вазиятга тушиб қолдилар. Мамлакат ғоявий-сиёсий, ақидавий-мафкуравий курашлар гирдобида қолди. Турли оқимлар ўртасида бир-бирини кофирлик ва даҳрийликда айблаш авж олди. Натижада, Қодир Биллоҳнинг “Эътиқоди қодирийя” ва Абулҳасан Мовардийнинг “ал-Иқнаъ фи-л-фиқҳи аш-шофеъийя” асарлари пайдо бўлди. [19. Хотамий С. М. 2003. – Б 193.]

Қодир Биллоҳ ва Мовардийларнинг хизмати шу бўлдики, улар ноанъанавий 72 оқим ғояларини таҳлил этиб, уларнинг турли иддаоларига ўз раддияларини берганлар. Сунний исломда эътироф этилган тўрт фиқҳий мазҳабни ўзида бирлаштирган, мўътадил таълимотга эга “Аҳли сунна ва-л-жамоъа” эътиқодига таянадиган мазҳабларгагина мамлакат ҳудудида расмий фаолият юритишга рухсат берилди.

Мазкур даврда мўътазила, рофизийлар ва шиъаларнинг ҳокимият учун кураши авж олган. Сиёсий гуруҳлар ўз мафкураларини диний иддаолар ва қонун-қоидалар билан қувватлашга ҳаракат қилишарди. Айни пайтда, “Аҳли ал-сунна...” гуруҳи мутакаллимлари[20.ص – ..علي ابن محمد الفخري 510 .] ашъарийлик ва мотуридийликка асосланган диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни кўзлаган ислоҳотларни амалга ошираётган эди[21. الاشعري،،-ص. 200].

XI аср бошларида суннийлик мавқеининг тикланиш аломатлари пайдо бўла бошлади. 406/1015 йилда ҳанбалийлар Карбалодаги Имом Ҳусайн (р.а.)нинг мақбарасини ёқиб юборди. Бағдод, Самарра, Макка, Мадина ва Қуддусда Бувайҳийларга қарши қўзғолонлар кўтарилди. 411/1020 йилга келиб кучли сиёсий тус олган ушбу жараёнлар сабабли халифа Қодир Биллоҳ шиа Бувайҳийларни жазодан қутқариб қололмади[22.1335،فياض علي أكبري], балки унинг ўзи уларни жазолаш ишларига бошчилик қилди.

Аббосийлар давлати таркибидаги олтита минтақа ноибларининг бир қисми мустақиллик сари интилаётган эди. Бундай жараёнларда Ғазнавийлар (ҳукм. дав. 353–577/962–1186 йй.) ўзларини суннийликнинг ҳимоячилари сифатида эълон қилдилар[23. Стэнли Лен-Пуль. – С. 328.]. Исмоил Сомоний томонидан Алптегин Ғазнавий Хуросонга волий этиб тайинлангач, минтақа Сомонийлар бошқарувидан халос бўлиб, амалда мустақилликни қўлга киритди. Ушбу ўлкада мустақил давлат тузилиб, Ғазна шаҳри пойтахтга айлантирилди.

Ғазнавийлар, Салжуқийлар ва Аббосийлар ўртасидаги алоқаларнинг мустаҳкамланишида Абулҳасан Мовардийнинг хизмати катта эканлигини кўриш мумкин. Бу тарихий жараёнлар ёзма манбаларда қайд этилган[24. طبري، 1363؛]. Халифанинг ноиблари ва амир-умароларнинг ўзаро урушлари, маъмурлар ва ботил фирқалар ўртасида зиддиятли мафкуралар тарқалиши, иқтидорсиз халифаларнинг лоқайдлиги туфайли вужудга келган ижтимоий-сиёсий бошбошдоқлик халифаликнинг инқирозига сабаб бўлди. Қоим Биамриллоҳ Бағдодни ташлаб қочишга мажбур бўлади.

Айнан шу даврларда (429/1038 й.) Бағдодда *қозиу-л-қузот* лавозимини эгаллаган шофеъий мазҳабининг йирик уламоси Мовардий давлат бошлиғига маслаҳатгўй вазир ва сулҳпарвар элчи сифатида сиёсий майдонга чиқади[25. علي أثقر الحلبي31-30 .1365]. Қийин вазиятдан чиқиб кетиш мақсадида Қоим Биамриллоҳ Ироқ ва Ҳижоз минтақаси бошқарувини Тўғрулбек Салжуқийга беришни ваъда қилиб, Мовардийни элчи сифатида юборади[26. Наққош Ҳ. И. 1988. – Б. 22., 33.]

Тўғрулбек мавжуд ижтимоий-сиёсий вазиятдан фойдаланиб қолиш мақсадида халифа олдидаги мажбуриятларини адо этишини маълум қилади. Халифа шу тариқа ўғуз, қарлуқ ва бошқа туркийлар иттифоқидаги ҳарбийлар кучига таянган ҳолда улар билан муносабатларини яқинлаштиришга муваффақ бўлади. Натижада, 429/1038 йилда Нишопур султони деб эълон қилинган Тўғрулбек ҳокимият тепасига келгач, аввало, суннийлик мазҳабини ҳимоя қилиши, Аббосий (қўғирчоқ) халифаларини шиа мазҳабига мансуб Бувайҳийлар васийлигидан қутқариш биринчи вазифаси эканлигини таъкидлайди. Бу сиёсий чақирув унга Салжуқийлар Ғарбий Хуросондаги мустабид дайламий/бувайҳий ҳукмдорларига қарши ҳаракат бошлаганида суннийларнинг мададини олишда жуда қўл келди. Шу тариқа 442/1051 йилга келиб, Миср, Шом, Форс ва Ироқдаги бувайҳий ва фотимий каби шиа гуруҳлари орасидаги 125 йиллик ички низолар, қонли тўқнашувлар гирдобида қолган сулола Тўғрулбекнинг адолат ўрнатиш мақсадида йўлга

қўйган ҳарбий ислоҳотлари туфайли барҳам топди. Бағдоднинг амир ал-умаролиги Бувайҳийлардан Салжуқийлар қўлига ўтди.

Аббосий халифа Қоим Биамриллоҳ ваъдасида собитлик изҳори сифатида 1052 йилда шахсан ўзи Бағдод масжидларидаги хутбасида Тўғрулбек номига Ироқ султони деган жумлани қўшиб ўқийди ва унинг ҳаққига дуои хайр қилишларини буюради. Тўғрулбек, ўз навбатида қатъий ҳарбий режасини тузади. Маккага борувчи ҳожилар ниқоби остида йўлга чиқиш орқали Форс, Шом ва Миср ерларини забт этишни асосий мақсад қилади. Бунга эришиш учун ҳарбий стратегик ҳийла воситасида Фотимий Мустансир Маъадд Биллоҳ Алавийни (1036–1094 йй.) қўлга тушириш ва унинг давлатига барҳам бериш режасини амалга оширади.

Босвортнинг фикрига кўра, 447/1055–56 йилларда Тўғрулбек Салжуқ Бағдодни батамом эгаллайди. Қоим Биамриллоҳни қайтадан халифалик тахтига чиқариб қўяди[27.284 .ص – .1900 إمام الدين محمد خاليد الإسفهاني،]. У эса, ваъдага мувофиқ, Тўғрулбекнинг султонлик унвонини тасдиқлайди[28. Босворт Л. Э. 2007. – Б. 142.]. Бағдод масжидларида жума намозида Султон Тўғрулбек номига хутба ўқилади. Тўғрулбек Салжуқнинг акаси Чағрибек Довуднинг Саида исмли қизига (429–455/1038–1063 йй.) аббосий халифа Қоим Биамриллоҳ 448/1056 йилда уйланиб, салжуқ туркларига куёв бўлгач, Бағдодда ижтимоий-сиёсий тартиб-интизом қайтадан ўз изига туша бошлайди[29.426 .ص – .هش 1360 حسين ابراهمي،]. Сиёсий вазиятдаги бу каби ижобий ўзгаришларда Абулҳасан Мовардийнинг хизматлари катта бўлган[30. 430 .ص – .يافعي].

Абулҳасан Мовардийнинг “ал-Аҳком ас-султонийя” асарида илгари сурилган адолатли салтанат тузиш таълимотини амалиётга татбиқ этган биринчи ҳукмдор Тўғрулбек Салжуқ бўлган. Унга асосланган Салжуқийлар султонлиги нисбатан қисқа вақт ичида қадимги форс давлатларидан-да йирик мусулмон Шарқи салтанатини барпо этди. Туркий султонлар ҳукмронлигида[31. Якубовский А. Ю. – 1934.] Аббосийлар маълум даражада инқироздан фориғ бўлдилар. Айнан шундай шароитларда халифа таклифи билан Мовардий 1055 йилда “Ал-Аҳком ас-султонийя” асарини ёзади.

Абулҳасан Мовардийнинг асосий фаолияти (370-450/991-1058 йй.)[32. Хотамий С. М. 2003. – Б 193.] да Аббосийлар давлати 334/945 йилдан Бувайҳийларнинг[33. Петрушевский И. П. 1966;], 447/1055 йилдан Ироқи ажам ва араб Салжуқийларнинг амир ал-умаролиги даврида кечган. Аббосийларнинг IX-X аср биринчи ярмидаги ҳукмронлиги даврида, маҳаллий аҳоли ҳаётида ислом манъавияти маълум даражада тараққий этган бўлса-да, қадимий динлар таъсири ҳануз кучли эди[34. Бартольд В. В. – С 335.].

Айрим гуруҳлар зоҳиран ислом динини қабул қилган бўлсалар-да, зимдан унга қарши эдилар. XI аср бошларига келиб, Аббосийлар сиёсий жиҳатдан батамом кучсизланди[35. Петрушевский И. П. 1966; – СС 149,], исломий бошқарув очиқ таназзулга юз тутди. Узоқ вилоятларда марказий бошқарувнинг таъсири йўқолиб, давлат мол-мулк танқислигига учради.

Шунга кўра, маъмурларга маошни марказий хазинадан тўлаш жорий этилди. Давлат (мулки султоний) ерларининг лашкарбошиларга ижарага (иқтоъ) бериш оқибатида, улар давлат тасарруфидан чиқиб кетди.

Маданий-маънавий ҳаётда ҳам маълум ўзгаришлар содир бўлди. Жумладан, санскрит тилидаги “Панчатантра” (“Беш муқаддас китоб”), шунингдек, “Калила ва Димна”, хитой мутафаккири Конфуций кабиларнинг таълимотларига оид асарлар араб ва форс тилларига таржима қилинди. Бағдод, Басра, Куфа, Макка, Мадина, Қоҳира, Шом, Қуртоба, Тус, Самарқанд, Бухоро, Урганч, Марв, Нишопур ва Кешдаги илмий марказлар юксак даражага эришиши натижасида маданий ҳаётда юксалиш сезила бошлади. Шулардан Кеш шаҳри илм-маърифат маркази “Қуббату-л-улум ва-л-адаб”, (VIII аср), Марвдаги “Байту-л-улум” (VIII аср), Бағдод шаҳридаги “Байт ал-ҳикма” (IX аср)[36. Абдуҳалимов Б.А. 2005. – № 4. – Б. 102–107.], Самарқанд илоҳиёт мактаби (IX–X асрлар), Сомонийларнинг “Дивану-л-ҳикма” (X аср)[37. Багирова. С. Г. 1987. – С. 46;], Урганчдаги “Мажлису-л-уламо”, “Маъмун дору-л-фунуни” (XИ аср), Қоҳира шаҳридаги “Дору-л-ҳикма” (XI–XII аср) каби илмий марказлар бунга муносиб ҳисса қўшдилар.

Салтанат бошлиқлари илм-маърифат марказларини ривожлантиришга эътибор қаратишган, вақф ерлари, маблағлар ажратишган, масжид, мадрасалар қуриб беришган. Натижада аниқ ва табиий ҳамда ижтимоий фанлар, маданият, сиёсий-ҳуқуқий таълимотлар, адабиёт гуллаб-яшнаган. Таржимонлар гуруҳлари жамланиб, улар қимматли асарларни араб тилига ўгиришган, толиби илмлар орасида мусобақалар уюштирилган[38. Абдуҳалимов Б. А.2010. – 264 б.].

Бу давр илмий ҳаётининг юксалишида, албатта, Юнон, Хитой, Ҳинд, Турон, Хуросон, Мовароуннаҳр олимларининг асарлари муҳим ўрин тутган. Бағдодда янгича фикрлайдиган шахсларнинг маданият-маърифат марказларига жамлангани боис, бу даврда, давлат бошқарув тизимини ислоҳ этиш имкони пайдо бўлди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Аббосийлар даврида мустақилликка интилган Ҳижоз, Хуросон, Мовароуннаҳр, Миср, Мағриб, Шом ҳудудларида давлатчилик анъаналарида суннийлик ва шиъалик таълимотларининг таъсири кузатилади. X асрда Аббосийлар инқирозини бошлаб берган фотимий ва бувайҳий шиаларидан халос бўлиш учун кураш XI аср бошларидаёқ фаоллашди. Қодир Биллоҳ ва Қоим Биамриллоҳларни сунний эътиқодли туркий сулолалар Ғазнавийлар (999–1170 йй.) ва Салжуқийлар (448/1057–656/1265 йй.)ни қўллаб-қувватлаганди.

Аббосийлар давлатини инқироздан чиқариш тадбирлари Қодир Биллоҳ ва Қоим Биамриллоҳларнинг бош вазири Абулҳасан Мовардий томонидан тузилган. Шу билан баробар, у илм-фан ва маданият тараққиёти йўлида жонбозлик кўрсатган арбоб сифатида ҳам шуҳрат қозонди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДБИЁТЛАР:

1.-365 .حسن ابراهيم حسن. تاريخ الإسلامي السياسي Яна қаранг: форсча Боғбон ёки Худо дод, Тангри назар солган ёки ёрлақаган шаҳар. Ислам

ансиклопедиси.Аббосилер моддаси. – Истанбул, 1991. Гузел Санатлар Матбааси. Т. 1. – С. 426.

2. Васильев А. А. Византия и арабы. Политические отношения Византии и арабов за время Македонской династии. – Санкт-Петербург, 1902. – 230 с.

3. Семенова Л. А. Из истории средневековой Сирию Сельджукский период. – Москва: Наука, 1990. – 328с.

4. Жюльен Ш. А. История Северной Африки от арабского завоевания до 1830 г. – Москва: Наука, 1967. –138 с; Алиев А. Г. Государство Тулунидов. – Баку, 1969. – 231с; Семенова Л. А. Из истории и Фатимидского Египта. – Москва: Наука, 1974. – С. 213; Мехтиев А. Ш. Из истории зайдитов Йемена//Известия АН Туркменистан. 1985. – С. 210; История стран Азии и Африки в средние века. – Москва: Наука, 1987. – 132 с; Зеленев Е. И. Египет, Средние века. Новое время. – СПб., 1999. – 120 с; Мехтиев А. Ш. Из истории зайдитов Йемена//Известия АН Туркменистан. 1985, № 4. – С. 38.

5. Альтамира-и-Кревеа Р. История Испании. – Москва: Наука, 1957; Ланда Р. Г. В стране Аль-Андалус через тысячу лет. – Москва: Наука, 1993. Абу Муслим жангномаси. 2-китоб. – Тошкент, Ёзувчи, 1993. – 144 б.

6. Семенова Л. А. Из истории средневековой Сирию Сельджукский период. – Москва: Наука, 1990. –280 с.

7. Хотамий С. М. Ислом тафаккури тарихидан//Таржимон Н.Қодирзода. – Тошкент, Минҳож, 2003. – Б. 192-203.

8. Грюнебаум Г. Э. фон. Основные черты арабо-мусульманской культуры. – Москва: Наука, 1981 г. – 180 с.

9. Аҳмет Угур. Османли сиясет-намелери. Ержиес Университеси. – Туркия, Култур ве санат. – В. 15 – 25; Ислам ансиклопедиси. Туркийе Диянет Вакфи. – Истанбул, 1988. Аббасийлер. Самерра. – Б. 31 – 59 – 56. – 559.

10. تاريخ الاسلامي،-السعودية.. 1998-ص. 90؛المقدسي، تاريخ المقدسي. –ص. 230؛ المسعودي، موروج الذهب. 3-قسم. –ص. 335 Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи. 1994. – Б. 158.

11. روضة الصفي. محمد خواند شاه بلخي. تحزيب و تلخيث دكتور عباس زرياب.– تهران. 1370 شه آزر – ص. 85.

12. علي أصغر فقهي. عضدالدولة. – تهران، 1347 هش. عبد الرفيع حقيقت. تاريخ نهزتهاي ملي إيران،– تهران، 1969، أحمد بهمنيار صاحب إبن عباص، – تهران؛ 1966.

13. صلاح كمال، اسلام تاريخي –.قازان. 1914 .ييل. Қаранг: Макдиси Г. Ибн ъАқил ет ла ресургенсе де лъИслам традитионалисте ау ХИ е сиесле. –Дамас, 1963 – С. 282-328; Ричардс Д. С. Паперс он исламис ҳисторй: ИИИ Исламис сивилисатион 950-1150. – Охфорд-Сассиер, 1973; Мусульманский мир (950-1150) – Москва: Наука, 1981; Сурдель Д. Имамитские концепции в начале ХИ в. В характеристике аш-шайха ал-Муфида. – Москва: Наука, 1981; – С. 206–220; Ақоид матнлари/Нашрга тайёрловчи ва тарж.: Абдулазиз Мансур. – Тошкент, Тошкент ислом университети, 2006. – Б. 80.

14. Рашидаддин. Сборник летописей. Джавоми ат-таварих. Т. 1-3. – Москва: 1946, 1952, 1960; Росентал. Ерwен И. Ж.: Политисал тҳоугт ин Медиевал Ислам ан Ин тродусторй оут Лине (Самбридге 1958); А. Массе. нод. ред. Беляева Е. А. – Москва: Наука, 1961., 1963; Прозоров С.М. Ар-

Розий.Китоб ат-талхис ал-баён фи зикри фирақ аҳл ал-адён. – Москва: Наука, 1988; Чураков М. В.Народные движения в Магрибе под знаменем хариджизма. – Москва: Наука, 1990; Ислам Ансиклопедиси. Т. И. – Истанбул, 1950. – В. 19.

15.اليافعي،ميرات الجنان. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси, № 2005. – Варақ. 390.

16. Стэнли Лэн-Пуль. Мусульманские династии (Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями). – Москва: – Тошкент, 1996. – С. 356–358–399–403.

17. Воҳидов Ш. Ҳ., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. – Тошкент: Академнашр. 2013. – Б. 209–211.

18. Большаков О. Г. История Халифата. – Москва: Наука, 1989–1998; Мухаммад-Бен-Али-Бен-Табата. Правила для государей и рассказы о мусульманских династиях. – Казань, 1863.

19. Хотамий С. М. Ислом тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минҳож, 2003. – Б 193.

20. الشهرستاني، الملل و النحل،كاردابة. 1960. -ص. 510 علي ابن محمد الفخري. كتاب التلخيص البعض في ذكر فراق اهل اديان. بلا تاريخ. – ص. 230. بيحقي، ابو الفضل محمد ابن حسين، تاريخ تصحيحه عل اكبر فياض. دانيشكاه فيردوسي، – مشهد. 1356،– ص. 210 تاليف صدر الاسلام، بيحقي، العالم، المتفنون. عبد القاهر بن طاهر بن محمد البغدادي الاسفرائني التميمي المتوفي عام هـ 429. الفرق بين الفرق

21. 200. .الاشعري، كتاب اللمعة، مصر. بلا تاريخ،-ص. Ақоид матнлари/Нашрга тайёрловчи ва таржимон Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2006. – Б. 56/24.

22. أبو الفداء، المختصر في تاريخ البشر. – قاهرة. 1325. 2-ج؛ علي أكبري فياض، تاريخ الاسلام. –. تيهران. 1335 هش

23. Стэнли Лен-Пуль. Мусульманские династии. – С. 328. Босворт К. Э. Мусулмон сулолалари. – Б. 269.

24. كرديزي، أبو سعيد عبدالحي ابن زهھاك، تاريخ كرديزي، تصحيح عبدالحي حبيبي. – تيهران. 1363.Қаранг: Ёфеъий. Миръот ал-жинон. ЎзР ФАШИ қўлёзмаси, №2005. – Варақ. 390؛ طبري، محمد ابن جرير، تاريخ الطبري. –بيروت. 1409هق.

25. حميد عناية، مايئ سياسي دراسلام/ترجم. برحان الدين خرمشاهي. -تهران. 1365 هش. -ص. 30-31. علي أثقر الحلبي، تفكور سياسي ايران و تاريخ دنيائ اسلام. -تهران. 1372هش. -ص. 198؛

26. Наққош Ҳ. И. Сулолаи Бувайҳиён. (Асрҳои X–XИ) – Душанбе: Ирфон, 1988. – Б. 22., 33.

.إمام الدين محمد خاليد الإسفهاني، تاريخ دولة سلجوق.– مصر. 1900. – ص. 284 [27]

28. Босворт Л. Э. Мусулмон сулолалари/Тарж. О. Шарафуддинов. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 142.

29. تاريخ سياسي الاسلام/ترجم. أبوالقاسم بايندە. – تهران. 1360 هش. – ص. 426. حسين ابراهمي،

30. 430 .يافعي، ميرآت الجينان. – ص.

31. Якубовский А. Ю. К вопросу о присхождении и характере газневидского государства. – 1934. – Ленинград, 1934.

32. Хотамий С. М. Ислом тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минҳож, 2003. – Б 193.

33. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. (Курс лекций). – Ленинград, 1966; Строева Л. В. Государство исмаилитов в Иране в XI-XIII вв. – Москва: Наука, 1978; فقيهي علي أثقر، آل بويه نخواصتين سلسلهء قدرتمند شيعه. -تيهران. 1365 Наққош Ҳ. И. Сулолаи Бувайҳиён. (Асрҳои X–XИ) – Душанбе: Ирфон, 1988. – Б. 79. ; Сюкияйнен Л.Р. Мусульманское право (вопросы теории и практики). – Москва: Наука,1986. – 256 с. -ص. 214؛

34. Бартольд В. В. Сочинения. Т. VII. – С 335. Грюнебаум Э. Классический Ислам. – С. 65.

35. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в ВИИ-ХВ веках (курс лекций) Мусульманское государственное право. Глава ВИ.). – Ленинград, 1966; – СС 149, 150, 154, 155, 158, 198.

36. Абдуҳалимов Б.А. Байт ал-ҳикма ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. – Б. 236; Зоҳидий А. Берунийнинг ақл чироғи//Тафаккур, 2005. – № 4. – Б. 102–107.

37. Багирова. С. Г. Сочинение. Татимма сиван ал-ҳикма Ал-Байхаки как образец средневекового энциклопедического справочника. – Тошкент: Фан, 1987. – С. 46; Уильрих Рудолф. Самарқанд илоҳиёт мактаби. – Тошкент: 2005. –325 б.

38. Абдуҳалимов Б. А. Байт ал-ҳикма ва унинг Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (ИХ–ХИ асрларда аниқ ва табиий фанлар)/Б. Абдуҳалимов; масъул муҳаррир: М. М. Хайруллаев; ЎзРФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.

Батафсил маълумот учун қаранг: Ўзбекистон халқаро ислом академияси ҳузуридаги илмий даражалар берувчи ДСс 26.04.2018.Исл/Тар.57.01 рақамли Илмий Кенгаш Ўзбекистон миллий университети. Қўлёзма ҳуқуқида. УДК 94 (575) (093) 930.2 (575.1). Жўраев Зиёвуддин Муҳитдинович. Ал-Мовардийнинг “ал-Аҳком ас-султонийя” асари – мусулмон Шарқи давлат бошқаруви тарихига оид муҳим манба (ХИ аср). Ихтисослик: 24. 00. 01 – Ислом тарихи ва манбашунослиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (ПҳД) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган д и с с е р т а ц и я. Илмий раҳбар: З. И.Мунавваров - сиёсий фанлар доктори, профессор. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси. 2019. – 267 б.

ARAB XALIFALIGI DAVRIDA JAMIYATDA AYOLLARNING O’RNI

Salohiddinova Mohira Shahobiddin qizi Qo’qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti Tarix yo’nalishi 202-guruh 2-bosqich talabasi.
mohirasalohiddinova369@gmail.com
+998 93 121 54 84

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arab xalifaligi davridagi,ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va diniy hayotdagi o’rni hamda ularga bo’lgan munosabatlarni tarixiy-ilmiy nuqtaiy nazardan tahlil qiladi.Maqolada ayollarning turli ijtimoiy qatlamlardagi vaziyati, ularning meros huquqi, nikoh va ajralish masalalari islomgacha va islomdan keying holatlar tahlil etiladi.

Kalit so’zlar:Islomgacha bo’lgan davr, johiliyat davri,Quraysh, xitba, mahr, islom ayollari, ko’chmanchi arablar.

Abstract: The article analyzes the relations of the Arab Caliphate in Ushba, the socio-economic status of women and their place in religious life and their relations with them from a historical and scientific perspective. The article analyzes the situation of women in different social strata, inheritance rights, marriage and divorce issues in pre-Islamic and post-Islamic processes.

Keywords: Pre-Islamic period, period of ignorance, Quraysh, khitba, dowry, Islamic women, nomadic Arabs.

Аннотация: В статье аналируются отношения Арабского халифата в Ушбе, социально-экономическое положение женщин и их место в религиозной жизни, а также отношения между ними с исторической и научной точки зрения. В статье анализируется положение женщин в различных социальных слоях, права наследования, вопросы брака и развода в доисламский и постисламский периоды.

Ключевые слова: доисламский период, период невежества, курайшиты, хитба, приданое, исламские женщины, кочевые арабы.

Islomgacha bo’lgan davrda, ya’ni johiliyat davrida arab qabilalarida ayollar juda kamsitilgan. Qiz farzand tug'ilganda oilada qayg’u bo'lib, ba’zi qabilalarda hatto qizlar tiriklayin ko’milib ketilgan. O’g’il bola esa merosxo'r sifatida juda qadrlangan. Ayollar erlarining mulki deb hisoblangan va ularning ijtimoiy mavqei juda past bo'lgan. Erkaklar ayollar bilan teng huquqli bo'lmagan, ularni o'zlaridan past darajadagi mavjudot deb hisoblashgan [Грюнебаум 1986:13].

Qadimgi arab qabilalarida, jumladan, Quraysh va Hind kabilarda qiz bola tug‘ilganda uni tiriklayin ko‘mib tashlash dahshatli odati mavjud edi. Buning sababi, ular qiz bolaning oilaga baxt keltirmasligiga ishonishardi. Ko‘chmanchi arablar omon qolgan qiz bolalarga og‘ir mehnatni yuklab, ularni doimo kamsitardi. Ba’zida esa, qizcha olti yoshga to‘lganda uning otasi uni olis safarga olib ketaman deb, tayyorlangan chuqurga tashlab, ustini tuproq bilan bekib ketardi. Rivoyatlarga qaraganda, homilador ayollarni yolg‘iz xonaga olib kirib tug‘dirishar va agar tug‘ilgan chaqaloq qiz bo‘lsa, uni darhol shu yerga ko‘mib tashlashardi. Johiliyat davrida ayollarning hayoti erkakka qaram edi. Qizning turmushga berilishida uning fikri va yoshi muhim ahamiyatga ega bo‘lmasdi. Erkakning otasi yoki yaqin qarindoshi kelin bo‘ladigan qizning otasidan uni so‘rab kelardi. Bu ishga “xitba” deyilardi. Mahr to‘langach, nikoh o‘qilardi. Arablarda bunday noinsoniy va axloqsiz nikoh turlari juda ko‘p uchrar edi [Азимов 1991:5].

Islom dini paydo bo‘lish arafasida dunyoda ikki kuchli davlat – Rim va Eron o‘rtasida kuchli raqobat kechar edi. Ular boshqa xalqlarni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirishga harakat qilardi. Rim – nasroniylik dinini qabul qilgan, Eron esa

otashga sig‘inuvchilar yurti edi. Bu davlatlarda adolatsiz qonunlar hukm surib, inson huquqlari poymol etilardi. Ichki janjallar tufayli ular zaiflashgan edi. Arabiston yarim oroli doimo bu ikki davlatning tajovuzlariga uchrab turardi. Islom dinining paydo bo‘lishi Arabistondagi ijtimoiy va siyosiy hayotni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan dastur sifatida qabul qilindi. Hayotning barcha sohalarini qamrab olgan Islom ayollar huquqlariga ham katta e’tibor qaratdi [Жабборов 2001:47].

Islom dunyosida eng birinchi ta'lim muassasalari, ya'ni maktablar, madrasalar va masjidlar ochildi. Bu muassasalar odamlarni diniy va dunyoviy bilimlar bilan boyitishga muvaffaq bo'ldi. Diniy va boshqa fanlarni o'rganishda ayollar ham, erkaklar ham teng huquqli edi. Chunki Islomda ilm olish har bir insonning, hohlasi erkak bo'lsin, hohlasi ayol bo'lsin, muqaddas burchi hisoblanadi. “Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan hadis ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Islom ta’limotiga ko‘ra, dindagi eng muhim uch tayanch – ilm, amal va ixlosdir. Ammo, to‘rt xalifadan keyingi davrlarda ba’zi noto‘g‘ri fikrlovchi din peshvolari ayollarning bilim olishini man qiluvchi yolg‘on hadislarni tarqatishgan. Holbuki, Payg‘ambarimiz va Horun ar-Rashid davrida ayollar ilmning eng yuqori cho‘qqilariga erishganlar. “Agar kimdir muslima ayollarning bilim olishini din man qiladi, desa, bilsin-ki, u kishi Islomga xiyonat qilgan” [Жабборов 2001:47], degan hadis ham ayollarning dinimizdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

Islom dinining ko‘plab yaxshi jihatlari bo‘lishiga qaramasdan, ayollarga nisbatan ba’zi kamsituvchi qarashlar ham bo‘lgan. Masalan, ayollar uzoq vaqtlar davomida faqat oila ishlari bilan shug‘ullanib kelganlar, erta turmushga berilish, ko‘p xotinlilik va ayollarga nisbatan zo‘ravonlik kabi holatlar ham uchrab turgan. Bu kabi holatlar ayollarning huquqlarini cheklab kelgan. O‘tmishda ayollarni kamsitish jamiyatda odat tusiga kirib qolgan va buni ba’zi qonunlar bilan oqlashga harakat qilingan.Saudiya ayol tarixchisi Xatun Al-Fassining ta’kidlashicha, qadimgi davrlarda arab ayollari, masalan, Nabatiylar qirolligida yuqori huquqlaraga ega bo’lgan,ammo Rim imperiyasi tomonidan joriy etilgan yangi qonunlar kuchga kirganida ular o’z huquqlarini yo’qotgan, keyinchalik bu cheklovlar qonun asosida saqlanib qolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Arab xalifaligi davrida ayollarning ahvoli murakkab va ziddiyatli bo’lgan.Bir tomondan, islom ayollarga johiliyat davriga nisbatan ko’proq huquqlar berd.Masalan meros, ta’lim, iqtisodiy faoliyat huquqlari. Boshqa tomondan, patriarxal jamiyat tuzilishi saqlanib qoldi va ayollar ko’p sohalarda erkaklarga nisbatan kam huquqli edi. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ayollarning haqiqiy ahvoli turli hududlarda, davrlarda va ijtimoiy qatlamlarda sezilarli farq qilgan. Ba'zi ayollar yuqori ta'lim olgan, ilm-fan va adabiyotga hissa qo'shgan, savdo yuritgan va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etganlar. Ammo ko'pchilik ayollar uy xo'jaligi va tarbiyalash bilan cheklangan.

Ushbu davrni to'g'ri tushunish zamonaviy islom dunyosida gender munosabatlarini muhokama qilishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (660-1258). М.: 1986. С.13.

2.Азимов А. Ислом ва ҳозирги замон.-Т.:Ўзбекистон.1991,-Б.5
3.Жабборов С. Мусулмон ҳуқуқи ва одат нормалари. Т.: 2001-Б.47

IV SHO‘BA: SOMONIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

SOMONIYLAR DAVRIDA ILMIY MUHIT VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich
Katta o‘qituvchi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Email: *muxriddin241992@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahrning islomlashuv jarayoni, xususan, Buxoro va Samarqand shaharlarining diniy va madaniy o‘zgarishlari, shuningdek, Somoniylar davrida ilm-fan va ma’naviyatning yuksalishi tahlil qilinadi. Somoniy hukmdorlarining ilm ahliga e’tibori, ulamolarning jamiyatdagi mavqei va ilmiy majlislar faoliyati orqali mintaqaning sivilizatsion taraqqiyoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Somoniylar, Movarounnahr, Buxoro, Samarqand, Ismoil ibn Ahmad, ilm-fan, islomlashuv, madaniyat, ulamolar, siyosat.

Аннотация: В статье рассматривается процесс исламизации Мавераннахра, в частности религиозные и культурные изменения в городах Бухара и Самарканд. Особое внимание уделено роли династии Саманидов в развитии науки, культуры и духовной жизни региона, а также поддержке учёных и организации научных собраний, способствовавших цивилизационному прогрессу.

Ключевые слова: Саманиды, Мавераннахр, Бухара, Самарканд, Исмаил ибн Ахмад, исламизация, наука, культура, учёные, политика.

Abstract: This article examines the Islamization of Transoxiana, focusing on the religious and cultural transformation of Bukhara and Samarkand. It analyzes the Samanid dynasty’s contribution to the development of science, culture, and spirituality, highlighting their patronage of scholars and the flourishing of intellectual gatherings that advanced the region’s civilizational growth.

Keywords: Samanids, Transoxiana, Bukhara, Samarkand, Ismail ibn Ahmad, Islamization, scholarship, culture, scholars, politics.

Kirish: Qutayba ibn Muslim tomonidan Movarounnahr zabt etilishidan avval ham Buxoro va Samarqand shaharlarining islom dini bilan tanishuvi sahobalar va tobe‘in avlodidan bo‘lgan musulmonlarning bu o‘lkalarga kelishi orqali yuz bergan edi. Shuningdek, mintaqa aholisi savdo maqsadida islom diyorlariga borib-kelib turganlari tufayli ham islom dini bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar. Sahobalardan Qusam ibn Abbos[Narshaxiy, 66-67] Said ibn Usmonning hijriy 56 / milodiy 675-yilda Samarqandga uyushtirgan yurishida u bilan birga kelgan va shu yerda shahid bo‘lgan. Yana sahobalardan al-Asvad ibn Hazm Buxoroning Bemikkas (Bemikat) qishlog‘ida istiqomat qilgan[Ibn Hajar, al-Isoba: I, 222-223]. Shuningdek, Said ibn Usmonning Samarqand safarida tobe‘inlardan Rufay ibn

Mihron (h. 90 / m. 708) va Abu Amr Abdulmalik ibn Umayr (h. 130 / m. 747) ham ishtirok etib, ushbu shaharda yashaganlar.

Buxoro va Samarqand o‘sha davrning eng muhim savdo markazlari qatorida edi. Shu boisdan, bu mintaqa aholisi turli mamlakat va shaharlar, jumladan islom o‘lkalariga ham savdo maqsadida safarlar qilganlar. “Majusiy” laqabi bilan tanilgan savdogar Arzakyon shunday yo‘l bilan musulmon bo‘lgan. U savdo ishlari bilan Xitoyga borgan, u yerdan esa Basraga o‘tgan. Basrada Ali ibn Abu Tolib huzuriga borib, uning vositachiligida islomni qabul qilgan. Bu ma’lumotlar hijriy 344 / milodiy 955-yilda vafot etgan Arzakyonning o‘g‘li Abu Abdulloh Muhammad ibn Hasan tomonidan rivoyat qilingan[Sam’oniy, al-ansob: I, 110].

Qutayba ibn Muslim Buxoro va Samarqandni fath etgach, bu o‘lkalarning islomlashuvi maqsadida bir qancha choralar ko‘rdi. Samarqandliklar bilan tuzilgan sulhga ko‘ra, shaharda musulmon jamoasi doimiy istiqomat qiladigan bo‘ldi. Qutayba tomonidan Samarqandga joylashtirilgan bu musulmonlar orasida mufassir Dahhok ibn Muzohim ham bor edi. Shuningdek, sulh shartlariga binoan Samarqandning mahalliy aholisi musulmon oilalarni o‘z uylarida uch kun mehmon qilishlari lozim edi[Balozuriy, 592]. Shunga o‘xshash chora-tadbirlar Qutayba tomonidan Buxoroda ham qo‘llanildi. Buxoro fath qilingach, mahalliy aholining uylarining yarmi ajratilib, ularga musulmon arablar joylashtirildi. Majusiy Kuskusan oilasi arablar bilan uyni bo‘lishishni rad etib, uylarini tark etgan va shahar tashqarisiga ko‘chib ketgan edi[Narshaxiy:52]. Qutayba buxoro ahli bilan musulmon arablarning birgalikda yashashini buyurib, mahalliy aholining musulmonlarning hayot tarzini yaqindan ko‘rishlarini, natijada o‘z holatini tahlil qilishlarini ta’minladi[Narshaxiy: 77].

Mintaqaning islomlashuv jarayonida musulmon lashkarlariga mahalliy aholining ham qo‘shilishi muhim rol o‘ynadi. Hijriy 54/milodiy 674-yilda Ubaydulloh ibn Ziyodning Buxoro yurishida, u mahalliy aholining to‘rt ming kishisiga omonlik va maosh berishni taklif qilgan, buxoroliklar bunga rozi bo‘lgach, ularni Basraga joylashtirgan edi[Balozuriy: 524]. Qutayba ibn Muslim hijriy 93 / milodiy 711–712-yillarda Samarqandni fath etgach, tuzilgan kelishuvga ko‘ra, samarqandliklar islom lashkariga o‘ttiz ming (ba’zi rivoyatlarga ko‘ra yuz ming) kishi berishlari lozim edi[Tabariy: VI, 475].

Bu tadbirlar Buxoro va Samarqand ahlining musulmonlarni yaqindan tanishlariga imkon yaratib, mintaqaning islomlashuviga katta hissa qo‘shdi. Qutayba ibn Muslim bu shaharlarni fath etgach, ularning boshqaruvini mahalliy hukmdorlarga topshirdi. Bu esa islomning mintaqada ildiz otishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. U Buxoroni fath etgach, shahar boshqaruvini Buxoro malikasi Xotunning o‘g‘li Tug‘shodaga topshirdi. Tug‘shoda bu lavozimni Nasr ibn Sayyor davrigacha – qariyb o‘ttiz ikki yil davom ettirdi[Narshaxiy: 24-25]. Keyinchalik Tug‘shoda ham islomni qabul qildi va natijada islom dini Buxoroda chuqur ildiz ota boshladi[Brockelmann: 67].

Samarqand fath etilgach, Qutayba mahalliy hokim G’urakni ham o‘z lavozimida qoldirdi. Shu tariqa islom Osiyoning eng muhim ikki shahri – Buxoro va Samarqandda mustahkam o‘rnashish imkoniga ega bo‘ldi. Umaviylar va Abbosiylar davrida xalifalar va viloyat hokimlarining Buxoro hamda Samarqand

ahliga nisbatan tutgan siyosati ham ularning islomni qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Umaviylar davrida aslida faqat g‘ayridinlardan olinishi kerak bo‘lgan jizya solig‘i Buxoro va Samarqandda islomni qabul qilganlardan ham undirilgan. Umar ibn Abdulaziz bu amaliyotni bekor qilgach, mintaqa aholisi tez sur’atlarda islomni qabul qila boshladi[Tabariy, VI, 559-560].

Biroq Umar ibn Abdulaziz (h. 99 / m. 720) vafotidan so‘ng, mahalliy aholiga qayta jizya solig‘i yuklatildi. Ashras ibn Abdulloh (h. 110 / m. 728) davrida Movarounnahrda islomni qabul qilganlardan jizya olinmasligi haqida farmon berildi, ammo davlat daromadlari kamaygach, eski tizim qayta tiklandi. Natijada katta isyon boshlandi va islom lashkarlarining aksariyati Movarounnahrni bir muddat tark etishga majbur bo‘ldilar[Ibnul-Asir: IV, 384-386]. Nasr ibn Sayyor (h. 120 / m. 738) davrida esa musulmonlardan jizya yana bekor qilindi. Natijada Nasrning bu ishlar bilan shug‘ullanish uchun tayinlagan amaldori Mansur ibn Umarga musulmon bo‘lgan, biroq jizya to‘lab kelgan o‘ttiz ming kishi murojaat qildi. Shu bilan birga, jizya to‘lamayotgan sakson ming g‘ayridin aniqlanib, ilgari musulmonlardan olinib kelgan soliq ularga yuklatildi[Tabariy: VII, 173].

Movarounnahr mintaqasining islomlashuv jarayonida Buxoro va Samarqandda qurilgan masjid va jome’lar ham alohida ahamiyat kasb etgan. Qutayba ibn Muslim hijriy 94/milodiy 712-yilda Buxoro qal’asi ichida masjid qurdirgan va juma kunlari buxoroliklarning shu masjidda to‘planishlarini buyurgan. Juma namoziga kelganlarga ikki dirham mukofot berilgan. Shuningdek, Buxoro aholisi islomni qabul qilgan dastlabki yillarda Qur’onni fors tilida o‘qishlariga va arab tilini hali o‘rganmaganliklari sababli suralarni forscha o‘qib namoz o‘qishlariga ruxsat berilgan edi[Narshaxiy: 77-78]. Samarqanddagi masjidlar orasida “Masjidu’sh-Shahviyya”[Nasafiy:288], “Masjidu’l-Bakriyyin”[Nasafiy:318] va “Masjidu’l-Varroqiyyin”[Nasafiy:318] kabi ibodat maskanlari zikr etiladi.

Movarounnahr mintaqasiga tashrif buyurgan Xitoylik buddaviy rohib Syuan Szan (Huen-Chang) musulmonlikdan avvalgi so‘g‘dlarni odatda hiylakor, yolg‘onchi va nihoyatda ochko‘z xalq sifatida tavsiflagan bo‘lsa[Togan:34], islomdan keyingi davrda esa mintaqa aholisini muqaddas qadriyatlarga e’tiqodli, ilmga chanqoq, qalbi pok, iffatli va mehmondo‘st insonlar sifatida ta’riflagan[Muqaddasiy:211]. Islom dini Movarounnahrni o‘z ichiga olgan butun Yaqin Sharq mintaqasiga Ahamoniylar va Buyuk Aleksandr davridan beri yetishmagan birlikni olib keldi. Shuningdek, islom dini bugungi kungacha davom etayotgan ma’naviy va madaniy aloqalarni Helenizm davridan ham chuqurroq tarzda shakllantirdi. Shu darajada-ki, Movarounnahr mintaqasi islom hukmronligi davrida Ispaniya kabi olis o‘lkalardagi xalqlar tomonidan ham yaxshi tanilgan maskanga aylangan edi[Frye:29].

Asosiy qism: Ilm va madaniyat taraqqiy etishi uchun Somoniylar sulolasi Movarounnahrni osoyishta va barqaror bir o‘lka holiga keltirdi. Somoniy hukmdorlari olimlarga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lgan, ularni e’zozlab, ilmi ahliga katta qadriyat sifatida qaraganlar. Somoniy amirlarining huzuriga kirgan ulamolardan odatdagi saroy marosimi sifatida yer o‘pish talab qilinmas edi[Muqaddasiy:259].

Somoniylar amiri Ismoil ibn Ahmad (h. 295 / m. 907) ilm ahli va faqihlarni sevgan, ularga yordam va ikrom ko‘rsatgan. U Samarqand hokimi bo‘lgan kezlarida fiqh ilmini chuqur bilganligi sababli sud ishlarida – *mazolim* (adliya) masalalarida shaxsan o‘zi hukm chiqargan. Shu paytlarda shofe‘iy mazhabi faqihlaridan Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy Ismoilning huzuriga kelganida, Ismoil unga hurmat bajo keltirib, o‘rnidan turib kutib olgan va ehtirom izhor qilgan[Ibnul-Asir: VI, 255]. Hadis ilmi namoyandalaridan Abu Haysam Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy hijriy 264/milodiy 877-yilda Samarqandga kelganida, Somoniy amiri Nasr ibn Ahmad uni shaxsan o‘zi Gadavid yo‘lida kutib olib, izzat bilan qarshi olgan[Nasafiy:22].

Somoniy amiri Ismoil ibn Ahmad o‘g‘li Ahmadning tarbiyasi va ta’limi uchun maxsus bir muallim (mu’addib) tayinlagan edi. Bir kuni amir Ismoil muallim huzuriga kutilmaganda kirib keldi. Muallim bu paytda uning kelganini sezmay, amirning o‘g‘liga “Alloh seni ham, seni dunyoga keltirganlarni ham jazolasin!” – deb haqorat qilayotgan edi. Buni eshitgan Ismoil: “Ey inson, biz sening bunday so‘zlaringni eshitishga loyiq bir yomonlik qilganimiz yo‘q”, – deb ogohlantirdi va so‘zini qaytarishini buyurdi. Muallim buni eshitib qo‘rqib ketdi. Biroq Ismoil saroydan chiqqach, o‘g‘lining muallimi qo‘rqib qolganidan ranjidi va unga sovg‘alar berilishini buyurdi[Ibnul-Asir: VI, 436].

Somoniylar nafaqat ilm ahliga hurmat ko‘rsatgan, balki ularni moddiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlaganlar. Bag‘dodda tug‘ilib, keyinchalik Samarqandda yashagan faqih va muhaddis Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy (h. 294 / m. 906)ga amir Ismoil ibn Ahmad har yili to‘rt ming dirham maosh tayinlagan edi. Ismoilning ukasi Is’hoq ibn Ahmad hamda Samarqand ahli ham unga shuncha miqdorda yordam ko‘rsatganlar, Marvaziy esa bu mablag‘ning katta qismini sadaqa qilgan[Xatib al-Bag’dodiy: IV, 510]. “Ibn Imom” nomi bilan tanilgan Ahmad ibn Abbos ibn Ubaydulloh Abu Bakr al-Bag‘dodiy Qur’onni go‘zal ohang bilan tilovat qiluvchi qori sifatida tanilgan edi. U Buxoroga kelganida, amir Nuh ibn Nasr (h. 331–343 / m. 942–954) unga saxovat bilan pul va mol hadya qilgan[Zahabiy:XXVI, 120].

Somoniylar davrida xalq ham ulamolarga katta hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lganlar. Ilm ahli orasidan Ahmad ibn Abdulloh Haraviy hijriy 356 (milodiy 966) yilda Buxoroda vafot etgan. Buxoro xalqi u tirik chog‘ida uning oldidan o‘tishni odobsizlik deb bilganlar va bunday ishni qilmas edilar. Buxorolik olim Abu Zakariyyo Yahyo ibn Abdulloh ibn Mahmud al-Buxoriy hijriy 374 (milodiy 984) yilda Buxoroda vafot etganida, buxoroliklar unga bo‘lgan hurmat va motam izhorasi sifatida do‘konlarini yopgan edilar[Samo’niy: V, 219].

Somoniylar amirlari ba’zi olimlarning janoza namozlarini shaxsan o‘zlari boshchilik qilib o‘qiganlar. Bu hol Somoniylar hukmdorlarining ilm ahliga bergan yuksak e’tibor va qadriyat ifodasidir. Samarqandlik muhaddis Abu’l-Husayn Ali ibn Is’hoq ibn Ibrohim al-Hanzaliy as-Samarqandiy hijriy 237 (milodiy 851) yilda vafot etgan bo‘lib, uning janoza namozini Amir Nasr ibn Ahmad o‘qigan[Nasafiy:369-370]. Faqih va muhaddis Abu’l-Lays Ubaydulloh ibn Surayya ad-Darir al-Buxoriy hijriy 258 (milodiy 871) yilda Samarqandda vafot etgan, uning janoza namozini esa Somoniy amiri Ismoil ibn Ahmad imomlik qilib

o‘qigan[Nasafiy:322]. Shuningdek, muhaddis Abu Ibrohim Is’hoq ibn Ismoil ibn Ja’far as-Samarqandiy hijriy 259 (milodiy 872) yilda vafot etgan bo‘lib, uning janoza namozini ham Amir Ismoil ibn Ahmad o‘qigan[Sam’oniy: I, 242]. Sam’oniy “al-Ansab” va Nasafiyning “al-Qand” nomli asarlarida Somoniy amirlarining janoza namozlarini o‘qigan ko‘plab olimlar haqida xabarlar keltirilgan[Nasafiy: 35, 72, 89, 94, 173, 334, 452; Sam’oniy: V, 670].

Somoniylar davrida Movarounnahr hududida ilmiy majlislar faol bo‘lgan. Bu majlislarda erkin fikr almashinuvi va bahs-munozaralar olib borilgan. Olimlar Ramazon oyining kechalarida hukmdor huzurida to‘planib, ilmiy masalalar yuzasidan muzokara qilganlar. Amir bir masalani o‘rtaga tashlar, majlis ishtirokchilari esa birgalikda uning yechimi haqida fikr yuritar edilar.509 Abu Ja’far az-Zunoniy Movarounnahr hududida qozilik lavozimida faoliyat yuritgan bo‘lib, tafsir, hadis va fiqh sohalarida yirik alloma edi. U do‘sti Abu Nasr Udaniy bilan ilmiy munozaralarda qatnashar, bu bahslar davomida bir-birlarini ranjitmas va o‘rtalarida adovat paydo bo‘lmas edi. Somoniy amiri Nasr ibn Ahmadning ilmiy majlisi olimlar, lashkarboshilar va o‘sha davrning mashhur mudarrislaridan iborat bo‘lgan. Muhaddis Abu Husayn Abdulvohid ibn Muhammad ibn Ahmad al-Baluviy (hijriy 374 / milodiy 984) Nishopurlik bo‘lib, keyinchalik Buxoroga ko‘chib kelgan. U Imom Abu Bakr ibn Is’hoqning ilmiy majlisida faol munozaralar olib borgan.

Somoniylar hukmdorlari nafaqat olimlarning homiysi, balki ularning vazirlari ham ilmiy muhitning faol ishtirokchilari bo‘lgan. Somoniy amiri Nasr ibn Ahmadning vaziri Abu Hasan Foiq o‘z uyida hadis olimlari va boshqa ulamolarni yig‘ib, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanar edi. Boshqa bir vaziri – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniy ham ilm ahliga har jihatdan yordam ko‘rsatgan, o‘zi ham ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan. Nasrning vazirlari orasida Abu Fadl al-Balamiy ham bo‘lib, u ham o‘zining ilm majlisini tashkil etgan edi.

Somoniylar amirlari davlat boshqaruvi ishlaridan tashqari ilmiy faoliyat bilan ham shug‘ullanganlar. Ularning ayrimlari hadis ilmi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Somoniy amiri Ahmad ibn Asad, Sufyon ibn Uyayna, Ismoil ibn Ulayya, Yazid ibn Horun va Mansur ibn Ammordan hadis rivoyat qilgan hamda bu hadis olimlarining shogirdi bo‘lgan. Ahmad ibn Asaddan o‘g‘li, Somoniy amiri Ismoil hadis rivoyat qilgan va shu tariqa ota bilan o‘g‘il bir-birining ilmiy silsilasida ustoz-shogird sifatida ham bog‘langan. Ahmad ibn Asadning boshqa o‘g‘li Is’hoq ibn Ahmad otasidan hamda Abdulloh ibn Abdurrahmondan hadis rivoyat qilgan, undan esa Solih ibn Abu Rumah va Abdulloh ibn Yahyo ibn Muso hadis rivoyat etganlar. Shuningdek, Somoniy amiri Nasr ibn Ahmad ibn Asad ibn Nuh otasidan, Solim ibn G‘olib as-Samarqandiydan va Abu Abdulloh Muhammad ibn Nasr al-Marvaziydan hadis rivoyat qilgan, undan esa Sahl ibn Shaduvayh hadis rivoyat qilgan. Bundan tashqari, Somoniy amiri Ismoil ibn Ahmad fiqh ilmi bo‘yicha ham yetuk alloma bo‘lib, u sud ishlarida mazolim (adliya) majlislariga shaxsan raislik qilgan.

Somoniylar hukmdorlarining Movarounnahrda, ayniqsa Buxoro va Samarqandda ilmga va ulamolarga bergan yuksak e’tibori natijasida vujudga kelgan osoyishtalik va xavfsizlik muhiti, ilm ahlining Islom olamining sharqiy

mintaqalaridan Movarounnahr tomonga ko‘chib kelishlariga sabab bo‘lgan. Umaviylarning Iroq voliysi Hajjojning[Hajjoj ibn Yusuf Saqofiy] zulmidan qochgan muhaddis va mufassir Dahhok ibn Muzohim (hijriy105/milodiy 723) avval Buxoroga, so‘ngra Samarqandga kelib joylashgan va u yerda bolalarga Qur’on o‘qitish bilan shug‘ullangan. Hijriy 258 (milodiy 872) yilda vafot etgan muhaddis Abu Ja’far Muhammad ibn Bakr al-Bag‘dodiy Buxoroga ko‘chib kelgan edi. Shuningdek, Abu Ja’far Muhammad ibn Yahyo ibn Habil al-Bag‘dodiy va Abu Ahmad Zuhaliy Said ibn Muhammad al-Bag‘dodiy ham Buxoroda istiqomat qilgan olimlar orasida edi. Abu Imron as-Saqafiy Muso ibn Nasr al-Bag‘dodiy esa Samarqandga kelib joylashgan olimlardan biri bo‘lgan. Xatib al-Bag‘dodiy o‘zining Tarixu Bag‘dod nomli asarida Samarqand va Buxoroga ko‘chib kelgan yana ko‘plab olimlar va muhaddislar haqida ma’lumot beradi[Bag’dodiy, Tarixu Bag’dod, Samarqandga kelganlar, IV, 354; IV, 571; X,450; XI, 104; XI, 183; XVI, 327-328; Buxoroga kelganlar, IV, 248; V, 172-174].

Xulosa: Movarounnahrga kelgan olimlar bu yerlarga faqat Bag‘doddan uzoq, osoyishta va xavfsiz joy sifatida emas, balki sivilizatsiya, madaniyat va ilmiy qudrat markazi sifatida ham qaraganlar. Shu tariqa Movarounnahr, ayniqsa Buxoro, “Sharq islomining gumbazi” degan unvonga sazovor bo‘lgan hamda Bag‘dod bilan teng maqomdagi ulug‘ ilmiy makonga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Balozuriy Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir (279/892), Futuhu’l-Buldon, thq. Abdullah Anis at Tubba-Umar Anis at-Tubba, Bayrut 1987.
2. Brockelmann, Carl, Islam Ulusları ve Devletleri Tarihi, (Çev. Neset Çağatay), Türk Tarih Kurumu Basımevi, Ankara 1992.
3. Frye, Richard N., The Heritage of Central Asia, Markus Wiener Publishers, Princeton 1996.
4. Xatib al-Bag’dodiy, Abu Bakr Ahmad ibn Ali (463/1070), Tarixu Bag’dod av Madinati’s Salam, thq. Bashshar Avvad Ma’ruf, Daru’l-g’arbil-islamiy, I-XVII, Bayrut 2001.
5. Ibnul-Asir, Izzuddin Abul-Hasan Ali ibn Muhammad ibn Asir (630/1233), al-Kamil fi’t-tarix, thq. Abil-Fida Abdulloh al-Qodiy, Darul-Kutubul-ilmiyya, I-XI, Bayrut 1987.
6. Muqaddasiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Bashshariy (380/990), Ahsanu’t-taqosim fi ma’rifati’l-aqolim, thq. Muhammad Amin ad-Dannaviy, Darul-kutubul-ilmiyya Bayrut 2002.
7. Narshaxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far (348/959), Tarixi Buxoro, Darul-Maorif, Qohira 1993
8. Nasafiy, Najmuddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad (537/1142), al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand, thq. Nazar Muhammad al-Faryabiy, Maktabatul-kavsar, Saudi Arabiston 1991.
9. Sam’oniy, Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur (562/1166), Kitabu’l-ansob, thq. Abdulloh Umar al-Barudiy, Darul-Jannan, I-V, Bayrut 1988.
10. Tabariy, Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir (310/922), Tarixu’r-Rusul va’l-muluk, thq. Muhammad Abul-Fadl Ibrohim, I-XI, Darul-moarif, Qohira

SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHRI TARIXIY TOPOGRAFIYASI

Umarov Baxtishod Baxridin o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
https://orcid.org/0000-0002-0501-3789
b.b.umarov2019@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada Somoniylar davrida Buxoro shahrining topografik tuzilishi va uning tipologiyasida asosiy o‘rin egallagan shahriston, rabad, registon hamda mozorlarning joylashuvi va funksional ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, shahar markazida joylashgan Ark va Registon maydonining siyosiy hamda ma’muriy ahamiyati, shuningdek, shahriston va rabad hududlaridagi ko‘chalar tarmog‘i orqali Buxoroning ichki shaharsozlik tuzilishi va Somoniylar davriga xos rejalashtirish an’analari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Buxoro, Somoniylar, topografiya, shahriston, rabad, registon, mozor, ko‘chalar, Jo‘yi Mo‘liyon, arxeologiya va hokazo.*

Annotation. The article provides a scholarly analysis of the topographic structure of Bukhara during the Samanid period, focusing on the shahristan, rabad, registan, and cemeteries, which occupied a central place in the city’s typology. It also examines the layout of streets and the location of cemeteries within the shahristan and rabad, revealing their significance in the urban structure, as well as in the city’s religious and social life.

Keywords: *Bukhara, Samanids, topography, shahristan, rabad, registan, cemetery, streets, Joi Muliyon, archaeology, etc.*

Аннотация. В статье проводится научный анализ топографической структуры Бухары в эпоху Саманидов, где центральное место в типологии города занимали шахристан, рабад, регистан и кладбища. Также рассматривается планировка улиц и расположение кладбищ в пределах шахристона и рабада, что позволяет выявить их роль во внутренней структуре города, а также в религиозной и социальной жизни.

Ключевые слова: *Бухара, Саманиды, топография, шахристан, рабад, регистан, кладбище, улицы, Джуйи Мулиён, археология и др.*

Buxoro IX–X asrlarda Somoniylar (261–389/874–999) poytaxti sifatida Movarounnahrning siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi. Somoniylar sulolasining hukmdorlari siyosiy boshqaruvda tajribali va nisbatan samarali davlat siyosatini yuritgan bo‘lib, markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga intilganlar. Sulola davrida savdo-sotiq munosabatlari kengayib, xalqaro iqtisodiy aloqalar rivoj topgan. Buni Boltiqbo‘yi va Skandinaviya hududlarida topilgan minglab somoniylar tangalari ushbu davr savdo tarmog‘ining keng geografik qamrovga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Buxoro esa shaharsozlik, savdo va hunarmandchilikning yuksalgan markaziga, hamda ilm-fan, adabiyot va me’morchilik rivojining muhim o‘chog‘iga aylandi.

Xalifa Ma’mun (Abul Abbos Abdulloh ibn Horun ar-Rashid, 786–833) davridan boshlangan ilmiy yuksalish, somoniylar hukmronligi davrida yanada

yuqoriga ko‘tarildi. Musulmon klassik geografiya maktabining asoschilaridan biri hisoblangan Abu Zayd al-Balxiy(850–934) ham somoniylar tasarrufidagi Balx shahridan yetishib chiqqan. Abu Zayd al-Balxiy tomonidan 920–922-yillar oralig‘ida yaratilgan “Suvar al-aqolim” (“Iqlimlar suratlari”) asari o‘z davrining eng muhim geografik manbalaridan biri hisoblanadi. Garchi asarning asl nusxasi bizgacha to‘liq yetib kelmagan bo‘lsa-da, unda keltirilgan ma’lumotlar keyingi davr geograflari asarlarida saqlanib qolgan. Xususan, Al-Balxiy geografik maktabining yirik vakillari va davomchilari Abu Abdulloh al-Jayhoniy (IX asr oxiri–X asr birinchi yarmi), Istaxriy (vafoti 951-yildan keyin), Ibn Havqal (vafoti 988-yildan keyin) hamda al-Muqaddasiy (X asr) kabi olimlarning asarlarida bu ma’lumotlar keng qo‘llanilgan. Ularning izlanishlari Buxoroning tarixiy geografiyasini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Buxoro tarixi va topografiyasiga oid asosiy manbalardan biri buxorolik mahalliy tarixchi Abu Bakr an-Narshaxiy (vafoti 959-yil)ning “Tarixi Buxoro” asaridir. Asar 943-944-yillarda taxtga o‘tirgan somoniy hukmdor Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy (943–954)ga bag‘ishlagan[Narshaxiy 1993: 13]. Asarda keyingi davr voqealari ham yoritilgan bo‘lib, tarixiy manbalarda ushbu asar arab tilida Abu Bakr an-Narshaxiyning Mansur ismli o‘g‘li, shuningdek, keyinchalik uning avlodlari tomonidan amir Mansur ibn Nuh (997–999) hukmronlik davrigacha davom ettirilganligi qayd etiladi[Sh. Kamoliddin 1997: 112]. XII asrda asar fors tiliga tarjima qilinadi. Bu esa asarning somoniylar davriga oid tarixiy-geografik ma’lumotlarni to‘liq qamrab olganligini ko‘rsatadi.

Buxoro toponimi “ibodatxona”, “butlar saqlanadigan joy” ma’nosini bildirib[Bartold 1965: 378], dastavval umumiy vohani anglatgan. Shahar esa, xitoy manbalarida Nyumi[Bichurin 1950: 311], arab manbalarida Numijkat, Bumijkat nomlari bilan tilga olingan[Al-Muqaddasiy 1877: 280-282]. VII asr 60-yillarida buxorxudotlar o‘z qarorgohini Arkka ko‘chirishi bilan Buxoro toponimi(Numijkat o‘rniga) bevosita shahar nomi sifatida ishlatila boshlagan[Torgoev 2023: 11].

Shahar maydoni ilk o‘rta asrlarda 21 gektar, arablar istilosi davrida 30–35 gektarni tashkil etgan [Shishkin 1936: 11]. Bu davrda Samarqand 65 gektar [Buryakov 1982: 132], Hims (qadimiy Emessa, Suriya shimolidagi shahar) 120 gektar, Quddus 80 gektar, G‘azo 90 gektar, Damashq 105 gektar maydonga ega bo‘lgan [Bolshakov 1984: 107–108]. Bu Buxoroning Xalifalikning boshqa shaharlariga nisbatan ancha kichikligini ko‘rsatadi.

Shaharning urbanistik taraqqiyoti somoniylar davrida yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan. O.G. Bolshakovning ta’kidlashicha, shahar maydoni bu davrda 400 gektardan oshgan [Belinitskiy, Bentovich, Bolshakov 1973: 247]. Taqqoslash uchun: X–XI asrlarda Qurtuba 96 gektar, Qohira 173 gektar, Seviliya 345 gektar, Xatra 320 gektar [Voronina 1991: 101–111]; XIII–XIV asrlarda Boloniya 420 gektar, Milan 234 gektar, Piza 115 gektar [Belinitskiy, Bentovich, Bolshakov 1973: 256]; London 290 gektar, Parij 400 gektar maydonni egallagan [Gorod v srednevekovoy sivilizatsii…, 1999: 154]. Shunday qilib, Buxoro somoniylar davrida nafaqat Xalifalikdagi, balki dunyodagi eng yirik shaharlar qatoriga kirgan.

Istaxriy va Ibn Havqal bu davrda Xuroson va Movarounnarhda Buxorodagidek binolari zich joylashgan va hududiga nisbatan aholisi ko‘p shahar yo‘qligini qayd etadi[Istaxriy 2019: 133; Ibn Havqal 2011: 41]. Shaharning poytaxtlik maqomiga ko‘tarilishi, somoniy hukmdorlar va elita qatlamning bunyodkorlik ishlariga xayrixohligi ushbu jarayonning jadallashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Somoniylar davrida Buxoro boshqa o‘rta asr shaharlari singari uch qismdan iborat bo‘lgan: kuhandiz, shahriston va rabad. Kuhandiz (arabcha qal’a, hisor) hukmdor qarorgohi joylashgan qism bo‘lib, 3-4 gektar maydonni egallagan[Andreyev, Chexovich 1972: 17; Nekrasova 1990: 17]. G‘arbiy “Darvozayi Registon” va sharqiy “Darvozayi G‘uriyon”(Go‘riyon) deb nomlangan ikki darvozasi bo‘lib[Narshaxiy 2011: 25], ularni o‘zaro bog‘lovchi yo‘l (ko‘cha) kuhandizni ikki qismga ajratib turgan. Yuqorida tilga olingan darvozalar manbalarda turli nomlar bilan tilga olinadi. Ibn Havqalda “ar-Registon” va “Bob al-Jome”[Ibn Havqal 2021: 32], Muqaddasiyda “Bob as-Sahl” va “Bob al-Jome” nomlari bilan tilga olingan[al-Muqaddasiy 1877: 280]. Hukmdor qarorgohida xazina, qo‘riqchilik xizmati bilan birga qamoqxona ham joylashgan[Mirxond 1832: 22; Ibn Havqal 2011: 41].

Somoniylar davri ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan hududlardan biri bu shahriston hisoblanadi. Shahriston kuhandizdan sharqda ya’ni “Darvozayi G‘uriyon”dan chiqish tomonda joylashgan. 5-6 metr tepalik ustida joylashgan shahriston baland devor bilan o‘rab olingan[Rempel 1962: 213]. Uning maydoni somoniylar davrida 30-35 gektarni tashkil qilib, yetti darvozadan iborat bo‘lgan[Narshaxiy 1993: 51]. Darvoza nomlari: Bozor(Bob al-Madina), Bani Sa’d(Bobu Bani Sa’d), Bani Asad(Bobu Bani Asad), Kuhandiz(Bob al-Kuhandiz), Haqroh(Bob Xufra), Temir darvoza(Bob al-Hadid) va Nav (Bob an-Nur)[Narshaxiy 1993: 51–55; Ibn Havqal 2011: 41; Istaxriy 2019: 146]. Shuningdek, Istaxriy ushbu darvozalarni temirdan bo‘lganligini yozib qoldirgan[Istaxriy 2019: 146]. Arxeologik materiallar va zamonaviy ilmiy izlanishlar ushbu darvozalarni o‘zaro bog‘lab turgan devor uzunligi 2–2,5 km masofaga cho‘zilganligini ko‘rsatadi. Shahristonda oqar suvlar bo‘lmagan, shu sababli daryo suvlari tortib kelingan.

VIII-IX asrlarda bu hududda savdogar va hunarmandlar guzarlari, karvonsaroy va turar-joylar bo‘lgan[Muhammadjonov 1984: 43]. Ammo binolarning aksariyati yog‘ochdan bunyod etilgan etilganligi bois X asrda yuz bergan bir necha yong‘inlar undagi hayotning izdan chiqishiga olib kelgan. Shunday bo‘lsa-da, shahriston o‘zining geometrik tuzilishini saqlab qolgan[Xmelnitskiy 1996: 26]. Bu davrda shahriston kvadrat shaklda, tomonlari taxminan, 575-600 metrni tashkil qilgan[Belinitskiy, Bentovich, Bolshakov 1973: 233]. Shahriston va Kuhandiz orasida o‘sha davrning mashhur “Bayt ut-Tiroz” korxonasi va Jom’e masjidi joylashgan.

Somoniylar davrida rabad shaharning asosiy savdo va hunarmandchilik markazi sifatida shakllanib, o‘rta asr musulmon shahrining tipik tuzilma va funksional xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Shahar 849-850-yillarda devor bilan o‘rab olingan va uning 11 ta darvozasi bo‘lgan[Narshaxiy 1993: 37;

Umnyakov 1922: 152]. Shahriston ushbu devor orasidagi hudud rabadni tashkil qilgan. Rabad darvozalari soni Istaxriy va Ibn Havqalda 11 ta[Istaxriy 2019: 147; Ibn Havqal 2011: 41], al-Muqaddasiyda 10 ta[al-Muqaddasiy 1877: 280-281], Abu Abdulloh Jayhoniyda 13 deb keltiriladi[Jayhoniy 1989: 184]. Rabadning bozor va shahristonga boradigan ko‘chalarga (yo‘llar) toshlar yotqizilgan[Lavrov 1950: 70]. Savdogarlar rastalari va hunarmandlar ustaxonalari rabadda joylashgan.

Shahar tarixiy-topografik tuzilmasida muhim o‘rin tutgan yana bir hudud Registon maydonidir. “Registon” atamasi toponimik jihatdan “qumli joy” yoki “qumli tekislik” ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama O‘rta Osiyo shaharsozlik an’analarida markaziy maydonni, ya’ni siyosiy, ma’muriy va diniy hayotning asosiy maskanini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Buxoro Registoni Kuhandizning g‘arbiy qismidan, ya’ni Registon darvozasidan Ma’bad darvozasigacha bo‘lgan hududni qamrab olgan [Narshaxiy, 1993: 30]. Tadqiqotlarda keltirilishicha, Registon hududida qadimda chuqurlik bo‘lib, u yerda qamishlar o‘sadigan ko‘l bo‘lgan[Andreyev, Chexovich 1972: 86]. Maydonning shimoliy qismida musallo(namozgoh) joylashgan bo‘lib, islomiy bayramlarda bu yerda jamoat namozlari o‘qilgan. Janubiy qismida esa, arablar davrigacha bo‘lgan davrlardanoq turli yig‘ilishlar o‘tkazilgan, muhim qarorlar muhokama qilingan, shuningdek, ko‘plab qasr va ko‘shklar joylashgan. Registonning ushbu janubiy qismi Buxoro shahrining bosh maydoni sifatida tarixiy va an’anaviy jihatdan Xuroson markazi – Marv shahri bilan uzviy tarzda bog‘liq bo‘lgan [Filimonov, 1986: 13].

XX asr boshlarida Registon nisbatan tor va kichik maydonni, taxminan 0.25 gektar (25 sotix)ni egallagan[S.Ayniddin 1960: 294]. Ammo vaqf hujjatlariga ko‘ra somoniylar davrida Registon maydoni ancha kengroq bo‘lgan[Saidjonov 2005: 22]. Nasr II ibn Ahmad hukmronligi davrida bu hududda yangi hukmdor saroyi barpo etilib, uning qarshisida amaldorlar uchun alohida binolar qurilgan[Narshaxiy 1993: 31]. Bu binolar go‘zalligi va hashamati o‘sha davr manbalarida bir necha o‘rinda tilga olingan.

Somoniylar davrida shahriston va rabadda mavjud ko‘cha nomlarining ayrimlari bizgacha saqlab qolingan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: Rindon, Kox (Vazir ibn Ayyub ibn Hasson ko‘chasi), Mug‘lar, Dehqonlar, al-A’lo, Qizlar (Bekor, Bakor), Bu Lays, Chahorgumbaz.

IX–X asrlar tarixiy-geografik manzarasida qabristonlar ham muhim o‘rin egallagan bo‘lib, bu holat umumiy xususiyat sifatida Buxoro shahrida namoyon bo‘ladi. Manbalarda Buxorodagi eng qadimiy va dastlabki (islomiy) mozor sifatida Abu Hafs Kabir Buxoriy dafn etilgan qabriston (Xoja tepaligidagi) tilga olinadi[Tarixi mullazoda 2019: 72]. IX asr o‘rtalarida ushbu mozor shaharning rabad qismida bo‘lgan.

Somoniylar sulolasiga mansub hukmdorlarning dafn etilgan mozori shahar rabodining g‘arbiy qismida, Chorgumbaz (Chahorgumbaz) ko‘chasida joylashgan. Arxeologik tadqiqot natijalari ushbu hududda bizga ma’lum bo‘lgan Somoniylar maqbarasidan tashqari, maqbaraning shimoli-g‘arbiy qismida yana bir necha somoniy hukmdorlar uchun qurilgan dahmalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [Mirzaahmedov 1984: 221–237]. Maqbara qurilgan davr taxminan IX asrning oxiri

– X asrning boshlariga ya’ni Ismoil Somoniy davriga to‘g‘ri keladi. Ammo, inshootning hozirgi kirish qismi yuqorisida “Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil” epigrafik yozuvi aniqlangan.[Denike 1939: 8; Bulatov 1976: 13]. Bu maqbarada kamida bir nechta somoniy hukmdor dafn qilinganligiga ishora bo‘la oladi.

Yuqoridagi mozorlardan tashqari somoniylar davrida shaharning shahriston va rabadida So‘fiyon Savriy(shahristonning shimoli-sharqida), Xoja Chorshanbe, Turki Jandi, Xoja Sesaron, Xoja G‘unjor, Xoja Ka’bon kabi qabristonlar bo‘lgan[Shishkin 1936: 18-19; Tarixi mullazoda 2019: 131–157]. Mozor shahar topografik tuzilmasida muhim o‘rin egallagan bo‘lib, uning shahar devorlari tashqarisida joylashgani ma’lum darajada tabiiy chegara vazifasini bajargan. Bunday joylashuv qadimgi shaharsozlik an’analariga xos bo‘lib, u nafaqat dafn marosimlari uchun ajratilgan maxsus hudud sifatida, balki shaharning tashqi chegaralarini belgilovchi topografik element sifatida ham ahamiyat kasb etgan.

Jo‘yi Mo‘liyon ham bu davr uchun muhim manzilgoh, chorbog‘ hisoblanib, X asr somoniy hukmdorlar tomonidan keng bunyodkorlik markaziga aylangan hudud hisoblangan. Arxeologik tadqiqotlar mazkur manzilgohning shahar rabadining shimoli-g‘arbiy qismida joylashganini ko‘rsatadi[Adilov 2020: 85–96; Stark 2022: 231]. Narshaxiy Jo‘yi Mo‘liyonda hokimiyatga chiqqan somoniy hukmdorlar tomonidan ko‘shk va bog‘lar bunyod etilganligi qayd etadi[Narshaxiy 1993: 32]. Mazkur manzilgohda somoniylar hukmdorlari tomonidan keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlarining amalga oshirilgani ushbu sulola vakillarining shaharni kengaytirish va rivojlantirish hamda madaniy muhitni yuksaltirishga bo‘lgan e’tiborini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, somoniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro shahri o‘zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va me’moriy taraqqiyoti jihatidan yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Arxeologik va yozma manbalar tahlili shahar hududining IX–X asrlarda sezilarli darajada kengayganini, uning kuhandiz, shahriston, rabad va registon qismlarining aniq topografik tizim asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shahar topografiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan irrigatsiya tizimi, kanallar va ariqlar tarmog‘i bu maqolada maxsus tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqilmagan. Sababi, mazkur masala alohida, keng ko‘lamli va chuqur ilmiy tadqiqotni talab etuvchi yo‘nalish bo‘lib, uni Buxoroning suv ta’minoti va shaharsozlik infratuzilmasi tarixiga bag‘ishlangan mustaqil izlanishlar doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993.
2. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары / Перевод, комментарии и примечания Ш.С. Камолиддина, археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: SMI-ASIA, 2011.
3. Айний С. Воспоминания. – Москва–Ленинград: Академия наук СССР, 1960.
4. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1972.

5. Бартольд В.В. Работы по исторической географии // *Сочинения в 9-ти томах*. – Т. III. – Москва: Наука, 1965.

6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1973.

7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в Древние времена. – Т. II. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1950.

8. Булатов М.С. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. – Ташкент: Изд. литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1976.

9. Город в средневековой цивилизации Западной Европы. – Т. 1: Феномен средневекового урбанизма / Отв. ред. А.А. Сванидзе. – М.: Наука, 1999. – 390 с.

10. Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средней Азии. – Москва–Ленинград: Издательство Всесоюзной Академии архитектуры, 1939.

11. Ибн Ҳавқал. Сурат ал-ард. Ернинг сурати / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2011.

12. Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик / Араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019.

13. Камолиддин Ш. К биографии Наршахи // Общественные науки в Узбекистане. – 1997. – № 9-10-11.

14. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии: (С древних времен до второй половины XIX века). – Москва: Госстройиздат, 1950.

15. Мирзаахмедов Д.К. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов // ИМКУ. – Вып. 19. – Ташкент, 1984.

16. Муин ул-фуқаро, Аҳмад ибн Маҳмуд. Тарихи Муллозода дар зикри мазороти Бухоро / Форс тилидан таржима, муқаддима, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи: Комилжон Раҳимов. – Тошкент: Фан, 2019.

17. Мухамеджанов А. Результаты археологических исследований на территории города Бухары // Общественные науки в Узбекистане. – 1984. – № 1.

18. Некрасова Е.Г. К истории сложения стен Арка г. Бухары // Из истории культурного наследия Бухары. – Ташкент, 1990.

19. Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (материалы по планировке старой Бухары) // Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Изд. Академии наук Узбекской ССР, 1962.

20. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари / Таржима, сўзбоши, шарҳлар муаллифи Ҳ. Тўраев. – Тошкент: Марказий Осиёни тадқиқ қилиш Француз институти (Document de travail de L'IFEAC, №16), 2005.

21. Торгоев А.И., Мирзаахмедов Д.К., Курбанов Б.Г. Художественный металл Бухары и Бухарского оазиса VIII–XIV вв. – Самарканд: МИЦАИ, 2023.

22. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары // Сборник Туркестанского Восточного института в честь проф. Э.А. Шмидта. – Ташкент, 1923.

23. Филимонов В.М. Регистан-Майдан-Древнейший градообразующий элемент Бухары // Архитектура и строительство Узбекистана. – 1986. – № 6.

24. Хмельницкий С. Между Саманидами и Монголами. Архитектура Средней Азии XI –начало XII вв. – Ч. I. – Берлин–Рига: Gamajun, 1996.

25. Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: Изд. Комитета наук УзССР, 1936.

26. Адылов Ш.Т. Легендарный Джуй-и Мулиён (вопросы топонимии и локализации) // Согдийский сборник. – Вып. 7 / Отв. ред. Ш.С. Камолиддин. – Saarbrücken: LAP, 2020.

27. al-Moqaddasi, Abu ‘Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin. Descriptio Imperii moslemici / Ed. M.J. de Goeje. – Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1877. – (BGA, pars 3).

28. Historie des Samanides par Mirkhond. Texte persan, traduit et accompagne de notes criticis, historiques et geographiques par M.Defremery. – Paris, 1832.

29. Stark, S. The New Garden of the Amir: Samanid Land development at the Fringes of the Bukhara Oasis // The History and Culture of Iran and Central Asia: from the pre-Islamic to the Islamic period. – Notre Dame: University of Notre Dame Press, 2022.

V SHO‘BA: QORAXONIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

THE FIRST UZBEK RENAISSANCE: SCIENTIFIC, LITERARY, AND PHILOSOPHICAL ACHIEVEMENTS UNDER THE KARAKHANIDS

Author: Derya Soysal, Historian,
Expert on Central Asia, Université
libre de Bruxelles, Belgium,
EUReporter, Brussels,
darya@eureporter.ie

Abstract: Uzbekistan has been a land of intellectual and cultural renaissance since the 9th century, beginning with the Karakhanid era. This article explores the First Renaissance in Uzbekistan, highlighting the achievements of scholars, philosophers, poets, and scientists. Centers such as Samarkand, Bukhara, and Khiva became hubs of learning, promoting scientific, philosophical, and literary development. The article also examines the contributions of leading figures including Ahmad al-Farghani, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, al-Farabi, Ibn Sina, al-Biruni, and Yusuf Khass Hajib. Their work laid the foundation for scientific and moral thought in the region and influenced both the Islamic and European intellectual traditions.

Keywords: Uzbekistan, Karakhanids, First Renaissance, al-Farghani, al-Khwarizmi, Kutadgu Bilig, philosophy, science, literature, Central Asia

Annotatsiya:
O‘zbekiston 9-asrdan boshlab, ayniqsa Qoraxoniylar davridan, intellektual va madaniy uyg‘onishlar beshigi bo‘lib kelgan. Ushbu maqola O‘zbekistondagi Birinchi Uyg‘onish davrini yoritib, olimlar, faylasuflar, shoirlar hamda ilm-fani rivojiga hissa qo‘shgan buyuk shaxslarning yutuqlarini tahlil qiladi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi markazlar ilm-ma’rifat o‘choqlariga aylanib, ilmiy, falsafiy va adabiy taraqqiyotni rag‘batlantirgan. Shuningdek, maqolada Ahmad al-Farg‘oniy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, al-Beruniy va Yusuf Xos Hojib kabi yetakchi allomalarning merosi ko‘rib chiqiladi. Ularning ilmiy-axloqiy qarashlari mintaqadagi ilmiy va ma’naviy tafakkur poydevorini mustahkamlab, islom olami va Yevropa intellektual an’analariga ham sezilarli ta’sir o‘tkazgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Qoraxoniylar, Birinchi Uyg‘onish, al-Farg‘oniy, al-Xorazmiy, Kutadg‘u Bilig, falsafa, ilm-fan, adabiyot, Markaziy Osiyo

Аннотация:
Uzbekistan является колыбелью интеллектуального и культурного возрождения с IX века, особенно начиная с эпохи Karakhanids. В данной статье рассматривается First Renaissance in Uzbekistan с анализом научных, литературных и философских достижений великих учёных, философов и поэтов региона. Такие центры, как Samarkand, Bukhara и Khiva, стали крупнейшими очагами знаний, развития науки, философии и литературы.

Статья также исследует вклад ведущих представителей, включая Ahmad al-Farghani, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, al-Farabi, Ibn Sina, al-Biruni и Yusuf Khass Hajib. Их труды заложили основы научной и нравственной мысли региона и оказали влияние как на исламскую, так и на европейскую интеллектуальные традиции.

Ключевые слова: Uzbekistan, Karakhanids, First Renaissance, al-Farghani, al-Khwarizmi, Kutadgu Bilig, философия, наука, литература, Центральная Азия

INTRODUCTION

Uzbekistan is a land of renaissance. Since the 9th century, during the Karakhanid era, these lands gave birth to renaissances in art, science, and literature. During the Karakhanid period, the ancestors of the Uzbeks included some of the most learned philosophers, poets, and scientists in the Turkic and Muslim world.

"The development of science and thought in Transoxiana, one of the centers of world civilization, dates back to ancient times and reached its peak especially in the Middle Ages" [Celal 2016: 221].

Indeed, Uzbekistan has been a land of Renaissance. Later, during the Timurid era, Uzbekistan witnessed one of the greatest renaissances in history: the Timurid Renaissance.

"*From the Qarakhanids to the Mughals (Babur Empire), the Uzbeks have been initiators of artistic and scientific Renaissance in the Turkish world at various levels: literary, artistic, cultural, linguistic, mathematical, physical, astronomical… The Uzbek lands have hosted scientific centers such as Samarkand, Bukhara, and Khiva, where madrasas taught advanced knowledge compared to others*" [Абдуҳалимов, 2010].

Today, the Uzbek government, recognizing this rich historical heritage, seeks to foster a Third Renaissance. President Shavkat Mirziyoyev writes:

"Ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik."

Through this statement, President Mirziyoyev emphasizes continuing the Third Renaissance, building upon the foundation laid by Jadid reformers between 1900–1920.

This article focuses on the First Renaissance.

1. RENAISSANCE – DEFINITION

Renaissance, or Uyg'onish in Uzbek, refers to awakening, renewal, invention, and prosperity in science and all fields of knowledge. The term "Renaissance" comes from French, meaning "rebirth." Europe experienced a Renaissance of art and science in the 15th century, as knowledge had declined during the Middle Ages. The concept was first described by Giorgio Vasari in Italy and Pierre Belon in France in the mid-16th century. Since the mid-19th century, numerous studies on the Renaissance have been published in Europe. While the Western world recognizes the Italian Renaissance, Uzbekistan experienced two major renaissances: during the Karakhanid and Timurid periods.

Balsamo (2019: 38) defines the concept as:

(1) a conscious and voluntary return to intellectual, moral, and civil models of antiquity; (2) a rediscovery of humanity and the world; (3) the development of critical thinking and the spirit of freedom.

2. THE FIRST UZBEK RENAISSANCE UNDER THE KARAKHANIDS

From the 9th to 12th centuries, Uzbekistan experienced its First Renaissance. The term Renaissance derives from Latin, meaning awakening, revival, and development at both national and international levels.

Regarding the First Uzbek Renaissance, President Mirziyoyev stated:

"Based on this approach, the First Renaissance is recognized to have taken place in the 9th–12th centuries in the history of Uzbekistan."

He further noted:

"The torch of knowledge that had burned in ancient Greece shone again in Central Asia in the 9th–12th centuries. During this period, the First Renaissance emerged in our lands, producing eminent scholars acknowledged worldwide."

By "Central Asia," the statement refers to the regions of Transoxiana and Khorasan.

2.1. Scientific Renaissance (9th–12th centuries)

Uzbekistan gave birth to one of the greatest scientific renaissances in history. From the 9th to 12th centuries, the ancestors of the Uzbeks witnessed the emergence of a new intellectual tradition. Major learning centers–such as Bukhara, Samarkand, Merv, and Fergana–became hubs of scientific research and philosophical debate. These cities, located along the Silk Road, connected East and West, facilitating both trade and the transmission of knowledge. Scholars developed rational and empirical approaches to nature, mathematics, and metaphysics, anticipating later developments in the European Renaissance.

This intellectual movement was rooted in inquiry (tahqiq) and observation (mushahada), integrating scientific and philosophical knowledge into a unified worldview. The synthesis of reason (ʻaql) and faith (īmān) allowed scholars to explore natural phenomena without abandoning spiritual principles.

These lands produced eminent scientists including Ahmad al-Farghani, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, al-Farabi, and al-Biruni, who laid the foundations of modern astronomy, algebra, logic, and natural philosophy. Their works influenced the Islamic world and reached Europe through Latin translations. Scholars from Turkestan, Khwarezm, and the Fergana Valley interpreted universal knowledge drawing upon nomadic wisdom, ethical values, and Turkic social structures.

2.1. Al-Farghani and Al-Khwarizmi: Foundations of Exact Sciences

Two central figures of the early Turkic-Islamic intellectual awakening are Ahmad al-Farghani (Alfraganus) and Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi. Both were born in Transoxiana–al-Farghani in Fergana and al-Khwarizmi in Khwarezm (now Uzbekistan)–and contributed to astronomy, mathematics, and geography [Zayniddin o'g'li, S. R., 2024].

2.1.1. Al-Farghani: The First Turkic Astronomer with Uzbek Origins

Al-Farghani (c. 805–870) is known for Kitab fi Jawami‘ ‘Ilm al-Nujum wa Usul al-Harakat al-Samawiyya (“The Compendium of the Science of the Stars and the Principles of Celestial Motions”). He combined Greek sources, particularly Ptolemy, with his own observations. His work clarified complex astronomical theories for a broader scholarly audience, emphasizing empirical accuracy and mathematical coherence [Uralov, X. A. 2025].

Translated into Latin in the 12th century as Alfraganius de Scientiis Stellarum, his work influenced European scholars including Copernicus and Dante.

2.1.2. Al-Khwarizmi: The Founder of Algebra

Contemporary to al-Farghani, al-Khwarizmi (c. 780–850) revolutionized mathematics with algorithmic procedures, laying the foundation for algebra. His Kitab Surat al-Ard (“Book of the Image of the Earth”) revised Ptolemy’s geography [Uralov, X. A. 2025]. Together, al-Farghani and al-Khwarizmi illustrate the integration of mathematical rigor and philosophical vision, central to the First Uzbek Renaissance.

2.1.3. Al-Farabi, Ibn Sina, and al-Biruni

From the 9th to 11th centuries, al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), and al-Biruni exemplified the philosophical and scientific culmination of the First Eastern Renaissance. Their work represents the synthesis of rationalism and spirituality characteristic of 10th–11th century Turkic-Islamic intellectual culture.

2.2. Literary and Philosophical Renaissance with Yusuf Khass Hajib

“During the Eastern Renaissance, the primary concern in the spiritual-intellectual sphere was the human problem, focusing on humanity and the glorification of man in educational works” [Umarov, 2022:850].

By the 11th century, the intellectual movement evolved into moral and political reflection in Turkic language, represented by Yusuf Khass Hajib, author of Kutadgu Bilig (“Wisdom of Royal Glory”) [Ölmez, 1997]. Composed around 1069–1070 in Kashgar during the Karakhanid dynasty, the work synthesizes ethics, politics, and wisdom in verse, presenting an ideal vision of governance grounded in justice, reason, and virtue.

Kutadgu Bilig identifies an ideal ruler as one embodying kut (divine fortune) and bilig (wisdom), promoting prosperity and social harmony. Justice (törü or adalat) ensures cosmic and social balance. Allegorical figures Kün Togdı, Ay Toldı, Ögdülmiş, and Odgurmış dialogue to illustrate this moral-political philosophy [Kamolova & Muxamedov, 2025].

The work influenced subsequent Turkic literature and philosophy, inspiring thinkers like Ahmad Yugnaki and Ahmad Yasawi, and represents early political humanism, emphasizing ethical governance and knowledge serving the common good [Doğan, 2002:128].

CONCLUSION

The intellectual trajectory of Uzbekistan from the 9th to 12th centuries demonstrates a synthesis of nomadic heritage, Islamic learning, and classical philosophy. From al-Farghani’s astronomical studies and al-Khwarizmi’s mathematics to the philosophical work of al-Farabi and Ibn Sina, culminating in

Yusuf Khass Hajib's Kutadgu Bilig, the First Uzbek Renaissance laid the foundation for Central Asian intellectual, ethical, and cultural life.

This era, the First Eastern Renaissance, exemplifies the flourishing of scientific inquiry, philosophical reasoning, and literary creativity, establishing enduring values for Central Asia and the broader Turkic world.

BIBLIOGRAPHY

1.Balsamo 2019 – Balsamo J. Renaissance et modernité. Studi giraldiani. Letteratura e teatro, 5, 33-53, 2019

2. Doğan 2002 – Doğan N. Kutadgu Bilig'in devlet felsefesi-I. Erciyes: Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2002

3. Eshmanova 2020 – Eshmanova N. N. TA'LIM TARAQQIYOTIDA RENASSANSNING O'RNI. Tashkent: Academic Research in Educational Sciences, 2020

4. Kamolova & Muxamedov 2025 – Kamolova S., & Muxamedov A. YUSUF XOS HOJIBNING SIYOSIY–AXLOQIY QARASHLARI "QUTADG'U BILIG" DA. Samarkand: Молодые ученые, 2025

5. Mirziyoyev 2020 – O'zbekiston Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan so'zlagan nutqi. Tashkent, 30 sentabr 2020

6. Ölmez 1997 – Ölmez Z. K. Kutadgu Bilig'de ikilemeler (1). Ankara: Türk Dilleri Araştırmaları, 1997

7. Samiyev & Xolmo'Minov 2023 – Samiyev B. N. O. G. L., & Xolmo'Minov M. M. YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUVGA DOIR QARASHLARI VA AXLOQIY O'GITLARI. Tashkent: Oriental Art and Culture, 2023

8. Soysal 2025 – Soysal D. FROM ALFRAGANUS TO ULUGH BEG: UZBEKISTAN, THE CRADLE OF ASTRONOMIC RENAISSANCE. Samarkand: Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2025

9. Umarov 2022 – Umarov M. L. O. G. L. "AXLOQI NOSIRIY" ASARIDAGI TA'LIMIY TARBIYAVIY MASALALAR. Tashkent: Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2022

10. Uralov 2025 – Uralov X. A. "BAYT UL-HIKMA" G'ARB OLIMLARI NIGOHIDA (AL-XORAZMIY, AL-FARG'ONIY). Samarkand: Теоретические аспекты становления педагогических наук, 2025

11. Xorazmiy.uz n.d. – IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyolik buyuk allomalar va ularning jahon tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissalari. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/254

12. Yo'ldoshevich 2025 – Yo'ldoshevich O. T. A. PEDAGOGIKA TARIXI FANINI O'RGANISH VA O'ZLASHTIRISHING O'ZIGA XOS XUSUSISYATLARI. Tashkent: Scientific and Methodological Journal of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy, 2025

13. Yo'ldashev 2024 – Yo'ldashev N. THE MORE WE ARE PROUD OF YOU, THE LESS ALFRAGANUS!! AL-FARGHANI IS OUR PRIDE. Tashkent: Modern Science and Research, 2024

14. Zayniddin o'g'li 2024 – Zayniddin o'g'li S. R. AXMAD AL FARGONIY.

Tashkent: SYNAPSES: Insights Across the Disciplines, 2024

БОЛАСОҒУН ШАҲРИНИНГ ЎРНИ ҚАЕРДА БЎЛГАН?

т.ф.д., проф. Ғайбулла Бобоёров.
ЎзР ФА Миллий археология маркази
gaybullah@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада туркий эллар ўтмишида ўзига хос ўрин тутган Боласоғун шаҳри бўйича ёзма манбаларда учрайдиган билгилар кўриб чиқилади. Кўпчилик изланувчилар томонидан Бурана ёдгорлиги (Тўқмоқ, Қирғизистон) билан тенглаштирилган ушбу шаҳарни кейинги йилларда айрим изланувчилар Ақтўбе шаҳар қолдиғи (Чу, Қозоғистон) ўрнида бўлган деган қарашларни илгари сурмоқдалар. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида келтирилган билгилардан келиб чиқилса, Боласоғун шаҳри Бурана ёдгорлиги тегараларида бўлгани англашилади.

Очқич сўзлар: Боласоғун, Бурана, Тўқмоқ, Ақ-тўбе, Чу водийси, ёзма манбалар, Маҳмуд Кошғарий, харита, Қўчиңар-боши.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сведения, встречающиеся в письменных источниках о городе Баласагун, который занимал особое место в истории тюркских народов. Большинство исследователей отождествляют этот город с памятником Бурана (Токмак, Кыргызстан), однако в последние годы некоторые ученые выдвигают мнение, что Баласагун находился на месте городище Актөбе в долине Чу (Казахстан). Исходя из данных, приведенных в произведении Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-тюрк», можно заключить, что город Баласагун находился в окрестностях памятника Бурана.

Ключевые слова: Баласагун, Бурана, Токмак, Ак-тобе, долина Чу, письменные источники, Махмуд Кашгари, карта, Кочынар-башы.

Abstract: This article examines the information found in written sources about the city of Balasagun, which held a distinctive place in the history of the Turkic peoples. Most researchers identify this city with the Burana archaeological site (Tokmak, Kyrgyzstan). However, in recent years, some scholars have proposed that Balasagun was located at the site of the Aktöbe settlement in the Chu Valley (Kazakhstan). Based on the evidence presented in Mahmud al-Kashgari’s *Dīwān lughāt al-Turk*, it can be concluded that the city of Balasagun was situated in the vicinity of the Burana monument.

Keywords: Balasagun, Burana, Tokmak, Aktöbe, Chu valley, written sources, Mahmud al-Kashgari, map, Kochynar-bashy.

Туркий элларнинг энг эски шаҳарларидан бири ўлароқ турли тиллардаги ёзма манбаларда тилга олинган Боласоғун ёки Балосоғун шаҳрининг ўрни қаерда бўлгани юзасидан бугунги кунда анчагина илмий тортишувлар бор. Илк ўрта асрлардан бошлаб XIII – XV юзйилликларгача Турон – Туркистоннинг йирик сиёсий ва иқтисодий-маданий шаҳарларидан бири ўлароқ билинган Боласоғун сўнгги ўрта асрларга келиб ўз фаолиятини тугатиб, йўқолиб кетгани учун бу шаҳарнинг жойлашув ўрни айнан

қаерларга тўғри келиши бўйича бир тўхтамга келинмаган. Кўпчилик изланувчилар уни бугунги Қирғизистоннинг бошкенти Бишкекдан чамаси 70 км кунчиқардаги Тўқмоқ шаҳрининг кунгайи – жанубида, 10 км узоқликдаги Бурана ёдгорлиги ёки ушбу ёдгорликка 5 км ча яқинликдаги Ақ-Бешим шаҳар қолдиғи билан тенглаштириб келар эдилар [Бартольд 1987; Бернштам 1952; Кожемяко 1959; Кызласов 1959: 155–242; Горячева 1983: 54–65]. Бироқ кейинги ўнйилликларда ушбу тарихий шаҳар Қозоғистоннинг Тароз (Жамбул) вилоятидаги Ақтўбе (Оқтепа) ёдгорлиги ўрнида бўлган деган қарашлар билдирила бошлади [Шалекенов 2009; Шалекенов 2020: 436–447]. Ушбу қарашлардан қай бири тўғри ёки янглиш эканини аниқлик киритиш учун ёзма манбаларга синчиклаб қараб чиқиш керак бўлади.

Илк бор IX – XII юзйилликларда Турон ўлкасига келиб-кетган араб ва форс географлари томонидан эслатиб ўтилган Боласоғун шаҳри бўйича энг кўп билги – маълумотлар туркий элларнинг буюк тилбилимчиси Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” (Турк эллари сўзлиги, XI юзйиллик) асарида учрайди. Маҳмуд Кошғарий بَلاسَاغون Балосоғун кўринишда келтириб ўтган ушбу шаҳарга тегишли “Девон”да ўрин олган билгиларни қуйидагича келтириб ўтамиз:

1. بَلاسَاغون “Балосағунликлар суғдча ва туркча сўзлайдилар. Тироз (Тароз) ва Мадинатулбайза шаҳарларининг халқлари суғдча, ҳам туркча сўзлайдилар. Испижоб (Сайрам)дан то Балосоғунгача бўлган барча арғу шаҳарларида яшайдиганларнинг тилида ҳам камчилик бор” (Кошғарий 1960, I: 66; Mahmūd al-Kāšγarī 1982: 84).

2. “**Улуш** – қишлоқ (чигилча); Балосоғун ва уларнинг юқори ёнидаги арғулиларча “шаҳар” демакдир. Шунинг учун Балосоғун шаҳрини قُوزْ أُولُوشْ Қуз улуш ҳам дейдилар” [Кошғарий 1960, I: 94].

3. أُرْدُو “**Ўрду** – Балосоғун яқинидаги бир шаҳар; шунинг учун Балосоғунни قُوزْ أُرْدُو Қуз ўрду ҳам дейилади” [Кошғарий 1960, I: 145].

4. “**Йун-арық** – Балосоғун яқинидаги яйлов” [Kaşgarlı 2014: 507 / 407].

5. “**Арғу** – икки тоғ ораси; Тироз ва Боласоғун орасидаги шаҳарларга ҳам Арғу дейдилар. Чунки у икки тоғ орасидадир” (Кошғарий 1960, I: 148).

6. “**Суғдақ** – Балосағунга келган бир элат. Улар Бухоро ва Самарқанд орасидаги Суғддан келганлар, бироқ турклар каби кийиниб, уларнинг урф-одатларини қабул қилганлар” [Кошғарий 1960: 437; Kaşgarlı 2014: 206].

7. “**Қулбақ** – турклардан бир тақводор киши исми, у Балосоғун тоғларида яшар эди. Айтишларига кўра, у қўли билан катта қора тошга “тенгри қули Қулбақ деб ёзса, оқ хат ёзилар, агар оқ тошга ёзса, қора хат

пайдо бўлар эди. Унинг излари ҳалигача ҳам турибди, дейдилар” [Кошғарий 1960: 440].

8. “**Бақырлығ** – Балосоғун ёнидаги бир жой номи” [Кошғарий 1960: 456; Kaşgarlı 2014: 206].

9. “Балосоғун яқинидаги Шу шаҳрини мазкур шоҳ фатҳ қилган, қурдирган эди” [Кошғарий 1963, III: 319-320].

10. “**семуркук** – булбулга ўхшаш бир қуш. Балосоғунликлар сўзи. Парчада шундай келган: *Буч-буч ўтар семуркук. Бўғзы учун мангланур* “Ёқимли сайроғи билан кишини шодлантирадиган қуш оч қолса, дон деб тузоққа илинади” [Кошғарий 1963, III: 335; Kaşgarlı 2014: 321].

11.  “**Занби**: Занби арт – Қўчиңар-боши билан Балосоғун орасидаги бир дара” [Кошғарий 1963, III: 445].

Маҳмуд Кошғарий келтириб ўтган ушбу билгиларга таяниб, Боласоғунни Иссиққўл ва Тароз шаҳарлари орасида, Чу дарёсининг ўрта оқими тегараларида, Маҳмуд Кошғарий томонидан “Қўчиңар-боши” кўринишида тилга олиниб, бугунги кунда Қирғизистоннинг Норин вилоятидаги Қўчқор водийсига тўғри келадиган ерлар орасида ўрнашган шаҳар бўлган, дея оламиз. Уни Тўқмоқ шаҳри яқинидаги ерлар билан тенглаштирувчилар кўпроқ Кошғарий келтирган билгиларга таянадилар. Бироқ “Девон”даги ушбу билгилар Боласоғуннинг аниқ ўрнини кўрсатиб бера олмайди. Тўғри, Чу дарёсининг тевараклари да Тўқмоқ шаҳридай бирмунча йирик шаҳар бўлмагани, шунингдек, ушбу шаҳар яқинидаги Бурана ёдгорлиги – миноранинг Қорахонийлар чоғига тегишли экани изланувчиларни “Боласоғун шаҳри шу ерда бўлган” дейишга ундайди.

Боласоғун шаҳрини бирмунча узоқдан – Чу дарёсининг қуйи оқимидаги Ақтўбе (Оқтепа) шаҳар қолдиқлари билан тенглаштирган изланувчилардан бири бўлмиш қозоқ археологи У. Шалекенов ўз қарашларида қуйидагича ёндашади:

- Маҳмуд Кошғарий келтириб ўтган “**Йун-арық** – Балосоғун яқинидаги яйлов”нинг ўрни Тўқмоқ тегараларига тўғри келмайди, “жайлов” (яйлов) туркийлар тушунчасига кўра улкан кенгликларни ўз ичига олади. Бурана ёдгорлиги яқинларида бундай кенгликлар йўқ;
- У. Шалекенов XVII юзйилликда яшаган Маҳмуд ибн Вали ўзининг “Баҳр ул-асрор” (Сирлар денгизи) асарида қошғарликлар ва қалмоқлар орасида уруш бўлганда ёғийни шимол томонга қувиб борган Қошғар бошқарувчиси қаққайган минора ва мадрасалари кўриниб турган ерга кўзи тушгач, ерли турғунлардан “бу ер қаер” деб сўраганда, улар “бу ер Боласоғун” дейишганига суяниб, “Бурана ёдгорлиги ёнида бундай тарихий ёдгорликлар йўқлигини ёзади ва Ақтўбе шаҳар қолдиғида археологлар кўплаб меъморий ёдгорликларнинг ўрнини аниқлаганига урғу беради [Шалекенов 2020: 136–147]. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, ушбу изланувчи Маҳмуд ибн Вали келтирган билгиларни бирмунча ўзгартирган ҳолда

“Қошғарликлар Қора-болта томонга қочган қалмоқлардан сўради” деб ёзади ва Қора-болтани Чу дарёсининг қуйи оқимидаги Қозоғистон томондаги ерлар билан солиштиради. Аслида “Баҳр ул-асрор”да келтирилган билги – маълумот бутунлай бошқача, унда Қора-болта атамаси учрамайди [*қар.* Махмуд ибн Вали 1977: 24];

- У. Шалекенов Маҳмуд Кошғарий Боласоғун яқинида деб келтирган Йун-ариқни қирғизистонлик изланувчилар Тўқмоқ яқинидаги Дўн-ариқ билан тенглаштиришлари тўғри эмаслигини ёзиб, “Девон”даги Йун-ариқни Қозоғистондаги Мерке шаҳри томонидан Қулон, Ашпара томонларга оқиб, тоғ довонидан ўтувчи Бел-ариқ билан тенглаштириш тўғрироқ эканига урғу беради. Унинг ёзишича, Мерке теграсидаги ерли турғунлар бир вақтлар ушбу сув тармоғи Жун-ариқ деб аталганини айтишган. Шунингдек, У. Шалекенов “Тожикча – русча” сўзликда “Йон – юқори” деб берилгани, бу эса “Девон”даги “Йун-ариқ”нинг ўрни анча тепаликда, кенгликда бўлгани кўрсатишини ёзади. Бироқ тожикчадаги бу сўз “ён” кўринишида бўлиб, ўзбекчадан тожикчага ўтган туркий сўз ўлароқ “юқори” эмас, “ён – томон, ёнидаги” англамини беради. Шу ўринда “Девон”да Йун-ариқ атамасининг энг эски кўринишларидан бири “Дун-ариқ” бўлиб, қирғизчада “Дўн-ариқ” кўринишида сақланиб қолиши эски турк тили қоидаларига уйғун эканини кўздан қочирмаслик керак бўлади: сўз боши ва сўз ўртасида д ~ й ~ ж алмашинуви.

Бир қарашда У. Шалекеновнинг кўзқарашлари тўғри экандек кўринади. Бироқ у келтириб ўтган далиллар анча ишончсиз ва ёзма манбалардаги билгиларга, айниқса, Маҳмуд Кошғарий томонидан айтиб ўтилган билгиларга унчалик ҳам уйғун келмайди:

Биринчидан, Маҳмуд Кошғарий “Девон”да “*Занби: Занби арт – Қўчиңар-боши билан Балосоғун орасидаги бир дара*” деб келтирар экан, чамаси, ҳар иккала шаҳар бошқа ерларга қараганда бир-бирига анча яқинлигини кўзда тутган кўринади. Шу ўринда Тўқмоқ билан Қўчқор (Қўчингар-боши) ораси 100 км ча бўлса, Ақтўбе шаҳар қолдиғи билан Қўчқор водийси ораси 300 км экани “Боласоғун – бу Ақтўбе” деган қарашни анчагина кучсизлантиради (*қар.* 1-2 хариталар).

Иккинчидан, Бурана ёдгорлиги яқинларида ўтказилган археологик қазишлар бу ерда ўрта асрларда бир қатор меъморий ёдгорликлар бўлганини кўрсатмоқда. Уларнинг кўпчилиги бир неча юз йиллар олдин бузилиб кетган ёки тупроқ остида қолган. Ақтўбе шаҳар қолдиғидаги меъморий ёдгорликларда ҳам шундай ҳолат юз бергани кузатилади. Ушбу ёдгорликлардан фарқли ўлароқ Бурана ёдгорлиги теграсида аниқланган эски қабристонда араб ёзувида “Боласоғуний” нисбаси ёзилган ўнлаб қабртошлар топилган [Белек 2014; Belek 2014: 31–42].

Учинчидан, Маҳмуд Кошғарий чизган харитада Боласоғун ва Қўчиңар-боши (Қўчқор) ораси Тароз ва Чу дарёсининг қуйи оқимларидаги ерларга қараганда анча яқин кўрсатилган (*қар.* 3- харита). Шу ўринда айтиб ўтиш керак, Кошғарий бир неча бор тилга олиб ўтган Барсхон шаҳрининг ўрни бугунги кунда Иссиққўлнинг кунгай қирғоғидаги Барскаун деб аталадиган

қишлоққа тўғри келади. Кошғарий харитасидаги Балосоғун – Барсхон – Қўчиқар-боши бир-бирига яқин кўрсатилгани, Тароз ва унинг тегараларидан анча узоқда берилгани кўзга ташланади (*қар.* 3- харита).

Қисқаси, Боласоғун шаҳрининг ўрни айнан қаерда бўлгани тўғрисида бугунги кунгача аниқ бир тўхтамга келинмаган. Бизнингча, бу ерни Тўқмоқ шаҳрининг 10 км кунгайи – жанубидаги Бурана ёдгорлиги (Чуй вилояти, Қирғизистон), ё, бўлмаса, шунга яқин эски шаҳар қолдиқларидан бирортаси билан тенглаштириш мумкин. У. Шалекенов томонидан илгари сурилган Боласоғун = Ақтўбе шаҳар қолдиғи (Чу / Шу) вилояти, Қозоғистон) тенглаштирувига эса ёзма манба билгилари етарсизлиги, келтирилган далилларнинг анчагина ишонсизлиги учун қўшилиб бўлмайди.

Қўлланилган адабиётлар

1. Бартольд 1897 – Бартольд В. В. Отчет о поездке в Ср. Азию с научною целью. 1893-94 гг. СПб., 1897.

2. Белек 2014 – Белек К. Караханидские надписи как источник средневековой истории Кыргызстана: [неопубликованная PhD диссертация]. Бишкек: КТУ «Манас», 2014.

3. Бернштам 1952 – Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. М., Л., 1952.

4. Горячева 1983 – Горячева В.Д. Средневековые городские центры и архитектурные ансамбли Киргизии. Фрунзе, 1983.

5. Махмуд ибн Вали 1977 – Махмуд ибн Вали. Море тайн / Перевод, введение, примечания и комментарии Б. А. Ахмедова. Ташкент,1977.

6. Кожемяко 1959 – Кожемяко П. Н., Раннесредневековые города и поселения Чуйской долины. Фрунзе, 1959.

7. Кошғарий, Маҳмуд 1960 – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1- том. Тошкент: Фан, 1960.

8. Кошғарий, Маҳмуд 1963, II – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2- том. Тошкент: Фан, 1963.

9. Кошғарий, Маҳмуд 1963, III – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3- том. Тошкент: Фан, 1963.

10. Кызласов 1959 – Кызласов Л. Археологические исследования на городище Ак-Бешим в 1953-1954 гг. / Труды киргизской археолого-этнографической экспедиции. II. Под ред. Г.В. Дебеца. М., 1959. С. 155-242.

11. Шалекенов 2009 – Шалекенов М.У. Город Баласагун в V – XIII веках. Алматы: Жібек жолы, 2009.

12. Шалекенов 2020 – Шалекенов М.У.Ортағасырдағы Баласағұн этимологиясы // Asian Journal «Steppe Panorama» / «edu.e-history.kz» электрондық ғылыми журналы, No 2(22) сәуір-маусым 2020. Б. 436-447.

13. Belek 2014 – Belek K. Karahanlılar Dönemında Türk Halklarının Kültürel Mırasları: “Kırgızıstan Yazıtları Örneğında (IX-XII. yüzyil)” // Marmara Türkiyat Araştırmaları Dergisi. Cilt 1, Sayı 1, Bahar 2014. S. 31–42.

14. Mahmūd al-Kāšγarī 1982 – Mahmūd al-Kāšγarī. *Compendium of the Turkic Dialects* (Dīwān Luγāt at-Turk). Edited and Translation with İntroduction and İndices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part I. Cambridge, 1982.

15. Kaşgarlı Mahmud 2014 – Kaşgarlı Mahmud. *Divänü Lugati't-Türk*. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. Ankara, TDK, 2014.



1- **харита.** Боласоғун шаҳри билан тенглаштириладиган Қирғизистондаги Чуй вилояти Бурана ёдгорлиги ва Тўқмоқ шаҳри



2- **харита.** Боласоғун шаҳри билан тенглаштириладиган Қозоғистон Чу вилоятидаАқтўбе (Оқтепа) ёдгорлиги



3- харита. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида келтирилган хаританинг Онадўли туркчасига ўгирилган кўриниши

QORAXONIYLAR DAVRINING SIYOSIY, MADANIY VA SAVDO ALOQALARI: MARKAZIY OSIYO VA HINDISTON O‘RTASIDAGI TARIXIY-GEOGRAFIK BOG‘LIQLIK

Asadova Ra’no Baymanovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: ranoasadova66@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraxoniylar davrida (X–XII asrlar) Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy aloqalar tarixiy-geografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, Buyuk Ipak yo‘li orqali shakllangan savdo-sotiq tizimi hamda ilm-fan va madaniyat sohasidagi o‘zaro ta’sirlar yoritilgan. Maqolada arab va fors manbalari hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi madaniy almashuvning mintaqaviy integratsiyadagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, Markaziy Osiyo, Hindiston, G‘aznaviylar, Ipak yo‘li, siyosiy aloqalar, madaniy almashuv, tarixiy geografiya, savdo tizimi.

Аннотация: В статье рассматриваются политические, культурные и экономические связи между Центральной Азией и Индией в эпоху Караханидов (X–XII вв.) с историко-географической точки зрения. Анализируются политические отношения между Караханидами и Газневидами, торговые маршруты Великого шелкового пути, а также взаимное влияние в области науки и культуры. Исследование основано на арабских и персидских источниках, а также современных научных трудах, что позволяет выявить роль культурного обмена в процессах региональной интеграции.

Ключевые слова: Караханиды, Центральная Азия, Индия, Газневиды, Шелковый путь, политические связи, культурный обмен, историческая география, торговые отношения.

Abstract: This article analyzes the political, cultural, and economic relations between Central Asia and India during the Karakhanid period (10th–12th centuries) from a historical and geographical perspective. It explores the political interactions between the Karakhanids and the Ghaznavids, the role of the Silk Road trade routes, and the exchange of knowledge and culture between the two regions. Based on Arabic and Persian sources as well as modern scholarship, the study highlights the significance of cultural exchange in shaping regional integration across Central and South Asia.

Keywords: Karakhanids, Central Asia, India, Ghaznavids, Silk Road, political relations, cultural exchange, historical geography, trade networks.

Kirish. Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilk musulmon turkiy sulolalardan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Ular X asr o‘rtalarida Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududlarida mustaqil davlat tuzib, o‘z siyosiy va madaniy markazlarini Balasog‘un, Kashgar, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar atrofiga

joylashtirganlar. Bu davrda Markaziy Osiyo nafaqat siyosiy, balki madaniy va savdo jihatdan ham keng tarmoqli xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Hindiston bilan bo‘lgan aloqalar mintaqaviy integratsiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar, asosan, G‘aznaviylar davlati orqali shakllangan. Ikkala mintaqa o‘rtasida siyosiy raqobat bilan bir qatorda iqtisodiy va madaniy hamkorlik ham mavjud bo‘lgan. Ushbu maqola ana shu aloqalarning tarixiy-geografik asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Qoraxoniylar davlati taxminan 840-yildan boshlab shakllana boshlagan va 999-yilda Somoniylar davlatining Movarounnahrdagi hukmronligini tugatgan. Davlatning asosiy markazlari Sharqiy Turkiston (Balasog‘un, Kashgar) va Movarounnahr (Samarqand, Buxoro) shaharlarida joylashgan edi. Ularning hududi g‘arbda Amudaryodan sharqda Yettisuv va Tarim havzasigacha, shimolda Tyanshan tog‘laridan janubda Hindukush etaklarigacha cho‘zilgan. Bu geografik joylashuv Qoraxoniylarga Ipak yo‘li savdosida muhim strategik ustunlik bergan. Aynan shu yo‘l orqali Hindiston bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Qoraxoniylar va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy aloqalar asosan G‘aznaviylar davlati orqali amalga oshgan. Mahmud G‘aznaviy (998–1030) davrida Hindistonning shimoliy hududlari (Panjob, Sind, Lahor) islomlashgan va G‘aznaviylar davlatining iqtisodiy markaziga aylangan edi. Shu davrda Qoraxoniylar bilan G‘aznaviylar o‘rtasida Movarounnahr va Xuroson ustidan siyosiy raqobat vujudga kelgan. Biroq bu raqobat ko‘p hollarda diplomatik muvozanat asosida davom etgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, XI asr boshlarida Qoraxoniy hukmdori Yusuf Qodirxon va Mahmud G‘aznaviy o‘rtasida elchilik aloqalari o‘rnatilgan (Bayhaqiy, *Tarix-i Bayhaqiy*). Bu holat ikki davlat o‘rtasidagi savdo va ilmiy almashuvlarga zamin yaratgan.

Buyuk Ipak yo‘li Qoraxoniylar davrida o‘zining eng muhim iqtisodiy arteriyasiga aylangan. Hindistonning shimoliy viloyatlaridan Markaziy Osiyoga ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar olib kelingan. Aksincha, Markaziy Osiyodan Hindistonga otlar, mo‘yna, metall buyumlar va ipak gazlamalar eksport qilingan. Kashgar va Balasog‘un shaharlarida hind savdogarlari uchun maxsus bozorlar mavjud bo‘lgan. Ularning ayrimlari Buxoro va Samarqand orqali Xuroson hamda Hindiston bilan savdo qilganlar. Bu jarayon Markaziy Osiyoda savdo madaniyatining rivojlanishiga, shaharlarning iqtisodiy markazga aylanishiga xizmat qilgan.

Qoraxoniylar va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar faqat iqtisodiy emas, balki ilmiy va madaniy sohada ham rivoj topgan. X–XI asrlarda yashagan buyuk alloma Abu Rayhon al-Biruniy Hindistonga borib, u yerdagi madaniyat, din, geografiya va ilm-fan haqida “Kitob al-Hind” asarini yozgan. Bu asar o‘sha davrda Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi ilmiy aloqalarning eng muhim mahsuli hisoblanadi. Bundan tashqari, Qoraxoniylar davrida islom madaniyatining Hindistonning shimoliy hududlariga kirib borishida markaziy osiyolik ulamolar va sufiylarning roli katta bo‘lgan. Ayniqsa, Turkiston va Hindiston o‘rtasidagi diniy-ma’rifiy

aloqalar keyinchalik Chishtiya va Naqshbandiya tariqatlarining Hindistonda keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Tarixiy geografiya jihatidan qaralganda, Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo (Hindiston) o‘rtasidagi tabiiy geografik ko‘prik vazifasini bajargan. Hindukush, Pomir va Tyanshan tizmalari osha o‘tgan savdo yo‘llari ikki mintaqani bog‘lab turgan. Tarixchi Istahriy va al-Muqaddasiy asarlarida bu yo‘llar “Turk yo‘li” deb nomlanib, u orqali har yili minglab savdogarlar harakatlangani qayd etiladi.

Qoraxoniylar davri (X–XII asrlar) Markaziy Osiyo tarixida siyosiy markazlashuv, iqtisodiy yuksalish va islom madaniyatining rivojlanish davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu davrda Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar faqat siyosiy raqobat yoki harbiy yurishlar bilan emas, balki savdo, madaniyat va ilm-fan sohalaridagi uzviy hamkorlik orqali ham rivojlangan.

Bu jarayonni chuqur o‘rganish uchun ko‘plab tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilingan. Quyida ularning asosiy ilmiy yondashuvlari, tahlil metodlari va xulosalari jamlangan.

Qoraxoniylar davlatining siyosiy asoslari va tuzilishi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri – B. A. Ahmedovning *“Qoraxoniylar davlati tarixi”* asaridir. Muallif Qoraxoniylar davlatining siyosiy shakllanish jarayonini, uning ikki asosiy markazi – Sharqiy va G‘arbiy qanotlari o‘rtasidagi boshqaruv tizimini tahlil qiladi. Ahmedov fikricha, Qoraxoniylar Markaziy Osiyo tarixida ilk turkiy-musulmon davlat bo‘lib, ular Somoniylar siyosiy merosini davom ettirgan holda o‘ziga xos siyosiy tizim yaratgan [Ахмедов 1965:212].

Tadqiqotchi olim N. Negmatov esa *“Markaziy Osiyo tarixi”* asarida Qoraxoniylar davlati geografik jihatdan G‘aznaviylar bilan to‘qnashganini, bu esa Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasida siyosiy raqobat bilan birga diplomatik aloqa ham kuchayganini ta’kidlaydi. U Qoraxoniylar-G‘aznaviylar munosabatlarini “raqobat va hamkorlik dialektikasi” sifatida baholaydi [Negmatov 1998: 356].

Shuningdek, Bayhaqiy (*Tarix-i Bayhaqiy*) va Gardiziy (*Zayn al-axbor*) kabi fors tilidagi manbalar ikki sulola o‘rtasidagi elchilik aloqalari, hududiy chegaralar va savdo masalalarini tarixiy faktlar asosida yoritadi .

Bayhaqiy yozishicha, Mahmud G‘aznaviy bilan Yusuf Qodirxon o‘rtasida elchilik aloqalari bo‘lgan, bu esa savdo va siyosiy munosabatlarga zamin yaratgan .

Qoraxoniylar davrining iqtisodiy tizimi Buyuk Ipak yo‘li bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Xorijlik olim R. Frye o‘z asarida Ipak yo‘lining XI–XII asrlarda faqat g‘arbiy yo‘nalish emas, balki janubiy – Hindiston tomonga ham faol ishlaganini ta’kidlaydi. Frye’ning fikricha, Qoraxoniylar davlati bu davrda “strategik tranzit zonasi” sifatida Markaziy Osiyo, Xitoy, Eron va Hindistonni bog‘lab turgan iqtisodiy markazga aylangan [Frye 1975:364].

Xorijlik tadqiqotchi olim A. Winkning uch jildlik monumental asarida Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning uzoq muddatli rivojlanishini tahlil qiladi. U Qoraxoniylar davrida savdo yo‘llarining ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lganini, Kashgar va Samarqand orqali Hindiston bilan faol tovar

almashuvi bo‘lganini yozadi. Wink shuningdek, Qoraxoniylar iqtisodiy tizimida hind savdogarlarining ishtiroki yuqori bo‘lganini qayd etadi [Wink 1990:425].

Shuningdek, arab geograflari Istahriy, al-Muqaddasiy va al-Idrisi asarlarida Qoraxoniylar davrida Movarounnahr orqali o‘tgan savdo yo‘llari haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Ularning yozishicha, Samarqand va Buxoro orqali Hindistonning shimoliy shaharlariga olib boruvchi karvon yo‘llari faol ishlagan, bu esa ikki mintaqa o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning intensivligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi madaniy aloqalar haqida eng muhim ma’lumotlar Abu Rayhon Beruniyning *“Kitob al-Hind”* asarida keltirilgan. Al-Beruniy Hindistonga borib, u yerdagi xalq, din, geografiya, tibbiyot va falsafa haqida keng qamrovli tadqiqot olib borgan. Uning asari Markaziy Osiyo olimining Hindiston sivilizatsiyasiga ilmiy yondashuvining eng yaqqol namunasidir. Bu, shubhasiz, ikki hudud o‘rtasidagi ilmiy almashuv darajasining yuqoriligidan dalolat beradi [Beruniy 1963:400].

B. Ahmedov ham Qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat va ilm-fan rivoji bilan bir qatorda, Hindiston bilan ilmiy va diniy aloqalar kuchayganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bu aloqalar keyinchalik sufiylik maktablari orqali davom etgan. Ayniqsa, Chishtiya va Naqshbandiya tariqatlari orqali Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasida diniy-madaniy aloqalar yanada mustahkamlangan.

Zamonaviy tadqiqotlardan A. Subtelny bu davrda Markaziy Osiyolik olimlarning Hindistondagi ilmiy muhitga kirib borishini “transregional intellektual almashuv” deb ataydi. Uning fikricha, Qoraxoniylar davrida boshlangan bu jarayon keyinchalik Boburiylar imperiyasida o‘z cho‘qqisiga yetgan [Subtelny 2007:312].

Qoraxoniylar davrining tarixiy geografiyasini o‘rgangan tadqiqotchilar, xususan, N. Negmatov va V. Bartoldning ishlari alohida e’tiborga loyiq. Bartoldning *“Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya”* nomli asarida Qoraxoniylar davrida Ipak yo‘li orqali o‘tgan geografik yo‘nalishlar batafsil tahlil qilinadi. U Qashg‘ar, Farg‘ona va Samarqand orqali o‘tgan yo‘llar Hindistonning shimoliy viloyatlari bilan iqtisodiy bog‘liqlikni ta’minlaganini ko‘rsatadi [Бартольд 1963:550].

Shuningdek, M. Hodgson *“The Venture of Islam”* asarida Qoraxoniylar davlatini “islomiy geografiyaning markaziy bo‘g‘ini” deb ataydi. Unga ko‘ra, aynan shu davrda islomiy dunyo xaritasida Hindistonning shimoliy hududlari Markaziy Osiyo bilan siyosiy va madaniy jihatdan integratsiyalasha boshlagan [Hodgson 1974:356].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi.

-Siyosiy jihatdan, Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar mintaqaviy barqarorlikni saqlagan.

-Iqtisodiy jihatdan, Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq ikki mintaqani iqtisodiy jihatdan bog‘lagan.

-Madaniy va ilmiy jihatdan, al-Beruniy kabi allomalar faoliyati ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi ilmiy almashuvning eng yorqin namunasi bo‘lgan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili Qoraxoniylar davrining Hindiston bilan aloqalari nafaqat o‘rta asr tarixining bir bo‘lagi, balki butun Osiyo tarixidagi sivilizatsiyalararo muloqotning asosiy ko‘prigi bo‘lganini isbotlaydi.

Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar ko‘p qirrali va uzoq muddatli bo‘lgan. Siyosiy raqobatga qaramay, ikki mintaqa o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik va madaniy almashuv kuchaygan. Ipak yo‘li orqali savdo-sotiq, ilmiy almashuv va diniy g‘oyalar tarqalishi mintaqaviy integratsiyani mustahkamlagan. Bu jarayon keyingi asrlarda ham – Xorazmshohlar, Temuriylar va Boburiylar davrida – Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi aloqalarning uzviy davomi sifatida davom etgan. Shu bois Qoraxoniylar davrini ikki mintaqa o‘rtasidagi sivilizatsion aloqalarning shakllanish bosqichi sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Б. А. Ахмедов. Қорахонийлар давлати тарихи. – Тошкент: Фан, 1965. – 212 б.

2. Н. Н. Негматов. История Средней Азии: С древнейших времен до эпохи Тимуридов. – Москва: Наука, 1998. – 356 с.

3. R. N. Frye. The Golden Age of Persia: The Arabs in the East. – London: Weidenfeld & Nicolson, 1975. – 364 p.

4. A. Wink. Al-Hind: The Making of the Indo-Islamic World. Vol. 1: Early Medieval India and the Expansion of Islam (7th–11th Centuries). – Leiden: Brill, 1990. – 425 p.

5. Абу Райхон Беруний. Китоб ал-Ҳинд (Ҳиндистон ҳақида китоб). – Бейрут: Дар ал-Кутуб ал-Илмия, 1963. – 400 б.

6. M. E.Subtelny. Central Asia in the Medieval Islamic World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 312 p.

7. В. В. Бартольд . Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Ленинград: Наука, 1963. – 550 с.

8. M. G. Hodgson. The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization. Vol. 2. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – 389 p.

VI SHO‘BA: G‘AZNAVIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFOIYASI

G‘AZNAVIYLAR DAVLATI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI

Oriental Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Koraboyev Murodjon Oldashovich

Annotatsiya: Maqola G‘aznaviylar sulolasi (977–1187) davlatining tashkil topishi, siyosiy-madaniy gullashi, tanazzuli va oxirgi davrlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, G‘aznaviylar tarixi bo‘yicha o‘rta asr manbalari (Bayhaqiy, Gardiziy, Utbi, Juzjoniy), XIX–XXI asr tadqiqotlari (Bosworth, Nazim, Habib, Nizomulmulk, o‘zbek va tojik olimlari) hamda zamonaviy yondashuvlarni muhokama qiladi. G‘aznaviylar davlatining turkiy xususiyatlari, Somoniylar merosi va Hindiston islomlashuvidagi roli alohida e’tibor markazida.

Kalit so‘zlar: G‘aznaviylar, Mahmud G‘aznaviy, Sabuktegin, Saljuqiylar, G‘uriylar, turkiy g‘ulomlar davlati, Hind yurishlari, Bayhaqiy, tarixshunoslik, islomlashuv.

Аннотация: Статья анализирует процесс формирования, расцвет, упадок и последние годы государства Газневидов (977–1187). Рассматриваются средневековые источники (Байхаки, Гардизи, Утби, Джузджани), исследования XIX–XXI вв. (Босворт, Назим, Хабиб, Низамульмульк, узбекские и таджикские учёные) и современные подходы. Особое внимание уделено тюркскому характеру государства, сомонийскому наследию и роли Газневидов в исламизации Индии.

Ключевое слово: Газневиды, Махмуд Газневи, Себуктегин, Сельджуки, Гуриды, тюркское мамлюкское государство, индийские походы, Байхаки, историография, исламизация.

Abstract: The article examines the formation, political and cultural heyday, decline, and final years of the Ghaznavid state (977–1187). It discusses medieval sources (Bayhaqi, Gardizi, Utbi, Juzjani), 19th–21st-century studies (Bosworth, Nazim, Habib, Nizam al-Mulk, Uzbek and Tajik scholars), and contemporary approaches. Special attention is given to the Turkic character of the state, the Samanid legacy, and the Ghaznavids’ role in the Islamization of India.

Keywords: Ghaznavids, Mahmud of Ghazni, Sebuktigin, Seljuks, Ghurids, Turkic slave dynasty, Indian campaigns, Bayhaqi, historiography, Islamization.

G‘aznaviylar davlati (977–1187) XI asr boshlarida O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistonni qamrab olgan eng qudratli musulmon imperiyalaridan biri edi. Uning poytaxti G‘azna shahri o‘sha davrda Bag‘dod va Qohiradan keyingi uchinchi muhim madaniy markazga aylandi. Davlatning asoschisi hisoblangan Sebuktigin va uning o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy nomi bilan bog‘liq bo‘lgan bu sulola nafaqat harbiy kuch, balki madaniy homiylik bilan ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Shu sababli G‘aznaviylar tarixi nafaqat siyosiy voqealar, balki turk-xuroson madaniy sintezi, islomning Hindistonga kirib borishi va o‘rta asr davlat boshqaruvi tizimi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Davlatning paydo bo‘lishi va ilk bosqichlari (962–998) shu davrlarga to’g’ri keladi.

G‘aznaviylar davlatining ilk ildizlari Somoniylar davridagi turkiy g‘ulomlar (mamluklar) harbiy elitasiga borib taqaladi. 962-yilda somoniy amir Mansur I tomonidan G‘aznaga noib etib tayinlangan Alptegin bu hududni de-fakto mustaqil boshqara boshladi.[1, 44-48] Alptegin vafotidan keyin uning g‘ulomi Sebuktigin (977–997) hokimiyatni qo‘lga olib, 994-yilda Xalif Qodir Billohdan “Nosiruddin” va “Yaminuddavla” unvonlarini oldi. Bu unvonlar davlatning rasmiy mustaqilligini tan olish edi.[2, 87-89]

Sebuktigin davrida G‘azna davlati Xuroson, Bust, Qandahor va Kobulni o‘z ichiga oldi. U Jaypal qabilasi va hind shohliklariga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar olib bordi. Sebuktigin o‘limi oldidan o‘g‘li Ismoilni voris qilib tayinlagan bo‘lsa-da, katta o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy (998–1030) ukasi Ismoilni mag‘lub etib, taxtga o‘tirdi.

Mahmud G‘aznaviy davri(998–1030)da davlat eng yuqori cho‘qqiga erishadi.

Mahmud G‘aznaviy davlati eng katta hududiy kengayishga erishdi:

- 999-yilda Somoniylar davlati tugatilib, Xuroson to‘liq qo‘lga kiritildi.

- 1001–1027 yillar oralig‘ida 17 marta Hindistonga yurish qilib, Kannauj, Mathura, Somnath ibodatxonasi kabi muqaddas joylarni talon-taroj qildi. Bu yurishlar nafaqat boylik keltirdi, balki islomning Hindistonda keng tarqalishiga zamin yaratdi. [3, 512-528; 7, 36-48]

- 1017-yilda Xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’munni ag‘darib, Xorazmni qo‘shib oldi.

- 1029-yilda Ray shahrini Buyiylardan tortib oldi.

Mahmudning saroyida Beruniy, Firdavsiy, Unsuriy, Farruxiy, Bayhaqiy kabi buyuk olim va shoirlar yashadi. Firdavsiyning “Shohnoma”si aynan Mahmudga bag‘ishlangan edi (garchi keyinchalik shoir saroydan norozi bo‘lib ketgan bo‘lsa ham).

Mahmudning o‘g‘li Mas’ud I (1030–1041) davrida imperiya ichki nizolar va tashqi tahdidlarga duch keldi. 1040-yilda Dandanoqon jangida Saljuqiy Tug’rulbek boshchiligidagi turkmanlar g‘alaba qozonib, Xuroson va G‘aznani yo‘qotishga majbur qildi. [1, 253-271; 4, 112-119] Bu mag‘lubiyat G‘aznaviylar davlatining “Xuroson davri”ning tugashi va Hindistonga yo‘nalishi boshlanishiga sabab bo‘ldi.

XII asrda davlat hududi faqat Panjob va Sindgacha cheklandi. Bahromshoh (1117–1157) davrida G‘uriylar bosqini boshlandi. 1150-yilda G‘azna yoqib yuborildi, poytaxt Lahorga ko‘chirildi. Oxirgi hukmdor Xusrov Malik 1186-yilda G‘uriylar tomonidan asir olinib, davlat tugatildi.[1, 295-302; 5, 184-189]

G‘aznaviylar davlat markazlashgan harbiy monarxiya edi. Asosiy tayanch – turkiy g‘ulomlardan tashkil topgan saroy gvardiyasi. [8, 142-158; 9, 67-94] Iqtisodiyotning asosiy manbai Hindistondan keltirilgan o‘lja va soliq edi. Mahmud davrida G‘azna shahri 1 million aholiga ega bo‘lgan deb taxmin qilinadi. [1, 132-135]

G‘aznaviylar tarixshunosligida o‘rta asr manbalari alohida manba sifatida qaraladi.

- Abu Nasr Utbiyning “Tarixi Yaminiy” (Mahmud davri rasmiy tarixi)

- Gardiziyning “Zaynut-taxbor”

- Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy” – eng muhim va ishonchli manba

- Mirxond va Xondamir asarlari

XIX–XX asr tadqiqotlarida ham G‘aznaviylar tarixshunosligi ancha keng o‘rganilgan:

- Muhammad Nazim (1931) – “The Life and Times of Sultan Mahmud of Ghazna”– ingliz tilidagi ilk fundamental tadqiqot

- C.E. Bosworth (1963) – “The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran” – eng muhim zamonaviy asar

- Habib Muhammad (1951) – “Sultan Mahmud of Ghaznin”

O‘zbek va tojik olimlaridan bir qanchasi G‘aznaviylar tarixshunosligi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib brogan: A. Yoqubovskiy, B. Ahmedov, R. Gulyamov, O. Ochilov, Sh. Kamoliddin, M. Is’hoqov kabi olimlar G‘aznaviylarni Somoniylar davlatining mantiqiy davomi sifatida talqin qilganlar. So‘nggi yillarda Sh. Kamoliddin va D. Jo‘rayevlar G‘aznaviylarning turkiy xususiyatlariga alohida e’tibor berganlar.

Xulosa

G‘aznaviylar davlati XI asrda turk-xuroson madaniy sintezining eng muvaffaqiyatli namunasi bo‘ldi. U Somoniylar madaniy merosini qabul qilib, uni Hindistonga yetkazdi va keyinchalik Dehli sultonligi uchun zamin yaratdi. Harbiy jihatdan qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, madaniy va diniy ta’siri uzoq davom etdi. G‘aznaviylar tarixi shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr musulmon dunyosida davlatning mustahkamligi nafaqat harbiy kuchga, balki madaniy homiylikka ham bog‘liq edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran 994–1040. Edinburgh, 1963.

2. Назим М. The Life and Times of Sultan Mahmud of Ghazna. Cambridge, 1931.

3. Байхакий Абу-л-Фазл. Тарихи Байхакий (Тарихи Мас’удий). Тошкент: Фан, 1962 (таржима).

4. Камолиддин Ш. Г‘азнавийлар давлати тарихига доир манбалар. Тошкент, 2006.

5. Ахмедов Б. Г‘азнавийлар давлати // Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2000.

6. Ғуломов Р. Г‘азнавийлар даврида Хуросон ва Мовароуннаҳр. Тошкент, 1999.

7. Habibullah A.B.M. The Foundation of Muslim Rule in India. Lahore, 1961.

8. Nizomul Mulk. Siyosatnoma (Siyar al-Muluk). Tehran, 1375 h.q.

9. Жўраев Д. Г‘азнавийлар давлатининг туркий хусусиятлари. Тошкент, 2021.

10. Is’hoqov M. O‘rta asr Sharq davlatlari tarixshunosligi. Samarqand, 2018.

VII SHO‘BA: SALJUQIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

SALJUQIYLAR DAVLATINING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI (X ASR OXIRI – XI ASR BOSHLARI)

Sapayeva Marxabo Achilovna
Oriental universiteti Tarix mutaxassisligi 2-bosqich talabasi
Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchi-stajyor
Marhabosulton1984@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Saljuq sub o‘g‘lining hayoti, O‘g‘uz yabg‘u davlatidagi o‘rni, Jand shahriga ko‘chishi va uning sabablari, Saljuq oilasining dastlabki harbiy-siyosiy faoliyati hamda Saljuqiylar davlatining shakllanishiga asos bo‘lgan jarayonlar batafsil tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor Saljuq sub o‘g‘lining shaxsiyati va uning avlodlari orqali yaratilgan ulkan imperiyaning ilk poydevoriga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Saljuq sub o‘g‘li, O‘g‘uz yabg‘u davlati, Jand, Duqoq, Arslon yabg‘u, Chig‘il bek, Tog‘rul bek, ko‘chmanchi turklar, Xuroson, Saljuqiylar imperiyasi.

Аннотация: В статье подробно анализируется жизнь Сельджук б. Дукана, его положение в Огузском ябгу-государстве, причины и обстоятельства переселения в Дженд, начальная военно-политическая деятельность семьи Сельджукидов и процессы, заложившие фундамент будущего Великого Сельджукского государства. Основное внимание уделяется личности Сельджук-бея и роли его потомков в создании огромной империи.

Ключевые слова: Сельджук б. Дукак, Огузское ябгу-государство, Дженд, Дукак, Арслан-ябгу, Чагры-бек, Тогрул-бек, кочевые тюрки, Хорасан, империя Сельджукидов.

Abstract: The article provides a detailed analysis of the life of Seljuq b. Duqaq, his position within the Oghuz Yabghu state, the reasons and circumstances of his migration to Jand, the early military-political activities of the Seljuq family, and the processes that laid the foundation for the emergence of the Great Seljuq Empire. Particular attention is paid to the personality of Seljuq Bey and the pivotal role his descendants played in establishing one of the largest medieval Turkic empires.

Keywords: Seljuq b. Duqaq, Oghuz Yabghu state, Jand, Duqaq, Arslan Yabghu, Chaghri Beg, Tughril Beg, nomadic Turks, Khorasan, Seljuq Empire.

I. Saljuqiylar davlatining tarix sahnasiga chiqishi

X asrning ikkinchi yarmida Sirdayo bo‘ylarida va Orol-Qizilqum oralig‘ida markaziy hokimiyat Jand shahrida joylashgan O‘g‘uz yabg‘u davlati edi. Bu davlat o‘g‘uz qabilalarining 24 ta bo‘limidan iborat konfederatsiya bo‘lib, boshida “yabg‘u” unvonli hukmdor turardi. Davlatning asosiy qudrati ko‘chmanchi harbiy

aristokratiya – beglarga tayanardi. Saljuq oilasi aynan shu davlatning eng nufuzli harbiy oilalaridan biri edi[1, 124-b.].

Saljuqning otasi Duqoq (Dukak) temirchi (temir yoqali) degan ma’noda “Duqoq” laqabini olgan va yabg‘u saroyida yuqori lavozim – suboshi (armiya boshlig‘i) unvoniga ega bo‘lgan[2, 89-b.]. Duqoqning o‘limidan keyin (taxminan 960–970-yillar) bu lavozim uning o‘g‘li Saljuqqa o‘tdi. Saljuq sub o‘g‘li yabg‘u Ali xon davrida (970–990-yillar) davlatning eng qudratli shaxslaridan biriga aylandi.Saljuqning yabg‘u bilan munosabati dastlab ittifoqchilik xususiyatiga ega bo‘lgan. Biroq yabg‘u Shohmalik (taxminan 990–1000-yillar) davrida markaziy hokimiyat va Saljuq oilasi o‘rtasida ziddiyatlar boshlandi. Sabab – Saljuqning o‘z qo‘shinini mustaqil boshqarishi va islom dinini qabul qilishi edi[3, 156-b.].

Taxminan 985–990-yillarda Saljuq oilasi o‘ziga qarashli qabilalar bilan birga Sirdayoning quyi oqimidan Jand shahriga ko‘chib o‘tdi. Bu ko‘chishning asosiy sabablari quyidagilar edi:

1. Yabg‘u bilan siyosiy ziddiyatlar: Saljuqning islomni qabul qilishi va o‘z qo‘shinini mustaqil boshqarishi markaziy hokimiyatni bezovta qildi[4, 78-b.].

2. Iqtisodiy omillar: Jand shahri savdo yo‘llarining muhim nuqtasi bo‘lib, qishloq va yaylovlar jihatidan boy edi.

3. Harbiy-strategik sabablar: Jand Xorazm va Movarounnahrga yaqin joylashgan bo‘lib, yangi yurishlar uchun qulay baza edi.

4. Diniy omil: Saljuqning islomni qabul qilishi uni mahalliy musulmon aholi bilan yaqinlashtirdi.

Jandda Saljuq o‘ziga xos mustaqil knyazlik tashkil etdi. U “Malik ul-ghuziyya” (o‘g‘uzlar maliki) unvoni bilan tanildi[5, 201-b.].

Saljuq taxminan 1007–1009-yillarda Jandda vafot etdi va o‘sha yerda dafn qilindi (hozirgi Qozog‘iston hududida). Uning to‘rt o‘g‘li – Mikoyil, Isroil (Arslon), Muso va Yusuf (Inal) qoldi. Eng muhimi, Mikoyilning o‘g‘illari Chag‘ri bek va Tog‘rul bek keyinchalik imperiyani boshqargan.

Saljuqning asosiy merosi:

- O‘z qabilasini islomlashtirish va sunnat yo‘lida sodiq bo‘lishga undash;
- Harbiy tashkilotchilik qobiliyati: 10–15 ming kishilik mustaqil qo‘shin yaratish;
- O‘g‘uz ko‘chmanchilarini janubga – Xurosonga yo‘naltirish strategiyasini belgilab berish.

Saljuqning o‘limidan keyin uning nabirasi Tog‘rul bek 1037-yilda Nishopurda “sulton” unvonini olib, rasman Saljuqiylar davlatini e’lon qildi. Shunday qilib, Saljuq sub o‘g‘li shaxsan imperiya yaratmagan bo‘lsa-da, uning oilasi orqali o‘rta asrlarning eng qudratli turkiy-musulmon davlatlaridan biri vujudga keldi[6, 234-b.].

II. Saljuq oilasining ilk harbiy yurishlari (1000–1035 yy.)

Saljuqning o‘g‘li Isroil (Arslon yabg‘u) va nabiralari Chag‘ri va Tog‘rul 1010–1030-yillarda Xorazm va Xurosonga bir necha marta yurishlar uyushtirdilar. 1025-yilda Arslon yabg‘u G‘aznaviy sultoni Mahmud tomonidan asir olinib, Hindistonga surgun qilindi. Bu voqea Saljuqiylarning G‘aznaviylarga qarshi kurashini yanada kuchaytirdi[7, 167-b.].

III.Dandanakon jangi.

XI asr boshlarida Markaziy Osiyo va Xuroson hududida ikki yirik siyosiy kuch – G‘aznaviylar davlati va yangi ko‘tarilayotgan Saljuqiy o‘g‘uzlari o‘rtasida keskin ziddiyat vujudga keldi. 1040-yilgi Dandanakon jangi bu ziddiyatning yuqori cho‘qqisi bo‘ldi va natijada G‘aznaviylar imperiyasi Sharqiy Xurosondan butunlay siqib chiqarildi. Ushbu jang nafaqat harbiy, balki sivilizatsion burilish nuqtasi hamdir: u ko‘chmanchi turkiy qabilalarning o‘troq eroniy madaniyat ustidan g‘alaba qozonishining ramziy boshlanishi edi.

1037-yilda Saljuqiy rahbarlari To‘g‘rul va Chag‘ri beklar G‘aznaviylar sultoni Mas‘ud I ga yiliga 700 ming dinor soliq to‘lash sharti bilan Niso, Farava va Dehistonni o‘z tasarrufiga olgan edilar[8, B-132]. Biroq 1038-yilda Mas‘udning Nishopurga qaytishi va Saljuqiylarga qarshi qattiq choralar ko‘rishga qaror qilishi munosabatlarni keskinlashtirdi. 1040-yil bahorida Mas‘ud 50–60 ming kishilik ulkan qo‘shin bilan Xurosondan chiqib, Saljuqiylarni butunlay yo‘q qilish maqsadida yurish boshladi.

Qo‘shinlarning soni va tarkibi

G‘aznaviylar qo‘shini:

- 50–60 ming kishi (Bayhaqiy ma’lumoti);
- 100 tagacha jang fili;
- Og‘ir zirhli g‘ulomlar, hind va xurosonlik piyodalar.

Saljuqiylar qo‘shini:

- 16–20 ming chavandoz (taxminiy);
- Faqat otliq qo‘shin, deyarli barchasi yengil otliq kamonchilar;
- O‘g‘uz va turkman qabilalari.

Jang Marvdan 3 farsax (taxminan 18 km) shimoli-sharqda, Dandanakon qal‘asi yaqinida bo‘lib o‘tdi. Saljuqiylar klassik ko‘chmanchi taktikasidan – “to‘da va yonbosh urush” (turkiy: tulug‘ma) usulidan ustalik bilan foydalandilar: oldinga chiqib o‘q otib, so‘ng orqaga chekinib, dushmanni suvsiz cho‘lga tortdilar. Uchinchi kuni G‘aznaviylar qo‘shini suvsiz va och qoldi, intizom buzildi. 25-may kuni Saljuqiylarning hal qiluvchi hujumi G‘aznaviylar armiyasini butunlay tor-mor qildi.

Jang natijalari va oqibatlari

- Mas‘ud I qochib, Hindistonga yo‘l oldi;
- 1040-yil oxirigacha butun Xuroson Saljuqiylar tasarrufiga o‘tdi;
- G‘aznaviylar davlati faqat Panjob va Lahorda saqlanib qoldi;
- Saljuqiy imperiyasining asosi qo‘yildi (1055-yilda Bag‘dodni egallashgacha yetadi).

Dandanakon jangi XI asrda Yevroosiyo bo‘ylab ro‘y bergan “ko‘chmanchi kontrrevolyutsiya”ning eng muhim bosqichlaridan biridir. U Somoniylar-G‘aznaviylar davridagi eroniy-o‘troq madaniyatning ustunligini tugatdi va turkiy-ko‘chmanchi harbiy tizimning g‘alabasini ta’minladi. Shu bilan birga, Saljuqiylar keyinchalik eroniy-byurokratik an’analarni o‘zlashtirib, “sunniy uyg‘onish”ning asosiy tashkilotchilariga aylanishdi.

III. Saljuqiylar davlatining shakllanishiga asos bo‘lgan omillar

1. Kuchli oilaviy-harbiy tuzum (beglik);

2. Islom dinini qabul qilish orqali mahalliy fors-tojik aholi bilan ittifoq;

3. G‘aznaviylar davlatining ichki zaifligi;

4. O‘g‘uz ko‘chmanchilarining demografik bosimi.

Xulosa

Saljuq sub o‘g‘li (taxminan 940–1007/09) o‘z hayoti davomida ulkan imperiya yaratmagan bo‘lsa-da, uning Jandga ko‘chishi, o‘z qo‘shinini mustaqil boshqarishi, islomni qabul qilishi va avlodlariga qoldirgan harbiy-siyosiy strategiyasi XI asrning o‘rtalarida butun Yaqin va O‘rta Sharqni qamrab olgan Saljuqiylar imperiyasining asosiy poydevori bo‘ldi. Saljuqning shaxsiy hayoti va faoliyati o‘g‘uz ko‘chmanchilaridan markazlashgan musulmon turk davlati sari o‘tishning ramziy boshlanishi edi. Saljuq sub o‘g‘lining vorislari To‘g‘rul bey va Chag‘ri bey Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish uchun shaxdam harbiy harakatlar olib boradilar. To‘g‘rulbey tomonidan g‘aznaviylarga qarshi harbiy harakatlar o‘z samarasini beradi. Dandanakon jangidan so‘ng saljuqiylar Movarounnahr tarixida muhim o‘rin egallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. I. М., 1963.

2. Bosworth C.E. The Political and Dynastic History of the Iranian World (A.D. 1000–1217) // The Cambridge History of Iran. Vol. 5. Cambridge, 1968.

3. Ibn al-Athīr. Al-Kāmil fī al-tārīkh. Beyrut, 1965, j. 9.

4. Agajanov S.G. Ocherki istorii oguzov i turkmen Sredney Azii IX–XIII vv. Ashxabad, 1969.

5. Кашгарий Махмуд. Девону луғотит турк. Тошкент, 1960–1963, 3 жилд.

6. Pritsak O. Die Herkunft der Seldschuken // Oriens, 1952, № 5.

7. Босворт К.Э. Газневиды: их империя в Афганистане и Восточном Иране. М., 1971.

8. Abul-Fazl Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy (Tārikh-e Bayhaqi). Tahran: Markaz-i nashr-i miras-i maktub, 2011.

9. Golden P.B. The Q’iniq Tribe and the Seljuqs // Archivum Eurasiae Medii Aevi, 1988, № 7.

10. Каримов Э., Тошкент давлат шарқшунослик университети илмий мақолалари тўплами, 2020.

VIII SHO‘BA: XORAZMSHOHLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFOIYASI

XORAZMSHOHLAR SALTANATINING TARIXIY-SIYOSIY GEOGRAFIYASI

Raximov Sherbek Kamolovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayor
rahimovserbek305@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazmshohiylar davlatining shakllanishi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, hamda uning tanazzuliga olib kelgan omillar tahlil qilingan. Unda Anushteginiylar sulolasining (1097–1231) Xorazm, Eron va Kavkazorti hududlarida o‘rnatgan hukmronligi, shuningdek, Qutbiddin Muhammad, Otsiz, Alovuddin Takash va Muhammad Xorazmshohlarning davlatni mustahkamlash yo‘lidagi faoliyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida XII–XIII asr boshlarini Xorazmshohiylar davlatining “oltin davri” deb atash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohiylar davlati, Anushteginiylar sulolasi, Otsiz, Muhammad Xorazmshoh, Turkon xotun, Saljuqiylar, mo‘g‘ullar bosqini, madaniy yuksalish, “oltin davr”.

Аннотация: В статье анализируются становление, политическое и социально-экономическое развитие государства Хорезмшахов, а также факторы, приведшие к его упадку. Особое внимание уделяется правлению династии Ануштегинидов (1097–1231) в Хорезме, Иране и Закавказье, а также деятельности хорезмшахов Кутбиддина Мухаммада, Атсыза, Аловуддина Такаша и Мухаммада по укреплению государства. В результате исследования научно обосновано называть XII – начало XIII веков «золотым веком» государства Хорезмшахов.

Ключевые слова: Государство Хорезмшахов, династия Ануштегинидов, Отсиз, Мухаммад Хорезмшах, Туркон-хатун, Сельджуки, монгольское нашествие, культурный расцвет, «золотой век».

Abstract: This article analyzes the formation, political and socio-economic development of the Khorezmshah state, as well as the factors that led to its decline. It highlights the rule of the Anushteginid dynasty (1097–1231) in Khorezm, Iran, and Transcaucasia, as well as the activities of Qutbiddin Muhammad, Atsiz, Alovuddin Takash, and Muhammad Khorezmshahs in strengthening the state. As a result of the research, it is scientifically justified to call the 12th–early 13th centuries the “golden age” of the Khorezmshah state.

Keywords: Khwarazmshah state, Anushteginid dynasty, Atsiz, Muhammad Khwarazmshah, Turkan Khatun, Seljuks, Mongol invasion, cultural prosperity, “Golden Age”.

Xorazmshohiylar davlati tushunchasi asosan qadimiy va boy tarixga ega Xorazm yurtiga nisbatan ishlatiladi. Geografik jihatdan nihoyatda qulay joylashuvi, xalqaro karvon yo‘llari tutashgan markaz sifatida Xorazmni badavlat va obod o‘lkaga aylantirgan. Bu zamin qadimdan madaniyat va hunarmandchilik markazi sifatida mashhur bo‘lgan.

Xorazmshohlar davlatida Anushteginiylar sulolasi (1097–1231) hukmronlik qilgan bo‘lib, ular faqat Xorazmda emas, balki Eron va Kavkazorti hududlarida ham o‘z ta’sirini o‘rnatgan qudratli sulola edi. Ular qudratga kelishidan avval esa Xorazm Saljuqiylar tasarrufida bo‘lgan.

Sulolaning asoschisi Anushtegin bo‘lib, uning davrida Xorazm gullab-yashnagan, iqtisod va madaniyat rivoj topgan. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, XI–XII asrlarda bu o‘lkada temirchilik, kulolchilik, shishasozlik va qurilish kabi kasb-hunarlar yuksak darajada rivojlangan. [Yuldosheva 2023:356]

Tarix sahifalariga nazar tashlasak, Xorazm hududi IX–X asr oxirigacha Somoniylar davlatining tarkibida bo‘lgan. Biroq X asr oxiri va XI asr boshlariga kelib, Xorazm hokimi Ma’mun I hamda uning o‘g‘li Ali ibn Ma’mun Somoniylar davlati qulagach, mustaqil davlat barpo etish istagida harakat boshlaydilar. Ammo o‘sha davrda Movarounnahrda qudratli Qoraxoniylar, Xurosonda esa kuchli G‘aznaviylar hukmron edi. Shu bois Xorazm davlati ularning oldida ojiz bo‘lib, ko‘pincha Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Mas’udga qaram holda yashagan.

Keyinchalik G‘aznaviylar davlati inqirozga yuz tutib, Xurosonda Saljuqiylar hukmronligi o‘rnatilgach, Xorazm dastlab mustaqil siyosat yuritishga urindi. Ammo bu holat uzoqqa cho‘zilmadi – tez orada Xorazm Saljuqiylarga tobe bo‘lib qoldi. Shunday bo‘lsa-da, xalqning qalbida mustaqillikka intilish kuchaydi, ular o‘z davlatchiligini tiklash yo‘lida harakat boshladilar. [Saidboboyev 2010:112]

Xorazmning mustaqillik uchun kurashi XII asrning ikkinchi choragida boshlangan. Ayniqsa, Saljuqiylar hukmdori Malikshoh davrida Xorazmni mustaqil boshqarish huquqini qo‘lga kiritgan sarkarda – Anushtegin o‘z sulolasiga asos soldi. U turk qavmlaridan chiqqan bo‘lib, uning avlodlari – Qutbiddin Muhammad (1097–1127) va Jaloliddin Otsiz (1127–1156) davrida Xorazm siyosiy jihatdan kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yuksala bordi.

Anushteginiylar sulolasi tobora mustahkamlanar ekan, bu jarayonda Qutbiddin Muhammad muhim rol o‘ynadi. Garchi u “Xorazmshoh” unvonini qayta tiklab, nom qozongan bo‘lsa-da, aslida u hanuz Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibi sifatida faoliyat yuritgan.

Xorazmning to‘liq mustaqillikka erishish yo‘lidagi burilish esa uning o‘g‘li – Otsiz (1127–1156) nomi bilan bog‘liq. U Sulton Sanjar tomonidan Xorazm noibi etib tayinlangan bo‘lib, aynan uning davrida Xorazm o‘z siyosiy mustaqilligiga yaqinlashgan edi. [Bobobekov 2007:65]

Xorazmshoh Otsiz dastlab otasi singari saljuqiylarga sadoqat bilan xizmat qilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, agar Otsiz hukmronligining dastlabki davrida (1127–1138) u Sulton Sanjarga chin dildan itoat etgan bo‘lsa, keyingi yillarda (1138–1156) u o‘zining azaliy orzusi – mustaqil Xorazm davlatini barpo etishga erishgan. Otsiz mavjud imkoniyatlardan ustalik bilan foydalangan holda, Xorazmshohlar davlatining hududini kengaytirish siyosatini boshlab berdi. U

tadbirkor hukmdor sifatida Sulton Sanjar farmonlariga bo‘ysunmay, Saljuqiylarga qaram bo‘lgan bir qancha yerlarni o‘z tasarrufiga kiritdi. [Bobobekov 2007:66]

O‘rta asr tarixchilari – Rashididdin, Ibn al-Asir, an-Nasaviy va boshqalar Otsiz faoliyatini yuksak baholab, uni “Saljuqiylar saltanatining ustunlaridan biri” deb ta’riflaganlar.

Otsiz vafotidan so‘ng hokimiyat uchun kurashlar boshlandi. Bu kurashda uning katta o‘g‘li Elarslon (1156–1172) g‘olib chiqib, taxtni egalladi. U otasining siyosatini davom ettirib, ayniqsa Xuroson mintaqasiga katta e’tibor qaratdi. Ammo hukmronligining so‘nggi yillarida Xorazm Qoraxoniylar va Qoraxitoylar bosqiniga uchradi. Shu yurishlardan birida Elarslon kasallikka chalinib vafot etdi (1172).

Shundan so‘ng uning o‘g‘illari Alovuddin Takash va Sultonshoh Mahmud o‘rtasida uzoq davom etgan taxt uchun kurashlar boshlandi. Nihoyat, 1172-yil dekabrida Takash Qoraxitoylar malikasi Chen Tiyon yordami bilan rasman taxtni egalladi. Biroq aka-uka o‘rtasidagi nizo yana bir muddat davom etdi. Takash o‘z davrida faol istilochilik yurishlarini olib borib, Afg‘oniston va Eronning katta qismini Xorazm qo‘liga kiritdi. Natijada Xorazmshohlar davlati hududi ikki baravar kengaydi. U vafot etgach, o‘g‘li Muhammad Xorazmshoh (1200–1220) taxtga chiqdi. [Matlyubov 2016:16]

Takash o‘z vorisiga markazlashgan, mustahkam davlat va qudratli qo‘shin meros qoldirdi. Muhammad Xorazmshoh davrida esa davlat yanada yuksaldi va Yaqin Sharqdagi eng qudratli saltanat darajasiga yetdi. Bu davrda Xorazmshohlar davlati Kaspiy dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha, Kavkazdan Hindikush tog‘larigacha cho‘zilgan ulkan hududni o‘z ichiga olgan edi.

Davlatning poytaxti Urganch shahri bo‘lib, u Sharqning yirik madaniy va savdo markazlaridan biriga aylandi. 1206-yildan boshlab Movarounnahrni Qoraxitoylar qaramligidan ozod etish harakati boshlandi, 1210-yilda Talos vodiysi jangida qoraxitoylar mag‘lubiyatga uchradi va Yettisuvgacha bo‘lgan yerlar Xorazm tasarrufiga o‘tdi. [Matlyubov 2016:17]

Garchi Sulton Muhammad Xorazmshoh kuchli, markazlashgan davlat hukmdori sifatida tanilgan bo‘lsa-da, tarixchilar ta’kidlashicha, u onasi Turkon xotunning ta’siri ostida bo‘lgan. U onasiga qarshi hech qachon chiqmagan. Tarixchi an-Nasaviy bu holni ikki sabab bilan izohlaydi:

- birinchidan, sulton onasining mehrini qadrlagan;
- ikkinchidan, mamlakatdagi amirlarning aksariyati onasining urug‘idan bo‘lgan.

Turkon xotun “Jahon hokimi” degan yuksak laqab bilan tanilgan. Uning shaxsiy muhrida shunday bitik yozilgan edi:“Ismat ud-dunyo vad-din Ulug‘ Turkon malika niso al-olamiyon”. Xorazmshoh saroyida 27 ta hukmdor va ularning vakillari sadoqat ramzi sifatida itoat kamarlarini bog‘lab, oltin nog‘oralar chalgan, davlat hukmdori esa “Iskandari Soniy” (Ikkinchi Iskandar) deb ulug‘langan. Biroq tashqaridan qudratli ko‘ringan bu ulkan saltanat aslida ichki jihatdan mustahkam emas edi. Natijada, bu davlat tashqi bosimga – ayniqsa, mo‘g‘ullar bosqiniga bardosh bera olmadi. Muhammad Xorazmshoh o‘zidan keyin o‘g‘li Jaloliddin Manguberdiga (1220–1231) parchalanib ketgan, kuchsiz saltanatni meros qoldirdi. [Islomova 2023:132]

Tarixiy manbalarda Jaloliddin Manguberdi haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Ulardan eng to‘liq va ishonchlisi tarixchi Shahobiddin Muhammad Nasafiy tomonidan yozilgan. 1231-yilda Jaloliddinning vafoti bilan nafaqat buyuk lashkarboshi hayotdan ko‘z yumdi, balki xorazmshohlar unvoni va butun sulola ham o‘z yakuniga yetdi.

Xorazm o‘zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqqan, qudratli davlat sifatida tanilgan paytda, uning atrofida qang‘li, qipchoq, turkman va tub xorazm (sart) qabilalari birlashib, Bag‘dod xalifaligiga qarshi yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Ammo aynan shu paytda, shafqatsiz Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul lashkarlari Xorazm yerlariga vahshiylarcha bostirib kiradi. Tashqaridan qudratli ko‘ringan bu davlat ichkarida chuqur qarama-qarshiliklar, nizolar bilan zaiflashgan edi. Natijada, bu bosqin Xorazmshohlar davlatining tanazzuliga sabab bo‘ldi va buyuk Xorazmshohlar sulolasi tarix sahnasidan butunlay chiqib ketdi.

Xorazm davlatchiligining rivojlanishida muhim burilish yasagan XII- XIII asr boshlari davlatning tabir joiz bo‘lsa “oltin davri” bo‘ldi. Ushbu davr Xorazmda anushteginiylar sulolasidan chiqqan chiqqan hukmdorlar Otsiz, Takash va Sulton Muhammadxon Xorazmshoh mamlakatni boshqarishning yanada mukammal tizimi, tartiboti va uslublarini yarata olganligi bilan yanada ahamiyatli hisoblanadi. Shunga qaramasdan davlat sarhadlari naqadar bepoyon o‘lkalarga tutashib ketmasin, biroq haqiqiy markazlashgan davlatchilik asoslari yaratilmadi. Xolisona yondoshilsa, Xorazmshohlar davlati o‘z davrining ilm-fan va madaniyati rivoji bilan avlodlar yodida o‘chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldosheva 2023 – Yuldosheva B. IX–XIII asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-iqdisodiy voqealar tarixiy-geografiyasi. Gospodarka i Innowacje. 41, 2023.

2. Saidboboyev 2010 - Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent. “Noshir”, 2010.

3. Bobobekov 2007 - Bobobekov X. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent. “Fan”, 2007.

4. Matlyubov 2016 - Matlyubov A. 55 sulola tarixi. – Toshkent. “A.Navoiy”, 2016.

5. Islomova 2023 - Islomova S. IX-XIII asrlarda Movarounnahrning siyosiy-tarixiy geografiyasi. Miasto Przyszłości, 41, 2023.

XORAZMSHOHLAR DAVRIDA TARIXIY GEOGRAFIYA

Muallif: Allaberganov Azizbek Saparboyevich
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
azizbekallaberganov1985@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlati (XI asr oxiri – XIII asr boshi) tarixiy geografiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xorazm vohasining tabiiy va iqtisodiy-geografik xususiyatlari, davlat hududining kengayishi, hamda Amudaryo

va Kaspiy dengizi oralig‘idagi strategik joylashuvining ahamiyati yoritilgan. Sug‘orish tizimlari, savdo yo‘llari va Urganch (Ko‘hna Urganch) kabi shaharlarning Ipak yo‘lidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqolada o‘rta asr arab va fors manbalari – al-Biruniy, al-Istaxriy, Yoqut al-Hamaviy asarlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xorazmshohlar davri Markaziy Osiyoda siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar, tarixiy geografiya, Markaziy Osiyo, Amudaryo, Urganch, Ipak yo‘li, al-Beruniy, sug‘orish tizimi, o‘rta asr davlati, hududiy kengayish.

Аннотация: В данной статье анализируется историко-географическое положение государства Хорезмшахов (конец XI – начало XIII века). В исследовании рассматриваются природно-экономические особенности Хорезмской долины, расширение территории государства, а также значение его стратегического положения между Амударьей и Каспийским морем. Рассматриваются системы орошения, торговые пути и роль городов, таких как Ургенч (Старый Ургенч), на Шелковом пути. В статье использованы средневековые арабские и персидские источники – труды аль-Бируни, аль-Истахри, Якута аль-Хамави. Результаты показывают, что период Хорезмшахов сыграл важную роль в политическом, экономическом и культурном развитии Центральной Азии.

Ключевые слова: Хорезмшахи, историческая география, Центральная Азия, Амударья, Ургенч, Шелковый путь, аль-Бируни, система орошения, средневековое государство, расширение территории.

Abstract: This article analyzes the historical and geographical aspects of the Khwarazmshahs’ state (late 11th – early 13th century). The study examines the natural and economic-geographical features of the Khwarazm region, the expansion of the state’s territory, and the significance of its strategic location between the Amu Darya River and the Caspian Sea. Irrigation systems, trade routes, and the role of cities such as Urgench (Old Urgench) on the Silk Road are highlighted. Medieval Arab and Persian sources, including the works of al-Biruni, al-Istakhri, and Yaqut al-Hamawi, were used. The results indicate that the Khwarazmshah period played a significant role in the political, economic, and cultural development of Central Asia.

Keywords: Khwarazmshahs, historical geography, Central Asia, Amu Darya, Urgench, Silk Road, al-Biruni, irrigation system, medieval state, territorial expansion.

Kirish

Markaziy Osiyo tarixida Xorazm vohasi eng qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biridir. Ayniqsa, XI–XIII asrlarda Xorazmshohlar sulolasi davrida bu hudud siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlandi. Xorazmning qulay geografik joylashuvi, sug‘oriladigan yerlar tizimi, va Ipak yo‘li ustidagi strategik o‘rni bu davlatning yuksalishiga sabab bo‘ldi [5].

Mazkur maqolaning maqsadi – Xorazmshohlar davlati tarixiy geografiyasini, uning tabiiy, siyosiy va iqtisodiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

1. Xorazm vohasining tabiiy-geografik xususiyatlari

Xorazm vohasi Amudaryo quyi oqimida joylashgan bo‘lib, bugungi O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismi va Turkmanistonning shimoliy hududlarini qamrab olgan. Daryo tarmoqlari va qadimiy kanallar – G‘azavat, Daryoliq, Janbasqal’a – orqali sug‘oriladigan dehqonchilik yuritilgan [1].

Bu tabiiy sharoitlar natijasida Xorazm vohasi o‘rta asrlarda eng yirik agrar hududlardan biriga aylangan [6].

2. Xorazmshohlar davlatining hududiy kengayishi Xorazmshohlar davlati XI asr oxirlarida **Anushteginlar sulolasi** asos solgan davlat sifatida vujudga kelgan. Bu sulola nomini **Anushtegin G‘arib** (1077–1097 yillar)dan olgan. U dastlab **Saljuqiylar imperiyasi**ning Xorazmdagi noibi (viloyat hokimi) bo‘lgan, ammo asta-sekin markaziy hokimiyatdan mustaqillik sari intilgan.

Anushtegindan keyin uning o‘g‘li **Qutbiddin Muhammad I** (1097–1127) davrida Xorazm siyosiy jihatdan kuchaya boshladi. Shu davrda Xorazmshohlar o‘z mustaqil siyosatini yurita boshladilar, lekin hali Saljuqiylarga qaram edi.

3. Mustaqillik sari qadamlar (XII asr o‘rtalari)

Davlatning haqiqiy siyosiy mustaqillikka erishishi **Atsiz ibn Anushtegin (1127–1156)** davriga to‘g‘ri keladi. U o‘z davrida Saljuqiylar bilan bir necha marta to‘qnashgan va amalda mustaqil siyosat yuritgan.

Atsiz davrida Xorazm hududi quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

- Amudaryo quyi oqimi,
- Orol dengizi atrofidagi vohalar,
- Gurganj (Ko‘hna Urganch), Hazarasp, Kat shaharlarini.

U Saljuqiylarga qarshi yurishlar olib borib, **Xuroson**ning shimoliy qismlarini ham egallagan. Shu davrdan boshlab Xorazm mustaqil siyosiy markaz sifatida tanila boshlaydi [4][5].

3. Ala ad-Din Takash davrida kengayish (1172–1200)

Xorazmshohlar davlatining eng kuchli davri **Ala ad-Din Takash** davrida boshlanadi.

U 1172 yildan 1200 yilgacha hukmronlik qilgan va davlat hududini g‘oyatda kengaytirgan.

Hududiy yutuqlar:

- **G‘arbda:** Kaspiy dengizigacha bo‘lgan yerlar, ya’ni hozirgi Turkmaniston va Eronning shimoliy hududlari (Gurgon, Niso, Abivard, Dehiston).
- **Sharqda:** Sirdaryo vodiysi, Orolbo‘yi dashtlari, Qozog‘iston janubigacha cho‘zilgan.
- **Janubda:** Xuroson (Marv, Nishopur, Tus), Ray, Hamadon, Isfahon kabi shaharlar bosib olingan.
- **Shimolda:** Orol dengizi atroflari, Aralbo‘yi dashtlari, hatto Qipchoq (Dashti Qipchoq) bilan chegaralangan.
- Bu davrda Xorazmshohlar davlatining poytaxti **Ko‘hna Urganch (Gurganj)** edi.

Urganch nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida ham tanilgan [4][5][6]Anushteginlar sulolasi davrida (XI–XIII asrlar) Xorazmshohlar davlati qisqa muddatda qudratli imperiyaga aylandi.

Ala ad-Din Takash (1172–1200) va Alouddin Muhammad (1200–1220) davrida davlat quyidagi hududlarni o‘z ichiga olgan:

- G‘arbda – Kaspiy dengizigacha;
- Sharqda – Sirdaryo havzalarigacha;
- Janubda – Xuroson, Ray, Gurgon;
- Shimolda – Orol dengizi atrofidagi dashtlargacha [4][5].

Poytaxt dastlab **Kat**, keyinchalik **Ko‘hna Urganch** shahri bo‘lgan [5]

3. Iqtisodiy geografiya va savdo yo‘llari

Xorazmshohlar davrida Urganch shahri Buyuk Ipak yo‘lining asosiy markazlaridan biriga aylangan [2]. Urganch orqali Buxoro, Samarqand, Marv, Ray, Hamadon va Bag‘dod bilan faol savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan [5]. Hunarmandchilik, ipak to‘qimachiligi, metallsozlik va keramika ishlab chiqarish rivoj topgan. Savdo yo‘llari orqali Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar mustahkamlangan [2][6].

4. Tarixiy-geografik manbalar

Xorazmshohlar davriga oid eng muhim yozma manbalar – al-Beruniy, al-Istaxriy, Yoqut al-Hamaviy, Ibn al-Asir va Bartold kabi olimlarning asarlaridir.

Al-Biruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Xorazmning tabiati, aholisi va sug‘orish tizimlari haqida batafsil ma’lumot beradi [1].

Yoqut al-Hamaviy “Mu‘jam al-buldan” asarida Xorazmning o‘sha davrdagi shaharlarini tasvirlab beradi [3]. Bartold esa o‘zining “Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida” asarida Xorazmshohlar davlatining siyosiy geografiyasi va mo‘g‘ul bosqiniga qadar bo‘lgan davrni ilmiy asosda yoritadi [4].

5. Xorazmshohlar davrining madaniy va ilmiy geografiyasi

Ko‘hna Urganch o‘sha davrda yirik ilmiy va ma’naviy markazlardan biri bo‘lgan [5]. Bu yerda mashhur allomalar – **Abu Rayhon al-Beruniy**, **Zamahshariy**, **Najmiddin Kubro** kabi olimlar faoliyat yuritgan [1][5].

Madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalarning mavjudligi Xorazmni ilm-fan markaziga aylantirgan [6].

Xulosa

Xorazmshohlar davri tarixiy geografiyasi O‘rta Osiyo tarixida alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda davlat hududi kengaygan, iqtisodiy tizim mustahkamlangan, shaharlar rivoj topgan va madaniyat yuksalgan. Geografik joylashuv – Amudaryo havzasi va Ipak yo‘lidagi markaziy o‘rin – Xorazmshohlar davlatining siyosiy qudratiga asos bo‘lgan [5][6]. Bugungi kunda Xorazmshohlar davrining tarixiy geografiyasi nafaqat tarixshunoslik, balki zamonaviy geosiyosiy tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Beruniy, A. (1879). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar *(Al-Osor al-boqiya)*. London: W. H. Allen & Co.

2. al-Istaxriy, A. (1927). Kitob al-Masolik va al-Mamolik (Yo‘llar va mamlakatlar kitobi). Leyden: Brill.

3. Yoqut al-Hamaviy. (1866). *Mu‘jam al-buldan (Mamlakatlar lug‘ati)*. Bayrut: Dar Sadir.

4. Bartold, V. V. (1958). *Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida*. London: Luzac & Co.
5. Ziyo Bunyodov (1998). *Xorazmshohlar davlati tarixi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Jo‘rayev, M. (2004). *O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7 . Bosworth, C. E. (1996). *The New Islamic Dynasties: A Chronological and Genealogical Manual*. Edinburg: Edinburg University Press.

XORAZMSHOHLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

Mehmonaliyeva Mohiraxon Muhammadjon qizi
Qo ‘qon davlat universiteti 1-bosqich magistranti
E-mail: mohiramehmonaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xorazmshohlar davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, shuningdek, davlatning tarixiy geografiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot Anushteginiylar sulolasining shakllanishi, Xorazmshohlar davlatining siyosiy qudratga erishish jarayoni, Gurganch shahrining poytaxt sifatidagi o‘rni hamda mo‘g‘ullar istilosi davrida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlarni yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar, Anushteginiylar, Xorazm, Gurganch, Muhammad II, Jaloliddin Manguberdi, tarixiy geografiya, siyosiy tizim.

Аннотация: В статье анализируется политическая, экономическая и культурная жизнь государства Хорезмшахов, а также его историческая география. Рассматриваются процессы становления государства династии Анущекинидов, рост политической мощи Хорезма, роль города Гурганджа как столицы и исторические события периода монгольского нашествия.

Ключевые слова: Хорезмшахи, Анущекиниды, Хорезм, Гургандж, Мухаммад II, Джалолиддин Мангуберди, историческая география, политическая система.

Abstract: The article analyzes the political, economic, and cultural life of the Khwarezmshah state, as well as its historical geography. It explores the rise of the Anushteginid dynasty, the political expansion of the Khwarezm Empire, the role of Gurganj as the capital, and the historical changes during the Mongol invasion.

Keywords: Khwarezmshahs, Anushteginids, Khwarezm, Gurganj, Muhammad II, Jalal al-Din Manguberdi, historical geography, political system.

Kirish

Xorazm o‘lkasi qadimdan Markaziy Osiyoning eng rivojlangan madaniy va siyosiy markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda qadimdan davlat boshqaruvi an’analari shakllangan[80]. XI–XIII asrlarda esa Xorazm hududida mustaqil va qudratli davlat – Xorazmshohlar davlati vujudga keldi[81].

[80]Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. — Moskva: Nauka, 1963.
[81] Karimov A. Xorazmshohlar davlati tarixi. — Toshkent: Fan, 2007.

Xorazmshohlar sulolasiga asos solgan Anushtegin dastlab Saljuqiylar xizmatida turgan bo‘lsa-da, uning avlodlari – Qutbiddin Muhammad, Otsiz, Takash va Olovuddin Muhammad II davrida Xorazm siyosiy mustaqillikka erishdi.

Maqolaning maqsadi Xorazmshohlar davrining tarixiy jarayonlarini va geografik chegaralarini tahlil qilish, ularning mintaqa siyosiy rivojidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Anushteginiylar sulolasi XI asr oxirida Saljuqiylar davlatining G‘arbiy mintaqalarida xizmat qilgan turkiy lashkarboshilardan Anushtegin nomi bilan bog‘liq. Uning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097–1127) davrida Xorazm siyosiy jihatdan mustaqillikka intila boshladi.

Otsiz (1127–1156) davrida esa bu jarayon tezlashib, Xorazm o‘zini mustaqil hukmdorlik sifatida namoyon qildi. Otsiz Saljuqiylarga qarshi muvaffaqiyatli harbiy yurishlar olib borgan va Xorazm hududini kengaytirgan[82].

Olovuddin Muhammad II (1200–1220) davrida Xorazmshohlar davlati o‘z qudratining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. U Movarounnahr, Xuroson, G‘arbiy Eron va Iroqning bir qismini o‘ziga bo‘ysundirgan.

Poytaxt Gurganch (Urganch) o‘sha davrda Sharq dunyosining eng yirik savdo, fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Bu shahar orqali Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmoqlari o‘tgan bo‘lib, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar rivojlandi[83].

Xorazm Amudaryoning quyi oqimida, bugungi Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatlari hududida joylashgan edi. U qadimdan sug‘oriladigan vohalar va unumdor yerlar bilan mashhur bo‘lgan.

Xorazmshohlar davrida Kat, Gurganch, Hazarasp kabi yirik shaharlar rivoj topgan. Amudaryodan chiqarilgan Gurganch kanali sug‘orish tizimining asosiy manbai bo‘lgan.

Bu tabiiy-iqtisodiy omillar Xorazmni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro ahamiyatga ega siyosiy markazga aylantirdi.

Xorazmshohlar davrida ilm-fan, falsafa, adabiyot va me’morchilik yuksak darajada rivoj topgan. Al-Beruniy, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro kabi allomalar Xorazm madaniy muhitining yuksak darajasini ko‘rsatadi.

Gurganchdagi madrasa va kutubxonalar o‘z davrining yirik ilmiy markazlari bo‘lgan. Bu davrda arab, fors va turkiy tillarda asarlar yaratilgan.

1219-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Xorazm hududiga bostirib kirdi. Dastlab Xorazmshoh Muhammad II mo‘g‘ullarga qarshi kurash boshlagan bo‘lsa-da, ichki siyosiy beqarorlik natijasida davlat tez orada parchalanib ketdi[84].Shundan so‘ng uning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi (1220–1231) mo‘g‘ullarga qarshi mardona qarshilik ko‘rsatdi. U Ozarbayjon, Armaniston va Hindistongacha yurishlar qilib, milliy qahramonga aylandi[85].

Xulosa

[82] Bosworth C.E. The History of the Khwarezmshahs. — London: Oxford University Press, 1968.

[83] Al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar haqida. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1981.

[84] Nasaviy Shihobiddin. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi. — Toshkent: Fan, 1991.

[85] Kattabekov A. Jaloliddin Manguberdi va uning davri. — Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

Xorazmshohlar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy qudrat, iqtisodiy barqarorlik va madaniy taraqqiyotning yuksak bosqichi sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda shakllangan davlat tizimi va ilmiy-madaniy meros keyingi asrlarda – Temuriylar, Shayboniylar va Xiva xonligi davrida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.Xorazmshohlar tarixini va tarixiy geografiyasini chuqur o‘rganish o‘zbek davlatchiligi evolyutsiyasini tushunishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963.
2. Karimov A. Xorazmshohlar davlati tarixi. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Bosworth C.E. The History of the Khwarezmshahs. – London: Oxford University Press, 1968.
4. Al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar haqida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1981.
5. Nasaviy Shihobiddin. Siyrat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Fan, 1991.
6. Kattabekov A. Jaloliddin Manguberdi va uning davri. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

ANUSHTEGINIYLAR DAVRI XORAZM VOHASI SHAHARLARINING IJTIMOIY HAYOTI.

Shomurotov Otojon Xamidovich –
Urganch Innovatsion universiteti
tarix fani o’qituvchisi.
https://orcid.org/0009-0004-5883-5999
otojonshomuratov29@gmail.com

Annotatsiya: X – XV asrlar va xususan Anushteginiylar davri (1097-1231 yillar) Xorazm vohasi shaharlari ijtimoiy hayoti masalasi juda sust o`rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Aslida bu holat butun musulmon dunyosi shaharlariga ham tegishli. Jumladan, shu davr shaharlarida ijtimoiy hayot, shahar aholisi ijtimoiy turmush tarzi kabi masalalar mazkur davrlar yozma manbalarida juda kam aks etgan. Umuman olganda mazkur kamsonli ma’lumotlarni ham mazkur shahar xarobasi yoki o`rnida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda mazkur maqola dolzarb mavzulardan biriga bag`ishlangan.

Kalit so`zlar: Anushteginiylar, shahrsozlik madaniyati, Gurganch, Kat, Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Jand, muxtasib, aholi turmush tarzi.

Аннотация: Вопрос общественной жизни городов Хорезмского оазиса X–XV вв., и в частности эпохи Ануштегинидов (1097–1231), относится к числу наиболее малоизученных. По сути, эта ситуация характерна для городов всего мусульманского мира. В частности, такие вопросы, как общественная жизнь городов этого периода, быт горожан, крайне редко отражены в письменных источниках этих периодов. В целом, весьма важно

сопоставлять эти скудные сведения с данными археологических исследований, проведенных на руинах или городище. В связи с этим данная статья посвящена одной из актуальных тем.

Ключевые слова: Ануштегиниды, градостроительная культура, Гурганч, Кат, Миздахкан, Хива, Хазарасп, Дженд, мухтасиб, образ жизни населения.

Abstract: The issue of social life in the cities of the Khorezm oasis of the 10th-15th centuries, and in particular the Anushteginid's era (1097-1231), is one of the most poorly studied topics. In fact, this situation applies to the cities of the entire Muslim world. In particular, issues such as social life in the cities of this period, the social lifestyle of the city's inhabitants are very rarely reflected in the written sources of these periods. In general, it is very important to compare this scanty information with the data of archaeological research conducted on the ruins or site of this city. In this regard, this article is devoted to one of the topical topics.

Key words: Anushteginid's, urban planning culture, Gurganch, Kat, Mizdahkan, Khiva, Hazorasp, Zhand, mukhtasib, lifestyle of the population.

KIRISH (INTRODUCTION). Anushteginiylar davri shahrlari to`g`risidagi ma'lumotlar yozma manbalarda juda kam aks etgan bo`lib, mavjud ma'lumotlar ham asosan, siyosiy jarayonlar bilan bog`liq ravishda eslatib o`tiladi xolos. Shaharlarning ijtimoiy hayoti xususida esa deyarli so`z yuritilmaydi. Jumladan, Anushteginiylar davri shaharlari xususida eng ko`p ma'lumotlar berib o`tgan Yoqut al-Hamaviy shaharlar ro`yxatida ham faqat shaharlar mudofaa tizimi va ikkinchi navbatda jamoaviy inshootlar (karvonsaroylar, bozorlar va hk.) haqida ma'lumotlar keltirilib o`tilganki, mavjud ma'lumotlar ham shaharlar ijtimoiy hayoti haqida deyarli ma'lumotlar bermaydi. Shu jihatdan mazkur mavzuni ochib berishda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlariga asosiy e'tibor qaratilib, oz sonli yozma manbalar ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Anushteginiylar sulolasi davri Xorazm vohasi shaharlari ijtimoiy hayoti masalalari asosan Yoqut Hamaviyning shu davr Xorazm shaharlariga berib o`tilgan qisqa sharhlardan iborat xolos. Shu jihatdan olganda, Xorazmshoh – anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharsozligining o`ziga xos jihatlari mavzusi tadqiqotlarda ham to`la-to`kis aks etmagan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu o'rinda eng avvalo 1219 yilda Xorazmda bo`lgan arab sayyohi Yoqut al-Hamaviyning "Muj'am al-buldon" ("Mamlakatlar ro`yxati") nomli asarini alohida ta'kidlash lozim. Zero, u Xorazmshoh-Anushteginiylar davri shaharlarida shaxsan bo`lib, ular haqida qisqa bo`lsada, juda qimmatli ma'lumotlar berib o`tgan [Йакут ал-Хамави. 1939: 409-438.]. Boshqa yozma manbalarda xorazmshoh – anushteginiylar davlati shaharlari haqida batafsil ma'lumotlar uchramaydi yoki ma'lumotlarni juda oshirib yuborish holatlari ko`zga tashlanadi. Jumladan, XVIII – XIX asrlar Xiva xonligi tarixchisi Niyozmuhammad ibn Eshmuhammadning 1747 yilda yozilgan "Ta'rifi shahri Xorazm" asarida Xorazm shaharlariga qisqacha to`xtalib o`tilgan. Ammo, bu asar o`zbek tiliga tarjima qilinmagan, Z.M. Buniyodov o`zining Xorazmshoh-Anushteginiylar davri tarixiga bag`ishlangan asarida qisqacha ma'lumotlar berilib o`tilgan [Буниятов З. М. 1986:151-153.].

Zamonaviy tadqiqotchilarning ko’pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan bog’liq voqea va jarayonlarda eslatilgan shaharlar xususidagi yuzaki ma’lumotlarni keltirib o’tish bilan cheklanadilar xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha xorazmshoh – anushteginiylar davlati shaharlari tuzilishi, hajmi va eng asosiysi ularning savdo aloqalaridagi alohida o`rni masalasiga V.V. Bartold [Бартольд В.В. 1964: 411-416], S.P.Tolstov [Толстов С.П. 1964: 324; Толстов С.П.1948: 324], N.N. Vakturskaya [Вактурская Н.Н, Вишневская О.А. 1959: 150-167; Вактурская Н.Н.1963: 41-54], O.A.Vishnevskaya [Вишневская О.А. 1963: 54-73], Ye.E. Nerazik [Неразик Е.Е. 1986: 219-227], A.M. Belenitskiy, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakov [Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. 1973: 389], Z.M. Buniyodov [Буниёдов З. 1997: 256; Буниятов З. М. 1986: 247] kabi tadqiqotchilarning asarlarini ko`rsatib o`tish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Anushteginiylar davri shahrlari to`g`risidagi ma’lumotlar yozma manbalarda juda kam aks etgan bo`lib, mavjud ma’lumotlar ham asosan, siyosiy jarayonlar bilan bog`liq ravishda eslatib o`tiladi xolos. Shaharlarning ijtimoiy hayoti xususida esa deyarli so`z yuritilmaydi. Jumladan, Anushteginiylar davri shaharlari xususida eng ko`p ma’lumotlar berib o`tgan Yoqut al-Hamaviy shaharlar ro`yxatida ham faqat shaharlar mudofaa tizimi va ikkinchi navbatda jamoaviy inshootlar (karvonsaroylar, bozorlar va hk.) haqida ma’lumotlar keltirilib o`tilganki, mavjud ma’lumotlar ham shaharlar ijtimoiy hayoti haqida deyarli ma’lumotlar bermaydi. U bunday deb yozadi: “Men u yerga 616 yili (1219-1220 y.) borgan edim, hech qaerda bunday gavjum va yashnagan o’lkani ko’rmaganman. Ekinlari yoppasiga parvarish qilingan, qishloklari bir-biriga yaqin qatorlashib ketgan, alohida hovliyu chorbog’lari ko’p, dashtda ham qo’rayu qo’rg’onlar bor. O’lkaning rustoqlarida (dehqonchilik tumanlarida) parvarishlanmagan, noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa, gujumu tut ko’p, chunki ular (aholi) qurilish yog’ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga yemdir. Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi (aholi ko’pligi jihatidan) - buning farq yo’q. Dunyoning hech bir yerida Xorazmdek farovon va aholisi gavjum bo’lmasa kerak. Xorazmning ko’pchilik aholi manzillari – bozorlarga, hayotiy zarur narsalarga mo’l-ko’l, rastalari ko’p shaharlardir. Bozori bo’lmagan qishloq kamdan-kamdir. Bularning hammasi umumiy xavfsizlikda va tinchlik-hotirjamlikda amalga oshmoqda” [Йакут ал-Хамави. 1939: 419].

Zakariyo Qazviniy esa Gurganj haqida so’z yuritar ekan, uni Jayxun daryosi bo’yidagi juda katta shahar, aholisi juda ko’p, deb ta’riflaydi va: “jannatdagi shaharni va chimildiqdagi kelinchakni qo’riqlaganday, farishtalar qo’riqlaydi”, - deb yozgan edi [Буниёдов З. 1997: 135].

Gurganjda o’sha zamonlardagi barcha kasb-hunarlar taraqqiy etgan edi. Yana o’sha Zakariyo Qazviniyning yozishicha, Gurganjda mohir ustalar, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqa hunar egalari o’z kasbida barkamol edilar. Gurganj naqqoshlari fil suyagidan va sandal daraxtidan ajoyib naqshlar yasar

edilar. Gurganj ayollari chevarlikda mohir edilar, ipakchilar tabiiy ipakning oliy navini yetishtirgan. Binokor-quruvchilar tol og'ochidan shunday yengil (sinchli) binolar qurar edilarki, bu yerda tez-tez bo'lib turadigan zilzila paytida tosh va g'ishtin uylar qulasa ham, sinchli uylarga ziyon yetmas edi. Gurganjda aholi ko'pligidan ko'chalar, bozorlarda odamlar bir-biriga urilar, o'tish qiyin edi [Буниёдов З. 1997: 135].

Ardaxushmisan (yoki Xushmisan) (hozirgi Xorazm viloyati SHovot tumanidagi Voyangan yodgorligi) bozorlari gavjum va aholisi farovon katta shahar. Maydoni 17 ga bo'lgan. Ardaxushmisanda 1219-1220 yillarda bo'lgan Yoqut Hamaviy, u haqda yozib, bozorlari, mahalliy mollari ko'pligi, aholisi badavlat bo'lganligini ko'rsatadi, uni Suriyaning yirik shaharlaridan Nisibin bilan tenglashtiradi, ammo Ardaxushmisan undan aholisi ko'proq va muhtashamroq ekanligini ta'kidlaydi [Йакут ал-Хамави. 1939: 410].

Xiva shahri ham xorazmshohlar davrida o'zining eng gullab-yashnagan davrini boshdan kechirgan. SHu davrda Xorazmdan o'tgan barcha tashqi va ichki savdo yo'llarining Xivadan o'tganligi uning taraqqiy qilishiga imkon bergan. Bundan tashqari, Xiva atroflarini sug'organ Xeykonik (Polvonyop) kanalidan kemalar qatnab, nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham muhim rolь o'ynagan. Xivaning X-XIII asrlarda yirik savdo markazlaridan biri bo'lganligini arxeologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

1219-1220 yillarda Xorazmda bo'lgan Yoqut Hamaviy Hazoraspni mustahkam qal'a, go'zal va bozorlari, rastalari ko'p bo'lgan yirik savdo shahri sifatida eslatib o'tgan [Йакут ал-Хамави. 1939: 419].

Asosiy savdo yo'llaridan birida joylashgan Darg'on, ulkan xorazmshohlar davlati vujudga kelishi bilan, ayniqsa, rivojlangan. Yoqut Hamaviy ham Darg'onni yirik savdo markazi sifatida tilga olib o'tadi.

Dovdon havzasi bo'yida joylashgan va yirik Madra (G'azovot) kanali bilan sug'orilgan Zamaxshar hududi XII-XIII asrlarda Xorazmning dehqonchilik eng rivojlangan va aholisi zich joylashgan markazlardan biriga aylangan.

Qo'hna Urganchdan 60 km janubi-g'arbda joylashgan Yorbakirqal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yodgorlikning xorazmshohlar davriga oid juda katta savdo markazi bo'lganligi aniqlandi. Bu yerdan tugallanmagan juda katta – 750 xona, 250 turar joyi bo'lgan va tomonlari 200 metrga cho'zilib ketgan karvonsaroyning topib o'rganilishi yuqoridagi fikrning to'la isbotidir. Karvonsaroy, aftidan, mo'g'ul bosqini oqibatida tugallanmay qolgan [Вактурская Н.Н, Вишневская О.А. 1959: 150-167; Вактурская Н.Н.1963: 41-54; Вишневская О.А. 1963: 54-73].

CHap qirg'oq Xorazmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va xorazmshohlar davriga oid manbalarda yuqoridagi shaharlardan tashqari: Suburna (SHohsanam), Jigarband, Sadvar, Safardiz, Kardaronxos (Qal'ajiq, Dovudqal'a), Sarakusta, Mangqishloq, Nuzvor (Buldumsoz), Sovkan (Olmaotishgan), Vargada (Varagdax, Munchoqli), Qudjag (Tuproqqal'a), Madminiya (Bug'roxon), Git (Puljoy), Qal'alik kabi savdo markazlari bo'lgan.

Mo’g’ullar istilosi arafasida o’ng qirg’oq Xorazmning Gavxore kanali atroflarida joylashgan hudud ham ancha gullab-yashnagan edi. Arab yozma manbalarida X asrda eslatib o’tilgan Mizdahqon, Nuzkat, Nukfag, Kardor, Barategin, Juvakin, SHo’roxon shaharlari, arxeologik qidiruvlar natijasida o’rganilgan Norinjon, Guldursun, Janpiqqal’a, Qavatqal’a shaharlari XII-XIII asrlarda yanada kengaygan va rivojlangan.

O’ng qirg’oq Xorazmning yana bir yirik savdo markazi Mizdahqon bo’lib, Xorazmning X-XIII asrlardagi eng yirik savdo markazi hisoblangan. Movarounnahrning boy savdo shaharlari bilan bog’lovchi uchta savdo yo’li Mizdahqonda birlashib, keyinchalik Amudaryodagi asosiy kechuv yo’li orqali Gurganjga borgan. Mizdahqon yana o’zining geografik o’rniga ko’ra ko’chmanchilarga (ayniqsa, o’g’uzlarga) yaqin joylashganligiga ko’ra uning ko’chmanchilar bilan bo’ladigan savdoda ham, eng muhim markazlardan biri bo’lgan deyishimizga ham asos bor.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/ RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlari XI – XIII asrlar davomida taraqqiyoti, shaharlar ijtimoiy ahvoli hamda ularda kechgan ijtimoiy jarayonlar masalasini o‘rganish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, eng avvalo, Xorazm vohasining shu asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixining ham ko‘pgina qirralarini ochib beradi. SHu jihatdan olganda, Anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharlarida kechgan ijtimoiy hayot masalasi kam o‘rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1). Xorazm vohasi shaharlarining ijtimoiy ahvolini o`rganishda poytaxt Gurganch shahri tarixi muhim o‘rin tutadi. Ammo, tarixshunoslik nuqtai-nazaridan hali bu shaharning ijtimoiy tarixi haligacha to`liq o`rganilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Zero, Gurganch shahri Xorazmning eng yirik shaharlaridan biri, qolaversa Anushteginiylar davlati poytaxti bo`lgani uchun manbalarda ko`proq u shahar haqida ma’lumotlar mavjud bo`lib, boshqa shaharlar ijtimoiy hayotini o`rganishda ham namuna bo`lib qoladi.

2). Xorazm vohasida Anushteginiylar davrida poytaxt Gurganchdan tashqari, Mizdahqon, Darg`on, Git, Safardiz, Ardaxushmisan, Puljoy, Kat, Kardor, Kardoronxos kabi shaharlar ijtimoiy hayotini o`rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bu shaharlar ham na arxeologik, na manbaviy jihatdan o`rganilmagan. Bu shaharlarni tadqiq qilish orqali esa, Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlarida ijtimoiy hayot qanday kechganligi, qolaversa, Anushteginiylar davlatida kechgan ijtimoiy jarayonlar masalasi o`z yechimini topgan bo`lardi.

3). Umuman olganda, arxeologik manbalar Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlari ijtimoiy hayoti masalasini to`liq ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda musulmon dunyosi shaharlarida kechgan ijtimoiy jarayonlar xususida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского завоевания. - Сочинения. Т.24.2. –М.: «Наука», 1964. -657 с.

2. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. –Л.: «Наука», 1973. -389 с.

3. Буниёдов З. Ануштагин-Хоразмшоҳлар давлати (1097-1235 й.й.) –Т.: «Адабиёт ва санъат» нашриёти, 1997. -256 б.

4. Буниятов З. М. Государство хорезмшахов-Ануштегинидов, 1097-1231. – Москва: Наука, 1986. – 247 с.

5. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Т.II, Вып.7. – С.41-54.

6. Вактурская Н.Н, Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-начало XIII вв.) //МХЭ., вып.1, -М.: Изд-во Ан СССР, 1959. – С.150-167.

7. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма. // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Т.II, Вып.7. – С.54-73

8. Йакут ал-Хамави. Му’жам ал-булдан // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.409-438.

9. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма //Вкн.: Культура и искусство древнего Хорезма. - М.: «Наука», 1986. – С.219-227.

10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во вост.лит., 1964. – 324 с.

11. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. - М.: Изд-Во Ан СССР, 1948. -324 с.

XORAZMSHOHLAR DAVRI KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SUV YO‘LLARINING TUTGAN O‘RNI

Urganch davlat universiteti
“Tarix” kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha PhD Karimov Yashin..
(+99890) 713 44 11
yashin_0101@mail.ru,
https://orcid.org/0000-0003-4079-7619,

Annotatsiya: Ushbu maqolada milodiy III–IX asrlarda Xorazm vohasining suv yo‘llari asosidagi kommunikatsiya tizimi tarixiy manbalar asosida o‘rganiladi. Amudaryo daryosi bo‘yida joylashgan bandargohlar, kechuvlar, sug‘orish inshootlari va yo‘l tarmoqlari orqali Xorazm ichki va tashqi savdo, harbiy va ijtimoiy aloqalar markaziga aylangani yoritib berilgan. Muallif bu davrda vohada yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar, turli sivilizatsiyalar bilan aloqalar va Arab xalifaligi davrida amalga oshirilgan qurilish ishlari asosida kommunikatsion tizimlarning evolyutsiyasini tahlil qiladi. Shuningdek, tadqiqotda Xorazm vohasining geografik joylashuvi va strategik ahamiyati, karvon yo‘llari, mudofaa qal’alari hamda sug‘orish tarmoqlari bir butun tizim sifatida ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, kommunikatsiya tizimi, suv yo‘llari, Amudaryo, bandargohlar, karvon yo‘llari, sug‘orish inshootlari.

Abstract: This article examines the waterway-based communication system of the Khorezm oasis during the 3rd to 9th centuries AD, using historical sources. It highlights the role of ports, crossings, irrigation structures, and road networks along the Amu Darya River in transforming Khorezm into a center of internal and external trade, military, and social relations. The study analyzes political changes, connections with various civilizations, and infrastructure developments under the Arab Caliphate that shaped the region's communication network. The research emphasizes the strategic location of the Khorezm oasis and its integrated system of caravan routes, fortifications, and irrigation canals.

Keywords: Khorezm, communication system, waterways, Amu Darya, ports, caravan routes, irrigation structures.

Аннотация: В данной статье исследуется система коммуникаций на основе водных путей в Хорезмском оазисе в период III–IX веков н.э. на основе исторических источников. Освещается значение портов, переправ, ирригационных сооружений и дорожных сетей вдоль реки Амударьи, благодаря которым Хорезм стал центром внутренней и внешней торговли, а также военных и социальных связей. Анализируются политические изменения, взаимодействие с различными цивилизациями и инфраструктурные преобразования в период Арабского халифата. В исследовании подчеркивается стратегическое расположение Хорезма и его единая система караванных путей, укреплений и оросительных каналов.

Ключевые слова: Хорезмский, система коммуникаций, водные пути, Амударья, порты, караванные пути, ирригационные сооружения.

Kirish

Milodiy III–IX asrlar oralig‘i Xorazm vohasi uchun siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim davr bo‘lib, bu davrda vohaning tabiiy-geografik imkoniyatlariga tayangan holda sug‘orish tizimlari va kommunikatsiya inshootlari jadal rivojlangan. Ayniqsa, Amudaryo daryosi bo‘ylab shakllangan suv yo‘llari Xorazmning ichki va tashqi aloqalarini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida xizmat qilgan.

Ushbu davrda Xorazm vohasi orqali o‘tgan savdo va karvon yo‘llari, bandargohlar, kechuvlar hamda turli sug‘orish inshootlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Shu bois Xorazmning kommunikatsion tizimlari, ayniqsa suv yo‘llari asosida shakllangan aloqalar tarmog‘ini o‘rganish, nafaqat mintaqa tarixini chuqur anglash, balki uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari bilan bo‘lgan uzviy bog‘liqligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada aynan shu davrda Xorazm vohasida suv yo‘llariga asoslangan kommunikatsiya tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va strategik ahamiyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tahlil va dolzarbligi. Milodiy III–IX asrlar oralig‘i Xorazm tarixida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda vohada siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qolgan bo‘lib, sug‘orish inshootlari va kommunikatsiya tizimlarining rivoji kuzatiladi. Yunon-rim manbalarida Chorasmiy nomi bilan tilga olingan Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim madaniy va savdo markazlaridan biri bo‘lgan. [Птолемей Клавдий 1966: 44.]

Xorazmning 3–9-asrlardagi rivojlanishida qadimiy Chorasmiy an’analari, Eron va Mesopotamiya madaniyati bilan aloqalar, shuningdek, Sharqiy Yevrosiyo mintaqasi bilan bo‘lgan savdo munosabatlari muhim rol o‘ynagan.

Mazkur davrda Xorazm vohasi qadimgi Qang‘ davlati bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalarni davom ettirgan. 4–5-asrlarda esa tashqi tahdidlar kuchaygan bo‘lsa-da, Xorazm o‘zining siyosiy mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan. Ayniqsa, Amudaryo bo‘ylaridagi qo‘rg‘on-qal’alar va kommunikatsiya nuqtalarining mustahkamlanishi bunga misol bo‘la oladi. [Толстов 1948: 78–83.]

6–7-asrlarda Xorazm Turkiy xoqonliklar bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu davrda Xorazmda turkiy unsurlar kuchayganligi kuzatiladi. Shu davrda savdo yo‘llari va bandargohlar faoliyati yanada jonlangan. [Бартольд 1963: 45–47.]

Arablar istilosi davrigacha bo‘lgan davrda Xorazm vohasi yirik sug‘orish inshootlari, suv chiqarish tizimlari va tabiiy kommunikatsiya yo‘llari asosida rivojlangan. Xususan, Amudaryo orqali o‘tgan qadimiy yo‘llar va kechuvlar orqali voha ichida va tashqarisida iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar mustahkamlangan.

Arablar istilosidan so‘ng (VIII asr o‘rtalari), Xorazmda yangi inshootlar, xususan, karvonsaroylar, yo‘l uzellarida harbiy nazorat punktlari va suv omborlari qurilgan. Bu holat vohaning strategik ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi. [Наршахи 1897: 96–98.]

8–9-asrlarda esa Xorazm Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tgan bo‘lib, bu davr vohaning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘zgarishlarga olib kelgan. Arablar tomonidan qishloq xo‘jaligi tizimi takomillashtirilgan, sug‘orish inshootlari qayta qurilgan va yangi kommunikatsiya yo‘llari barpo etilgan.[Наршахи 1897: 94.] Bular Xorazmning 3–7-asrlarda shakllangan sug‘orish an’analariga tayangan.

Arablar tomonidan qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda harbiy-strategik infratuzilma ham rivojlantirilgan. Ayniqsa, strategik joylarda qal’alar tiklangan yoki mavjud qal’alar mustahkamlangan. Bu qal’alar 3–6-asrlarda qurilgan qadimgi qal’a-qo‘rg‘onlar asosida yangilangan.

Arablar istilosi Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sug‘orish tizimlari qayta tiklandi, ayrim bandargohlar va kechuvlar yangi kommunikatsion tarmoq doirasida qayta qurildi. [Наршахи 1897: 99–100.]

8–9-asrlarda Xorazm vohasining geografik joylashuvi tufayli Arab xalifaligi uchun strategik ahamiyat kasb etgan. Bu davrda ko‘plab karvon yo‘llari, harbiy yo‘nalishlar va savdo bandargohlari faoliyat yuritgan. [Бартольд 1927: 53–56.]

Shuningdek, bu davrda Amudaryo orqali o‘tuvchi asosiy o‘zanlar bo‘yida joylashgan bandargohlar va qishloqlar Xorazmning ichki va tashqi aloqalarini ta’minlovchi muhim nuqtalarga aylangan. Shuningdek, ushbu davrda Xorazm aholisi tomonidan foydalanilgan sug‘orish tizimlari – ariq va kanal tarmoqlari, daryo bo‘yidagi kechuvlar, mudofaa devorlari, quduqlar va suv omborlari voha taraqqiyotining asosiy negizini tashkil etgan.

IX asrga kelib, Xorazmda suv yo‘llariga asoslangan kommunikatsiya tarmog‘i kengaygan. Ayniqsa, Amudaryo o‘zanlari bo‘yidagi buloqlar, quduqlar va sun’iy kanallar orqali voha ichidagi aloqalar rivojlangan. Bu holat sug‘orish tizimining takomillashuvi bilan bevosita bog‘liq edi [Толстов1962: 132.]

8–9-asrlarda bandargohlar va kechuvlar faollashdi. Amudaryo o‘zanining o‘zgaruvchanligi hisobga olinib, vaqtincha bandargohlar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ayrim manbalarda bu bandargohlar harbiy yurishlar uchun ham xizmat qilgani tilga olinadi.

VIII–IX asrlarda Xorazmda arablar tomonidan harbiy strategik nuqtalar sifatida mustahkamlangan qal’alar mavjud bo‘lgan. Ular orasida ilgari 3–7-asrlarda qurilgan mudofaa obidalari asosida tiklanganlari ham bor edi. [Бартольд 1963: 62–64.]

3–9-asrlar davomida Amudaryo bo‘yida joylashgan bandargohlar (masalan, Kazoqtepa, Qo‘shtepa) tashqi savdoda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu nuqtalarda harbiy va iqtisodiy faoliyat uyg‘un holda olib borilgan. [Коровяков 1990: 58–62.]

Milodiy III–IX asrlar oralig‘i Xorazm tarixida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda vohada siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qolgan bo‘lib, sug‘orish inshootlari va kommunikatsiya tizimlarining rivoji kuzatiladi. Yunon-rim manbalarida Chorasmiy nomi bilan tilga olingan Xorazm vohasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim madaniy va savdo markazlaridan biri bo‘lgan.

VI–VII asrlarda Xorazm turkiy xoqonliklar bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu davrda Xorazmda turkiy unsurlar kuchayganligi kuzatiladi. Bu davrda savdo yo‘llari va bandargohlar faoliyati yanada jonlangan. Xususan, Amudaryo o‘zanlari orqali ichki va tashqi aloqalar kengayib borgan.

Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan karvon yo‘llari ham VIII–IX asrlarda rivojlangan. Bu yo‘llar Amudaryodan kechib o‘tuvchi nuqtalar orqali voha ichkarisiga chuqur kirib borar, yirik qishloq va sug‘oriladigan hududlarni birlashtirardi. Bu holat 3–9-asrlarda shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy modelning davomiyligini ko‘rsatadi.

Xorazm orqali o‘tgan karvon yo‘llari orqali Sharqiy Turkiston, Eron va Movarounnahr bilan madaniy va iqtisodiy aloqalar jonlangani ko‘rsatilgan. Ayniqsa, IX asr oxirlarida bu yo‘llar orqali zarbxonalar va ilmiy markazlarga xomashyo yetkazilgan. [Бичурин 1851: 174.]

Amudaryoning qadimgi o‘zanlari 3–9-asrlarda ham faol bo‘lgan. Xususan, Xorazmning janubiy va g‘arbiy qismida joylashgan bandargohlar ushbu o‘zanlarga qarab shakllangan. Arablar davrida bu yo‘nalishlar bo‘yicha savdo va harbiy aloqalar amalga oshirilgan. [Толстов 1962: 144–147.]

Xulosa. Xorazm vohasining milodiy III–IX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida suv yo‘llariga asoslangan kommunikatsiya tizimlari muhim o‘rin tutgan. Amudaryo bo‘ylab shakllangan bandargohlar, kechuvlar, sug‘orish inshootlari va karvon yo‘llari Xorazmni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro savdo va madaniy aloqalarning markaziga aylantirgan. Turli davrlardagi siyosiy o‘zgarishlarga qaramay, vohaning tabiiy imkoniyatlariga mos ravishda kommunikatsiya tarmoqlari takomillashib borgan.

Arablar istilosidan so‘ng Xorazmda bu tizimlar yanada rivojlanib, harbiy-strategik va iqtisodiy infratuzilmaning asosiy tayanchlaridan biriga aylangan. Suv yo‘llari orqali amalga oshirilgan savdo-sotiq, madaniy almashinuv va mudofaa choralari vohaning barqarorligini ta’minlab turgan. Ushbu tarixiy jarayonlar

Xorazm sivilizatsiyasining mustahkam asoslar ustida shakllanganini, uning boshqa yirik madaniy markazlar bilan uzviy bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Птолемей Клавдий. География. Книга VI. – М., 1966
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.-Л., 1948. – С. 78–83.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М., 1963. – С. 45–47, 62-64.
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – М., 1927. – С. 53–56.
5. Наршахи. История Бухары. – Ташкент, 1897. – С. 94, 99-100
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса. – М.-Л., 1962. – С. 132., 144-147
7. Коровяков М.П. Портовые поселения древнего Хорезма. – Ташкент, 1990. – С. 58–62.
8. Наршахи. История Бухары. – Ташкент, 1897. – С. 96–98.
9. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – СПб., 1851. – Т. 1. – С. 174.

XORAZMDA XIV–XV ASRLAR IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI TAHLILI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali,
talabasi D.Erkinjonova
(tel:+998953917555, e-mail:olimjon1009@umail.uz)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarning manbashunoslik va tarixshunoslik jihatlari tahlil qilingan. Yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tarixiy adabiyotlar asosida XIV–XV asrlarda Xorazm shaharsozlik tizimi, savdo yo‘llari, dehqonchilik va hunarmandchilikning izchil rivojlanganligi ilmiy asosda yoritilgan..

Kalit so’zlar: Amir Temur, temuriylar davri, Xorazm vohasi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, madaniy taraqqiyot, arxeologik topilmalar, tarixshunoslik, manbashunoslik, shaharsozlik, o‘zbek davlatchiligi tarixi, Xorazm sivilizatsiyasi, Movarounnahr.

Аннотация: В данной статье рассматриваются источниковедческие и историографические аспекты социально-экономических и культурных процессов, происходивших в Хорезмском оазисе в эпоху Амира Темура и тимуридов. На основе письменных источников, археологических находок и исторической литературы показано, что в XIV–XV веках в Хорезме продолжалось развитие городской инфраструктуры, ремесленного производства и земледелия.

Ключевые слова: Амир Темур, эпоха тимуридов, Хорезмский оазис, социально-экономические процессы, культурное развитие, археологические

находки, историография, источниковедение, градостроительство, история узбекской государственности, хорезмийская цивилизация, Мавераннахр.

Abstract: This article examines the source-based and historiographical aspects of the socio-economic and cultural processes that took place in the Khorezm oasis during the period of Amir Temur and the Timurids. Based on written sources, archaeological findings, and historical studies, it is demonstrated that urban development, agriculture, and handicrafts continued to flourish in Khorezm during the 14th–15th centuries.

Keywords: Amir Temur, Temurid period, Khorezm oasis, socio-economic processes, cultural development, archaeological findings, historiography, source studies, urban planning, history of Uzbek statehood, Khorezm civilization, Mawarannahr.

XIV asrning 70-yillaridan XV asr oxirigacha bo‘lgan davr Xorazm tarixida o‘ziga xos siyosiy va madaniy tiklanish jarayoni bilan ajralib turadi. Biroq, bu davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati uzoq vaqt davomida sobiq sovet tarixshunosligida biryoqlama talqin etilgan. O‘sha davr adabiyotlarida Xorazm Amir Temur yurishlari oqibatida “madaniyati vayron bo‘lgan” yoki “Temuriylar urushlari natijasida iqtisodiy hayot izdan chiqqan” deb baholangan. Bunday xulosalar ideologik yondashuv natijasi bo‘lib, tarixiy haqiqatni to‘liq aks ettirmaydi.

So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, epigrafik topilmalar va qayta tahlil qilingan yozma manbalar mazkur davrda Xorazmda shahar hayotining jonlanishi, me’morchilikning rivojlanishi va iqtisodiy faoliyatning faollashuvini isbotlamoqda. Masalan, arxeologik qazishmalar natijasida XIV–XV asrlarda yangi shahar markazlarining shakllangani, qadimiy Gurganj va Xiva kabi shaharlarda ta’mirlash va qurilish ishlari avj olgani aniqlangan. Bu esa sovet davridagi “inqiroz nazariyasi”ni inkor etadi[1].

Mazkur tarixiy faktlar Xorazmda XIV–XV asrlarda yuz bergan yuksalish jarayonlarini qayta o‘rganish va baholash zaruratini keltirib chiqardi. Shu sababli bu davr Xorazm madaniyati tarixini o‘rganishda nafaqat manbashunoslik, balki tarix fanini o‘qitish jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchilarga tarixiy haqiqatni manbalar asosida tahlil qilish, turli tarixshunoslik pozitsiyalarini solishtirish ko‘nikmasini berish – tarix ta’limining zamonaviy maqsadlaridan biridir[2].

Amir Temur davriga oid muhim yozma manbalardan biri bu saroy tarixchisi Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridir. Asarda 1404-yil oxirigacha bo‘lgan davr voqealari tasvirlangan bo‘lib, muallif asarni yaratishda turli manbalardan – harbiy yurish kundaliklari, saroy yozuvlari hamda og‘zaki rivoyatlardan keng foydalangan.

Shomiyning “Zafarnoma”si tarixshunoslikda birlamchi manba sifatida muhim o‘ringa ega. Unda Xorazm vohasiga oid qimmatli ma’lumotlar, xususan Amir Temurning Gurganj shahrini qayta tiklash haqidagi buyrug‘i haqida yozilgan xabarlar mavjud. Bu ma’lumotlar Xorazmda Temuriylar davrida iqtisodiy hayot izdan chiqqani emas, balki qayta tiklanganini ko‘rsatadi[3].

Mazkur asarning ayrim parchalarini V.G. Tizengauzen rus tiliga, F. Gauer esa 1937-yilda chex tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar tarixiy ma’lumotlarning Yevropa tarixshunosligiga kirib borishiga va xalqaro ilmiy doiralarda Temuriylar davriga nisbatan yangicha yondashuv paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyatiga oid tarixiy manbalar orasida Ibn Arabshoh (1392–1450) qalamiga mansub “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asari alohida o‘rin tutadi. Bu asar Sharq va G‘arb tarixshunosligi orasidagi eng muhim ko‘priklardan biri sifatida e’tirof etiladi. U arab tilida yozilgan bo‘lib, keyinchalik fransuz, lotin, ingliz hamda turk tillariga tarjima qilingan. O‘zbekiston tarixshunosligida esa asarning taniqli arabshunos U. Uvatov tomonidan tayyorlangan o‘zbekcha tarjimasi keng qo‘llanilmoqda[4].

Ibn Arabshoh asarida Amir Temurning shaxsiy faoliyati, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi jarayonlari tanqidiy ruhda yoritilgan. Muallifning Temurga nisbatan salbiy munosabati shunga olib keldiki, u Temurni haddan tashqari qattiqqo‘l hukmdor sifatida ko‘rsatgan. Biroq ayni paytda bu asar tarixiy faktlarga boyligi bilan ilmiy manbashunoslik uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Tarix o‘qitish jarayonida bu manba o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tarixiy voqealarni turli manbalar asosida solishtirib tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amir Temurning Xorazmga yurishlari haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (vaf. 1454-y.) tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asarida ham keng ma’lumotlar uchraydi. Muallif hijriy 828-yilda (milodiy 1424–1425-yillarda) ushbu asarni yakunlagan bo‘lib, unda Temurning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tamoyillari va harbiy strategiyasi ilmiy tahlil bilan yoritilgan. “Zafarnoma” asarining alohida boblarida Amir Temurning Xorazmga yurishlari sabab va oqibatlari, bu yurishlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy natijalari batafsil tahlil etilgan. Asar tarixiy solnomachilikning mukammal namunasi bo‘lib, manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘quvchilarga o‘sha davr voqealarini faktlar asosida o‘rganish imkonini beradi[5].

Temuriylar davriga oid yana bir muhim yozma manba – Abdurazzoq Samarqandiy (1413–1482) tomonidan fors-tojik tilida yozilgan “Matlai us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn” (“Ikki baxtli yulduzning balqishi va ikki dengizning qo‘shilishi”) asaridir. Asar 1304-yildan 1470-yillargacha bo‘lgan davrni qamrab olib, nafaqat Amir Temur, balki temuriylar sulolasi siyosati va madaniy hayoti haqida ham batafsil ma’lumot beradi. “Matlai us-sa’dayn” orqali Xorazmda Temur siyosatining qanday amalga oshirilgani, hududda iqtisodiy tiklanish, savdo-sotiq va me’morchilik rivoj topgani haqidagi dalillarni uchratish mumkin. Asarning o‘zbekcha tarjimasi bugungi kunda tarixshunoslikda muhim o‘quv va tadqiqot manbasi sifatida xizmat qilmoqda[6].

Bundan tashqari, G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir (1474–1535) tomonidan yozilgan “Habib us-siyar” asari ham bu davr voqealarini yoritishda alohida o‘rin tutadi. Muallif Mirxondning nevarasi bo‘lib, u bobosi boshlab bergan tarixiy yo‘nalishni davom ettirgan. “Habib us-siyar” jahon tarixiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda Xorazm, Movarounnahr va Temuriylar davriga doir ko‘plab aniq

faktlar keltirilgan. Ushbu asar Xorazm tarixini o‘rganishda arab, fors, Yevropa va rus manbalari bilan qiyosiy tahlil yuritishga asos yaratadi.

Arxeologik tadqiqotlar bilan birgalikda bu yozma manbalar XIV asr oxiri va XV asrlarda Xorazm hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni yanada to‘liq o‘rganish imkonini beradi. Shunday qilib, Amir Temur va temuriylar davriga oid manbalarni chuqur o‘rganish nafaqat tarixiy jarayonlarni haqqoniy baholash, balki ularni tarix o‘qitish metodikasida tahliliy yondashuv asosida o‘quvchilarga yetkazish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi[7].

Amir Temur va temuriylar davriga xolisona yondashuv o‘zbek tarixshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan, xususan, akademik I. M. Mo‘minov tomonidan yozilgan tadqiqotlar bilan boshlanganini ta’kidlash lozim. Olimning 1970-yillardagi ilmiy ishlari bu davr tarixini mafkuraviy yondashuvlardan holi, tarixiy haqiqat asosida o‘rganishga urinish bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur va temuriylar davrini yangicha talqin etish imkoniyati yaratildi. Bu borada akademik A. A. Asqarov, professor R. Shamsutdinov, B. Ahmedov, R. Mukminova va boshqa tarixchilar tomonidan yozilgan ilmiy maqola va monografiyalar, ma’ruzalar tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lida muhim qadamlardan bo‘ldi. Ayniqsa, Asqarovning asarlarida Temur davri Xorazm vohasining iqtisodiy va madaniy hayotidagi jonlanishlar ilmiy asosda yoritilgan[8].

Sovet tarixshunosligida bu davrni o‘rganishda muhim iz qoldirgan olimlardan biri – professor A. Y. Yakubovskiy (1886–1953)dir. Uning 1930-yillarda chop etilgan ilmiy tadqiqotlarida Xorazmning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti Ko‘hna Urganch va Mizdahkon kabi yirik shaharlari misolida tahlil etilgan. Yakubovskiy Xorazm shaharlari Temur va temuriylar davrida qayta tiklanganini, bu hududlar madaniy yuksalish markazlariga aylanganini arxeologik topilmalar asosida asoslab bergan. Uning ilmiy qarashlari keyinchalik Y. L. Mankovskaya va G. A. Pugachenkova kabi arxeolog olimalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlandi[9].

Shuningdek, akademik Y. G‘. G‘ulomov (1908–1976) asarlarida ham Xorazm vohasining sug‘orilish tizimi, shaharsozlik va madaniy rivoji masalalari keng yoritilgan. U o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” nomli tadqiqotida o‘rta asr manbalarida keltirilgan shahar va qo‘rg‘onlarning joylashuvini aniqlashga harakat qilgan. G‘ulomovning fikricha, Xorazmning ayrim shaharlari temuriylar davrida ham faoliyatini davom ettirgan bo‘lib, bu holat vohaning iqtisodiy barqarorligini ko‘rsatadi.

S. P. Tolstov esa o‘zining arxeologik tadqiqotlarida Qumkent shahrini o‘rta asr yozma manbalarida tilga olingan Tirsak shahri bilan qiyoslaydi. U bu fikrni XVI–XVII asrlarda Tirsak va Vazir shaharlarining Xorazm mudofaa tizimida muhim o‘rin tutganligi haqidagi dalillar bilan isbotlaydi. Tolstov shuningdek, Shemaxaqal’a yodgorligini ilk bor ilmiy o‘rganib, uni yozma manbalardagi Tirsak bilan bog‘lagan[10].

Sug‘orish tarixi bo‘yicha tadqiqotchi B. V. Andrianov o‘zining “Qadimgi Orolbo‘yi sug‘orish tizimi” nomli monografiyasida G‘arbiy Xorazmning Davdon va Daryoliq atrofida XV–XVI asrlarga oid sug‘orish inshootlari va aholi manzillari

mavjud bo‘lganini qayd etadi. Keyingi davr olimlaridan B. I. Vaynberg bu hududni keng ko‘lamda o‘rganib, Qang‘aqir, Tarimqoya va Qo‘yqirilgan kabi joylarda XIV–XV asrlarga oid qishloq manzillarini aniqlagan.

Arxeologik topilmalar ham Xorazmda Temur va temuriylar davrida madaniy hayot to‘xtamaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, professor M. M. Mambetullayev tomonidan 1984–1990-yillarda Xiva shahrida olib borilgan qazilmalar natijasida aniqlangan ma’lumotlar bu shaharni temuriylar davrida ham janubiy Xorazmning madaniyat markazi sifatida faol bo‘lganini tasdiqlaydi. Xorazmning geografik joylashuvi tufayli u o‘rta asrlarda xalqaro savdo yo‘llarining muhim bo‘g‘ini hisoblangan. Manbalarga ko‘ra, 1438-yilda Tabrizlik savdogar Xo‘ja Shamsuddin Muhammad Urganchda savdo ishlarini olib borgan va u yerdan Volgabo‘yiga Ustyurt yo‘li orqali o‘tgan. Bu fakt Xorazmning xalqaro savdo tarmog‘idagi o‘rnini ko‘rsatadi[11].

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Gurganjning Toshqal’a (Kaan mahallasi) hududida XIV–XV asrlarda hunarmandchilik va savdo rastalari faoliyat yuritgan. Arxeologlar bu joyni Amir Temurning 1391-yilda Urganchni qayta tiklash haqidagi farmoni bilan bog‘laydilar. Shu bilan birga, Devkesgan–Vazirshahri atrofidagi topilmalar, Ustyurt qiridagi rabot (karvonsaroy va istirohat bog‘i majmuasi) ham o‘rta asr Xorazm hayotining yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Mizdahkon (Xo‘jayli) yodgorligida esa temuriylar davriga oid arxeologik qatlamlar hanuz to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsa-da, topilgan sopol buyumlar va qurilish izlari bu yerda XIV–XV asrlarda faol hayot bo‘lganidan dalolat beradi.

Xorazm o‘lkasi Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bu davr tarixini o‘rganish jarayonida ko‘plab yozma manbalar, arxeologik topilmalar, tarixshunoslik tadqiqotlari va manbashunoslik ishlari tahlil qilingan. Ushbu manbalar Xorazmda XIV–XV asrlarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarni o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik faoliyati haqidagi asosiy manbalardan biri – Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” asaridir. Ushbu asar turli tillarga tarjima qilingan bo‘lib, o‘zbek tilidagi nashri tarixchi va arabshunos U.Uvatov tomonidan ilmiy izohlar bilan chop etilgan. Ibn Arabshoh Temur shaxsini tanqidiy ruhda tasvirlasa-da, uning Xorazmdagi yurishlari haqida boy faktologik ma’lumotlar beradi[12].

XULOSA

Amir Temur va temuriylar davrini o‘rganishga bag‘ishlangan yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tarixshunoslik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, XIV–XV asrlarda Xorazm vohasida urbanistik jarayonlar, iqtisodiy yuksalish va madaniy taraqqiyot uzluksiz davom etgan. Bu davrda shakllangan shaharsozlik, sug‘orish tizimlari va savdo yo‘llari Xorazm sivilizatsiyasining barqarorligini ifodalaydi. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar va arxeologik qazishmalar ushbu tarixiy haqiqatni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Yozma manbalarni tahlil qilish shuni anglatadiki, Temuriylar davriga oid ma’lumotlar turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, ularning asosiy qismi Amir

Temurning adolatli siyosati, tinchlik va taraqqiyot yo‘lidagi faoliyatini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytganda, Xorazm vohasi Amir Temur davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalish bosqichiga erishgan bo‘lib, bu holat o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov, Y.G‘. Xorazmning qadimiy shaharsozlik tarixi. – Toshkent: Fan, 1971.
2. Pugachenkova, G.A. Arxitektura epochy Timura. – Moskva: Iskusstvo, 1976.
3. Ahmedov, B.A. Xorazmning XV asrdagi siyosiy tarixi. – Toshkent: Fan, 1984.
4. Ahmedov, B.A. Ulug‘bek va uning “Tarixi arba ulus” asari. – Toshkent: Fan, 1987.
5. Asqarov, A.A. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Fan, 1996.
6. Baratov, S.R. Hazorasp va Xorazm arxeologik yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Mambetullayev, M.M., Qodirniyozov, M.-Sh. Amir Temur va Temuriylar davrida Xorazm. – Urganch: Xorazm universiteti nashriyoti, 2008.
8. Jenkinson, A. Early Voyages and Travels to Russia and Persia. – London, 1886.
9. Bartold, V.V. Sochineniya. T. I–IX. – Moskva: Nauka, 1963–1977.
10. Abdura’zzakov, A.A. O‘rta Osiyo koshinkorlik san’ati tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1988.
11. Asqarov, A.A., Ahmedov, B.A., Muqminova, R. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.
12. Baratov, S.R. Xorazm vohasining arxeologik tadqiqotlari. – Urganch: XDU nashriyoti, 2010.

ШАМСИДДИН КАМОЛИДДИН МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИ ЎРГАНИЛИШИНИНГ ЕТАКЧИСИ

Жалолиддин Зайниевич Мирзаев
Термиз давлат университети доценти,
тарих фанлари номзоди
jmirzo@list.ru

Аннотация: Ушбу мақолада Марказий Осиё тарихининг етакчи тадқиқотчиларидан бири бўлган Шамсиддин Камолиддин ижодининг эпистемологик ва аксиологик жиҳатлари Термиз тарихини ўрганиш нуқтаи–назаридан таҳлил қилишга ҳаракат қилинган. Мавзуга бундай ёндошув чекланган ҳажмдаги адабиётлар асосида белгиланган вазифани бажаришга имкон беради.

Аннотация: В данной заметке предпринимается попытка проанализировать эпистемологические и аксиологические аспекты творчество Шамсиддина Камолиддина, одного из видных исследователей истории Центральной Азии через призму изучения истории Термеза. Такая постановка проблемы позволила выделить более обозримый объем литературы и сделать поставленную задачу реально выполнимой.

Annotation: This article attempts to analyze the epistemological and axiological aspects of the work of Shamsiddin Kamoliddin, one of the leading scholars of Central Asian history, through the historical and cultural lens of Termez. This approach allowed us to identify relevant literature and make the analysis more feasible.

Калит сўзлар: Шамсиддин Камолиддин, Марказий Осиё, тарих, Термиз, ас–Самъоний, тарихий география, Сомонийлар, “*Фазоил–и Балх*”

Ключевые слова: Шамсиддин Камолиддин, Центральная Азия, история, Термез, ас–Сам‘ани, историческая география, Саманиды, "*Фазоил–и–Балх*"

Key words: Shamsiddin Kamoliddin, Central Asia, history, Termez, as–Sam'ani, historical geography, Samanids, “*Fada'il–i* **Balkh**”

XXI асрда бугунги Ўзбекистон жаҳон харитасида эндигина пайдо бўлган тасодифий мамлакат эмаслигини, унинг илдизлари ниҳоятда чуқур ва қадимий эканлиги эътироф этиш, ўзлигимизни англаш ва уни дунёга намоён этиш борасида кенг кўламдаги имкониятлар эшиги очилди. Улар умуминсоний қадриятлар бир қаторда, маданиятимиз ва маърифатимизга асосланган тарихимизни ўзимиз ёрқин тасаввур қилишмизга, унинг жаҳон миқёсида тутган ўрни ва мавқеини аниқ ифодалаб беришга шароит яратиб берди.

Ўзбекистон бутун тарих жараёнида инсоният тафаккури маҳсулоти бўлган турли маданиятлар юзма–юз бўлган, уларннинг ўзаро уйғунлашган

макондир. Юртимиз тарихининг ибтидоси асрлар қаърига сингиб кетган бўлиб, халқимизнинг қадимий мероси дунё афкор оммасининг ақлини шошириб қўймоқда. Тарихий ўтмишни янгидан талқин этишнинг Ўзбекистонда кечаётган фаол жараёни мобайнида олиб борилаётган тадқиқотлар, юртимиз тарихи ва маданияти ҳақидаги билимларимизни бойитишга, унинг янги қирраларини кашф этишга имкон бермоқда.

Марказий Осиё тарихини ўрганишда бурилиш ясаган В.В. Бартольд ўзининг асарларида тарихий билимнинг эпистемологик мақомини янги даражага олиб чиқди. Жумладан, Термиз тарихини ёритишда XX асрда В.В. Бартольд асарлари ва археологик тадқиқотлар асосий манба бўлиб қолди. Лекин илм тараққиётининг мантиғи шундаки, вақт ўтиши билан тадқиқотчилар янги маълумотларга эга бўладилар ва уларнинг ёрдамида янги қарашларни шакллантирадилар. Кечагина шак–шубҳасиз қабул қилинган ақидалар вақт ўтиши билан эътирозларга сабаб бўлади.

XIX – XX асрларда ғарб тадқиқотчилари қанчалик ютуқларга эришмасинлар, ўзларининг маданияти қобиғидан ташқарига чиқа олмадилар. XX аср мобайнида европапарастликнинг мафкуравий асоси бўлмиш орийлик назариясининг сохта ақидалари инқирозга учраганидан сўнг, бу олимлар мафкурасида ўтроқ аҳоли билан кўчманчилар ўртасидаги зиддиятларга асосий эътиборни қаратиш марказий ўрин эгаллади. Айниқса XX асрнинг иккинчи ярмида жамият тараққиётини ушбу зиддият билан талқин этиш устиворлик қила бошлади. Албатта, ўтроқ аҳоли билан кўчманчилар ўртасида зиддиятлар мавжуд бўлган, жаҳон тарихида сезларли из ҳам қолдирган. Лекин мазкур зиддият хеч қачон жамият ривожланиши жараёнида ҳал қилувчи аҳамият касб этмаган.

Бошқа томонда, моддийликни жамият тараққиётининг ҳал қилувчи омили сифатида қабул қилган тарихий материализм руҳидаги изланишларда олимлар диққат–эътиборини ўтмишимизни моддий унсурлар воситасида ёритишга қаратади. Бундан ташқари, собиқ Иттифоқда бошқа ижтимоий фанларга бўлгани сингари, исломга бўлган ғайри–социологик ёндашув ўрта аср тарихи ва маданиятини ўрганишнинг методологик хусусиятини белгилаб берди.

Мазкур ёндошувларнинг эндиликда инқирози яққол кўрина бошлади. Уни рўёбга чиқариш замонавий фан ютуқлари билан қуролланган тадқиқотчиларнинг янги авлоди вазифаси эди.

Шамсиддин Камолиддин Марказий Осиё тарихини ўрганишда янги даврни бошлаб берди. Янги шаклланган тарихнавислик мактабининг етакчи вакили бўлган тарих фанлари доктори профессор Шамсиддин Камолиддин ўнлаб китоблар, юзлаб мақолалар муаллифи сифатида дунёга танилмоқда. Ўзидан олдин ўтган тадқиқотчиларнинг улкан меросига таяниб, уларни танқидий таҳлил этиб, манбаларни илмий муомилага киритиб, уларни ўрганишни янги даражага кўтариб, ўзига хос ёндошувни шакллантириб Шамсиддин Камолиддин Марказий Осиё тарихини ўрнишни янада юқори поғонага кўтарди. Шу билан бирга, Шамсиддин Камолиддин тадқиқотларида аксиологик жиҳатларнинг ортиб боришини кўриш мумкин.

Шамсиддин Камолиддин томонидан ёзилган илк йирик ва тадқиқот Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ас–Самъонийнинг "*Китоб ал–ансоб*" асари эди. Китоб муқаддимасида П.Г.Булганин ва Э.В. Ртвеладзе таъкидлаганидек, муаллиф биринчи марта академик даражада ас–Самъонийнинг Ўрта Осиё ҳақидаги маълумотларни комплекс равишда тўлиқ ўрганиб чиқади [Камолиддин 1993: 3]. Унда биринчи марта Термиз ва Термизийлар ҳақидаги маълумотлар қиёсий таҳлили билан илмий муомилага киритилган. Масалан, Термиз ва унинг вилоятидаги шаҳарлар ҳақидаги маълумотлар, Холид ибн Зийод ал–Азди ат–Тирмизи ва унинг ўғли Абд ал–Азиз ибн Холид ат–Тирмизиларнинг Термиз ва Марвда қозилик қилганлиги қайд этилган.

Термиз вилояти ҳудудидаги шаҳарлар мавзуси Шамсиддин Камолиддиннинг алоҳида мақоласида [Камолиддин 1993а: 37 – 43], кейинчалик, муаллифнинг фундаментал асарида давом эттирилди[Камолиддин 1996: 99 – 132]. Жанубий Сўғд ва Тохаристоннинг тарихий географиясига бағишланган китоб Ўрта Осиё тарихи билан шуғулланувчи тадқиқотчиларнинг доимий қўлланмасига айланди. Чунки китобда мавзу юзасидан мавжуд турли соҳаларни қамраб олган маълумотлар таҳлили амалга оширилган эди.

Сомонийлар сулоласининг ҳукмронлиги Ўрта Осиёнинг ўрта асрлардаги тарихининг муҳим босқичларидан бири эди. Бу оиланинг вакиллари IX – X асрлар давомида Мовароуннаҳр ва Хуросон ҳудудларида ҳукм сурганлар. Ўрта асрлардан қолган ёзма манбаларда ўша даврнинг сиёсий, иқтисодий ва маданий тарихи ҳақида батафсил маълумотлар мавжуд. Лекин Сомонийлар сулоласининг келиб чиқиши ҳақидаги маълумотлар жуда ҳам кам ва бир–бирига зиддир. Сомонийларнинг келиб чиқиши ҳали тўла аниқланмаган ва номаълум бўлса ҳам, кўпчилик орасида уларнинг келиб чиқиши форс бўлган деган янглиш фикр ҳукмрондир. Шунинг учун Сомонийлар оиласининг асл келиб чиқишини аниқлаш нафақат Ўзбекистон тарихи фани, балки бутун дунё шарқшунослик фанининг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолган эди.

Сомонийларнинг келиб чиқишини ўрганар экан Шамсиддин Камолиддин ўн тилдаги уч юзга яқин тарихий манбалардан фойдаланган. Мавзуни ёритишда муаллиф томонидан жалб этилган илмий тадқиқотлар сони эса минглаб нашрлардан иборат. Фаолияти давомида Шамсиддин Камолиддин Сомонийлар сулоласи ҳақида ўттизга яқин илмий ишларини эълон қилди. Германияда 2012 йилда нашр этилган китоб эса узоқ йиллар давомида оширилган илмий изланишларнинг янги назар билан ғалвирдан ўтказилган мантиқий якуни бўлиб қолди.

Сомонийлар сулоласининг бобокалони Сомон–худот Балх ёки Термиз яқинида жойлашган Сомон номли бир қишлоқнинг асосчиси бўлган. Кўпчилик манбалар унинг келиб чиқишини Сосонийлар шоҳаншоҳи Хурмазднинг IV (579 – 590) қўмондони Баҳром Чубин билан боғлиқ бўлганлигини кўрсатади. Манбалардаги айрим маълумотларга кўра, Термиз яқинида тож кийган Баҳром Чубиннинг келиб чиқиши Хуросондаги туркий қабилалари билан боғлиқ бўлган. Бу қабилалар Сосонийлар сулоласининг хизматида

бўлиб, уларнинг шимолий чегараларини қўриқлаб турганлар. Ўрта асрларнинг ёзма манбалари, шунингдек нумизматика, эпиграфика, этнография, топонимия ва тарихий лингвистика маълумотларини комплекс равишда ўрганиш натижасида Шамсиддин Камолиддин шундай хулосага келадики, Сомон–худотнинг келиб чиқиши ҳам Баҳром Чубин сингари Хуросоннинг туркий қабилалари билан боғлиқ бўлган. Бошқа тарафдан унинг келиб чиқиши Турк ҳоқонлигига асос солган ва унинг олий ҳукмдорлари бўлган Ашина уруғи билан боғлиқ бўлган. Сомонийлар тарихини ўрганар экан Шамсиддин Камолиддин Термиз билан боғлиқ кўплаб маълумотларни таҳлил қилади. Масалан, Сурхондарёда топилган ёдгорликларда, тангаларда кокиллик кишилар тасвири кўп учрайди. Жарқўрғон яқинидаги Оқтепада топилган ҳайкалчада, Ангор яқиниидаги Болаликтепада топилган суратларда ҳам кокиллик кишилар тасвирланган. Айниқса, ислом ёйилишидан олдинги вақтларда юртимизда ҳукмдорлик қилган Тоҳаристон йабғулари акс эттирилган тангалардаги тасвирлардан кокил улар орасида расм бўлганлигини биламиз. Лекин бу ҳолни Термиздаги Шаҳри Сомон ҳудудидаги Кокилдор ота ёдгорлиги билан Сомонийлар билан боғлиқлиги Шамсиддин Камолиддин томонидан асослаб берилган [Камолиддин 2012: 112 – 115].

Шамсиддин Камолиддин томонидан манбаларнинг нашр этилиши тадқиқотчиларга кенг истиқболларни очиб бермоқда. Масалан, Сафи ад–дин ал–Балхининг “Фазоил–и Балх” – Балх шаҳрининг фазилатлари асарининг 676/1278 йилда Абдуллоҳ б. Мухаммадом б. ал–Қосим ал–Хусайний томонидан форс тилига таржима қилинган матнининг Шамсиддин Камолиддин ва Иқболжон Усмонов нашрида ёзма манба матни билан бирга кенг ва чуқур изоҳлар берилган [Камолиддин 2020]. Ҳатто айтиш мумкинки, илмий жиҳатдан таржима матнидан кўра унга ёзиган шарҳлар қимматлироқдир.

“Фазоил–и Балх”да Термиз шаҳрининг бунёд бўлишига доир ривоят келтирилган. Асарда келтирилган ривоятга кўра шаҳарининг бунёд этилиши афсонавий Каёнийлар сулоласининг подшоҳларидан бири Гуштосп билан боғланади. У Марвда бўлганида, Мулк–и Таъоло исми Айюб бўлган пайғамбарни жўнатади. Айюб пайғамбар Гуштоспга Балх шаҳрини бунёд қилишни буюради. Бундан аввал Гуштосп Термиз шаҳрини бино қилади. Бинобарин, Термиз шаҳри “шаҳарлар онаси” номини олган Балхдан ҳам аввал бунёд бўлган бўлади. Айтиш керакки, айрим манбаларда “шаҳарлар онаси” атамаси Термиз шаҳрига нисбатан ҳам ишлатилган. Термиз ҳудудида амалга оширилган археологик тадқиқотлар ёзма манбада келтирилган ривоятни исботлайди. Термиз яқинида жойлашган Талитоғара ёдгорлигида амалга оширилган тадқиқотлар милоддан аввалги биринчи минг йиллик ўрталарига доир топилмалар Термиз шаҳри ҳудудида шаклланган манзилгоҳлар борасида янги хулосаларга келишга имкон яратди. Бунинг устига, Абдуллоҳ б. Мухаммадом б. ал–Қосим ал–Хусайний Термиз саййидларидан эканлиги ўз исботини топди.

Термиз тарихини ёритишда XXI асрга келиб Шамсиддин Камолиддин асарлари тадқиқотчиларнинг янги авлодига катта таъсир кўрсатди. Бу таъсир натижасида амалга оширилган тадқиқотлар Термизнинг нафақат Мовароуннаҳрдаги илк исломий шаҳар эканлиги[Мирзаев 2007 : 173–175], балки давлатчилик ва маданият тимсоли[Мирзаев 2001: 13–20], маънавият ва маърифат маркази сифатида эътироф этишга имкон яратди[Мирзаев 2001а: 67–71]. Шунингдек, Шамсиддин Камолиддин асарлари Термиз ҳудудидаги этник жараёнларнинг яхлит манзарасини яратишга асос бўлди[Мирзаев 2024].

Шундай қилиб, кўплаб тадқиқотчиларнинг фидокорона меҳнатлари туфайли, йигирманчи асрда Марказий Осиё тарихини ўрганиш борасида катта муваффақиятларга эришилди. Булар биринчи навбатда, моддий маданият, тарихий топография, археологик ва меъморий ёдгорликларни ўрганиш соҳалари билан боғликдир. Бироқ, айтиш лозимки, бу тадқиқотларнинг натижалари тарихий меросимизнинг жамият маънавий ҳаёти билан белгиланадиган қисмини қамраб олган эмас. Тадқиқотчилар ёндашуви жамиятда ҳукмрон мафкуравий қарашлар билан белгиланган. Натижада тарихшунослигимизда шаклланган биқиқ ёндошув тадқиқотчиларни бир қолипга солиб қўйди. Ундан чиқишимизни, тарихга холислик, тўлиқ илмий ҳақиқат билан қарашни Шамсиддин Камолиддин таъминлаб берди. Олимнинг тадқиқотларида фақат эпистемологик, яъни янги билим ва маълумотлар эмас, балки аксиологик омиллар, аҳлокий ва маънавий кадриятлар муҳим аҳамият касб этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Камолиддин 1993 – Камалиддинов Ш. С. «Китаб ал–ансаб» Абу Са‘да Абдалкарима ибн Мухаммада ас–Сам‘ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии / Под ред. П. Г. Булгакова. Ташкент: Фан, 1993.

2. Камолиддин 1993а – Камалиддинов Ш. С. О средневековых городах области Термеза.. Общественные науки в Узбекистане, 1993: N. 2. С. 37 – 43.

3. Камолиддин 1996 – Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. Ташкент: Узбекистан, 1996.

4. Камолиддин 2012 – Камолиддин Ш. С. Саманиды: Из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Saarbrücken: LAP, 2012.

5. Камолиддин, Усмонов 2020 – Фазоил–и Балх – بلخ فضائل – Балх шаҳрининг фазилатлари. Шамсиддин Камолиддин ва Иқболжон Усмонов нашри. Publisher: Generis Publishing, 2020.

6. Мирзаев – Мирзаев Дж.З. Термез – первый мусульманский город Мавараннахра. Uzbekistan’s contribution to the development of Islamic civilization. Abstracts of the papers and addresses to the International Conference devoted to announcement of Tashkent as a capital of Islamic Culture for 2007 by the ISESCO. –Tashkent–Samarqand: Publishing Center oh al–Imam al–Bukhari, 2007.

7. Мирзаев – Мирзаев Ж. Термиз ўзбек давлатчилиги ва маданияти тимсоли сифатида // O’zbekiston tarixi. 2001. №4.

8. Мирзаев – Мирзаев Ж. Термиз – маънавият ва маърифат маркази // Ижтимоий фикр. Инсон хуқуқлари. 2001а. №4.

9. Мирзаев – Мирзаев, Д.З. Проблемы этнической истории Центральной Азии. На примере приграничного региона Амударьи : монография / Д.З. Мирзаев. – Витебск : ВГУ имени П.М. Машерова, 2024.

ГАУРГОНЛАР ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ ДАХМАСИ

Хушвақов Наби Олимович
Тарих фанлари доктори (DSc),
Шаҳрисабз Педагогика институти., доцент.
Тел: +998973199002
Олимов Улуғбек Наби ўғли.
Катта илмий ходим.
“Шаҳрисабз” давлат музей-қўриқхонаси.
Тел: +998972537667

Қадимги Кеш вилояти худудида Зорастризм дини анъаналарига кўра, майитлар дафн этилган кўплаб остадонлар топилган. Уларда асосан майитни “рухини суд қилиш жараёни” фалсафий тарзда акс этган. Шаҳрисабзнинг Юмалоқтепа ёдгорлигидан топилган остадонлардаги композицион тасвирларда Зардуштийлик дини фалсафаси -жаннат, инсон рухини маьбудлар томонидан суд қилиш ва қайта туғилиш ғоялари, маьнавий қарашлари, сеҳру-жодуга ишонганлиги ва қайта туғилиши (реокарнация) ғояси акс этган. Унда инсон руҳининг ўлимдан кейинги тақдири, Сроуш маъбуди (“Авесто”да охиратдаги ҳакамлардан бири, итоаткорлик ва тартиблар маъбуди) марҳумнинг рухини тарозида тортиб “айбини аниқлаш, гунохлари кам бўлса”, Чинват кўпригидан жаннатга ўтказиши ифодаланган [1. Б.2-5].

Остадон композициясида 13 та сиймо мавжуд, шундан 10 таси маъбудлар, 3 та турли хил ҳайвонлар акс этган. Уларнинг барчаси 2 қатлам (ярус)да ва саҳна кўринишида жойлаштирилган. Ушбу композиция Китоб туманидаги Сиваз қишлоғидан топилган остадонларга стилистик ва сюжети жиҳатидан жуда ўхшаш. Сиваз остадонини тадқиқотчилар Н. И. Крашенинникова ва Франциянинг атоқли археолог академиги Ф. Гренеларнинг фикрича, “эркаклардан бир оёғини йиғиб, иккинчисини узатиб ўтирган сиймо – “жаннат” эгасидир. У “Ардавихшт” – олов маъбуди сифатида тахтда ўтирибди, деб талқин этилишади. Маъбуднинг пастида иккита қучқор қарама-қарши жойлашган. Қўйларнинг орасида очилган гул ва идиш мавжуд. Саҳнанинг пастки қисмида эса тиз чўкиб турган аёл тасвирланган.

Биринчи қатордаги расмларнинг асосий ғояси “нариги дунёдаги Чинвад кўпригида илоҳий суд қилиш маросими” бўлиб, Авестода судни

маъбудалардан Михр ва Рашн бошқариб “ёруғ дунёда инсон танаси бажарган ишларни кўради”. Тарози ушлаб турган образ Рашн, у “Адолат маъбудаси” ҳисобланади. “У майитнинг насаби, мансаби, ҳукмронлиги ёки қуллигига соч қалинлигича ҳам ён босмасдан ва зарар етказмасдан“ одиллик билан ёндашади (1 ва 2-расм).

Тадқиқотчи Ф. Грененинг фикрича, тасвирдаги оқ от Михра ёки Митра инкарнациясидир. У Шаҳрисабз остадонидаги тасвирда эгарланган от майитнинг руҳи учун Михр маъбудига қурбонликка бағишланган ва қурбонликни амалга ошираётган илоҳий шахс -Сроуш эса “руҳларнинг ҳимоячиси” сифатида талқин этиб, от майит учун “қурбонликка аталган” деб талқин этади. Тўғри, айрим манбалар- хусусан Аррианнинг ёзишича, Кирнинг валиаҳди Камбиз отасининг қабрига руҳи учун ҳар куни қучқор қурбонлик қилган, ҳар ойда бир марта от қурбонлик қилган, отни “қуёшга бағишланган қурбонлик” деб ҳисоблаган.

Ф.Грененинг фикри анча мунозарали,чунки отни эгарланган холати уни қурбонлик учун эмас, балки “майитни рухини жаннатга олиб ўтувчи” сифатида талқин этиш имконини беради.

Франц Грене Сиваздан топилган остадонда чизилган иккита қучқорни ҳам “қурбонлик учун” деб талқин этган. Бундахишнада таъкидлангандек, “қурбонлик қилиш охирзамонда гуноҳлардан озод бўлиш учундир”. Остадон композициясида тасвирланган мусиқачи маьбудлар ва гуллар “жаннатдан таралаётган мусиқа товуши ва хушбўй ҳид таратаётган райхон”ни англатади. Жаннат –garōdmān, мусиқа маскани, хушбуй хидли маьво ҳисобланиб, ундан жаннат насиб этган инсон “рухи” ором олади.

Остадоннинг тўртта бурчагида бойқушга ўхшаш қуш ва уларни бир-бири билан боғлаб турган ҳалқасимон доира чизилган. Зардуштийларнинг диний тасаввурларига кўра, бу қуш марҳум рухини ёвуз девлардан ҳимоя қилади. Умуман олганда, Юмалоқтепа остадонида семантик жиҳатдан “Жаннатга олиб кирувчи Чинвад кўпригида маъбудлар томонидан майит рухини суд қилиш жараёни ва рух тақдирини ҳал этилиши” тасвирланган.

Кешнинг тоғли худудларида остадонлар топилмаган, аммо маҳаллий ахоли Говургон деб атайдиган тош миноралар сероб. Муаллифлар 2012-йилдаги Муқанна қўрғонини излашга бағишланган экспедицияси натижасида Қамаши туманининг Қизилтом қишлоғи, Тирнасойнинг бошланиш қисмида 12 та Гавургон деб аталадиган иншоатларни топишган эдилар (2 ва 3-расм). Бу махсус иншоатлар тоғ меьморчилигига хос материаллар-ишлов берилмаган тошлардан бунёд этилган. Мазкур ёдгорликлар Ўзбекистон республикаси худудидаги археологик ёдгорликлар рўйхатига кирмаган, денгиз сатхидан 2900-2950 м. баландлигида жойлашган янги типдаги археологик ёдгорликдир.

Говургонлар Хисор тоғ тизмасидаги Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ, Қамаши ва Сангардак худудларида кенг тарқалган. Махаллий аҳоли орасида Говургонлар ислом давригача аньанавий даҳма ролини бажаргани ҳақида кўплаб афсоналар тарқалган. Афсоналарнинг асосий мазмунида фарзандлар ота-оналарини “умри поёнига етгач”, Говургонларга ташлаб келиши

ифодаланган. Зармаслик 90 ёшли ўқитувчи Бўриқул Худайбердиев ва Қизилтомлик фуқаро Соат Мирзаевлар (1961 йилда туғилган) ота-боболаридан эшитган афсоналарида иншоатни қадимий урф-одатларга кўра дафн этиш билан боғлиқ қизиқарли этнографик маьлумот берган эди. Афсоналарнинг мазмун-моҳиятига кўра, Говургонлар Ислом динигача бўлган давр маданияти билан боғлиқ. Ҳақиқатдан ҳам, Гаур сўзи арабчадан таржима қилинса, кофир мазмунини беради.

Қашқадарё вилоятининг тоғли худудларда жойлашган археологик ёдгорликларни излаш ва илмий муомилага киритиш ишлари XX-асрнинг иккинчи ярмидан бошланган. Масалан, чет эллик ва маҳаллий археологлар ёзма манбаларга қайд этилган Хисор тоғида жойлашган Муқанна қўрғонини излаш ва арабларга қарши кураш масаласини кенг тадқиқ этишган [2, 3. Б.169-194].

1950-йилларда С. Кабанов Қашқадарёнинг юқори қисми-Яккабоғ ва Тошқўрғон қишлоқларида изланишлар олиб бориб, “Ҳисор тоғ тизмаси ёзма манбаларда Сиём ёки Синам деб эслатилиши, тоғлар Муқанна қўзғалонлари муносабати билан изланишлар тарихига кирган” деб ёзган эди [3, Б. 56]. Кейинги изланишлар М.Е.Массон бошчилигида Ўрта Осиё Давлат университетида Археология кафедрасини ташкил топиши ва изланишлари туфайли ривожланди [4, Б.32]. Археология кафедраси профессор-ўқитувчилари раҳбарлигида талабалар ҳам Кешнинг тарихий географик худудидаги изланишлар олиб бориб, денгиз сатхидан 2000 м. баландликда жойлашган VII–IX-асрларга оид кўплаб археологик ёдгорликлар-қўрғонлар, уй-жой қолдиқлари ва мозорлар топишган [5, Б.32]. 1975-йилдаги изланишлар натижасида Яккабоғнинг Татор қишлоғидан Қизилдарё ёқалаб 30 км.лик масофада 60 дан зиёд археологик ёдгорликларни аниқлашган. Қамаши туманининг тоғли худудларидан 29 та, Яккабоғдан 200 дан зиёд археологик ёдгорликлардан қимматли ашёлар топилган.

Тоғли худудлардаги меьморий иншоатларнинг ўзига хос жихатларни тадқиқ этган марҳум профессор, архитектор Д. Нозилов эса 1985-йилда Дуконхона қишлоғи яқинидаги Говургонларни кўриб, уларни қурилиш меъморий жихатларини ўрганган. У ҳам Говургонлар зардуштийларнинг даҳмаси, деб талқин этган.

Дуконхона Говургонининг ўлчамлари қуйидагича: миноранинг баландлиги 6.40 м., минора ярим пирамида шаклида ва тепасида 2Х2 м. атрофида 15-20 см.ли парапит билан (наус?) хосил қилинган. Минора 2 қаватли ёпиқ камерадан иборат. 1-қават ётиқ жойда 0.9-1.3 м. баландликда қурилган. Ғарбий томондаги камерага кириш жойини эни 0.50 м. узунлиги 1.8.м. 2-қаватни ичи эса 1,95- 2,20 м. Унга кириш жойи шимол томонда жойлашган. 2-қаватни кириш жойи ўлчамлари 0,84 х 0,60 м.(4-расм). Говургоннинг тепасидаги текислик майит этини тозалаш учун тайёрланган наусни эслатади. Д. Нозилов Говургонни Зорастризм одатлари бўйича дафн иншоати сифатида эътироф этса-да, майитни суякларини йиртқич хайвонлар ва махсус „тарбияланган кучук“ тозалаган бўлиши мумкинлиги ҳақида фикр юритиб, тарихий ҳақиқатни аниқлаштиришда археологлар ва

шарқшуносларнинг илмий тадқиқотларидан умидвор экани ҳақида ёзган эди [6, Б. 492]. Майитни этини йиртқич қушлар оиласига кирувчи қушлар тозалашганини Сангиртепадан топилган остадоннинг 4 томонида бургут ифодалангани ҳам тўлиқ исботлайди.

Говургонларнинг тадқиқ этиш ва тарихий талқини Ангиялик машҳур тадқиқотчи, атоқли Авестошунос олим Мери Бойс томонидан XX асрнинг ўрталарида бошланган. Унинг ёзишича, қадимги форсийлар *Урван*ни „майитнинг руҳи“ деб ҳисоблайди [7, Б. 11].

Эрон ва Ҳиндистон худудларидаги Зардуштийликни кенг тадқиқ этган Мери Бойснинг илмий асарлари Хисор тоғи худудида сақланиб қолган Говургонларни ўрганишда катта аҳамият касб этади. У Эроннинг тоғли худудларида Ислом дини кириб келган вақтларда хам Зардуштийларнинг тошлардан бунёд этилган дахмалари мавжудлигини ёзма манбаларда учрашини қайд этган. Эрамизнинг 830-йилида Самарқандлик Зардуштийлар Адурфарн Фаррохзодадан тошдан бунёд этиладиган минорали дахмаларни қуриш масаласида савол сўралган. У „янги дахмалар қурилгунича, эскилардан фойдаланиш ҳақида тавсиялар“ини берган [8, Б. 104-105].

Юқоридаги маьлумотлардан кўриниб турибдики, қадимги ва илк ўрта асрларда Кешнинг тоғли худудлари кўплаб қадимий даҳмалардан иборат маъво бўлган.

Говургонлар ўзининг қурилиши техникаси ва тузилмаси жихатидан Мугхона ёки Мукхоналардан жиддий фарқ қилади. Мугхона (форсий ġ , “Маьбуд уйи” мазмунига эга) Қўрама тоғи хамда Фарғона водийсида учрайдиган тошдан бунёд этилган даҳма бўлиб, эрамизнинг I–III асрларида кенг тарқалган. Одатда Мугхоналар думолоқ шаклда, диаметри 8 м. гача, тош деворларининг қалинлиги 2 м.гача, баландлиги 3-3.5 м. гача бўлиб, унинг қаватлари (камералари) йўқ. Мугхоналарда оловга сиғиниш одатлари акс этади. Қурумлар хам дафн этиш қурилмаларидан бири бўлиб, унда эса тошдан уюмлар тарзида ясалади [9, Б. 11].

2012 йилда К. Абдуллаев ва Н. Хушвақов Қизилтом қишлоғи атрофидан 12 та Говуронларни манзили ва конструкциясини тадқиқ этган. Мазкур Говургонлар ҳам Дуконхона қишлоғидаги Гувургонларга ухшаш конструкцияга эга, яьни 2 та камерадан иборат. Муаллифлар 12 та Говургонларни биридан инсон суягини кичик бўлагини топишган эди. Суяклар жуда кам ва майда бўлгани учун антропологик жихатдан диагностика қилиш имкони бўлмаган [10, Б. 492]. Афсуски, Говургонларнинг кўпчилиги “сохта-қора археологлар” томонидан бойлик излаш мақсадида бузиб ташланган.

Хуллас, Говургонлар Зардуштийларнинг қадимий урф-одатига кўра, майит дафн этиладиган даҳма бўлиб, уни тепасида майит этдан тозаланган ва бу жараёнда йиртқич қушлар фаол иштирок этган. Инсонни танаси этдан тозалангач, Сроуш фариштаси инсон “рухини суд қилиб, жаннат ёки дузахга ўтишини” белгилаган.

Гавургонларни саналашда археологик материаллар кам, аммо уларни Ислом давридан олдин бунёд этилганини келажакда Зармас, Қаранқул,

Дуконхона ва Вори қишлоқлари худудидагиларини тадқиқ этиш аниқ маьлумотлар бериши мумкин. Говургонларни музейлаштириш эса маҳаллий ва хорижий туристларга тоғ худудларидаги табиий мерос билан биргаликда маданий мерос объектларидан ҳам бархаманд бўлиш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Бердимуродов А.Э., Богомолов Г.И., Хушваков Н.О. Новые находки штампованных ассуариев в окрестностях Шахрисабза.// Ўзбекистон археологияси. 2012. №2. – С.2-5.
2. Абу Са’ид Гардизи. украшение известий. Зайн ал-Ахбар / Пер. А.К. Арендса. Ташкент. 1991., Бируни А.Р. Памятники минувших поколений / Пер. М.А. Салье // Бируни Абу Рейхан. избранные произведения. Ташкент. 1957., Қошғарий М. Туркий сўзлар девони. (Девони луғатит турк). III жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Тошкент. 1963., Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. 1. М. 1963., Большаков О.Г. Хронология восстания Муканны // Эпиграфика Востока. 1976: С.90–98., Кадырова Т.9. из истории крестьянских восстаний в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. Ташкент. 1965.
3. Абдуллаев К. А., Хушваков Н. О. К локализации калы Муканны. Вестник древней истории. М. 2015 г. № 2, с. 169–194.
4. Кабанов С.К. Археологические разведки в верхней части долины Кашка-Дарьи // Труды института истории и археологии. Вып. 7 (Материалы по археологии Узбекистана). Ташкент. 1955. С-56.
5. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Ташкент. 1973. С-32.
6. Назилов Д.А. Гавурганы в Гиссарских горах. «Архитектурное наследство», вып. 40. Москва, 1996. С-33., Он же, Культово-мифологические традиции и символы в зодчестве Центральной Азии /– Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022. – 492 с.
7. Бойс М. Зорастрийцы. Верования и обычаи. «Наука». М.1987. с-11.
8. Dhabhar B. N. The Persian Raiyats of Hormazyar Dhahan. Bombay. 1932.
9. Литвинский Б. А. Курганы и курумы Западной Ферганы. – Москва, 1972. Баратов С. Р. Культура скотоводов Северной Ферганы в древности и раннем средневековье. По материалам курумов и мугхона. – Самарканд, 1991. Автореферат диссертации на соискание степени кандидата исторических наук.
10. Kazim Abdullaev and Nabi Knusnvakov, Qala of Mukkanna: Routes of Search(Preliminary report). Istanbul üniversitesi Türkiyat araştirmalari enstitüsü/ Art-sanat. 2/2014 issn: 2148-3542. 1-49 стр.

1-расм

2-расм.

3-расм.

4-расм.

5-расм

EFTALIYLARDA DAVLAT MAFKURASI, HUQUQ VA MUDOFAA TIZIMI HAQIDA MANBALAR TAHLILI

Oreantal universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
PhD. J.Kamolov

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eftaliylar davlati (V–VI asrlar) siyosiy va mafkuraviy asoslari, huquqiy tartibotlari hamda mudofaa tizimi tahlil etiladi. Tadqiqotda Eftaliylar hokimiyatining mafkuraviy poydevori, diniy va dunyoviy qarashlar hamda ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, jamiyat hayotida amal qilgan huquqiy normalar, adolat tamoyillari va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada Eftaliylar davlatining mudofaa siyosati, qo‘shin tuzilishi, harbiy taktika va strategiyalar, shuningdek, yirik yurishlar va tashqi xavflarga qarshi olib borilgan harbiy choralarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Eftaliylar, davlat mafkurasi, huquqiy tizim, mudofaa, qo‘shin, yilnoma, din, marosim, qonun, monastr, ko`chmanchi.

Аннотация. В данной статье анализируются политические и идеологические основы государства эвталиев (V–VI века), их правовой порядок и система обороны. Исследование освещает идеологическую основу власти эвталиев, их религиозные и светские взгляды, а также роль в управлении государством. Кроме того, обсуждаются юридические нормы, действовавшие в обществе, принципы справедливости и процессы социальной стратификации. В статье уделяется внимание политике обороны

эвталиев, структуре войска, военной тактике и стратегиям, а также крупным походам и мерам против внешних угроз.

Ключевые слова: эвталии, государственная идеология, правовая система, оборона, войско, летопись, религия, обряд, закон, монастырь, кочевники.

Annotation. This article analyzes the political and ideological foundations, legal order, and defense system of the Eftalites state (5th–6th centuries). The study explores the ideological basis of Eftalites' power, their religious and secular views, and their role in state governance. It also discusses the legal norms in society, principles of justice, and social stratification processes. The article pays attention to the defense policy of the Eftalites, army structure, military tactics and strategies, as well as major campaigns and military measures against external threats.

Keywords: Eftalites, state ideology, legal system, defense, army, annals, religion, ceremony, law, monastery, nomads.

Eftaliylardagi davlat mafkurasi va huquq tizimi bo‘yicha keng ma’lumotlar yozma manbalarda o‘rin olmasa-da, ulardagi jinoyat va jazo masalasi, ko‘mish marosimlari, ijtimoiy turmush tarzi haqida “Bey-shi” va “Vey-shu” yilnomalarida, shuningdek qisman elchi Sun Yun keltirilgan ma’lumotlar bu borada birmuncha tasavvurlar beradi. Elchi Eftaliylar davlati ijtimoiy tuzumida tabaqalashuv mavjud ekanligini quyidagi ma’lumotlari orqali keltirib o‘tadi. “Ularda kambag‘allar va boylarning kiyimlarida farqlilik ko‘zga tashlanadi”. [1, 256-266]

Eftaliylar jamiyati yuqori tabaqa va oddiy xalq o‘laroq ikkiga bo‘lingan. Ya’ni katta boyliklarga ega boy kishilar (saroy a’yonlari, amaldorlar, urug‘-qabila boshliqlari va h.k.) va o‘rtahol yoki kambag‘al aholi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, turli xizmatlar bilan shug‘ullanuvchilar). Jamiyatdagi tabaqalashuv ularning ko‘mish marosimlarida ham aks etgan. Eftaliylardagi ko‘mish marosimlari haqida elchi Sun Yun keltirilgan quyidagi ma’lumot bu borada birmuncha tasavvurlar beradi. “Boy xonadonlar marhumni tosh lavhalar qo‘yilgan qabrlarga qo‘yiladi, yo‘qsillar esa qazma qabrlarga ko‘miladi”.[2, 265-266]

Eftaliylarda davlat mafkurasi bevosita ularning diniy qarashlari bilan bog‘lanib ketgan bo‘lib, urug‘-qabilachilikka asoslangan an’analardan iborat bo‘lgan, deyish mumkin. Xo‘sh, ko‘chmanchilarga xos an’analar mohiyatan qanday bo‘lgan. Bu masalada aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun o‘z an’analarining ko‘pchiligini Juan-juanlar orqali Xun saltanatidan olgan Turk xoqonligi misolida ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, qadimgi turklarda qonunlar “to‘ru” (*to‘ru*) yoki «to‘ra» deb atalgan. O‘rxun bitiktoshlarda *to‘ru* haqida ko‘p marotaba eslatilgan bo‘lsa-da, qonunlarning majmua holida yig‘ilib, yozuvda ifodalangani haqida ma’lumotlar uchramaydi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarga ko‘ra, qadimgi turkiy qonunlar – *to‘ru* og‘zaki bo‘lib, hech qachon yozuvga ko‘chirilmagan.[3, 854] Demak, qadimgi turkiy urf-odatlarga asoslangan ushbu ibora ostida an’anaviy rasm-rusumlar, ya’ni “odat huquqi” tushuniladi. Bitiktoshlarda “*turk to‘rusini yo‘qotgan xalqni ota-bobolarim to‘rusi bo‘yicha tartibga solibdi, boshqaribdi*” mazmunida jumlalar

uchraydiki, [4, 105] bu esa jamiyat a’zolari nazdida qonunlarning “ajdodlar meros” ekanligidan va xalqning barcha qatlamiga tegishli deb bilinganidan darak beradi.

Turk xoqonligidan oldinroq ham *to‘ru* tushunchasi mavjud bo‘lganini tasdiqlaydigan ma’lumotlar Juan-juanlarga oid manbalarda ham uchraydi. Jumladan, 510 yillar atrofida xoqon bo‘lgan Chounu o‘ziga *Dou-lo fu-ba-do u-fa ke-xan* unvonini qabul qilgani va u Vey sulolasi tilida[86] “boshqaruvni yorituvchi” ma’nosini bildirishi xitoy yilnomalarida qayd etiladi. [5, 279] Yapon tadqiqotchisi Shiratori fikricha, ushbu unvonning birinchi qismi *do-ulo,* aslida mo‘g‘ulcha *türu* – “boshqarma/mahkama”, “davlat boshqaruvi” degan ma’noni anglatadi. [6, 413] Demak, Turk xoqonligi davlat boshqaruviga xos bir qator an’analarni juan-juanlardan qabul qilish barobarida mazkur davlat jamiyatiga xos ayrim huquqiy an’analarni ham o‘zlashtirgan.

Tadqiqotchilarga ko‘ra, o‘z navbatida juan-juanlar ham markaziy osiyolik qadimgi ko‘chmanchilar, shu jumladan, xunlardan bir qator an’analarni qabul qilib olishgan. [7, 319] Masalan, Xun, Juan-Juan, Turk xoqonligida «Tangri, ya’ni Osmon» bosh iloh bo‘lib, u barcha jonli va jonsiz narsalarning yaratuvchisi, deb talqin qilingan. Shunga o‘xshash tushuncha Eftaliylarda ham mavjud bo‘lganini xitoy elchisi Sun Yun (520) o‘zi guvoh bo‘lib yozib qoldirgan “*Eftaliylar har kuni ertalab chodirlaridan tashqariga chiqib, xudolarga ibodat qilishadi va shundan so‘nggina nonushta qilishadi*»” mazmunidagi qaydlar ham tasdiqlaydi. Shunga o‘xshashroq ma’lumot Turk xoqonligi bilan bog‘liq ravishda shu tariqa uchraydi: “*O‘tog‘ining eshigi ham sharqqa qaratilgan bo‘lardi. Xoqon har tongda o‘tog‘ining eshigidan chiqqanda muqaddas hisoblanuvchi quyoshga salom berardi*”. [8, 833]

Agar Eftaliylar davlatining Juan-juanlar bilan deyarli bir vaqtda yashab o‘tgan o‘zaro qo‘ni-qo‘shni bo‘lganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, shuningdek, ayrim yozma manbalarda “*Ko‘plab odatlari tukyue (Turk xoqonligi) odatlari bilan bir xil*” [9, 268] mazmunidagi ma’lumotlarning uchrashi ushbu davlatlarning davlat mafkurasi va huquq tizimida birmuncha o‘xshashliklar bo‘lganligidan darak beradi. Bu borada quyidagicha o‘xshash omillarni keltirib o‘tish mumkin:

- “Osmon xudosi”, ya’ni ko‘plab ko‘chmanchi davlatlarda mavjud bo‘lgan ibora bilan aytiladigan bo‘lsa “Tangri” tushunchasi bu uchala davlatda ham mavjud bo‘lib, boshqaruvchi toifa tomonidan bu e’tiqod bilan bog‘liq marosimlar amalga oshirilgan;

- Ko‘plab urf-odatlari, xususan, huquq, jinoyatchilarni jazolash masalalarida umumiylik bor. Ayniqsa, o‘g‘rilik jinoyati ushbu jamiyatlarda qattiq qoralanib, eng katta jazolar ularga nisbatan qo‘llanilgan;

- türü / törü, ya’ni “qonun” so‘zi Juan-juanlar va Turk xoqonligida mavjud bo‘lib, bu so‘z ko‘chmanchi jamiyatida o‘zaro muvozanatni saqlash, hokimiyat va aholi orasidagi munosabatlarni tartibga solish ishlari u orqali amalga oshirilgan.

* “Вэй сулоласи тили” – милодий 385–556 йилларда Хитойда ҳукм суриб, хитой йилномаларида “Тоба сулоласи” ёки “Шимолий Вэй сулоласи” деб номланган ва келиб чиқиши марказий осиёлик кўчманчи қабилаларга бориб тақаладиган сулола асосчиларининг тили. Ушбу тилни айрим тадқиқотчилар туркий ҳисобласа, айрим тадқиқотчилар мўғулча бўлган, деб талқин қиладилар (Boodberg P. A. The Language of the T'o-Pa Wei // Harvard Journal of Asiatic Studies. – 1936. – Vol. 1. No. 2. – P. 167–185).

Juan-juanlarga bir qator jihatlardan o‘xshashlikka ega bo‘lgan Eftaliylarda ham shunday qonun-qoidalar bo‘lgan deyish mumkin.

“Bey-shi” yilnomalarida Eftaliylardagi jinoyatchilarni jazolash bo‘yicha “*O‘g‘irlik uchun miqdoriga qaramasdan* ***jinoyatchining boshi kesiladi****; o‘g‘irlangan mol-mulklarning* ***o‘n miqdori*** *undirib olinadi*” mazmunida ma’lumotlar keltirilsa, “Tun-dyan” asarida Turk xoqonligida jinoyat qilganlar va ularga nisbatan ko‘riladigan choralar haqida “*Ular (turklar)ning qonuni bo‘yicha isyon ko‘targan, odam o‘ldirgan har qanday kishiga* ***o‘lim jazosi buyuriladi****. ... ot o‘g‘irlaganlar* ***o‘n misli*** *to‘lov to‘lash majburiyatidadir*” [10, 98] degan ma’lumot keltiriladi. Shuningdek, “Se-fu Yuan-kui” yilnomasida esa xoqonlikda jinoyat va uning jazosi haqida “*Ularning odatiga ko‘ra isyon ko‘targan, odam o‘ldirgan, zino qilgan, bog‘log‘liq otni o‘g‘irlaganlar* ***o‘lim jazosiga tortilardi*** *... Ot va mol-ashyo o‘g‘irlagan kishi* ***barchasining o‘n baravardan*** *ko‘prog‘ini to‘lashi shart edi*”. [11, 112] Bundan ko‘rinadiki, Eftaliylar davlati bilan xoqonlik qonun-qoidalarida umumiylik mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, o‘lim jazosi va birovlarning mol-mulkini o‘g‘irlaganda “10 baravar to‘lov to‘latish” kabi amaliyotlar bu fikrni tasdqilaydi.

Eftaliylarning diniy qarashlari haqida dastlab xitoy manbalari ma’lumot beradi. Xitoylik sayyoh Sun Yunning xabar berishicha Toxaristondagi Eftaliylar buddizmga e’tiqod qilmaydilar, ular “begona xudolarga” sig‘inadilar. V.A.Litviniskiyning yapon tarixchisi E.Enokiga tayanib bergan ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “begona xudolar” deb ko‘chmanchi eftallarning Ko‘k tangri (Qam, shamaniylik ham bo‘lishi ehtimol)ga e’tiqod qilishlarini nazarda tutgan bo‘lishi haqiqatga yaqin. Xuddi shunga o‘xshash ma’lumotni “Liang-shu»da ham uchratish mumkin. Gandharadagi Eftaliylar “*Eftallar jinlarni hurmat qilishadi*”, “*ular Osmon xudosi va Olov xudosiga*” sig‘inishadi. “Liang-shu” yilnomasining yuqoridagi ma’lumotlaridan bilish mumkinki, eftaliylar ijtimoiy hayotida tangrichilik, otashparastlik va shamaniylik amalda bo‘lgan. Tangrichilik va shamanizm azaldan ularning hayotida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa Markaziy Osiyo, xususan, Toxariston hududiga kirib kelishi ular hayotiga otashparastlikni ham olib kirdi. Kushonlardan esa meros bo‘lib, ular bunyod etgan shaharlar va buddizmning elementlari saqlanib qoldi. Buddizm ko‘proq ular hayotiga Shimoliy Hindistonni zabt etgandan keyin rivojlandi. Yuqorida keltirib o‘tilganidek, Eftaliylar har kuni ertalab chodirlaridan tashqariga chiqib, xudolarga ibodat qilib, shundan so‘nggina nonushta qilishgan bo‘lib, bu esa ularning ko‘chmanchilarga xos an’analarning ular Hindistonda hukmronlik qilgan chog‘larda ham davom etganidan darak beradi.

Xitoy sayyohi Sun Yunning bergan ma’lumotlarida Eftaliylar buddizmga e’tiqod qilmaganligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, biroq Toxaristonda va boshqa hududlarda buddizm keng tarqalgan. Bu faqatgina Eftaliylar emas, balki ular egallagan hududlar aholisini e’tiqodi bilan bog‘liq holat edi. Deyarli uch asr Kushon poshdoligi davrida buddizm mintaqada hukmron din bo‘lgani bois aholini katta qismi bu dinga e’tiqod qilgan, Eftaliylar kirib kelganda Markaziy Osiyoda buddizm bilan zardushtiylik asosiy e’tiqod dini edi. Buni hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va Afg‘oniston hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar ham

tasdiqlaydi. Shuningdek bu davrda Afg‘onistonda va Toxaristonda hinduiylik dini e’tiqodlari ham ko‘payib, moniylik va nestorianlik ham tarqala boshladi.

Eftaliylar hayotida dinlarning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, materiallarni tahlil qilish orqali ularning din borasida anchayin bag‘rikeng bo‘lganligini ko‘ramiz.

Eftaliylar o‘ziga xos madaniyat va diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan turli xalqlarni siyosiy jihatdan birlashtirgan. Milodiy IV – VI asrlarda O‘rta Osiyoda ko‘plab diniy tizimlar va kultlar mavjud bo‘lgan. Markaziy Osiyoda zardushtiylik mahalliy kultlar bilan aralashib ketgan. Buddizm Eftaliylar davrida, xususan, ularning davlatining janubiy hududida keng tarqalgan. Biroq, Eftaliylarning bu dinga aloqasi haqida ko‘plab ziddiyatli dalillar mavjud. “Bey-shi” yilnomasining yozishicha, [12, 265-266] Eftaliylar hukmdori qarorgohida “*Badiyan shahrida hukmdorning saroyi joylashib, aylanasi qariyb 10 li (chamasi 5 km). Unda ko‘plab buddaviy ibodatxonalar va tosh ustunlar joylashgan bo‘lib, barchasi oltin bilan bezatilgan*”. Bu ma’lumot Eftaliylarning bosh hukmdorlari keyinchalik buddizmni qabul qilib, uni qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatadi.

Syuan Szan Eftaliylar haqida, ular buddizmga ishonmaganliklarini va hatto buddistlarni quvg‘in qilganliklari bo‘yicha ma’lumot yozib qoldirgan. B.A.Litvinskiyning fikricha, bu holat Eftaliylarning mahalliy aholini bo‘ysundirish uchun qilgan hatti-harakatlari bilan izohlanadi. [13,150] Boshqa tomondan esa Eftaliylarning ayrim guruhlari, ehtimol, ushbu sulolaning tarmoqlaridan birida bu din ta’qiqlangan bo‘lib, ko‘rinishidan ular o‘zlarining qadimiy inonchlarini saqlashga harakat qilib shunday yo‘l tutgan.

Eftaliylar davri shahar xarobalarida topilayotgan buddaviylikka xos elementlar bir tomondan eftaliy boshqaruvchilarining keyinchalik ushbu dinga rag‘bat ko‘rsatganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa bu davr shaharlarining aholisi va ibodatxona ahlining o‘z an’analarini saqlab qolgan mahalliy aholi bilan bog‘liqdir. Ya’ni bu shaharlar etnik jihatdan eftaliy bo‘lmagan yerli aholi, shu jumladan, baqtriyaliklarga aloqador bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

Eftaliylarning ma’lum bir qismi orasida xristianlik birmuncha keng tarqalgan edi. Suriyadagi “Mar Aba tarixi” manbasining xabar berishicha, milodiy 549 yilda Eftaliylar Nestorian patriarxi Mar Aba II ga bu ruhoniyni nasroniy bo‘lgan Eftaliylar uchun o‘z yurtida episkop qilib tayinlash iltimosi bilan ruhoniy yuborgan. Eftaliylarning iltimosi ma’qullanadi. Shunday qilib, Eftaliylarning bir qismi nasroniylik ta’limotining nestorianlik oqimiga o‘tishadi. [14, 236]

Yegishe armanlar sosoniylardan mustaqillik uchun olib borgan kurashlari chog‘ida forslarga qarshi ittifoq tuzish to‘g‘risida muzokaralar olib borish uchun Xon (Xun)lar (ya’ni Eftaliylar) mamlakatiga o‘z vakilini yuborganlar. Eftaliylar bunga rozi bo‘lishdi va «*xristian bo‘lishga ishtiyoq bilan va’da berdilar*». Bu faktlar Eftaliylar orasida nasroniylik keng tarqalgan deb hisoblashga imkon beradi. Marv nestorianlarning O‘rta Osiyodagi asosiy markazlaridan biriga aylanadi. [15, 236-238]

Ter-Mkrtichyanning fikricha, Eftaliylar orasida nasroniylikning tarqalishi ularning armanlar bilan birga forslar va zardushtiylikka qarshi kurashidagi ishtiroki bilan bog‘liqdir. [16, 53]

Zardushtiylik bilan bir qatorda O‘rta Osiyoda Erondagidan farqli bo‘lgan moniylik – Mazdak tarafdorlari ta’limoti sosoniylar tomonidan ta’qib qilinib, Erondan, jumladan, Eftaliylar davlatiga quvib chiqarilgach, tez tarqalishda davom etdi. Qizig‘i shundaki, Sosoniylar hukmdorining o‘g‘li Kubod mazdakiylar yordamida Eftaliylar huzuriga yordam so‘rab boradi. [17, 238]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Eftaliylar davlatida bir nechta dinlar mavjud edi: buddizm, zardushtiylik, nasroniylik (asosan nestorianlik), moniylik, hinduizm, shuningdek, Markaziy Osiyo ko‘chmanchilariga xos qarashlar (Osmonga – “Tangri”ga, olovga sig‘inish). Aftidan, Eftaliylar imperiyasida turli dinlar yonma-yon yashab, diniy bag‘rikenglik xarakterli edi.

Eftaliylar davlatining davlat mafkurasini tashkil etgan unsurlarga keladigan bo‘lsak, bu birinchi navbatda ushbu sulolani tashkil etgan elat – eftal qabilasiga xos qadriyatlar: e’tiqod, ajdodlardan meros urf-odat va an’analar, qonun-qoidalar ustuvorlik qilgan. Ayniqsa, ushbu sulolaga asos solingan va davlatning saltanatga aylanish jarayonlari yuz bergan dastlabki yillarda ular o‘zlarining qadimiy an’analarini saqlashga intilishgan. Keyinchalik esa egallangan hududlar aholisining mahalliy an’analari ta’sirida davlat boshqaruvi va mafkurada o‘zgarishlar bo‘lib, joylarga qarab zardushtiylik, buddaviylik kabi e’tiqodlar ham boshqaruvchi toifaga o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlagan. Eftaliylarga xristian dinining kirib kelishi siyosiy va g‘oyaviy asoslar bilan bog‘liq bo‘lib, Sosoniylarga qarshi ittifoqchi izlangan paytda bu dinga rag‘bat ko‘rsatilgan. Sosoniylar tomonidan quvg‘inga uchragan manixeylik ta’limoti ham shunga o‘xshash omillar tufayli Eftaliylar hukm suradigan o‘lkalarda keng tarqala boshlagan. Albatta, bu kabi e’tiqodiy o‘zgarishlarda tashqi ta’sirlar, xususan, missionerlarning ham o‘ziga xos roli bo‘lgan.

Markaziy Osiyolik ko‘chmanchilarga xos an’ana – bosib olingan hududlardagi mahalliy an’analarga, xususan, diniy inonchlarga zarar etkazmaslik, o‘z e’tiqodini bo‘ysundirilgan xalqlarga tiqishtirmaslik kabi holatlar Eftaliylar davrida ham bo‘lgan, degan qarashlar bor. [18, 238] Bunday yondashuv har doim ham bo‘lavermagan ko‘rinadi. Chunki, eftaliylarning buddaviy ibodatxonalarni vayron qilganliklari, bu e’tiqod vakillarini quvg‘in qilganliklari haqida ma’lumotlar uchraydi.

Bu kabi ma’lumotlar Eftaliylarning dastlabki paytlarda o‘z mafkurasini, xususan, e’tiqodini saqlashga harakat qilib, bir qator qat’iy harakatlar qilganligini ko‘rsatadi. Biroq yillar o‘tib mahalliy omillar – vaqt o‘tgan sayin madaniyat va mafkurada o‘zaro bir-biriga ko‘nikish, hokimiyatda mahalliy vakillarning ham ishtirok eta boshlashi, ayrim hukmdorlarning mahalliy e’tiqodlarni qabul qilishi natijasida ularning bunday munosabatini yumshatishlariga olib kelgan, ehtimol. Shu bilan birga, VII asrning ikkinchi choragida eftaliylar bilan yaqindan tanishgan Syuan Szanning ularni buddaviy aholi sifatida emas, ko‘chmanchi an’analarni saqlagan elat sifatida tilga olishi o‘zining izohini talab qiladi. Bizningcha, Eftaliylarning turli xalqlardan birmuncha uzoq, tog‘ daralarida yashaydigan qismi o‘zlarining ilk vatani – Oltoy tog‘lari atrofidagi elatlarga, xususan, Syun-nu (Xun)larga xos qadimiy an’analarni davom ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Гафуров Б.Г. Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. Кн.1. – Душанбе: Ирфон, 1989.
2. Гафуров Б.Г. Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. Кн.1. – Душанбе: Ирфон, 1989.
3. Koca A. Yeski Türklerde Devlet Geleneği...
4. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил...
5. Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху / Введение, перевод и комментарии В. С. Таскина. – Москва: Наука, 1984.
6. Материалы по истории древних кочевых народов...
7. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Янги нашр, 2018.
8. Koca A. Yeski Türklerde Devlet Geleneği ve Teşkilatı // TÜRKLER. – Ankara, 2002. – Cilt 2.
9. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Москва-Ленинград: Изд. АН СССР. – том II. – 1950.
10. Taşağıl A. Gök-Türkler. I, 2. Baskı. – Анкара, 2003.
11. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. – С. 230; Taşağıl A. Gök-Türkler. I. – Анкара, 2003.
12. Гафуров Б.Г. Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. Кн.1. – Душанбе: Ирфон, 1989.
13. Litvinsky B.A. The Hepthalite Empire // HCCA. Vol. III. UNESCO. – Delhi, 1999.
14. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free Univer. – Berlin, 2010.
15. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis.
16. Тер-Мкртичян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V-VII вв. – Москва: Наука, 1979.
17. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis.
18. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis.

TURKISTONNING ILK O’RTA ASRLAR DAVRI TARIXI

Rahimova Umidaxon Tursunaliyevna,
Oriental universiteti Tarix fakultetining ,
1-kurs magistranti.
raximova527@gmail.com

Annotatsiya: Turkistonning ilk o’rta asrlar davrining o’ziga xos xususiyatlarida Qashqadaryo viloyati qadimgi So’g’d vohasining, Kesh va

Shahrisabz viloyatlari, Surxondaryo viloyati, Toshkent shahri , Samarqand shahri kabi boshqa o'lkalarida kishilarning yashash turmush tarzi haqida ma'lumot beriladi. O'sha davrdagi hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik, haykaltaroshlik, mustahkam inshootlar qurilishi haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Kalit so'z: Movarounnahr,antik davr, mudofaa devor, G'arbiy Tohariston, ravoqsimon uslub,ark.

Annotation:During the early medieval period of Turkistan,information is provided about the lifestyle of people living in various regions such as the Kashkadarya region-the ancient Sogd oasis with the cities of Kesh and Shakrisabz-as well as the Surkhandarya region,the city of Tashkent and the city of Samarkand.One gains an understanding of the crafts,trade,agriculture,sculpture and the construction of strong architectural structures of that time.

Keywords: Transoxiana, antiquity,defensive, wall, Western Tokharistan, arched style, citadel.

Аннотация:В период раннего Средневековья Туркестана представляется информация о жизни людей в различных регионах, таких как Кашкадарьинская область-древний согдийский оазис с городами Кеш и Шахрисабз , а также Сурхандарьинская область,города Ташкент и Самарканд.Можна получить представление о ремёслах ,торговле ,земледелии скульптуре и строительстве прочных сооружений того времени.

Ключевые слова:Мавераннахр,античный период, оборонительная стена,Западный Тохаристон, арочный стиль,цитадель.

Hozirgi O'zbekistonning Qashqadaryo viloyati qadimgi So'g'd vohasining unumdor dehqonchilik hududini egallagan bo'lib, qadimda o'z suvlarini Amudaryoga quyuvchi Zarafshon va Qashqadaryo daryolari oralig'ida, Movarounnahrning qoq markazida joylashgan. Movarounnahrning barcha tarixiy rivojlanish bosqichlari ushbu viloyat bilan chambarchas bog'liqdir. Kitob va Shahrisabzda joylashgan qadimgi shaharlarda olib borilgan qazish ishlari davomida arxeologlar tomonidan topilgan xilma xil moddiy boyliklar va tangalar silsilasi antik So'g'diyonaga xos bo'igan boy madaniyatdan dalolat beradi. Antik davrdan keyingi ilk asrlardagi mustaqil davlatlar hisoblanmish Kitob, Zahoki Maron va Qarshi yaqinidagi Yerqo'rg'on shaharlari tarixiy qatlamlarda yorqin iz qoldirgan. Yangi eraning V asriga kelib esa antik shaharlarning tanazzulga yuz tutishi kuzatiladi. IV- VII asrlarda birin-ketin ilk feodallarning mustahkam qal'alari paydo bo'la boshladi. Arxeologik qazishmalar mobaynida IV-VII asrlarda mavjud bo'lgan Kadjartepa, Tog'aytepa, Ko'x nafazli shaharchalarining qoldiqlari topildi [M. Nauka, 1948.]. Shu vaqtda Kesh viloyati va Naxshab (hozirgi Qarshi shahri) Turk hoqonligi davlatining to'qqiz federatsiyasi tarkibiga kirardi. Ular muxtoriyat hisoblanar hamda Samarqandda hukmronlik qiluvchi hoqonga hiroj to'lardi.

O'sha vaqtdagi shaharlarda loydan qurilgan qalin devorlar, ularda qo'riqlash uchun baland minoralar va mustahkam darvozalar, ba'zi shahar darvozalarida esa mustahkam qulflar mavjud edi. Shahar hududi gavjum aholi yashaydigan ijtimoiy-madaniy markaz hisoblanardi.

VIII asr boshlarida Kesh va Shahrisabz viloyatlariga arablar hujumi boshlangan, ushbu viloyatlar aholisi esa ularga qattiq qarshilik ko’rsatgan edi. Ammo shunga qaramay, arablar 729 yilda Keshni katta jang bilan olishga muvaffaq bo’ldilar; 783-786 yillarda Zarafshon va Qashqadaryo vohalari Muqanna boshchiligidagi So’g’diylarning xalq-ozodlik harakati maydoniga aylandi. IX asrdan boshlab to XIII asrgacha bo’igan davrda, dastlab mahalliy Somoniylarning, so’ngra esa turk Qoraxoniylarining o’zaro shiddatli feodal urushlari davom etishiga qaramay, viloyatda xalq xo’jaligining o’sishi kuzatiladi. Aynan ana shu davrda qo’shni viloyatlarda, xususan, Qashqadaryoda ajoyib yodgorliklar barpo etildi. Jadal ravishda ibodatxona imoratlari hamda fuqarolar yashaydigan binolar qurildi. Bu davrni haqli ravishda monoxrom dekor rel’efli (figurali g’isht, kesilgan terrakota, kesilgan buyum) pishirilgan g’ishtlardan foydalanilgan yuqori taraqqiy etgan arxitektura davri deyish mumkin.

O’rta asrlardagi shahar va qishloqlari qurilishda to’g’ri burchakli, aylana va kvadrat shaklidagi burjlarning qurilishi antik davr qal’alari mudofaa tizimi elementlarini takrorlangan, asosan ta’mir ishlarida paxsadan qurilgan to’gri burchakli xom va pishgan g’isht ishlatilgan.

Xorazm vohasida shaharlar mudofaa tizimida to’gri burchakli bo’rj eng qadimgi davrdan ya’ni miloddan avvalgi VI-V asrdan ishlatilgan miloddan avvalgi V asrda to’gri burchakli bo’rj shaharlar mudofaa tizimida ishlatilishi davom etdi.

Bo’rjlar shakli va uning yon tomonga o’sib chiqishi, ular o’rtasidagi mudofaa maydoni juda o’xshaydi

Turon zaminining tarixiy madaniy zonalarida qurilgan shaharlarida arkning rejalashtirilishi Xorazm shaharlari arki tuzilishiga o’xshaydi, ya’ni to’griburchak, kvadrat shaklda rejalashtirilib, shaharning ma’lum bir burchagida yoki ma’lum bir tomonidagi devor o’rtasida joylashgan. Xorazm vohasida o’rta asrlarda madaniy hayot antik davrdagi ba’zi shaharlarda davom etishi natijasida arklarda ta’mir ishlari olib borilgan, natijada ark mudofaa devorlari baland bo’lgan.

XII-XIII asr boshlarida ham Xorazm vohasida antik davrda qurilgan ko’pchilik qal’alarda va uning arkida hayot davom etdi. Katta shaharlar atrofida «Ko’shk»lar qurish markazlashgan davlatning qurilish sohasidagi asosiy faoliyat edi.Ark omborxona, qurol-aslaxa va boshqa oziq-ovqat zaxiralarini saqlagan, shu bilan birga himoyalanish vazifasini bajargan. O’rta asrlarda qal’alar mudofaa devorida to’gri burchakli va nayza o’qi uchli shinaklar qo’llanilgan. Ba’zi qal’alar devorida tashqi tomondan shinaklar ko’p qo’yilgan, bu shinaklarning ba’zilari soxta bo’lib, dushmanga ruhiy tomondan ta’sir ko’rsatish uchun qilingan. Ba’zi qal’alar devorida shinaklarga alohida e’tibor berilgan.

Milodiy IV-asr oxiridan boshlab Baqtriya o`lkasi tarixiy manbalarda Tohariston deb yuritila boshlangan. Tohariston o`z tarkibiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg`oniston yerlarini qamrab olgan bo`lib, hududiy jihatdan Kushon davri Baqtriya o`lkasiga teng bo`lgan. Milodiy III asr oxiri – IV asr davomida Tohariston Sosoniylar Eroni davlatiga qaram viloyatga aylangan. V asrda o`lka Xioniylar va Eftaliylar davlati tasarrufida

bo`lgan. VI asrning 60-yillariga kelib, Eftaliylar davlatining Turk hoqonligi va Sosoniylar Eroni qo`shinlari tomonidan tor-mor etilishi tufayli Tohariston Turk hoqonligi davlati qo`l ostiga olgan. VII asrning 70-yillaridan Tohariston Arab qo`shinlari tomonidan bosib olina boshlagan. Bu jarayon VIII asrning 40-yillariga kelib o`lkaning batamom Arab xalifaligi tarkibiga qo`shib olinishi bilan yakunlangan. V-VIII asrlar davomida Tohariston markaziy hokimiyatga rasman qaram ko`plab kichik mulkliklarga bo`lingan. Chag`oniyon, Kuftan, Termizshohlar mulkliklari shimoili – g`arbiy Tohariston, ya`ni Surxon vohasida joylashgan. Toharistonning V-VIII asrlar davri shaharlari Kushon davri shaharlari kabi asosan ikki, yani arki a`lo va shahriston kabi tarkibiy qismlardan iborat bo`lgan. Zangtepa, Hayitobodtepalarning arki a`losida asosan hukmdor saroyi va u bilan bog`liq inshootlar joylashgan. Markaziy Osiyoning V-VIII asrlardagi tarixiy va madaniy o`lkalari shaharlari kabi Tohariston shaharsozligida juda murakkab me`morchilik uslublari qo`llanilgan.[G'ulomov YA.G'. 1959]. Bular turkumiga gumbazli xonalar, tomlarini g`ishtlar yordamida ravoqsimon uslubda yopib, uning tepasidan ikkinchi va uchunchi qavatini qurish va hokazolar kiradi. Toharistonlik me`mor ustalar shaharlardagi qabul marosimlari o`tadigan zallarni, mehmonxonalarni, kundalik hayotga mo`ljallangan xonalarni bezashda somon suvoq, devoriy rang tasvir, mahobatli haykaltaroshlik va o`yma ganchdan juda mohirona foydalanganlar. Shimoliy Tohariston shaharlari kushon davri shaharlari singari diniy markazlar vazifasini o`tagan. Ko`hna Termizda qazib ochilgan g`orsimon binolar, Chordingak o`rnidagi buddaviylik inshooti, Zangtepadan topilgan qayin po`stlog`iga bitilgan matnlar shular jumlasidandir. V-VIII asrlar davri yodgorliklari turkumiga, shuningdek, ko`shk va hovlilar, savdo yo`llari yoqasida joylashgan bojxonalar ham kiradi. Angor vohasidagi Kuyovqo`rg`on, Bolaliktepa, Yumaloqtepa kabi ko`shklardagi muhtasham qabulxona va mehmonxonlar dunyoviy mazmunda ishlangan devoriy rang tasvirlarga, rang-barang haykallarga, loy yoki yog`ochga o`yib ishlangan naqshin lavhalarga bezalgan.

Afrosiyob-Samarqand shahari yaqinida haroba xolida saqlanib qolgan. Tuzilishi ko'p burchakli, umumiy xajmi 219 ga. Mudofaa devor bilan o'rab olingan. Ularning vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini o'rganish maqsadida qazish ishlari olib borildi. Tadqiqot natijasida shaharning vujudga kelishini miloddan avvalgi VII asr bilan belgilashga imkon berdi. Shahar ilk o'rta asrlarda iqtisodiy, madaniy va harbiy markaz bo'lgan. Ilk o'rta asrga oid devoriy rasmlar, o'rta asr mudofaa devori atroflicha o'rganiladi.

Samarqand viloyati hududida Afrosiyobdan tashqari xajmi katta o'rta asr shahari topilmagan.

Ustrushona shaharlari ayniqsa uning asosiy shahari to'g'risida ma'lumotlarni Ibn Xavkal beradi. Uning ko'rsatishicha «Uning bosh shahari Banjikent» unda ming erkak yashaydi. Paxsa va yogochdan. Uning ichki tomonida madina bo'lib alohida devor bilan o'rab olingan. Devor atrofida rabad mavjud. Ichki madinada 2 darvoza bo'lib, 1 - yuqori, 2- madina darvozasi nomida. Madina ichki qismida masjid va kuxendiz. Rabad devorida 4 ta darvoza, Zamin darvozasi, Marsmand, Nulfjakent, Kaxlaband darvozasi deb nomlanadi.

Toshkent shaharining tarixi eramizdan avvalgi III asrning oxiri – yozma manbalar va zamonaviy shaharning ichidagi qadimiy qo`rg`on qoldiqlari saqlanib qolgan davrdan boshlab kuzatilishi mumkin. Bu qadimiy shahar Salar arig'i bo'yida joylashgan Mingo'rik qo`rg`onidir. Arxeologlar o'zlarining qazilmalari asosida qo`rg`onning birinchi mustahkamlovchi inshootlari eramizdan avval 1-asrning oxirida – eramizning 1 asri boshida qurilgan, degan xulosaga kelganlar, ya'ni shahar 20 asrlik tarixga ega. Birinchi yozma manbalarning orasida Xitoy elchisi Chjan Tszan yozuvlariga asoslangan Xitoy solnomalarini aytib o'tish mumkin, Buyuk ipak yo'li bo'ylab birinchi karvon yo'lining o'tkazilishi shu elchining ismi bilan bog'liq deb hisoblanadi.

Eramizning IV asridan boshlab Choch shahri ko'pgina to'qnashuvlarning markazida bo'lib qoladi. 550 yilda Turk hoqonligi tuziladi, unga turklar zabt etgan Choch shahri ham kirgan. Shaharga ko'chmanchi turk qabilalarining ko'p sonli aholisi kelgan. Turk hoqonligining ag'darilganligidan keyin Choch shahrini mahalliy hukmdorlar boshqarar edilar.

VII – VIII asrlarda shaharning aholisi aralash edi. Jamoatchilikning sara qismini turk va so'g'd aholisining zodagonlari tashkil etar edi.

713 yilda arab sarkardasi ibn Qutaybaning lashkarlari Choch shahriga yurish qilib, u yerda xalifaning hukmronligini o'rnatganlar. Shu vaqtda Toshkent vohasida, ilk o'rta asrlar davrida to'rtta shahar va 20 ta qal'adan iborat bo'lgan tarmoq hosil bo'lib, ularning biri – Madinat ash-Shosh markaziy o'rin tutgan. Mingo'rik qal'asidagi qoldiqlari o'rganilgan shaharni arab manbalari shunday deb atar edilar.

VII – VIII asrlarda Mingo'rik rivojlanib, gullab-yashnagan. Uning ichiga ark qal'asi va shaharning o'zi – Shahriston kirar edi. Islomning tarqalishi sekinlik bilan borar edi. Chochning aholisi Muqannaning ta'limotini qo'llab-quvvatladilar. Xalifalik arboblariinng zulmiga qarshi bosh ko'tarib chiqdilar. Jazo choralari ko'rilib, Choch shahri yer bilan yakson etildi. Xarobalarga aylantirilgan shahar anchagacha avvalgi holatiga kela olmay, qachonlardir katta shahar bo'lgan Mingo'rik o'rnida asrlar bo'yi kichikkina qishloq mavjud bo'lgan. IX asrda xalifalikning hukumati bergan farmoyishiga ko'ra shaharning obodonchiligi va suvsozligi ehtiyojlari uchun katta mablag'lar ajratilgan.

IX-X asrlarning yozma manalarida shaharning yana bir nomi aytib o'tiladi – Binkent. U ark qal'asiga, ichki shaharga va ikkita shahar yoni o'troq aholisi yashaydigan qismlariga bo'lingan: ichki (rabad-dexil) va tashqi (rabad-xaridj). Ark ikkita darvozasi bo'lgan devor bilan o'ralgan, uning ichida hukmdorning saroyi, xazina va zindon bo'lgan edi.

IX-XII asrlar – hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyatning gullab-yashnab rivojlangan davri edi. Bu davr Movarounnahrning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi «oltin asr», «Musulmon Tiklanish davri» deb ataladi, bunda Toshkent shahri asosiy o'rinlardan birini egallab turar edi.

X asrning oxirida Abu-Rayhon Beruniyning asarida poytaxtning nomi ilk bor Toshkent kabi yozilgan edi. XI asrning ikkinchi yarmida Toshkent nomi turk tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy asarida aytib o'tilgan, olim Toshkent – Binkentning turkcha nomi ekanligini ta'kidlagan.

Termizning geografik jihatdan qulay joylashishi, iqlimi va strategik mavqei ko`plab davlatlar va hukmdorlarning diqqat-e`tiborini o`ziga tortar edi. Shuning uchun u Eron va grek, arab va mo`g`ul bosqinchilarining hujumlariga duchor bo`ldi, Movarounnahr ichki qon to'kishlarini boshidan kechirdi, mahalliy hokimlar zulmidan azob chekdi. Termiz istilochilarning olovli janglarida yonib ketar, kulga aylanar, qaddini rostlab paydo bo`lardi, o`sib shon-shuhrat va qudratga ega bo`lardi. U yana halok bo`lardi, yonardi, kulga aylanardi va yana o`zini tiklab ulg`ayardi. Shu sababli Termizning har safar qaytadan tiklanishi qadimgi o`rnida yuz bermagan.

Ko`hna Termiz yoki Kushon Termizi Amudaryo bo`yida rivoj topgan bo`lsa, Chingizxon bosqinidan so'ng u sharqroqda Surxondaryo bo`yida qad ko`tarib gullab-yashnaydi. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi o`zaro urushlar tufayli vayronaga aylangan Termiz XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab janubroqda Pattakesar qishlog`i zaminida bunyod etiladi va ravnaq topadi. Ko`hna Termiz obidalari o`zining takrorlanmasligi bilan hamisha qadimgi davr mualliflari, ilk o`rta asr Xitoy sayyohlari va musulmon davri tarixchilarining diqqat-markazida bo`lib keldi.

Termiz haqidagi qimmatli yozma ma`lumotlar VII asrda Xitoy sayyohi, buddizm monaxi Syuan Tzyan yozmalarida;[ Bernshtam A.N.]. IX-X asrlar arab muarrixlari Ibn Xo`rdodbeh, Ibn Xavqal, Maqdisiy, Istahriy asarlarida, grek, arman, xitoy, fors, arab manbalarida, qadimiy "Shohnoma" dostonida, ulug` alloma Abu Rayhon Beruniy, arab sayyohi Ibn Battuta, Ispaniya elchisi Ryui Gonsales de Klavixo, venger sharqshunosi Herman Vamberilar asralarida, o`rta asr mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Bobur, Hofiz Abru, Anvariy, Hofizi Tanish Buxoriy, Davlatshoh Samarqandiy asarlarida berilgan. Termiz tarixini o`rganishga qiziqish ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan yanada kuchaydi. Arxeolog olimlarimiz Termizni shaxsan o`rgandilar va ilmiy xulosalari bilan shahar tarixini boyitdilar.

V-VI asrlarda Termiz yuz bergan urushlar oqibatida goh Eftaliylar hukmronligi, gohida eron Sosoniylari hukmronligi ostida bo`ldi. VII asrdan boshlab Termizni Termizshohlar sulolasi boshqardi. 705 yili Termizni arab istilochilari zabt etdilar. IX -XII asrlarda Termiz yirik feodal shahar sifatida ma`muriy, savdo, hunarmandchilik va ilm-ma`rifat markaziga aylandi. Bu davrda shaharni o`rab turgan istehkom devorning uzunligi 10 km ni tashkil etib, 9 ta darvozasi bo`lgan. Shu davrda O'rta Osiyoda dunyoga mashhur bo`lgan shoirlar, allomalar, muhaddislar, diniy va dunyoviy olimlar yetishib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. -M. Nauka, 1948.
2. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta.- M.,Nauka, 1962.
3. G'ulomov YA.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. –Toshkent: Fan, 1959.
4. Bernshtam A.N. Istoriko-arxeologicheskie ocherki T.Sentralnogo Tyan-Shnyan.

ABU BAKR NARSHAXIY "BUXORO TARIXI" ASARIDA SAMARQAND TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR TAHLILI

Ganixodjayev Yashnar Abbasovich
Oriental universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” nomli asarida keltirilgan Samarqand shahri tarixiga oid ma’lumotlarni tizimli tahli qilishga bag‘ishlangan. Asarning asosiy diqqat markazida Buxoro bo‘lishiga qaramasdan, unda Samarqand haqidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ma’lumotlar muhim tarixiy manba hisoblanadi. Maqolada ushbu ma’lumotlar quyidagi jihatlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan: diniy-afsonaviy tasvir (hadislar orqali), geografik o‘rni va Buxoro bilan o‘zaro bog‘liqligi (ayniqsa, Zarafshon daryosi tizimi kontekstida), arablarning birinchi bosqinlari davridagi vaziyat, Somoniylar davlati tashkil topishi va undagi Samarqandning siyosiy-ma’muriy maqomi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Narshaxiy asarida Samarqand Buxoroning muhim raqobi, ittifoqchisi va madaniy hamnafasi sifatida tasvirlanadi, bu esa o‘rta asr Movarounnahrining ikkita yirik shahri o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Narshaxiy, “Buxoro tarixi”, Samarqand, tarixiy geografiya, Ismoil ibn Axmad, Said ibn Usmon, Rofe’ ibn Lays, Somoniylar davri, Movarounnahr, Qusam ibn Abbos, Zarafshon daryosi.

АННОТАЦИЯ:Данная статья посвящена системному анализу сведений об истории Самарканда, содержащихся в труде Абу Бакра Наршахи «История Бухары». Несмотря на то, что основное внимание источника сосредоточено на Бухаре, прямые и косвенные упоминания о Самарканде представляют собой важный исторический источник. В статье эти сведения исследуются со следующих аспектов: религиозно-легендарное описание (через хадисы), географическое положение и взаимосвязь с Бухарой (особенно в контексте системы реки Зарафшан), положение в период первых арабских завоеваний, а также политико-административный статус Самарканда в период формирования государства Саманидов. Исследование показывает, что в труде Наршахи Самарканд изображается как важный соперник, союзник и культурный аналог Бухары, что раскрывает глубокую взаимосвязь двух крупнейших городов средневекового Мавераннахра.

Ключевые слова: Наршахи, “История Бухары”, Самарканд, историческая география, Исмаил ибн Ахмад, Саид ибн Усман, Рафи ибн аль-Лейс, период Саманидов, Мавераннахр, Кусам ибн Аббас, река Зарафшан.

ANNOTATION: This article is dedicated to a systematic analysis of the information concerning the history of Samarkand found in Abu Bakr Narshakhi’s work “History of Bukhara”. Although the primary focus of the source is Bukhara, the direct and indirect references to Samarkand constitute an important historical resource. The article examines this information from the following perspectives: religious and legendary depictions (through hadiths), its geographical location and interconnection with Bukhara (particularly within the context of the Zarafshan river system), the situation during the early Arab invasions, and the political-administrative status of Samarkand during the formation of the Samanid state. The research demonstrates that in Narshakhi’s work, Samarkand is portrayed as a

significant rival, ally, and cultural counterpart to Bukhara, revealing the deep interdependence between the two major cities of medieval Transoxiana.

Keywords: Narshakhi, “History of Bukhara”, Samarkand, historical geography, Isma’il ibn Ahmad, Sa’id ibn Usman, Rafi’ ibn al-Lays, Samanid period, Transoxiana, Qusam ibn al-Abbas, Zarafshan River.

O‘zbek davlatchiligi tarixining ilk qadamlari bronza asrida aholining mulkiy notengligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida boshlangan. Ilk temir asriga kelib bu munosabatlar kichik vohalardan. katta-katta daryolarning vodiylarga yoyildi. Zarafshon, Sheroboddaryo, Surxondaryo, Qashqadaryolarning ulkan vodiylari, Amudaryoning delta mintaqalari voha davlat uyushmalari uchun makon bo‘ldi. Ularning ma’muriy-madaniy markazlari sifatida bir qator ilk shahar markazlari vujudga keldi. Bular Kesh vohasida Uzunqir, Samarqand vohasida Ko‘ktepa-Afrosiyob majmualari kabilar edi.

Darhaqiqat, mamlakatimizning muhim tarkibiy sarhadlarini tashkil qiluvchi Zarafshon havzasi hududi ajdodlarimizning bir necha mingyilliklarga teng, boy tarixga ega, asrlar osha ilm-fan va ma’rifat markazlari bo‘lib, jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markazlar, shaharlar shakllangan. Shulardan biri ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand shahridir. Samarqand insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy beshigi va markazlaridan biri, O‘zbekiston hududidagi davlatchilik jarayonlarida muhim o‘rin tutgan.

Narshaxiyning Buxoro tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlarida Xuroson shaharlarining hech biri Buxoro kabi ko‘p nomga ega emasligi ta’kidlanadi. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo‘lib, kelgan. Xoja imom, zohid, voiz Muhammad ibn Ali Nujva bodiy rahmatli Salmoni Forsiydan bir hadis rivoyat qilgan Salmonning aytishicha payg‘ambar, – xudo unga o‘z rahmat va salomini yo‘llasin, – shunday degan: Jabroil – unga xudoning rahmatlari bo‘lsin – aytganki, kun chiqish tomonda bir joy bor, uni Xuroson deydilar, uning uchta shaharini qiyomat kuni yoqut va marjon bilan ziynatlab keltiradilar; ulardan nur chiqib turadi; u shaharlarning tevaragida farishtalar ko‘p bo‘lib, ular tasbih, xamd va takbir aytadilar, kelinni kuyov uyiga olib borgandek u shaharlarni e’zoz va ikrom bilan mahshargohga olib keladilar. Bu shaharlarning har birida yetmish mingdan bayroq, har bir bayroq tagida yetmish mingtadan shahid (yotgan) bo‘ladi va har bir shahidning shafoati bilan forscha so‘zlovchi va xudoni bir deb biluvchi yetmish ming kishi azobdan qutuladi. Qiyomat kuni u shaharlarning har tarafi: o‘ng va so‘li, oldi va orqasi o‘n kunlik yo‘l bo‘lib, bularning hammasida shahidlar turadi. Hazrat payg‘ambar, – xudo unga rahmat va salomini yo‘llasin, – Ey Jabroil! U shaharlarning nomlarini menga ayt, deb so‘radi; Jabroil, – unga xudoning salomi bo‘lsin, – shaharlarning birini arab tilida Qosimiy forschada, Yashkard deydilar; ikkinchisini arabchada Samaron, forschada Samarqand deydilar; uchinchisini arabchada Foxira, forschada Buxoro deydilar, – deb javob berdi.

Yana bir o‘rnida, Samarqand shahri haqida Abul-Hasan Abdurahmon (ibn) Muhammad an-Nishopuriy “Xazoin ul-ulum” kitobidagi ma’lumotga tayangan holda Buxoroni joylashgan o‘rni botqoqlik bo‘lib, uning ba’zi yerlarini to‘qayzor, daraxtzor va ko‘kalamzorlar tashkil etgan, ayrim joylari esa shunday bo‘lganki, biron hayvon ham oyoq qo‘yishga joy topa olmaganligi, buning sababi esa qo‘shni

Samarqand tog‘laridagi qorlarni erib, oqib kelishi natijasida suv yig‘ilishi oqibatidaligi takidlangan. Chunki Samarqand mintaqasi geografik jihatdan Buxoro kabi past tekkislikdan emas, balki tog‘lik hamda baland adirliklardan iboratdir. Sharqiy qismida joylashganligi Buxoro hududlariga Samarqanddan katta miqdordagi qor va yomg‘ir suvlarini kelishini taminlagan. Shu xususda “Rudi Mosaf” yoki “Mosaf daryosi”, bugungi Zarafshon daryosining mintaqadagi eng yirik daryo ekanligi va ushbu daryoning ham Buxoro hududini katta miqdorda suv bilan taminlashi ham ta’kidlab o‘tilgan. Aynan ushbu Zarafshon daryosining doimiy toshqini ma’lum muddat o‘tganidan keyin to‘xtab, odamlarning kelib o‘rnashishi oqibatida Buxoro shahrini obod bo‘lganligi aytib o‘tiladi.

Asarning XV bobida “Kampirak devor”i haqida muallif eslatadiki, ushbu devorni qurilishi Samarqand shahrining andozasi asosida Abul Abbos Tusiyning topshirig‘i bilan qishloqlari devorni ortida qoldirilib o‘ralgan.

Narshaxiy asarida Said ibn Usmon tomonidan Buxoro shahrini zabt etilganda ushbu mintaqaga Muhammad payg‘ambarning jiyani Qusam ibn Abbosning ham ushbu joyga kelganini ta’kidlab o‘tar ekan, uni Samarqand shahriga borib, uyerda vafot etgan ekanligi haqida aytiladi. Ba’zi mualliflarning ma’lumotlarida esa, Qusam ibn Abbosning vafoti Marv shahriga to‘gri kelishi ham eslatiladi. Chunki, dastlab Said ibn Usmon Samarqandga yurish qilganda ushbu mintaqani zabt etolmaganiga qaramay, 30 ming asir bilan qaytgandi. Manbashunos tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, Samarqanddan asir olingan 30 ming kishini keyinchalik qul qilinganligi va ular tomonidan Said ibn Usmonga qarshi isyon ko‘tarilib qatl etilgan edi.

Muallif asarning Somoniylar davlatini tashkil etilishi bobida, Rofe’ ibn Lays Horun ar-Rashidga qarshi xuruj qilib Samarqandni olganda, Horun ar-Rashid Harsama ibn A’yanini Rofe’ ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe’ Samarqandni hisor qildi va Harsama uni qo‘lga olishdan ojiz qoldi. Bu hodisa sababli Ma’mun Horun ar-Rashid bilan birga Xurosonga kelgan va Horunning dili shu ish bilan g‘oyat darajada mashg‘ul edi. Ma’mun Asadning o‘g‘illariga xat yozib, ularga Rofe’ bilan urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o‘g‘illarining da’vatiga ko‘ra Rofe’ Harsama bilan sulh tuzdi va ular o‘rtasida quda-andalik vujudga kelib, Horun bu ishdan xotirjam bo‘ldi. Rofe’ning butkul Xurosonni olib qo‘yish xavfi bor edi, (shuning uchun) bu sulhning tuzilishi Ma’mun uchun juda yoqib tushdi. Alalxusus, Somonxudotning nabiralariga Movarounnahrning ba’zi shaharlari inom etildi. Ushbu hududlar ichida Nuh ibn Asadga berilgan Samarqand hududida keyinchalik uning avlodidan bo‘lgan Nasr ibn Ahmad ibn Asad Somoniylar davlatiga asos solib ushbu shaharni davlat poytaxtiga aylantirdi.

Somoniy hukmdorlardan Ismoil dastlab akasi davrida Buxoroni butunlay muhofazaga olish topshirig‘i bilan dastlab Buxoroga hokim qilib yuborildi. Biroz muddat o‘tib, Ismoil ibn Axmad o‘z o‘rniga birodarining o‘g‘li Abu Zakariyoning tayinlab, Buxorodan Samarqand sari yo‘lga tushdi. Ushbu voqealarning hech bir ruxsatsiz amalga oshirilishi hukmdor Nasrni biroz ranjitgani va uzoq muddat Ismoil bilan hech qanday muloqot qilmagani ta’kidlanadi.

Narshaxiy asarida Somoniylar davrini “Buxoroning oltin davri” sifatida tasvirlaydi va ularning Buxoro shahri taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlar ekan, Samarqand shahrini ham ushbu davrni boshdan kechirganini ta’kidlab o‘tilgan.

Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida Samarqandga to‘g‘ridan-to‘g‘ri keng joy ajratilmagan bo‘lsa-da, u Xuroson tarkibidagi muhim shahar sifatida, ayniqsa diniy rivoyatlar va tarixiy hukmdorlik davrlari kontekstida tilga olinadi. Asarning asosiy diqqati Buxoroga qaratilgan bo‘lib, Samarqand haqidagi ma’lumotlar ko‘pincha uning bilan solishtirma yoki birgalikda keltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. БУХОРО ТАРИХИ. Форс тилидан А. РАСУЛЕВ таржимаси. Масъул муҳаррир А. ЎРИНБОЕВ.
2. Samarqand tarixi: 2 jildda / O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi; ed. I. M. Mo'minov. - Toshkent: Fan, 1969. - V. 1: Qadim zamonlardan Buyuk Oktyabr Sotsialistik inqilobigacha. - 484 b.
3. Samarqand tarixi: 2 jildda / O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi; ed. I. M. Mo‘minov. - Toshkent: Fan, 1970. - J. 2: Buyuk Oktyabr Sotsialistik inqilobi g'alabasidan to hozirgi kungacha. - 496 b.

IMOM BUXORIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI. MANBAASHUNOSLIK TAHLILI

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi
falsafa fanlari doktori (PhD)
Oriental universiteti katta o’qituvchisi
sayyoraminavarova@gmail.com

Annotatsiya *Imom Ismoil Buxoriy asarlari klassifikatsiyasi mavzusi musulmon olamida muhim o’rin tutgan buyuk hadis olimi Imom Buxoriy hayoti va faoliyatini o’rganish zaruriy asoslarni taqdim etadi. U, eng avvalo “Sahihi Buxoriy” asari bilan tanilgan bo’lib, bu asar hadis ilmining yuksak na’munasidir. Ushbu maqolada Imom Buxoriyning boshqa asarlari ta’rifi ham keltirilgan bo’lib, ularning yaratilish davri va islom tarixidagi o’rni ko’rsatiladi.*

Kalit so’zlar*: Islom, muhaddis, ilm, odob ahloq, komil inson, shariat, hadis, sunnat.*

Аннотация. Тема «Классификация произведений имама Исмаила Бухари» предоставляет необходимые основы для изучения жизни и деятельности великого хадисоведа, занимающего важное место в мусульманском мире. Он прежде всего известен своим трудом «Сахих аль-Бухари», который является выдающимся образцом хадисоведения. В данной статье также приводится описание других сочинений имама аль-Бухари, указывается время их создания и их роль в истории ислама.

Ключевые слова: ислам, мухаддис, знание, этика, совершенный человек, шариат, хадис, сунна.

Abstract *The topic of classification of the works of Imam Ismail Bukhari provides the necessary foundations for studying the life and work of the great hadith scholar Imam Bukhari, who held an important place in the Muslim world. He is known primarily for his work "Sahih Bukhari", which is a high example of the science of hadith. This article also describes other works of Imam Bukhari, indicating the period of their creation and their place in the history of Islam.*

Keywords*: Islam, hadith scholar, science, morality, perfect person, Sharia, hadith, sunnah.*

IX asrda Markaziy Osiyoda turli din ilmlari, tabobat va aljabr fanlarini chuqur o‘zlashtirib, ularning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqqan. Jumladan, buyuk faylasuf Abu Nasr al-Forobiy, jug‘rofiya fani olimi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammadin, Muhammad ibn Nasir Al-Farg‘oniy, mashhur tabib Abu Ali Ibn Sino, hadis ilmi podshosi va “Sahih al Buxoriy” kitobining muallifi Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy kabi buyuk allomalar davri edi.

Ibrohim Shaabon Abu Abdulloh Muhammad bin Ismoil Buxoriyninig “Sahihul Buxoriy” to‘plamini “Muhammad payg‘ambarning sunnatlari bo‘yicha eng asosiy manba”[87], deb ta’riflaydi va Imom Buxoriyning hayoti va ijodiy faoliyati borasida qator ma’lumotlarni jamlaydi va ushbu ma’lumotlar yordamida allomaning o‘z zamonida ham, undan keyingi barcha davrlarda ham muhaddislar orasida baland ilmiy nufuzga ega ekanligini dalillaydi.

Muallif Imom Buxoriy haqida arab olimlari tomonidan bildirilgan hamda ilm olamida ma’lum va mashhur bo‘lgan bir qancha ta’riflarni keltiradi. Tarixchilar rivoyat qilishadiki, Molik bin Anas va Hammod bin Zayddan, Abdulloh bin Muborak tomonidan rivoyat qilingan rivoyatga ko‘ra, Imom Ismoil Buxoriyning kichkinalik paytida ko‘zlari ko‘rmay qoladi. Onasi tushida Ibrohim (a.s.) ni ko‘radi va u zot bu onaga deydi: “Ey ayol, sening zorlanib juda ko‘p yig‘laganlaring va ko‘pdan-ko‘p duolar qilganliging sababidan Alloh o‘g‘lingga ko‘z nurini qaytardi. Tongda Allohning irodasi ila bola ko‘ra boshladi”[88]. Ko‘plab adabiyotlarda Buxoriy otasidan ayrilgach onasi qo‘lida tarbiya olgani, 7 yoshida Qur’onni, 10 yoshida esa mingdan ortiq hadislarni yod olgani aytib o‘tiladi. Bu ishda u shunday muvaffaqiyatga erishdiki, u “Qur’on qorisi” sifatida tanilib, “Hofiz” [حافظ] unvoniga sazovor bo‘ldi, u qayerda bo‘lmasin, Muhammad payg‘ambar hadislarini to‘g‘ri sharhlab berardi[89].

Imom Buxoriyning “Al-Jomi as-sahih” (Ishonarli to‘plam) deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To‘plamda Muhammad payg‘ambar hadislaridan tashqari, fiqh (islom huquqshunosligi), islom marosimchiligi, axloq-odob, ta’lim-tarbiya hamda o‘sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma’lumotlar ham mavjud.

---

[87] Ibrohim Shaabon. Imom Buxoriy.. hadisda amirul mo’minin. // Maqola. الإمام البخاري.. أمير المؤمنين في الحديث2018. 14 iyun. 05:59. / https://www.elbalad.news/3347781.

[88] Ibrohim Shaabon. Imom Buxoriy.. hadisda amirul mo’minin. // Maqola. الإمام البخاري.. أمير المؤمنين في الحديث2018. 14 iyun. 05:59. / https://www.elbalad.news/3347781.

[89] https://www.journal.buxdupi.uz/index.php/journal-buxdupi/article/download/260/216 2021.20-may 6

“Al-Jome’ as-sahih” asarining yozilishi haqidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak, manbalarda bu asarning yozilishiga bir necha turtkilar sabab bo‘lganligi keltirilgan. Firabriy bu haqda shunday degan: “Men Imom Buxoriyning kotibi Muhammad ibn Abu Hotamning: “Men tushimda Imom Buxoriyni ko‘rdimki, ul kishi Payg‘ambar alayhissalomning ortidan ergashib ketur erdi. Rasulluloh yurib borurdilar, har safar oyoqlarini ko‘targanlarida Abu Abdulloh Buxoriy qadamini ayni o‘shal joyga qo‘yardi”, deg‘onlarini eshitg‘onmen””[90].

Yana bir manbada keltirilishicha: Al Hofiz ibn Hajar: Imom Buxoriyning mazkur kitobni yozishga bo‘lgan azmu qarorlariga hadis va fiqh bobida mo‘minlar amiri bo‘lmish ustozlari Is’hoq ibn Rohvayhning “Rasulullоh sallallohu alayhi vassalamning muborak sunnatlaridan iborat bir muxtasar to‘plam yaratsangizlar edi!” degan so‘zlari quvvat baxsh etdi, dedilar. Bu xususida Imom Buxoriyning o‘zlari: “Ustozimning ana shu so‘zlari qalbimga chuqur o‘rnashib qolib, “Al-jome’ as-sahih”ni yozishga kirishdim”, degan ekanlar. Ul kishi yana bunday deb aytgan ekanlar: “Men tushimda Rasulullоh sallallohu alayhi vassallamni ko‘rdim, ul zotning ro‘paralarida turib, yelpig‘ich bilan muborak yuzlaridan nimanidir haydayotgan emishman. So‘ng men bir ta’birchidan so‘rab edim, u: “Siz janob Rasulullohdan yolg‘on haydaysiz”, dedi. Ana shu tushim meni “Al-jome’ as-sahih”ni yozmoqqa ilhomlantirdi”[91]

Imom Buxoriyning hadis to‘plash, tasniflash va tekshirishdagi yuksak mezonlari hadis ilmi uchun namuna bo‘lib qolgan. U hadislarni isnod (rivoyatchilar zanjiri) va matn (hadisning ma’nosi) jihatdan qattiq nazorat qilgan va faqat eng ishonchli hadislarni o‘z to‘plamiga kiritgan.

Asarda hadis rivoyatchilarining hayoti, xulqi va ilmiy darajasi haqida ma’lumotlar berilgan. Bu ma’lumotlar hadis ilmi uchun juda muhim hisoblanadi.

Imom Buxoriy boshqa bir qancha asarlar ham yozgan:

“Al-Adab ul-mufrad” (Adab durdonalari) – asar IX asrda (hijriy III asr) yaratilgan. Bu davr Islom olamida hadis ilmi rivojlangan, turli maktablar shakllangan davr edi. Asarning asosiy mavzusi: odob-axloq, insoniy munosabatlar va shaxsiy kamolot. U asosan islomiy axloqiy me’yorlarni, turli xulq-atvor va xarakter xususiyatlarini o‘z ichiga olgan hadislarni to‘plagan. Bu kitob o‘quvchilarga musulmon shaxsi qanday bo‘lishi kerakligi, o‘zaro munosabatlarni qanday yo‘lga qo‘yishi, qanday yaxshi fazilatlarga ega bo‘lishi zarurligi kabi mavzularda yordam beradi. Asar turli mavzularga oid hadislardan tashkil topgan (masalan, ota-ona bilan munosabat, qo‘shnilar bilan munosabat, mehmon kutish, sadaqa berish va hokazo). Imom Buxoriy har bir mavzuga oid eng sahih hadislarni tanlab, ularni asarga kiritgan;

“Kitob afol il-ibod” (lbodat qiluvchilarning fe’l-atvori haqidagi kitob) – asar IX asrda (hijriy III asr) yaratilgan bo‘lib, bu davr Islom olamida ilmiy va diniy faoliyatlar rivojlangan, turli aqidaviy va fiqhiy maktablar o‘rtasida bahs-munozaralar kuchaygan davr edi. Imom Buxoriy o‘z davrining yetuk muhaddisi va

[90] Shayx Abdussalom al-Mubarakfuriy Hazrat Imom al-Buxoriy. // Arab tilidan U.Uvatov tarjimasi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2015. B.118.

[91] Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni. // Nashrga tayyorlovchilar Usmonxon hoji Temirxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi,1998. B. 55-56.

faqih olimi sifatida sunnatni himoya qilish, bid'atlarga qarshi kurashish va islom aqidasini to‘g‘ri tushuntirishga harakat qilgan. Asarning maqsadi: "Kitob Af'ol ul-Ibod" asari Jabriya va Mu'tazila kabi oqimlarning inson ixtiyori, qullarning amallari va taqdir masalasidagi g‘oyalariga raddiya berish maqsadida yozilgan. Asar orqali Imom Buxoriy Allohning qudrati va qullarning ixtiyori o‘rtasidagi munosabatni tushuntirish, islom aqidasini sobit qoldirish va jamiyatda to‘g‘ri e'tiqodni tarqatishga intilgan. Kitobning asosiy mavzusi bandalarning amallari, ularning iymon bilan bog‘liqligi, ixtiyor va taqdir masalalaridir. Asarda iymonning mohiyati, amalning iymon bilan bog‘liqligi, qalbdagi niyatlarning ahamiyati, insonning amallariga bo‘lgan mas'uliyati kabi mavzular Qur'on va Sunna dalillari bilan yoritilgan;

"Kitob bad il-maxluqot" kitobining asosiy mavzusi olamning yaratilishi, g‘ayb olami, farishtalar, jinlar, insoniyatning yaratilishi, Odam Ato va Havo onadan boshlanishi kabi masalalarga bag‘ishlangan hadislar. Bu kitobda islomiy kosmologiya, ya'ni dunyo va undagi maxluqotlarning paydo bo‘lishiga oid islomiy qarashlar bayon etilgan;

"At-tarix al-kabir" (Katta tarix). Bu asarni muallif o‘n sakkiz yoshida Madinai-munavvaradagi al-Masjid an-Nabaviy (Payg‘ambar masjidi) da yozgan. Kitobda sahobalar, tobeinlarning izdoshlaridan rivoyat qilgan hadislar va ularning ismlari alifbo tartibida joylashtirilgan;

"At-tarix al-avsat" (O‘rta tarix). Bu kitobda Imom Buxoriy Abdulloh ibn Abdusallom al-Haffof va Zanjaviyh ibn Ahmad al-Lubod sahobalardan rivoyat qilganlar;

"At-tarix as-sag‘ir" (Kichik tarix). Muhaddisning bu asari hadis tarixiga oid qimmatli asar bo‘lib, unda mashhur sahobalar, tobeinlar va tobeinlar izdoshlarining naslu nasablari, vafot etgan yillari, o‘zaro muloqotlari hamda isloh qilinganlari bayon etilgan. Imom Buxoriy bu asarga yilma-yil tartib berib, agar bir sanani tugatsa, u sanada vafot etgan mashhur shaxslarni, sodir bo‘lgan boshqa muhim ishlarni zikr etib, undan so‘ng keyingi sanani boshlagan;

"Asomiy as-sahoba" (Sahobalar ismlari kitobi). Imom Buxoriydan avval biror muallif sahobalar to‘g‘risida kitob yozgani ma'lum emas. Muallif bu kitobda qator sahobalarning ismlari, ularning siyratlari va ular solnomalari haqida yozgan. Bu kitob juda muhim mavzuga bag'ishlangan bo‘lib, uning ilmiy ahamiyati katta;

"Kitob ul-vuhdon" (Yagonalar haqida kitob). Imom Buxoriy bu sohada ham birinchilardan bo‘lib yana bir buyuk asar yaratgan va bu asarda faqat bir hadis rivoyat qilgan sahobalarni zikr qiladi[92].

Imom Buxoriyning asarlari O‘zbekiston olimlari tomonidan juda keng o‘rganilmoqda. Xususan, muhaddisning "Al-adab al-mufrad" asarini o‘zbek tilidagi ilk tarjimasi olim Sh.Boboxonov tomonidan nashr qilingan[93]. Nashrga asarning bir qismigina kiritilgan bo‘lsa ham ilmiy doiralarda u o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Keyinchalik Z.Islomov va A.Abdullayevlar tomonidan "Al-adab

[92] Imom Buxoriy – muhaddislar sultoni. // Nashrga tayyorlovchilar Usmonxon hoji Temirxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1998. – 129 b.

[93] Imom al-Buxoriy, Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent: O'zbekiston, 1990; Imom Buxoriy. Al-adab al-Mufrad. // Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006. B. 99-110.

al-mufrad” birinchi nashriga kiritilmagan qismlari to‘ldirilgan holda, kitobxonlarga asardan foydalanishni yengillashtirish maqsadida bir-biriga yaqin mavzudagi hadislar birlashtirilib, asar tarkibidagi odob-axloqqa oid hadislardan saylanma nashr etildi.

Adabiyotlar ro’yhati

1. Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni. // Nashrga tayyorlovchilar Usmonxon hoji Temirxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi,1998. B. 55-56.
2. Imom Buxoriy – muhaddislar sultoni. // Nashrga tayyorlovchilar Usmonxon hoji Temirxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1998. – 129 b.
3. Imom al-Buxoriy, Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent: O’zbekiston, 1990; Imom Buxoriy. Al-adab al-Mufrad. // Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006. B. 99-110.
4. Shayx Abdussalom al-Mubarakfuriy Hazrat Imom al-Buxoriy. // Arab tilidan U.Uvatov tarjimasi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2015. B.118.
5. Ibrohim Shaabon. Imom Buxoriy.. hadisda amirul mo’minin. // Maqola. الإمام البخاري.. أمير المؤمنين في الحديث2018. 14 iyun. 05:59. / https://www.elbalad.news/3347781.
6. Ibrohim Shaabon. Imom Buxoriy.. hadisda amirul mo’minin. // Maqola. الإمام البخاري.. أمير المؤمنين في الحديث2018. 14 iyun. 05:59. / https://www.elbalad.news/3347781.
7. https://www.journal.buxdupi.uz/index.php/journal-buxdupi/article/download/260/216 2021.20-may 6

МУҲАММАД ИБН НАЖИБ БАКРОН ВА УНИНГ АЛОУДДИН МУҲАММАДГА БАҒИШЛАНГАН “ЖАҲОННОМА” АСАРИ ТЎҒРИСИДА

Акобир Тоиров
Фанлар Академияси Тарих институти кичик илмий ходими
Akoshgreat@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада XIII асргача ёзилган араб тилидаги йирик тарихий-география асарларининг ихчамлашган кўриниши сифатида яратилган “Жаҳоннома” ҳақида сўз юритилади. Ушбу асар эса “Ҳудуд ул-олам” каби форс тилида ёзилган тарихий-географияга оид дастлабки форс тилли асарлардан бўлиб, унда географик маълумотлар билан бирга турли тарихий воқеалар, халқлар кўчиши, шаҳарлар ва уларнинг номланиши ҳақида қизиқарли ривоятларни ўз ичига олади. Асар XIII аср бошидаги Турон, Хуросон ва Эроннинг тарихий географияси ҳақида маълумот берувчи ноёб манбадир.

Калит сўзлар: Жаҳоннома, Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон, Алоуддин Муҳаммад Хоразмшоҳ**,** тарихий география, оғзаки ривоятлар, Турон, Хуросон, Эрон.

Annotation: This article discusses the work *“Jahannama” (also known as *“Jahonnoma”*) as a concise representation of major Arabic-language historical and geographical writings produced before the 13th century. The mentioned work is one of the earliest Persian-language historical-geographical sources similar to *“Hudūd al-ʿĀlam”*, incorporating not only geographical descriptions, but also notable historical events, migration of peoples, cities, and intriguing legends regarding the origins of their names. The manuscript is a unique and valuable source providing insight into the historical geography of Turan, Khorasan, and Iran at the beginning of the 13th century.

Key words: *Jahannama*, Muhammad ibn Najib Bakran, Ala ad-Din Muhammad Khwarazmshah, historical geography, oral legends, Turan, Khorasan, Iran.

Аннотация: В данной статье рассматривается произведение «Джаханнама» (также известное как «Джахоннома») как сжатая и обобщённая форма крупных арабоязычных историко-географических трудов, написанных до XIII века. Это одно из первых персоязычных историко-географических сочинений, подобное «Худуд аль-Алам», включающее наряду с географическими сведениями значимые исторические события, миграцию народов, описание городов и интересные устные предания об их названиях. Труд является редким и ценным источником по исторической географии Турона, Хорасана и Ирана в начале XIII века.

Ключевые слова: Джаханнама, Мухаммад ибн Наджиб Бакран, Ала ад-Дин Мухаммад Хорезмшах, историческая география, устные предания, Турон, Хорасан, Иран.

XIII асргача бўлган тарихий географияга оид араб манбалари кейинги даврларда ёзилган шу йўналишдаги асарларга манба ўлароқ хизмат қилган. Мисол учун Муҳаммад ибн Нажиб Бакроннинг “Жаҳоннома” асарининг аксарият қисми ўзидан аввал ёзилган Истахрий ва Хурдодбеҳларнинг “Китоб ал-Масолик ва ал-Мамолик” асаридаги маълумотлари асосида ёзилган.

Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон ҳақида мавжуд маълумотлар фақат унинг асари – “Жаҳоннома” дан олинади. Унинг ҳаёти билан боғлиқ ягона аниқ сана – 605-ҳижрий йил (1208–1209) бўлиб, бу унинг дунё харитасини яратган йили ҳисобланади. Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон Хуросонда, эҳтимол Тус вилояти ёки шаҳрида яшаган. Ушбу тахминни тасдиқловчи маълумотлар “Жаҳоннома” матнида учрайди. Масалан, у Марв, Сарахс, Нишобур, Балх ва Ҳирот аҳолиси ҳақида батафсил ёзган бўлса-да, Тус аҳолиси ҳақида фақат “Тус аҳолиси машҳурдир” деб қисқача изоҳ берган[Мухаммад Ибн Нажиб Бакран 1960: 6]. Шундай қилиб, Бакрон ушбу қўлёзмаларга айнан Тус шаҳрида эга бўлган бўлиши эҳтимолдан йироқ эмас.

“Жаҳоннома” асари XIII асрнинг бошларида ўша пайтлардаги Турон, Хуросон, Эрон ва то Онадўлигача бўлган ҳудудларда ҳукмронлик қилган ануштегинийлар сулоласи ҳукмдори Алоуддин Муҳаммад Хоразмшоҳ (1200 – 1221) бағишланган эди. Муаллиф асарнинг бағишлови ҳақида йигирманчи боб (охирги боб) да баён қилади [Мухаммад Ибн Нажиб Бакран 1960: 114]

“Жаҳоннома” шарқшунос олимлардан бир неча аср давомида бехабар қолган эди. Кейинчалик унинг қўлёзма нусхаси аниқлангач ҳам, у ҳақда Ғарбда айрим маълумотлар тарқалди, бироқ қўлёзма билан бевосита ишлаган айрим махсус тадқиқотчилардан бошқа ҳеч ким бу асарнинг номи ва мазмуни билан яхши таниш эмасди.

Рус шарқшуноси Ю.Е. Боршевский 1960 - йилда Россияда сақланаётган қўлёзманинг фотонусхасини чоп эттириб тадқиқотчилар ихтиёрига берди. Унга рус тилида кенг муқаддима, тузатишлар ҳамда қўшимча кўрсаткичлар илова қилиб, асарнинг кўплаб мушкул жиҳатларини очди, уни ўқувчиларга осонлаштирди ва зарурий шарҳлар билан бойитди [Мухаммад Ибн Нажиб Бакран 1960].

Бу асар географиянинг тарихий жиҳатлари ва саккиз юз йил аввалги Турон, Эрон ҳамда дунё жамиятига оид ноёб маълумотларни ўз ичига олиши жиҳатидан ҳам қимматли ҳисобланади.

Асосий мавзу географик бўлишига қарамай, унда тарихий жараёнлар ва одамларнинг улар ҳақидаги қарашларига ҳам ишоралар бор. Жумладан:

– Хоразмда тўқилган мато ва гиламлар [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 49];

– Шуштар сув иншоотлари [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 81];

– Шабдиз оти [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 57];

– Беҳустун тош ёзувлари [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 58 – 82];

– Шопур Сосоний суратлари [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 83];

Шунингдек, ўша давр Турон, Эрон ва қўшни халқлар жамиятидан хабарлар:

– Қарлуқ, ўғуз ва бошқа қабилаларнинг кўчишлари [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 71–73];

– китобий ва сўзлашув тилларида шаҳар номларининг фарқланиши,

– Басрада қурилган сув тегирмонлари бўлиб, улар сувнинг кўтарилиши ва пасайишидан ҳаракатланарди [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 2];

– шимолий совуқ ўлкаларда иссиқлик учун остида ўчоқ ёқиладиган уйлар [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342:39];

– ер ости бойликларидан, хусусан кўмир [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 89] ва нефт [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 100] дан фойдаланиш;

– вулқонлар [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 71–73] ни “ажойибот” деб ҳисоблаш,

– турклар томонидан қилинадиган сунъий қор ва ёмғир ҳақидаги хабар [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 48];

– турли ҳайвонлар ҳақида тасаввурлар, масалан, одам ейдиган “туямургҳ” [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 87], тўрт бармоқли одамлар [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 41];

Муаллифнинг шаҳар халқларининг хулқ-атвори ҳақидаги фикрлари баъзан шахсий кузатувларга таянган бўлса ҳам, бу жиҳат диққатга сазовор.

“Жаҳоннома” нинг энг қимматли жиҳати шундаки, муаллиф зарур маълумотларни ривоятлардан олиб, ҳар бирини “дейдилар” сўзи билан келтирган. Бу услуб гоҳида асарнинг илмий қадрини пасайтиргандек туюлса-

да, аслида уни оғзаки ривоятлар хазинаси қилиб қўяди. Шу боис ёзилмаган ва айтилмаган маълумотларни ҳам аввалги халқ эътиқодлари ва фикрларини ўрганишда жуда фойдали қилади.

Ю.Е. Борщевский ҳам муаллифни оддий географ эмас, балки ўз даврининг кўп фанлардан хабардор билимдони деб ҳисоблайди. У муаллифни табиатшунослик, астрономия, ҳатто тиббиёт соҳаларида ҳам билимга эга, илмий иш олиб борган олим сифатида тасвирлайди [Борщевский 1960: 10].

Эронда мазкур асарни нашр қилган, шарқшунос Муҳаммад Раёҳий ҳам китобнинг ўртача даражадаги насри, айрим халқона қарашлари – масалан, "барбар қабиласи доим денгиз бўйида бўлгани учун улар "барбар" деб аталган" [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 71], ёки Фарғонанинг аслида "از هر خانه" "аз ҳар хона" дан келиб чиққани [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 114], ҳатто Дамованд тоғининг Париждан кўриниши ҳақидаги фикр [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 57] ларни лмий тафаккурдан узоқ бўлсада, тарихий географияга оид ҳикояларни боғлаш масаласида асарнинг қийматини алоҳида эътироф этади [Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон 1342: 4].

Европа илмий адабиётида "Жаҳоннома" ҳақидаги илк маълумотлар 1862-йилда пайдо бўлди. Шу йили машҳур француз олими Ф. Рено Парижда сақланаётган қўлёзмадан кичик бир парчанинг матни ва таржимасини чоп этган, аммо асарнинг номини қайд этмаган [Renaud 1862].

1876-йилда Б. Дорн XV асрга оид Саъид Али Журжонийнинг "Масолик ал-Мамолик" асарининг айрим қисмларини таржима қилиб нашр этди. Бу асарда "Жаҳоннома" матнининг деярли тўлиқ кўчирилган нусхаси мавжуд бўлиб, у аслида Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон қаламига мансуб эди. Ал-Журжоний эса ушбу матнни фақат кўчирган бўлиб, айрим ҳолатларда бу жараён матннинг бузилишига сабаб бўлган [Дорн 1876].

"Жаҳоннома" номи илк бор Европа адабиётида Чарлз Рё томонидан тилга олинган. У асарни Ҳамдаллоҳ Муставфий Қазвинийнинг "Нузҳат ал-Қулуб" ва Ҳофизи Абрунинг "Жуғрофия" асарларига асос бўлган манбалардан бири сифатида қайд этган [Rieu 1879].

Бизгача етиб келган "Жаҳоннома"нинг энг қадимий нусхаси 1892-йилда Абул Фазл Гулпойғоний томонидан Бухорода топилган ва 1893-йилда рус шарқшуноси А. Г. Туманскийга совға қилинган [Туманский 1893]. Туманский қўлёзмани Париж нусхаси билан солиштириб, матн ва таржимаси билан бирга қисман нашр этган. Бу "Жаҳоннома"нинг иккинчи марта қисман нашри ҳисобланади [Туманский 1897].

В. В. Бартолд ҳам "Мўғуллар истилоси даврида Туркистон" асарини тайёрлашда Париж қўлёзмасидан фойдаланиб, ундан бешта парчани нашр этган [Бартолд 1928].

Париж қўлёзмасининг тўлиқ тавсифи эса фақат 1934-йилда Э. Блоше томонидан эълон қилинган [Blochet 1934].

"Жаҳоннома" асарининг Ленинград нусхаси ҳақида дастлабки маълумот Н.Д. Миклухо-Маклай томонидан берилган [Миклухо-Маклай 1912].

Кейинчалик И.Ю. Крачковский ўзининг “Араб географик адабиёти” асарида унга қисқача тўхталган [Крачковский 1939].

1960-йилда Ю. Е. Борщевский Ленинграддаги СССР ФА Осиё халқлари институтида сақланаётган С 612 рақамли нусханинг фотонашрини чоп этган. Унда муаллифнинг кириш сўзи, асарнинг аҳамияти ва ўрганилиши ҳақида маълумотлар берилган [Борщевский 1960].

Шундан сўнг, 1963-йилда эронлик олим Муҳаммад Амин Раёҳий “Жаҳоннома”нинг замонавий нашрини амалга оширди. Унда изоҳлар ва кўрсаткичлар билан мукаммал кўриниш берилган [Раёҳий 1963].

Ўзбекистонда “Жаҳоннома”нинг бизга тегишли бўлган қисмлари Омонулла Бўрийев таржимаси билан 11 жилдлик “Ўзбекистон тарихи манбалари” да чоп этилган [Ўзбекистон тарихи манбалари 2001]. Унда Туронга оид жой номлари, шаҳарлар, тоғлар, чўллар, дарёлар ва Орол денгизи ҳақида маълумотлар келтирилган.

Бугунги кунда “Жаҳоннома” асарининг икки асосий нусхаси маълум: бири Париждаги Миллий кутубхонада [Blochet 1934], иккинчиси эса Санкт-Петербургдаги Россия ФА қўлёзмалар институтида С 612 рақам билан сақланади [Борщевский 1960].

Муҳаммад ибн Нажиб Бакрон дунё харитаси ва унга ёзилган “Жаҳоннома” рисоласини яратишда қуйидаги уч турдаги манбалардан фойдаланган:

1. **Шахсий кузатувлар.** Ушбу гуруҳдаги маълумотлар камчиликни ташкил қилади. Бакрон фақат иккита ҳолатда ўз кўрганлари ҳақида ёзган:
   - У довулнинг дарахтни илдизи билан суғуриб ташлаганини кузатган.
   - Форсдан келтирилган махсус турдаги рубинни кўрган. Шунингдек, Нишобур яқинидаги Бу-Ис'ҳоқ номли конлар ҳақидаги маълумот унинг ўша ҳудудни билганлиги билан боғлиқ бўлиши мумкин, лекин бу фақат тахмин.
2. **Замондошларнинг ҳикоялари.** Бакрон “Жаҳоннома”да 14 марта бошқа одамлардан эшитган маълумотларни келтирган. Бунга мисол сифатида Далайм ва Мозандарон ҳудудида топилган метеоритлар ҳақидаги хабарни ёки Хуросонга шимолий мамлакатлардан юборилган фатвани келтириш мумкин. Бу маълумотлар асосан қизиқарли, лекин иккинчи даражали аҳамиятга эга.
3. **Ёзма манбалар.** Бакрон асосан ёзма манбалардан фойдаланган. У ўз асарида кўп ҳолларда китоблардан олинган маълумотларни келтиради, аммо муаллифлар ва китобларнинг номларини кўрсатмайди. Қуйида у фойдаланган асосий манбалар келтирилган:
   - “Китоб ал-Масолик ва ал-Мамолик” (IX аср). Муаллифи: Абул Қосим Убайдуллоҳ ибн Хурдодбеҳ. Ушбу асар “Жаҳоннома” учун асосий манбалардан бири бўлган. Бакрон ундан турли ҳудудлар ва масофалар ҳақидаги маълумотларни олган.
   - Абу Ишоқ ал-Истаҳрининг “Китоб ал-Масолик ва ал-Мамолик” (X аср). Бакрон ушбу асардан Тунис, Кухи Килол тоғи ва Испания қирғоқлари яқинидаги денгиз ҳайвонлари ҳақидаги маълумотларни олган.

- “Ашкол ал-Ақлим”. Муаллифи: Муҳаммад ибн Баҳр Руҳний (IX–X асрлар). Бу асар илмий адабиётда аввал маълум бўлмаган. Бакрон ушбу асарни географик маълумотлар учун ишлатган.
- “Сафарнома” (XI аср). Муаллифи: Носир Хисрав. Бакрон ушбу асардан Миср ва Арабистон ҳақида баъзи маълумотларни олган.
- “Камил ас-Синоа ат-Тиббийя” (X аср). Муаллифи: Али ибн Аббос Мажусий. Бу тиббиёт энциклопедиясидан Бакрон заҳарларнинг хусусиятлари ҳақида маълумотларни олган.
- “Осор ал-Боқийа” (X аср). Муаллифи: Абу Райҳон Беруний. Ушбу асардан Бакрон дунё структураси ҳақидаги маълумотларни олган.
- “Китоб ат-тафҳим ли авоил саноат ат-танжим” (1029). Муаллифи: Абу Райҳон Беруний. Бакрон бу китобдаги денгизлар, Каспий денгизи, Иссиққўл кўли, географик кенглик ва узунлик ҳақидаги тушунчаларни ўз асарига киритган.
- Шарафиддин Тусий манбалари. Бакрон Шарафиддиннинг Константинопол кутубхоналаридан олишга муваффақ бўлган қўлёзмаларидан фойдаланган. Ушбу қўлёзмалар Константин томонидан тузилган дунё ҳақидаги билимларни ўз ичига олган. Лекин Бакрон айнан қайси асарлар эканлигини, яъни номларини тилга олмайди [Борщевский 1960: 11 – 14].

Хулоса ўрнида Муҳаммад ибн Нажиб Бакроннинг “Жаҳоннома” асари XIII аср бошларида ёзилган бўлиб, у ўз давридаги Турон, Хуросон ва кенг ҳудудларнинг географик ҳамда ижтимоий-тарихий ҳолати ҳақида бебаҳо маълумотлар берган манбалардан дейиш мумкин. Асарнинг қиммати шундаки, у шахсий кузатувлар, замондошлар ривоятлари ва турли ёзма манбаларни уйғунлаштириб, илмий жиҳатдан ихчам, лекин бой тарихий-географик тасаввур ҳосил қилиш имконини беришидадир. “Жаҳоннома” кейинги асрлардаги кўплаб географик ҳамда тарихий асарларга асосий манба сифатида хизмат қилган.

Манба ва адабиётлар

1. محمد بن نجیب بکران. جهان نامه. تهران. چاپ تابان. ۱۳۴۲ (Muhammad ibn Najib Bakron. Jahonnoma. Tehron: Tobon nashri, 1342).
2. Борщевский, Ю. Е. Джахан-наме. Факсимильное издание списка Института востоковедения АН СССР (№ С 612). Ленинград: 1960.
3. Раёҳий, М. А. Джахон-наме. Теҳрон: 1963.
4. Renaud, F. Fragment d’un manuscrit géographique persan de la Bibliothèque impériale. Journal Asiatique. Paris: 1862.
5. Дорн, Б. Извлечения из Масалик ал-Мамалик Сеид Али Джурджани XV века. Санкт-Петербург: 1876.
6. Rieu, Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. London: 1879.
7. Туманский, А. Г. Описание бухарского списка Джахан-наме. Бухара: 1893.

8. Туманский, А. Г. Известия о Джахан-наме с текстом и переводом отдельных частей. Санкт-Петербург: 1897.
9. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ленинград: 1928.
10. Blochet, E. Catalogue des manuscrits persans de la Bibliothèque Nationale. Paris: 1934.
11. Миклухо-Маклай, Н. Д. Материалы по Джахан-наме. Санкт-Петербург: 1912.
12. Крачковский, И. Ю. Арабская географическая литература. Москва–Ленинград: 1939.
13. Борщевский, Ю. Е. Джахан-наме. Факсимильное издание списка Института востоковедения АН СССР (№ С 612). Ленинград: 1960.
14. Раёҳий, М. А. Джахон-наме. Теҳрон: 1963.
15. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т. XI. Тошкент: 2001.

O‘RTA ASR ALLOMALARI ILMIY FAOLIYATINI YEVROPADA O‘RGANILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Nizomiy nomidagi O‘zMPU
Tarix kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari doktori(DSc)
Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati va tiliga oid Yevropaliklarni tadqiqotlari haqida fikr yuritilgan. Muallif asosiy e’tiborini allomalar, renessans davri tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarni yoritishga uringan. Shu bilan birga jahon ma’naviy me’rosiga Markaziy Osiyolik o‘rta asr allomalarining qo‘shgan munosib hissasini ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar. Markaziy Osiyo, Yevropa, Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘beklar, Arastu, Rui Gonzales de Klavixo, Avitsenna, Shayx ur-rais.

Abstract. This article discusses European studies devoted to the history, culture, and language of the peoples of Central Asia. The author focuses mainly on the research related to prominent scholars and the Renaissance period. At the same time, the author seeks to highlight the significant contribution made by medieval Central Asian scholars to the spiritual heritage of the world.

Keywords. Central Asia, Europe, Khorezm, Imam Bukhari, Hakim Termizi, Abu Nasr Al-Farabi, Ahmad Ferghani, Abu Rayhan Al-Biruni, Ibn Sina, Imam Matrudi, Alisher Navoi, Mirza Ulugbeks, Aristotle, Rui Gonzalez de Clavijo, Avicenna, Sheikh Ur-Rais.

Аннотация. В данной статье рассматриваются исследования европейцев, посвящённые истории, культуре и языку народов Центральной

Азии. Автор сосредоточил основное внимание на изучении трудов учёных и научных изысканиях, связанных с эпохой Ренессанса. Вместе с тем он стремился показать достойный вклад средневековых учёных Центральной Азии в мировое духовное наследие.

Ключевые слова: Центральная Азия, Европа, Хорезм, Имам Бухари, Хаким Термизи, Абу Наср аль-Фараби, Ахмад Фергани, Абу Райхан аль-Бируни, Ибн Сина, Имам Матруди, Алишер Навои, Мирза Улугбек, Аристотель, Руи Гонсалес де Клавихо, Авиценна, Шейх Ур-Раис.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati va tilini o‘rganishga qiziqish Yevropa xalqlarida ancha asrlar avval paydo bo‘lgan. Bunga misol qilib, XVI asrda Italiya, Ispaniya va XVII asrda shakllangan Fransuz ixtisoslashgan sharqshunoslik maktablarini ko‘rsatish mumkin[1]. Hozirda ham bunday ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat ko‘rsatib, xalqimiz tarixi va uning jahon madaniyatiga qo‘shgan munosib hissasi atroflicha o‘rganilmoqda.

G‘arb madaniyatidan bir necha asr avval paydo bo‘lgan, ta’kidlash lozim bo‘lsa, G‘arb uyg‘onish davri mutafakkirlari ibrat olgan, o‘rgangan, ko‘hna Sharq madaniyati o‘zida juda katta ilmiy-adabiy merosni jamlagan bo‘lib, bu esa yangidan - yangi ilmiy tadqiqotlarga manba bo‘lib xizmat qilmoqda va bu borada umidli istiqbol yo‘llari ochilmoqda.

Bu davrda Sharq uyg‘onish davrining taniqli namoyondalari: Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘beklar yashab, ijod qildi[2].

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizdan Muso Al-Xorazmiy (783-850 yillar)ning “Hind hisobi haqida”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola” asarlari,“Sharq Aristoteli” nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)ning “Arastuning “Metafizika” asariga sharh”i hamda hozirga qadar dunyoning ko‘plab siyosatchilari uchun noyob qo‘llanma bo‘lib kelayotgan “Fozil odamlar shahri” singari asarlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, hozirda ham hind xalqi minnatdorlik bilan qayd etganiday, “bizning ko‘hna hind tarixini Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar) o‘zining “Hindiston” asarini yozib berish orqali, bizga yetkazdi”, - deya e’tirof etishining o‘zi ham bizga yuksak g‘urur bag‘ishlaydi[3].

Ushbu mutafakkirlarning asarlari o‘z davridayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, oliy o‘quv yurtlarida darslik, qo‘llanama sifatida uzoq vaqt foydalanib kelindi. Ular o‘zlarining sermahsul ijodlari bilan O‘rta Osiyo dovrug‘ini butun dunyoga yoydilar va shu orqali jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, O‘rta Osiyo renessansining yuzaga kelishida salmoqli o‘rinni egalladilar. Mintaqada barq urgan bunday tarixiy jarayon keyinchalik Yevropada XIV-XVII asrlarda shakllangan G‘arb renessansiga muhim zamin bo‘lib xizmat qildi.

Shu bilan birga Yevropada Amir Temur va Temuriylar davri tarixi, madaniyati va jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini o‘rganish o‘rta asrlar davridayoq boshlangan. Ayniqsa, bu masalada Ispaniya qirollgi elchisi bo‘lgan Rui Gonzales de Klavixoning xizmatlari kattadir. Rui Gonzales de Klavixo o‘zining elchiligi davrda ko‘rgan va tanishgan hamda o‘qigan manbalariga tayanib, “Buyuk

Temur tarixi", "Temur qarorgohi", "Samarqandga sayohat kundaligi" nomli kitoblarni yozdi va nashr qildirdi. Demak, Yevropa xalqlari XVI asrdayoq buyuk Amir Temur va temuriylar davlati hamda uning dovrug'i haqida ma'lum darajada ma'lumotlarga ega bo'lishgan. Temuriylar davri va umuman Sharq o'rta asrlar davri tarixi hamma davrlarda ham g'arb tarixchilarini diqqat markazida turgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa XX asrda ham Yevropalik olimlar tomonidan ko'plab tadiqiqotlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ayniqsa Fransiyada 1988 yilda tashkil etilgan "Temuriylar uyushmasi" tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahsinga sazovordir. Uyushma asosan Temuriylar davri san'ati va tarixini ilmiy o'rganish va targ'ib etish faoliyatini yuritmoqda.

1996 yil sentyabrda "Fransiya – O'zbekiston" jamiyati va O'rta Osiyoni o'rganish fanlar instituti tomonidan "Temur merosi va uning jahonga yoyilishi" Dehlidan Istambulgacha va boshqa mavzularda kollokvium o'tkazdi. O'tgan kollokviumda 10 dan ortiq mamalakat olimlari ishtirok etdilar. Unda Temur faoliyatiga boho berilar ekan, uning nafaqat jahon islom madaniyati rivojlaninishiga balki Temur davri madaniyatini yaratilishida tutgan o'rni ta'kidlab o'tildi.

Bundan tashqari 2004 yildan jahon tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan O'rta Osiyolik alloma Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini o'rganish va uning targ'iboti bilan shug'ullanadigan "Avitsenna-Fransiya" assosiatsiyasi foliyat olib bormoqda[4]. Bularning barchasi Fransiyada Markaziy Osiyo tarixiga qiziqishlari naqadar ulkanligidan dalolatdir.

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o'rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi Frederik Bressan xonim 1997 yilda o'zining "Samarqandning moviy oltini" deb nomlangan ajoyib suratlar bilan bezatilgan albomining keng jamoatchilikka xavola etgan. Nashr taqdimotida olima "dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashhur bo'lsa bularning biri – Parij, ikkinchisi – Samarqand" degan edi. 2003 yilda uning "Maxobatli Samarqand" deb nomlangan kitobi ikkinchi marta bosmadan chiqdi.

Toshkentda 2002 yil 24 may kuni Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari yosh tadqiqotchilarining fransuz tarixchisi Fransua Eno bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi[5]. Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Yosh olimlar milliy jamiyati hamda Markaziy Osiyoni o'rganish Fransiya ilmiy-tadqiqot instituti (IFEAC) tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur uchrashuv Parijda chop etilgan uch jildlik "O'rta asrlarda (X-XV) musulmon olami" kitobining taqdimotiga big'ishlandi. Fransua Eno yig'ilganlarga ushbu kitob haqida ma'lumot berar ekan, unda X-XV asrlarda musulmon dunyosining davlatchilik asoslari va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'ziga xos rivojlanish tamoyillariga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidladi.

Ancha yillardan buyon ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan Fransua Eno ayni paytda Xorazmning XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganish bilan shug'ullanmoqda.

Hukumatimiz horijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug'ullanib kelayotgan ko'plab olim va adbiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari

bilan taqdirlab kelmoqda. Uning mantiqiy davomini 2018 yil 9 oktyabrda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyondalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui - Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvonini topshirilganligida ko‘rish mumkin[6].

Ulardan biri Amin Maaluf o‘zining “Samarqand” romani bilan o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lib, uning romani o‘zbek tilida 2003 yil “Jahon adabiyoti” jurnalining 6-7, 2005 yilning 7-8 sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Xayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy – siyosiy hayot talqini aks etgan[7]. Bu albatta bir tomondan Fransiyada Sharq tarixga qiziqish juda katta ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan ularning O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan rag‘batlantirilishi xorij olimlarini yanada katta qiziqish bilan vatanimiz tarixi va madaniyatini o‘rganishga hamda xalqaro hamjamiyatga yanada kengroq targ‘ib etishda katta turtki bo‘lishi, shubhasiz.

O‘rta asr Sharq allomalari ilmiy merosi va faoliyatiga e’tibor Boltiqbo‘yi davlatlarida ham kuchayib bormoqda. Buning isbotini O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2004 yil Latviyaga tashrifi asnosida Riganing eng so‘lim go‘shalaridan biri – Kronvolda bog‘ida buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek haykali ochilganligida ko‘rishimiz mumkin. Latviya zaminida qad rostlagan Mirzo Ulug‘bek haykali, 2006 yilning noyabrida esa Sharqda “Shayx ur-rais”, Yevropada “Avitsenna” nomlari bilan mashhur bo‘lgan mutafakkir bu Ali Ibn Sino xotirasi uchun o‘rnatilgan yodgorlik xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi mustahkam do‘stlikning yorqin timsolidir.

Hulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, O‘rta asr Sharq allomalari ilmiy merosi – bu butun insoniyat kamoloti uchun xizmat qilmoqda. Ulardan qolgan madaniy meros va ilmiy asarlar hali ko‘p asrlar davomida jahondagi xalqlarni ma’naviyati va ma’rifatini yuksaltirishda davom etaveradi. Ularning asarlarini tadqiq etish yangi-yangi ilm-ma’rifat ufqlarni ochish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Давронова З. Мозийга туташ томирлар // Мулоқот. 2002. №5. – Б.42.
2. Шамсуддинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. К.1. – Тошкент.: “Шарқ”, 2010. – Б. 223 – 278.
3. Мухаммаджонов А. Ўзбекистонтарихи. Дарслик. Шарқ нашриёт – матбаа акциянерлик компанияси. Тошкент. 2009. –Б.71-77.
4. Ўзбекистон – Франция: Ҳамкорликнинг стратегик истиқболлари // Халқ сўзи. 2018. 11 октябрь.
5. Француз олими билан учрашув. // Ўзбекистон овози. 2002. 25 май.
6. Ўзбекистон – Франция: узоқ муддатли ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи. 2018. 10 октябрь.
7. Самарқандга ўзгача меҳр қўйган француз ёзучиси // Халқ сўзи. 2018. 11 октябрь.

SHARQ VA G‘ARB ILMIY MULOQOTINING SHAKLLANISHIDA O‘RTA ASR ALLOMALARINING O‘RNI

Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
“Tarix va ijtimoiy fanlar”kafedrasi katta o‘qituvchisi,
zeboismatullayeva1987@gmail.com
orcid: 0009-0008-2633-4603 (+998938040098)

Annotatsiya: Maqolada Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasida o‘zaro madaniy sohalarda hamkorlik rivojlanib, juda uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligi va turli madaniyatlarni ta’sirida o‘ziga hos noyob sivilizatsiya paydo bo‘lganligi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga Sharq va G‘arb ilmiy muloqotining shakllanishida, mintaqa xalqlarini o‘zaro yaqinlashtirishda, davlatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda allomalar muxim rol o‘ynagan. Bu davrda Sharq uyg‘onish davrining dunyo e’tirofidagi taniqli namoyondalari haqda turli ilmiy manba va adabiyotlarga tayangan holda ilmiy xulosalarni berishga harakat qilingan. Hozirda ham bunday ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat ko‘rsatib, xalqimiz tarixi va uning jahon madaniyatiga qo‘shgan munosib hissasi atroflicha o‘rganilib xulosalarni berishga harakat qilingan. Maqolada Milliy Arxiv ma’lumotlaridan foydalangan holda tadqiq etib, ayrim masalalarda muallif o‘zining mulohazalarini ham berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Sharq va G‘arb xalqlari, O‘zbek davlatchiligi, Markaziy Osiyo, Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Motrudiy, Maxmud Zamaxshariy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Baxoviddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek.

Abstract: The article discusses the development of cooperation between the peoples of the East and the West in cultural spheres, the long path of development, and the emergence of a unique civilization under the influence of different cultures. At the same time, scientists played an important role in the formation of scientific dialogue between the East and the West, in bringing the peoples of the region closer together, and in establishing interstate relations. During this period, an attempt was made to provide scientific conclusions about the world-renowned figures of the Eastern Renaissance based on various scientific sources and literature. Even now, such research centers are operating, and attempts are made to comprehensively study the history of our people and their worthy contribution to world culture and draw conclusions. The article uses the data of the National Archive to conduct research, and the author also gives his own comments on some issues.

Keywords: Eastern and Western peoples, Uzbek statehood, Central Asia, Musa Khorezm, Imam Bukhari, Hakim Termizi, Abu Nasr Farabi, Ahmad Ferghani, Abu Rayhan Beruni, Ibn Sina, Imam Matrudi, Mahmud Zamakhshari, Burkhaniddin Marginoni, Bakhoviddin Naqshbandi, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Mirzo Ulugbek.

Аннотатsiя: В статье рассматривается развитие сотрудничества народов Востока и Запада в культурных сферах, долгий путь развития и становление уникальной цивилизатsiи под влиянием разных культур. При этом ученые сыграли важную роль в становлении научного диалога между Востоком и Западом, в сближении народов региона и в налаживании межгосударственных отношений. В этот период была предпринята попытка на основе различных научных источников и литературы дать научные выводы о всемирно известных деятелях Восточного Возрождения. Даже сейчас действуют подобные исследовательские центры, и предпринимаются попытки всесторонне изучить историю нашего народа и его достойный вклад в мировую культуру и сделать выводы. В статье для проведения исследования используются данные Hatsионального архива, а также автор дает собственные комментарии по некоторым вопросам.

Ключевые слова: Восточные и западные народы, узбекская государственность, Средняя Азия, Муса Хорезм, Имам Бухари, Хаким Термизи, Абу Наср Фараби, Ахмад Фергани, Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Имам Матруди, Махмуд Замахшари, Бурханиддин Маргинони, Баховиддин Накшбанди, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, Мирзо Улугбек.

Dunyoda tamaddun yaratgan xalqlar juda kam, olimlarning hisobiga ko‘ra ularning soni 20 tadan ortiqroqni tashkil etadi. Ana shu xalqlar ichida qadimiy Turkiston hududlarida yashab ijod etgan xalqlar ham borligi juda quvonchlidir. Bizni ko‘hna shaharlar, madrasalar va boshqa madaniy markazlarimiz Buyuk ipak yo‘li rivojlangan davrlardan buyon dunyo xalqlari madaniyatini boyitishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu o‘lkada yashab, keng tarmoqli ilm yo‘nalishlarida ijod qilgan mutafakkirlar ijodi, hayot faoliyatini tadqiq etishga xorijiy mamlakatlarda azaldan qiziqish katta bo‘lgan. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati va tilini o‘rganishga qiziqish Yevropa xalqlarida ancha asrlar avval paydo bo‘lgan[1]. G‘arb madaniyatidan bir necha asr avval paydo bo‘lgan, ta’kidlash lozim bo‘lsa, G‘arb uyg‘onish davri mutafakkirlari ibrat olgan, o‘rgangan, ko‘hna Sharq madaniyati o‘zida juda katta ilmiy-adabiy merosni jamlagan bo‘lib, bu esa yangidan - yangi ilmiy tadqiqotlarga manba bo‘lib xizmat qilmoqda va bu borada umidli istiqbol yo‘llari ochilmoqda.

IX-XII asrlardaO‘rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizdan Muso Al-Xorazmiy (783-850 yillar)ning “Hind hisobi haqida”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola” asarlari, “Sharq Aristoteli” nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)ning “Arastuning “Metafizika” asariga sharh”i hamda hozirga qadar dunyoning ko‘plab siyosatchilari uchun noyob qo‘llanma bo‘lib kelayotgan “Fozil odamlar shahri” singari asarlari muhim tarixiy manbalar sifatida bunga yaqqol misol bo‘la oladi[3]. Alisher Navoiy asarlari, jumladan “Lison ut-tayr”[4], keyinchalik Yevropa, xususan Polsha adabiyotshunoslari tomonidan ham o‘rganilgan. Bu holat Sharq ma’naviyatining G‘arb ilmiy-madaniy makoniga kirib borishining yaqqol misolidir[5]. Shuningdek, hozirda ham hind xalqi minnatdorlik bilan qayd etganiday: “bizning ko‘hna hind tarixini Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar) o‘zining “Hindiston” asarini yozib

berish orqali, bizga yetkazdi", - deya e'tirof etilishining o'zi ham bizga yuksak g'urur bag'ishlaydi.

Ushbu mutafakkirlarning asarlari o'z davridayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, oliy o'quv yurtlarida darslik, qo'llanama sifatida uzoq vaqt foydalanib kelindi. Ular o'zlarining sermahsul ijodlari bilan O'rta Osiyo dovrug'ini butun dunyoga yoydilar va shu orqali jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib, O'rta Osiyo renessansining barq urishida salmoqli o'rinni egalladilar. Mintaqada yuzaga kelgan bunday tarixiy-madaniy jarayon keyinchalik Yevropada XIV-XVII asrlarda shakllangan G'arb renessansiga muhim zamin bo'lib xizmat qildi[6].

Shu o'rinda tabiiy ravishda savol tug'iladi-ki, o'sha tahlikali, ijtimoiy-siyosiy jihatdan murakkab davrlarda ajdodlarimiz qanday qilib ilm - fanda bunday yuqori natijalarga erishdilar? Masalan, kuzatadigan bo'lsak, o'z davridayoq Abu Rayhon Beruniy qomusiy olim sifatida mashhuri zamon bo'lganligiga, tibbiyot fanining otasi Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) esa 13 ta muhim fan sohalarida, ayniqsa tibbiyotda mukammal ijod qilganligiga amin bo'lamiz. Ular bir qancha horijiy tillarni qanday qilib o'zlashtirganlar? Zero, tarixiy manbalarda Abu Nasr Farobiyni 70 dan ortiq tillarni bilganligi haqidagi qaydlar bizga ma'lum. Ular analitikaga, ya'ni qo'yilayotgan masalaga tahliliy yondashuv asosida atroflicha baho berish darajasiga qanday qilib erishganlar? Va yana, eng muhimi, ular bir nechta fanlarni qay tarzda mukammal o'zlashtirganlar? Chunki shu tufayli ham ularning ko'pchiligi qomusiy bilim sohiblari deya e'tirof etilganlar.

Masalan, manbalarda qayd etilishicha, Abu Nasr Forobiy yunon va rim manbalarini mukammal o'rganib, ularni sharhlashda unga teng keladigani bo'lmagan[7]. Hatto tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino ham Aristotelning "Metafizika" asarini o'qib, uning tub ma'nosini tushunishda qiynalib yurgan vaqtlarda Forobiyning shu asarga bag'ishlab yozgan sharhlarini topib o'qibgina, asar ma'nosini anglab yetgan. Abu Rayhon Beruniy esa uzoq vaqt G'aznaviylar (962-1186 yillar)ning Hindistondagi vakili sifatida faoliyat yuritgan davrda hindlarning o'lik tilga aylanib ketgan qadimiy tili - Sanskritni o'rganishga erishib, shu tilda yozilgan manbalarni o'rganishga va keyinchalik jahonga mashhur "Hindiston" asarini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Qolaversa, jahon hamjamiyatida o'zining yutuq va muvaffaqiyatlari bilan munosib o'rin egallab, ayniqsa, ta'lim sohasida erishgan yutuqlari e'tirof etilayotgan vatanimiz - O'zbekistonga va uning madaniyatiga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Buning isbotini ko'plab xorijiy mamlakatlarda o'zbek tilini o'rganishga e'tiborni ortayotganida, O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida muntazam o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar orqali ham ko'rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, O'rta Osiyo tarixi, xalqimizning tili, madaniyati, urf- odatlari Italiya sharqshunoslarini avvaldan qiziqtirib kelgan. Italiya sharqshunoslik maktabi XVI asrdayoq shakllana boshlaganini yuqorida eslatib o'tgan edim. O'sha zamonlarda Yevropada Sharqqa qiziqish g'oyat kuchaygan bir payt bo'ldi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo o'zining jug'rofiy o'rniga ko'ra, ham Sharq bilan G'arb, Shimol bilan Janub o'rtasida ilg'or g'oyalar targ'ibotchisi vazifasini o'tab kelgan.

Jahonda yildan – yilga O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Va ayniqsa, bu sohada Yevropalik tadqiqotchilar yetakchilik qilmoqdalar. To‘g‘ri, bu qiziqish oldin ham bo‘lgan, jumladan, Amir Temur davrida bevosita diplomatik aloqalarni o‘rnatgan davlatlar: Angliya, Fransiya, Ispaniya bo‘lsada, ammo Amir Temur va Temuriylar davriga o‘rganish, tadqiq etish Italiyadan boshlanganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi[8]. Jumladan, Amir Temur haqidagi ilk tarixiy asar ham muallif Perondinoning “Skifiyalik Tamerlanning ulug‘vorligi” nomi bilan Italiyaning Florensiya shahrida 1553 yili bosilib chiqdi. Bu Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi. Keyinchlik Temurga shaxsiga qiziqish qo‘shni davlatlar Fransiya va Ispaniyada ham boshlanib, ko‘plab asarlar yaratiladi. Demak, bundan ikki ming yil muqaddam boshlangan hamkorlik aloqalari, muntazam davom etganligi, Temuriylar davriga oid ham Italiyada ilmiy tadqiqotlar qariyb besh asrdan buyon davom etayotganligi quvonarli holatdir.

Madaniy aloqalarda muzeylarning ham o‘rni alohida bo‘lib, bu yo‘nalishda ayniqsa Fransiya bilan aloqalar ayniqsa diqqatga sazovordir. Huddi shunday madaniy muloqot 2018 yil 9 oktyabrda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Fransiyaga tashrifi chog‘ida Luvr muzeyida davom etdi. Muzey eksponatlari 6 ta kolleksiyaga ajratilgan. Faqat Sharq kolleksiyasining o‘zi 24 ta zalni egallagan. U yerda bizning mamlakatimiz tarixiga oid minglab ashyoviy eksponatlar bor. Jumladan, Amir Temurning Karl VI yozgan maktubi, Axmad Yassaviy maqbarasi uchun Sohibqiron tomonidan yasattirilgan shamdon, qadimiy qurol aslahalar, bitiklar va boshqa asori atiqalar buyuk o‘tmishdan dalolat beradi. Eng e’tiborli jihat shuki aynan shu muzeyda 2022 yilda O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga bag‘ishlangan katta ko‘rgazma tashkil etildi. Ushbu tadbirlar, targ‘ibotlar dunyo hamjamiyatida O‘zbekiston imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga ushbu muzeyda bizni tariximizga tegishli manbalarni ko‘pligini hisobga olsak, ushbu aloqalar naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini anglashga imkon beradi.

2025 yil holatiga taxlil etadigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada ham sharq manbalarini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Birgina, Oksford universitetini o‘zida bir nechta bizni tariximizga tegishli noyob manbalar jumladan, Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” (XV asr) asari nusxalari, Alisher Navoiyning “Xamsa”si (XV asr), Husayn Boyqaroning “Devoni Husayniy”si (XV asr)[9], Boburiylar davriga oid miniatyuralar va boshqa shu kabi nodir kitoblar saqlanadi. Yana muhim voqealik shuki, 2025 yil oktyabr oyidan Oksford universitetining “Osiyo va Yaqin Sharq tadqiqotlari” fakulteti o‘zbek va qadimgi o‘zbek (chig‘atoy) tillarini o‘rganishni nazarda tutuvchi o‘quv dasturiga kiritgan birinchi va yagona universitet bo‘ldi[10]. Bu qaysidir ma’noda o‘zbek “yumshoq kuchini” navbatdagi ulkan yutug‘i desak bo‘ladi.

Hulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, o‘rta asr allomalari Sharq va G‘arb ilmiy muloqotining shakllanishida muhim ko‘prik vazifasini bajarishgan. Ularning ilmiy merosi G‘arb ilmiy uyg‘onishining poydevorini yaratishga xizmat qilgan. O‘rta Sharq xalqlari ilmiy me’rosini o‘rganish bugungi tarix va adabiyot fanlarini dolzarb masalasi hisoblanadi. Ushbu ilmiy me’roslarni butun dunyoga yoyilib

ketganligini hisobga olsak, ularni keng masshtabda o‘rganish, shu sohadagi xalqaro aloqlarani yanada kuchaytirish yangi tadqiqiotlarni yaratish uchun asos bo‘ladi. Qolaversa, bugungi tezkor zamonda ayrim muammolarni javoblari aynan o‘sha davr allomalari asarlarida o‘zining yechimlarini topganligi, ushbu davr tarixini yanada chuqur tadqiq etish naqadar muhimligini ko‘rsatib turibdi. Bunday boy madaniy merosni asragan yaxshi, ammo uni o‘rganib hayotga tadbiq etish undan ham foydali bo‘lishishubhasizdir. Kelajakda ilmiy hamkorlik va transmadaniy dialog yanada chuqurlashib borishi mumkin – bu borada tarixiy tajribadan saboq olish o‘ziga xosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rtveladze E. va boshqalar. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi. Toshkent. Adolat. 2001. – B. 48.
2. Madraimov A. Manbashunoslik. T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti– 2008. –B.118-140.
3. Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1. – Toshkent.: “Sharq”, 2010. – B. 223 – 278.
4. Muxammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. Darslik. Sharq nashriyot – matbaa aksiyanerlik kompaniyasi. Toshkent. 2009. –B.71-77.
5. “Lison ut – tayr” polyak tilida // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. - 2014. - 21 noyabr.
6. Aliszer Navoiy, *Język ptaków (Lison ut-tayr)*, tłum. A. Miłkowska, Warszawa: Państwowy Instytut Wydawniczy, 1982.
7. Ismatullayeva Z.Sh. Temuriylar davri tarixini Yevropada o‘rganilishining ayrim jihatlari. “Golden brain” journal. 2024 yil. 87 bet
8. Worlds Together,Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York.
9. Оксфорд ўқув дастурига ўзбек ва қадимги ўзбек (чиғатой) тилларини киритган биринчи ва ягона университет бўлди. *https://kun.uz/kr/50559568*. Murojaat sanasi:16.10.2025.

HUSAYN BAYQARA DAVRIDA XUROSON GEOGRAFIYASI

Oriental universiteti katta
o‘qituvchisi Jurayev Sherzod

Annotatsiya: O‘zbek tilida Ushbu maqola XV asr oxiri – XVI asr boshlarida (1469–1506) Sultan Husayn Bayqara hukmronligi davrida Xuroson mintaqasining geografik holatini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Fizik-geografik xususiyatlar (reliyef, iqlim, gidrografiya), siyosiy chegaralar va administrativ tuzilma, iqtisodiy geografiya (qishloq xo‘jaligi, savdo yo‘llari, hunarmandchilik), shahar va qishloq landshafti, demografik tarkib va madaniy geografiya batafsil o‘rganilgan. Husayn Bayqara davri Xurosonning so‘nggi “oltin davri” sifatida baholanib, uning geografik salohiyati madaniy va iqtisodiy yuksalishning asosi bo‘lgani isbotlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekcha: Husayn Bayqara, Xuroson, Temuriylar, Hirot, fizik geografiya, siyosiy geografiya, iqtisodiy geografiya, savdo yo‘llari, madaniy landshaft, irrigatsiya

Аннотация: Статья посвящена комплексному анализу географического положения Хорасана в период правления Султана Хусейна Байкары (1469–1506). Рассматриваются физическо-географические особенности (рельеф, климат, гидрография), политические границы и административная структура, экономическая география (сельское хозяйство, торговые пути, ремесла), городской и сельский ландшафт, демографический состав и культурная география. Эпоха Хусейна Байкары оценивается как последний «золотой век» Хорасана, когда его географический потенциал стал основой культурного и экономического расцвета.

Ключевые слова: Хусейн Байкара, Хорасан, Тимуриды, Герат, физическая география, политическая география, экономическая география, торговые пути, культурный ландшафт, ирригация

Annotation: This article is devoted to a comprehensive analysis of the geography of Khorasan during the reign of Sultan Husayn Bayqara (1469–1506). It examines physical-geographical features (relief, climate, hydrography), political boundaries and administrative structure, economic geography (agriculture, trade routes, crafts), urban and rural landscapes, demographic composition, and cultural geography. The era of Husayn Bayqara is assessed as the last “golden age” of Khorasan, when its geographical potential became the foundation of cultural and economic prosperity.

Keywords: Husayn Bayqara, Khorasan, Timurids, Hirot, physical geography, political geography, economic geography, trade routes, cultural landscape, irrigation

Sultan Husayn Bayqara (1438–1506) Temuriylar sulolasining oxirgi buyuk hukmdori bo‘lib, 37 yil (1469–1506) davomida Xurosonning markazi hisoblangan Hirotda hukmronlik qildi. Uning davri nafaqat siyosiy barqarorlik, balki madaniyat, san’at va ilm-fanning misli ko‘rilmagan yuksalishi bilan ham tarixda qoldi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi zotlar uning saroyida faoliyat yuritgan [1, 87–92].

Xuroson o‘sha davrda hozirgi Eron shimoli-sharqi, Afg‘oniston shimoli, Turkmaniston janubi va O‘zbekiston janubiy-qismini o‘z ichiga olgan ulkan hudud edi. Bu mintaqaning geografik xususiyatlari – tog‘lar, daryolar, vohalar va savdo yo‘llari – Husayn Bayqara davrida iqtisodiy va madaniy gullab-yashnashning asosiy omili bo‘ldi [2, 214].

Xuroson relyefi jihatidan juda xilma-xil edi. Shimolda Qoraqum cho‘lining janubiy chekkalari, janubda Kopetdog‘ va Paropamiz tog‘ tizmalari, sharqda Hindukush tog‘larining g‘arbiy yon bag‘irlari joylashgan. Hirot vodiysi 900–1200 m balandlikda, Harirud daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, mo‘tadil iqlimga ega edi [3, 156].

Asosiy daryolar: Harirud (Tedjen), Murg’ob, Kashaf rud, Balx daryosi. Bu daryolar sug‘orish tizimlarining asosi bo‘lib, vohalar hosil qilgan. Husayn Bayqara

davrida eski Temuriy irrigatsiya inshootlari ta’mirlanib, yangi ariqlar qurilgan – bu haqda Navoiyning “Xamsa”sidagi tasvirlarda ham dalil bor [4, 112].

Iqlim – quruq kontinental: yoz issiq (Hirotda iyul o‘rtacha +32 °C), qish yumshoq (yanvar +2…+5 °C), yog‘in 250–400 mm, asosan bahor va qishda. Tog‘li hududlarda 1000 mm gacha yetadi. Bu sharoit bug‘doy, arpa, paxta, meva (qovun, uzum, anor) va pillakashlik uchun juda qulay edi [2, 219–221].

Husayn Bayqara 1469 yilda Hirotni egallagach, asta-sekin butun Xurosonni o‘z tasarrufiga oldi. 1470 yilda Balx va Kunduzni, 1480-yillarda Mashhad va Sabzavorni qo‘shdi. Uning davlatining chegaralari:

Shimolda – Amudaryo va Marv yaqinigacha

G‘arbda – Nishapur va Tus

Janubda – Qaen va Siston chegarasi

Sharqda – Balx va Badaxshon

Hukumat 4 ta katta viloyatga bo‘lingan: Hirot, Marv, Balx va Mashhad markazli. Har bir viloyatda darug‘a (hokim) va amirlar bo‘lgan [5, 167].

1501 yilda shayboniylar Samarkandni egallagach, Xuroson shimoliy chegarasi xavf ostida qoldi. 1506 yilda Husayn vafot etgach, 1507 yilda Shayboniyxon Hirotni oldi – bu Xurosonning Temuriy davrining tugashi edi [1, 201].

Xuroson iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi va savdoga asoslangan edi. Sug‘oriladigan yerlarning 80–85 % bug‘doy, arpa, paxta va meva bog‘lariga ajratilgan. Hirot atrofidagi “Chor bog‘” tizimi dunyoga mashhur edi.

Savdo yo‘llari:

G‘arbga – Mashhad → Tabriz → Usmonli imperiyasi

Shimolga – Marv → Buxoro → Rossiya

Sharqqa – Balx → Hindiston (Kobul orqali)

Janubga – Qandahor → Dehli

Ipak, matolar, qog‘oz, chinni, quruq mevalar eksport qilingan. Hirot bozori haftada 6 kun ishlar, karvonsaroylar soni 200 dan oshgan [6, 234–238].

Hunarmandchilik markazlari: Hirot (miniatyura, kitobat), Nishapur (firuza), Sabzavar (ipak).

Hirot – davlat poytaxti, aholisi 1506 yilda taxminan 300–350 ming kishi [7, 145]. Shahar ichida Musallo majmuasi, Gowharshod maqbarasi, Jome’ masjidi va 40 dan ortiq madrasa bo‘lgan. Husayn Bayqara davrida “Injil” kanali qayta ta’mirlanib, shahar atrofida yangi bog‘lar barpo etilgan (bog‘ nomi: Bog‘i Jahonoro, Bog‘i Zog‘on).

Boshqa yirik shaharlar:

Marv (aholi ~150 ming)

Nishapur (~100 ming)

Balx (~120 ming)

Mashhad (ziyorat markazi)

Qishloqlarda katta qishloq xo‘jalik majmualari (rabot, dehqonchilik uylari) bo‘lib, ular bog‘ va uzumzorlar bilan o‘ralgan edi.

Aholi tarkibi: fors-tojiklar (70–75 %), turkiy xalqlar (o‘zbek, turkman, qoraqalpoq urug‘lari – 20–25 %), arab, kurd, hazora guruhlari. Hirot va Nishapurda forsiy, Balx va Marvda turkiy tillar ustun edi.

Aholi zichligi vohalarda yuqori (1 km² ga 80–100 kishi), cho‘l va tog‘larda past (5–10 kishi). Ko‘chmanchi turkman va o‘zbek urug‘lari shimoliy chegaralarda yashagan [3, 201].

Husayn Bayqara davri Xuroson madaniy landshaftining eng yorqin davri edi. Hirot “Sharqning Florensiyasi” deb atalgan. 300 dan ortiq bog‘, 40 dan ortiq madrasa, 12 ta katta karvonsaroy, ko‘plab hammom va masjidlar qurilgan.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini davlat tili darajasiga ko‘targan, Jomiy “Bahoriston” asarini yozgan, Behzod miniatyura maktabini yaratgan [4, 156–160].

Bu madaniy yuksalish geografik sharoitlar bilan uzviy bog‘liq edi: vohalarning serhosilligi, savdo yo‘llarining faolligi va shaharlarning xavfsizligi ijodkorlarni o‘ziga tortgan.

Xulosa

O‘zbek tilida Husayn Bayqara davrida Xuroson o‘zining geografik salohiyatini to‘la namoyon etdi. Tog‘lar, daryolar, vohalar va savdo yo‘llari tufayli mintaqa iqtisodiy jihatdan gullab-yashnadi, madaniy jihatdan esa Sharq Uyg‘onish davrining eng yorqin markaziga aylandi. Bu davr Xuroson tarixidagi so‘nggi buyuk davr bo‘lib, uning merosi bugungi kunda ham Hirot, Balx va Mashhadda saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 1992. – 352 b.

2. Bartold V.V. Raboty po istoricheskoy geografii. – M.: Vostochnaya literatura RAN, 2002. – 712 s.

3. Subtelny M.E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill, 2007. – 412 p.

4. Навоий Алишер. Махбуб ул-кулуб. – Тошкент: Фан, 1983. – 248 б.

5. Roemer H.R. The Successors of Timur // The Cambridge History of Iran, Vol. 6. – Cambridge, 1986. – P. 98–146.

6. Manz B.F. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge University Press, 2007. – 336 p.

7. Szuppe M. Hirot under the Timurids // Encyclopaedia Iranica (online edition), 2020.

ХИВА ХОНЛИГИДАН РОССИЯГА ЮБОРИЛГАН ЭЛЧИЛИКЛАРГА ОИД АЙРИМ ҚАРАШЛАР

Нодира Холмонова
Ориентал университети
“Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси PhD,
nkholmonova@inbox.ru

Аннотация: Хива хонлиги дипломатиясида элчилик институти давлат ташқи сиёсатини юритишда алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Бугунги кунга

қадар саноқли илмий адабиётларда хонликдаги элчилик ишларининг ташкил этилиши, мазмун-моҳияти ёритиб берилган бўлиб, ҳар бир давлат билан амалга оширилган элчилик алоқалари алоҳида тадқиқ этилмаган. Россия хонликнинг асосий дипломатик алоқаларни олиб борган давлатларидан бири бўлган ва муносабатлар мазмунининг ўзгариши томонлар ўртасидаги элчилик алоқаларига ҳам ўз таъсирини ўтказган. Шу жиҳатдан, ҳар икки давлат ўзаро элчилик алоқаларига диққат билан қараган. Мақолада объект сифатида хивалик элчилар фаолияти олиниб, хонликдан Россияга бир вакилнинг бир неча марта ташрифи, унинг моҳияти, мақсади, натижа ҳамда оқибатлари хусусида қарашлар келтирилган.

Калит сўзлар: элчи, дипломатия, Ҳожиюсуф, Давлат Муҳамммад ясавул, Иброҳимбек, Эренгхон, Дўстбек Баҳодир, Али Шукуров, Шукруллобой Мискинов, И. Хохлов, А. Бекович-Черкасский, Пётр Алексеевич, Емельян Украинцев, И. Неплюев.

Аннотация: Институт посольской службы в дипломатии Хивинского ханства имел особое значение в проведении внешней политики государства. До настоящего времени в немногочисленной научной литературе освещались организация и сущность посольской службы в ханстве, однако дипломатические отношения с каждым государством не изучались отдельно. Россия была одним из основных государств, с которым ханство поддерживало дипломатические связи, и изменение содержания отношений также повлияло на посольские связи между сторонами. В связи с этим оба государства уделяли пристальное внимание взаимным дипломатическим связям. В статье в качестве объекта рассматривается деятельность хивинских послов, приводятся взгляды на несколько визитов одного представителя из ханства в Россию, их сущность, цель, результаты и последствия.

Ключевые слова: Посол, дипломатия, Ходжиюсуф, Давлет Мухаммад ясаул, Ибрагимбек, Эренгхан, Достбек Бахадир, Али Шукуров, Шукруллобой Мискинов, И. Хохлов, А. Бекович-Черкасский, Пётр Алексеевич, Емельян Украинцев, И. Неплюев.

Annotation: The institution of embassy in the diplomacy of the Khiva Khanate held particular importance in conducting the state's foreign policy. Until today, limited scientific literature has covered the organization and essence of embassy affairs in the khanate, but the diplomatic relations with each state have not been studied separately. Russia was one of the main states with which the khanate maintained diplomatic relations, and the changing nature of these relations also influenced the embassy ties between the two sides. Given this aspect, both states paid close attention to mutual embassy relations. The article takes the activities of Khivan ambassadors as its object of study and presents perspectives on the multiple visits of one representative from the khanate to Russia, including their essence, purpose, results, and consequences.

Key words: Ambassador, diplomacy, Khojiyusuf, Davlat Muhammad yasaul, Ibrahimbek, Erenghon, Dustbek Bahodir, Ali Shukurov, Shukrulloboy Miskinov, I. Khokhlov, A. Bekovich-Cherkassky, Pyotr Alekseevich, Yemelyan Ukraintsev, I. Neplyuyev.

Бугунги кунда жаҳонда содир бўлаётган ўзгаришлар, давлатлар ўртасида геосиёсий таъсир доираларни “қайта тақсимлаш”га уринишлар оқибатида юзага келаётган ишончсизликнинг кучайиб бориши халқаро муносабатларнинг сусайишига олиб келмоқда. Буни англаган ҳолда тинчликпарвар ташқи сиёсатни амалга ошириш ҳар бир давлат олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Шу жиҳатдан, давлатлар ўртасидаги дипломатик алоқаларда ҳамкорлик ва аксинча зиддиятли ҳолатларнинг пайдо бўлишига олиб келувчи омилларга янгича ёндашувлар асосида эътибор қаратиш, тарих хатоларидан сабоқ чиқариш билан бирга замонавий интеграциялашув истиқболларини англашга ҳам хизмат қилади.

Дипломатик муносабатлар тарихини тадқиқ этган мутахассис таърифи билан билан баҳо берганда [1], “элчилар – дипломатиянинг қуроли ёки воситаси” ҳисобланар экан, Хива – Россия алоқаларини йўлга қўйиш ва мустаҳкамлаш йўлида хизмат қилган элчилар ҳамда улар бошчилигида уюштирилган элчилик алмашинувлари масаласига тадқиқотларда қай даражада эътибор берилганини аниқлаш ўзаро муносабатлар характерини тўлароқ тасаввур қилишга ёрдам беради.

Хива хонлигида элчиларга ўз вазифаларини мукаммал бажариши учун қатор талаблар қўйилган бўлиб, асрлар давомида шаклланган анъаналар бунга асос қилиб олинади. Шу жиҳатдан, хонликдан Россияга юборилган қатор элчиликлар муваффақият қозонган. Муваффақиятли элчиликлар билан бир қаторда Хива хонлигидан бир элчининг бир неча марта Россияга ташриф буюрганлигини кузатиш мумкин. Бунда асосан элчининг йўл ва борган ҳудудини билиши, ўз зиммасига юклатилган вазифани уддалай олишига эътибор қаратилган. Бу ҳолат хивалик элчиларнинг музокараларда муваффақиятини таъминлаган омиллардан бири бўлган бўлса, айрим ҳолларда бунинг акси бўлганлиги кўринади.

Хусусан, Ҳожиюсуф элчилиги (биринчи марта 1616-1617 йилларда, иккинчи марта 1623-1625 йилларда)ни мисол қилиш мумкин. Мазкур элчилик биринчи марта муваффақиятли якун топган бўлса-да, иккинчи ташриф кутилган натижани бермайди. Ҳ. Зиёев асарида элчи Ҳожиюсуф И. Хохловга қилинган ёмон муносабат туфайли Ярославл шаҳрига келганда Бухоро элчиси билан бирга ортга қайтариб юборилганлиги қайд этилади [2]. А. Кочнёв диссертациясида эса мазкур элчилик бўлганлиги қайд этилиб унинг натижасига оид маълумот келтирилмайди [3].

XVII асрда амалга оширилган Давлат Муҳаммад ясавул элчилиги (биринчи марта 1653-1654 йиллар, иккинчи марта 1658-1659 йиллар)ни ҳам шу қаторга киритиш мумкин. Бироқ, мазкур элчилик ташрифи давомида кўрилган масала ва унинг натижаларига оид ишлар деярли мавжуд эмас. Фақатгина Ҳ. Зиёев элчининг икки марта Астрахан орқали Москвага борганлигини қайд этади [4]. А. Кочнёв элчиликнинг сон жиҳатдан 16 кишилик таркибдан иборатлигини тилга олинади [5]. Шунингдек, тилшунос тадқиқотчи О. Чўпонов Хива-Россия элчилик китобларидаги атамаларни лексик тадқиқини амалга оширишда мазкур элчилик ҳужжатларини

лексикологик томондан тадқиқотга тортади [6]. Унда савдо алоқаларидаги қатор талабгир маҳсулотлар номлари тилга олинади.

Кейинги элчиликлардан бири Иброҳимбек Ажизов (Авезов) биринчи марта 11 кишилик таркиб билан 1683-1684 йилларда Россияга ташриф буюргани ҳолда, иккинчи бор 1690-1691 йилларда 50 кишилик таркиб билан ҳаракатланади. Элчининг дастлабки ташрифига оид маълумот Н.М. Рогожин томонидан тузилган “Обзор посольских книг из фондов – коллекций хранящихся в ЦГАДА” номли маълумотномасида мазкур архивнинг Россиянинг Хива билан алоқалари“ номли 134 жамғарма, 1 рўйхат, 2 ишда сақланаётганлигига оид маълумот қайд этилган бўлса [7], муаллифлардан фақат Ҳ. Зиёев элчи подшолар Иван ва Пётр Алекссевичлар билан учрашиб, олдинги анъаналарга содиқ қолган ҳолда уларга хон ёрлиғи ва туҳфаларини тақдим қилганлигини қайд этади. Шунингдек, элчи ўзи билан хонликда озод қилинган рус асирларни олиб борган деган маълумотни келтиради [8]. Мазкур элчиликни шунга қадар бўлган алоқалар орасида дастлабки озод этилган рус асирларни олиб борган элчилик деб баҳолаш мумкин.

Иброҳимбекнинг иккинчи бор ташрифи катта карвон билан амалга оширилиб, юқорида келтирилган архив жамғармасининг 1 рўйхат 3 ишда сақланаётганлигига оид маълумотни Н.М. Рогожин қайд этади [9]. А. Чулошников келтирган маълумотда элчи Манғишлоқда пристан қуриш борасида ҳам таклиф билдириганлиги қайд этилади [10]. Ҳ. Зиёев монографиясида Хива хони Эренгхон ўзининг тахтга ўтирганлигини билдириб, подшолар Иван ва Пётр Алексеевичларга ёрлиқ жўнатганлиги қайд этилади. Элчилик миссияси 1691 йил 16 мартда Москвада Элчилик маҳкамасида Емильян Украинцев томонидан қабул қилинади. Қабул давомида яна Манғишлоқ масаласи ва савдога оид муаммолар тилга олинганлиги кўрсатилади [11]. А. Андреев, Р. Рахимов мақоласи, А. Кочнёв ишларида элчининг рус подшосига олиб келган совғаларига оид маълумотлар келтирилади. Унга кўра, Хива элчиси 2 та кичик бабра, ёш арғумоқ, 2 та йўрға, 2 та йирик от, 9 нафар рус асирини совға сифатида олиб боради [12]. Элчига жавоб тариқасида 40 та сувсар териси берилади. Элчи Пётр ва Иван Алексеевич қабулида ва дума аъзоси Емельян Игнатьевич Украинцев билан суҳбатлар олиб бориб, асосий масала сифатида “хива ўтовларини” талон-тарож қилаётган ёйиқ казакларидан шикоят ва қалмиқларнинг Аюкин улусига ҳужум қилишни таклиф қилади, асосий масала эса “туркман пристани” қуриш ишлари бўлганлиги таъкидланади.

Адабиётларда бир қанча баҳсли мунозараларга сабаб бўлган ва уч марта элчи сифатида Россияга борган Дўстбек Баҳодир миссияси кўп тадқиқ этилган элчиликлар қаторида туради. Биринчи марта 45 кишилик таркиб билан 1700 йилда Россияга борган элчи хон номидан васалликни сўраганлигига оид маълумотларни Ф. Лобисевич, В. Бартолд, Ҳ. Зиёев, Х. Ғуломов, В. Костецкий, С. Пуллада, А. Отамуродова ва О. Абдурахимов (ҳаммуаллифликда) каби муаллифлар қайд этади [13]. Архив ҳужжатларини синчковлик билан ўрганган соҳа мутахассислари А. Андреев, Р. Почекаев ва Н. Аллаевалар эса элчи Пётр I дан тобеликни сўрамагалиги, аксинча, рус

ҳукумати вакиллари хоннинг мактубини нотўғри талқин қилганлигини асослаб берадилар [14]. Элчининг иккинчи бор ташрифи бевосита биринчи ташрифнинг мантиқий давоми сифатида юқорида исмлари келтирилган муаллифлар томонидан қайд этилиб, рус ҳукумати элчи орқали янги Хива хони Сайид Алихон (1703-1705)*га Россия васалли эканлигини эслатувчи ёрлиқ жўнатган. Айнан мазкур ташриф оқибатида рус ҳукумати тайёргарликлар билан А. Бекович-Черкасский экспедициясини ташкил этади. Дўстбек Баҳодирнинг учинчи бор ташрифи 1731 йилда 40 кишилик карвон билан амалга оширилиб, сиёсий ҳаётда ўзгаришга олиб келувчи бирон ҳаракат бўлганлигига оид маълумотлар қайд этилмайди. Биргина Ҳ. Зиёев монографиясида элчи Астрахан губернаторига озиқ-овқат таъминоти масаласида мактуб йўллаганлиги, элчиликнинг Москвагача йўл харажати рус ҳукумати ҳисобидан таъминланганлиги қайд этилади [15].

XVIII асрнинг ўрталарида икки бор ташкил этилган элчиликлардан бири Шербек Аширбой Мулла Нодиров элчилиги бўлиб, дастлаб 1749-1752 йилларда 3 кишилик таркиб билан, иккинчи бор 1755 йилда амалга оширилган бўлиб, ҳар икки ҳолатда ҳам элчи Оренбургдан ортга қайтади.

Биринчи бор, Герман элчининг 1750 йил Оренбургга етиб келганлигини қайд этади, тўлиқ маълумот бермайди [16]. “Хоразм тарихи” номли асарда мазкур элчиликнинг Оренбург губернатори томонидан яхши кутиб олинганлиги, рус ҳукумати бундан буён савдо карвонларни Оренбургга кўплаб юборилишига рухсат берганлиги қайд этилади [17]. Ҳ. Зияев монографисида элчи Оренбургга борган Хива хонининг биринчи расмий элчиси бўлиб, унга Нуралибой Қутлубоев, Қутлубой Давлатбоев, Умарбой Бобоевлар ҳамроҳлик қилиб, Хива хонининг рус подшосига ёрлиғини Оренбург губернаторига тақдим қилганлиги айтилади [18]. Унга кўра, элчилар хон номидан Оренбургнинг қурилганлиги юзасидан миннатдорлик изҳор қилиб, кўчманчиларнинг савдо карвонларига ҳужумига қарши биргаликда кураш олиб боришлари таклифи билдирилади. Мазкур маълумотлар Ф. Лобисевич, XXI асрда Х. Ғуломов тадқиқотларида ҳам келтирилади [19]. Элчининг қайтишида Неплюев хазина ҳисобидан 200 сўмлик совға ва хон номига мактуб бериб юборилади. Бу даврда Хива хони Ғойибхон (1746-1756) ва қозоқларнинг бошқа бир улуси етакчиси Нуралихон ўртасида келишмовчиликлар бўлиб, элчилар қайтиш олдидан таъқиб остига олинади. Бундан ташқари улардан катта бож тўлови ундирилиб, Хива-Россия карвонларининг Нуралихон ҳудудидан ўтишига рухсат бермаганлигини Ҳ. Зиёев қайд этади [20]. В. Костецкий, Н. Аллаевалар мазкур элчилик Хива хонлигининг Эрондан мустақил давлат сифатида юборган дастлабки элчилиги бўлганлигидан Оренбург губернатори И. Неплюев қандай муносабатда бўлишни билмай иккиланганлиги ва бу борада Петербургдан элчини Оренбургда қабул қилиш кўрсатмаси келганлигини таъкидлайди [21].

Элчиликнинг иккинчи бор ҳам Оренбургда қабул қилиниб, Петербургга ўтказилмаганлигига оид маълумот А. Отамуродова ва О. Абдурахимовлар, У. Абдурасулов ҳамда П. Сартори мақоласида эслаб ўтилади [22].

1783 йилда амалга оширилган элчилик ҳаракатларидан бири Али Шукуров (иккинчи бор) ташрифи саналади. Х. Ғуломов, В. Костецкий, Н. Аллаева монографияларида 1763 йил элчи олиб келган хон мактубининг муҳри Россияда белгиланган тартибдагидек охири ва орқа томонида эмас балки, бошланишига қўйилмаганлиги учун саройга киритилмаган Али Шукуровнинг иккинчи ташрифи эканлигини қайд этадилар [23]. Мазкур маълумотдан кўринадики, элчи дастлаб 1763 йилда рус пойтахтига борган ва натижасиз ортга қайтган. Шунга қарамасдан манба ва адабиётларда элчилик тафсилотларига оид маълумотлар қайд этилмайди.

XIX асрда ҳам Шукруллобий Мискинов Хива хони томонидан икки бор 1846 ва 1852 йилларда расмий вакил сифатида Россияга юборилади [24]. Ҳар икки ташриф давомида хонлик томонидан даштликлардаги рус истеҳкомларига норозилик мурожаати билдирилган. В. Костецкий элчилар Россия қурган ва қураётган истеҳкомлар борасида хоннинг норозилигини баён этишар экан, император буни савдо ишларини хавфсизлантириш ва ўша ҳудудда тартиб ўрнатиш учунлиги учун қурилган деган жавоб берганлигини қайд этади [25]. М. Ниязматов элчиларга Хива хони Муҳаммад Аминхон (1845-1855) томонидан Раим қалъаси қурилишини тўхтатишга рус ҳукуматини кўндириш вазифа берилгани, бироқ, якунда элчилар ўз мақсадига эриша олмай ортга қайтганликларини қайд этади [26]. Тадқиқотчилар А. Отамуродова ва О. Абдурахимовлар ҳам мазкур маълумотларни қайд этиб, русларнинг Сирдарё ва Манғишлоқдаги босқинчилик ҳаракатларини тўхтатишни талаб қилиб борганлигини ҳам таъкидлайди [27].

Иккинчи ташрифда элчи орқали В. Перовский томонидан хонликни “қўрқитиш” мақсадида “Хива хонлиги бизнинг кўз ўнгимизда ўзининг эркинлигини йўқотмоқда”, тарзида таҳдид қилинганлигини Н. Халфин таъкидлаб ўтади [28]. М. Ниязматов элчи рус ҳукумати вакилига учинчи бир давлат кузатувида хонлик ва Россия ўртасида Сирдарё бўйлаб чегара чизиғини ўтказиш масаласини қўйганлигини қайд этади [29]. Бироқ чегара борасидаги мазкур масала очиқ қолдирилади.

Кўриниб турганидек, Хива хонлиги ва Россия ўртасидаги дастлабки алоқалар савдо мазмунида бўлган бўлса, Россия ташқи сиёсатининг “Шарққа силжиш” ҳаракатлари натижасида сиёсий-ҳарбий мазмунга ўзгаради. Бу жиҳатдан илмий адабиётларда икки давлат муносабатларининг динамикаси ва мазмунига таъсир кўрсатган сиёсий аҳамияти юқори бўлган элчиликлар асосан тадқиқотларга тортилиб, қолган элчиликларга оид маълумотларнинг ўрганилмаганлиги яққол кўринади. Шунингдек, Хива хонлигида элчилик институтининг фаолияти ҳам яхши йўлга қўйилган бўлиб, хонликнинг халқаро миқёсдаги ўрнини сақлашда давлат вакиллари саналган элчиларга алоҳида талаблар қўйилгани бунинг ёрқин исботидир. Айниқса, Россия ва Эрон каби давлатларга элчиларни юборишда эҳтиёткор бўлганлиги сезилади. Сабаби мазкур давлатлар билан олиб борилган ташқи сиёсат фақат иқтисодий-савдо характерида бўлмасдан, сиёсий-ҳарбий ҳаракатлар мазмунига ҳам эга бўлган. Шу жиҳатдан, бу ҳудудларга элчи юборишда

тажрибали, ишбилармон ва чуқур фикр-мулоҳазага эга инсонларга эътибор қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последние трехсотлетие. – Петроград, 1915. – С. VI.
2. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон ва Сибир (XVI-XIX асрлар). Асарлар тўплами-1. – Тошкент, 2008. – Б. 51.
3. Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII - второй половине XIX в.: дис. ... кандидата исторических наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 59.
4. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 64.
5. Кочнев А.В. Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII - второй половине XIX в.: дис. ... кандидата исторических наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 60.
6. *Чупонов О.О.* Лексические единицы со значением “время” в посольских книгах по связям России с Хивой XVII в. // Вестник Челябинского государственного университета. 2018. № 10 (420). Филологические науки. Вып. 114. – С. 280-283. *Ўша муаллиф.* К истории создания одной Хивинской посольской книги XVII века // XXV International scientific conference/ *www.naukaip.ru*, – С. 225-228.
7. Обзор посольских книг из фондов – коллекций, хранящихся в ЦГАДА (конец XV начало XVIII в). Составитель Н.М. Рогожин. – Москва, 1990. – С. 172.
8. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 69.
9. Обзор посольских книг из фондов – коллекций, хранящихся в ЦГАДА (конец XV начало XVIII в). Составитель Н.М. Рогожин. – Москва, 1990. – С. 172.
10. Чулошников А. Торговля Московского государства с Средней Азией в XVI – XVII вв.// МИУТТ. – Ташкент, 1932. – С. 18.
11. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 71.
12. *Рахимов Р., Андреев А.* Дарообмен в контексте Российско-Хивинских и Российско-Бухарских связей в петровскую эпоху // Иран-наме, № 3 (27), 2013. – С. 110. *Кочнев А.В.* Политика России в отношении Хивинского ханства в начале XVIII - второй половине XIX в.: дис. ... кандидата исторических наук. – Екатеринбург, 2019. – С. 61. Қаранг: РГАДА. Ф. 134. Сношения с Хивой. Оп. 2. – 1691 г. – Л. 44
13. *Лобысевич Ф. И.* Поступательное движение в Среднюю Азию в торговом и дипломатическом отношениях. – СПб., 1900. – С. 19.; *Бартольд В.В.* История изучения Востока в Европе и России. Лекции.

Издание-2. – Ленинград, 1925. – С. 204.; *Зияев Х.* Узбеки в Сибири (XVII – XIX вв). – Ташкент, 1958. – С. 17. *Ўша муаллиф.* Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 73. *Гуломов Х.* Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. – Тошкент, 2005. – С. 221.; *Костецкий В.А.* Россияне в Узбекистане/ Авт.-сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. – Ташкент.: Нихол, 2008. – С. 16.; Пуллада С.П. Русско-Туркменские столкновения: граница на каспии до начала Большой игры. – London-New York: I.B. Tauris, 2018. – P. 21-22.; *Otamurodova A., Abduraximov O.* Xiva elchilari. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”. 2016. – B. 51-52.

14. *Андреев А.А.* Российско-хивинские отношения в конце XVII – начале XVIII в. Декларативная «шерть» или реальное подданство? // Петербургский исторический журнал № 2 (2015). – С.16-31. Ўша муаллиф. Хивинское ханство в начале XVIII века. Трудности политического развития в условиях внешнего влияния. Петровское время в лицах – 2015. – СПб., 2017. – С. 19-28.; Почекаев, Р.Ю. Губернаторы и ханы. Личностный фактор правовой политики Российской империи в Центральной Азии: XVIII – начало XX в. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2017. – С. 203.; *Аллаева Н.А.* Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2019. – Б. 99-100.

* *Ф. Лобисевич, В.Костецкий Хива хонини Араб Муҳаммадхон деб кўрсатади. М. Ниязматов асарида Хива хони Шоҳниёз хон деб қайд этилади. Араб Муҳаммадхон 1602-1621 йилларда ҳукмронлик қилган бўлиб, Шоҳниёзхондан кейин тахтни Шоҳбахтхон (1702-1703) ундан сўнг Сайид Алихон эгаллаган эди.*

15. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 79.

16. Герман. Исторический взгляд на сношения России с Хивинскою областью// Вестник Европы. Ноябр и декабрь, 1822. – С. 148.

17. Хоразм тарихи. 1 жилд. – Урганч, 1997. – Б. 252.

18. Зияев Х. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. – Тошкент, 1973. – Б. 20.; Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). 1 жилд. – Тошкент: “Таълим нашриёти”, 2014. – Б. 86, 147.

19. *Лобысевич Ф. И.* Поступательное движение в Среднюю Азию в торговом и дипломатическом отношениях. – СПб., 1900. – С. 49.; *Гуломов Х.* Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. – Тошкент, 2005. – С. 227.

20. Зияев Х. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. – Тошкент, 1973. – Б. 22.

21. *Костецкий В.А.* Россияне в Узбекистане / Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. – Ташкент: Нихол, 2008. – С. 37.; *Аллаева Н.А.* Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2019. – Б. 132-133.

22. *Otamurodova A., Abduraximov O.* Xiva elchilari. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”. 2016. – B. 84. *Abdurasulov U., Paolo Sartori.* At the Coronation! A Khivan Ambassador Makes It to Moscow (1762)// Journal of Central Asian History - 1 (2022). – P. 172.

23. *Гуломов Х.* Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII-первой половине XIX века. Тошкент, 2005. С. 230.; *Костецкий В.А.* Россияне в Узбекистане/ Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. Ташкент: Нихол, 2008. С. 38.; Аллаева Н.А. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2019. – Б. 306.

24. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Жоме ул-воқеоти султоний. VI жилд. Нашрга тайёрловчи С. Долимов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980. – Б. 62, 70, 79.

25. *Костецкий В.А.* Россияне в Узбекистане/ Авт.- сост. В. А. Костетский; Ред кол.: С.И. Герасимова и др. – Ташкент: Нихол, 2008. – С. 45.

26. Ниязматов М. Поиск консенсуса: Российско-Хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – С.Петербург: Петербургское Востоковедение, 2010. – С. 71.

27. Otamurodova A., Abduraximov O. Xiva elchilari. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”. 2016. – B. 154-155.

28. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века). – М., 1974. – С. 360.

29. Ниязматов М. Поиск консенсуса: Российско-Хивинские геополитические отношения в XVI – начале XX в. – С.Петербург: Петербургское Востоковедение, 2010. – С. 72.

SHARQ VA G‘ARB MAMLAKATLARI TARIXSHUNOSLIGIDAGI ASOSIY TAFOVUTLAR (XV-XVI asrlar)

Nodira Xolmonova
Oriental universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi phD,
Muhammadqodir Murodov
Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV-XVI asrlarda sharq va g‘arb mamlakatlari tarixshunosligining rivojlanish jarayoni hamda ular o‘rtasidagi asosiy tafovutlar tahlil etilgan. Shu bilan birga sharq tarixshunosligining diniy, siyosiy va axloqiy yo‘nalishdagi xususiyatlari bilan bir qatorda, g‘arb tarixshunosligining ilmiy, gumanistik va insonparvarlik ruhidagi qarashlari o‘zaro taqqoslab o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq tarixshunosligi, G‘arb tarixshunosligi, Renessans davri, ilmiy tahlil, diniy yo‘nalish, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy, Leonardo Bruni, Uyg‘onish davri.

Аннотация: В статье анализируется процесс развития историографии в странах Востока и Запада в XV–XVI веках и общие различия между ними. При этом в сравнительном аспекте изучаются религиозные, политические и нравственные течения восточной историографии, а также научные, гуманистические взгляды западной историографии.

Ключевые слова: Восточная историография, Западная историография, эпоха Возрождения, научный анализ, религиозное направление, Хондамир, Шарафиддин Али Язди, Франсис Бекон, эпоха Возрождения.

Annotation: This article analyzes the process of historiography in the Eastern and Western countries in the 15th-16th centuries and the general differences between them. At the same time, the religious, political, and moral orientations of Eastern historiography are compared with the scientific, humanistic views of Western historiography.

Keywords: Eastern historiography, Western historiography, Renaissance period, scientific analysis, religious direction, Khondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fransis Bekon, Renaissance.

Tarixshunoslik fan doirasidagi insoniyat o‘tmishini o‘rganish jarayoni, tahlil qilish va xulosa chiqarishning eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. XV-XVI asrlar dunyo tarixshunosligining taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda sharq va g‘arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayotda, ilm-fan va madaniyatda chuqur o‘zgarishlar yuz berganligi bilan ajralib turadi. Sharqda tarixshunoslik asosan diniy, siyosiy va axloqiy yo‘nalishda bo‘lib, tarixiy asarlar hukmdorlarni ulug‘lash va ilohiy qudratni tasvirlashga qaratilgan edi. G‘arbda esa uyg‘onish davrining ta’siri ostida tarixiy bilimlarga yangi ilmiy, tanqidiy va gumanistik yondashuv shakllandi. Bu davrda inson va jamiyat hayotiga e’tibor ortib, tarixiy jarayonlar sabab–natija asosida tahlil qilina boshlandi. Sharqda esa tarix asarlari ko‘proq an’anaviy uslubda yozilib, diniy va siyosiy g‘oyalar yetakchi o‘rin tutdi.

XV-XVI asrlarda sharq va g‘arb tarixshunosligi o‘rtasida mazmun, maqsad va metod jihatidan sezilarli farqlar vujudga keldi. Mazkur mavzuni o‘rganish, o‘tmish tarixiy tafakkurning rivojlanish bosqichlarini anglashda, bugungi tarix ilmining shakllanish jarayonini to‘liq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr insoniyat tarixida muhim burilish davri bo‘lib, bu paytda sharq va g‘arb mamlakatlarida siyosiy, madaniy hamda ilmiy hayotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Uyg‘onish davri g‘oyalari g‘arb tarixshunosligiga yangicha ruh bag‘ishladi, natijada tarixga ilmiy va tanqidiy yondashuv shakllana boshladi. Sharq mamlakatlarida esa tarix yozish an’anaviy uslubda, ya’ni diniy va siyosiy yo‘nalishda davom etdi. Ushbu davr tarixshunosligi inson tafakkurining, dunyoqarashining o‘zgarishini aks ettirgan holda, bugungi zamonaviy tarix fanining shakllanishida muhim o‘rin tutadi [1; B.15].

Ma’lumki, qadimdan sharq mamlakatlarida aholi zich yashagan ilk tammadunlardan biri bo‘lib mazkur mintaqa ko‘plab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va

madaniy jarayonlar kesishgan markaz hisoblangan. Bundan tashqari ushbu mintaqada Eron, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo hududlarni oz ichiga olgan ulkan sivilizatsiyalar makoni bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, bu mintaqada tarixshunoslikning yangi bosqichlari kuzatila boshlandi. Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Arab dunyosida tarix asosan diniy va siyosiy yo‘nalishda yozilgan. Tarixchilar hodisalarni Allohning irodasi bilan bog‘lab tushuntirishga intilganlar. Tarixiy asarlar ko‘pincha hukmdorlar faoliyatini ulug‘lash, ularning adolatini va xalqparvarligini ko‘rsatish maqsadida yaratilgan. Bu davrda sharq mintaqasida kuchli imperiyalardan biri bo‘lgan “Temuriylar imperiyasi” hukmronlik qilgan. Temuriylar davrida tarixshunoslik bilimlari yagona va markazlashgan davlatning paydo bo‘lishi bilan ancha ravnaq topdi [2; B.36].

Sharq va g‘arb sayohatchilari – Ibn Haldun, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales De Klavixo, mahalliy muarrixlar Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamir kabilar tomonidan yozilgan asarlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Masalan: Xondamirning “Habib us-siyar”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi taymur”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla us-sadayn va majma ul-bahrayn”, Hofizi Abruning “Jome ut-tavorix” kabi asarlari sharq tarixshunosligining yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarlarda tarixiy voqealar sanalar, podshohlar avlodlari va urushlar ketma-ketligi asosida bayon etilgan bo‘lib, ilmiy tahlildan ko‘ra badiiy va axloqiy jihatlar ustun turadi.

Mashhur tarixchi va olim G‘iyosiddin Xondamir (1475-1534) 1520-1524 yillarda o‘zining “Habib us-siyar” asarini yozib tugatgan. Bu asarda asosan dunyoning yaratilishidan boshlab qadimgi Payg‘ambarlar, Xalifalar va eng asosiysi Temuriylar davri haqida judda ko‘p ma’lumotlar uchraydi. Bu asar sharq tarixshunosligining yuksak namunasi bo‘lib xizmat qilgan. U o‘z asarida diniy, siyosiy va madaniy tarixni uyg‘unlashtirib, tarixni ibrat, saboq va ma’naviy qadiryat manbai sifatida ko‘rsatgan. Shu bois asar XV-XVI asrlar sharq tarixshunosligining eng muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. U o‘z davrining eng mukammal umumiy tarixiy manbasi sifatida e’tirof etilgan. Bundan ko‘rinadiki, sharq mamlaklarida tarix ko‘proq axloqiy saboq, diniy ibrat manbai sifatida qaralgan.

Tanqidiy jihatdan, sharq tarixshunosligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq hayoti yoki ommaviy hodisalar chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rish mumkin [3; B.167].

G‘arb mamlakatlarida esa XV-XVI asrlardan boshlab ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar ilohiyat bilan o‘z aloqasini uza boshlaydi. Asta-sekinlik bilan mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tib, din cherkovga qarshi chiqa boshladi. Bu davr g‘arb mamlakatarida “rennesans” ya’ni uyg‘onish va gumanistik g‘oyalar davri nomi bilan ataladi. Bu jarayon yangi davr arafasida o‘ziga xos qadriyatlarga ega bo‘lgan g‘oyaviy va ilmiy madaniy rivojlanishni boshlab bergan tarixiy jarayon hisoblanadi. Uyg‘onish davri tarixshunoslikning shunday bosqichini o‘z ichiga oladiki, unda xristian dini yaxlit bir mavqeni egallamaydi. Bu o‘zgarishlar eng avvalo tarixshunoslikda yaqqol ko‘zga tashlandi. Endi asosan o‘rta asrlardagi

diniy, xristian ruhidagi tarixiy qarashlar o‘rnini insonparvarlik (gumanizm) g‘oyalari egallay boshladi. Tarix endi faqat Xudoning irodasi bilan emas, balki inson faoliyati, siyosiy voqealar, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan izohlanadigan bo‘ldi. Tarixchilar antik (qadimgi yunon va rim) mualliflarning asarlarini qayta o‘qish, tarjima qilish, tahlil etish bilan shug‘ullandilar. Masalan, qadimgi dunyo tarixshunosligidagi Gerodot, Strabon, Arrian kabi tarixchi faylasuflarning yozgan asarlari ilmiy tanqidiy holda tahlil qilina boshlandi [4; B.78].

Shuningdek, XV-XVI asrlarda Yevropada yuz bergan “buyuk geografik kashfiyotlar” ham tarixshunoslikka o‘z ta’sirni o‘tkazmay qolmadi. Kolumb, Magellan, Vasko da Gama kabi dengizchilar yangi yerlarni kashf etishi bilan yangi tarixshunoslik bilimlari kirib keldi. Bu kashfiyotlar g‘arb tarixshunosligining ko‘lamini kengaytirdi va endi tarix faqat g‘arb mamlakatlariga emas, butun insoniyatga oid fan sifatida qaraldi. Bu davr tarixchilari endi asosan tarixiy voqealarni xolis tahlil qilishga va manbalarga tayangan holda yozishga kirishdilar. Tarixni faqat qirollar va cherkov hayoti sifatida emas, balki xalq, davlat, madaniyat tarixini ham o‘rganish boshlandi.

Bu davr mashhur tarixchilari Italiyalik Nikkolo Makiavelli (1469–1527) “Italiya tarixi” asarida voqealarni real faktlar asosida yozdi.

Jan Bodin (1530-1596) esa tarixshunoslikda qonuniyatlar va sabab-natija bog‘liqligini tushuntirishga urindi. Bu tarixchilarning ishlari tarixni ilmiy asosda o‘rganishning dastlabki namunalarini yaratdi.

Ingliz tarixchisi va faylasufi Fransis Bekon (1561-1626) o‘z davrida o‘rta asrlarning diniy va metafizik fikrlashiga qarshi chiqdi, fan va tajriba asosidagi bilim tarafdori bo‘ldi. Uning asosiy fikrlari quyidagicha: empirizm (tajriba asosidagi bilim) “bilim tajriba orqali olinadi” degan g‘oyani ilgari surdi. U tarixshunoslikda bilish, kuzatish, tajriba, sinov va induksiya usullariga asoslanish kerakligini ta’kidladi. Ya’ni, birinchi bo‘lib hodisalarni kuzatish, keyin umumiy xulosaga kelish kerak degan g‘oyalarni ilgari surgan. Bu insonlar g‘arb tarixshunosligi rivojlanishining ilk bosqichlarida o‘zining qarashlari va g‘oyalari bilan katta hissa qo‘shgan [5; B.120].

Undan tashqari, g‘arb mamlakatlarida XVI asrlarda boshlangan Martin Lyuter boshchiligidagi reformatsiya jarayoni ham tarixshunoslikning keyingi rivojiga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Diniy tarixshunoslik o‘zgarib turli konfessiyalar nuqtai nazardan qarashlar paydo bo‘la boshladi. Bu davrda asosan tarixshunoslik endi cherkovdan ajralib chiqib, mustaqil yo‘lga o‘tgan. Tarixni yozishda insonning o‘rni, davlat boshqaruvi, madaniyat, siyosat, fan yutuqlari kabi masalalarga e’tibor berildi. Tarixchilar endi manbalarga tayangan holda yozishga o‘tdilar. Tarixiy hujjatlar, xatlar, shahar arxivlari, yodgorliklar tahlil qilina boshlandi. Shu davrda manbalarni tanqidiy tahlil qilish usuli shakllandi – bu esa tarixshunoslik fanining ilmiy poydevorini mustahkamladi [6; B.84].

Xulosa qilib aytganda, XV-XVI asrlarda g‘arb va sharq mamlakatlari tarixshunosligi o‘ziga xos yo‘nalishlarda rivojlandi. Bu davrda g‘arb tarixshunosligi uyg‘onish davri ta’siri ostida ilmiy, dunyoviy va tanqidiy ruhda rivojlandi. Tarixni yozishda manbalarga tayanish, tanqidiy yondashuv, sabab–

natija tahlili shakllandi. Tarixchilar Nikkolo Makiavelli, Franchesko Guichardini, Jan Bodin va Fransis Bekon kabi olimlar tarixni siyosiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qildilar. Tarixshunoslik asta-sekin mustaqil fan sifatida shakllandi, diniy tasavvurlardan uzoqlasha boshladi. Tarixchilar inson faoliyatini, siyosiy voqealarni, jamiyat taraqqiyotini o‘rganishga e’tibor berib, manbalarga asoslangan, faktlarga tayanadigan ilmiy tarix yozuvini shakllantirdilar.

Sharq mamlakatlari tarixshunosligi esa bu davrda asosan diniy va axloqiy yo‘nalishda bo‘lib, tarixni ibratli voqealar, podshohlar faoliyati va ilohiy irodaga bog‘liq holda yoritdi. Tarix asarlari ko‘pincha podshohlar buyurtmasi bilan yozilgan, voqealar esa maqtov va ibrat ruhida ifodalangan.

Shu tariqa, XV-XVI asrlarda g‘arb tarixshunosligi tanqidiy va ilmiy yo‘nalishga o‘tsa, sharq tarixshunosligi hali ham an’anaviy, diniy va saroy tarixchilik uslubini davom ettirdi. Bu esa ikki madaniyat o‘rtasida tarixni tushunish va izohlashdagi katta tafovutni yuzaga keltirdi. Bu tafovutlar keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Aytish mumkinki, XV-XVI asrlar tarixshunoslik taraqqiyotida g‘arbda ilmiy tafakkur uyg‘onishi, sharqda esa tarixiy an’analarni saqlash jarayoni kuzatildi. Bu ikki yo‘nalish keyinchalik dunyo tarixshunosligining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat nashiryoti, 2008. – 68 b.
2. Alimov D.A., Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti, 2018. – 324 b.
3. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent, 2020. – 444 b.
4. Yo‘ldoshev S. Qadimgi va o‘rta asr g‘arbiy Yevropa falsafasi. – Toshkent: Sharq nashiryoti, 2005. – 180 b.
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb tarixshunosligi. – Toshkent, 1997. – 416 b.
6. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutaffakirlari. – Toshkent: O‘zbekiston nashiryoti, 1971. – 325 b.

LAGATURMAN – THE LAST TURK SHAHI RULER (BASED ON BERUNI’S “KITAB AL-HIND)

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna
Al Beruni Institute of Oriental Studies,
Uzbekistan Academy of Sciences.

Annotation: This article examines Lagaturman, the last ruler of the Turk Shahi dynasty, as described by al-Biruni in *Kitāb al-Hind*. It explores historical details about his reign and the decline of the Turk Shahis. The study highlights al-Biruni’s valuable contribution to understanding early medieval Central and South Asian history. It also sheds light on the cultural and political context of the period.

Key words: Lagaturman, Turk Shahis, Beruni, “Kitab al-Hind”, turks.

Аннотация: Ушбу мақолада Лағатурман - Туркшоҳийлар сулоласининг сўнгги ҳукмдори, Абу Райҳон Берунийнинг *“Китоб ал-Ҳинд”* асарида баён этилган маълумотлар асосида таҳлил қилинади. Мақолада унинг ҳукмронлик даври ва Туркшоҳлар сулоласининг таназзулига оид тарихий маълумотлар ёритилган. Тадқиқот Берунийнинг ўрта асрлар Марказий ва Жанубий Осиё тарихи ҳақидаги қимматли ҳиссасини намоён этади. Шу билан бирга, ўша даврнинг маданий ва сиёсий муҳитига ойдинлик киритилади.

Калит сўзлар: Лағатурман, Туркшоҳийлар, Беруний, *“Китоб ал-Ҳинд”*, турклар.

Аннотация: В данной статье рассматривается личность Лагатурмана - последнего правителя династии Тюркшахов, описанного аль-Беруни в его труде *«Китаб аль-Хинд»*. В работе освещаются исторические сведения о его правлении и упадке государства тюркшахов. Исследование подчеркивает ценный вклад аль-Беруни в изучение истории Средней и Южной Азии раннего средневековья. Кроме того, статья раскрывает культурный и политический контекст того периода.

Ключевые слова: Лагатурман, Тюркшахи, аль-Беруни, *«Китаб аль-Хинд»*, тюрки.

“Taḥqīqmā li-l-hind min maqūlamaqbūlafī l-ʿaql aw mardhūla”, shortly “Kitab al Hind”by Biruniis an central source for the study of the history of India, as well as the Turkic clans and dynasties ruling there. One of these is the Turkshahi dynasty, whose genealogy is mentioned in no sources but Biruni’s.

Biruni stated about this ruler in work “Kitab al-Hind” as follow: “*Ihave been told that the pedigree of this royal family, written on silk, exists in the fortress Nagarkot, and I much desired to make myself acquainted with it, but the thing was impossible for various reasons. One of this series of kings was Kanik, the same who is said to have built the vihara (Buddhistic monastery) of Purushavar. It is called, after him, Kanik-caitya*”. Kanik (Kanishka) is described as a shahiya of Kabul. It can be remarked as follow: The popularity of Kushanian Kingdom was so great in northern historical part of India that the next dynasties there linked themselves to Kushans by legitimacy. The information that Lagaturman was the last king of this Turkic Shahs can be known from the following extract of Biruni: *The last king of this race was Lagaturman, and his Vazir was Kallar, a Brahman. The latter had been fortunate, in so far as he had found by accident hidden treasures, which gave him much influence and power, In consequence, the last king of this Tibetan house, after it had held the royal power for so long a period, let it by degrees slip from his hands*.At first thought, the name Lagaturman reminds the famous Hephthalite ruler of India, Turaman. This means that the pre-Islamic Turkic dynasties that went to northern India associated themselves to both the Kushans and the Hephthalites.

As is known, the Hephthalites, who established their realm in India in the 5th-6th centuries, were mentionedHunas, Sveta Hunas in Sanskrit sources. Information about the Huns is provided in local Sanskrit, Brahmi, Chinese inscriptions, as well as, in numismatic sources. The White Huns, who formed the western branch of the

Huns, who are believed to have left the Altai Mountains around 350 as a result of the disintegration of the Hun political organizationin Central Asia, settled in the territory of Southern Kazakhstan, then moved west from the Itil and directed to Southern Iran, Western Afghanistan, and Northern India. A branch of the White Huns crossed the Hindu Kush and reached Gandhara, located in present-day Pakistan, and to Punjab from there in the mid of the 5th century, (approximately 450 AD). Researchers acknowledge that the valleys in the upper streams of the Sutlej River were called Hundesin the Indian holy book Markandeya Purana, and the Hunas are also mentioned in the epic Mahabharata.

According to numismatic sources, the first White Hun ruler in India was titled Tegin. It is known that Teginwas one of the titles given to the sons of the Turkic khagans and the rulers of the Turkic states of Central Asia. Researches testify that Teginwas the title during the prince age period of Turaman before his reign. However, according to the Indian historian Biswas, Tegin is identical with the word Ṭhucina in the Brahmi inscriptions and Tuňcina in the Kashmiri chronicle Rajatarangini, and the words under consideration must be the Sanskritized form of Tegin. A. Biswas states that Tegin was the father of Turaman. However, there were three people named Tuňcinain the Kashmiri chronicle Rajatarangini. One of them was Tegin, the father of Turaman. In short, the White Hun ruler named Tegin founded the White Hun state in Gandhara before Turaman and later expanded his state'sthe borders to Kashmir. Based on this information, A.H. Dani sets the date of the conquest of Gandhara by the Hephthalites as 465.

There were two opposing leaders, Bhanu Gupta and Turamanin the city of Eran. The Gupta Empire that was defeated in the struggle, and they were forced to concede the city of Malwa to the White Huns. Thus, Turaman, who had annexed Malwa to his territory, continued his invasions towards Magadha. The most renowned of the Hun leader, who led this invasion that devastated India, was undoubtedly Turaman. Although he did not seem to have completely disintegrated from his headquarters in Tokharistan, it is apparent that he acted independently guiding the forces under him. E. Aradi emphasizes that Turaman's original Hun name was Turman.

The Hephthalites began to attack Gandhara and later entire Northern India in the late 5th and early 6th centuries. In 477, the Kidarids of Gandhara sent embassies to China, and in 520, the Chinese pilgrim Song Yun, who came toGandhara, states that the Hephthalites conquered it and established their rule. The Hephthalites clashed with the Guptas,who were at the peak of their power, in the second half of the 5th century. The attacks, which began in 457, were followed by Skandagupta'sfights against them, during the reign of Buddhaguptaand in the last quarter of the 5th century, the Hephthalites'penetration into the Indian subcontinent ended with Turaman's invasion of the Punjab and the conquest of all of Western India. During Turaman's reign, the Hephthalites in India keptreigningkeeping ties with their association in Central Asia. It proves that that the ties between them was not broken. According to an Indian source, Turaman's son Mihirakula strengthened his father's efforts to conquer all of Northern India and he was very victorious. His political career was so great that the Chinese

Buddhist monk Xuanzang, who came to Indian land a century later, paid special attention to the life and activities of this ruler in his travelogue.

There is information about the Turks who entered the land of India almost at the same time as the last Hephthalites in Beruni's"Kitab al-Hind", while the Hephthalites/White Huns, who ruled the political life of the region after the Gupta state until the second half of the 7th century, are not mentioned at all. The entry of the Hephthalites into India and the role of the Hephthalites in the political and military processes in Central Asia begin in the middle of the 5th century. Although there is not enough information in the sources about the Hephthalites in southern Tokharistan, that is, the region adjacent to the Indus, there are clear records in Chinese sources that their last settlements were on the borders of Baghlan. In particular the Buddhist monk Dharmagupta, who visited Tokharistan in the second half of the 6th century, that is, around 580, witnessed that the Hephthalites had become extremely weak during that period. The remaining Hephthalite forces were in southern Tokharistan, northwestern Afghanistan, Zamindara, Zabulistan, and Kabul. Thus, the Hephthalites gradually began to advance towards Historical North India.

The reason why Beruni did not mention either the Khingil dynasty or the Hephthalites/White Huns in his work "Kitab al-Hind" is that the last Hephthalites in the land of historical North India became close to the Turkic people. Today, there are opinions that they are related to the Turkic world by the Huns, who are most likely to be proto-Turkicbased on the fact that the second name of the Hephthalites is "White Huns". Even the information given in some sources, in particular in the work of Abu Abdullah Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Khwarizmi "Mafatih al-'Ulum" ("Key to Sciences", 10th century), is important: "Hayatila (Ephthalites, الهياطلة) is a powerful group of people who ruled in Tokharistan (طخارستان); the Khalaj and Kanjinah (كنجينه و خلج) Turkic people are their descendants". Khorazmi not only notes that the Khalaj lived in Tokharistan, but that they were descendants of the Hephthalites.

Our studies show that the Khalaj spenetrated into the territory of Tokharistan, and in particular the Indian land, as part of the Hephthalite political union before the era of the Turkic Khaganate. Because the Hephthalite confederation consisted of sedentary and nomadic population groups speaking different languages. The information provided by Khorezmi led to the development of the opinion that the Khalajs originated from the Hephthalites in further researches. Besides, some researchers consider the Khalajs to be the oldest Turkic people who settled in the territory of Khorasan.

Ethno-cultural integration of the last Hephthalites with the Turkic people in the early Middle Ages was explored in other sources as well. The Armenian historian Sebeos, who alsowrote about the events of that period, notes that Bahram Chubin "courageously defeated the Tetal [Hephthalite] ruler and captured the lands of Balkh and Kushan". Based on the information provided by the Armenian historian, it is possible to understand the last Hephthalites in Tokharistan or one of its oasesfirst recognized the supreme authority of Khusraw I, and later of the

Turkic khagan. However, researcher K. Tsegledi argues that the Hephthalites (t'etalk') mentioned by Sebeos should be understood as Western Turks.

Apparently, the name of a famous Hephthalite ruler Toraman was still known in the IX century and the last Turk Shahi gained this name in honour of himself.

References

1. Камолиддин Ш. Саманиды. Из истории государственности Узбекистана в IX - X вв. – Saarbrucken: LAP LAMBERT Academic Publishing, 2012.
2. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Т.: ART-FLEX, 2010.
3. Alram M. A Hoard of Copper Drachms From the Kapisa-Kabul Region//Silk Road Art and Achaeology, Vol. 6. –Kamakura, 2000. –P. 149-153.
4. Alram M. Three Hunic Bullae from Northwest India. Bulletin of the Asia Institute, vol 17 (2003/2007). –P. 177-184.
5. Alram M. Huns and Western Turks in Central Asia and Northwest India//A Survey of Numismatic Research 2002-2007. IAPN (International Assosiation of Professional Numismatics). Special Publication 15, Glasgow, 2009. –P. 516-519.
6. Arady *E*. – *The Yue-chis, Kushans and Hephtalites*//Eurasian Studies. – Vol. II. – Issue II. – April-June. 2010. –P. 47-56.
7. Biswas A. Political History of Hūnas in India. – New Delhi: Munshiram Manoharlal Publ, 1973.
8. Bosworth C.E., Clauson G. Al-Xwārazmī on the peoples of Central Asia // Journal of the Royal Asiatic Society. – London, 1965. – P. 2-12.
9. Dani A. H. The Historic City of Taxila. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 1999.
10. Gömeç S. Y. Türk-Hun Tarihi. – Ankara: Berikan, 2012.
11. Göbl R. Dokumente zur Geschihte der İranischen Hunnen in Baktrien und İndien. Band I. – Wiesbaden, 1967.
12. Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and historical analysis. Phd thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free University. – Berlin, 2010.
13. Mızrak E.Ç. Başlangıçtan Mihiragula döneminin sonlarına kadar Hindistan hunaları (455 – 532)//Avrasya İncelemeleri Dergisi-Journal of Eurasian Inquires 2017; VI/2. – S. 131-147.
14. Savaş M.M. Hint topraklarında ak hun varlığı// Türkiye'de Hindistan çalışmaları-I. Editörler Prof. Dr. A. Merthan Dündar, Doç. Dr. Yalçın Kayalı. Ankara: 2021. –S. 67-80.
15. Tezcan M. Kuşanlar, Akhunlar ve Eftalitler//Tarihte Türk-Hint İlişkileri Sempozyumu Bildirileri. – Ankara, 2006. – S. 9-57.
16. Wink A. Al-Hind. The making of the indo-islamic world. Vol. I. Early medieval India and the expansion of islam. 7^{th}-11^{th} centuries. – Leiden, New York, København, Köln: Brill, 1991.

"THE BOOK OF DEDE KORKUT" AS A HISTORICAL SOURCE: GEOGRAPHY, ETHNICITY, AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Lala A. Aliyeva
PhD in History, Associate Professor
Baku State University, Azerbaijan
lalaaliyeva@bsu.edu.az

Abstract: This study examines The Book of Dede Korkut as a primary historical source, applying rigorous methodological approaches developed by scholars including, Bartold, Zhirmunsky, Khan and Aliyarli. Through onomastic and semantic analysis of toponyms, eponyms, and ethnonyms across manuscript versions, the paper demonstrates how epic narratives preserve layered historical data on Turkic tribal structures, migrations, and ethnogenesis. Geographical analysis reveals the epic's strong connection to Azerbaijan and the Caucasus, documenting the convergence of Oghuz, Kipchak, and other Turkic elements within this region across multiple historical periods.

Keywords: The Book of Dede Korkut, Historical methodology, Epic as historical source, Turkic ethnogenesis, Historical geography, Onomastic analysis, Oghuz-Kipchak relations.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Dede Korkut kitobini asosiy tarixiy manba sifatida ko‘rib chiqadi hamda Bartold, Jirmunskiy, Xon va Aliyarli kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan qat’iy metodologik yondashuvlarni qo‘llaydi. Toponimlar, eponimlar va etnonimlarning qo‘lyozma variantlari asosida olib borilgan onomastik va semantik tahlil orqali maqola epik rivoyatlar turg‘un tarixiy ma’lumotlarni – turkiy qabilaviy tuzilmalar, migratsiyalar va etnogenez jarayonlarini – qanday saqlab qolishini ko‘rsatadi. Geografik tahlil eposning Ozarbayjon va Kavkaz bilan chuqur bog‘liqligini ochib beradi hamda ushbu mintaqada O‘g‘uz, Qipchoq va boshqa turkiy unsurlar bir necha tarixiy davrlar davomida qanday uyg‘unlashganini hujjatlashtiradi.

Kalit so‘zlar: Dede Korkut kitobi, tarixiy metodologiya, epik asar sifatida tarixiy manba, turkiy etnogenez, tarixiy geografiya, onomastik tahlil, o‘g‘uz-qipchoq munosabatlari.

Аннотатцмя: В настоящем исследовании Книга Деде Коркута рассматривается как первоисточник по истории, с применением строгих методологических подходов, разработанных учёными, включая Бартольда, Жирмунского, Хана и Алиярли. Посредством ономастического и семантического анализа топонимов, эпонимов и этнонимов в различных версиях рукописей, статья демонстрирует, как эпические повествования сохраняют многослойные исторические данные о тюркских племенных структурах, миграциях и этногенезе. Географический анализ выявляет тесную связь эпоса с Азербайджаном и Кавказом, фиксируя слияние огузских, кипчакских и других тюркских элементов в этом регионе на протяжении нескольких исторических периодов.

Ключевые слова: Книга Деде Коркута, историческая методология, эпос как исторический источник, тюркский этногенез, историческая география, ономастический анализ, огузо-кипчакские отношения.

***

"The Book of Dede Korkut," a collection of Oghuz epic stories, is more than a literary monument. It serves as a comprehensive primary source for understanding the history, ethnography, and cultural development of the Oghuz Turkic peoples. Although long celebrated for its linguistic and folkloric value, its historical potential has only gradually been recognized. The main methodological challenge lies in applying rigorous historical analysis to texts that merge myth, heroic idealization, and collective memory across multiple temporal layers. Before examining the newly discovered manuscript, it is essential to review the scholarly tradition that legitimized the use of epic narratives as historical sources.

The use of medieval epics as primary sources marks a methodological advance in historical scholarship. Modern standards of historical accuracy or documentary precision cannot be applied to epic poetry, which follows its own narrative and mnemonic logic. Yet pioneering scholars have shown that careful textual analysis, combined with archaeological, linguistic, and ethnographic evidence, can yield valuable historical insights. One of the earliest systematic efforts was by Ludwig W. Kahn (1939), who proposed methods for identifying historical kernels within legendary narratives [Kahn Ludwig (1939), 208]. He stressed the need to distinguish the mythological framework of epics from the embedded details of material culture, social organization, and geography that reflect real historical conditions.

Building on these foundations, V. M. Zhirmunsky conducted groundbreaking comparative analyses of heroic epics across Turkic and Central Asian traditions [Zhirmunsky V.M. (1962)]. His methodology was especially relevant to Dede Korkut studies, demonstrating that epic cycles preserve layered historical information from different periods of composition and transmission. While the surface narrative may reflect later literary redaction, deeper structural elements–such as tribal genealogies, territorial claims, and intertribal relations–often retain much older historical realities. Zhirmunsky also showed that epic traditions migrate with populations, adapting to new geographical settings while preserving core motifs traceable to earlier phases. This insight was crucial for understanding how Oghuz epic traditions, originating in Central Asia, evolved as Turkic peoples moved westward into Anatolia, the Caucasus, and Azerbaijan.

The most sustained and systematic application of historical methodology to The Book of Dede Korkut was developed by Azerbaijani historian Professor Suleyman Aliyarli. From the 1980s onward, he published numerous studies showing that the epic preserved recoverable historical data on Turkic tribal structures, migration patterns, and ethnogenesis. To the question, "Can an epic serve as a primary source for historical research?" Aliyarli offered not only a theoretical affirmation but a practical demonstration through detailed textual analysis. His accumulated research, published in 2012 as Tariximiz [Aliyarli S.

(2012)], was the first comprehensive attempt to treat the Dede Korkut epic as a primary source for the history and ethnogenesis of Azerbaijani Turks.

Aliyarli's methodological approach combined semantic analysis with historical contextualization. He examined the onomastics of the Book–the proper names of persons, tribes, and places–treating them as ethnographic data rather than literary ornament [Aliyarli S. (2012), 237]. In his article "The Book of Dede Korkut and Prehistory" [Ibid, 127], he showed that the epic preserved memories of ancient tribal formations and migrations predating Islam. His studies of the Kangly and Bulgar references demonstrated how onomastic analysis can reveal interactions among Turkic tribal groups. In his work on the "problems of comprehensive historical and philological research" [Ibid, 266], he established a framework for integrating literary and historical interpretation, arguing that neither alone could fully illuminate the text. Most importantly, Aliyarli showed that the epic documented the convergence of various Turkic elements–Oghuz, Kipchak, and others–within the geographical space of Azerbaijan and the Caucasus [Ibid, 10; 178].

Following Aliyarli's pioneering approach, later research has revealed complex intertribal relationships within the Dede Korkut narratives. Although the epic is primarily an Oghuz monument, detailed analysis shows clear traces of Kipchak presence and influence [Lala A. Aliyeva (2015), Kipchaks, 164]. A striking example illustrates the value of comparative onomastic analysis: the hero Qazan Khan, described as "Ulash oghlu" (son of Ulash) and ruler of the Inner Oghuz [Ergin (1958). Dede Korkut kitabı II, 36; IV, 123], bears a strong Oghuz association. Yet Russian chronicles record a Kipchak community called Ulashevich [Летопись по Лаврентьевскому списку, 644], literally "sons of Ulash" or "Ulash oghlu" in Turkic. The Hypatian Codex lists Ulashevichi among other Kipchak hordes: Toksobichi, Kolobichi, Yetebechi, Terterobichi, and Torgolov (Полное собрание русских летописей, 643). The appearance of the same eponym, Ulash, in both Oghuz epic tradition and Kipchak sources suggests either shared ancestry or the absorption of Kipchak elements into Oghuz confederations. The persistence of the toponym Ulash–found as Ulashli in Azerbaijan and Georgia and Ulashkend in Turkey and Dagestan [Yusifov Y.B., Karimov S.K. (1987), Table 11]–confirms that it reflects real tribal and territorial associations rather than a literary invention. Such findings show that The Book of Dede Korkut preserves evidence of the ethnically composite origins of modern Azerbaijani identity, documenting the convergence of multiple Turkic elements rather than a single homogeneous tribe.

These methodological foundations–treating the epic as a layered historical document, applying onomastic and semantic analysis, and correlating epic data with chronicles and toponyms–provide the basis for examining the newly discovered Turkmen Sahra manuscript. Applying similar analytical methods to these texts makes it possible to identify which ethnic elements are linked to specific regions and how the geographical scope and ethnic composition of the new manuscript compare with the earlier Dresden and Vatican versions. Such

comparative study may clarify different phases and regional variations in the long process of Azerbaijani Turkic ethnogenesis.

A similar historical method should be applied to the Turkmen Sahra or Günbed manuscript of The Book of Dede Korkut. Examining the geography of the new texts, together with the semantic analysis of toponyms, eponyms, and related terms, makes it possible to identify the ethnic elements associated with each region mentioned in the newly discovered Kitabi Dede Korkut.

The discovery of the new manuscript has been briefly described by nearly all scholars who have written about it. On 12 December 2018, Veli Muhammed Hoja, a Turkmen book collector from Iran, purchased it in a Tehran bookstore. The previous owner claimed descent from the Qajar dynasty and said the manuscript was an heirloom from the library of Agha Muhammed Khan Qajar, the dynasty's founder [Ercilasun A. (2019), 5]. Almost simultaneously, it was published in Istanbul by Youssef Azmun [Azmun Y. (2019), Dede Korkut'un Üçüncü Elyazması] and Metin Ekici [Ekici M. (2019)]. Soon after, Turkmen scholar Muradgelgi Soyegov issued a Russian translation [Soyegov M. (2019)], and Y. Azmun published an English version [Azemoun Y. (2019), The New Dädä Qorqut Tales]. All these publications and the original text were used in this study. Debates over the manuscript's title (Turkmen Sahra or Günbed) and its literary form (one or two stories) lie outside the scope of this paper.

However, the question of the manuscript's language and date is crucial for this study. Professor Metin Ekici, who refrained from making a definitive statement about the language since it lies outside his specialization, notes that although the text contains many Kipchak words and affixes, its language displays features of both Turkmen and Azerbaijani Turkish. He dates the manuscript's compilation to approximately the seventeenth or eighteenth century [Ekici (2019), 15–25].

Ahmet Ercilasun's studies on the new texts show that the Dede Korkut narratives and manuscripts survived until the eighteenth century and that their language reflects the vernacular of Tabriz, a major city in today's Iranian province of Azerbaijan [Ercilasun A. (2019), 5–14].

Textual analysis supports Ahmet Ercilasun's conclusions. The presence of Kipchak words, noted by Prof. Ekici, is likewise a characteristic feature of Azerbaijani. These findings make the new manuscript especially valuable for both parts of Azerbaijan.

Interestingly, even during the Soviet period in the Azerbaijan Republic, ashugs continued to sing and recite dastans–epic stories such as Koroglu, Ashig Garib, and Asli and Karam–at weddings and other festive gatherings, though not The Book of Dede Korkut. From the 1950s onward, research and new editions of the epic revived both scholarly and public interest. The newly discovered manuscript confirms that until the eighteenth century the epic was not forgotten folklore. Its relatively late date indicates that the stories remained widespread across Azerbaijan, and that during the Qajar era an unknown scribe recorded two tales–the first incomplete, the second complete.

There is no doubt that the events in the epic reflect a Muslim society. However, the specific denomination of Islam becomes evident in the first incomplete, or thirteenth, story of the manuscript. In it, Gazan Khan declares: “When he said one hundred thousand enemies had come, I did not turn and retreat; I performed my ablution in running water and completed my Muhammadan prayer, trusting in the One Mighty Creator. ‘O Muhammad,’ I said, ‘O Ali, help me.’” [Azemoun Y. (2019), The New Dädä Qorqut Tales, 20]. Invocation of both the Prophet Muhammad and Ali in prayer is typical of Shiite communities. The same story mentions Bayindir Padishah, the eponym of the leading Akkoyunlu tribe and dynasty. The contradiction lies in the fact that the Akkoyunlu were Sunni Muslims, whose representatives would not normally seek help from Imam Ali. Yet, as in many epic traditions, events from different historical periods may overlap. Moreover, some Akkoyunlu tribes–once rivals of the Safavids–later joined Shah Ismail I, adopting Shiism.

The Turkmen Sahra or Günbed manuscript of The Book of Dede Korkut includes numerous ethnonyms–such as Äymur and Zu’l-Qadr–linked to Turkic tribes, as well as eponyms associated with particular groups like Bayindir, Ulash, and Afshar. The narratives span a wide geography, from the North Caucasus to Iran and from Kars to Mankishlak in Kazakhstan, indicating that these territories were either under the authority of these tribes or within regions where they moved freely.

Based on the toponyms in the manuscript, the geography of the stories can be summarized as follows:

- Eastwards: Turkestan (Central Asia in medieval sources); Mangyshlak (a peninsula in Kazakhstan); Mount Surhab (likely in Afghanistan, associated with the Kabul River).
- Westwards: Aleppo (Syria); Castle Qars and Sarikamish (both in modern Turkey).
- Caucasus and Azerbaijan (central region): Tabasaran and Derbent (Dagestan, Russian Federation; historically part of Azerbaijan); Mount Shah and Shah Dagh (Greater Caucasus, Qusar District, Azerbaijan); Qabala (ancient capital of Caucasian Albania); Samur, Araz, and Kura Rivers (Azerbaijan); Mount Savalan (near Ardabil, Iranian Azerbaijan); Tabriz (major Azerbaijani city); Alagöz (mountain near Yerevan, Armenia); Ağçaqala Sürmeli (village in Echmiadzin District, Armenia); Aq Manqan (probably Mount Armaghan, Armenia); and Bashiachiq (modern Kutaisi, Georgia).

In conclusion, the geography and ethnic composition of the Turkmen Sahra manuscript largely overlap with those of the earlier versions. This geography is more closely connected to Azerbaijan and the Caucasus than to Central Asia or the Middle East. Based on textual analysis, these stories can confidently be dated to a later period than the Dresden and Vatican manuscripts.

References:

1. Aliyarlı, S.S. Tariximiz açıqlanmamış mövzuları ilə. Bakı, Mütərcim, 2012

2. Aliyeva, L. (2006) Qipçaqlar və Azərbaycan: etnogenez kontelstində. Bakı, Bakı Dövlət Universiteti Neşriyyatı
3. Azemoun, Youssef. (2020) The New Dada Qorqut Tales from the Recently-Found Third Manuscript of the Book of Dada Qorqut. Journal of Old Turkic Studies, 4/1, 2020: 16-27
4. Ekici, Metin. Dede Korkut Kitabı Türkistan/Türkmen Sahra Nüshası, Soylamalar ve 13. Boy Salur Kazan'ın Yedi Başlı Ejderhayı Öldürmesi, İstanbul: Ötüken Neşriyatı, 2019
5. Ergin, Müharrem. Dede Korkut kitabı. Metin-Sözlük. Ankara Üniversitesi Basımevi, 1964
6. Ercilasun, A. B. DEDE KORKUTUN YENİ NÜSHASI ÜZERİNE KONU. Milli Folklor, Cilt 13, say 24, 2019
7. Kahn, Ludwig W. Rudolf von Ems' Der guote Gerhart, Truth and Fiction in Medieval Epics. Germanic Review, 1939, 14, pp.208-14
8. Kitabi-Dədə Qorqud. Tərtib edəni Samət Əlizadə, nəşrə hazırlayan Tofiq Hacıyev. Bakı, Yazıçı, Öndər Nəşriyyatı, 2004
9. Полное собрание русских летописей. т. е. II, Москва, Изд. вост. лит., 1963
10. Соегов, Мурадгельды. Две песни из туркменсахринской рукописи «Книги моего деда Корк». Журнал: Язык а культура, 10/2019, №: 39-40, 2019, с.47-56
11. Yusifov Y.B., Kərimov S.K. Toponimikanın əsasları. B., Maarif, 1987
12. Жирмунский, В.М. Тюркский героический эпос. Избр. Труди. Ленинград, Наука, 1974

AMIR TEMURNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Sunatillayeva E‘zoza Ma‘ruf qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: O‘ZMU Jizzax filiali katta o‘qituvchisi
Sirojiddin Saitov Abduvaliyevich
ezozasunatillayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni, harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvi, madaniy merosi va uning ingliz tilidagi tadqiqotlar va adabiyotlarda qanday yoritilgani haqida so‘z yuritiladi. Amir Temurning harbiy yurishlari va siyosiy qarorlari nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa va boshqa mintaqalarga ham ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, maqolada uning ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi, uning nomi bilan bog‘liq asarlar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur ibratlari, jahon sivilizatsiyasi, adabiyotdagi o‘rni, asarlar

Annotation:
This article discusses the role of Amir Temur in world history, his military

strategy, state governance, cultural heritage, and how he is portrayed in English-language research and literature. Amir Temur's military campaigns and political decisions influenced not only Central Asia but also Europe and other regions. The article also analyzes his contribution to the development of science and culture, as well as works and scholarly studies associated with his name.

Keywords: Lessons of Amir Temur, world civilization, his place in literature, works.

Аннотация:
В данной статье рассматривается роль Амира Темура в мировой истории, его военная стратегия, государственное управление, культурное наследие, а также то, как он освещается в англоязычных исследованиях и литературе. Военные походы и политические решения Амира Темура оказали влияние не только на Центральную Азию, но и на Европу и другие регионы. Кроме того, в статье анализируется его вклад в развитие науки и культуры, а также произведения и научные исследования, связанные с его именем.

Ключевые слова: уроки Амира Темура, мировая цивилизация, его место в литературе, произведения.

Amir Temur (1336–1405) dunyo tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi. U nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo tarixiga ta’sir ko‘rsatgan shaxsdir. Uning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va madaniy merosi bugungi kunda ham keng o‘rganilmoqda. Amir Temur dunyodagi eng buyuk harbiy sarkardalardan biri sifatida tanilgan. U qisqa vaqt ichida qudratli davlat barpo etib, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Iroq, Hindiston, Kavkaz va Osiyoning boshqa hududlarini o‘z hukmronligi ostiga olgan. 1402-yilda u Usmonli imperiyasi sultoni Boyazid I ni Anqara jangida mag‘lub etib, Usmonli ekspansiyasini vaqtincha to‘xtatgan. Bu g‘alaba Yevropa tarixida ham muhim ahamiyat kasb etgan, chunki u Usmonlilarning G‘arbiy Yevropaga bosqinchilik yurishlarini kechiktirgan.

Amir Temurning harbiy strategiyasi va taktikasi bugungi kunda harbiy tarixchilar tomonidan chuqur o‘rganiladi. Uning armiyasi yaxshi tashkil etilgan bo‘lib, u har bir yurishga puxta tayyorgarlik ko‘rgan. Amir Temur nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi jihatidan ham ulkan yutuqlarga erishgan. U o‘z imperiyasida adolatli boshqaruv tizimini joriy etib, hududlarni qattiq nazorat ostida ushlagan. Uning "Temur tuzuklari" (Tuzukot-i Temuriy) nomli qonunlar to‘plami davlatni boshqarishdagi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga olgan. Ushbu qonunlar keyinchalik boshqa davlatlarning boshqaruv tizimiga ham ta’sir qilgan. Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e’tibor bergan. Uning davrida Samarqand dunyoning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. U yerda ko‘plab madrasalar, masjidlar va saroylar qurilgan. Ayniqsa, Registon maydoni va Shohi-Zinda majmuasi uning madaniy merosining yorqin namunalari hisoblanadi. Shuningdek, Amir Temurning avlodlari, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek, ilm-fan va astronomiya sohasida katta yutuqlarga erishgan. Ulug‘bek rasadxonasi va uning astronomik jadvallari butun dunyo ilm-fani taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ingliz tilidagi tadqiqotlar va ta’siri

Amir Temur haqida koʻplab ilmiy maqolalar va kitoblar ingliz tilida ham yozilgan. Masalan, Justin Marozzining "Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World" kitobi va Beatrice Forbes Manzning "The Rise and Rule of Tamerlane" asari uning harbiy strategiyasi va davlat boshqaruvini yoritadi. Bundan tashqari, Amir Temur haqida Britannica ensiklopediyasi, National Geographic va boshqa xalqaro ilmiy nashrlarda ham ma'lumotlar mavjud. Ingliz tilida yozilgan ushbu manbalar uning jahon tarixidagi oʻrnini tushunishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ingliz adabiyotida ham Amir Temur haqida asarlar yozilgan. Masalan, 16-asr ingliz dramaturgi Christopher Marlowe "Tamburlaine the Great" nomli pyesasida Amir Temurning obrazini yaratgan va u Yevropa sahnalarida uzoq vaqt namoyish etilgan.

Jahon tarixidagi oʻrni va ta'siri ham talaygina, albatta. Amir Temurning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati butun dunyo tarixida muhim oʻrin tutadi. Uning harbiy strategiyasi, davlat boshqaruv tizimi va madaniy merosi koʻplab tarixchilar tomonidan oʻrganilgan. U Usmonli imperiyasining kuchayishini vaqtincha toʻxtatib, Yevropa davlatlariga nafas olish imkonini bergan. Shu bilan birga, uning yurishlari natijasida koʻplab hududlar qayta tiklangan va rivojlangan. Bugungi kunda Amir Temur shaxsiga boʻlgan qiziqish faqat Markaziy Osiyoda emas, balki butun dunyoda ortib bormoqda. Uning siyosati, harbiy yurishlari va madaniy merosi boʻyicha koʻplab ilmiy ishlar, kitoblar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Ingliz tilida mavjud boʻlgan ushbu tadqiqotlar orqali uning ta'siri yanada kengroq oʻrganilmoqda. Amir Temur nafaqat Oʻzbekiston, balki butun dunyo tarixida katta iz qoldirgan shaxsdir. Uning harbiy strategiyasi, adolatli boshqaruvi va ilm-fanni qoʻllab-quvvatlashi bugungi kunda ham oʻrganilmoqda. U oʻzining ulkan yutuqlari bilan jahon tarixiga beqiyos hissa qoʻshgan va uning merosi hali uzoq yillar davomida insoniyat tafakkurida saqlanib qoladi.

Aslida, Yevropa olimlarining Amir Temurga va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi. Jumladan, 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning "Skifiyalik Tamerlanningf ulug'vorligi" asari chop etilgan. Shuningdek bu davtda Pero Meksikaning "Buyuk Temur tarixi" asari dunyo yuzini koʻrd. 1582-yilda esa Seviliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning "Esdaliklar" kitobi nashrdan chiqdi. Aynan shu davrdan Amir Temur haqida turli tatqiqot asarlari, monografiyalar, Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan elchilar kundaliklari va yozuvchilarning asarlari tarixshunoslikda muhim ma'lumotlar hisoblanib, to hozirgi kunga qadar Amir Temur haqida yoziladigan asarlarning keti uzilmaydi. Bugungi kunda Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etildi. 2006-yilda, Parijda Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyaning asoschisi va prezidenti, professor Lyus'en Keren qalamiga mansub "Samarqandga, Temur davrida sayohat" kitob albomining uchinchi nashri bosmadan chiqdi. Bu kitob YUNESKOning "Ipak yo'li-muloqot yo'li" dasturiga muvofiq yozildi va nashrga tayyorlandi. Kitobning uchinchi nashri uning kitobxonlar orasida keng ommalashganidan dalolat beradi va u Yevropa kitobxonlarida ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyatiga katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz[7]

Amir Temurning ibratli hayoti, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o‘rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo‘nalishlaridan biri ko‘rinishida doimo olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. . “Amir Temur tuzuklarini o‘qisam, xuddi bugungi zamonning katta-katta muammolariga javob topgandek bo‘laman”,– degan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.[1]

Amir Temur bobomiz 35 yil davomida mamlakatni boshqargan. Hindiston va Xitoydan Qora dengizgacha, Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan davlat bnyod etganlar. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo‘ylari, Balxash ko‘li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirdi. Temur Movarounnahr va Turkistonni obod qilish bilan birgalikda bo‘ysundirilgan mamlakatlar shaharlarini ham qayta qurdirdi. Bag‘dod, Darband va Baylakon shaharlari buga misol bo‘la oladi. Eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G‘arbni bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘llarini tiklagan. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O‘zbekistonda davlatchilik yuksalishida muhim o‘rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda “Sohibi jahon” hamda “Sohibi adl” – “Adolat sohibi” nomlari bilan ulug‘lanadi. Xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi. O‘zbekistonda “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi.[4]

“Amir Temurning asosiy tarixiy xizmati shundan iboratki, aynan uning hukmronligi davrida Yevropa va Osiyo qit’alari ilk bor o‘zlarining bir geosiyosiy maydonda yashayotganliklarini his etdilar. Bu, xususan, bugun juda muhim. Chunki insoniyat shuni tushundiki, biz hammamiz bir-birimizga chambarchas bog‘liq, o‘zaro aloqadorlikda yashar ekanmiz, demak, endi yangi va xavfsiz dunyo tartiboti o‘rnatish uchun imkoniyat paydo bo‘ldi”, - deydi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. 1402-yilda jahonga, ayniqsa, Boqon yarimoroli hamda Yevropadagi xalqlarga tahdid solayotgan Turkiya sultoni Boyazid I Yildirim tor-mor qilganidan so‘ng fransuzlar Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirishadi va ostiga “Yevropa xaloskoriga” deb yozib qo‘yiladi. Bugun bu ulug‘ zotni buyuk bunyodkor, davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida butun dunyo tan oldi. Davlat arboblari, olim-u fozil kishilar hazrat Sohibqiron haqida iliq fikrlar aytmoqda, hayoti va faoliyatiga yuksak baho bermoqda.[2]

Xulosa: Amir Temur nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo tarixida katta iz qoldirgan shaxsdir. Uning harbiy strategiyasi, adolatli boshqaruvi va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashi bugungi kunda ham o‘rganilmoqda. U o‘zining ulkan yutuqlari bilan jahon tarixiga beqiyos hissa qo‘shgan va uning merosi hali uzoq yillar davomida insoniyat tafakkurida saqlanib qoladi.

Shuningdek, Amir Temurga bag‘ishlangan tadqiqotlar nafaqat o‘zbek tilida, balki ingliz tilida ham keng o‘rganilmoqda. Uning shaxsiyati va harbiy yurishlari

butun dunyoda tarixchilar va tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Shu boisdan, Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rnini anglash va uni yanada chuqurroq o‘rganish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://tarix-kitob.uz/1-bob-orta-asrlarda-yerga-egalik-qilish-munosabatlarining-shakllanishi-va-rivojlanishi/amir-temurning-jahon-tarixida-tutgan-orni/

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust).

3. “Samarqandga Temur davriga sayohat”, Zarafshon, 2006-yil 7-oktabr, № 126

(21.179); Ravshanoy Tursunova. G’arbiy Yevropa mualliflari sahna asarlarida Amir Temur obrazi//San’at, 2006-yila, №2-son, 37-38-betlar

4. Gibbon Eduard. Istoriya upadka I razrusheneniya Rimskoy Imperii // Perevod s

angliykogo V.N.Nevedomskogo. Chast VII. – M., izd. K.T.Soldatenkova, 1983: Shloser

F. Vsemirnaya istoriya. Tom III, - SPb.,1876: Veber G Vseobshaya istoriya. Tom VII. – M., 1887.

ABU SAID MIRZO TEMURIYLAR DAVLATINI QAYTA BIRLASHTIRGAN SO`NGI HUKMDOR

Omonkulova Moxinur
Oriental universiteti
‘‘Ijtimoiy-gumanitar fanlar’’kafedrasi katta o‘qituvchi
Jurayev Sherzod
Tarix fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar sulolasining yirik hukmdorlaridan biri Sulton Abu Said Mirzoning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi tizimiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Unda hukmdorning Movarounnahrda markazlashgan davlatni tiklash borasidagi sa‘y-harakatlari, ichki siyosiy tartibotni mustahkamlash yo‘lidagi islohotlari hamda Temuriylar davlatini qayta tiklash uchun olib borgan harbiy yurishlari, qo‘shni davlatlar bilan olib borgan aloqalari yoritilgan.Shuningdek, Abu Said Mirzo davrida iqtisodiy hayot, soliq siyosati, harbiy tuzilma, ilm fan rivoji va davlat boshqaruvi masalalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqola Temuriylar davrining siyosiy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Sulton Abu Said Mirzo, Temuriylar sulolasi, harbiy yurishlar, davlat boshqaruvi, Movarounnahr, qayta birlashtirish, Hirot, Husayn Boyqaro, mag‘lubiyatga uchratish, Mirzo Muhammad Jo‘qiy, harbiy ittifoq, davlatni mustahkamlash.

Аннотация: В данной статье анализируется политическая деятельность, военные походы и вклад одного из крупных правителей династии Тимуридов

– султана Абу Саида Мирзы в систему государственного управления. В ней рассматриваются его усилия по восстановлению централизованного государства в Мавераннахре, реформы, направленные на укрепление внутреннего политического порядка, а также военные походы, предпринятые для повторного объединения государства Тимуридов, и отношения с соседними странами. Кроме того, анализируются экономическая жизнь, налоговая политика, военная структура, развитие науки и вопросы государственного управления в период правления Абу Саида Мирзы на основе научных источников. Статья имеет важное значение для изучения политической истории эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: Султан Абу Саид Мирза, династия Тимуридов, военные походы, государственное управление, Мавераннахр, повторное объединение, Герат, Хусайн Байкара, нанесение поражения, Мирза Мухаммад Джуки, военный союз, укрепление государства.

Annotation: This article analyzes the political activity, military campaigns, and contribution of Sultan Abu Sa'id Mirza, one of the prominent rulers of the Timurid dynasty, to the system of state administration. It examines the ruler's efforts to restore a centralized state in Movarounnahr, the reforms carried out to strengthen internal political order, as well as the military campaigns conducted to reunify the Timurid state and his relations with neighboring countries. Furthermore, the article analyzes the economic life, tax policy, military structure, the development of science, and issues of state governance during the reign of Abu Sa'id Mirza based on scholarly sources. The article is significant for studying the political history of the Timurid period.

Keywords: Sultan Abu Sa'id Mirza, Timurid dynasty, military campaigns, state administration, Movarounnahr, reunification, Herat, Husayn Bayqara, defeat, Mirza Muhammad Juki, military alliance, strengthening the state.

Abu Said Mirzo Temuriylar davlatini qayta birlashtirgan so`ngi hukmdor bo'lib, u o'z davrida saltanatni qayta tiklashga o'ringan, lekin oxir oqibatda muvafaqqiyatsizlikka uchragan. Uning hukmronligi qisqa vaqt davom etgan bo'lib, o'limidan so'ng Temuriylar davlati bo'linib ketishi bilan yakunlangan.

Mirzo Abu Said ibn Sulton Muhammad ibn Mironshoh Mirzo ibn Amir Temur buyuk sarkarda Amir Temurning evarasi Mironshoh Mirzoning nevarasi 1424-yili Xirot shahrida tug`ilgan. U Temuriylar sulolasining siyosiy jihatdan eng faol shahzodalaridan biri bo`lgan. Shohruh Mirzo vafotidan so`ng Temuriylar davlati parchalanadi. Har bir shahzoda o'z mustaqilligini e'lon qila boshlaydi .Shunday notinch davrda Abu Said Mirzo dastlab Movaraunahrda hokimiyat uchun kurash boshlaydi. U Hisor va Balx atrofida qo'shin yig'ib Movaraunahrni qulga kiritishni reja qiladi. Bu paytda Samarqandda Abdulatif Mirzoning qarindoshlari hokimiyat uchun o'zaro raqobatlashayotgan edi. Abu Said Mirzo bir necha marta Samarqandga yurish qiladi,ammo mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng u 1451-yilda Dashti Qipchoqda hukmronlik qilayotgan Abu'l-Xayrxon bilan ittifoq tuzadi. 1451-yilning yoz oylarida Chinor degan joyda Samarqand uchun jang bo'lib o'tadi. Natijada Abu Said Mirzo va Abu'l-Xayrxon ittifoqi g'olib chiqdi . Shu tariqa 1451-yilda Samarqad Abu Said Mirzo quliga o'tadi. U Samarqandda davlat

boshqaruvini qayta tiklab, o’zini Movaraunahr hukmdori va Amir Temur saltanatining qonuniy davomchisi deb e’lon qiladi. Bu voqealar Temuriylar davlatining qayta markazlashuv jarayonining boshlanishiga sabab bo’ladi. U Samarqandda o’z hukmronligini boshlagandan so’ng ilm-fan madaniyatiga alohida e’tibor qaratadi. Ulug’bek davridagi ilmiy markazlar Abu Said Mirzo davrida ham o’z faoliyarini davom ettiradi. U Ulug’bek madrasasini faoliyatini qullab quvatlab unga olimlar va muddarislarni ilmiy ishlarga jalb etadi. Kutubxonalar va madrasalar tizimiga e’tibor qaratib ilmiy muhitni saqlab qolishga harakat qiladi. Biz buni mashhur mutasavvif va shoir Abdurahmon Jomiy va Sulton Abu Said Mirzoning munosabatidan bilishimiz mumkin. Ularning aloqalari, asosan, madaniy-ma’naviy sohada bo’lib, Abdurahmon Jomiy Sulton Abu Said Mirzo saroyida ilmiy va diniy mavzularda suhbatlar olib borgan. Hatto Alisher Navoiy ham o’z asarlaridan birida Abu Said Mirzo davrini tinchlik va ilm rivoj topgan davr sifatida eslatadi.Sulton Abu Said Mirzo bu davrda Temuriylar davlatini qayta birlashtirishni ham reja qilar edi va nihoyat 1457-yili bunga imkon to’g’ildi .Hirot podshosi Abdulqosim Bobur 1457-yilda vafot etadi va Hirotda siyosiy o’yinlar boshlanib ketadi. Hirot taxtiga Abdulqosim Boburning o’g’li Shoh Mahmud Mirzo

chiqadi. U juda yosh va tajribasiz bo’lganligi uchun Mirzo Sulton Ibrohim undan taxtni olib quyadi. Ammo 1457-yili Abu Said Mirzo ham Hirotga yurish qilib uni egallaydi, lekin qattiq qarshiliklar sabab u Hirotdan chiqib ketishga majbur bo’ladi. Shundan so’ng ko’plab ichki va tashqi nizolar sabab Xuroson og’ir ahvolga kelib qoladi. Bu vaziyatda 1458-yili Sulton Abu Said Mirzo Hirotni butunlay buysundiradi.

O’sha paytda endigina Astrobod hukmronligini qulga kiritgan Husayn ham Hirot podshosiga buysunishini ma’lum qiladi. Urushlar va qo’zg’alonlar sabab vayronaga aylangan Hirot va uning atrofi Sulton Abu Said Mirzo tomonidan obodonlashtira boshlandi. U avvalambor nomozgohlarni obod qiladi, so’ngra butun shahar bo’ylab inshootlar tiklanib, kengaytiriladi, soliqlar kamaytiriladi. Shu tariqa butun Hirot ahli uni Sulton sifatida qabul qiladi. Ammo Husayn Boyqaro 1460-yili Sabzovar va Nishopurga hujum qiladi. Bundan habar topgan Sulton Abu Said Mirzo Husayn Boyqaroni mag’lubiyatga uchratadi va u boshqarib turgan Mozandaron shahrini o’g’li Mirzo Sulton Mahmudga suyurg’ol tarzida in’om etadi. Bu orada Sulton Abu Said Mirzo Seyistonga yurish qilib uni ham mag’lubiyatda uchratadi. 1460-1461-yillarda Movaraunahrda Muhammad Jo’qiy isyon kutarib uni egallab oladi. Bundan habar topgan Sulton Abu Said Mirzo tezda Hirotdan qaytib kelib, Movaraunahrga yurish qilib uni ko’chmanchi o’zbeklar qo’lidan ozod qiladi. Isyonchi Mirzo Muhammad Jo’qiy esa Shohruxiyani egallab oladi. Sulton Abu Said Mirzo Shohruxiyani ozod qilish uchun yana harbiy yurishlarni boshlaydi, ammo Shohruxiyani to’liq ozod qilishga ulgurmay Hirotni Husayn Boyqaro qamal qilganini eshitib Muhammad Jo’qiy bilan sulh tuzib Hirotga qaytib ketadi. Sulton Abu Said Mirzo shoshilinch tarzda Hirotga yetib borib, Husayn Boyqaroni chekinishga majbur qildi va uni Astrobodgacha taqib etib boradi. So’ng ortga qaytib, vaziyatdan foydalanib xalqni talayotgan amaldorlarni qattiq jazolaydi. Barcha nohaq yig’ilgan soliqlarni xalqga qaytarib, o’zining qanchalik adolatli ekanini ko’rsatib quyadi. Sulton Abu Said Mirzo 1462-yili

Shohruxiyani Muhammad Jo’qiydan ozod qilish uchun qayta yurishlarni boshlaydi va 1463-yili Shohruxiyani egallaydi. Shohruxiyani quldan boy bergan Muhammad Jo’qiy Farg’onani buysundiradi. Bu orada Sulton Abu Said Mirzo Samarqandga qaytib tuy o’tkazadi va bu tuyga Kobul hokimi Mirzo Umarshayxni chaqirtirib hali Muhammad Jo’qiy tasarufida bo’lgan Farg’ona hokimi etib tayinlaydi. Muhammad Jo’qiy 1463-yilda Sulton Abu Said Mirzo yoniga o’z vakilini junatib taslim bo’lganini bildiradi. Sulton Abu Said Mirzo ko’plab shaharlarni o’z qo’l ostida buysundirgach endi u Fors, Iroq va Ozarbayjonni ham uziga buysundirishni hohlardi. Aynan shu paytlarda Ozarbayjonda ichki siyosiy muammolar kutarila boshladi. Shuningdek Ozarbayjonga Turkman amiri Hasanbek yurish qiladi va Amir Jahonshohning qo’shinini tor mor etadi. Bu vaziyatdan foydalanib qolmoqchi bo’lgan Sulton Abu Said Mirzo Ozarbayjon tomin qo’shin tortadi. U o’z vakillarini guruhlarga bo’lib, Forsni, Kirmonni, Qazvin va Sultoniyani bosib olish uchun yuboradi. Shu orada Amir Hasanbek Sulton Abu Said Mirzoga xat yuborib agar Ozarbayjon uni qulida qolishiga rozilik bersa u bilan ittifoq tuzishga rozi ekanini bildirdi. Ammo Sulton Abu Said Mirzo Ozarbayjonga o’zi hukmronlik qilishni hohlab, harbiy yurishlarni boshlaydi. Ammo qo’lga kiritilgan hududlar kengligi sabab lashkarlar oziq-ovqatsiz, otlar esa emishsiz qoladi, Mahmuloboddagi zaharli o’tlar sabab otlar tinimsiz o’la boshlaydi. Shu sabablar tufayli Sulton Abu Said Mirzoning qo’shini og’ir ahvolga tushib qoladi.Sulton Abu Said Mirzoning Xuroson va Movaraunahrdan uzoqlashganligidan foydalanmoqchi bo’lgan Amir Hasanbek Temuriylar vakili bo’lgan Yodgor Mirzoni o’rtaga tushiradi. Amirlarni va shahar hokimlarini Yodgor Mirzo tomon og’dirib olishga yordam beradi. Ochlikdan qiynalayotgan qo’shin asta sekin Yodgor Mirzo qo’l ostiga o’ta boshlaydi. Sulton Abu Said Mirzo 1469-yilda Oqquyunli hukmdori Amir Hasanbek bilan bo’lgan jangda to’liq mag’lubiyatga uchrab asirga olinadi.

Amir Hasanbek uni Temuriylar sulolasi vakili bo’lgan Yodgor Mirzoga topshiradi. Yodgor Mirzo Sulton Abu Said Mirzoni uzining siyosiy raqibi deb bilgani uchun uni qatl etishga farmon beradi. Shu tarzda 1469-yilning fevral oyida Sulton Abu Said Mirzo vafot etadi.

Sulton Abu Said Mirzo Temuriylar sulolasining siyosiy va madaniy hayotida muhim o’rin egallagan hukmdorlardan biri bo’lgan. U ichki nizolar va parokandilik avj olgan davrda davlatni qayta birlashtirishga harakat qilgan, ko’plab shaharlarda tinchlik o’rnatib, madaniyati va ilm-fanini rivojlantirgan hukmdor bo’lgan. Garchi uning davrida bazi bir siyosiy raqobatlar urushlar bo’lgan bo’lsada Sulton Abu Said Mirzo Temuriylar davlatini birlashtirib, mustahkamlash, adolatli boshqaruvni yo’lga qo’yish uchun juda qattiq harakat qilgan. Uning vafotidan so’ng Temuriylar davlati parchalanib ketadi va biroz vaqtddan keyin butunlay parokandalikka yuz tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Люсен Кэрэн ‘Amir Temur saltanati’’ Toshkent-1999. 193 b

2. B.A. Usmonov ‘Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi’’ Farg‘ona-2024. 226 b

3. G‘iyosiddin Ibn Xumomiddin Xondamir ‘Хабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар’’ Toshkent-2013. 546 b

4. Abdurazzoq Samarqandiy ‘Matla`-us-Sadayn va Majma`-ul-Bahrayn’’II qism Toshkent-2008. 130b
5. B.J.Eshov, A.A.Odilov ‘‘O‘zbekiston tarixi’’II qism Toshkent-2020 124b

QALAM VA QILICH EGASI: UBAYDULLAXON DAVRINING MO’JIZASI

Oriental universitet Tarix fakulteti
Tarix (mamlakatlar va mintaqalar
bo`yicha)yo’nalishi talabasi
Bahadirova Robiya Ikrom qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon (Ubaydullaxon)ning siyosiy, ilmiy va madaniy faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Unda xonning Movarounnahr va Buxoro xonligini tashkil topishidagi o‘rni, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari, ayniqsa Safaviylar bilan kurash jarayonidagi strategiyasi yoritiladi. Shuningdek, Ubaydullaxonning ma’rifatparvarligi, naqshbandiya tariqati vakillariga e’tibori, ilm-fan, fiqh, tafsir, hadis, xattotlik va adabiyot sohalaridagi chuqur bilimlari tahlil qilinadi. Maqolada uning ijodiy merosi, “Ubaydiy” taxallusi ostidagi turkiy, forsiy va arabiy she’rlari hamda diniy asarlarining ahamiyati ko‘rsatiladi. Buxoroning poytaxtga aylanishi, Mir Arab madrasasining bunyod etilishi va madaniy yuksalish jarayonlari ham ilmiy asosda yoritilgan. Xulosa qismida Ubaydullaxonning serqirra iste’dodi, siyosiy salohiyati va ilm ahli hamda xalq uchun qoldirgan benazir merosi Movarounnahr tarixida muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: Ubaydullaxon, Buxoro xonligi, Shayboniylar, Mir Arab, Xuroson, Naqshbandiya, Ubaydiy, Movarounnahr.

Annotation: This article examines the historical role of Ubaydullah Khan, one of the most enlightened rulers who significantly contributed to the formation and strengthening of the Bukhara Khanate. The study highlights his political and military achievements, his struggle against the Safavids in Khorasan, and his important reforms aimed at the development of Bukhara. Special attention is given to his intellectual and spiritual legacy: his patronage of scholars and Sufi sheikhs, mastery of Islamic sciences, and his poetic works under the pen names “Ubaydi” and “Qul Ubaydi.” The article emphasizes that during Ubaydullah Khan’s reign, Movarounnahr experienced prosperity, cultural growth, and architectural development, including the construction of the Mir Arab madrasa. His multi-dimensional personality–as statesman, commander, scholar, and poet–made him one of the most influential figures of the 16th century in Central Asian history.

Keywords: Ubaydullah Khan, Bukhara Khanate, Shaybanids, Mir Arab, Khorasan, Naqshbandi order, Ubaydi (poetic pen name), Mawarannahr

Аннотация: В данной статье рассматривается историческая роль Убайдуллахана – одного из самых просвещённых правителей, внесших большой вклад в становление и укрепление Бухарского ханства. Анализируются его политические и военные достижения, борьба против Сефевидов в Хорасане и важные реформы, направленные на развитие

Бухары. Особое внимание уделено его духовному и интеллектуальному наследию: покровительству учёным и суфийским шейхам, глубокому знанию исламских наук, а также поэтическому творчеству под псевдонимами «Убайди» и «Кул Убайди». Отмечается, что во время правления Убайдуллахана Мавераннахр достиг расцвета, культурного роста и архитектурного развития, включая строительство медресе Мирараб. Многогранная личность правителя – государственный деятель, полководец, учёный и поэт – делает его одним из наиболее значимых исторических фигур XVI века в Центральной Азии.

Ключевые слова: Убайдуллахан, Бухарское ханство, шейбаниды, Мир Араб, Хорасан, тарикат Накшбандия, Убайди (поэтический псевдоним), Мавераннахр

Buxoro xoligini tashkil topishiga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvar xonlardan biri bo‘lmish Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon 1486-yil Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesida tavallud topgan. Otasi Mahmud Sulton Ubaydulloh tavallud topganida piri va ustozi bo'lmish Nasriddin Ubaydulloh Xo'ja Ahror valiyga chaqaloqqa nom qoyishni iltimos qiladi va o'z ismini hurmat va ehtirom yuzasidan qo'yadi.(Ubaydullaxon Bekzod Mirzaev 2016)[94] "O'z nomlarini berishi ul zotning zo'r marhamatlaridan bo'ldiki, shining uchun ham tuning bebaho asarlari va yaxshi nomlarining oqibatlari foniya olamda boqiydir” deb yozadi mashxur tarixnavis Hofiz Tanish Al-Buxoriy.[95]

Bu adolatli xon, ilm-u san’atlarni egallagan, rabboniy ilmlarni saltanat va podshohlik bilan birga qo‘shib olib boruvchi Abulxayrxon sulolasidagi aql-u farosat husni xulqda boshi edi. Sayyidlar va shayxlar uchun bir yetuk darajada xomiylik qilar edi. Bundan tashqari bu so‘z san’ati sohasida shoirlardan bo‘lib majlislarda shoirlarga she’r aytishga chorlagan xonlardan bo‘lgan. Hadis ilmida Mavlono Isfahoniy, fiqhda Mavlono Mahmud Azizon va qiroatda Yormuhammad qori uning ustozlari edi. Azizon huzurida "Kofiya", "Hidoya", va "Sharhi Mug‘niy", tafsirda "Kashshof" va "Tafsiri turkiy" o‘qib undan ta’lim oladi. Ubaydullaxon naqshbandiya tariqati shayxlaridan Ahmad Kosoniyga bog‘lanib, tez tez suhbatlashib turish maqsadida o‘z uyi yaqinidan unga ham bir uy ajratadi. Bundan kelib chiqadiki ushbu yaqinlik Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin shayboniylar orasida yoqolgan hamjihatlikning qaytadan tiklanishi va boy berilgan davlatlarni qayta qo‘lga kiritilishi uchun olib borilgan kurashlarda o‘z zamonasining qutbul a’zamiy bo‘lgan Ahmad Kosoniyning duosini olishga vasila bo‘ladi. Bundan tashqari Qatag‘oniy aytishicha, Xo‘ja Abu Nasr Soniy Ubaydullaxonga madhiya yozib, uni naqshbandiya tariqatiga mansubligini bildiradi. Shuningdek bir safaviy davri tarixchisi Naqshbandiyga shayboniylar tomonidan ko‘rsatilgan e’tiborni quydagicha ifodalaydi: "Turkiston hukumdorlari uning roziligisiz bir tomchi suv ichishga ham jur’at eta olmasdilar". Ubaydullaxon islom ilmlaridagi yetuk malakasidan tashqari u arab va fors tillarini she’r yozish

[94] Bekzod Mirzayev “UBAYDULLOHXON- Shayboniylar davlatining hukumdori” (2016 yil “Mumtoz so’z”)
[95] Abdulqodir Majid “Shayboniylar davlati” (tarjimon Iqboljon Usmonov)

darajasida bilar edi. Nafaqat she’r balki san’atning turli xil yo‘nalishlariga xattotlik, musiqa, naqqoshlik kabilariga ham qiziqar, lekin she’riyat uning asosiy mashg‘ulotlaridan edi. Dunyoviy she’rlarda "Ubaydiy", tasavvufga oid she’rlarda esa "Qul Ubaydiy" tahallusini qo‘llardi. She’rlari sharqiy turkiy tilda bo‘lib, shakl jihatidan g‘azallardan iborat edi. Abulhayr Fayzulloh ibn Ro‘zbexonning "Mehmonnomai Buxoro" asarida unga maxsus bob bag‘ishlangan bo‘lib, "U ziyrak, aqilli, oliy janob, jasur, keng ma’lumotli shoir edi", deb ta’rif beriladi.[96]

Ubaydullaxon Muhammad Shayboniyxonning jiyani bo‘lib, boshidanoq amakisi xizmatida soya kabi ergashib yurardi. Ubaydullaxonning otasi Mahmud Sulton vafot etgach Muhammad Shayboniyxon shijoatli jiyaniga nisbatan yanada ko‘proq iltifot ko‘rsatib unga Buxoro mulkini bag‘shida etadi. Shu tariqa u Shayboniylar xonligiga kirib kela boshlaydi. U Ko‘chkunchixon davrida harbiy ishlarga boshchilik qilgan. Unga harbiy ishlarni esa ustozi bo‘lmish davlat arbobi va sarkarda Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo‘lgan) saboq bergan va o‘ziga murid qilib olgan. Ko‘chkunchixondan so‘ng Buxoro xonligida Ubaydullaxon davri boshlanadi. 1533-yill u bosh xonlik taxtiga chiqadi va uni o‘z iste’dodli vujudi bilan boshqardi. Butun Movarounnahr o‘lkasi va tanga Ubaydullaxon nomi bilan ziynat topdi. Bu vaqtda Movarounnahr yurti ayniqsa Buxoro nihoyatda obodonchilik va faravonlikka erishdi. Bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan hali hamon islom diniga o‘z xizmatini ko‘rsatib kelayotgan Mir Arab madrasasi ham aynan Ubaydullaxon tomonidan ustozi Yamaniyga atab qurdirgan (1533-1536-yillar).[97]

Ma'lumki Ubaydullohxoning hayoti va faoliyati bir tomondan Temuriylar saltanatining inqirozi, ikkinchi tomondan shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelgani, uchinchi tomondan Eron Xuroson va Movarounnahr sunniy va shialar o'rtasidagi kurashning keskinlashuvidan iborat murakkab bir tarixiy vaziyatga to'g'ri keladi. Aynan shu ma'noda, Ubaydullohxoning hayoti davomida, xususan harbiy faoliyatida murakkab vaziyatlar juda ko'p bo'lgan. U o'z sonli qo'shin bilan bir necha bor dushmanlari ustidan hayratlanarli va ajoyib g'alabalarga erishgan. Shu jumladan usha davr tarixchisi Xasanxoja Nasoriy "Muzakkira Ahbob" asarida ta'kidlashicha, "Aksar muhoriblarda oliy lutfu karamlar egasi bo'lmush amakisi xizmatida turib, g'am tashvish dog'ini o'zining obdor o'tkir tig'i sayqali bilan uning dil oynasidan yuvib ketkazgan" deb yozadi. Ya'ni ko'plab fathlar Ubaydulloh sababli ijobiy natijalar bilan tugagan.[98]

Ubaydullaxon Xuroson deb hayoti davomida safaviylarga qarshi kurash olib borgan bo‘lib mazkur mintaqaga xonligi davrida besh martta yurish qiladi. So‘ngi yurishda Xirotni 6 oy qamalda ushlab turadi va 1535 yilda Xirotni bosib olinishi bilan yakunlanadi. Uning bu faoliyati 16 asrdagi shayboniy-safaviy munosabatlarining yo‘nalishlarini belgilab berdi, natijada Z.V To‘g‘on takidlaganidek ba’zi o‘zbek sultonlari Xurosonga bosqinchilik maqsadida emas, faqatgina talon-taroj etish maqsadida ham xujum qilishardi. Ya’ni Xuroson chegarasidan uzoqda bo‘lgan sultonlar ham o‘z kuchlarini sinash maqsadida huddi

[96] Muhammadyor Ind Arab Qatag’an “Muxassir Al-bilod” (2009 yil “Yangi asr avlodi”)
[97] Sherxon Qorayev “Shayboniy sultonlar tazkiyasi” (2023 yil “Intellekt”)
[98] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/uzbekiston-hukmdorlari/ubaydullaxon

to‘yga ketayotgandek Xurosonga hujumlar qilishni odat qilib olishgan edi. Lekin Ubaydullaxon Xurosonga yurishni rasmiy deb biladi yani yozishmalardan birida aytilganki, "Har bir musulmonning burchi islomga buzg‘unchilik va ixtilof keltiruvchilarga qarshi kurashishdir" degan. Yana bir yozishmalardan birida ya’ni Ubaydullaxon shoh Tahmasbga "O‘zbek hukumdorlarning yagona maqsadi islom ahlini farovonlik va adolatga yetkazishdir" deb yumshoq ohangli yozishmalarni ham uchratamiz. Shunday qilib Ubaydullaxon uchun Xuroson g‘azoti o‘zining eng katta diniy burchi ekanligini aytadi.

Yuqorida qayt etganimizdek bejizga u ma'rifatparvar sultonlardan demadik uning she'riyatdagi o'rni beqiyos bo'lgan. She'rlardan birida u shun day deydi:

El, ko'plukni ko'zga nega ilgaysiz,
Yolg'iz kishidan ham nega kesilgaysiz.
Yolg'iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,
Yolg'izning erur yori Xudo bilgaysiz.

Bu to'rtlikdan ham bilishimiz mumkinki u yolg'iz farzand bo'lgan va tarbiya ham shunga bog'liq bo'lishi mumkin chunki Mahmud Sulton ta'lim tarbiyaga alohida e'tibor bergan. Shu o'rinda Mirzo Haydar ham o'zining mashhur "Tarixi Rashidiy" asarida Ubaydullohni ta'riflab shunday deydi:"U yoshligidan barcha fazilatlar bilan bezangan" Shuningdek, zero Ubaydullohni umri asosan jangu jadallarda o'tganiga qaramay u vaqtini behuda o'tkazmasdan chuqur ilm olgan va ilm u ijodga hamisha vaqt topgan. Ya'ni Ubaydulloh Qur'on mutolaasini osonlashtirish uchun "At-Tajvid" risolasini yaratgan. Shundan ma'lumki diniy ishlarni ham chuqur egallagan hamma vaqt dinga rivoj berib mamlakatda payg'ambarimiz Muhammad S.A.V. sunnatlarini joriy qiladi. Xususan musulmon rukunlarini rivojlantirishga astoydil harakat qiladi. Misol uchun uning quyidagi ruboiysi shoir haqiqiy Mo'min bilib bilmay sodir etgan katta kichik gunohlari uchun Xudo qoshida uyalib, iztirob chekishi va darxol tavba qilishligini takidlash barobarida, Haqdan va xalqdan uyalmagan kishi odam emas deb qat'iy hukm chiqaradi:

Tengridin uyal tavbada bol mustahkam,
Toib kibi chek oning uchun ranji alam.
Odam sonida emasturur bilgilkim,
Tengridinu ham eldin uyalmas odam.

Tarixchi Munshiy tili bilan aytadigan bo'lsak bunday oliyjanob barcha sohadan habardor bo'lgan sultoni "Alloh xech qanday fazilat va komolotdan bebahra qoldirmagan edi".

Xoni janohpanoh dargohning mulozimlari ko‘pincha fozillar bo‘lar edi. Ubaydullaxon she’r ilmining sohibi bo‘lib, shu o‘rinda ortiqcha ta’rifga ehtiyoj ham yo‘q buni quydagi she’rlari orqali tariflashimiz mumkin. Toziy tilidagi bu g‘azali juda anniq va tinniq bayon qilingan:

Hayra fi jamolihi unzur fi kamolihi,
Kulli lison vosif fi sifati jamolihi...
Man ashaqa liqouka yahrukuxu firoquka,
Kayfa yakuvnu holihu man rahoma biholihi.

Tolibuka Ubayduka minka huva yuriyduka.
Faa’tihu muroduhu anta turidu bolihi.

(Mazmuni: yor jamoli hayratga solur, Qaddi qomati ko‘zing olur,
Har birr til esa husni sifatni vasf etar...
Uni ko‘rishga oshiqqanlar, hajrida kuyib kul bo‘ldi,
Oshiqqa rahm-shavqat bo‘lsa,
U qanday bo‘ladi o‘zi?
Ubayding ham tolibing, u ham visolingdan umidvor.
Ko‘ngling ravo ko‘rsa, uni ham istagiga yetkazgil.)

Va mana bu forsiy g‘azalida ham dur sochuvchi kalomi mo‘l ko‘l gavhar hadya etgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bo‘y arbobi vafo az guli mo meoyad,
Ka’ba zi on ru va tavofi dili mo meoyad...
Chexra afro‘xta imshab zi may on sham’ei buton,
Bahri afro‘htani mahfili mo meoyad.
Har kujo dardi dile hast, Ubaydiy hosil,
Batavofi dili behosili mo meoyad.

(Manosi: Vafo ahlining hidi bizning guldan keladur,
Shuning uchun ham Ka’ba bizni ziyorat qilgani keladur...
Chehrasini yal yal yondirib ul sha’mi maydin bu oqshom,
Bizning o‘tirishimizni ravshanlatmoq uchun keladur.
Qayerda dardi shifo topgan dil bo‘lsa,Ubaydiy,
Bizning murodiga yetmagan dilimizni tavof etgali keladur)

Va keyingisi turkiy g‘azali ham el aro shuxrat topgan g‘azallaridandir:

Bir-bir ayting do‘stlar dardimni dildor ollida,
Aytib-aytib yig‘langiz zinhor-zinhor ollida...
Na manga g‘amxo‘rakim, anga holimni degay,
Na g‘amim yer, na so‘zim aytur kishi bor ollida.
Ey Ubaydiy, bilgan ermish dard ila holingni yor,
Xojat ermas qilg‘aysen dardingni izhor ollida.[99]

O‘z zamoning shoirlari Ubaydiy ijodiga yuksak baxo berishgan.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, 16 asr-boshlarida Muhammad Solih va asr boshlarida Hofiz Tanishing aytib o'tishlaricha, harbiy jangda yoqilg'i sifatida neftdan foydalanishganligi ya'ni, bunda qal'a devorlaridan turib, urushganda dushmanga neft shimdirilgan latta o'ralgan yonuvchi o'qlarni yog'dirganlar, bu usha davr uchun "dahshatga soluvchi qurol" hisoblangan. Avliyo Chalabiylarning aytishicha, neft to'ldirilgan echki terisidan tikilga meshlar turli mamlakatlar jumladan O'rta Osiyoga ham olib kelingan. Qurolsoz ustalar asosan bir turdagi qurollar yasashga ixtisoslashganlar. Ularning ustaxonalari ko'pincha savdo rastalaridan o'rin olgan. Buxoro va Samarqandda sovutsozlar, o'qchilar, kamonsozlar va boshqa ustalarning mahsus savdo rastalari va yopiq bozorlari

[99] Qul Ubaydiy devoni. O'zFA ShI qo'lyozmasi (159-bet)

bo'lgan. 16-asr boshigacha qurol-aslaha ishlab chiqarish markazi Samarqandda qilich, tig', shamshir, pichoq, turli xil kamon va o'qlar sotish uchun va buyurtma bo'yicha turli tuman qurollar tayyorlaganlar.1533-yil Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirilishi munosabati bilan qurol-aslaha ustalari ham shu yerga to'planganidan dalolat beradi. Chunki bu yerda Xon qo'shinini qurol bilan ta'minlab turilishi kerak edi.[100]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, odam bolasi tabiatida bir necha qobilyati yashirin bo‘lishi mumkin. Kimdir uni bittasini ro‘yobga chiqarsa, yana kimdir shuni ham uddasidan chiqa olmaydi. Lekin shunday ulug‘ insonlar bo‘ladiki, ular o‘zlariga ato etilgan barcha qobilyatlardan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Zero, Ubaydullaxon ham ana shunday serqirra iste’dod sohibi bo‘lib, u siyosat maydonida, harb jabhasida, diniy ilmlarda, tariqat yo‘llarida, adabiyot sohasida, musiqa bobida, fiqh bobida, husnixat bahsida, Qur’on qiroatida o‘zini ko‘rsatib, ularning har birida inson aqlini hayratga soladigan natijalarga erisha olgan. Shu sababli Ubaydullaxon davrida Movarounnahr o‘lkasi ayniqsa Buxoro nihoyatda obodonchilik va faravonlikka erishdi. Bu dunyoda 54 yil davlat va iqbol bilan hayot kechirgach 1540-yil juma kuni Buxoroda vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulqodir Majid “Shayboniylar davlati” (tarjimon Iqboljon Usmonov)
2. Muhammadyor Ind Arab Qatag’an “Muxassir Al-bilod” (2009 yil “Yangi asr avlodi”)
3. Sherxon Qorayev “Shayboniy sultonlar tazkiyasi” (2023 yil “Intellekt”)
4. Bekzod Mirzayev “UBAYDULLOHXON- Shayboniylar davlatining hukumdori” (2016 yil “Mumtoz so’z”)
5. Qul Ubaydiy devoni. O'zFA ShI qo'lyozmasi (159-bet)
6. Rajabov. Q 2011. B.21-22
7. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/uzbekiston-hukmdorlari/ubaydullaxon

ON THE DİPLOMATIC RELATİONS OF THE OTTOMAN STATE WITH SHIRVAN JUDGE HAJI DAVUD KHAN

Hasanova Saida Namik
Doctor of Philosophy (Ph.D) in history
Lecturer, Khazar University,
saida.hasanova@khazar.org

Annotatsiya: XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida Ozarbayjon hududlarini hamda bir nechta boshqa viloyatlarni o‘z ichiga olgan Safaviy davlati iqtisodiy va siyosiy tanazzul davrini boshdan kechirdi. Asosiy manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlariga ko‘ra, bu davrda ko‘plab viloyat hokimlari

[100] Rajabov. Q 2011. B.21-22

(beylarbeylar) shoh hokimiyatiga bo‘ysunishdan bosh tortgan, oddiy xalqning ahvoli esa nihoyatda og‘ir bo‘lgan. Dehqonlarning ekspluatatsiyasi kuchayishi, qurg‘oqchilik va tabiiy ofatlar mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada og‘irlashtirgan.

Аннотация: В конце XVII и начале XVIII веков Сефевидское государство, включавшее территории Азербайджана, переживало экономический и политический упадок. Центральная власть ослабла, многие провинциальные наместники отказывались подчиняться шаху. Условия жизни крестьян ухудшились, а засухи и природные бедствия ещё больше осложнили экономическое положение страны.

Annotation: In the late 17th and early 18th centuries, the Safavid state, which included the territories of Azerbaijan, underwent a period of economic and political decline. The central authority weakened as many provincial governors refused to obey the Shah. The living conditions of peasants deteriorated, while droughts and natural disasters further worsened the country’s economic situation.

Keywords: Safavid, Ottoman, Russia, Haji Davud, decline, diplomacy

At the beginning of the eighteenth century, not only was the sphere of craftsmanship severely damaged, but the commodity-money circulation also deteriorated. The increase in taxation and the persistence of social injustice provoked widespread discontent among the population, creating a fertile ground for uprisings. Taking advantage of the economic crisis that had emerged within the Safavid state of Azerbaijan during this period, the Russian and Ottoman empires launched interventions in the 1720s to seize parts of its territory. As a result, a large portion of Azerbaijan came under Ottoman rule, while the Caspian littoral areas were incorporated into Russia.

In the study of Azerbaijan’s history, the archival materials preserved in the Ottoman Prime Ministry Archives (Başbakanlık Osmanlı Arşivi, BOA) hold significant importance. A comprehensive analysis of these materials, in comparison with other primary sources of major scholarly value, is crucial for constructing an objective understanding of the political history of the region.

In the early decades of the eighteenth century, the uprisings in the Safavid state of Azerbaijan were closely monitored by neighboring powers, particularly the Ottoman and Russian empires. The initial revolt that began in Car-Balakən in 1707 soon spread across the country. Rebellions occurred in Tabriz and Shirvan in 1709, among the Kurds in 1715, the Shahsevan tribes in 1717, the Lors in 1720, the Baluchis in 1721, and the Georgians in 1722 [Истории Ирана: 310]. Among these uprisings, the most extensive was that led by Haji Davud. The support given by Russia and the Ottoman Empire to local insurgents, ostensibly to aid them, in fact represented a struggle for political dominance in the South Caucasus. During this period of Safavid decline, suppressing separatist movements, uprisings, and internal unrest became exceedingly difficult.

Contemporary sources and primary materials provide ample information regarding these revolts in early eighteenth-century Azerbaijan. The Russian envoy A. P. Volynsky, who was dispatched on an intelligence mission to the region, personally witnessed the uprisings and recorded in his diary: “There are hardly any

places left here (in Azerbaijan) where a rebellion has not occurred" [Azərbaycan tarixi: 387]. This statement indicates that by the early eighteenth century, obedience to Safavid authority in Azerbaijan had effectively disintegrated. Not only the lower social strata but also members of the ruling elite resisted submission to the central government, behaving as independent rulers. Although local feudal lords were at times sources of discontent, they often exploited popular uprisings and liberation movements to strengthen their own positions and seize power.

The Shirvan Uprising under the Leadership of Haji Davud Khan.

Among the uprisings that took place in Azerbaijan in the early eighteenth century, the most powerful and far-reaching was the Shirvan revolt led by Haji Davud Khan and Surkhay Khan. Haji Davud, a native of the village of Dädäli in the Mushkur district of Shirvan, is portrayed in historical sources as a man of humble origin. Having undertaken a pilgrimage to the holy sites of Islam, including Mecca, he earned the honorific title Haji [Гербер: 95]. Owing to his religious devotion and charisma, he enjoyed considerable influence among the local population, particularly among Sunni communities. I. G. Gerber, who took part in Tsar Peter I's military campaign along the Caspian littoral and commanded an artillery detachment during the siege of Baku in 1723, wrote the following about the rebel leader: "The leader of the insurgents, Haji Davud, is of humble origin from Mushkur but possesses a sharp intellect. He had undertaken the pilgrimage to Mecca and was therefore known as Haji Davud." It is assumed that Gerber, who was later appointed to serve in Dagestan and remained there until 1729, recorded these observations during his tenure in the region. It should be noted that the leaders of early eighteenth-century uprisings in Azerbaijan often employed religion as a means of mobilizing the populace. The movement led by Haji Davud, although cloaked in religious rhetoric, was in essence separatist in character. During the course of the rebellion, Haji Davud and Surkhay Khan seized Shabran and Khudat, and destroyed the city of Shamakhi, though their assaults on Baku and Derbent ended unsuccessfully. Primary sources provide detailed accounts of the attacks on Shabran, Baku, Derbent, and Khudat carried out by the combined forces of Haji Davud and Surkhay Khan. The traveler I. G. Gerber, who visited Azerbaijan during the first quarter of the eighteenth century, reported that the insurgents devastated the town of Shabran and the surrounding districts and villages, captured the fortress of Khudat through deceit, and, facing strong resistance during their campaigns against Baku and Derbent, were forced to retreat [Гербер: 85 – 108]. In 1721, Haji Davud, together with his allies–Surkhay Khan of Qazi-Kumukh, Usmi Ahmad Khan, and Ali Sultan–launched an assault on Shamakhi [Алиев: 28]. According to contemporary sources, the city resisted for twenty-five days; however, due to the treachery of the Sunni population, the struggle ended in favor of the insurgents. Some accounts state that approximately four thousand people were killed during the Shirvan uprising, while others estimate the death toll at four to five thousand, noting that the number would have been higher had the Shiite inhabitants not fled the city [Джон Ханвей: 79]. Foreign merchants present in Shamakhi for trade purposes also suffered considerable losses; Russian traders in particular had their properties looted. The estimated

value of the plundered goods varies among different sources. One Ottoman record describes the events as follows: “They (the insurgents) captured the fortress of Shamakhi, arrested the provincial governor Hüseyin Khan, killed his children and relatives, and plundered the city’s caravanserais, markets, houses, palaces, and the possessions of local residents and merchants” [Бадраддини: 73]. After taking Shamakhi, the rebels advanced toward Ganja and Erivan. Although they initially defeated the combined local forces and laid siege to Ganja, the city’s strong resistance prevented them from capturing it. Relations between Haji Davud Khan and the Ottoman Empire. In the first half of the eighteenth century, the Safavid Empire of Azerbaijan lagged behind both the Ottoman and Russian states in political and economic terms. This conclusion is confirmed by travelers, diplomats, and Soviet historians who visited or studied the Safavid state. The Polish author J.T. Kruszyński, in his work “The History of a Christian Traveler”, devoted considerable attention to the Safavid Empire’s relations with Russia and the Ottoman Empire, as well as to its socio-economic condition. He wrote: “The Shah and the heads of government indulged so deeply in luxury and pleasure that they fell into a deep sleep of negligence, remaining unaware of the events occurring in their country. There was not a single vigilant person in the court who could awaken the Shah from this slumber and inform him about the state of the nation and the country” [Kruşinski:105]. Historian T. Mustafazadeh interpreted the decline of the Safavid state as a result of the concentration of all power, by the late seventeenth and early eighteenth centuries, in the hands of reactionary court nobles and the clerical elite [Mustafazadə: 9]. He also emphasized that the rivalry between the Safavid and Ottoman states was deliberately incited by Western powers. According to him, “The rivalry between the two neighboring empires, rooted in their conflicting economic and political interests, was further inflamed by European powers for political purposes, and the Sunni–Shia hostility was thereby deepened” [Mustafazadə: 9]. Economic stagnation, the loss of the Silk Road’s former importance, and the recurring Safavid – Ottoman conflicts led to the weakening of the country’s economy and the outbreak of numerous uprisings.

A study of the eighteenth century shows that during this period the Ottoman sultans began to lose their dominance in trade. Since the medieval period, Ottoman merchants had held a significant position in the trade of the South Caucasus and the East. However, in the early decades of the eighteenth century, Russia’s growing strength and its ambition to secure a dominant position in Caucasian trade began to undermine Ottoman influence. The signing of trade treaties granting Russian merchants favorable terms was among the main indicators of this shift. Historian F. Aliyev, citing G. Paychadze, noted that the Ottoman Empire sought to seize the Caspian coastal territories in order to obstruct Russian trade, pose a threat to Russia’s poorly defended southeastern borders, and weaken its positions in the Caucasus [Алиев: 57 – 60].

Thus, the political stagnation of the Ottoman Empire in this period ultimately resulted in the loss of its economic and commercial dominance in the region. Before leading the uprising, Haji Davud had appealed to Russia; however, after encountering a negative attitude and realizing that his interests were not being met,

he turned to the Ottoman Sultan for support. The authorized Russian envoy A.P. Volynsky wrote to Tsar Peter I regarding this matter: "In such a case, the rebellious princes will undoubtedly turn to Turkey (the Ottoman Empire – S.H.) for help. This will in no way benefit Russia. It is better that we intervene actively ourselves." From Volynsky's notes, it is evident that Haji Davud's attempt to establish close relations with the Ottomans caused concern among the diplomat and did not align with St. Petersburg's foreign policy course. Azerbaijani historian F. Aliyev also noted regarding the relations between Haji Davud and the Ottomans: "Haji Davud met with the Sultan in Istanbul, agreed to become his vassal, and was recognized as the ruler of Shirvan."Russia's expansion in the Caspian region worried the Ottoman Empire, which, after about a year of hesitation, decided to use Haji Davud, who sought its protection, for its own purposes. It should be noted that the main goal of the Ottoman Empire was not to protect the population of Dagestan and Shirvan from Russian attacks but to strengthen its position in the Caucasus. Although the Shirvan people's appeal suited the Ottoman interests, the empire still hesitated to start a war with Russia. Therefore, a partial decision was made: "If Iran moves against Shirvan, military action shall begin, but Haji Davud shall not yet be officially taken under protection." It should be emphasized that in Soviet historiography, the term "Iran" was used not as a state name but as a geographical designation [Mustafazadə: 18]. On January 11, 1723, by order of the Sultan, the imperial chamberlain Dervish Mehmet Agha was sent to Haji Davud to inform him that he was accepted under Ottoman protection under the same conditions as the Crimean Khan. Historian T. Mustafazade provides detailed information on Haji Davud's acceptance under Ottoman protection. "As a sign of imperial grace, the Sultan sent Haji Davud a sable fur and a sword, as well as a salary, and promised real assistance, including military aid. Furthermore, Haji Davud received a secret order to 'expel the Russian garrisons from Derbent and other regions by all means" [Mustafazadə: 19].The Ottoman government sent seven imperial decrees (namey-i humayun) regarding Haji Davud. These decrees reveal that the Sultan granted Shirvan province to Haji Davud Khan as his hereditary domain. It was also stipulated that during his activities, Haji Davud was to consult with the governor of Erzurum, vizier Ibrahim Pasha. However, this led to conflicts, as evident from the ensuing struggle among Ottoman viziers over control of the Shirvan Khanate, including attempts by Surkhan Khan, together with Ganja's governor Ibrahim Pasha and Iravan's commander vizier Ali Pasha, to attack Shirvan [Arşiv belgeleri: 43 – 56]. Unfortunately, during the Soviet period, Azerbaijani historiography portrayed Haji Davud's movement merely as a rebellion. However, based on the namey-i humayuns, it becomes evident that his actions had a separatist character – an attempt to govern the region independently and establish a separate state. Naturally, the Ottoman Empire had its own interests in this matter. Russia's open military aggression and the occupation of Derbent prompted the Ottomans to act quickly. The Porte, unwilling to lose the opportunity to control the Caucasus and consolidate its influence along the Caspian coast, immediately reestablished contact with Haji Davud.

Conclusion. The primary reason for the uprisings within the territory of the Safavid state of Azerbaijan was the population's growing discontent with increased taxes, obligations, and official arbitrariness. However, Haji Davud Khan exploited this unrest for his own objectives, seizing several areas in northeastern Azerbaijan, including the cities of Shamakhi, Khudat, and Quba. Haji Davud Khan's attempts to govern Shirvan independently, without relying on other states, were essentially actions against the Safavids and can be considered as an act of defiance against central authority. While Soviet historiography primarily interpreted the Shirvan uprising as a revolt against Safavid oppression, it is evident that the uprising led by Haji Davud Khan was, in fact, a separatist movement.

BIBLIOGRAPHY

1. Azərbaycan tarixi. 7:3. Bakı: Elm Nəşriyyatı, 2007.
2. Əliyarlı, Süleyman. Azərbaycan tarixi (Uzaq keçmişdən 1870-ci illərə qədər). Bakı: Azərbaycan Nəşriyyatı, 1996.
3. Kruşinski, Yan Tadeuş. Xristian səyyahın tarixi. trc. Ş.Fərzəliyev. Bakı: Azərnəşr Nəşriyyatı, 1993.
4. Mustafazadə, Tofiq. XVIII yüzillik - XIX yüzilliyin əvvəllərində Osmanlı-Azərbaycan münasibətləri. Bakı, "Elm", 2002, 372 s.
5. Osmanlı Devləti ilə Azerbaycan Türk hanlıkları arasındakı münasibetlere dair arşiv belgeleri. Karabağ-Şuşa, Nahçivan, Bakü, Gence, Şirvan, Şeki, Revan, Kuba, Hoy (1578-1914). I. Ankara: Başbakanlık Basımevi, 1992.
6. Алиев, Фуад. Антииранские выступления и борьба против турецкой оккупации в Азербайджане в первой половине XVIII в. Баку: Элм, 1975.
7. Алиев, Фуад. Письмо бакинцев Петру I в 1722 г. ДАН Азерб. ССР, №7. Баку: 1964.
8. Бадраддини, Алибей. Гаима. Изв. АН Азерб. ССР, из серии истории, философии и права. №3-4. Баку: 1988.
9. Гербер, Иоганн. Описание стран и народов вдоль западного берега Каспийского моря 1728 г. История, география и этнография XVI-XIX вв. Архивные материалы. Москва: Издательство восточной литературы, 1958.
10. Гербер, Иоганн. Сочинение "Описание стран и народов между Астраханью и рекой Курой находящихся" как исторический источник по истории народов Кавказа. Москва: Наука, 1979.
11. Джон Ханвей, Исторический очерк британской торговии на Каспийской море, с журналом автора о путешествии из Англии через Россию в Персию и обратно через Россию, Германию и Голландию, II том (перевод с англ. яз. Л.М. Кирякова) AMEA TİEA, fond 1, siyahı 1, iş 158.
12. Истории Ирана с древнейших времен до конца XVIII в. Под ред. Строева Л.В. Ленинград: Изд. Ленинградского университета, 1958.

ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА МОВАРОУННАҲР ОРОНИМЛАРИ (XVI аср биринчи ярми)

Guzal Xidirova Rustam qizi

Al-Biruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Science,
Tashkent, Uzbekistan
gozalxidirova4@gmail.com

Abstract: This article attempts to study the oronyms of the territory of Movarounnahr in the 16th century based on historical sources. Movarounnahr is an arabic word, and after the Arabs conquered Central Asia (in the VII – VIIIth centuries), they called the lands stretching north from the Amu Darya "Mowarounnahr" – ما وراء النهر meaning "the other side of the river." This region, which has been of strategic importance since ancient times, and its natural objects – oronyms, are mentioned in historical sources in the description of various events. In this article, different forms of relief of the earth's surface, oronyms, are studied by dividing it into component parts such as the names of mountains, gorges, steppes, passes, hills, pastures. Information about the form of the names given in the sources, their current geographical location, and their etymology was analyzed.

Key words. *Natural object, Mowarounnahr, historical source, oronym, mountain, steppe, gorge.*

Абстракт: В данной статье предпринята попытка изучить историю оронимов территории Мавераннахра в XVI веке на основе исторических источников. Мавераннахр – арабское слово, которое появилось после завоевания арабами (в VII–VIII веках) Средней Азии. Земли, простиравшиеся к северу от Амударьи, арабы называли «Мавераннахр» (ما وراء النهر), что в переводе означает «земли за рекой» или «другая сторона реки». С древних времён эта территория, имевшая важное стратегическое значение, а также её природные объекты – оронимы, упоминаются в исторических источниках при описании различных событий. В статье оронимы, то есть различные формы рельефа земной поверхности – такие как названия гор, долин, степей, перевалов, холмов и пастбищ – изучены по отдельным категориям. Проанализированы формы оронимов, приведённые в источниках, их современное географическое расположение и сведения об их этимологии.

Ключевые слова. *природный объект, Мавераннахр, исторический источник, ороним, гора, степь, долина.*

Абстракт: Мазкур мақолада XVI асрда Мовароуннаҳр ҳудуди оронимлари тарихий манбалар асосида ўрганишга ҳаракат қилинди. Мовароуннаҳр арабча сўз бўлиб, араблар (VII – VIII асрларда) Ўрта Осиёни босиб олгандан сўнг Амударёдан шимолга қараб чўзилган ерларни "Мовароуннаҳр" – **ما وراء النهر** яъни "дарёнинг нариги томони" деб атаганлар. Қадимдан муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлган ушбу ҳудуд ва ундаги табиий объектлар – оронимлар тарихий манбаларда турли воқеалар тавсифида тилга олинган. Мақолада ер юзаси релъефининг турли шакллари бўлмиш оронимлар – тоғ, дара, дашт, довон, тепалик, яйлов номлари каби таркибий бўлакларга бўлиниб ўрганилган. Оронимларнинг манбаларда келтирилган шакли, ҳозирги географик ўрни, этимологиясига оид маълумотлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. *Табиий объект, Мовароуннаҳр, тарихий манба, ороним, тоғ, дашт, дара.*

Кириш. Табиий объектлар номларининг бир қисмини ер юзаси рельефини ифодаловчи топонимлар – оронимлар ташкил этади.

Оронимия – юнонча орос – “тоғ”, онома – “ном” сўзларидан олинган бўлиб, топонимиканинг турли ер юзаси рельеф шакллари – тоғлар, чўққилар, қирлар, даралар, текисликлар, жарлар номларини ўрганувчи бўлими бўлиб, ономастика фанининг соҳаларидан бири ҳисобланади. Оронимларга тоғ, чўққи, қир, адир, дашт, рельефнинг салбий шакллари – водий, дара, жарлик, сойлик номлари, шунингдек, текислик, паст текислик, қумликлар номлари ҳам киради.

Оронимларни ўрганишда бирламчи манбалар муҳим аҳамият касб этади. XVI аср биринчи ярмига оид ёзма манбаларни мазмуни жиҳатидан қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

а) тарихий-географик асарлар: Номаълум муаллифнинг “Таворихи гузида, Нусратнома”, Абдуллоҳ Насруллоҳийнинг “Зубдат ул-асар”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Фазлуллоҳ ибн Рузбеҳон Исфаҳонийнинг “Меҳмонномайи Бухоро”, Ғиёсиддин Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сияр фи ахбор афрод ул-башар”, Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” каби асарлар;

б) адабий асарлар: Мулла Шодийнинг “Фатҳнома”, Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома”, Камолиддин Биноийнинг “Шайбонийнома”, Зайниддин Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақоеъ” асарлари;

в) расмий хужжатлар: “Вақфнома-йи Шайбонихон” №5905

Юқоридаги манбаларда оронимлар – жой номлари сингари турли тарихий воқеъликлар, жанглар, юришлар баёнида тилга олинган. Ушбу мақолада Мовароуннаҳр ҳудудига оид оронимларни XVI аср биринчи ярми тарихий манбаларига асосланган ҳолда ўрганишга ҳаракат қилдик.

Метод ва методология. Ушбу мақолада бирламчи манбадаги жой номларига оид маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш ва баҳолашда тарихийлик, таққослаш, манбашунослик методларига таянилди.

Таҳлил ва натижалар. Мовароуннаҳр топоними мамлакат ва ўлка номи сифатида IX асрдан буён манбаларда қайд қилиниб келинади. Ундаги оронимларни қуйидаги таркибий қисмларга бўлиб ўрганишга ҳаракат қилдик.

Тоғлар. Мовароуннаҳр ҳудудига оид тоғ номлари энг кўп Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида қайд қилинган. *Барокўҳ* тоғи – Ўш шаҳрининг ғарби-жанубидаги Сулаймон тоғи. “Қўрғоннинг (Ўш) шарқи жанубий жонибида бир мавзун тоғ тушубтур, Барокўҳға мавсум” [2, 2b]; *Еттикент* тоғлари – Олой тизмасидаги тоғ, Андижондан жанубда. “Бир гиёҳ эшитилдиким, Еттикентнинг тоғларида бўлур. Бу тоғларда феруза кони ва темур кони бўлур” [2, 5b]; *Сара* тоғи (Сири) – Ҳисор тизмасидаги баланд тоғ номи [4, 53]. 1500-1501 йиллар воқеалари баёнида ушбу тоғ йўли орқали Самарқандга боғрани ҳикоя қилинади [2, 33b]; *Шовдор тоғи* – Самарқанд вилоятидаги тоғ; Асарда Шовдор тоғ ва жой номи сифатида эслатилган:

“Шовдор тоғининг доманасида”, “Шовдор навоҳиси” [2, 77a]. “Ҳабиб ас-сияр” асарида ҳам Шовдор тоғи қайд қилинган. *Шунқорхона тоғи* – тоғ тизмаси, Туркистон тизмасининг Самарқанд вилояти жанубидаги бир тармоғи; “Шунқорхона тоғидин ошиб” [2, 82b].

“Меҳмонномаи Бухоро” асарида *Қоф* тоғ номи учрайди. Қоф тоғи – эртак, достон ва бошқа оғзаки ижод намуналарида учрайдиган афсонавий тоғ номи. Асарда Сайҳун дарёси тўлқинларини Қоф тоғларига ўхшатган [14, 144]. Ёки яна бир ўринда Жайҳун дарёсидаги кемаларни “Ҳар бири гўёки денгизда сузаётган Қоф тоғлари”га ўхшатган [14, 162].

Ғиёсиддин Хондамирнинг “Ҳабиб ас-сияр” асарида Мовароуннаҳр ҳудудига оид: Фалғар ва Масчо кўҳистони тилга олинади. Ҳозирги номи Куҳистони Масчо. Туркистон баланд тоғлари ва Зарафшон тизмалари оралиғида жойлашган;

Довонлар. *Кандарлик* довони – Фарғона водийси ва Тошкент вилояти ўртасидаги довон, ҳозир ҳам шу номда; “Тарихи Рашидий” асарида унинг “Фарғона ва Тошкент вилоятлари ўртасида жойлашган”лигига изоҳ бериб ўтилган [12, 326]. Шунингдек, “Бобурнома”да ҳам Мирзо Бобурнинг “Кандирлик добони била Ахси ва Андижон сари азимат” қилганлиги айтилади [2, 32a]. *Оққўтал* – Туркистон тизмасида, Сувсиз ва Саримас тоғлари орасидаги очиқ жойда, 100-150 метр баландликда жойлашган. “Кўтал” сўзи туркий ва мўғул тилларига хос сўз. Мўғул тилида хўтўл – тепа, унча катта бўлмаган қия баландлик маъносини билдиради [6, 11-14]. *Итмак довони* – ҳозирда Зарафшон тизмасининг Самарқанд вилояти билан Қашқадарё вилояти ўртасида жойлашган довон. “Бобурнома”да: “Самарқанд била Кеш орасида бир тоғ тушубтур, Итмак добони дерлар, сангтарошлиқ қилур тошларни тамом бу тоғдин элтарлар” [2, 49a]. Манбашунос олим О.Бўриевга кўра, бу довон ҳозирда Тахтақорача деб номланади ва Амир Темур у ерда бир боғ ва кўшк қурдириб уни Шероз шаҳрида бўлганидан эсдалик сифатида “Тахти Қароча” деб атайди. “Бобурнома”даги маълумотларга таяниб Самарқанд иморатлари учун тошлар бу довондан қазиб олинганлигини таъкидлайди [13, 165]. Сири токъ добони / Сири токъ кўтали – Ҳисор тизмасидаги баланд тоғ довони.

Даштлар. Рузбуҳон Исфаҳонийнинг “Меҳмонномайи Бухоро” асарида Мовароуннаҳр ҳудудига оид дашт номларидан Бухоро дашти, Самарқанд дашти каби табиий объектлар номлари қайд қилинган. *Самарқанд* дашти, баъзи ўринларда Оч дашт деб қайд қилинган [14, 146]. Текис ерлар халқ орасида Оч дашт деб аталган.

Даралар. *Дарбанд-и Оҳанин* – узунлиги 1,5 кмлик дара номи. Сувсизтоғ ва Саримас тоғлари ўртасида, Дарбанд ва Шўроб қишлоқлари орасидаги Оққўтал перевалида, ҳозирги Сурҳондарё вилояти ҳудудида Термиз-Тошкент йўналишидаги катта йўлдан 123 км масофада жойлашган [1, 347-355]. Дарбанд сўзи форсчадан олинган бўлиб, “дар” – “эшик”, “дара”, “банд” – “мустаҳкам”, “берк”, “тўсиқ” деган маъноларни англатади. Ҳозирда шу номдаги қишлоқ мавжуд бўлиб, қадим даврларда транзит вазифасини бажарган. Дарбанддан ғарбда машҳур тоғ довони – Темир дарвоза бор эди.

Темир дарвоза ҳақидаги илк маълумотлар 630-йилларда хитойлик сайёҳ эсдаликларида учрайди. Ҳазрат Навоийнинг “Садди Искандарий” достонида ушбу дарвозага ишорат қилинади [7, 63-68]. Темурийлар даври манбаларидан Низомиддин Шомий, Абдураззоқ Самарқандий, Шарафиддин Али Яздий асарларида бу ном тилга олинган. Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарида ушбу дарвозанинг Дарбанди Оҳанин ва Каҳлаға аталиши берилган [5, 262]. Мирзо Бобур “Бобурнома”да “Қаҳлуғдинким, Дарбанди Оҳанин ҳам дерлар” дея Темир дарвозанинг икки хил номланишини изоҳлаб ўтади [2, 124а]. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар “Тарихи Рашидий” асарида Амир Темур билан боғлиқ воқеалар баёнида бу дара мўғулча – Каҳлаға деб тилга олинади [12, 52].

Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома” асарида Шайбонийхоннинг Ҳисор вилоятига Хусрав шоҳ устига юриши баёнида *Дарбанд (دربند), Алванд (الوند)* тоғ номлари қайд этилган ва улар ҳақида қимматли маълумотлар берилган. Унга кўра, бу икки тоғ бир-бирига уланиб кетган бўлиб, баландлиги осмонга, ҳар иккисининг қўли Амударёга етган. Шунингдек, бу икки тоғ ораси бир *ёғоч*[101] чиқиши, зилол чашмалари борлиги баён қилинади.

Бир бийик тоғ эди Дарбанд дегон,
Ким анго ёр эди Алванд дегон.
Тенгри фармони била икки тоғ,
Қилибон икиси бир-бирни ўтоғ.
Бош қўюб икаФласи бир ерда,
Юз туман кўҳу камар ҳар бирида.
Ҳар бирининг боши гардунға етиб,
Ҳар бирининг қўли Жайхунга етиб [11, 160].

Ҳудди шу воқеаларни Мирзо Бобур “Самарқандтин чиқиб, Ҳисор келганда ўзбакнинг жамиъ хон ва султонлари йиғилиб, иттифоқ қилиб, бизнинг устумизга келур азимат била Дарбанддин ўттилар” дея қайд этган [2, 192]. Ҳар иккисида ҳам юқоридаги Дарбанд дараси тилга олинган. Демак, Темурийлар даври манбаларида мазкур жой Дарбанди Оҳанин, мўғулча Қаҳлаға шаклларида қайд этилган бўлса, XVI аср биринчи чорагига оид воқеалар баёнида шунчаки Дарбанд шаклида эслатилган.

Камолиддин Биноий қаламига мансуб «Шайбонийнома» асарида оронимлардан Илонўтти дараси қайд қилинган. *Илонўтти* – Жиззах вилоятидаги қадимги дара номи. Асарнинг қўлёзма нусхасида ёзилиш шакли ییالن اوتی яъни Йиланўтти [10, 12а]. Шайбонийхон Султон Аҳмад Мирзо билан иттифоқчиликда Туркистонга Маҳмуд Султон билан жанг қилиш учун отланади. Асарда воқеалар баёнида “Муҳаммад Шайбонийхон Султон Аҳмад Мирзо билан биргаликда Йиланўти орқали ўтганда Тизак (Дизак)да тўхтади”, дейилади [9, 109]. Бунда Йиланўтти Жиззах ва Самарқанд орасидаги Илонўтти (маҳаллий шевада Жилонўтти) дараси назарда тутилган. С.Қораевнинг маълумотига кўра, дара номининг келиб чиқиши номаълум,

[101] Ёғоч – йўл узунлиги ўлчови. Тахминан 9 км га тўғри келади.

илон кўп бўлганидан ёки Сангзор дарёси илон изига ўхшаб оққани учун деб тахмин қилинади [15, 68].

Тепаликлар. *Пуштаи Кўҳак* – “Пушта” – “тепа”, “тепалик” яъни Кўҳак тепалиги [3, 137]. Самарқанднинг шимолий-жанубий чеккасидаги тепалик бўлиб, ўрта асрларда Кўҳак номи билан маълум бўлган. Ҳозирги номи Чўпонота тепалиги. Асарда шунингдек, Пуштаи Айш – яъни Айш тепалиги номи қайд қилинган. Бироқ унинг топографияси маълум эмас.

Яйловлар. *Бурка* яйлови – ҳозирда Бахмал адирларига тўғри келади. *Чилдухтарон* яйлови – Зайниддин Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақоеъ”, Бобурнинг “Бобурнома” асарида қайд қилинган. “Бобурнома”га кўра, Андижондан бир куруҳ масофада жойлашган ўланг бўлган [4, 74]. “Бадоеъ ул-вақоеъ” асарида Ҳиротга борадиган йўлда жойлашган табиий объект сифатида қайд қилинган [8, 125]. *Лаклакон* яйлови – “Бадоеъ ул-вақоеъ” асарида “Пискант яқинида”лиги айтилган [8, 131]. Бу жой номи “Бобурнома”да ҳам қайд қилинган [2, 85]. *Қулба* яйлови. “Ҳабиб ас-сияр” асарида Самарқанд ҳудудига оид Қулба ўланги, сайҳонлиги [8, 886] тилга олинган. “Бобурнома”да Қўлба шаклида кент номи, навоҳис номи ва ўланг номи сифатида қайд қилинган. Асарга кўра, Қўлба ўланги Боғи Майдоннинг орқасида жойлашган [2, 58]. Яна бир жойда унинг жойлашуви, чегаралари ҳақида маълумот келтирилган [2, 61].

Йўллар. *Банди Солор* – Ахсидан Андижонга борадиган энг яқин йўл ҳисобланган ва “Бобурнома”да бу йўл ҳақида “Банди Солор йўли била ... Андижонға келдим. Бу йўлким, Банди Солор йўли бўлғай, тўққуз йиғоч йўлдир” каби маълумотлар қайд этилган [2, 32а].

Хулоса қилганда, Мовароуннаҳр ҳудудига оид оронимлар XVI аср биринчи ярми манбаларидан “Бобурнома” асарида энг кўп тилга олинган. Бошқа асарларда ҳам мавзуни тўлдирувчи маълумотларни учратиш мумкин. Мазкур ҳудудга оид оронимлар бизгача ўзгаришсиз, қисман ўзгарган, ўзгарган ҳолда етиб келган.

Ўзгаришсиз	Қисман ўзгарган	Ўзгарган
Кандарлик довони	Йиланўтти – Илонўтти	Барокўҳ тоғи – Сулаймон тоғи
Оққўтал довони		Итмак довони – Тахти Қароча
		Пуштаи Кўҳак – Чўпонота тепалиги
		Бурка яйлови – Бахмал адирлиги

Баъзи оронимлар, Еттикент тоғлари, Шунқорхона каби тоғ номлари ҳозирги замонамизгача сақланиб қолмаган. Баъзи оронимларнинг номлари турли манбаларда турлича келганини кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бобоева С.Р. Исторические топонимы вдоль торгового пути Термез - «Железные ворота» // Бюллетень науки и практики. 2020.Т. 6. №2. С. 347-355. https://doi.org/10.33619/2414-2948/51/44
2. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. // Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: Саидбек Ҳасанов // Масъул муҳаррир: Ваҳоб Раҳмонов. // – Т.: “Шарқ”, 2002. – Б. 2б.
3. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. Тузувчи: Фатҳиддин Исҳоқов. – Андижон, 2008. – Б. 137.
4. Бўриев О. “Бобурнома”даги топонимлар изоҳли луғати. – Тошкент: “Наврўз”, 2015. – Б. 53.
5. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2017. – Б. 262.
6. Ёқубов Ш. Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва “Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили // Филологик тадқиқотлар: тил, адабиёт, таълим. – Термиз. 2024/№12. – Б. 11-14
7. Ёқубов Ш. Дарбанд атамасининг услубий қўлланиши // Сурхондарё: илм, фан ва тафаккур. 2022 й. Махсус сон. – Б. 63-68.
8. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоеъул вақоеъ. Форсийдан Наим Норқулов таржимаси. – Тошкент, 1979. – Б. 125.
9. Ибрагимов С.К. “Материалы по истории казахских ханств XV – XVIII веков (Извлечения из персидских и тюркских сочинений)”. – Алма-Ата, 1969, – стр. 109.
10. Камолиддин Биноий. Шайбонийнома. ЎзР ФА Шарқшунослик Институти фонди, №844. – 12а.
11. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Насрулло Даврон. – Тошкент, 1961. – Б. 160.
12. Мухаммед Хайдар Дулати. Тарих-и Рашиди. Введение, перевод с персидского языка А. Уринбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой. – Алматы: «Санат», 1999. – С. 326.
13. Уринбоев А., Буриев О. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Тошкент: Хал к, мероси, 1996. – 165 б.
14. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки Бухарского гостя). Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. Под редакцией А.К.Арендса. – Мосвка: Наука, 1976. – С. 162.
15. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 68 б.

XVIII–XIX ASRLARDA CHAHOR VILOYATINING SIYOSIY VA IJTIMOIY RIVOJLANISHI: MAYMANA XONLIGI MISOLIDA TAHLIL

Sharipov Shohruz Faxriddin o`g`li – Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalari universiteti dotsenti, tarix fanlari

bo`yicha falsafa doktori (PhD)
Email:shohruz@i.ua

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston shimolidagi Chahor viloyat (Andxoy, Sheberghan, Saripul va Maymana) tarixiy mintaqasining XVIII–XIX asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor Maymana xonligining shakllanishi, ichki boshqaruv tizimi, qabilaaro munosabatlar hamda Buxoro amirligi va Qandahor hokimiyati bilan bo‘lgan siyosiy aloqalariga qaratiladi. Shuningdek, maqolada ushbu hududda mahalliy hokimiyat institutlari, soliqqa tortish tizimi va harbiy kuchlarning roli ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Chahor viloyat, Maymana xonligi, Afg‘oniston tarixi, qabila siyosati, Buxoro amirligi, XVIII–XIX asrlar, hududiy boshqaruv.

Annotation: This article analyzes the political, economic, and social development of the historical Chahor Vilayat region (comprising Andkhoy, Sheberghan, Sar-e Pul, and Maymana) in northern Afghanistan during the 18th and 19th centuries. The main focus is on the formation of the Maymana Khanate, its internal governance, tribal relations, and political interactions with the Emirate of Bukhara and the Kandahar authorities. The study also examines local governance institutions, taxation systems, and the role of military forces in the region.

Keywords: Chahor Vilayat, Maymana Khanate, Afghan history, tribal politics, Emirate of Bukhara, 18th–19th centuries, regional governance.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы политического, экономического и социального развития исторического региона Чахор Вилоят (Андхой, Шиберган, Сари-Пуль и Маймана) на севере Афганистана в XVIII–XIX веках. Основное внимание уделено формированию Майманинского ханства, его системе внутреннего управления, межплеменным отношениям, а также политическим связям с Бухарским эмиратом и властями Кандагара. В статье также рассматриваются местные институты власти, налоговая система и роль военных сил в управлении регионом.

Ключевые слова: Чахор Вилоят, Майманинское ханство, история Афганистана, племенная политика, Бухарский эмират, XVIII–XIX века, региональное управление.

XVIII–XIX asrlarda Maymana o‘zbek voliylari tomonidan boshqarilib[102], Chahor viloyat (“To‘rt viloyat”)[103] deb atalgan mintaqaning eng muhim shahri bo‘lgan. Ushbu Chahor viloyat tarkibiga Shibarg‘on, Saripul va Andxoy kirgan. Har bir hudud mustaqil ravishda o‘zbek sulolalari tomonidan boshqarilgan[104], ular ko‘pincha o‘zaro ixtilofda bo‘lgan bo‘lsalar-da, tashqi tahdid yuzaga kelganda o‘z kelishmovchiliklarini bir chetga surib, Maymana yetakchiligida mustaqillikni saqlab qolish uchun birgalikda harakat qilganlar.

[102] Christine Noelle. State and Tribe in Nineteenth-Century Afghanistan The Reign of Amir Dost Muhammad Khan (1826-1863).1998. London. Routledge. p.75
[103] Chahor Viloyat (Maymana, Shibarg‘on, Sar-i Pul, Andxoy)
[104] Jonathan L. Lee. The History of Maimana in Northwestern Afghanistan 1731-1893. Iran, Vol. 25 (1987), p. 107

Maymana shahri bu davrda Afg‘onistonning shimoliy qismida joylashgan bo`lib, u Tirbandi Turkiston (ya’ni Turkiston tog‘lari) tizmasining shimoli-g‘arbiy chekkasida joylashgan edi va Fors Xurosoni, Turkiston va Movarounnahrni bog‘lovchi asosiy savdo yo‘li ustida joylashgan edi[105]. Maymananing qal’asi Badg‘is shimolidagi kirishni himoya qilgan va shu bilan birga janubi-g‘arb tomondan Turkistonga kirishni nazorat qilgan. Maymanadagi o‘zbeklar ishtiroki Shayboniy Muhammadxon davrida boshlangan. XVI asr boshlarida u o‘z qo‘shinlarini Faryob va Maymana tomon yuborgan[106]. 1605-yilda Maymananing hokimi Tahirbiy bo‘lib, u Maymananing valisi Muhammad nomidan hukmronlik qilgan[107]. 1611-yilga kelib Maymanadagi o‘zbek hukmdorilarining ta`siri butun Afg`on Turkistonida kengaya boshlagan. 1731-yilda Nodirshoh Hirotni bosib olgandan so`ng Maymanani ham o‘ziga bo‘ysundiradi va bu yerga o‘z qo‘shinlarini yuboradi. Uning Maymanaga qilgan hujumlariga o‘zbeklar hamda afshorlar qo‘shilgan[108]. Biroq 1747-yilda Nodirshoh o‘ldirilgach, uning qo‘shinidagi o‘zbeklar o‘z yurtlariga qaytib ketishadi, afg‘onlar esa Ahmadshoh Durroniyni o‘z hukmdori deb e’lon qilishadi. Ahmadshoh Durroniy tomonidan Maymanaga Hojixon Mingni voliy etib tayinlaydi. 1840-yilda Konolli yozgan hisobotga ko‘ra, Hojixon Ahmadshohga uning hukumatga chiqishida yordam bergangan sodiq odamlardan biri bo`lganligi uchun Balx va Maymanaga hokim etib tayinlangan. Biroq boshqa manbalar bu tayinlovning boshqa sabablarini ham keltiradi. “Tarix-i Ahmadshoh” asarida keltirilishicha, Hojibek (Hojixon) va boshqa turkistonlik zodagonlar Ahmadshoh saroyiga kelib, Buxoroda hokimaytni egallab olgan Muhammad Rahimxonning Balx va Maymana ta`siri kuchayotganligidan shikoyat qilganlar. Shunda Ahmadshoh bu hududlarda o`zining ishonchli vakili bo`lmish Hojibekka “Valiy-i Balx” (Balx hukmdori) unvoni berilgan va u shundan so‘ng “Hojixon” deb atala boshlangan. Unga, shuningdek, “Sohib-i ixtiyor” – ya’ni Afg`on Turkistoni bo‘yicha bosh soliq yig‘uvchisi unvoni ham berilgan, harbiy hokimiyat esa Otaullohxon turkman qo‘liga topshirilgan. Shundan so‘ng Ahmadshohning Turkiston ustidan nazoratni qayta tiklash uchun yurishi boshlangan va Chichaktuy, Maymana va Andxoy bo‘ysundirilgan. 1751-yilga kelib bu hududlar to‘liq bo‘ysundirilganligi deb e’lon qilinadi[109]. Hojixon bir muddat Balx volisi deb atalgan bo‘lsa-da, aslida u faqatgina soliq yig‘uvchilik lavozimida qolgan va Maymana uning bosh qarorgohi bo‘lgan. Bu geografik jihatdan ham mantiqiy edi, chunki Balx va Maymana o‘rtasida Aqcha, Shibirg‘on, Andxoy va Saripul kabi mayda xonliklar joylashgan bo‘lib, Hojixonning ayni vaqtda ikkala shaharda hokimlik qilgani ehtimoldan yiroqdir. Bu davrda yozilgan manabalarga ko`ra Hojixon Ahmadshohga nisbatan

105 Jonathan L. Lee. Afghanistan: A History from 1260 to the Present.London. Reaktion Books, 2019. p.350
106 Jonathan Lee. The “Ancient Supremacy”. Bukhara, Afghanistan and the Battle for Balkh, 1731-1901. E.J. Brill, New York, 1996. p.210
107 Jonathan L. Lee. The History of Maimana in Northwestern Afghanistan 1731-1893. Iran, Vol. 25 (1987), p. 109
108 Laurence Lockhart. "Nadir Shah: A Critical Study Based Mainly upon Contemporary Sources". Luzac & Co., London.1939.p.53.
109 A.H. Fayzullayev. "Afg’onistondagi turkiy xalqlarning tarixiy-siyosiy mavqeyi (o’zbeklar misolida)". Oriental Journal of Social Sciences, vol. 2, no. 2, 2022, -B.151

tez-tez isyon ko‘targan va soliqlarni yig‘ish davomida o`zining zulmkorligi va talonchilik bilan mashhur bo‘lgan. Shikoyatlar kuchaygach, Ahmadshoh uni tekshirish uchun adliya vakilini – dorug‘a-i adolatni tayinlaydi, biroq Hojixon va uning ittifoqchilari bu tekshiruvga to‘sqinlik qilishadi. Ular Buxoro qo`shinlari tomonidan Aqchaga uyushtirilgan bosqinga yordam bergan holda, afg‘on qo‘shinlarini Balx tomon chekinishga majbur qilganlar. Shunday qilib, Hojixon afg‘on hukmdorining rasmiy ittifoqchisi bo‘lishiga qaramay, asosan o‘z manfaatlarini, shuningdek, turkman va o‘zbek guruhlarining manfaatlarini ilgari surgan holda faoliyat yuritib, Maymanadagi o`z hokimiyatini ham ularga tayangan holda shakllantirgan edi. Hojixon Maymanada o`zining hokimyatini juda ham mustahkam etgan holda tashkil etgan ediki, hattoki bu shaharning voliyligini o`zining avlodlariga me`rosiy tarzda qoldirishga erishgan edi.

Hojixon 1773-yilgada vafot etadi va uning o‘rniga o‘g‘li Jonxon Maymana hukmdorligiga keladi110. Ammo, ba`zi bir manbalarda Hojixon Mingining o‘g‘li sifatida Shohnazarxon tilga olinadi, u bir qancha tinchlik muzokaralarida otasining vakili sifatida qatnashgan bo`lganligi uchun u otasining vorisi bo‘lgan bo‘lishi ehtimoli ham bor. Shohnazar otasidan oldin vafot etganmi yoki yo‘qmi noma’lum bo`lib, shuning uchun biz bu borada KonollIning Jonxon keyingi hukmdor bo‘lgan degan xabariga tayanamiz. Ahmadshoh Durroniy 1773-yilda vafot etib, uning o‘rniga o‘g‘li Temurshoh taxtga o‘tirgan bo`lsada, ammo u Afg`on Turkistonida o`zininng hokimatini faqat Balx bilan cheklashga majbur bo`ldi. Ammo, Maymana xonligi bu davrda hali ham Durroniylar imperiyasi poytaxtiga naqd pul va natura shaklida xiroj yuborishda davom etgan va bu holat bu yerga Durroniylar hujumini oldini olishga yordam bergan. Biroq bu davrda Maymana xonligi kattaroq hududlarini ya`ni sharqda Saripul va janubi-g‘arbda esa Baloyi Murg`obni ham nazorat qilgan. Konolli o`z hisobotida Jonxon Temurshoh hukmronligi davrida Balx ustidan nazoratni yo‘qotganini yozadi111. Biz ilgari ko‘rganimizdek, hatto Hojixonning o‘zi ham Balx ustidan to‘liq hokimiyatga ega bo‘lmagan edi va shuning uchun bu yerda nazarda tutilgan narsa – Balx hududidan soliq yig‘ish huquqi va imkoniyatining o‘g‘li tomonidan yo‘qotilganligi holati bilan bog`lash mantiqqan bo`lar edi.. Bu voqea 1789-yilda yuz bergani aniqki, chunki o‘sha yili Balx Buxoro amirining tashabbusi bilan Temurshohga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan112. Garchi Temurshoh bilan Buxoro amiri o‘rtasida shartnoma tuzilgan bo‘lsa-da, Balxdagi haqiqiy hokimiyat o‘zbeklar va Buxoroliklar qo‘lida qolaverdi113. Ammo, shartnoma shartlariga ko`ra, Temurshoh hali ham shaharga noib tayinlash huquqini o`zida saqlab qolsada, biroq shartnoma asosida mahalliy aholiga o‘z nomzodlarini tanlash huquqi berilib, ushbu noib yonida faqat oz sonli xizmatkori bo‘lishiga ruxsat berilgan va u soliqlar yig‘ish huquqidan mahrum etilgan edi. Natijada, Balx amalda mustaqil harakat qila boshlagan va afg‘on

110 Массон В.М., Ромодин В. А. История Афганистана.Т. 2: Афганистан в новое время. — 1965. –С.350

111 Jonathan L. Lee. The History of Maimana in Northwestern Afghanistan 1731-1893. Iran, Vol. 25 (1987), p. 109

112 Arminius Vambéry. History of Bokhara: From the Earliest Period Down to the Present. London.1873. p.358

113 Louis Dupree. "Afghanistan". Oxford University Press. London. 1973. p.344

mansabdorlari orasida Balx volisi lavozimini qabul qilishga tayyor odam topilmasligi butun Afg`on Turkistonida kulgili mavzuga aylangan edi.

XVIII asr oxirida Maymananing Durroniylar imperiyasiga qaramligiga faqat soliq va harbiy askarlarni yuborish bilan cheklangan edi. Bu davrda Maymanadan Temurshohga jo‘natilgan asosiy mahsulotlar ot va qo‘y bo‘lgan, xarajatlar va daromadlar quyidagicha keltirilgan:

- Yer solig‘i orqali yig‘ilgan daromad – 100 000 rupiy
- Vaqf yoki diniy mulklar – 10 000 rupiy
- “Shoh”ning xarajatlari – 35 000 rupiy
- Afg‘on xazinasi uchun yuborilgan mablag‘ – 65 000 rupiy

Natijada bu davrda Maymanadagi o`zbeklar hokimyatini cheklash maqsadida boshqa xalqalarni majburiy ravishda ko`chirib keltiradi. Masalan, XIX asr oxiriga kelib, shaharda o‘zbeklar bilan bir qatorda turkmanlar, aymoqlar, arablar va balujlar ham yashagan114. 1880-yillar oxiriga kelib, bu yerga ko‘plab afg‘onlar (pushtunlar) ham ko‘chirilgan va ular keyingi o‘n yilliklarda katta ta’sir va siyosiy kuchga ega bo‘la boshlagan

1888-yilda Turkistondagi afg‘on noibi Is`hoqxon isyon ko‘taradi va o‘zini Afg‘oniston amiri deb e’lon qiladi115. U o‘zbeklarni o‘z tarafiga og‘dirish uchun Chahor Viloyat Afg‘onistondan mustaqil bo‘ladi deb va’da beradi, oqibatda bu xabar esa mintaqa aholisi tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olinadi116. Biroq Husaynxon bu isyonni tan olmaydi va natijada Husaynxon isyonchilar tomonidan jazoga tortilib qamoqqa tashlanadi. Uning Maymanada qolgan o‘g‘li esa isyonchilarni qo‘llab-quvvatlashga qarshi turishda davom etadi. U hatto Maymanadagi afg‘on noibi bilan birgalikda sodiq bo‘lmagan afg‘on askarlarini Hirotga yuborib, u yerda ularni qatl ettirishga erishadi. Is`hoqxon mag‘lubiyatga uchragach, Turkistonda yana qattiq qirg`in barot boshlangan, isyonni qo‘llab-quvvatlaganlar Qobulga surgun qilinadi. Biroq Husaynxonning afg`on amiriga bu sodiqligi uchun mukofot olishga ulgurmaydi, u Is`hoq Xon tomonidan qatl etiladi. Uning o‘rniga o‘g‘li Muhammad Sharif taxtga o‘tiradi va u Abdulrahmonxonni “o‘z podshohi va sohibi” sifatida tan olib, unga sadoqat bilan bo‘yin egadi. Muhammad Sharif bu shartnoma sodiqligini 1892-yilgacha saqlaydi. O‘sha yili u amir buyrug`iga binoan Hazorajotga qo‘shin yuborishi kerak edi. Biroq ushbu qo‘shin isyon ko‘taradi va afg‘on garnizoniga hujum qiladi, lekin isyonchilar Almar yaqinida tezda mag‘lubiyatga uchraydi. Natijada Muhammad Sharif lavozimidan ag‘dariladi hamda Qobulga yuboriladi va Maymana bevosita Qobul nazorati ostiga o‘tadi. Shu bilan Hojixon Mingning avlodlari tomonidan Maymanada hukmronlik davri afg`on amirlari tomonidan tugatildi.

1-jadval. Quyidagi xronologik jadval Maymanadagi merosiy valiylar ketma-ketligi Hojixondan boshlab xonlikda to so‘nggi voliy bekor qilinmaguncha bo‘lgan davrni qamrab oladi

Maymanada hukmronlik qilgan xonlar	Hukmronlik yillari

114 Jonathan L. Lee. The History of Maimana in Northwestern Afghanistan 1731-1893. Iran, Vol. 25 (1987), p.118

115 Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90-е годы XIX в.). М., 1965.-С.385

116 Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90-е годы XIX в.). М., 1965.-С.385

Hojixon Ming	1751-1773
Jonxon	1773-1795
Jonxonning katta o`g`li (ismi noma`lum)	1795
Rahimxon	1790-1798 (1795-1804)
Ahmadxon	1798-1810 (1804-1814)
Aliyorxon	1810-1826 (1814-1830)
Mahmudxon	1826 (1830-1831)
Mizrobxon	1831-1845
Hukumatxon	1845-1847
Hukumatxon II	1847-1862
Husaynxon	1862-1876
Afg`on hukmdori vakili	1876-1879
Dilovarxon	1879-1884
Husaynxon	1884-1889
Vali Muhammadsharifxon	1888-1893
Afg`on hukdorining vakili, shu paytdan boshlab Maymana Afg`on davlatining rasman va amalda viloyatlaridan biri bo`ladi.	1893

Tarixan, Maymana G‘arbiy Turkistonning eng muhim va strategik hududi sifatida ajralib turgan va Nadirshoh davridan boshlab butun mintaqaga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda, Maymananing Turkiston va Afg‘oniston tarixiga qilgan ta’siri zamonaviy tarixchilar tomonidan deyarli e’tiborga olinmagan. Biroq XIX asrda – bu joy haqida ko‘plab noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalganiga qaramay – Maymananing strategik ahamiyati keng tan olingan, hatto uning ustidan nazorat o‘rnatish huquqi borasida raqib davlatlar o‘rtasida da’vo va qarshi da’volar ko‘plab yuzaga kelgan. Shunga qaramay, Maymana valiylari uzoq vaqt mobaynida mustaqil mavqeini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lishgan. 1863-yilda Do‘st Muhammadxon tomonidan Hirotning zabt etilishi natijasida Maymana Turkistondagi yagona mustaqil davlat sifatida yakka qoladi – bu esa uning hukmdorlari uchun so‘nggi bosqichning boshlanishi bo‘ladi. Garchi so‘nggi zabt fuqarolar urushi tufayli kechikkan bo‘lsa-da, shahar qulagach va minglab fuqarolari va askarlari o‘ldirilgach, Maymananing mustaqilligini qayta tiklash umidi deyarli qolmagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Christine Noelle. State and Tribe in Nineteenth-Century Afghanistan: The Reign of Amir Dost Muhammad Khan (1826–1863). London: Routledge, 1998.
2. Lee J.L. The History of Maimana in Northwestern Afghanistan 1731–1893 // Iran. Vol. 25, 1987.
3. Lee J.L. Afghanistan: A History from 1260 to the Present. London: Reaktion Books, 2019.

4. Lee J.L. The “Ancient Supremacy”: Bukhara, Afghanistan and the Battle for Balkh, 1731–1901**.** New York: E.J. Brill, 1996.
5. Lockhart L. Nadir Shah: A Critical Study Based Mainly upon Contemporary Sources**.** London: Luzac & Co., 1939.
6. Fayzullayev A.H. “Afg‘onistondagi turkiy xalqlarning tarixiy-siyosiy mavqeyi (o‘zbeklar misolida)” // Oriental Journal of Social Sciences, vol. 2, no. 2, 2022.
7. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Т.2: Афганистан в новое время**.** М.: Наука, 1965.
8. Vambéry A. History of Bokhara: From the Earliest Period Down to the Present. London: Smith, Elder & Co., 1873.
9. Dupree L. Afghanistan**.** London: Oxford University Press, 1973.
10. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). М.: Наука, 1965

MUHOJIR ZIYOLILARNING “YOSH TURKISTON” JURNALIDA MUNAVVARQORI SIYMOSINING YORITILISHI

Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o‘g‘li – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD,
Email: ***muslimbek@uwed.uz***

Annotatsiya: Maqolada muhojir ziyolilar tomonidan “Yosh Turkiston” jurnalida Munavvarqori Abdurashidxonov siymosining yoritilishi tahlil qilinadi. Mustafo Cho‘qay, Tohir Chig‘atoy va Abdulvahob O‘qtoy maqolalaridagi Munavvarqoriga nisbatan ehtirom, xotira va mulohazalar asosida bu ulug’ shaxsning jadidchilik, milliy maorif va ozodlik g‘oyalaridagi o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov, “Yosh Turkiston”, jurnali, muhojir ziyolilar, jadidchilik, milliy maorif, mustaqillik g‘oyalari, Mustafo Cho‘qay, Abdulvahob O‘qtoy, Tohir Chig’atoy.

Аннотация: В статье анализируется освещение образа Мунавваркори Абдурашидханова в журнале «Йош Туркестан», подготовленное тюркестанскими эмигрантскими интеллектуалами. На основе уважения, воспоминаний и размышлений Мустафы Чокая, Тахира Чигатая и Абдулвахоба Октаю рассматривается роль этого великого деятеля в джадидизме, национальном просвещении и идеях свободы.

Ключевые слова: Мунавваркори Абдурашидханов, журнал «Йош Туркестан», эмигрантская интеллигенция, джадидизм, национальное просвещение, идеи независимости, Мустафа Чокай, Абдулвахаб Октай, Тахир Чигатай.

Annotation: The article examines how the émigré Turkestani intellectuals portrayed Munavvarqori Abdurashidxonov in the journal “Yosh Turkiston.” Based on the respect, recollections, and reflections expressed by Mustafa Chokay, Tahir

Chigatay, and Abdulvahob Oqtoy, the study analyzes Munavvarqori's significant role in Jadidism, national education, and the ideals of freedom.

Keywords: *Munavvarqori Abdurashidxonov, the journal "Yosh Turkiston", émigré intellectuals, Jadidism, national education, independence ideas, Mustafa Chokay, Abdulvahob Oqtoy, Tahir Chigatay.*

Turkiston jadid taraqqiyparvarlari ichida Munavvarqori Abdurashidxonov alohida ajralib turadi. U o'zining yorqin faoliyati bilan bir paytning o'zida pedagog, siyosat va jamoat arbobi, hamda "xodimul-millat" sifatida sovet hokimiyatining zulm va istibododi sifatida Turkistonni tark etgan yuzlab muhojir ziyolilar qalbida ham chuqur hurmat va e'tibor qozongan edi. Shu boisdan ham bir guruh muhojir ziyolilar tomonidan Parij va Berlin shaharlarida 1929-1939-yillarda chop etilgan "Yosh Turkiston" jurnalida Munavvarqori haqida yorqin xotira va maqolalar nashr etib borilgan.

Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov 1931-yilda "Milliy ittihod" ishi doirasida qamoqqa olinib, keyinchalik Moskvada otib tashlangach, bu to'g'rida o'ziga yetib kelgan xabarga Mustafo Cho'qay dastlab ishonmadi, aniqrog'i ishona olmadi: "Xususiy muxbirimiz uzoq Hindistondan bizga Munavvarqorining Sovet hukumati tomonidan otib o'ldirilganligi haqinda qisqacha bir xabar yo'llamishdir. Bu xabar bizga dekabr oyining boshlarida kelib yetushgan esa-da, shoyad to'g'ri chiqmas deb ko'nglimizda saqladig'imiz umid ila qo'shimcha ma'lumot kutib turg'on edik. Biz Sovet hukumatining umuman milliy ruhga, xususan turkchilikka qarshi ko'rinishda hech bir jinoyatdan tortinmayoturg'onlig'ini juda yaxshi bilamiz. Buningla barobar biz Munavvardan xayolanda ayrila olmadik. Faqat, birinchi xabarni tasdiqlayturg'on ikkinchi bir maktub ham yetib keldi… Munavvarqori Sovet hukumati tomonidan qatl etilgan" [1, – B. 2-3.].

Mustafo Cho'qay Munavvarqorini bolsheviklari nega o'ldirganliklari to'g'risidagi savolga javob izlab o'tirishning hojati yo'qligini, javob shundoq ham aniq ekanligini urg'ulab, bu buyuk siymoning o'ldirilishining birgina sababi "Munavvar" shaxsiyat ekanligidaligini ta'kidladi. Haqiqatdan ham Munavvarqori Turkistonda milliy davlatchilik g'oyasining eng matonatli, sabotli va eng nomusli targ'ibotchilaridan biri edi.

Shu bilan birga Tohir Chig'atoyning "Yo'lboshchimiz Munavvarqori" nomli maqolasi ham muhim ahamiyatga egadir. Chig'atoyning ushbu maqolasi "Yosh Turkiston" jurnalining 1934-yil 50-sonida chop etilgan bo'lib, unda muallif Turkiston jadidlarining yetakchilaridan biri bo'lgan Munavvarqorining o'lka taraqqiyparvarlik harakatida tutgan o'rni to'g'risida mulohazalar yuritgan. Ushbu maqolada Tohir Chig'atoy: "Turkiston xalqi ichidagi yangi uyg'onish harakatining har tarmog'ini tekshira boshlasangiz unga Munavvarqorining ismisiz kirib bo'lmaydir. Xalqimizning kirib qoldig'i falokatini, bu falokat yo'lining xatarlarini to'g'ri ko'rib, unga qarshi choralarni qidira boshlag'on kishi Munavvarqori edi. Ichida bo'lib turdig'imiz asrning boshlarida yurtimizg'a kirib kela boshlag'on "Usuli-jadid" maktablarining haqiqiy shaklini Munavvaqori maydong'a qo'ydi. U hech bir vositasiz boshladig'i bu ishni xoh rus hukumati, xoh mutaassiblar tomonidan ko'rsatilgan qarshiliqlar, og'irliq, haqorat, yegan tayoqlarig'a qaramasdan davom ettirdi. U o'z matonati, o'z e'tiqodi orqasinda oz vaqt ichida bu

oqimni (jadidchilikni – M.Alijonov) yoqlovchi bir xalqni va uni qalbida tashuvchi yoshlar dastasini yetishtira bildi… Toshkentdagi Munavvaqorining o‘zi tarafidan idora etilgan ibtidoiy, rushdiy namuna maktabi boshida bo‘lg‘oni holda yildan yilg‘a ortib mamlakatning har tarafina yoyilg‘on jadid maktablari bir tarafdan eski maktablar, ikkinchi tomondan hukumatning yerli xalq uchun tashkil qilgan maktablarga qarshi bir tahlika shaklini olmishdir” [2, – B. 22.] deb yozish bilan birga, yangi usul maktablari uchun Munavvarqorining o‘zi darsliklar tuzganligini yozdi.

Munavvarqorining “Na’muna” maktabida tahsil olgan Abdulvahob O‘qtoy ham “Yosh Turkiston” jurnalida o‘z maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Abdulvahob O‘qtoyning ushbu jurnalda jami 84 ta maqolasi e’lon qilingan bo‘lib, ulardan 20 tasini “Abdulvahob”, 20 tasini “Janay”, 25 tasini “To‘qtamish o‘g‘li” va 19 tasini esa “Iltar” taxalluslari ostida chop ettirgan [3, – B. 46-47].

Ayniqsa Abdulvahob O‘qtoyning ustozi Munavvarqoriga bag‘ishlangan maqolasi muhim ahamiyatga egadir. Abdulvahob ushbu maqolasida XIX asr turk xalqiga to‘rt buyuk shaxsiyat yetishib chiqqanligini qayd etib, ulardan biri Munavvarqori ekanligini ta’kidlagan. Muallif ushbu maqolasini 1931-yilda bolshevik jallodlari tomonidan otib tashlangan milliy ziyoli Munavvarqorining xotirasiga bag‘ishlagan. U Munavvarqoriga ta’rif berar ekan “Jaholat uyqusina botmish turklarni uyg‘otibdir va millatga najot yo‘lini ko‘rsatibdir” deb yozadi va Munavvarqorini Ismoil G‘aspiralidan keyingi eng mashhur siymo o‘laroq keltiradi. Xususan, u ushbu mo‘tabar shaxs haqida quyidagilarni yozadi “Munavvarqori bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyot va milliy mafkurachilikning sog‘lom urug‘larini sochg‘on va ming turli og‘irliq va to‘sqinliqlarg‘a qaramasdan bularni ko‘kartirishg‘a muvaffaq bo‘lg‘on bir zotdir. Uning ochg‘on milliy maktablari Turkistonning minglarcha bolalarig‘a milliy ruh bergan va ularni yurt ham millat sevgisi ila qurallantirg‘ondir. ushbu satrlarni qoralovchining o‘zi ham Munavvarqorining Toshkentdagi “Namuna” maktabida 6 yil o‘qig‘ondir. Shuning uchun men, ustozimiz Munavvarqorining Turkistonimizning har tomonig‘a yoyg‘on jadid maktablarining ich yuzini yaxshiroq taniyman desam yanglishmasam kerak. Bizning o‘z Turkiston bolalari, turk bolalari, Chingizxon va Temur o‘g‘illari ekanligimizni ilk topqir zehnimizga o‘runlashtirg‘on va bizga yurt ham millat sevgisini bergan maktablar shul “Na’muna” kabi milliy o‘choqlar bo‘lg‘ondir… Munavvar, o‘z ismiga yarashaturg‘on nodir bir xilqat edi. Uning fitriy zakovatidan sochilg‘on nurlar Turkistonning qora muhitini ko‘pdan yorug‘lantirib, xalqimizning yumuq ko‘zlarini ochmishdir. Uyg‘ongan xalqimiz o‘z yo‘lini aniq belgilab, o‘z milliy a’moli orqasidan yugurmakdadir. Dushmanning qilichi, to‘pi uni bu yo‘ldan to‘xtata olmadi… Buyuk ustozimiz Munavvarqorining pok ruhiga fotihalar…” [4, – B. 26.].

Abdulvahob O‘qtoyning yuqoridagi so‘zlaridan yaqqol ko‘rinib turibdiki, uning o‘z ustozi bo‘lmish Munavvarqoriga nisbatan bo‘lgan mehr-muhabbati, hurmati cheksiz bo‘lgan. Buni biz ushbu maqolasi ostiga “Burung‘i “Na’muna” maktabi o‘quvchilaridan: Abdulvahob” deb imzo qo‘yganligidan ham bilishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki, Munavvarqorining yodi va siymosi doimo muhojir turkistonliklar qalbida saqlanib keldi. U tomonidan ishlab chiqilgan hamda amaliyotga izchil joriy etilgan Turkiston mustaqilligi g’oyasi yillar mobaynida zulm va istibdod sabab aziz vatanlarini tashlab chiqib ketishga majbur bo‘lgan insonlar uchun dasturul-amal vazifasini o‘tab keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) M. Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50. –B. 2-3.

2) Tohir (Tohir Chig‘atoy). Yo‘lboshchimiz Munavvarqori // “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50. – B. 22.

3) Ceren Celasun. Türkistanli aydinlardan Abdulvahap Ishakoğlu Oktay (1904-1968): Hayati ve eserleri. Yüksek Lisans Tezi. –Istanbul: 2015. – S. 46-47.

4) Abdulvahob O‘qtoy. Ustodimiz Munavvarqori “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50. – B. 22.

ABDULLA NOSIROV VA AL-MARJONIYNING “G‘URFAT AL-HAVOQIN” QO‘LYOZMA NUSXASI HAQIDA

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0003-5654-3055
+998998476050
nasirillayevanodira@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahobiddin bin Bahouddin al-Marjoniy (1818–1889) ning “G‘urfat al-havoqin li-‘irfat al-xavaqin” asarining ilmiy ahamiyati hamda uning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondiga kelib tushish tarixi yoritilgan. Asarning bosma nusxasi yirik bibliograf, manbashunos olim – Abdulla Nosirov sa’y-harakatlari bilan ko‘chirtirilgani, olimning institut fondini boyitishdagi xizmatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “G‘urfat al-havoqin”, “Shuro” jurnali, Abdulla Nosirov, biobibliografiya, tarixiy asar, qaydlar, Qozon, Qoraxoniylar, Sharqshunoslik instituti, Shahobiddin al-Marjoniy.

Аннотация: В статье рассматривается научное значение труда Шихабаддина ибн Бахауддина аль-Марджани «Гурфат аль-хавокин ли-’ирфат аль-хавакин» и история поступления его в фонд Института востоковедения Академии наук Узбекистана. Отмечается, что печатный экземпляр произведения был переписан по инициативе известного библиографа и источниковеда Абдуллы Носирова, чья деятельность внесла значительный вклад в пополнение и сохранение рукописного фонда института.

Ключевые слова: «Гирфат аль-хавокин», «Шуро» журнал, Абдулла Носиров, биобиблиография, Институт востоковедения, историческое произведение, записи, Казань, Караханиды, Шихабаддин аль-Марджани.

Abstract: This article examines the scholarly significance of Shahabuddin ibn Bahauddin al-Marjani's work "Gurfat al-havaqin li-'irfat al-xavaqin" and the history of its acquisition by the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan. It is noted that the printed copy of the work was transcribed through the efforts of the prominent bibliographer and source researcher Abdulla Nosirov, whose contributions greatly enriched and preserved the Institute's manuscript collection.

Keywords: "Gurfat al-havaqin", "Shuro" journal, Abdulla Nosirov, biobibliography, Carakhanids, historical work, Institute of Oriental Studies, Kazan, notes, Oriental studies, Shahabuddin al-Marjani.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi O'rta Osiyodagi eng yirik va boy ilmiy manba markazlaridan biri hisoblanadi. Uning xazinasida Sharq xalqlari ilm-fani va madaniyatining deyarli barcha davrlariga oid qo'lyozma hamda bosma asarlar jamlangan. Fond tarkibida arab, fors, turkiy, urdu, hind, xitoy va boshqa tillarda yaratilgan ko'plab nodir manbalar saqlanadi. Mazkur to'plamlar orasida Tatariston, Ozarbayjon, Turkiya va boshqa mintaqalarda tug'ilib o'sgan olimlarning asarlari ham alohida o'rin tutadi.

XIX asr va XX asr boshlarida ko'plab tatar olimlari o'z diniy va ilmiy bilimlarini O'rta Osiyoda, xususan, Buxoro hamda Samarqand madrasalarida egallaganlar [Мухаммадаминов 2019:199]. Ular bu yurtlarda ilm olish bilan birga, Movarounnahr tarixiga, madaniy hayotiga, ijtimoiy muhitiga chuqur qiziqish bildirganlar. Ba'zilar esa o'z kuzatuvlariga tayangan holda O'rta Osiyoning siyosiy va madaniy tarixini yorituvchi asarlar yaratganlar. Shunday olimlardan biri qozonlik – Shahobiddin ibn Bahouddin al-Marjoniy**117** bo'lib, uning "G'urfat al-havoqin li-'irfat al-xavaqin" nomli asari O'rta Osiyo tarixiga oid tatar manbalaridan biri sanaladi.

Asarning ilmiy ahamiyati: Qoraxoniylar tarixini yoritishdagi o'rni

"G'urfat al-havoqin li-'irfat al-xavaqin**"** ("غرفة الحواقين لعرفة الخواقين"- "Xoqonlar haqidagi bir hovuch bilimlar") asari XIX asr o'rtalarida yozilgan bo'lib, Shahobiddin al-Marjoniyning eng dastlabki tarixiy izlanishlaridan biri hisoblanadi. Asar 1864-yilda Qozon universiteti nashriyotida kam bosmada nashr etilgan. Unda muallif O'rta Osiyo, xususan, Qoraxoniylar davlati (X–XII asrlar) tarixiga oid manbalardan foydalangan holda hukmdorlar sulolasi, siyosiy jarayonlar hamda ilmiy-madaniy muhit haqida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Asar o'z davrida turkiy xalqlar tarixini o'rganishda manbashunoslik yondashuvining dastlabki namunalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Marjoniy bu asarni Buxoro va Samarqand madrasalarida tahsil olayotgan davrida ($18^{38–1849)}$**,** O'rta Osiyo kutubxonalarida mavjud bo'lgan boy qo'lyozma manbalar asosida yozgan [Юзеев 2000:60].

117 Shihobiddin ibn Bahouddin al-Marjoniy (1818–1889) — XIX asrning yirik tatar olimi, tarixchi, faqih va islohotchi mutafakkir. U haqida batafsil: Халидов А. Марджани. В: Ислам на территории бывшей Российской империи. Вып. 2. Спб. 1999. С. 59–61; Шамильоглу Ю. Шигабутдин Марджани. — Казань: Татарское книжное издательство, 2019. — 239 с.

Asar 33 sahifadan iborat risola koʻrinishida boʻlishiga qaramay, mazmunan nihoyatda boy va ilmiy ahamiyatga ega manbadir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "Gʻurfat al-havoqin" oʻz davrida nafaqat tatar tarixshunosligi, balki Yevropa sharqshunosligi uchun ham muhim bosqich boʻlgan. Chunki Marjoniyning izlanishlaridan oldin Oʻrta Osiyoning ilk islomlashuvi va Qoraxoniylar davriga oid uzuq-yuluq ma'lumotlar faqat ayrim turk manbalaridan, jumladan, Munajjimboshi[118]ning "Sahaif al-axbar" asaridan ma'lum edi [Ахунов 2019 :152].

Shu bilan birga "Marjoniyning ushbu asari XX asr boshlarida V.V. Bartoldning (1869-1930) "Turkiston v epoxu mongol'skogo nashestviya" asari chop etilgungacha Qoraxoniylar tarixi va gʻarbiy uygʻurlar sulolasi haqidagi eng toʻliq yozma manbalardan biri hisoblangan [Амирханов 2004 :256].

Asarda Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi, ularning siyosiy hokimiyatni egallash jarayoni, hukmdorlar nasabnomasi va ularning harbiy hamda ma'naviy faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Marjoniy oʻz asarida Ibn al-Asir, Ibn Xallikon, as-Sam'oniy, ash-Shahrastoniy, Yoqut al-Hamaviy, al-Utbiy, al-Hamadoniy, Abduqodir al-Qashiy kabi mashhur tarixchilarning manbalaridan foydalanadi.

Asarning OʻzR FA Sharqshunoslik instituti fondiga kelib tushishi tarixi.

Bugungi kunda Shahobiddin al-Marjoniyning "Gʻurfat al-havoqin li-'irfat al-xavaqin" nomli bosma asarining qoʻlyozma nusxasi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida, 5741 raqam ostida saqlanadi. Asarning kodikologik ma'lumoti: matn nasta'liq xatida fabrika qogʻoziga yozilgan, varaqlar soni – 24 ta. Asarning yakuniy kolofon qismiga koʻchiruvchisi Abduqodir Murod al-Xabboz ash-Shoshiy deb qayd etilgan.

Ushbu nusxa institutning ilmiy xodimi Abdulla Nosirov (1889-1987) sa'y-harakatlari natijasida koʻchirtirilgani bilan ahamiyatli. Mazkur kitobning ichki qismiga A. Nosirov oʻz qoʻli bilan asar haqida quyidagi qaydni yozib qoldirgan:

"1941-yil Navoiy kutubxonasida ishlash davrimda shu "Gʻurfat al-havoqin" nomli kitobning bosma nusxasini Qozon shahridagi kutubxonadan pochta orqali oldirib, 5741 nomerlik qalamiy shu nusxani Abduqodir Murodov domlaga koʻchirtirdim. U bosma nusxani yana Qozonga pochta orqali qaytarib yubordim. Bu kitob haqida "Shuro" jurnalida oʻqigandim. Oʻrta Osiyoga aloqalik asar deb yozilgan ekan. Mana shu koʻchirtirish voqeasini 41 yildan keyin shu joyga yozib qoʻydim. Sharqshunoslik institutining ilmiy xodimi Nosirov Abdulloh. 21/IV-1982 Toshkent"[119].

Mazkur yozuv shundan dalolat beradiki, Abdulla Nosirov Sharqshunoslik institutining fondini boyitish maqsadida nafaqat mavjud qoʻlyozmalarni saqlash,

---

118 Ahmad Dada Munajjimboshi (1631-1702) — Usmonli tarixchisi, munajjim va adib. 1665-yilda Sulton Mehmed IV saroyining bosh munajjimi boʻlgan. Uning eng mashhur asari — arab tilida yozilgan Jāmiʿ al-duwal ("Davlatlar majmuasi") boʻlib, Ahmad Nedin tomonidan turk tiliga Sahāif al-akhbār ("Xabarlar sahifalari") nomi bilan tarjima qilingan. Asar Odam Atodan 1672-yilgacha boʻlgan umumiy tarixni qamrab oladi.
Manba: Ahmed Dede Müneccimbaşı // Encyclopaedia Britannica. *https://www.britannica.com/biography/Ahmed-Dede-Muneccimbasi*

119 Shahobiddin bin Bahouddin al-Marjoniy. Gʻurfat al-havoqin li-'irfat al-xavoqin. OʻzRFASHI asosiy fondi. № 5741.

balki boshqa mintaqalardagi manbalarni topish, ko‘chirtirish va ilmiy muomalaga kiritish ishlarini ham amalga oshirgan. A.Nosirov Marjoniyning “G‘urfat al-havoqin” asarini shaxsan ilmiy ahamiyatga ega deb bilgan. “Shuro”[120] jurnalida u haqida o‘qiganidan so‘ng, asarni O‘rta Osiyo tarixiga aloqadorligi uchun institutning ilmiy xodimi xattot – Abduqodir Murodov[121]ga ko‘chirtirish maqsadida bergan. U o‘z eslatmasida bu jarayonni oradan qariyb 41 yil o‘tib, 1982-yil 21-aprelda asarga qayd etib qo‘ygan. Shu tarzda Marjoniyning “G‘urfat al-havoqin” asari O‘zbekiston ilmiy muhitiga kirib kelgan va bugungi kunda institut fondida saqlanib qolgan.

Abdulla Nosirov va institut fondini boyitishdagi xizmatlari

Abdulla Nosirov (1889–1987) (Nosihiy) [Nasiriilayeva 2025:61-68] XX asr o‘zbek bibliografiya va sharqshunoslik tarixida muhim o‘rin tutgan olimlardan biridir. U 1889-yilda Toshkentda tug‘ilib, umrining asosiy qismini qo‘lyozmalarni to‘plash, tavsiflash va kataloglashtirish ishlariga bag‘ishlagan. A.Nosirov ilmiy faoliyatini dastlab kutubxonachilik sohasida boshlagan bo‘lib, o‘z davrining eng yirik ilmiy-ma’rifiy markazlari – “Turon” kutubxonasi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonalarida mehnat qilgan.

1943-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida Sharqshunoslik instituti tashkil etilgach, A.Nosirov mazkur muassasaga ishga qabul qilinadi va umrining oxirigacha shu yerda ilmiy faoliyat olib boradi. U institutda qo‘lyozmalarni tartibga solish, bibliografik kartotekalar tuzish, olimlar hayoti va asarlari haqida biobibliografik ma’lumotlar yig‘ish bilan shug‘ullangan. Abdulla Nosirovning sharq qo‘lyozmalari, manbashunoslik va bibliografiya sohasidagi fidokorona mehnati natijasida yuzlab nodir manbalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida Abdulla Nosirovga tegishli 128 ta daftar, “Bilkat” [Nasirillayeva 2024:26-28] asari va taqvim kolleksiyasi saqlanmoqda. Sharqshunoslar orasida *“Abdulla Nosirov daftarlari”* [Xo‘djayeva 2002; Nasirillayeva 2025:97-104] deb ataluvchi bu daftarlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan fors, arab, turk, o‘zbek, tatar, uyg‘ur, ozarbayjon, turkman, urdu tillaridagi qo‘lyozma va toshbosma asarlar asosida jamlangan ilmiy materiallarni o‘z ichiga oladi.

Shuni alohida aytish kerakki, Abdulla Nosirov o‘z kutubxonashunoslik faoliyati davomida ko‘plab asarlar ustida ishlagan va ular orasiga ilmiy izohlar –

120 “Shuro” jurnali — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan eng nufuzli tatar ziyolilari nashrlaridan biridir. U 1908–1918-yillar davomida Qozonda nashr etilgan bo‘lib, islomiy islohot, ta’lim, madaniyat, adabiyot va tarix masalalariga oid maqolalarni muntazam chop etgan. Jurnal tatar, turk va O‘rta Osiyo ulamolari o‘rtasida ilmiy va diniy fikr almashish maydoni bo‘lgan. Uning sahifalarida Shihobiddin Marjoniy, Rizo Faxriddin, Yusuf Oqchora, Ismoil Gaspirali kabi ziyolilarning g‘oyalari keng yoritilgan.

121 Abduqodir Murodov (1893–1974) – o‘zbek sharqshunosi, xattot, qo‘lyozmalar bo‘yicha mutaxassis. U 1938-yildan boshlab O‘zbekiston SSR Davlat ommaviy kutubxonasida, keyinchalik Sharq qo‘lyozmalari institutida faoliyat olib borgan. Murodov kutubxona fondidagi noyob qo‘lyozmalarni tartibga solish, tiklash, nusxalash, katalog tuzish va kaligrafik jihatdan restavratsiya qilish ishlarida muhim rol o‘ynagan. Batafsil: Ирисов А.Тошкентда арабшуослик. Қискача очерк. - Тошкент : Фан, 1964. – 58-59;

qaydlar[122] kiritgan. Ushbu qaydlarda asarning muallifi, nomi, tili, kotibi, yozilgan davri va saqlanish joyi haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Nosirov qaydlari o‘z mazmuni jihatidan foydali qaydlar turiga kiradi, chunki ular manbashunoslikda qo‘lyozmani aniqlash, tavsiflash va ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Sharqshunoslik institutida Nosirov tomonidan qo‘lyozma va bosma asarlarga yozilgan 300 ga yaqin shunday qaydlar saqlanmoqda.

XULOSA

Shahobiddin al-Marjoniyning “G‘urfat al-havoqin li-’irfat al-xavaqin” asari XIX asrda yozilgan muhim tarixiy asarlaridan biridir. Unda O‘rta Osiyo tarixining muhim davri – Qoraxoniylar sulolasi davlatchiligi, siyosiy hayoti va madaniy taraqqiyotiga oid qimmatli ma’lumotlar mujassamdir. Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, u Marjoniyning turkiy xalqlar tarixini mustaqil manbashunoslik yondashuvi asosida yoritishga bo‘lgan dastlabki urinishlaridan biri sifatida qadrlanadi. Marjoniy asarda o‘z davrida mavjud bo‘lgan arab, fors va turkiy manbalarga tayangan holda tarixiy hodisalarni izchil, manba asosida tahlil qilgan.

Ushbu asarning O‘zbekiston ilmiy muomalasiga kirib kelishida Abdulla Nosirovning xizmatlari beqiyosdir. Uning tashabbusi nafaqat bir manbaning saqlanib qolishiga, balki o‘zbek sharqshunosligida tatar ilmiy merosining o‘rganilishiga ham zamin yaratgan.Mazkur maqolada o‘rganilgan manba nafaqat tarixshunoslik, balki madaniy aloqalar, qo‘lyozma merosi va manbashunoslik an’analarining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаммадаминов С. Рукописное наследие татарских ученых в фондах Института востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. // Журнал исследований ислама**,** том 9, №1–2, 2019. – С. 199.
2. Халидов А. Марджани. В: Ислам на территории бывшей Российской империи. Вып. 2. Спб. 1999. С. 59–61;
3. Шамильоглу Ю. Шигабутдин Марджани. – Казань: Татарское книжное издательство, 2019. – 239 с.
4. Юзеев А. Н. «Гирфат аль-хавакин» Ш. Марджани как источник по истории Средней Азии X–XIII вв. // Ош и древности Южного Кыргызстана. Вып. V. – Издательство «Мурас», 2000. – 60 с.
5. Ахунов А. Проблема исламизации Поволжья в трудах Ш. Марджани // Журнал исследований ислама, т. 9, № 1–2, 2019. – С. 152.
6. Амирханов Р.У. Дореволюционная татарская историография: востоковедческо-тюркологические аспекты // Гасырлар авазы – Эхо веков. 2004. № 3–4. – С.256.
7. Shahobiddin bin Bahouddin al-Marjoniy. G‘urfat al-havoqin li-‘irfat al-xavoqin. O‘zRFASHI asosiy fondi. № 5741.

[122] Qayd — (quyud deb ham nomlanadi) bu biror ma’lumot, voqea, sana, ism yoki holatni yozma tarzda hujjatlashtirish, ya’ni “yozib qo‘yish” ma’nosini bildiradi. So‘z arabcha “قَيَّدَ” (qayyada) fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, “bog‘lamoq, ro‘yxatga yozmoq, qayd etmoq” ma’nolarini anglatadi. Qo‘lyozma manbashunosligida “qayd” tushunchasi, odatda, asarning ichki qismida muallif, kitob egasi yoki boshqa shaxslar tomonidan yozib qo‘yilgan turli izoh, sharh, eslatma va belgilarga nisbatan ishlatiladi. Bunday qaydlar asarning yaratilish tarixi, o‘qilish jarayoni, egalik va saqlanish holatini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi.

8. Ирисов А.Тошкентда арабшуослик**.** Қискача очерк. - Тошкент : Фан, 1964. – 58-59;

9. Nasirillayea N. The life and work of bibliographer Abdulla Nosirov (1899-1987) // « Turkic historical studies » scientific journal, №1 (5)-2025. – B.61-68.

10. Nasirillayeva N. Bibliograf Abdulla Nosirov va uning “Bilkat” asari haqida // «Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. –Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – B.26-28.

11. Xo‘djayeva. U. “A.Nosirov daftarlari” o‘zbek matbuoti tarixini o‘rganishda muhim manba. // “Sharqshunoslik” jurnali, № 11. – Toshkent: Fan, 2002.; Nasirillayeva N. Bibliograf Abdulla Nosirovning yozma merosi va uning tasnifi // «Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. –Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2025. – B.97-104.

ИБРАГИМ МУМИНОВ - КАК ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФСКОЙ ШКОЛЫ

Муминов Темур Аброр угли
Ташкентский университет прикладных наук и.о. дотцент кафедры“История и общественные науки”
temurmominov7@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekistonda sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida zamonaviy falsafa fanining shakllanishi Ibrohim Mo‘minovning nomi bilan bog‘liq. Mazkur maqolada Ibrohim Mo‘minov tomonidan zamonaviy o‘zbek falsafa maktabiga asos solinish bosqichlari tahlil etilgan bo‘lib, XX asr o‘zbek fanida falsafaning alohida fan sifatida shakllanish jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, ratsional mag‘z, falsafa va huquq instituti

Аннотация: Становление науки современной философии в первые десятилетия советской власти в Узбекистане связано с именем Ибрагима Муминова. В данной статье анализируются этапы становления современной узбекской философской школы Ибрагима Муминова и раскрываются процессы становления философии как отдельной науки в узбекской науке XX века.

Ключевые слова: Институт философии, социально-философской мысли, рациональной магии, философии и права.

Abstract: The development of modern philosophy in Uzbekistan during the first decades of Soviet rule is associated with the name of Ibrahim Muminov. This article analyzes the stages of development of Ibrahim Muminov's modern Uzbek

philosophical school and reveals the processes of philosophy's emergence as a distinct discipline in 20th-century Uzbek scholarship.

Keywords: Institute of Philosophy, Social and Philosophical Thought, Rational Magic, Philosophy and Law.

Самарканд дорулфун сыграл большую роль в становлении Ибрагима Муминова как ученого-философа. Именно в Самарканде Ибрагим Муминов сформировался как ученый-философ, и здесь были заложены корни современной узбекской философской школы. Тот факт, что Саид Шермухаммедов, Наим Гоибов, Музаффар Хайруллаев, ставшие впоследствии известными философами Узбекистана, также получили образование в этом же университете, подтверждает правильность нашего мнения.

Ибрагим Муминов пришел в Академию наук – с 1955 года он начал практическую работу по формированию современной узбекской философской школы. Потому что в этот период в системе Академии наук Узбекистана не проводились научные исследования в области философии. Поэтому по его инициативе в 1955 году при Институте истории и археологии был создан Институт философии, объединяющий специализированные, молодые научные кадры и аспирантов для изучения вопросов философии.

С середины 1950-х годов в Академии наук стали расширяться исследования по истории социально-философской мысли Узбекистана. Коллективом философов под руководством Иброхима Муминова был издан сборник мудрых мыслей, отобранных из трудов среднеазиатских мыслителей. Подготовлены к изданию труды, характеризующие философию Мукими, Фурката и других представителей прогрессивной мысли Узбекистана. Также исследование мировоззрения Бедиля было опубликовано Ибрагимом Моминовым. [1 Абдуллаев Х.М. УзССР. – Ташкент, 1958. С.107-108]

В 1957 году по инициативе Иброхима Муминова на базе Отдела философии и права Института истории и археологии был создан Отдел философии и права Президиума Академии наук Узбекистана. В 1957 году сотрудники этого отдела под руководством Иброхима Муминова подготовили и издали книгу под названием «Материалы по передовой общественной и философской мысли Узбекистана». В 1958 году на базе Отделения философии и права Академии наук Узбекистана был создан Институт философии и права Академии наук Узбекистана. Назначенный первым директором этого института Иброгим Муминов будет отвечать за создание его системы и научные исследования. [2 Академик Иброҳим Мўминов: Тошкент, 1993. 6-бет].

Он внес большой вклад в организацию и управление Институтом философии и права, подготовку молодых специалистов в области философии, издание философской литературы [3 Академик Иброҳим Мўминов: Тошкент, 1993. 6-бет] и сыграл важную роль в создании философской школы в Узбекистане и воспитании целого поколения современных философов.

Философы во главе с Ибрагимом Муминовым внесли большой вклад в развитие науки республики. Одним из основных направлений их деятельности было изучение истории философской и общественной мысли народов Востока, прежде всего Средней Азии, включая жизнь и творчество крупнейших мыслителей и учёных. Были опубликованы подробные очерки об Абу Насре аль-Фараби и Абу Райхане аль-Бируни, описывающие их мировоззрение и отличительные особенности. [4 Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси: Фан, 1993. - 35-б].

В частности, в 1959 году кафедрой философии Института философии и права были подготовлены и изданы на узбекском языке «Материалы по истории передовой социально-философской мысли в Узбекистане». В них были включены примеры из трудов ряда мыслителей, в том числе Абу Насра Фаруки, Абу Али ибн Сино, Абу Райхана Беруни, Омара Хайяма, Мирзо Улугбека, Мирзо Абдулкадира Бедиля. Примечательно, что некоторые части материалов по трудам Абу Насра Фароби, Омара Хайяма и Мирзы Абдулкадира Бедиля, а также научной деятельности Абу Али ибн Сины переведены с арабского и персидско-таджикского языков на узбекский язык и публикуются впервые. В этой связи изучение и усвоение естественнонаучного и социально-философского наследия наших мыслителей прошлого, перевод их на узбекский язык, их пропаганда и поощрение также напрямую связаны с именем Ибрагима Муминова [5 Академик Иброҳим Мўминов: Тошкент, 1993. 6-бет].

Говоря о развитии социальных и гуманитарных наук в Узбекистане, было подчеркнуто, что основным направлением области философии является изучение истории философской и общественной мысли народов Востока, в первую очередь народов Средней Азии. [6 Академии наук Республики Узбекистан Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С.32].

Основателем этого направления в Узбекистане, несомненно, является Иброхим Муминов.

Деятельность школы социально-философских наук, основанной Иброхимом Муминовым, в системе науки Узбекистана:

- Изучить философское, образовательное и социально-политическое наследие народов Центральной Азии;
- Изучить историю развития социально-философской мысли в Узбекистане от средневековья до наших дней;
- Изучить процессы ассимиляции научных и философских идей народов Средней Азии с научными и философскими идеями стран зарубежного Востока;

Эта школа изучает философские проблемы отдельных дисциплин, аспекты и категории теории познания, диалектические законы и особенности их проявления в различных областях науки, в первую очередь в истории научно-технического прогресса и развития науки в Узбекистане. Также в центре внимания научных исследований Узбекистана находится изучение общественно-политических изменений, национальных и этнических проблем, философских аспектов взаимоотношений личности и общества, различных

социальных слоев и сил. [7 Академии наук Республики Узбекистан Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С.169].

В заключение следует отметить, что Иброхим Муминов по праву считается создателем современной узбекской философской школы благодаря своему упорному труду и исследованиям в 40-х и 50-х годах XX века. Это основано, прежде всего, на изучении научного наследия мыслителей Центральной Азии, возведении философии в ранг академической дисциплины и продолжении научных традиций, начатых ученым, его учениками.

Список использованной литературы:

1. Абдуллаев Х.М. 40 лет советской науки в Узбекистане. Изд-во АН УзССР. – Ташкент, 1958. С.107-108.

2. Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. 6-бет

3. Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. 6-бет

4. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси 50 йил. Тошкент: Фан, 1993. - 35-б

5Академик Иброҳим Мўминов (мақолалар ва хотиралар). – Тошкент, 1993. 6-бет

6. Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С.32

7. Академии наук Республики Узбекистан 50 лет. – Ташкент: Изд-во «Фан», 1993. С.169

O‘ZBEKISTON SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI ASOSIDA O‘RGANILISHI (XIX–XX ASRLAR)

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: *bmamatqulovpmqarshi@gmail.com*
+99891-643-17-20

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston sanoat rivojlanishini XIX–XX asrlarda tarixshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari asosida o‘rganadi. Tadqiqot davomida milliy va xorijiy arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va davrning ilmiy asarlari tahlil qilinadi. Maqolada sanoatning turli sohalaridagi o‘sish jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, shuningdek, davlat siyosati va tashqi ta’sirlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, tarixshunoslik va manbashunoslik metodlarining ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va chegaralari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, sanoat rivojlanishi, XIX–XX asrlar, tarixshunoslik, manbashunoslik, iqtisodiy tarix, arxiv materiallari.

Аннотация: В статье рассматривается развитие промышленности Узбекистана в XIX–XX веках на основе историко-источниковедческого подхода. В ходе исследования анализируются национальные и зарубежные архивные материалы, исторические документы, статистические данные и научные работы соответствующего периода. Рассматриваются процессы роста различных отраслей промышленности, экономические и социальные факторы, а также государственная политика и внешние влияния. Особое внимание уделено применению историко-источниковедческих методов в научных исследованиях, их преимуществам и ограничениям.

Ключевые слова: Узбекистан, развитие промышленности, XIX–XX века, историческое исследование, источниковедение, экономическая история, архивные материалы.

Abstract: This article examines the industrial development of Uzbekistan in the 19th–20th centuries based on historiographical and source-based approaches. The study analyzes national and foreign archival materials, historical documents, statistical data, and contemporary scholarly works. The article explores the growth of various industrial sectors, economic and social factors, as well as state policies and external influences. In addition, the use of historiographical and source-based methods in research, along with their advantages and limitations, is highlighted.

Keywords: Uzbekistan, industrial development, 19th–20th centuries, historiography, source studies, economic history, archival materials.

Kirish.

O‘zbekistonning boy va rang-barang tarixiy merosi, ayniqsa, o‘zbek davlatchiligining rivojlanish jarayoni o‘rganilishi davom etmoqda. Mamlakatimizning tarixiy o‘tmishidagi davlatlar, siyosiy tizimlar, ijtimoiy va madaniy jarayonlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo hududining tarixshunosligi uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur o‘rganish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, tarixiy tafakkurimizni yangilash va milliy identitetni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek davlatchiligi tarixining o‘rganilishi ko‘plab dolzarb tarixshunoslik muammolarini keltirib chiqaradi. Tarixiy manbalar va arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va metodologik yondashuvlar yordamida bu masalalarni hal qilish imkoniyati mavjud. Tarixshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, tarixiy xatolarni tuzatish, yangi manbalar asosida o‘rganish va o‘zbek davlatchiligining shakllanish va rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni aniqlash ushbu ilmiy sohaning dolzarb muammolaridan biridir. Shu bilan birga, o‘zbek davlatchiligi tarixining o‘rganilishi nafaqat tarixchilar uchun, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun katta ahamiyatga ega. Milliy xotira va qadriyatlarni tiklash, madaniy merosni saqlash va o‘rgatish, kelajak avlodlarga to‘g‘ri tarixiy bilimlar yetkazish, mamlakatning global maydonda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillarni yaratadi. Shuning uchun, bu maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixining o‘rganilishining dolzarb ahamiyatini, tarixshunoslik muammolarini va ularni hal qilish yo‘llarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

O‘zbekistonning davlatchilik tarixi, bir tomondan, o‘lkamizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishining asosiy bosqichlarini yoritadi, boshqa tomondan esa, bu tarixni ilmiy ravishda o‘rganish va talqin qilishda bir qator muammolar va masalalar yuzaga keladi. O‘zbek davlatchiligi tarixining o‘rganilishi tarixshunoslikning dolzarb muammolarini keltirib chiqaradi va bu masalalar mamlakatimiz tarixini to‘g‘ri anglash hamda o‘zbek xalqining tarixi va madaniyatini global miqyosda tanitish uchun zarurdir[**Xoshimov**.2009:8].

O‘zbekistonning sanoat rivojlanishi XIX–XX asrlarda milliy iqtisodiyotning shakllanishi va modernizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon sifatida o‘rganiladi. Bu davrda sanoatning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan ham belgilanadi. Tarixshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari tadqiqotchilarga sanoat jarayonlarini chuqurroq o‘rganish, statistik va arxiv materiallari orqali davrning real holatini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli maqola asosiy e’tiborni tarixiy manbalarni tahlil qilishga va ular yordamida sanoat rivojlanishini izohlashga qaratadi.

O‘zbekiston sanoat rivojlanishini o‘rganishda tarixshunoslik va manbashunoslik metodlariga asoslangan tadqiqotlar yetarlicha rivojlangan. Ushbu sohada milliy olimlarning asarlari bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo va Rossiya imperiyasi iqtisodiy tarixiga bag‘ishlangan xorijiy manbalar ham keng qo‘llaniladi.

Tadqiqotchi olim Ahmadov “O‘zbekiston iqtisodiy tarixi (XIX–XX asrlar)” asarida sanoatning rivojlanishi bosqichlari va iqtisodiy omillar batafsil yoritilgan. Muallif, xususan, paxta sanoati, to‘qimachilik va temirsozlikning XIX–XX asrlardagi o‘sishini tarixiy manbalar va arxiv hujjatlariga tayangan holda tahlil qiladi. Tadqiqotchi olim Karimov esa sanoat rivojlanishiga mehnat resurslari va ishchi kuchi ta’sirini o‘rganib, iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy kontekst bilan bog‘laydi. Ushbu milliy tadqiqotlar O‘zbekiston sanoatining hududiy va ijtimoiy jihatlarini aniqlashga yordam beradi [**Khaydarov**.2020:4].

Xorijlik tadqiqotchi Becker “Central Asian Industrialization under Russian Empire” asarida Markaziy Osiyo sanoatining Rossiya imperiyasi davrida rivojlanishi, investitsiya siyosati va texnologik modernizatsiya jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tadqiqotlar O‘zbekiston sanoatini global iqtisodiy kontekstga joylashtirish va uning rivojlanish omillarini solishtirish imkonini beradi. Milliy arxiv materiallari (1870–1930) sanoatning hududiy tarqalishi, zavod va fabrikalarning tashkil etilishi, ishlab chiqarish hajmlari va ishchi kuchi taqsimoti bo‘yicha muhim ma’lumotlar beradi. Tarixiy gazetalar, hukumat hisobotlari va statistik materiallar sanoatning raqamli va faktik tahlilini amalga oshirishda asosiy manba hisoblanadi[Zaripov.2016:23].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilmiy adabiyotlar sanoat rivojlanishining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Milliy va xorijiy tadqiqotlar birgalikda O‘zbekiston sanoatini mahalliy va global kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ba’zi manbalar yetishmasligi, statistik ma’lumotlarning to‘liqsizligi va arxiv hujjatlarining cheklanganligi tadqiqotlarda metodologik chegaralarni belgilaydi.Ilmiy adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sanoati rivojlanishini o‘rganish uchun tarixshunoslik va manbashunoslik metodlarini qo‘llash zarur. Tadqiqotlar

sanoatning hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini aniqlash, rivojlanish bosqichlarini belgilash va davrning siyosiy sharoitini hisobga olish imkonini beradi.

O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishdagi yana bir muammo – ilmiy metodologiyaning dolzarbligidir. Tarixshunoslar bu sohada turli metodologik yondoshuvlarni qo‘llayaptilar, ammo barcha yondoshuvlar o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tarzda ishlashini ta’minlash kerak [Abdinazarova.2023:60].

Tarixshunoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri – bu tarixiy manbalar, xususan, yozma asarlar va arxiv materiallaridir. O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda o‘ziga xos yondashuvlar zarur, chunki ba’zi manbalar noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki tarixiy faktlar to‘g‘risida o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Tadqiqotchi olimlar Azimov, Mavlonov kabi tarixchilar, o‘zbek tarixining rivojlanishidagi yozma manbalarni va ulardan foydalanish metodologiyasini tahlil qilganlar [Poyonov.2024:6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, XIX–XX asrlarda O‘zbekiston sanoati murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida rivojlangan. Sanoatning rivojlanishida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar uzviy bog‘liq bo‘lgan. Milliy va xorijiy arxiv manbalarini tahlil qilish orqali sanoatning hududiy taqsimoti, ishlab chiqarish hajmlari, ishchi kuchi va texnologik yangilanishlar aniqlangan[**Salomov**.2006:36].

Tarixshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari tadqiqotchilarga sanoat rivojlanishining bosqichlarini aniq belgilash va davrning real iqtisodiy holatini tasvirlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ba’zi manbalar cheklanganligi, statistik ma’lumotlarning to‘liqsizligi va arxiv hujjatlarining yetishmasligi tadqiqotning chegaralarini belgilaydi[**Qosimov**.2010:75] .

Tadqiqot mavzusi yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi

Birinchidan, Manbalarni boyitish va arxivlarni tadqiq qilish: Milliy va xorijiy arxivlarda sanoat rivojlanishiga oid yangi materiallarni o‘rganish, mavjud hujjatlarni raqamlashtirish va keng jamoatchilikka taqdim etish.

Ikkinchidan, **Hududiy tadqiqotlarni kengaytirish:** Har bir viloyat va hududdagi sanoat rivojlanishining tarixiy xususiyatlarini alohida o‘rganish, mahalliy arxiv va manbalarni tahlil qilish.

Uchinchidan, **Interdisciplinar yondashuvni qo‘llash:** Tarixshunoslik, iqtisodiyot, sotsiologiya va texnologiya tarixini birlashtirgan tadqiqotlar olib borish.

To’rtinchidan**, Statistik va raqamli tahlil metodlarini rivojlantirish:** XIX–XX asrlar sanoati haqidagi statistik ma’lumotlarni raqamli formatga o'tkazish, grafik va diagrammalar orqali vizual tahlil qilish.

Beshinchidan, **Ta’lim va ilmiy ishlarda qo‘llash:** Ushbu tadqiqot natijalarini universitetlar, ilmiy markazlar va tarixiy muzeylarda o‘quv materiallari sifatida qo‘llash, O‘zbekiston sanoati tarixini kengroq yoritish.

O‘zbek davlatchiligi tarixining tarixshunoslik masalalari va muammolariga oid ilmiy adabiyotlar tahlili, tarixiy manbalar va tadqiqotlar metodologiyasining ahamiyatini ko‘rsatadi. Yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun tarixshunoslikda yangi metodologiyalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanish

zarur. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali o‘zbek davlatchiligining tarixiy rivojlanishini yanada to‘liq va haqqoniy o‘rganish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. **Xoshimov, A.** Tarixshunoslik va uning zamonaviy metodlari. – Toshkent: Sharq Nashriyoti. **2009.8-bet.**

2. Izzatilla M. Khaydarov, About the History of Agro-Industrial Food Complex in Uzbekistan (80-90s of the XX Century), International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020.

3. Jahongir Gulmurodovich Zaripov, Industrial Migration to Uzbekistan during the Soviet Era (1960-1980), ZTVDQ (ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI).

4. Xidoyatxon Oripovna Abdinazarova, Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It, Eurasian Journal of History, Geography and Economics, Vol. 20 (2023), 56-60 b.

5. Abdusamad Baxodir o‘g‘li Poyonov, Mining and Metallurgy Industry in the History of Economic Development of New Uzbekistan, Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation, Vol.2 No.6 (2024) 6. **Salomov, F.** O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O‘qituvchi. **2006.35-36-betlar.**

7. **Qosimov, Z.** Tarixiy manbalarni tahlil qilish metodologiyasi. – Toshkent: O‘zbekistonda ilmiy nashr. 2010.75-bet.

O‘ZBEKISTON XALQLARINING SHAKLLANISH JARAYONI VA TARIXIY MANBALARDAGI AKS ETISHI

Karimjonova Dilorom Qobuljonovna
Fan va texnologiyalar universiteti, talabasi
karimjonovadilorom2008@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalqlarining etnogenezi va etnik tarixining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, tilshunoslik hamda antropologik dalillar asosida xalqning paydo bo‘lish jarayoni o‘rganildi. Shuningdek, “Avesto”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Boburnoma” kabi yozma manbalar asosida xalqning madaniy, diniy va ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlar tahlil qilindi [2-B-44-50]. Natijalarga ko‘ra, o‘zbek xalqi bir vaqtning o‘zida turli qabila va elatlar o‘zaro aralashuvi natijasida shakllanib, hozirgi milliy o‘zlikning tarixiy asosini tashkil etgan [5-B-343-345].

Kalit so’zlar. etnogenez, etnik tarix, o‘zbek xalqi, madaniy meros, tarixiy manbalar, etnik shakllanish, milliy o‘zlik, antropologiya.

Kirish. Har bir xalqning tarixi, madaniyati va o‘zligining shakllanishi ularning etnogenez jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston hududi qadimdan turli madaniyatlar, sivilizatsiyalar va etnik guruhlar chorrahasida joylashgani bois, bu yerda yuz bergan etnik jarayonlar murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgan [1-B-25-32]. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tilshunoslik

tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining etnik shakllanishi ming yillar davom etgan uzoq tarixiy jarayon natijasidir [2-B-44-50].

O‘zbekiston xalqlarining etnogenezi masalasi nafaqat tarix fanining, balki etnografiya, arxeologiya, antropologiya va tilshunoslik kabi fanlarning ham o‘rganish obyektidir. Chunki har bir xalqning kelib chiqishi, uning madaniy o‘ziga xosligi va milliy qadriyatlarining ildizlarini aniqlashda turli fanlar yondashuvini uyg‘unlashtirish zarur [3-B-58-66].

Tarixiy manbalar, xususan “Avesto”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Boburnoma” kabi asarlarda O‘zbekiston hududida yashagan qadimiy qabilalar, ularning turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va o‘zaro aloqalari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan [4-B-12-19]. Shu jihatdan, bu manbalarni ilmiy tahlil qilish o‘zbek xalqining etnik shakllanish bosqichlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy va etnik o‘zlikni anglash, tarixiy ildizlarni o‘rganish jarayoni xalqning o‘zini tanish va o‘z qadriyatlarini asrab-avaylashida g‘oyat dolzarb masala bo‘lib qolmoqda [5-B-343-345]. Shu sababli, O‘zbekiston xalqlarining shakllanish jarayonini tarixiy manbalar asosida o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot uslublari. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston xalqlarining etnogenezi va ularning shakllanish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi. Eng avvalo, tarixiy-uslubiy tahlil asosida o‘zbek xalqining etnik shakllanish bosqichlari, qadimiy davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan etnik jarayonlarning uzviyligi o‘rganildi [1-B-70-73]. Ushbu yondashuv o‘tmishdagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy voqealarni tarixiy izchillikda tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, manbashunoslik usuli tadqiqotning asosiy tayanch metodlaridan biri bo‘ldi. Bu usul yordamida “Avesto”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Boburnoma” kabi yozma manbalar, shuningdek, arxeologik topilmalar, epigrafik ma’lumotlar va qadimgi yozuvlar tizimli o‘rganilib, ularning etnik tarixga oid axborot salohiyati tahlil qilindi [2-B-96-101]. Qiyosiy tahlil usuli orqali O‘zbekiston hududida yashagan qadimiy qabilalar – so‘g‘d, massaget, qang‘, sak, xorazmiy va turkiy elatlarning o‘zaro madaniy aloqalari va ularning o‘zbek xalqining etnik tarkibiga qo‘shgan hissasi solishtirildi [3-B-110-117]. Bundan tashqari, tizimli yondashuv yordamida etnogenez jarayonining madaniy, iqtisodiy, tilshunoslik va antropologik omillari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etildi [4-B-85-88]. Mazkur usul natijasida o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlar kontekstida o‘rganildi. Tadqiqotda, shuningdek, ilmiy-taqqoslovchi va sotsiologik tahlil elementlaridan ham foydalanildi. Bu usullar orqali zamonaviy o‘zbek xalqining etnik tarkibi va tarixiy ildizlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlashtirildi [5-B-343-345].Umuman olganda, tadqiqotda kompleks yondashuv asosida tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar uyg‘un holda tahlil qilindi.

Ilmiy ish natijalari. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston xalqlarining etnogenezi uzoq tarixiy davrlarni o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ta’sirida shakllangani aniqlandi [1-B-25-32]. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tilshunoslik dalillari asosida o‘zbek xalqining etnik ildizlari miloddan avvalgi birinchi ming yillikka borib taqalishi

isbotlandi [2-B-44-50]. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, O‘zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan so‘g‘d, massaget, qang‘, sak, xorazmiy kabi qabilalar turkiy elatlar bilan aralashib, etnik jihatdan yangi shakllanish bosqichiga o‘tgan [3-B-58-66]. Ayniqsa, IX–XII asrlarda Movarounnahr hududida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida etnik tarkib barqarorlashgan va yagona xalq shakllanishiga asos yaratgan [4-B-12-19]. Tarixiy manbalar, xususan “Avesto”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Boburnoma” asarlarida o‘sha davr qabilalari o‘rtasidagi diniy, til va madaniy aloqalar haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan [2-B-96-101]. Bu manbalar o‘zbek xalqining etnik tarixini tiklashda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining shakllanishi bir xalq yoki qisqa davr mahsuli bo‘lmay, balki turli etnik guruhlar, tillar va madaniyatlarning uzoq davom etgan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan [5-B-343-345]. Zamonaviy genetik va antropologik izlanishlar ham bu jarayonning ko‘p bosqichli va murakkab xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

1-jadval. O’zbekiston xalqlarining etnik shakllanish bosqichlari.

Bosqich	Vaqt	Asosiy etnik guruhlar	Jarayon tavsifi	Manba
I bosqich	Mil. avv. I ming yillik	So’g’d, massaget, sak, xorazmiy	Qadimgi eroniy tilli qabilalar Movarounnahrda shakllandi, dastlabki madaniy birliklar vujudga keldi	1
II bosqich	Milodiy I-VII asrlar	Qang’, turkiy qabilalar	Turkiy elatlar kirib kelishi, mahalliy aholi bilan aralashuv jarayoni boshlandi	2
III bosqich	IX-XII asrlar	Turk va mahalliy qabilalar	Siyosiy barqarorlik davrida etnik uyg‘unlashuv kuchaydi, madaniy sintez yuz berdi	3
IV bosqich	XIV-XVI asrlar	O’g’uz, qarliq, chig’atoy	O‘zbek nomi shakllandi, yagona xalq	4

		elatlari	sifatida e’tirof etila boshlandi	
V bosqich	XVII-XX asrlar	O’zbek , tojik, qozoq va boshqalar	Milliy o‘zlik, madaniy barqarorlik va davlatlilik asoslari mustahkamlandi	5

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining etnogenezi davomida turli tillar, dinlar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri asosida mustahkam milliy birlik shakllangan. Bu jarayon bugungi kunda ham O‘zbekiston xalqlarining madaniy uyg‘unligi, bag‘rikengligi va milliy o‘zlikni anglashida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda [5-B-343-345].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlar asosida aniqlanishicha, O‘zbekiston xalqlarining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan murakkab etnik, madaniy va ijtimoiy jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon bir vaqtning o‘zida ichki (mahalliy aholi o‘rtasidagi) va tashqi (turli elatlar bilan aloqalar) omillar ta’sirida kechgan [1-B-25-32], [2-B-44-50]. Miloddan avvalgi davrlardan boshlab O‘zbekiston hududida yashagan so‘g‘d, xorazmiy, massaget, sak kabi qadimgi qabilalar keyinchalik turkiy elatlar bilan aralashib, yagona xalq sifatida shakllanish jarayoniga kirishgan [3-B-110-117]. Ayniqsa IX–XII asrlar davrida siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot tufayli etnik uyg‘unlashuv kuchaygan va “o‘zbek” xalqining asosiy belgilarini shakllantirgan [4-B-12-19]. Shuningdek, tarixiy yozma manbalar – “Avesto”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Boburnoma” va boshqa asarlarda xalqning madaniy, diniy va ijtimoiy hayoti aks etgani o‘zbek xalqining etnik tarixini ilmiy asosda qayta tiklashga imkon beradi [2-B-279-282]. Zamonaviy antropologik va genetik tadqiqotlar esa ushbu tarixiy jarayonlarning ilmiy asoslanganligini tasdiqlab, milliy o‘zlikni anglash va madaniy barqarorlikning tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi [5-B-343-345]. Shu boisdan ham o‘zbek xalqining etnogenezi – bu nafaqat tarixiy jarayon, balki madaniy meros, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu ilmiy xulosalar O‘zbekistonning milliy g‘oyasi, madaniy siyosati va tarixiy o‘zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Berdimurodov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va madaniy taraqqiyoti. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.

2. Karimov Sh. Qadimgi yozma manbalarda O‘zbekiston xalqlari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

3. Raxmonov T. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi va ularning o‘zaro ta’siri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.

4. Saidov N. Etnik tarixni o‘rganishning nazariy asoslari. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2021.

5. Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.

XX ASR BOSHLARI TURKISTON VETERINARIYA TIZIMI: HUJJATLAR VA AMALIYOT

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel: +998 90 945 07 02
e-mail: bazarboyevashohsanam@gmail.com

Annotasiya: Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg‘ona viloyatida veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi, veterinar shifokorlarning vazifalari va faoliyatini arxiv manbalari asosida tahlil qiladi. Unda veterinar shifokorlarning hududlarda chorva mollarining sog‘lig‘ini nazorat qilish, kasalliklarni ro‘yxatga olish, ayniqsa qoramol vabosiga qarshi kurashish bo‘yicha olib borgan ishlari, ularga berilgan yo‘riqnomalar va hisobot berish tartibi yoritiladi. Shuningdek, maqolada veterinariya xizmatining resurslar (asbob-uskunalar, kanselyariya tovarlari) yetishmovchiligi, mahalliy aholidan ko‘rik uchun yig‘im olish amaliyoti va til bilmaslik tufayli tarjimon xizmatlaridan foydalanish kabi amaliy muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** Turkiston, Farg`ona shahri, Toshkent shahri, veterinariya siyosati, veterinar shifokorlar, veterinar shifokorlarning xizmat safarlari, chorva mollari kasalliklari, qushxonalar, tadbirkorlar, mahalliy xalq.

Аннотация: В Туркестане в каждой губернии существовали ветеринарные отделы, эти отделы периодически направляли своих ветеринаров в командировки для изучения ветеринарного положения в уездах и волостях. Ветеринарам была предоставлена карта ветеринарной ситуации в данном районе, и на основе этой карты они вели свою деятельность на территориях.

Ключевые слова: Туркестан, город Фергана, город Ташкент, ветеринарная политика, ветеринарные врачи, командировки ветеринарных врачей, болезни скота, предприниматели, местное население.

Abstract: In Turkestan, there were veterinary departments in each province, these departments periodically sent their veterinarians on business trips to study the veterinary situation in uezds and volosts. Veterinarians were given a map of the veterinary situation in that area, and they conducted their activities in the areas based on this map.

Key words: Turkestan, city of Fergana, city of Tashkent, veterinary politics, veterinary doctors, commanding veterinary doctors, livestock diseases, predprinimateli, local population.

Turkistonning har bir viloyatida veterinariya boshqarmalari mavjud bo‘lib, ushbu boshqarmalar uyezd va volostlardagi veterinariya holatni o‘rganish uchun o‘z veterinar shifokorlarini vaqti-vaqti bilan hududlarga xizmat safariga yuborib turgan. Veterinar shifokorlarga hududlarda veterinariya holati bo‘yicha maxsus xarita berilgan va ular ushbu xarita orqali o‘z faoliyatini olib borgan. Masalan,

1909-yil 10-iyunda Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasi o‘zining veterinar shifokori Sutulovni uezd va volostlarni o‘rganish uchun xizmat safariga yuborgan. Unga 6 varoqdan iborat xizmat safari rejasi berilgan. Ushbu hujjatda, xizmat safarining vaqtlari va veterinar tadqiqot olib borish hududlari ko‘rsatilgan. Veterinar shifokor ushbu hujjat asosida xizmat faoliyatini olib borish mumkin bo‘lgan. Shuningdek, shifokorlar xizmat safari so‘ngida ushbu hujjatlarni viloyat veterinariya xizmatiga topshirishi lozim edi. Agar veterinar shifokor ushbu hujjatni yo‘qotsa va uni qaytara olmasa davlatga 3 so‘m 46 tiyin miqdorida jarima to‘lashi kerak bo‘lgan [1. B- 3].

Sutulov veterinar shifokor sifatida Andijon uyezdiga xizmat safariga yuboriladi. Dastavval u qoida bo‘yicha uyezd boshlig‘i yoniga borishi va o‘zini tanishtirishi lozim bo‘lgan. Shundan so‘ng, uyezd boshlig‘iga o‘zining rejalarini qisqacha tushuntirib bergan. Shuningdek, u Andijon uyezdida chorvachilikka oid yig‘ilishda qatnashadi va unda veterinariya sohasi bo‘yicha ma’ruza qiladi. U uyezdning O‘zgan, Assen va Jalolobod volostlariga tashrif buyuradi. Shifokor bir yil moboynida mazkur hududlarda veterinariya-sanitariya va chorvachilik munosabatlarini o‘rgangan [1. B- 3].

Aytib o`tish lozimki, xizmat safariga yuborilgan shifokorlarga yo‘riqnoma berilgan va ular ushbu hujjat asosida faoliyat olib borgan. Agar veterinar shifokorga biriktirilgan hududlarda chorva mollarida yuqumli kasalliklar aniqlansa ularga qarshi kasallikning xususiyatiga qarab izolyatsiyalash (ajratish) choralari qo‘llanilgan va kurash olib borilgan. Ayniqsa, qoramol vabosiga qarshi kurashish eng asosiy maqsad hisoblangan. Hatto Turkiston general-gubernatori bo‘yicha maxsus farmon chiqargan, hamda veterinar shifokorlar ushbu farmonning nusxasini har doim o‘zlari bilan olib yurgan. Agarda qoramol vabosi kasalligi tarqalsa, veterinar shifokorlar ushbu hujjatda ko‘rsatilgan ko‘rsatmalar orqali harakat qilgan. Shuningdek, mazkur davrda barcha hududlarda chorva mollari bir xil turdagi kasalliklar uchragan va u qoramol vabosiga nisbatan yengil hisoblangan. Mazkur kasaliklarga qarshi veterinar shifokorlar 1905-yilda qabul qilingan tibbiyot politsiyasi ustavida belgilangan choralar ko‘rgan [1. B- 4].

Arxiv manbalariga ko‘ra, hududlarga xizmat safariga yuborilgan shifokorlar har bir aholi punkitini tekshirib, u yerdagi hayvonlar soni va ularning sanitariya holati hisobatiga kiritgan. Har bir volostda veterinar shifokor tekshirish ishlarini tugatgandan so‘ng, aktlar alohida varaq ilova tarzida hisobatga qo‘shilgan. Bunday ilovalar viloyat veterinariya boshqarmasiga topshirilgan [1. B- 4].

Agar hududlarda chorva kasalligi aniqlansa, veterinar shifokor quyidagi harakatlarni amalga oshirgan. Jumladan, chorva mollarida uchragan har bir kasallik bo‘yicha bayonnoma tuzgan va ilova tarzida hisobatga kiritgan. Shu bilan birgalikda, veterinar shifokor ushbu kasalliklarga qarshi qanday choralar ko‘rganligini bayon qilishi lozim bo‘lgan. Shu sababli, u ko‘rgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bayonnoma tuzgan [1. B- 5].

Xizmat safariga yuborilgan ko‘pgina shifokorlar mahalliy aholi tillarni bilmagan. Shu sababli, o‘sha hududdan tarjimon yollash huquqiga ega bo‘lgan. Mazkur tarjimonlarga veterinariya boshqarmasi oyiga 3 so‘m miqdorida oylik bergan, veterinar shifokorning vazifalaridan biri o‘zi yo‘llagan tarjimon bilan

mehnat shartnomasi tuzish lozim bo‘lgan. Ushbu mehnat shartnomasida tarjimonning ismi sharifi va oylik miqdori ko‘rsatilgan.

Veterinar shifokorlar o‘rgangan hududlardagi chorva holatini ro‘yhatga olishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori buyrig g‘iga asosan, veterinar shifokorlar mahalliy hokimiyat organlaridan yuridik yordam so‘rashga haqqi bo‘lgan.

Umuman olganda veterinar shifokorlar hududlarni o‘rganish davomida o‘zlari bilan quyidagi hujjatlarni olib yurishi majburiy bo‘lgan: 1) chorva vabosi bo‘yicha majburiy nizom; 2) chorva mollari epizootiyasini (hayvonlarda biror yuqumli kasallikning tarqalishi) to‘xtatish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalar; 3) chorva mollarida vabo kasalligini to‘xtatish bo‘yicha veterinariya-politsiya choralari to‘g‘risidagi bayonnoma shakli; 4) haftalik va hududdagi chorva mollarining umumiy hisobatlari; 5) chorva mollari vabo kasalligiga chalinganda kasallikka qarshi komissiyalar tuzish va uning yopish to‘g‘risida dalolatnoma shakllari; 6) volostlarni o‘rganish natijalari bo‘yicha xulosalar; 7) hududlarda chorvani ro‘yxatga olish varaqasi; 9) termometr. Ushbu hujjatlar va asboblar veterinar shifokorlar safarda nimalar bilan shug‘ullanishini yaqqolroq ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, veterinar shifokorlar mustamlaka ma’muriyati tomonidan ko‘rsatmalar berilgan va mutahassislar ushbu yoriqnoma asosida faoliyat olib borgan. Demak, veterinar shifokorlar hududlarda chorva kasalliklari aniqlansa mahsus komissiya tuzish huquqiga ega bo‘lgan [1. B- 5].

Veterinar shifokorlar so‘ragan asboblar har doim ham ularga vaqtida yuborilmagan. Masalan, Zadgeshba ismli veterinar shifokor 1908-yil Farg‘ona viloyatida bir qancha veterinar kuzatishlar olib boradi. 1908-yil 24-iyunda uning qo‘lida faqatgina 10 dona ishlaydigan termometr borligini ma’lum qiladi, biroq u mazkur termometrlar ish faoliyatini olib borishga yetarli bo‘lmaganini ta’kidlaydi. Zadgeshba Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasidan qo‘shimcha termometrlarni yuborishni so‘raydi, ammo, 1908-yil noyabr oyiga kelibgina Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasi unga 10 ta termometr asboblarini yuborgan[3. B- 1].

Arxiv manbalari shuni ko‘rsatadiki, veterinar shifokorlar nafaqat asboblar balki, yozuv-chizuv uchun kerakli bo‘ladigan qog‘ozlar ham so‘ragan. Xususan, 1908-yil eski Marg‘ulon shahrida K. Litvilov veterinar feldsher bo‘lib ishlagan, u 1908-yil 28-noyabrda Skobelov shahridagi veterinariya punkitida qora mollar haroratini o‘lchash uchun 10 ta termometr, qushxonalarda nobud bo‘lgan qoramollar va mayda tuyoqli chorva mollari haqida habar berish blankasi, yozuv qog‘ozlari, siyoh, bir quti pat hamda 1dona qalam so‘ragan [3. B-12].

Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasi mahalliy aholidan qoramollarni ko‘rikdan o‘tkazganligi uchun ma’lum bir miqdorda pul yig‘imi olgan. Ushbu masala bo‘yicha ham Turkiston general-gubernatorligiga va ma’lumot berib turilgan. Masalan, bunday ma’lumotlar Skobelov, Qo‘qon, Andijon, O‘sh va Namangan veterinariya punktlari tomonidan taqdim etilgan [4. B-1].

Arxiv manbalariga ko‘ra, veterinar shifokor Sutulovga 1909-yil 26-iyuldan boshlab o‘ziga Abduraxmon Husanov tarjimon sifatida yollaydi. Sutulov Abduraxmon Husanovga 3 so‘m oylik maosh bergan [1. 10-varoq]. Keyinchalik

veterinar shifokor Sutulov Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasiga o‘zining harajatlari va tarjimonga pul to‘lash uchun ma’lum bir miqdorda pul yuborishini so‘raydi, bunga javoban veterinariya boshqarmasi Skobelev G‘aznachiligi orqali unga 15 so‘m pul yuboradi. Sutulov ushbu puldan tarjimonga oylik to‘laydi va qolganini xizmat harajatlari uchun harajat qiladi [1. 14-varaq orqasi].

1910-yil 28-yanvarda Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi veterinar shifokor Sutulovni Qo‘qon uezdida ham veterinariya kuzatish ishlarini olib borishni taklif qiladi. Sutulovgacha Qo‘qon uezdida Landman va Nikol ismli shifokorlar faoliyat olib borgan. Ushbu veterinar shifokorlar 17 betli Qo‘qondagi veterinariya holati bo‘yicha hisobot yozgan. Biroq, ushbu ikki veterinar shifokorlar Qo‘qon uyezdining barcha volostlarini tekshirishga ulgurmagan. Shu sababli, Qo‘qon uyezdi boshlig‘i Farg‘ona viloyat veterinariya boshqarmasidan veterinar shifokor so‘ragan edi [1. 17-varaq].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlaka ma’muriyati aholiga veterinariya bilimlarini yoyishga harakat qilgan. Buning uchun uezd va volostlarda tadbirlar uyishtirgan. Bir qancha mustamlaka muassasalari aholi o‘rtasida veterinariya va chorvachilik bo‘yicha bilimlarni ommalashtirish vazifasini olgan. Bunday muassasalarga Turkiston o‘lkasidagi “Yer va Davlat mulki boshqarmasi” hamda veterinariya boshqarmasi kirgan. Ushbu tashkilotlar joylarda o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarish uchun ko‘rgazmali o‘qishlar, ommaviy ma’ruzalar va kurslar tashkil etgan. Bundan tashqari, mustamlaka ma’muriyati sohaga oid ommabob risolalar nashr etish orqali aholi orasida veterinariya va chorvachilikka oid bilimlarni ommalashtirishga harakat qilgan [2. 40-varaq]. Mustamlaka ma’muriyati bularni veterinar shifokorlar orqali amalga oshirishga harakat qilgan bo`lib, bu har doim ham ijobiy natija bermagan. Bunga qator sabablarni ko`rsatish mumkin; 1) kasal hayvonlar soniga nisbatan veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning kamligi, 2) hayvonlarni davolash uchun asbob-uskunalarning yetishmasligi, 3) veterinar shifokorlarning mahalliy aholi tilini bilmasligi, 4) moddiy qiyinchiliklar, ya`ni, veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning maoshi kamligi, turar-joy muammolari kabilardir.

Xulosa, ushbu maqolada Turkistonning chorvachilik sektorida sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli va tartibli ishlar olib borilganligini ko'rsatadi. Bu esa o'sha davr jamiyatining iqtisodiy asoslaridan biri bo'lgan chorvachilikni himoya qilishga qaratilgan davlat siyosatining muhim bir qismi bo'lgan. Shuningdek, hujjat yuritish, nazorat qilish va javobgarlikni belgilash mexanizmlari ham ancha rivojlangan bo'lganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish. 3-17-varaq.
2. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish. 40-varaq.
3. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-215-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish. 1-12-varaq.
4. Xo‘jaxonov I. Farg‘ona vodiysi chorvador aholisining an`anaviy uy-joylari xususida // Ta`lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2005. - №2.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODIKASINI TARIX FANINING TARKIBIY QISMI BO’LGAN : TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARINI O’RGANISH TIZIMIDAGI SAMARASI

Soipova Orzugul Qo’qon Davlat Universiteti
Gumanitar fanlar va tillar fakulteti Tarix yo’nalishi
202-gugruh 2-bosqich talabasi. +998933848115
orzugulsoipova72@gmail.com

Annotatsiya*:* Bugungi kunda ta’lim jarayonida talaba (o’quvchi)larda chuqur va mustahkam bilim hosil qilish uchun turli innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri - *tushunchalar tahlili* metodikasi bo’lib, u tarix dsarslarida talaba (o’quvchi)larning fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko’nikmalarini shaklllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodika yordamida tarixiy tushunchalar, voqealar va shaxslar o’rtasidagi bog’liqliklar aniqlanadi. Hamda talaba (o’quvchi)lar tomonidan chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar. tushunchalar tahlili, innovatsion metodlar, tahliliy fikrlash, tarixiy jarayon, tarqatma materiallar, erkin suhbat va fikr.

Annotation: This article discusses one of the modern pedagogical technologies used in the process of studying history, the Brainstorming method. In this method, the number of ideas is important, and then the most suitable ones are selected from them. Using this method in the process of studying history helps students (learners) to have more independent thinking, to study the subject more deeply using the method. Information about the methods and components of this method is presented.

Keywords: conceptual analysis, innovative methods, analytical thinking, historical process, handouts, free discussion and thought.

Абстрактный: В данной статье рассматривается одна из современных педагогических технологий, применяемых в процессе изучения истории, – метод мозгового штурма. В этом методе большое значение имеет количество идей, из которых затем отбираются наиболее подходящие. Использование этого метода в процессе изучения истории способствует развитию самостоятельности мышления учащихся, более глубокому изучению предмета с помощью метода. Представлена информация о методах и компонентах данного метода.

Ключевые слова: концептуальный анализ, инновационные методы, аналитическое мышление, исторический процесс, раздаточные материалы, свободное обсуждение и размышление.

Metodikaning mohiyati. Ushbu uslub o’tilgan (chorak, semestr yoki yilida tugagan) o’quv predmeti yoki bo’lim barcha mavzularini talaba (o’quvchi)lar tomonidan yodga olish, biron - bir mavzu bo’yicha o’qituvch tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o’z izohlarini berish, shu orqali o’z

bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (o'quvchi)larni baholay olishga yo'naltirilgan.

Metodikaning maqsadi. Talaba (o'quvchi)larni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish [Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish: 2005].

Ushbu metod tarix fanida, ayniqsa, "O'rta asrlarda O'zbekiston", "Xonliklar davri", "Mustaqillik davri tarixi", "Tarixshunoslik va manbashunoslik", "Etnogenez va etnik tarix masalalari" kabi murakkab va izohtalab bo'lgan tarixiy mavzularni yoritishda samarali natija ko'rsatadi.

Masalan, "Manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari" mavzusini o'rganishda talaba(o'quvchi)lar "moddiy manbaa", "yozma manbaa", "arxeologik topilmalar", "etnografik dalillar" kabi tushunchalarni tahlil qiladi, ularning tarixiy ahamiyatini va o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi, talaba (o'quvchi)lar esa faol izlanish, tahlil va bahs jarayonlarida to'plagan bilimlarini o'zlashtiradi.

Uslubning qo'llanishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (o'quvchi)larning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruch hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi [Pedogogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari : 2010].

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

• talaba (o'quvchi)larni guruhlarga (sharoitga qarab) ajratadi;

• talaba (o'quvchi)lar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;

• tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.

• talaba (o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

• talaba (o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);

• o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;

• har bir talaba (o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini

tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar [Ta’limda innovatsion texnologiyalar].

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o’zida dars boshlanishida o’tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo’yicha talaba (yoki o’quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egalaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mashg’ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz (ilova).

Ilova

Tushunchalar	**Mazmuni**
Manbashunoslik	
Tarixshunoslik	
Diplomatika	
Paleografiya	
Epigrafika	
Numizmatika	
Arxivshunoslik	
Anallar	
Xronologiya	
Tarixiy konsepsiya	
Metodologiya	
Ilmiy tanqid	
Bibliografiya	

Maqola so’ngida xulosa qilar ekanmiz, tushunchalar tahlili metodikasi tarix fanini o’qitishda talaba (o’quvchi)larni faol fikrlashga undaydi, ularni tahliliy, mustaqil fikrlashga o’rgatadi. Ushbu metod orqali talaba (o’quvchi)larda tarixiy jarayonlarning sabab-natijaviy bog’liqligini aniqlash, tushunchalarni tahlil qilish, umumlashtirish mmalakalari shaklllanadi. Natijada tarix darslarini o’qitish jarayonlari yanada samarali va qiziqarli o’tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ishmuhammedov R. Innavatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

1.
olipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari. - T.: 2006.

2.
shmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste’dod, 2008.

3.
obobekov H. Manbashunoslik va tarixiy manbalar tahlili.-T.: Fan,2009

4.
gamberdiyev A. Manbashunoslik nazariyasi va amaliyoti.-T.: Universitet, 2013
5.
zizxo’jayev N. Pedogogik texnologiyalr va pedogogik mahurat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.

TURKIY TILLAR TARIXIDAGI DOLZARB MUAMMOLARNI O‘RGANISH

Ilmiy rahbar: Suyunova Maftuna Do‘sqobil qizi
Oriental universiteti, Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ahmadova Sevara Dilshodovna
Oriental universiteti, Ingliz filologiyasi 301-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillar tarixida uchraydigan dolzarb muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va ilmiy tahlili yoritilgan. Turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik jihatlari tarixiy rivojlanish davomida qanday o‘zgarishlarga uchragani, bu o‘zgarishlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati tahlil qilingan. Muammolarni o‘rganishda turli tarixiy manbalar, qadimiy yozma yodgorliklar va zamonaviy lingvistik uslublar asosida tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, turkiy tillar tarixini o‘rganishda yangi ilmiy yondashuvlarning ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi. Maqola turkiy tillar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tilshunoslar va tarixchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Turkiy tillar, tarixiy tilshunoslik, fonetika, leksika, grammatika, yozma yodgorliklar, til o‘zgarishlari, lingvistik tahlil, ilmiy yondashuvlar, dolzarb muammolar.

Аннотация: В данной статье освещаются актуальные проблемы, встречающиеся в истории тюркских языков, причины их возникновения и научный анализ. Рассматриваются изменения фонетических, лексических и грамматических особенностей тюркских языков в процессе их исторического развития, а также значение этих изменений с точки зрения языкознания. Исследование основано на различных исторических источниках, древних письменных памятниках и современных лингвистических методах. Кроме того, в статье обсуждается значение новых научных подходов в изучении истории тюркских языков. Статья может быть полезна для лингвистов и историков, занимающихся исследованием тюркских языков.

Ключевые слова: тюркские языки, историческое языкознание, фонетика, лексика, грамматика, письменные памятники, языковые изменения, лингвистический анализ, научные подходы, актуальные проблемы.

Abstract: This article highlights the pressing issues encountered in the history of Turkic languages, their causes, and their scientific analysis. It examines how the phonetic, lexical, and grammatical features of the Turkic languages have changed throughout historical development and analyzes the significance of these

changes from a linguistic perspective. The study is based on various historical sources, ancient written monuments, and modern linguistic methods. Moreover, the article discusses the importance of new scientific approaches in studying the history of Turkic languages. It may be useful for linguists and historians conducting research on Turkic languages.

Keywords: Turkic languages, historical linguistics, phonetics, lexicon, grammar, written monuments, language changes, linguistic analysis, scientific approaches, current issues.

Kalit so‘zlar: Turkiy tillar, tarixiy tilshunoslik, fonetika, leksika, grammatika, yozma yodgorliklar, til o‘zgarishlari, lingvistik tahlil, ilmiy yondashuvlar, dolzarb muammolar.

Turkiy tillar tarixi insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ko‘p asrlik madaniy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Turkiy xalqlarning keng geografik hududlarga tarqalishi va turli davrlardagi madaniy aloqalari bu tillarning boy va murakkab rivojlanish jarayonini belgilab berdi. Shunga qaramay, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti va ularning o‘zaro aloqalari, leksik, fonetik, va grammatik xususiyatlarining o‘zgarish jarayoni hali ham chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

Bugungi kunda turkiy tillar tarixi bo‘yicha dolzarb masalalar, jumladan, qadimgi yozma yodgorliklarning o‘rganilishi, dialektologik tadqiqotlar, fonetik o‘zgarishlarning sabablari va ularning natijalari, hamda turkiy tillarning zamonaviy ahamiyati keng muhokama qilinmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida bu tillarning saqlanishi va rivojlanishini ta’minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, turkiy tillar tarixini ilmiy asosda chuqur o‘rganish va dolzarb muammolarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ushbu maqola turkiy tillar tarixidagi eng dolzarb muammolarni yoritishga, ularni tadqiq etishdagi ilmiy yondashuvlarni ko‘rsatishga va kelgusidagi izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Ona tilimizga ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho meros sifatida e’tibor qaratish, uni asrab-avaylash, boyitish, nufuzini oshirish barchamizning asosiy vazifalarimizdan sanaladi. Qadimgi turkiy til o‘zbek va boshqa turkiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Ammo qadimgi turkiy tilning o‘zi ham ma’lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan, ma’lum bir qolipga tushgan. Ma’lumki, qadimgi turkiy til davri turkiy xalqlar tili, tarixiylikning ildizlarini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning natijasida hozirgi adabiy tilning qonuniyatlarini teranroq anglash imkoni yuzaga chiqdi.

Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug‘ va qabilalarning umumiy tili sifatida V-X asrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “…mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma’lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining

birinchi, eng qadimgi bosqichi bo‘lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo‘g‘ul tillaridan mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo‘llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo‘g‘ul, turkiy va tungusmanchjur tillarida saqlanib qolgan”.

Mutaxassislarning fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo‘lgan muddat “Eng qadimgi turkiy til” davri deb yuritiladi. Adabiyotlarda bu davr oltoy va xun bosqichlariga ajratiladi. Oltoy davrining xarakteri, bu davrda yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma’lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo‘q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari o‘lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarni tarixiy-qiyosiy usul osida o‘rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tillarning qo‘shilishi, ajralib ketishi natijasida oltoy davrining oxirlarida bu tillar tabaqalanadi va ikkita katta til guruhlariga bo‘linadi, ya’ni tungus-manchjur va turk-mo‘g‘ul tillar guruhlari ajralib chiqadi. O‘z navbatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o‘sishi, ajralib chiqishi, farqlanish jarayonining davom etishi asosida bu tillarning har qaysisi asta-sekin o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib boradi. Buning natijasida xun davrining oxirlarida turk-mo‘g‘ul til birligidan turk tillari va mo‘g‘ul tillari ajralib chiqadi. VI asr o‘rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashdi, qo‘shni qabilalarni engib, 552-yilda o‘zlarining mustaqil davlati – turk xoqonligini barpo qildi. 555-yilga kelib, Markaziy Osiyodagi xalqlar Manjuriya va Yenisey qirg‘oqlarigacha bo‘lgan yerlarni o‘zlariga qaratib oldilar. Harbiy va siyosiy qudrati asta-sekin kuchayib borgan turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor-mor qildi,

Amudaryo va Orolgacha bo‘lgan joylarni, VI asrning 70-yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Tsi davlatlarini bosib oldi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho‘zilgan edi. Ammo qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80-yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va G‘arbiy turk xoqonligiga bo‘linib ketdi. Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichi, ya’ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug‘ va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko‘p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug‘lar va ularning tillari O‘rxun-Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Mazkur yodgorliklarning ko‘pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o‘lkashunos N.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun daryosi bo‘ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Yenisey daryosining yuqori qismi va Qirg‘izistondagi Talas vodiysi, shuningdek, Baykal ko‘li atroflari, Lena daryosi sohillaridan topilgan. Yana bir bitik O‘ngin bitigidir. Bu bitiktosh Mo‘g‘ulistondagi O‘ngin vodiysidan topilgan. Hozir ham o‘rnatilgan joyida turibdi. Yodgorlik VIII asrning birinchi yarmida, taxminan, 732-yilda tiklangan.

J.Klosonning yozishicha, bitik sarkarda Alp Eletmish xotirasiga tiklangan.

Uyg‘ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimi “Xuastuanift” bitigidir. Bu bitikning ma’nosi - moniylarning tavbanomasidir. Moniylik dinining falsafiy asari, o‘n besh bo‘limdan iborat. Ilk o‘rta asrlarda asarning eroniy, sug‘diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan. Bu yodgorlikning turkiy versiyalari uyg‘ur, moniy yozuvida bo‘lib, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uyg‘ur yozuvida, Turfondan va “Ming budda g‘ori” ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvida bitilgan. Bu yodgorliklarni 1910-1911yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin, Londonda, 1963-yilda L.Dmitrieva lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirgan. Olimlarning fikricha, asar qadimgi eroniy tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik moniy ta’limotini yoyish maqsadida boshqa tillarga o‘girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko‘k turk yodgorliklari tiliga yaqinligi, uyg‘ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi ana shundan guvohlik beradi. G‘arbiy turk hoqonligi davri (VI-VIII asrlar)da turkiy qabilalar o‘troqlasha boshladi. O‘troqlashgan turklar shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanadi, cho‘l va qishloq joylarda esa dehqonchilik qiladi. Buning natijasida turkiy qabilalarning etnik jihatdan o‘zaro yaqinlashuvi va fors tillarida so‘zlashuvchi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari kuchayadi. VIII asrda G‘arb va Janubda – Movarounnahr hududi (Samarqand, Buxoro, Choch, Farg‘ona, Xorazm)da yashagan aholi va sug‘diy-eroniy xalqlar arablar tomonidan bosib olindi, Abbosiylar xalifaligiga qaram bo‘lib qoladi. Bu yerdagi xalqlar esa islom dinini qabul qiladi. Bu tarixiy hodisa Movarounnahrda yashagan xalqlarning, shu jumladan, turkiy xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, fan va adabiyotning rivojiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, IX asrning 2yarmidan, Somoniylar davridan boshlab turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy siljishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, urug‘-qabilachilik munosabatlari kuchsizlanadi, feodal munosabatlar rivojlanib bordi. Shu asnoda turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar to‘liq tabaqalanadi. Markazlashish, o‘zaro birlashish jarayonida qo‘shilish va ajralib ketish asosida rivojlangan turkiy tillar uyg‘urlar hukmronligi davrida umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi. Bu adabiy tilning tashkil topishida qarluq-chigil tillari, shuningdek uyg‘ur tili asos sifatida qatnashdi, uning taraqqiyotiga ma’lum darajada ta’sir qiladi. X-XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo‘llangan, ma’lum darajada me’yorga solingan turkiy adabiy til qisman o‘g‘uz-qipchoq tillari xususiyatlarini ham o‘z ichiga olar edi. Eski o‘zbek adabiy tilining xalq tili sifatida shakllanish davri ham mana shu vaqtlarga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi turkiy til asrlar osha shakllanib kelgan juda qadimiy til hisoblanadi. Bu tilning kelib chiqishi hamda rivojlanishini o’z ichiga oluvchi qadimiy yodgorliklar va manbalar juda ko’p. Mazkur manbalar hozirgi kunda ham topilib tilshunos olimlar tomonidan o’rganilmoqda. Turkiy til negizida yangi tillar va til oilalari shakllangandir. Eski o’zbek tilining paydo bo’lishi va shakllanishiga ham shu til asos bo’lib xizmat qilgan.

Turkiy tillar tarixi mazmunan boy va murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola turkiy tillarning shakllanishi, rivojlanishi va ular bilan bog‘liq

dolzarb muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tilshunoslik va tarixiy tadqiqotlarning ahamiyati: Turkiy tillarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki xalqlarning tarixiy-madaniy merosini anglashda ham muhimdir. Shu jihatdan, tarixiy manbalarni tahlil qilish va lingvistik xususiyatlarni aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

2. Dialekt va lahjalar xilma-xilligi: Turkiy tillarning keng hududlarga tarqalganligi sababli dialekt va lahjalar o'rtasidagi farqlar katta ahamiyatga ega. Ushbu xilma-xillikni tizimli o'rganish va tasniflash til birligini ta'minlash uchun muhimdir.

3. Zamonaviy muammolar va tahdidlar: Globalizatsiya, boshqa tillarning ta’siri, va ayrim turkiy tillarning yo'qolib ketish xavfi ushbu tillarni himoya qilish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

4. Til birligi va hamkorlik masalalari: Turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, umumiy lug‘at va grammatik asoslarni yaratish, hamda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bu yo‘nalishdagi asosiy vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillar tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy-amaliy, balki madaniy-ma’naviy ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar turkiy xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi va milliy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur masalalar har tomonlama tadqiq etilishi va tegishli choralar ko‘rilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Sanaqulov U. O‘zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me’yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – T.: Navro‘z, 2015.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.
7. B. Abdushukurov. “Qadimgi turkiy til” Toshkent – 2009.

TARIXNI O‘RGANISH METODIKASI

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Zarnigor Omonova
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi
Ismoilova Umidaxon
+998 90-533-77-40
umidaismoilova398@gmail.com

Annotatsiya: Tarixni o‘rganish metodikasi jamiyat va insoniyatning o‘tmishini anglashda muhim ahamiyatga ega. Bu metodika o‘tmish voqealarini nafaqat qayta tiklash, balki ularni turli manbalar asosida chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Tarixiy faktlarni o‘rganishda tadqiqotchi tanlagan yondashuv natijalar aniqligi va obyektivligini belgilaydi. Misol uchun, ilmiy tarixshunoslik, arxeologik qazilmalar, etnografik ma’lumotlar va yozma manbalar tarixning yangi qirralarini ochishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt va raqamli arxivlar, tarixni o‘rganish jarayonini soddalashtirmoqda. Tarix nafaqat ilmiy intizom, balki kelajakni shakllantiruvchi vosita sifatida ham qimmatlidir. O‘tmishni anglash orqali insoniyat o‘z xatolarini tushunadi va yangicha yo‘nalishlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Tarix, metodika, tarixni o‘rganish, tarixshunoslik, arxeologiya, etnografiya, yozma manbalar, texnologiyalar, sun’iy intellekt, raqamli arxivlar, interaktiv vositalar, o‘tmish, tarixiy tadqiqotlar, virtual reallik, xalqaro tarix.

Annotation: The methodology of studying history plays a crucial role in understanding the past of society and humanity. This methodology not only reconstructs past events but also allows for their in-depth analysis based on various sources. The approach chosen by the researcher determines the accuracy and objectivity of the results. For instance, scientific historiography, archaeological excavations, ethnographic data, and written records help uncover new facets of history.

Additionally, modern technologies such as artificial intelligence and digital archives are simplifying the process of historical research. History is valuable not only as an academic discipline but also as a tool for shaping the future. By understanding the past, humanity learns from its mistakes and identifies new directions.

Keywords: History, methodology, studying history, historiography, archaeology, ethnography, written sources, technologies, artificial intelligence, digital archives, interactive tools, past, historical research, virtual reality, international history.

Аннотация:Методика изучения истории играет ключевую роль в понимании прошлого общества и человечества. Эта методика не только воссоздаёт прошлые события, но и позволяет их глубоко анализировать на основе различных источников. Подход, выбранный исследователем, определяет точность и объективность результатов. Например, научная историография, археологические раскопки, этнографические данные и письменные источники помогают открыть новые грани истории. Кроме того, современные технологии, такие как искусственный интеллект и цифровые архивы, упрощают процесс изучения истории. История ценна не только как академическая дисциплина, но и как инструмент формирования будущего. Понимая прошлое, человечество учится на своих ошибках и находит новые направления.

Ключевые слова: История, методика, изучение истории, историография, археология, этнография, письменные источники, технологии, искусственный интеллект, цифровые архивы, интерактивные инструменты,

прошлое, исторические исследования, виртуальная реальность, международная история.

Kirish

Tarix – bu insoniyatning o‘tmishini aks ettiruvchi ulkan xotira ombori.

Unda xalqlarning madaniyati, iqtisodiyoti, siyosati va turmush tarzi haqidagi ma’lumotlar mujassam. Tarixni o‘rganish jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarini tushunish, kelajakni rejalashtirish va xatolardan saboq olish uchun zarurdir. Ammo tarixni faqat faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki murakkab tahlilni talab qiluvchi fan sifatida ko‘rish lozim. Shu sababli tarixni o‘rganish metodikasi tarix fanining asosiy poydevoridir. [2] Bugungi kunda tarixni o‘rganish usullari an’anaviy yondashuvlardan zamonaviy texnologiyalarga qadar kengayib bormoqda. Arxeologik qazilmalar, yozma manbalar va og‘zaki tarixni o‘rganish bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt va virtual reallik, tarixni o‘rganishda yangi ufqlarni ochmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy davrda xalqaro siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni tushunish uchun tarixni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ishda tarixni o‘rganish metodikasining ahamiyati, uning asosiy tamoyillari va zamonaviy vositalari yoritiladi. Bu mavzu jamiyatni anglash va kelajakka ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish uchun dolzarbdir.

Asosiy qism

Tarixni o‘rganish metodikasi, ta’lim tizimida o‘quvchilarga nafaqat tarixiy voqealarni o‘rganish, balki o‘tmishdan saboq olish, bugungi kunni anglash va kelajakni shakllantirishda yordam beradigan metodlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu metodikalar o‘quvchilarni faollashtirish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va tarixni jonli ilmiy jarayon sifatida o‘rganishga yordam beradi[3].

1. Tarixni o‘rganishning an’anaviy metodlari Tarixni o‘rganishda an’anaviy yondashuvlar, ya’ni yozma manbalarni o‘rganish, tarixiy faktlar va voqealarni yodlash eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biridir. Bu metodda tarixiy voqealar yoki shaxslar to‘g‘risida o‘quvchilarga faktlar va tafsilotlar beriladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga voqealar ketma-ketligini tushunishga yordam beradi, ammo ular tarixning chuqur ma’nosini yoki sabablarini tushunishga qiynalishlari mumkin.

2. Tarixni vizualizatsiya qilish Bugungi kunda tarixni o‘rganishning eng samarali usullaridan biri – bu tarixiy jarayonlarni vizualizatsiya qilishdir. Xususan, xaritalar, diagrammalar, infografikalar va animatsiyalar yordamida tarixiy jarayonlarni tushuntirish o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi. Masalan, Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda savdo yo‘llari va iqtisodiy aloqalarni animatsiya orqali ko‘rsatish o‘quvchilar uchun yanada tushunarli bo‘ladi.

3. Empatiya orqali tarixni o‘rganish Empatiya, ya’ni tarixiy shaxslar yoki voqealar bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni tushunish va ular bilan bog‘liq qarorlarni o‘rganish metodologiyasi ham juda samarali. Bu usulda talabalar tarixiy voqealar yoki shaxslar bilan empatik bog‘lanish orqali ularning ichki dunyosini tushunishga harakat qilishadi.

Masalan, Amir Temurning qarorlarini tahlil qilishda uning shaxsiy motivlari va o‘sha davrning ijtimoiy sharoitlarini inobatga olish talab qilinadi.

4. Qiyosiy tahlil Tarixni qiyosiy tahlil qilish orqali turli davrlar, madaniyatlar yoki hududlarni taqqoslash mumkin. Bu metod yordamida talabalar tarixiy hodisalar orasidagi aloqalarni yaxshiroq tushunib, umumiy tendensiyalar va farqlarni aniqlay oladilar. Masalan, Xitoy va Rim imperiyalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini taqqoslash orqali ularda mavjud bo‘lgan o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash mumkin.

5. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar Bugungi kunda tarixni o‘rganishda raqamli texnologiyalar va interaktiv usullar ham o‘z o‘rniga ega. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchilar tarixiy joylarni va voqealarni bevosita tajriba qilishlari mumkin. Shuningdek, onlayn platformalar va simulyatsiyalar yordamida tarixiy jarayonlarni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyati paydo bo‘lgan. Bular tarixni o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Tavsiyalar

Tarixni o'rganish, insoniyatning o'tgan davrlarini tahlil qilib, ularning hozirgi va kelajakdagi ta'sirini anglashni o'z ichiga oladi. Tarixiy bilimlarni to'plash, ularga asoslanib fikr yuritish va ulardan o'rnak olish juda muhimdir.

Tarixni o'rganish metodikasi esa ilmiy yondashuvni talab qiladi. Quyida tarixni o'rganish jarayonida foydalaniladigan ba'zi asosiy metodikalar va ularga oid tavsiyalarni keltiramiz. [3].

1. Manbalar bilan ishlash Tarixni o'rganishning birinchi qadami – tarixiy manbalarni tahlil qilishdir.

Manbalar, yozma va og'zaki bo'lishi mumkin, masalan, hujjatlar, arxivlar, kitoblar, nashrlar, she'rlar, vaqfnomalar va boshqalar. Tarixiy manbalarni ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: Manbaning ishonchliligi: Manba haqiqatni aks ettiradimi, yoki u faqat bitta nuqtai nazarni ifodalayaptimi?

Davr va kontekst: Manba qanday davrga tegishli va u tarixiy voqealar bilan qanday bog'liq?

Tahlil qilish: Har bir manbani tahlil qilishda uning maqsadi, yaratilish tarixi va mavjud sharoitlarini inobatga olish zarur.

2. Kross-manik tahlil Tarixni o'rganishda bir nechta manbalarni solishtirish va ularning o'xshashliklari hamda farqlarini aniqlash muhim. Bu metodik yondashuv "kross- manik tahlil" deb ataladi va u bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni bir- biri bilan taqqoslashni o'z ichiga oladi. Shu yo'l bilan tarixiy voqealar haqida to'liqroq va ishonchli xulosalar chiqarish mumkin.

3. Kritik tahlil Tarixni o'rganishda metodologik nuqtai nazardan kritik tahlilning ahamiyati katta. Bu jarayonda tarixiy manbalarni va voqealarni quyidagicha tahlil qilish zarur: Propaganda va bias: Tarixiy manbalar propagandaga asoslanib yozilgan bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni aniqlash va ularni to'g'ri tahlil qilish juda muhim.

Tarixiy subyektivlik: Har bir tarixchi o'zining dunyoqarashi va bilimiga asoslanib tarixni talqin qiladi. Shu bois, manbalarni har tomonlama baholash kerak.

4. Lokal va global kontekstni hisobga olish Tarixiy voqealarni faqat bir mamlakat yoki hudud doirasida emas, balki global kontekstdan ham baholash zarur. Misol uchun, o'zbek tarixini o'rganishda, Markaziy Osiyo va uning global

tarixiy jarayonlar bilan aloqasini ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Bu metodik yondashuv tarixiy voqealarni to'liq tushunishga yordam beradi.

5. Interaktiv va vizual metodlar Tarixni o'rganish jarayonida interaktiv va vizual metodlardan foydalanish talab qilinadi. Xaritalar, diagrammalar, infografikalar va boshqa vizual materiallar yordamida tarixiy voqealarni yaxshiroq tushunish mumkin. Bu

usullar ta'limda tarixni o'rganishni osonlashtiradi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

6. Muzeylar va arxivlar bilan ishlash Muzeylar va arxivlar tarixiy ma'lumotlarni to'plash va ularni tadqiq qilish uchun juda muhim manbalardir. Ular nafaqat tarixiy ob'ektlarni, balki tarixiy kontekstni o'rganishga yordam beradigan ko'plab hujjatlarni ham taqdim etadi.

Arxivlarda o'rgangan ma'lumotlarni tahlil qilish va shunga asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish o'rganish metodikasining muhim qismidir.

7. Ta'limda tarixni o'rgatish metodikasi Tarixni o'rgatish jarayonida metodik yondashuvlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar tarixni faqat faktlar va raqamlar shaklida emas, balki o'quvchilarga tarixiy tafakkur, voqealarning sabab va oqibatlarini tushunishga yordam beradigan metodlar bilan ham taqdim etishlari zarur. Interaktiv metodlar, guruhli ishlash va tarixiy rollarni o'ynash orqali tarixni o'rgatish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

8. Tarixni zamonaviy texnologiyalar bilan o'rganish Bugungi kunda tarixni o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari katta. Kompyuter dasturlari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari yordamida tarixiy joylar, voqealar va shaxslar haqida batafsil ma'lumot olish mumkin. Shu bilan birga, tarixiy ma'lumotlarni internet platformalarida o'rganish va taqdim etish imkoniyatlari ham mavjud.

Noodatiy yondashuv:

Tarixni o‘rganishda interaktiv vositalar, virtual reallik muzeylari va o‘tmishni vizualizatsiya qilish imkoniyatlari talabalar va tadqiqotchilar uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Turli tillarda yozilgan manbalarni tahlil qilish xalqaro tarixiy aloqalarni ham chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. [5]

Xulosa

Tarixni o‘rganish metodikasi nafaqat o‘tmishni bilish, balki kelajakni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tanlangan usullar va texnologiyalar yordamida tarixiy voqealar, madaniyatlar va tamaddunlarning murakkab bog‘lanishlarini anglash imkoniyati kengayadi. Metodik yondashuvlar tarixni faqatgina faktlar majmuasi sifatida emas, balki dinamik jarayon sifatida o‘rganishga yordam beradi.

Bugungi kunda tarixni o‘rganish uchun yangi texnologiyalar, masalan, raqamli arxivlar, virtual reallik va sun’iy intellekt qo‘llanilishi tadqiqot jarayonini yanada samaraliroq va interaktiv qiladi. Shu bilan birga, tarixning turli tillarda va madaniyatlarda o‘rganilishi xalqaro aloqalarni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. [1] Tarixni o‘rganish faqat ilmiy faoliyat emas, balki insoniyatning xatolarini tushunish va ulardan saboq olish vositasi hamdir. Tarix bizga shuni o‘rgatadiki, faqat o‘tmishni anglagan holda kelajakka to‘g‘ri yo‘l chizish mumkin.

Shu sababli, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va yangi imkoniyatlardan foydalanish zamonaviy tarix fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘ziga xos rivojlanish yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Abdullayev B. Tarixshunoslik asoslari. Toshkent: Fan, 2015.
3. Vohidov S. Tarixni o‘rganish metodikasi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
4. Yusupov A. Markaziy Osiyo tarixiy manbalari. Toshkent: Sharq, 2018.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tarix va madaniyat bo‘limi. Toshkent, 2007.
6. Carr E.H. What is History? Cambridge University Press, 1961.
7. Bentley M. Modern Historiography: An Introduction. Routledge, 1999.
8. Arnold J. History: A Very Short Introduction. Oxford University Press, 2000.
9. Tosh J. The Pursuit of History. Pearson, 2015.
10. Jenkins K. Re-Thinking History. Routledge, 2003.
11. Виппер Р.Ю. Введение в изучение истории. Москва: Наука, 1980.
12. Карамзин Н.М. История государства Российского. Москва: Эксмо, 2017.
13. Тихонов Ю.А. Методы исторического анализа. Санкт-Петербург: Лань,
2010.
14. Греков Б.Д. Историческая наука и методы исследования. Москва: Наука, 2002.
15. Шлецер А.Л. Введение в историческую науку. Москва: Академия наук, 1961.

KAHOOT КАК ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИЕ

Омонова Зарнигор Туражон кизи,
Научный сотрудник Наманганского педагогического института
omonova.zarnigor.2302@gmail.com
+998-88-686-06-74

Аннотация: В данной статье рассматривается интеграция цифровых технологий в образовательный процесс для повышения эффективности обучения, особенно в подготовке будущих учителей истории. Платформа Kahoot! представляет собой инновационный инструмент геймификации, позволяющий трансформировать традиционные уроки в интерактивные викторины, способствующие активному вовлечению студентов. Исследуются роль Kahoot! как важного средства цифровизации образования для будущих педагогов-историков.

Ключевые слова: Цифровые технологии, платформа Kahoot, геймификация, цифровая грамотность, информационные технологии, визуальный эффект, викторины, виртуальные экскурсии

Abstract: This article examines the integration of digital technologies into the educational process to improve the effectiveness of education, especially in the training of future history teachers. The Kahoot platform! It is an innovative gamification tool that allows you to transform traditional lessons into interactive quizzes that promote active student engagement. The role of Kahoot is being explored! as an important means of digitalizing education for future historical educators.

Keywords: Digital technologies, Kahoot platform, gamification, digital literacy, information technology, visual effect, quizzes, virtual tours.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qitish samaradorligini oshirish, ayniqsa, bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi ko‘rib chiqiladi. Kahoot! platforma an'anaviy darslarni o'quvchilarning faol ishtirokini targ'ib qiluvchi interaktiv viktorinalarga aylantiradigan innovatsion o'yin vositasidir. Ushbu maqola bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun ta'limni raqamlashtirishda muhim vosita sifatida Kahoot! ning rolini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, Kahoot platformasi, gamifikatsiya, raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalari, vizual effekt, viktorinalar, virtual sayohatlar.

В современном мире цифровые технологии стремительно трансформируют образовательный процесс, делая его более интерактивным, доступным и эффективным. Одним из ярких примеров успешной интеграции цифровых инструментов в образование является платформа Kahoot. Этот инновационный сервис, основанный на принципах геймификации, позволяет создавать интерактивные викторины, опросы и задания, которые вовлекают учащихся и способствуют активному усвоению знаний. Платформа Kahoot не только повышает мотивацию студентов, но и развивает навыки критического мышления, командной работы и цифровой грамотности, что делает её важным инструментом для создания современной образовательной системы, отвечающей вызовам времени.

«Совершенно невозможно подходить к такому важному и стратегическому вопросу, как образование, по-старому, со старыми знаниями и системами. Если мы не создадим самую современную и передовую систему в этом отношении, мы не сможем решить ни одну из стоящих перед нами проблем» [1; С.149], – подчеркнул президент Шавкат Мирзиёев. Эти слова подчеркивают необходимость внедрения инновационных подходов в образовательный процесс, одним из которых является использование интерактивных инструментов, таких как Kahoot. Данная платформа, активно применяемая в обучении, позволяет повысить вовлеченность студентов и сделать процесс усвоения знаний более динамичным. Сегодня информационные технологии (ИТ) выступают ключевым фактором,

обеспечивающим эффективное взаимодействие между людьми, а также функционирование практически всех систем по созданию, передаче и распространению информации. Всё чаще в повседневной практике применяются системы электронных телекоммуникаций.

Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) занимают центральное место в процессе интеллектуализации общества, эволюции его образовательной системы и культурного развития [3].

Использование таких платформ, как Kahoot, способствует интерактивному обучению, вовлекая студентов в процесс через игровые элементы, что повышает их мотивацию и интерес. Тем не менее, ограничения, такие как необходимость стабильного интернет-соединения и потенциальная перегрузка информацией, могут снизить эффективность обучения, если не учитывать особенности аудитории. В контексте слов президента Шавката Мирзиёева: «В целях устойчивого развития мы должны глубоко освоить цифровые знания и информационные технологии, что даст вам возможность идти по самому короткому пути к достижению всестороннего прогресса. В современном мире цифровые технологии играют решающую роль во всех сферах» [2; С.171], платформы вроде Kahoot становятся важным инструментом для интеграции цифровых технологий в образование. Такие платформы, как Kahoot, предоставляют уникальные возможности для интерактивного обучения, делая процесс более динамичным и привлекательным для участников. Однако для достижения максимальной пользы необходимо сбалансированно подходить к их внедрению, учитывая как технологические, так и педагогические аспекты.

Kahoot! позволяет создавать интерактивные онлайн-викторины и опросы, которые удобно демонстрировать на большом экране через проектор или интерактивную доску. Помимо текстовых вопросов, платформа поддерживает интеграцию изображений, диаграмм, таблиц, а также аудио- и видеоматериалов [4]. Используется в школах, университетах, на курсах, а также в бизнесе и на корпоративных тренингах.

Платформа Kahoot позволяет любому педагогу легко создавать, распространять и проводить обучающие сессии, которые повышают вовлеченность и результаты обучения. Занятия на Kahoot можно проводить где угодно, очно или виртуально, используя любое устройство с подключением к интернету.

Эта инновационная платформа зародилась в 2012 году на территории Норвегии, а её полноценный дебют состоялся в сентябре 2013 году. Инициаторами проекта выступили: Йохан Бранд (Johan Brand), Джейми Брукер (Jamie Brooker), Мортен Версвик (Morten Versvik), у которого концепция возникла в период получения образования в Норвежском университете науки и технологий (NTNU). Проект был разработан в сотрудничестве с Norwegian University of Science and Technology (NTNU) и компанией Mobitroll. Разработка инициативы проходила при тесном взаимодействии с Норвежским университетом науки и технологий (NTNU) и фирмой Mobitroll.

В основе работы сервиса Kahoot! лежит пять основных и один вспомогательный сайты:

1.create.kahoot.it – сайт, который предназначен для создания пользователем (педагогом) кахутов.

2.play.kahoot.it – сайт, который служит для запуска кахутов со стороны пользователя (педагога).

3.kahoot.it – сайт, который служит для подключения к кахутам пользователей (учащихся) через различные устройства (ПК, ноутбуки, планшеты, смартфоны).

4.test.kahoot.it – сайт, который позволяет произвести тест вашего интернет-соединения и выявить уровень его качества для работы с сервисом Kahoot!

5.media.kahoot.it – сайт , для работы с медиа-контентом сервиса.

6.getkahoot.com – вспомогательный сайт, предназначенный для поддержки пользователей [5].

Kahoot! предлагает бесплатные и платные планы, предназначенные для использования в вузе, на работе (как очно, так и виртуально) или дома для социального использования или самостоятельного обучения.

Целью платформы является сделать обучение интересным, интерактивным и доступным для всех – через игру, соревнование и визуальный контент. Kahoot превращает уроки в игру, добавляя элементы соревнования, баллы и таймеры. Это повышает мотивацию и интерес учащихся, особенно в скучных или сложных темах. Работает на любом устройстве: смартфоне, планшете, компьютере. Учителя сразу видят, кто как ответил, и могут оперативно скорректировать объяснение материала. Статистика помогает отслеживать прогресс и выявлять слабые места. Можно создавать собственные викторины по любому предмету. Подходит как для начальной школы, так и для университетов и корпоративного обучения. Есть режимы игры в командах, что способствует развитию навыков сотрудничества. Яркий интерфейс, музыка и визуальные эффекты делают процесс обучения живым и запоминающимся. Даже самые пассивные студенты начинают активно участвовать.

Следующие возможности существуют в платформе Kahoot! для будущих учителей истории:

1.Разработка интерактивных викторин и тестов

• Создание вопросов с 2-4 вариантами ответа, адаптированных под исторические события, личности или документы.

• Установка таймера для каждого вопроса, чтобы развивать у студентов навыки быстрого анализа фактов.

• Определение правильных ответов и гибкая настройка баллов (например, больше очков за сложные вопросы о причинах войн).

• Добавление изображений (карты, портреты, артефакты) и видео (хроника, реконструкции) для погружения в эпоху и визуализации материала.

2. Проведение игр в реальном времени

Ведущий (учитель или организатор) запускает игру.

• Участники подключаются через телефон, планшет или компьютер с помощью PIN-кода.

• Вопросы отображаются на экране, участники отвечают на своих устройствах.

• Система показывает лидеров и баллы в реальном времени.

• По завершении игры учитель может вывести на проектор финальную таблицу лидеров и обсудить спорные вопросы, превращая викторину в полноценную пару по хронологии событий или причинно-следственным связям.

• Будущим учителям истории рекомендуется заранее подготовить тематические наборы вопросов (например, «Ферганские события» или «Узбекская модель развития»), чтобы игра не только проверяла память, но и развивала навыки анализа источников и критического мышления.

3. Использование в образовании

• Повышает интерес и мотивацию студентов. Учителя истории могут интегрировать интерактивные элементы (викторины, симуляции исторических событий или виртуальные экскурсии по музеям) в занятии, чтобы превратить сухие факты в захватывающее приключение, мотивируя студентов глубже погружаться в эпохи и личности.

• Может использоваться на уроках, домашних заданиях или контрольных работах. Будущим учителям истории рекомендуется применять такие методы гибко: на уроках – для обсуждения в реальном времени, дома – для самостоятельных проектов (создание таймлайнов или дебатов), а на контрольных – для альтернативных форматов оценки, развивая критическое мышление и делая обучение историей по-настоящему живым и актуальным для цифрового поколения.

4. Для будущих учителей истории раздел *«Отчеты и аналитика»* – это мощный инструмент педагогического мастерства, который превращает игру в полноценный диагностический и развивающий процесс. Отчеты показывают не просто статистику, а являются зеркалом вашего педагогического воздействия. Они учат видеть за баллами человека, который путает Колумба с Магелланом из-за слабой пространственной памяти, и превращать игру в точку роста исторического мышления.

5.В рамках подготовки к педагогической практике и разработке уроков по истории, платформа предоставляет доступ к миллионам готовых викторин, адаптированных для вузовского уровня. Это идеальный инструмент для студентов четвертого курса, изучающих методику преподавания истории, – от анализа ключевых эпох до интерактивных тестов по мировой и отечественной истории.

Платформа Kahoot предоставляет широкие возможности для внедрения активных методов обучения, обогащая процесс изучения теоретического материала и оценки знаний на уроках истории за счёт высокой интерактивности. Использование интерактивных форматов подачи и проверки материала позволяет эффективно удерживать внимание даже многочисленной аудитории. Ключевыми дидактическими преимуществами

Kahoot, на наш взгляд, являются объективность результатов, обусловленная временными ограничениями на выполнение заданий, что минимизирует возможность списывания. Платформа способствует созданию благоприятного психологического климата и поддержанию мотивации учащихся.

Литература

1. Мирзиеев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. – Тошкент:"Узбекистон"НМИУ,2020.

2. Мирзиеев Ш.М. От национального возрождения – к национальному прогрессу. Т.4. Ташкент, 2020.

3. Шевко Н.Р. Предоставление электронных муниципальных услуг, как необходимый инструмент информационного общества.

4. Царев Р.Ю. Применение Kahoot! при геймификации в образовании. Международный журнал перспективных исследований. Т. 7. (№1).2017.

5. Андреева А.Б. Использование цифрового сервиса Kahoot! как эффективного инструмента коллаборативного обучения на уроках географии.

X SHO‘BA: TARIXIY KARTOGRAFIYA: XARITALAR VA GLOBUSLAR

SOSONIYLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYO TARIXIY GEOGRAFIYASI

Oriental universiteti katta o‘qituvchisi
Qo‘chqarov Temirbek Baxromjon o‘g‘li

ANNOTATSIYAUshbu maqolada Sosoniylar imperiyasi hukmronligi davri (milodiy 224-651-yillar) doirasida Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasi tahlil qilinadi. Eron va Turon o‘rtasidagi chegara hududlarining siyosiy-ma’muriy tuzilishi, Xuroson kustining shakllanishi, Kushon-Sosoniy podsholigi, Toxariston, So‘g‘d, Xorazm hamda sharqiy vohalarning o‘zaro munosabatlari yoritiladi. Tadqiqotda Sosoniylarning bevosita nazorati asosan Amudaryodan janubdagi yerlar bilan cheklanganligi, Movarounnahrning esa ko‘proq mahalliy sulolalar, kidariylar, eftaliylar va nihoyat Turk xoqonligi ta’sirida bo‘lganligi asoslanadi. Xulosalar o‘rta fors “Shahrestoniho i Eronshahr” geografik matni, numizmatik hamda arxeologik dalillar va zamonaviy ilmiy adabiyotga tayaniladi.

Kalit so‘zlar: Sosoniylar imperiyasi, Markaziy Osiyo, tarixiy geografiya, Eronshahr, Xuroson, Kushon-Sosoniy podsholigi, Toxariston, So‘g‘d, Xorazm, eftaliylar, Turk xoqonligi, kust, “Shahrestoniho i Eronshahr”.

АННОТАЦИЯВ статье анализируется историческая география Центральной Азии в период господства Сасанидской империи (224-651 гг. н. э.). Рассматриваются политико-административная структура пограничных областей между Ираном и Тураном, формирование куста Хорасан, Кушано-Сасанидское царство, Тохаристан, Согд, Хорезм и восточные оазисы. Обосновывается, что непосредственный контроль Сасанидов ограничивался преимущественно землями к югу от Амударьи, тогда как Мавераннахр находился под влиянием местных династий, кидаритов, эфталитов и, наконец, Тюркского каганата. Исследование опирается на среднеперсидский географический текст «Шахрестаниха-и Эраншахр», нумизматические и археологические данные, а также современную научную литературу.

Ключевые слова: Сасанидская империя, Центральная Азия, историческая география, Эраншахр, Хорасан, Кушано-Сасанидское царство, Тохаристан, Согд, Хорезм, эфталиты, Тюркский каганат, куст, «Шахрестаниха-и Эраншахр».

ANNOTATIONThis article examines the historical geography of Central Asia within the era of the Sasanian Empire (224-651 CE). It addresses the political and administrative structure of the frontier zone between Iran and Turan, the formation of the Khorasan kust (quarter), the Kushano-Sasanian kingdom, Tokharistan, Sogdiana, Chorasmia, and the eastern oases. It argues that direct Sasanian control was largely confined to the lands south of the Oxus, while Transoxiana remained under the influence of local dynasties, the Kidarites, the Hephthalites, and ultimately the Türk Khaganate. The study draws on the Middle

Persian geographical text Šahrestānīhā ī Ērānšahr, numismatic and archaeological evidence, and current scholarship.

Keywords: Sasanian Empire, Central Asia, historical geography, Ērānšahr, Khorasan, Kushano-Sasanian kingdom, Tokharistan, Sogdiana, Chorasmia, Hephthalites, Türk Khaganate, kust, Šahrestānīhā ī Ērānšahr.

KIRISH

Qadimgi dunyoning so‘nggi bosqichida Sharqda avval Rim, keyinchalik Vizantiya bilan bellashgan yirik davlat - Sosoniylar imperiyasi (224-651) bo‘lib, uning shimoli-sharqiy sarhadlari bevosita Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy makoni bilan tutashgan edi. Eron zaminining sharqiy chekkasidagi Xuroson, Marv va Toxariston kabi viloyatlar bir tomondan o‘troq Eron sivilizatsiyasi, ikkinchi tomondan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi Turon dunyosi o‘rtasidagi o‘ziga xos oraliq mintaqani tashkil etardi [3; 5]. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoning aynan Sosoniylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keluvchi tarixiy geografiyasi - siyosiy-ma’muriy tuzilishi, viloyatlar chegaralari, shahar-voha tarmog‘i va hududlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, an’anaviy tarixnavislikda “Sosoniylar davri Markaziy Osiyosi” ko‘pincha faqat Eron imperiyasi tarixining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Aslida esa bu davrda Movarounnahr (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘i) hududining katta qismi Sosoniylarning bevosita nazoratidan tashqarida bo‘lib, mahalliy sulolalar, kidariylar, eftaliylar va nihoyat Turk xoqonligi ta’sir doirasida qolgan [3; 4; 5]. Shu bois ushbu maqolada “Sosoniylar davri” atamasi geografik emas, balki xronologik doira - milodiy III-VII asrlar oralig‘i ma’nosida qo‘llangan.

Maqolaning maqsadi - 224-651-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyoning tarixiy-geografik manzarasini asosiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyot asosida qayta tiklash hamda Sosoniylarning haqiqiy hududiy mavjudligini mahalliy va ko‘chmanchi kuchlarning ta’sir doirasidan farqlashdan iborat. Bunda hukmdorlik mafkurasi doirasidagi rasmiy da’volar (masalan, saroy kitobalari) bilan arxeologik va numizmatik dalillar o‘rtasidagi tafovutga alohida e’tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuning manba bazasi bir necha qatlamdan tashkil topadi. Birlamchi yozma manbalar orasida o‘rta fors tilidagi yagona yirik geografik risola - “Shahrestoniho i Eronshahr” (Šahrestānīhā ī Ērānšahr, “Eronshahr shahristonlari”) alohida ahamiyatga ega. Matn oxirgi tahririni Abbosiylar davrida (VIII asr oxiri - IX asr boshi) olgan bo‘lsa-da, uning o‘zagi so‘nggi Sosoniylar davriga borib taqaladi va Eronshahr shaharlarini, ularning afsonaviy hamda tarixiy asoschilarini sanab o‘tadi [1; 9]. Bu risolaning tanqidiy nashri va inglizcha tarjimasi T.Daryoiy tomonidan amalga oshirilgan [1]. Shopur I ning Ka’ba-yi Zardusht (ShKZ) kitobasi esa imperiyaning sharqiy chegaralari to‘g‘risidagi eng muhim epigrafik guvohlikdir [3; 7].

Ilmiy adabiyotning asosini bir necha fundamental asar tashkil etadi. Klassik tadqiqotlar orasida Y.Markvartning “A Catalogue of the Provincial Capitals of Ērānšahr” (1931) matnshunoslik nuqtai nazaridan hamon qimmatlidir [2]. Markaziy Osiyoning III-VIII asrlardagi tarixiga bag‘ishlangan eng nufuzli

jamoaviy asar - YUNESKOning “Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi”ning B.A.Litvinskiy tahriridagi III jildidir [5]. Zamonaviy sintez sifatida K.Rezaxonining “ReOrienting the Sasanians: East Iran in Late Antiquity” (2017) monografiyasi, E.de la Vessyerning “So‘g‘d savdogarlari” (2005) tadqiqoti hamda “Encyclopædia Iranica”ning tegishli maqolalari muhim o‘rin tutadi [3; 4; 7; 8; 9; 10].

Tadqiqot tarixiy-geografik, manbashunoslik-tanqidiy (matnlarni o‘zaro qiyoslash), retrospektiv va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi. Kartografik qayta tiklashda yozma da’volar arxeologik reallik bilan solishtiriladi, chunki Sosoniy shohlarining kitobalaridagi hududiy da’volar ko‘pincha haqiqiy ma’muriy nazoratdan kengroq bo‘lgan. Xronologik masalalarda mavjud ilmiy kelishmovchiliklar (masalan, eftaliylar davlatining qulash sanasi yoki Kushon-Sosoniy sulolasining boshlanishi) yashirilmasdan, ochiq ko‘rsatib o‘tiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sulola asoschisi Ardasher I (224-242) o‘z davlatini “Eronshahr” (Ērānšahr, “Eronliklar mamlakati/hokimligi”) deb atagan; uning o‘g‘li Shopur I (240-270) esa Ka’ba-yi Zardusht kitobasida o‘zini “eronliklar va noeronliklar shohanshohi” (šāhānšāh ērān ud anērān) deb nomlagan [3; 6]. Bu atama zaminida oddiy geografik chegara emas, balki mafkuraviy qarama-qarshilik - “Eron” (o‘troq, zardushtiy sivilizatsiya) va “Aneron/Turon” (undan tashqaridagi olam) tasavvuri yotardi. Amudaryo (qadimgi Oks, arabcha Jayhun) ana shu ikki dunyoni ajratuvchi ramziy va, ko‘p hollarda, real chegara sifatida qabul qilingan.

Ka’ba-yi Zardusht kitobasida Shopur I o‘z hokimiyati chegaralarini “Peshovarga qadar Kushonshahr”ni (Kūšān-šahr) o‘z ichiga olishini e’lon qiladi [3; 7]. Pul-i Xumriy yaqinidagi Rag-i Bibi qoya relyefi - Shopur I ni tasvirlaydi deb qabul qilingan - bu da’voni ma’lum darajada tasdiqlaydi va Kushon imperiyasining shimoliy qismi Sosoniylar tasarrufiga o‘tganini ko‘rsatadi [7]. Shu bilan birga, mutaxassislar bunday kitobalardagi hududiy da’volarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni tavsiya etadilar: rasmiy e’lon qilingan chegara har doim ham bevosita ma’muriy nazoratni anglatmagan.

Xuroson. Ilk Sosoniylar davrida imperiya ko‘plab viloyatlarga bo‘lingan va ularni shahrablar (šahrab) boshqargan. VI asrda esa - an’anaviy ravishda Kavad I (488-531) yoki Xusrav I Anushervon (531-579) hukmronligiga nisbat beriladigan islohot natijasida - davlat to‘rt yirik “kust”ga (tomon, chorak) qayta bo‘lingan; islohotning aniq muallifi va sanasi borasida ilmiy adabiyotda yakdil fikr yo‘q [4; 5]. To‘rt kust dunyoning to‘rt tomoniga muvofiq nomlangan: Xwarasan (shimoli-sharq), Xwarvaron (janubi-g‘arb), Nimruz (janubi-sharq) va Adurbadagan (shimoli-g‘arb) [1; 9].

Diqqatga sazovor jihat shuki, zardushtiylikda shimol (abaxtar) yovuzlik va devlar makoni hisoblangani uchun shimoliy chorak “abaxtar” so‘zidan qochilgan holda, o‘zining eng muhim viloyati nomi bilan “Adurbadagan” deb atalgan [9]. Markaziy Osiyoga yuzlangan Xuroson - “quyosh chiqadigan tomon” ma’nosini bildiruvchi shimoli-sharqiy chorak - imperiyaning ko‘chmanchi dunyoga qaragan mudofaa va savdo darvozasi vazifasini o‘tagan [8]. An’anaga ko‘ra Xuroson to‘rtta

kichik o‘lkaga bo‘lingan va har birini marzbon boshqargan; bu markazlar Nishopur, Marv, Hirot va Balx bo‘lgan [8].

“Shahrestoniho i Eronshahr” Eronshahr shaharlarini afsonaviy va tarixiy asoschilar bilan bog‘lab sanab o‘tadi. Masalan, sharqiy kust doirasida Samarqandning bunyod etilishi kayoniy hukmdor Kay Us bilan bog‘lanadi [9]. Bunday ma’lumotlar tarixiy voqelik emas, balki eron eposi va zardushtiy an’anasining aksi sifatida - afsonaviy qatlam sifatida qabul qilinishi lozim. Shunga qaramay, matn Sosoniy ma’muriy geografiyasining o‘zini qanday tasavvur qilgani haqida bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Marv (Marg‘iyona). Marv vohasi (qadimgi Margiyona) Xurosonning sharqiy chetida joylashib, marzbon qarorgohi va yirik zarbxona sifatida imperiyaning shimoli-sharqiy tayanch nuqtasi bo‘lgan. Sosoniylar davrida ham bu yerdagi shahar hayoti uzluksiz davom etgan; Marvda buddaviylik izlari ham qayd etilgan bo‘lib, ilgari ular Kushon-Sosoniy davrida vayron etilgan deb qaralsa-da, hozirgi tadqiqotlar Marvdagi buddaviy yodgorliklarni V asrga oidligini ko‘rsatmoqda [7]. Bundan tashqari, Marv Sharq cherkovi (nestorian xristianligi) mitropoliti qarorgohlaridan biri bo‘lib, dinlar chorrahasidagi mavqeini namoyish etadi [5].

Marvning strategik ahamiyati imperiya inqirozi arafasida ham saqlanib qoldi: arab istilosi davrida so‘nggi Sosoniy shohanshohi Yazdigird III g‘arbiy viloyatlarni yo‘qotgach, sharqqa - Xurosonga chekindi va 651-yilda Marv yaqinida halok bo‘ldi [3; 6]. Shu tariqa Markaziy Osiyoning bu chekka vohasi Sosoniy davlatchiligining ham chiqish nuqtasi, ham so‘nggi manzili bo‘lib qoldi.

Kushon-Sosoniy podsholigi va Toxariston (Baqtriya)

G‘arbiy Kushonlar tanazzulidan so‘ng, taxminan III asr o‘rtalarida Sosoniy sulolasining yon tarmog‘i vakillari Baqtriyada hokimiyatni qo‘lga kiritib, o‘z tangalarida “kushonshoh” (baqtriycha košano šao) unvonini qabul qildilar. Ilmiy adabiyotda ular “Kushon-Sosoniylar” (yoki Hind-Sosoniylar) deb ataladi va ko‘pincha imperiya ichidagi yarim mustaqil “podsholik” sifatida talqin qilinadi [3; 7]. Ushbu sulolaning xronologiyasi baholi qudrat noaniq: ba’zi olimlar (J.Kribb) uni istilodan so‘ng darhol boshlangan deb hisoblasa, boshqalari (R.Gobl) ancha kechroq sanani taklif etadi; oraliq nuqtai nazar esa F.Grene tomonidan asoslangan [7]. Bu - mavzudagi ochiq ilmiy munozaralardan biridir.

Kushon-Sosoniylar Marv va Balx zarbxonalarida oltin hamda mis tangalar zarb etganlar; ularning tangalari Kushon an’analari bilan Sosoniy uslubini o‘zida uyg‘unlashtiradi [7; 11]. Arxeologik ma’lumotlar Baqtriyada bu davrda o‘troq hayot va sug‘orma dehqonchilikning keskin tanazzuliga uchramaganini, aksincha, ayrim shaharlar (masalan, Zartepa) hatto gullab-yashnaganini ko‘rsatadi; Termizdagi buddaviy monastir majmualari IV asr oxirigacha faoliyatini davom ettirgan [5]. IV asr oxiridan boshlab bu o‘lka manbalarda “Toxariston” (“toxarlar yurti”) nomi bilan uchraydi [5]. IV asr o‘rtalarida esa mintaqa kidariylar tazyiqi ostida Sosoniylarning bevosita nazoratidan chiqa boshladi.

IV-V asrlarda Markaziy Osiyoning shimoliy hududlariga izchil ravishda ko‘chmanchi konfederatsiyalar - avval xioniylar va kidariylar, so‘ngra eftaliylar (“oq xunlar”) - kirib keldi. Tadqiqotchi R.Gobl ularni umumiy tarzda “Eron xunlari” deb atagan [3]. Eftaliylar “imperiya” bosqichida (taxminan 450-560)

Baqtriya, So‘g‘d, Tarim havzasining bir qismi va shimoliy Hindistonni o‘z ta’siriga oldi. 484-yilda Sosoniy shohi Peroz I eftaliylarga qarshi jangda halok bo‘ldi - bu Sosoniylar uchun og‘ir zarba edi; keyinchalik Kavad I taxtni aynan eftaliylar ko‘magida qo‘lga kiritdi [3; 5].

Ana shu davr - V asr oxiri va VI asr boshlari - Markaziy Osiyoning Amudaryodan shimolidagi qismi qat’iy ravishda Sosoniy nazoratidan tashqarida bo‘lgan bosqichdir. Toxariston esa eftaliylar hokimiyatining muhim markazlaridan biriga aylandi. Shuni ta’kidlash lozimki, eftaliylarning etnik va til jihatidan kelib chiqishi (eroniy, turkiy yoki aralash) hozirgacha ilmiy munozara mavzusi bo‘lib qolmoqda; manbalarning tarqoqligi bu masalada qat’iy xulosa chiqarishga imkon bermaydi [3].

So‘g‘d (Sog‘diana). Movarounnahrning yuragi - Zarafshon vodiysidagi So‘g‘d - bu davrda na Sosoniylar, na eftaliylarning og‘ir markazlashgan nazorati ostida bo‘lgan; o‘lkani asosan savdogar aristokratiyasi boshqargan. Samarqand (Afrosiyob), Buxoro, Panjikent va Varaxsha kabi shaharlar o‘zining hunarmandchiligi, devoriy suratlari va savdo salohiyati bilan ajralib turgan [4; 5]. IV-VIII asrlarda Ipak yo‘lining ichki tarmog‘i amalda So‘g‘d savdo tarmog‘i bilan sinonim bo‘lgan; so‘g‘diylar Xitoydan Vizantiyagacha cho‘zilgan diasporani tashkil etganlar [4].

So‘g‘diylarning tijorat faolligi allaqachon IV asr boshida yuqori darajaga ko‘tarilgan edi: Dunxuan yaqinida topilgan “Qadimgi maktublar” (taxminan 313-yil atrofida) Gansuda so‘g‘d savdo jamoalari mavjudligidan dalolat beradi [4]. Sosoniylarning bevosita hokimiyati bu yerga yetib bormagan bo‘lsa-da, ularning kumush drahmlari mintaqada keng muomalada bo‘lgan va pul tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [4; 10]. Shu ma’noda So‘g‘d Sosoniy imperiyasi bilan hududiy emas, balki iqtisodiy-madaniy jihatdan bog‘langan edi.

Xorazm. Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm So‘g‘ddan Qizilqum, Xurosondan esa Qoraqum sahrolari bilan ajralib turgan va ko‘p jihatdan mustaqil sivilizatsiya o‘chog‘ini tashkil etgan [8]. Xorazm o‘zining alohida yozuvi, tangalari va sulolasiga ega bo‘lib, Sosoniylarning bevosita tasarrufida bo‘lmagan. Xorazmning bu davrga oid tarixi haqidagi asosiy hikoya manbai - XI asrda yashagan Abu Rayhon Beruniyning asarlari; unda mahalliy sulola (afrig‘iylar) uchun an’anaviy sana keltiriladi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar Beruniy keltirgan ilk davr xronologiyasi va sulola ro‘yxatiga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar, chunki ularni mustaqil manbalar bilan tasdiqlash qiyin.

Arxeologik jihatdan Xorazm boy o‘troq madaniyatga ega bo‘lgan; Toprak-qal’a kabi yirik yodgorliklar mahalliy davlatchilik va shaharsozlik an’analarining yuksak darajasidan dalolat beradi. Umuman olganda, Xorazm Sosoniylar davrida Markaziy Osiyoning eng mustaqil hududlaridan biri bo‘lib qoldi va Eron imperiyasi ta’siriga faqat qisman - asosan savdo va madaniy aloqalar orqali - tortildi.

Sharqiy vohalar: Choch, Ustrushona va Farg‘ona. Movarounnahrning sharqiy chekkasida Choch (Shosh - hozirgi Toshkent vohasi; markazi Binkat/Benkat), Ustrushona (markazi Bunjikat) va Farg‘ona (markazlari Axsikat va Xo‘jand) joylashgan edi [8]. Bu vohalar Sosoniylarning ta’sir doirasidan

tashqarida bo‘lib, ko‘proq dasht olami va Xitoy bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularni mahalliy hukmdorlar hamda tobora kuchayib borayotgan turkiy elementlar boshqargan.

Aynan mana shu sharqiy chegara keyinchalik - arab istilosi arafasida - o‘troq dunyoning eng chekka sarhadini belgilab bergan. Manbalarga ko‘ra, Umaviylar hokimiyati amalda Samarqand bilan Ustrushona oralig‘ida to‘xtagan, sharqdagi Choch va Farg‘ona esa uzoq vaqt nisbatan mustaqil bo‘lib qolgan [8]. Bu hol Markaziy Osiyoning sharqiy qismi Eron sivilizatsiyasi ta’siridan ko‘ra dasht va Sharqiy Turkiston olamiga ko‘proq tortilganini ko‘rsatadi.

Sosoniy-Turk ittifoqi va eftaliylar davlatining qulashi. VI asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoning siyosiy-geografik manzarasini tubdan o‘zgartirgan voqealar yuz berdi. 552-yilda Mongoliyada Turk xoqonligi tashkil topib, g‘arbga tomon tez kengaydi; xoqonlikning g‘arbiy qanoti sarkardasi Istami eftaliylar bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. Ana shu vaziyatdan foydalanib, Sosoniy shohi Xusrav I Anushervon Turklar bilan eftaliylarga qarshi ittifoq tuzdi [3; 5]. Ittifoqchi kuchlar eftaliylarni shimol va g‘arbdan bir vaqtda zarbaga oldilar; hal qiluvchi jang Buxoro (ba’zi talqinlarda Qarshi) yaqinidagi Gol-Zarriun jangi sifatida qayd etiladi.

Ushbu voqealarning aniq sanasi ilmiy adabiyotda bahsli bo‘lib qolmoqda: turli tadqiqotlarda 557, 560, 563, 565 yoki 567-yil ko‘rsatiladi. Shunga qaramay, terminal sana sifatida 561-yildan kechikmasligini bir dalil tasdiqlaydi - o‘sha yilning oxirida Vizantiya bilan olib borilgan muzokaralarda Sosoniy elchisi Zix o‘z shohi Xusrav “eftaliylar qudratini yakson etgani”ni maqtanib eslatadi (Menandr Protektor parchasi) [3]. Bu davrga oid sanalarning tarqoqligi manbalar tabiati bilan bog‘liq va uni yashirmaslik ilmiy halollik talabidir.

G‘alabadan so‘ng Amudaryo ikki imperiya o‘rtasidagi chegara sifatida belgilandi: daryodan shimoldagi yerlar (So‘g‘d, Ustrushona) Turklar tasarrufiga, janubdagi Toxariston esa Sosoniylarga o‘tdi [3; 5]. Biroq ittifoq uzoqqa cho‘zilmadi; manfaatlar to‘qnashuvi Sosoniy-Turk urushlariga olib keldi. 588-589-yillardagi urushda Sosoniy sarkardasi Bahrom Chubin Xurosonning sharqida bostirib kirgan kuchlarni qaytardi [3; 5]. Umumiy natijada Amudaryo Eron-Turon o‘rtasidagi barqaror chegaraga aylandi va Markaziy Osiyoda turkiy davr boshlandi - bu keyingi asrlar tarixiy geografiyasini belgilab bergan burilish nuqtasi edi.

Sosoniylar davlat dini sifatida zardushtiylikni targ‘ib etgan (otashkadalar, Kartir kitobalari), biroq Markaziy Osiyo diniy jihatdan nihoyatda rang-barang makon bo‘lib qolgan. Baqtriya va Toxaristonda buddaviylik kuchli mavqega ega bo‘lgan (Termiz monastirlari, keyinchalik Bomiyon); moniylik asosan so‘g‘diylar orqali sharqqa tarqalgan; nestorian xristianligi Marvda mitropolit qarorgohiga ega bo‘lgan; mahalliy kultlar - Baqtriya xudolari, Anahita, So‘g‘ddagi Nana/Nanaya - keng yoyilgan edi [5; 7]. Shu ma’noda mintaqa turli e’tiqodlar chorrahasi vazifasini o‘tagan.

Til geografiyasi ham xuddi shunday xilma-xil edi: Sosoniy tasarrufidagi yerlarda o‘rta fors (pahlaviy) tili, Toxaristonda baqtriy tili, So‘g‘dda so‘g‘d tili, Xorazmda esa xorazmiy tili amal qilgan [4; 5]. Ushbu diniy va lingvistik mozaika - hududlarning o‘ziga xos madaniy chegaralarini belgilagani bois - tarixiy

geografiyaning ajralmas qismidir. U Markaziy Osiyoning Sosoniy davridagi yagona emas, balki koʻp qatlamli, koʻp markazli tabiatini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil Markaziy Osiyoning Sosoniylar davridagi (224-651) tarixiy geografiyasi yagona imperiya makoni emas, balki bir necha kuch maydonining murakkab mozaikasidan iborat boʻlganini koʻrsatadi. Sosoniylarning bevosita hududiy hukmronligi asosan Xuroson bilan (hamda oraliq davrlarda kushonshohlar orqali Toxariston/Baqtriya bilan) cheklangan. Movarounnahr esa - Soʻgʻd, Xorazm, Choch, Ustrushona va Fargʻona - koʻproq mahalliy sulolalar, kidariylar, eftaliylar va nihoyat Turk xoqonligining ta'sir doirasida qolgan.

Sosoniylarning mintaqadagi mavjudligi hududiy bosib olishdan koʻra iqtisodiy-madaniy ta'sir shaklida - kumush drahmlarning muomalasi, ma'muriy tuzilma andozalari va zardushtiy muassasalar orqali namoyon boʻlgan. VI asr oʻrtalarida Sosoniy-Turk ittifoqi natijasida eftaliylar davlatining qulashi va Amudaryoning Eron-Turon chegarasi sifatida belgilanishi mintaqa tarixiy geografiyasidagi hal qiluvchi burilish boʻldi va turkiy davrga zamin yaratdi.

Nihoyat, ta'kidlash lozimki, ayrim masalalar - Kushon-Sosoniy sulolasi xronologiyasi, eftaliylarning etnogenezi, eftaliylar davlati qulash sanasi va Xorazmning ilk davr tarixi - hozirgacha ochiq ilmiy munozara mavzusi boʻlib qolmoqda. Bu boradagi aniqroq xulosalar avvalambor yangi arxeologik va numizmatik tadqiqotlar hamda birlamchi manbalarni qiyosiy oʻrganish orqali shakllanadi. Ushbu maqola esa mavjud manbalar doirasida mintaqaning yaxlit tarixiy-geografik manzarasini tiklashga qaratilgan urinishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Daryaee T. Šahrestānīhā ī Ērānšahr: A Middle Persian Text on Late Antique Geography, Epic and History. - Costa Mesa (California): Mazda Publishers, 2002.

2. Markwart J. A Catalogue of the Provincial Capitals of Ērānšahr / ed. G. Messina. - Roma: Pontificio Istituto Biblico, 1931.

3. Rezakhani K. ReOrienting the Sasanians: East Iran in Late Antiquity. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2017.

4. de la Vaissière É. Sogdian Traders: A History / transl. J. Ward. - Leiden - Boston: Brill, 2005. (Handbook of Oriental Studies, Section 8, Vol. 10). ISBN 978-90-04-14252-7.

5. Litvinsky B. A., Zhang Guang-da, Shabani Samghabadi R. (eds.) History of Civilizations of Central Asia. Vol. III: The Crossroads of Civilizations, A.D. 250 to 750. - Paris: UNESCO Publishing, 1996. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000188483 (murojaat sanasi: 01.07.2026).

6. Daryaee T. Sasanian Persia: The Rise and Fall of an Empire. - London - New York: I. B. Tauris, 2009.

7. Grenet F. KUSHANSHAHS i. History // Encyclopædia Iranica. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/kushanshahs-01/ (murojaat sanasi: 01.07.2026).

8. KHORASAN iii. Historical Geography in the Late Sasanid-Early Islamic Periods // Encyclopædia Iranica. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/khorasan-iii-historical-geography-in-the-late-sasanid-early-islamic-periods/ (murojaat sanasi: 01.07.2026).

9. Daryaee T. ŠAHRESTĀNĪHĀ Ī ĒRĀNŠAHR // Encyclopædia Iranica. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/sahrestaniha-i-eransahr/ (murojaat sanasi: 01.07.2026).

10. de la Vaissière É. SOGDIAN TRADE // Encyclopædia Iranica. URL: https://www.iranicaonline.org/articles/sogdian-trade/ (murojaat sanasi: 01.07.2026).

11. Jongeward D., Cribb J. (with P. Donovan). Kushan, Kushano-Sasanian, and Kidarite Coins: A Catalogue of Coins from the American Numismatic Society. - New York: American Numismatic Society, 2015.

TURKISTON ILK O‘RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI – VIII VA IX – XIII ASRLAR)

Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi
FarDU,Ingliz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
Tojiboyeva Gulhayo To’lqinjon qizi
Farg’ona Davlat Universiteti
Chet tillari fakulteti
1-bosqich talabasi
Telefon: +998901604252
E-mail: *tojiboyevagulhayo25@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston hududining ilk o‘rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda tarixiy geografik rivojlanishi tahlil etiladi. VI–VIII asrlarda Turk xoqonligi, So‘g‘d, Xorazm va Farg‘ona kabi mintaqalar o‘zaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarda bo‘lgan, IX–XIII asrlarda esa islom sivilizatsiyasining kirib kelishi bilan yangi davlatlar – Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida yirik madaniy va ilmiy markazlar shakllangan. Maqolada tarixiy manbalar asosida o‘sha davr shaharsozligi, savdo yo‘llari va tabiiy-geografik sharoitlarning tarixiy jarayonlarga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, o‘rta asrlar, tarixiy geografiya, So‘g‘d, Turk xoqonligi, Qoraxoniylar, Xorazm, Somoniylar, karvon yo‘llari.

Аннотация: В статье рассматривается историко-географическое развитие региона Туркестан в раннем Средневековье. Анализируются политические и экономические отношения между государствами Тюркского каганата, Согда, Хорезма и Ферганы (VI–VIII века), а также процессы исламизации и культурного расцвета при Саманидах, Караханидах и Хорезмшахах (IX–XIII века). Особое внимание уделено городам, торговым путям и влиянию природно-географических факторов на исторические процессы.

Ключевые слова: Туркестан, Средневековье, историческая география, Согд, Тюркский каганат, Караханиды, Саманиды, Хорезм.

Abstract: This article analyzes the historical and geographical development of Turkestan during the Early Middle Ages. It explores the political and economic relations between the Turkic Khaganate, Sogdiana, Kharazm, and Ferghana (6th–8th centuries), as well as the spread of Islam and the cultural flourishing under the Samanids, Karakhanids, and Kharazmshahs (9th–13th centuries). Special attention is given to the development of cities, trade routes, and the impact of geographical conditions on historical processes.

Keywords: Turkestan, Middle Ages, historical geography, Sogdiana, Turkic Khaganate, Karakhanids, Samanids, Kharazm.

Kirish.

Turkiston hududi qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim geografil o’lka bo‘lib, u o‘zining tabiiy sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va strategik joylashuvi bilan tarixda o’ziga xos iz qoldirgan. Ilk o‘rta asrlarda (VI–XIII asrlar) bu hududda turkiy, forsiy va arab madaniyatlari bir-biri bilan uyg‘unlashgan, natijada noyob sivilizatsion jarayonlar yuzaga kelgan.

Asosiy qism

1. VI–VIII asrlar: Turk xoqonligi va So‘g‘d madaniyati

VI asrda Turk xoqonligi tashkil topib [1], O‘rta Osiyoda yirik siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Uning hududi Sharqiy Turkistondan Qora dengizgacha cho‘zilgan bo‘lib, Turkiston mintaqasi bu davlatning muhim qismi hisoblangan. Turk xoqonligi davrida o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur va boshqa turkiy xalqlarning etnik shakllanish jarayonlari boshlangan.

So‘g‘diylar esa bu davrda [2] iqtisodiy hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishgan. Ular “Buyuk Ipak yo‘li” orqali Xitoy, Hindiston, Eronga savdo karvonlarini yuborgan, So‘g‘d yozuvi va tillari mintaqaviy diplomatiyada muhim ahamiyat kasb etgan. Samarqand, Panjikent, Buxoro kabi shaharlarda topilgan yozma yodgorliklar o‘sha davrning rivojlangan madaniy hayotidan dalolat beradi.

2. IX–XIII asrlar: Islom sivilizatsiyasi va yangi davlatlarning paydo bo‘lishi

VIII asr oxirlarida arab xalifaligi hukmronligi ostida islom dini Turkiston hududiga kirib keldi. IX asrga kelib, Somoniylar davrida Movarounnahrda islom madaniyati yuksak darajada rivojlandi [3]. Buxoro va Samarqand musulmon dunyosining ilmiy va madaniy markazlariga aylandi. Somoniylar davrida tarixiy geografiya jihatidan sug‘orish tizimlari, shaharsozlik va qishloq xo‘jaligi ancha rivojlandi. Amudaryo va Sirdaryo vodiysidagi suv manbalari asosida yirik dehqonchilik yerlari barpo etildi. Bu esa iqtisodiy farovonlikka sabab bo‘ldi.X asr oxirida Qoraxoniylar davlati shakllanib [4], u turkiy xalqlarning siyosiy mustaqilligini tikladi. Ularning poytaxtlari – Balasog‘un, Qashg‘ar va O‘zgand – turkiy yozuv, adabiyot va ilm markazlariga aylangan. Qoraxoniylar davrida arab yozuvidan foydalanilgan, islomiy me’morchilik va san’at yuksak darajada rivoj topgan.XII asrda Xorazmshohlar davlati siyosiy jihatdan kuchayib [5], butun Movarounnahr va Xurosonni o‘z tarkibiga qo‘shdi. Ularning poytaxti Urganch (Ko‘hna Gurganj) o‘sha davrning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lgan. Xorazmshohlar davrida karvon yo‘llari, savdo markazlari va ilmiy maktablar faol

rivoj topdi.Ammo XIII asr boshlarida Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul istilosi Turkistonning ko‘plab shaharlarini vayronaga aylantirdi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz kabi markazlar yo‘q qilindi, biroq bu voqealar mintaqaning tarixiy taraqqiyotini to‘xtata olmadi.

Tarixiy geografiya Turkiston o‘tmishini o‘rganishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu fan orqali biz qadimgi daryo o‘zanlarini, o‘rta asrlardagi karvon yo‘llarini, shaharlarning joylashuvini, suv tarmoqlarini tiklash imkoniga egamiz. Masalan, Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi Xorazm vohasining siyosiy taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

O‘rta asr geograflari – Ishtaxriy [6], Ibn Xavqal [7], Al-Muqaddasiy [8]– o‘z asarlarida Turkistonning tabiiy boyliklari, aholi soni, shaharlarning joylashuvi haqida batafsil ma’lumotlar keltirgan. Ularning yozuvlari bugungi tarixiy geografiya uchun bebaho manba hisoblanadi.

Tarixiy geografiyaning yondashuvi shundan iboratki, u tarixiy voqealarni faqat sanalar asosida emas, balki hududiy o‘zgarishlar bilan bog‘lab tahlil qiladi. Shu bois, Turkistonning o‘rta asr tarixini to‘liq anglash uchun geografik omillarni chuqur o‘rganish zarur.

Xulosa

Turkiston ilk o‘rta asrlarda nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki madaniy uyg‘onish o‘chog‘i ham bo‘lgan. Bu davrda turkiy xalqlarning etnik birligi shakllangan, islom dini keng yoyilgan, ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan. Tarixiy geografiya esa ushbu jarayonlarni chuqur tahlil etish, qadimiy shaharlar, daryo o‘zanlari, karvon yo‘llari va tabiiy omillarning o‘rni haqida aniq tasavvur beradi.

Turkiston o‘tmishidagi bu davrlar bugungi milliy o‘zlikni anglash, tarixiy qadriyatlarni qayta baholash va ilmiy tahlil qilish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bartold V.V. Turkiston v epokhu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963.

2. Karimov A. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo tarixi. – Toshkent: Fan, 1999.

3. Sagdullayev A., Hasanov A. O‘zbekiston tarixi: qadimgi va o‘rta asrlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

4. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran. – Edinburgh University Press, 1963.

5. Ibn Xavqal. Kitob al-Masolik va-l-Mamolik. – Tarixiy manba.

6. Istaxriy. Kitob al-Masolik va-l-Mamolik. – Qadimiy arab geograflari asarlari to‘plami.

7. Al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. – Beyrut, 1906.

1. Karimov A. O‘rta asrlarda Markaziy Osiyo tarixi. – Toshkent: Fan, 1999. B. 45–47.

2. Bartold V.V. Turkiston v epokhu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963. S. 120–125.

3. Sagdullayev A., Hasanov A. O‘zbekiston tarixi: qadimgi va o‘rta asrlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. B. 80–85.

4. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran. – Edinburgh University Press, 1963. P. 65–70.
5. Ibn Xavqal. Kitob al-Masolik va-l-Mamolik. – Tarixiy manba. B. 150–155.
6. Istaxriy. Kitob al-Masolik va-l-Mamolik. – Qadimiy arab geograflari asarlari to‘plami. B. 160–162.
7. Al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. – Beyrut, 1906. S. 200–205.

“TARIXI SALOTINI MANG‘ITIYA” ASARIDA TARIXIY GEOGRAFIYAGA OID MA`LUMOTLAR

Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi”
katta o‘qituvchisi, t.f.f.d, Kalandarova F.A.
ferangizazamatovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mirzo Azim Somiy(1838-1907) ning “Tarixi salotini mang‘itiya” asari va unda keltirilgan geografik, toponimik joy nomlari haqidagi ma`lumotlar berilgan. Asardagi ushbu malumotlar Buxoro amirligining va unga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning hududi, tarixiy chegaralari va geografiyasi haqida umumiy tasavvur va tushuncha hosil qilishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Maydayulg‘un, Erjar, Jome’ poyanda otaliq masjidi, Yettishahar, Abdumalik to‘ra, Qoshg‘ar.

Аннотация: В статье даются сведения о произведении Мирзо Азима Сомий (1838–1907) «Тарихи салотини мангитийа» и упомянутых в нём географических и топонимических названиях. Эти сведения, содержащиеся в произведении, помогают составить общее представление и понимание о территории, исторических границ и географии Бухарского эмирата и соседних стран.

Abstract: This article provides information about the work "Tarihi salotini mangitiya" by Mirzo Azim Somiy (1838-1907) and the geographical and toponymic place names mentioned in it. This information in the work helps to create a general idea and understanding of the territory, historical borders and geography of the Bukhara Emirate and neighboring countries.

Mang‘itlar davri tarixini o‘zida aks ettirgan bir qancha asarlarning muallifi hisoblanadi. Uning asarlari tarix, insho ilmi, tazkira, diniy mavzularga oid bo‘lib, ularning ba`zilari nasrda bitilgan bo‘lsa, ba`zilari nazmda yozilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijid etgan Mirzo Azim Somiy(1838-1907) mang‘itlar davri tarixini o‘zida aks ettirgan bir qancha asarlarning muallifi hisoblanadi. Uning asarlari tarix, insho ilmi, tazkira, diniy mavzularga oid bo‘lib, ularning ba`zilari nasrda bitilgan bo‘lsa, ba`zilari nazmda yozilgan.

Somiyning tarixga bag‘ishlab yozgan asarlarida Buxoro amirligining va unga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning tarixiy geografiyasiga oid malumotlarni ham uchratish mumkin. Dastlabki faoliyatini turli beklarning munshiysi sifatida boshlagan Somiy, keyinchalik amir Muzaffar(1860-1885) davrida saroyning bosh munshiysi darajasigacha ko‘tariladi. Aynan shu sabab Somiy amirning

yurishlarida, ayniqsa amirlik askarlarining rus qo‘shini bilan bo‘lib o‘tgan janglarida voqealarning kuzatuvchisi sifatida ishtirok etgan. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga aylanishi jarayoni uning “Tarixi salotini mang‘itiya” asarida batafsil yoritilgan. Ushbu asar tarixiy voqelikni yoritibgina qolmay, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi davlat boshqaruvi, etnik tarix, ayniqsa tarixiy geografiyaga oid ko‘plab malumotlarni taqdim etadi.

Somiy Jizzax, Cho‘ponota, Zirabuloq janglari, so‘ng Kattaqo‘rg‘on va Payshanbaning egallanib, mamlakatning yarim mustamlakaga aylanib borishi haqida bayon qilar ekan, o‘z asarida askarlarning harakatlanish jarayoni, geografik joy nomlari, toponimik va topografiyaga oid malumotlarni ham taqdim etadi.

Somiy asarda rus va buxoro qo‘shinlarining Sirdaryo bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangini Maydayulg‘un jangi deb nomlaydi. Ammo rus mualliflarining barchasi mazkur janggga “Erjar jangi”123 deb nom berishgan. Ahmad Donish esa bu jangni Sirdaryo bo‘yidagi Sassiqko‘l jangi deb nomlaydi. Ibrat o‘zining “Farg‘ona tarixi” kitobida bu to‘qnashuvni Somiy kabi Maydayulg‘un jangi deb yozgan124 bo‘lsa, Mirzo Salimbek esa bu jangni Ahmad Donish kabi “Sassiqko‘l” jangi deb tilga oladi.125

Voqealar bayoni davomida Somiy G‘uzorda Abdumalik to‘ra boshchiligida qo‘zg‘olon qo‘tarilgani haqida yozar ekan, asosan Abdumalik to‘raning keyingi harakatlari, yani mag‘lubiyatga uchrab mamlakatni tark etgani haqida bayon qiladi. Unda shahzodaning mamlakat hududlarini tark etishdan oldin borgan shaharlari marshruti batafsil berilgan. Quyida uning taxminiy yo‘nalishi tuzizishga harakat kildik. To‘ra mag‘lub bo‘lgach Qarshidan – Toshqo‘rg‘on - Katta Qo‘rg‘on - Xatirchi - Nurota - G‘ijduvon- Xorazm- Chorjo‘y - Parvard qal’asi(Chorjo‘ydan 14 farsax uzoqlikda joylashgan)- Maymana - Aqcha126- Balx - Hisor - Qorategin - Oloy qirg‘izlaridan o‘tib Qo‘qon - Qoshg‘ar - Qobul(Afg‘oniston hukmdori Sheralixon) uni qabul qilmagach haj safariga borib keladi) – so‘ngra Peshovarga kelib, ingliz hukumatidan panoh topib umining oxiriga qadar shu yerda istiqomat qilgan(1909). Somiy bu malumotlarning aksariyatini to‘raning safdoshlari yoki uni ko‘rgan insonlar hikoyasi asosida yozadi. Muallif buni bir nechta joyda ta’kidlab o‘tadi. Masalan, to‘raning mamlakat hududlarini tark etib ketayotgani va umrining oxiriga qadar yashab kelgan Peshovar viloyatiga yetguncha ko‘rgan shaharlari va qal’alari haqidagi habarlarni uning safdoshlari hikoya qilishgan. To‘raning Afg‘oniston hukmdori Sheralixon(1825-1879) o‘z hududlariga qabul qilmagandan so‘ng, uning Makka shahrini ziyorat qilib Peshovarda qo‘nim topgani va u yerda boshga dinga e’tiqod qiluvchi ayolga uylanib, ikki yoki uch nafar farzand ko‘rganini Mirzo Somiy ziyoratchilardan eshitgan va asariga kiritgan.

123 Erjar jangi - 1866-yil 8-mayda rus va buxorolik qo‘shinlarning birinchi to‘qnashuvi bo‘lib o‘tgan joy.

124 Ибрат. Фарғона тарихи. Тошкент; Камалак., 1991. Б-309.

125 Мирзо Салимбек.Кашкули салимий. Таворихи муттақаддимин ва муттаахирин.Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи изоҳ ва кўрсатгичлар-тарих фанлари номзоди, доцент Йўлдошев Нарзуллоники.”Бухоро” нашриёти. Б-302

126 Maymana va Aqcha - Amudaryoning chap qirg‘og‘ia joylashgan, bir necha asrlar davomida Buxoro amirlaigining hokimiyatini tan olib kelgan yarim mustaqil hududlar bo‘lib, XIX asrning 60-70 yillarida afg‘on hukmdori Sheralixon davrida bo‘ysundiriladi.

Valiahdning tashrif buyurgan shaharlarning baьzilari amirlik hududlariga karagan bo‘lsa, baьzilari qo‘shni davlatlarning shaharlari bo‘lgan.

Abumalik to‘rani yaxshi kutib olgan hukmdorlardan biri bu Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlatining hukmdori Yoqubbek(1820-1877) hisoblanadi. Yoqubbek o‘z davlatini ruslarning O‘rta Osiyoni bosib olish jarayoni davrida shakllantiradi. U o‘z vaqtida chinoz viloyatining hokimi, 1851-yilda Oqmasjid beki bo‘lib, 1865-yilda esa Qoshg‘arga yuborilgan. Shundan so‘ng u Sharqiy Turkistondagi shaharlarni birin-ketin bosib oladi. 1870-yilda Urumchi shahrini egallagach, u mustaqil Yettishahar davlatini quradi va o‘zini Otaliq g‘oziy Badavlat (din kurashchisi va baxtli) deb e’lon qiladi127.Yoqubbek hatto Alimqul bilan bir safda turib rus bosqiniga qarshi kurashgan. Turkiston, Avliyoota bosib olinib, navbat Chimkentga yetganida mulla Alimqul Yoqubbek bilan birga qal’a himoyasida ishtirok etgan128.

Yoqubbek 1877-yilda vafot etgach, uning davlati ichki kurashlar natijasida kuchsizlashadi va 1878-yil Xitoy tomonidan egallanadi. Somiy bergan ma’lumotlarga ko‘ra, Abdumalik to‘ra Yoqubbek tiriklik chog‘ida uning huzurida bo‘lgan va hatto uning qizini nikohiga olib, Yoqubbek qo‘shini sarkardasi bo‘lgan. Uning vafotidan so‘ng Qobulga, Sheralixon huzuriga ketishga majbur bo‘ladi.

Somiyning Qoshg‘ar hukmdori Yoqubbacha shaxsi haqidagi ma’lumotlari diqqatga sazovordir. Uning qisqa tarzda bo‘lsa ham Yoqubbachcha va uning davlatigi oid ma’lumotlarni yozganligi, boshqa manba’larda ham o‘z tasdig‘ini topgan. Jumladan, Yoqubbachcha o‘z davlatiga asos solgach, Somiy yozganidek daslab turk sultoniga emas, balki Angliya qirolichasiga xalqni boshqarishga oid maslahat so‘rab xat orqali murojaat qilgan. Qirolicha esa unga bu masalada turk sultoniga murojaat qilishni maslahat bergan. Shundan so‘ng Yoqubbek, sultonni o‘zining rahnamosi deb e’lon qiladi va uning ismi bilan tanga zarb ettirishga ruxsat so‘raydi. Sulton esa o‘z navbatida Yoqubbekka qurol-aslaha va harbiy san’atdan xabardor kishilarni yuboradi129.

Somiy 1868-yil 1-mayda bo‘lib o‘tgan Cho‘pon ota jangi haqida yozar ekan, jangni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganini va Hisori Shodmon qo‘shinini boshqargan Rahmonqulbek parvonachi to‘q mang‘it bilan qo‘shin tarkibida “voqealarni kuzatuvchisi” bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shu sababli ushbu jang tafsilotlari boshqalarga qaraganda ancha keng.

Bundan tashqari *“Tarixi salotini mang‘itiya”*da talaygina davlat, shahar, qishloq, suv inshootlari, me’moriy yodgorliklarining nomi ham tilga olingan. Buxoro amirligining XIX asr oxiri XX boshlaridagi ma’muriy-hududiy bo‘linishi, geografik chegaralari, amirlikka qarashli bekliklarning bari asarda keltirib o‘tilgan. *“Tarixi salotini mang‘itiya”*ni o‘qish jarayonida Somiyning davlat chegaralari,

127 Советская историческая энциклопедия. В 16 томах.М.;1873-1882.

128Ресале-и Якуби (воспоминания о Якуб-беке Кашгарском Камиль-хана-ишана). /Историк.марксист,/№3(079), 1940, С 127-135.

129 Веселовский Н.И. Бадаулет Якуб-бек Кашгарский. СПБ, 1898.С-100.(XIX асрнинг 70-80 йилларида Ёқуббекнинг ҳаёти ва фаолиятига бағишлаб нашр этилган бир қанча маҳаллий ва чет эл муаллифларининг асарлари, унинг Шарқий Туркистондаги таъсири ҳақида тасаввур ҳосил қилишга ёрдам беради.M; Boulger “The life of Jakoob beg; athalik ghazi,and badaulat, amar of Kashgar”. London. 1878., Bellow.”Kashmir and Kashgar”, London. 1875.)

unga qarashli shaharlar va qishloqlarning nomlaridan xabardor bo‘lganligini anglash mumkin. Buni Somiyning xizmat faoliyati taqazo etgan degan fikrdamiz. Chunki u ko‘pgina yurishlarda qo‘shin bilan birga harakatlangan, amir Muzaffarning xizmatiga qabul qilinguniga qadar turli davrlarda, dastlab beklarning qo‘l ostida mirzolik qilgan. Asarda Buxoro amirligi xududi va undan tashqaridagi joy nomlarini uchratish mumkin. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- geografik joy nomlar;
- daryolar nomi;
- amirlikka qarashli bekliklar;
- qishloq va aholi punkti nomlari;
- davlat, viloyat va shahar nomlari;
- me’moriy yodgorliklar.

Me’moriy yodgorliklardan Jome’ poyanda otaliq masjidi, Mozor darvozasi, Sitorai moxi-xossa saroyi, Tillakori madrasasi, Shohi Zinda darvozasi, Shirbudin saroyi kabi binolar va ularda bo‘lib o‘tgan voqealar haqida asarda ko‘plab malumotlarni uchratish mumkin.

Jumladan, Jome’ poyanda otaliq masjidi Buxoroda Masjidi Kalondan keyin eng katta jome’ masjid hisoblangan. Uni Imomqulixonni umarolaridan Poyanda-biy otaliq Arkning janubida “Darvozai Islom" mahallasining yaqinida barpo ettirgan. Bu binoni vaqfi uchun Poyanda-biy Qarshining bir qishlog‘ida o‘n ming mardikor ishlatib, suv chiqartirib, obod etib, shu jome’ masjidga vaqf qilgan. Muso Saidjonov o‘zining “Buxoro shahri va uning eski binolari” asarida uning o‘z davridagi holatiga ta’rif berar ekan, uning yomon holda ekanligi va ta’mirlash uchun katta sarmoyani talab qilishini, shu sabab bino bog‘chaga aylantirilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan[130].

Xulosa qilib aytganda, asarda Somiy tomonidan tilga olingan mazkur geografik, toponimik va gidrogarafik nomlar Buxoro amirligining XIX-XX asrdaga tarixiy geografiyasini o‘rganishga va amirlikning davlat sarhadlari haqida tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi. Shuningdek, asarda tilga olingan Jome’ Poyanda otaliq masjidi, Mozor darvozasi, Shirbudin saroyi kabi me’moriy obidalar borki, ular XIX-XX asrlarda Buxoro shahrida mavjud bo‘lgan, ammo bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotgan ro‘yxati:

1. Boulger “The life of Jakoob beg; athalik ghazi,and badaulat, amar of Kashgar”. London. 1878., Bellow.”Kashmir and Kashgar”, London. 1875.)

2. Веселовский Н.И. Бадаулет Якуб-бек Кашгарский. СПБ, 1898.С-100.

3. Ибрат. Фарғона тарихи. Тошкент; Камалак., 1991. Б-309.

4. Мирза Абдал’азим Сами. Та’рих-и салатин-и мангитийа / Издание текста, предисловие, перевод и примечанияЛ.М.Епифановой. - Москва: Изд-во восточной литературы, 1962.

130Мусо Саиджонов. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Тўраев. – Тошкент; Марказий Осиёни тадқиқ қилиш француз институти, 2005.

5. Мирзо Салимбек.Кашкули салимий. Таворихи муттақаддимин ва муттаахирин. Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи изоҳ ва кўрсатгичлар-тарих фанлари номзоди, доцент Йўлдошев Нарзуллоники.”Бухоро” нашриёти. Б-302.

6. Мусо Саиджонов. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Тўраев. – Тошкент; Марказий Осиёни тадқиқ қилиш француз институти, 2005.

7. Ресале-и Якуби (воспоминания о Якуб-беке Кашгарском Камиль-хана-ишана). /Историк.марксист,/№3(079), 1940, С 127-135.

8. Советская историческая энциклопедия. В 16 томах.М.;1873-1882.

BRITANIYA OROLLARIDAGI JOY NOMLARI ORQALI TARIXIY, IJTIMOIY VA TILSHUNOSLIK MANBALARNI O‘RGANISH

Mahmuda Zokirova Ravshan qizi
Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazi
Ingliz tili fani metodisti
Jizzax davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi
zokirova2108@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Britaniya orollaridagi joy nomlari (toponimlar) arxeologik, tarixiy, ijtimoiy va tilshunoslik ma’lumotlarning muhim manbai sifatida tahlil qilinadi. Joy nomlari orqali qadimgi yer tuzilmalari, ijtimoiy iyerarxiya, qadimiy shaxsiy ismlar, tabiiy landshaft elementlari hamda mehnat faoliyati haqida ma’lumot olish mumkinligi yoritiladi. Tadqiqotda joy nomlarining kelib chiqishiga oid misollar, jumladan *Darwin, Doncaster, Kingston upon Hull, Leicester* va *Milton Keynes* kabi nomlar tahlil qilinadi. Maqola Britaniya toponimikasining madaniy xotira va til taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: toponimika, Britaniya orollari, til tarixi, ijtimoiy tuzilma, landshaft, qadimiy ismlar.

Abstract: This article explores place names (toponyms) in the British Isles as valuable sources of archaeological, historical, social, and linguistic information. It demonstrates how toponyms reveal data about ancient land structures, social hierarchies, personal names, natural landscapes, and human activities. Examples such as *Darwin, Doncaster, Kingston upon Hull, Leicester,* and *Milton Keynes* are analyzed to trace the origins and meanings of place names. The study highlights the importance of British toponymy in preserving cultural memory and understanding linguistic development.

Keywords: toponymy, British Isles, linguistic history, social structure, landscape, ancient names.

Аннотация: В статье рассматриваются топонимы Британских островов как важные источники археологических, исторических, социальных и лингвистических данных. Показано, что названия мест отражают древние земельные структуры, социальную иерархию, старинные имена, элементы

природного ландшафта и виды человеческой деятельности. Анализируются примеры – *Darwin, Doncaster, Kingston upon Hull, Leicester* и *Milton Keynes*. Исследование подчёркивает роль британской топонимики в сохранении культурной памяти и развитии языка.

Ключевые слова: топонимика, Британские острова, история языка, социальная структура, ландшафт, древние имена.

Kirish

Britaniya orollari geografik jihatdan nisbatan kichik maydonga ega bo‘lsa-da, ularning toponimik boyligi nihoyatda keng, murakkab va ko‘p qatlamlidir. Bu hududlardagi joy nomlari – ming yillik tarixning tirik guvohlari bo‘lib, ular o‘zida tabiat, jamiyat va madaniyat tarixining turli bosqichlarini mujassam etgan. Joy nomlari, aslida, yozma manbalarda saqlanmagan ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan og‘zaki tarixiy xotira shaklidir. Har bir nom o‘z davrining til muhiti, ijtimoiy tuzilmasi, siyosiy tizimi va tabiiy sharoitlari haqida bevosita yoki bilvosita dalillar beradi. Toponimlar orqali qadimiy yo‘llar va savdo yo‘nalishlarining joylashuvi, harbiy istehkomlar va mudofaa tizimlari, yer egaligi shakllari, diniy markazlar va muqaddas joylarning joylashuvi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, ular qadimiy shaxsiy ismlar, urug‘-qabilaviy birliklar, xalq xo‘jaligi tarmoqlari va kundalik mehnat faoliyatlari to‘g‘risida ham ma’lumot beradi. Shu bois toponimika nafaqat tilshunoslikning bir tarmog‘i, balki tarix, arxeologiya, etnografiya va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘liq fanlararo yo‘nalish sifatida qaraladi. Britaniya orollaridagi joy nomlari ayniqsa ko‘p qatlamli tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning uzoq tarixiy jarayonlar davomida turli etnik guruhlar, tillar va madaniyatlar ta’siri ostida shakllanganini ko‘rsatadi. Dastlab kelt tillarida shakllangan nomlar orol aholisi tarkibiga angllar, saksonlar va yutlar kirib kelganidan so‘ng eski inglizcha shakllar bilan boyigan. Keyinchalik skandinav (viking) bosqinlari natijasida joy nomlariga nordik tillarga oid unsurlar kirib kelgan. 1066-yildan keyin esa normand istilosi ta’sirida fransuzcha va lotincha elementlar ham keng tarqalgan. Shu sababli, Britaniya toponimikasi o‘zida kelt, anglo-sakson, skandinav va normand madaniyatlarining o‘zaro aralashuvi va tarixiy izlarini saqlagan holda, til, siyosat va jamiyat taraqqiyotining jonli ko‘zgusiga aylangan.

Bunday ko‘p qatlamlilik natijasida har bir joy nomi o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklari bilan bevosita bog‘langan. Masalan, ayrim nomlarda qirollik mulklari, cherkov yer egaliklari yoki oddiy dehqon jamoalari tilga olinadi. Boshqa nomlar esa tabiiy landshaft – daryo, tepalik, o‘rmon, yoki dalalarga asoslanadi. Demak, toponimlar nafaqat geografik belgilar, balki o‘tgan asrlar tafakkurining, inson faoliyati va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning til orqali ifodalangan lingvistik izlaridir.

Tadqiqot jarayonida toponimik tahlil va etimologik solishtirma usul qo‘llanildi. Bu yondashuv joy nomlarining shakllanishi, tarixiy qatlamlari, til jihatidan o‘zgarishlari va ma’nolarining taraqqiyotini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot avvalo tarixiy yozma manbalar asosida olib borildi. Anglo-sakson davriga oid xronikalar, normand davri hujjatlari va o‘rta asr xaritalarida uchraydigan joy nomlari zamonaviy shakllar bilan solishtirilib, ularning o‘zgarish

dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy toponimik lug‘atlar, atlaslar va ilmiy izohli manbalar bilan qiyosiy o‘rganish natijasida joy nomlarining fonetik va morfologik rivoji aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida har bir toponimning lingvistik tarkibi, ya’ni morfemik tuzilmasi, fonetik o‘zgarish jarayonlari va semantik ma’nosi chuqur o‘rganildi. Bu orqali qadimiy so‘zlarning zamonaviy talaffuz va imlo shakllariga o‘tish bosqichlari aniqlanib, ularning dastlabki ma’nolari qayta tiklandi. Shuningdek, joy nomlari faqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki arxeologik va ijtimoiy kontekstda ham tahlil qilindi. Har bir nom o‘z davrining iqtisodiy hayoti, yer egalik tizimi, diniy va siyosiy muhitini aks ettiruvchi manba sifatida qaraldi.

Tadqiqot doirasida namuna sifatida Britaniya orollarining turli hududlarida joylashgan bir nechta mashhur toponimlar tanlab olindi. Jumladan, *Darwin (Darwen)* nomi orqali shahar tarixidagi shaxsiy ism bilan bog‘liqlik, *Doncaster* misolida esa qadimiy “Don” elementi diniy yoki unvon ma’nosida ishlatilgani tahlil qilindi. *Kingston upon Hull* nomi qirollikka oid egalikni, ya’ni “qirolning shahri” degan semantik mazmunni aks ettiradi. *Leicester* nomining ildizida qadimiy briton podshohi Leir nomi yotgani, bu esa joy nomlarida afsonaviy va tarixiy shaxslar izining saqlanib qolganini ko‘rsatadi. *Milton Keynes* esa zamonaviy davr toponimik jarayonining mahsuli bo‘lib, iqtisodchi John Maynard Keynes familiyasi bilan bog‘liq nom sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Britaniya orollaridagi joy nomlari arxeologik, tarixiy va ijtimoiy jihatdan o‘ta boy ma’lumot manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular qadimgi davrlar hayotining turli tomonlarini – yo‘llar, istehkomlar, yer egaligi tizimi, mehnat faoliyati, til taraqqiyoti va ijtimoiy tuzilmani aks ettiradi.

Avvalo, joy nomlari arxeologik va tabiiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. *“Ford”, “bridge”, “hill”, “bury”* va *“chester”* kabi elementlar qadimiy yo‘llar, daryolardan o‘tish joylari, tepaliklar va harbiy istehkomlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bu atamalar o‘sha davrda insonlar tomonidan joy tanlashda strategik, geografik va iqtisodiy omillar qanchalik muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, *“tumulus”, “barrow”* yoki *“holm”* kabi so‘zlar qadimgi qabristonlar, yodgorlik tepaliklari va marosim joylariga ishora qilib, o‘sha davr diniy e’tiqodlari va marosim madaniyatining izlarini saqlaydi. Demak, toponimlar nafaqat joyni belgilash vositasi, balki o‘tmish hayot tarzining arxeologik izohchisidir.

Joy nomlarining ijtimoiy va siyosiy tuzilmani aks ettiruvchi qatlami ham nihoyatda muhimdir. “Kingston” kabi nomlar bevosita hukmdorlik yoki qirollik mulkiga ishora qilib, o‘sha hududda qirollik hokimiyati va siyosiy markazlashuvning mavjudligini bildiradi. Bu kabi nomlar, odatda, davlat boshqaruvi, yer egaligi va iyerarxik tuzilmaning rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Zamonaviy davr toponimik amaliyotini ifodalovchi “Milton Keynes” nomi esa iqtisodchi John Maynard Keynes familiyasidan olingan bo‘lib, yangi davrda joy nomlari tarixiy shaxslar yoki zamonaviy ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘lanib borayotganini ko‘rsatadi. Bu holat toponimik an’analarning zamon bilan birga yangilanib, ijtimoiy xotira va madaniy merosni uyg‘unlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, Britaniya toponimlari kelt, anglo-sakson va normand tillarining qatlamlarini o‘zida mujassam etgan murakkab til tizimini namoyon etadi. Ularning ko‘pchiligi bir necha davrlar davomida fonetik o‘zgarishlar va semantik siljishlarga uchragan. Shu sababli, joy nomlari til tarixini tiklashda noyob lingvistik material vazifasini bajaradi. Masalan, qadimiy inglizcha shaxsiy ismlar – **Dæcca* va **Berica* kabi nomlar, yozma manbalarda saqlanmagan bo‘lsa-da, joy nomlari orqali bizgacha yetib kelgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, toponimika qadimgi til shakllarini, shaxsiy ismlar tizimini va ularning fonetik evolyutsiyasini o‘rganish uchun muhim kalit vazifasini o‘taydi.

Joy nomlarining yana bir muhim jihati – ularning tabiiy landshaft va xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi xususiyatidir. *“Wood”, “field”, “meadow”, “ford”* va *“mill”* kabi elementlar qadimiy dehqonchilik, o‘rmon xo‘jaligi, yaylov va ishlab chiqarish faoliyatining mavjudligini bildiradi. Bu kabi nomlar orqali qayerda haydaladigan yerlar bo‘lgan, qayerda pichan olinadigan maysazorlar joylashgan yoki qaysi hududlarda tegirmonlar qurilganini aniqlash mumkin. Shuningdek, ular insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatini, resurslardan foydalanish usullarini va iqtisodiy faoliyatning tarixiy rivojlanishini ochib beradi.

Britaniya toponimikasini o‘rganish nafaqat til tarixini, balki xalqning madaniy xotirasi va tarixiy o‘zligini ham yorituvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. Joy nomlari – bu o‘tgan asrlar tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va til taraqqiyotining yashirin yozuvlari bo‘lib, ular har bir davrning o‘ziga xos siyosiy, madaniy va iqtisodiy muhitini o‘zida aks ettiradi. Toponimika orqali xalqning o‘z tarixiga, yer bilan bo‘lgan munosabatiga va madaniy merosiga qanday qaraganini aniqlash mumkin.

Joy nomlari ko‘pincha o‘sha davr ijtimoiy tuzilmasini, jamiyat qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlarni va yer egalik tizimini ochib beradi. Masalan, “king”, “lord”, “bishop” kabi elementlar hukmdorlik yoki diniy hokimiyat bilan bog‘liq bo‘lib, qirollik va zodagonlik institutlarining mavjudligini bildiradi. Bunday nomlar orqali o‘sha davrda yer egaligi qanday taqsimlangani, kimlarga tegishli bo‘lgani va ijtimoiy iyerarxiya qanday shakllanganini kuzatish mumkin. Shu jihatdan, toponimlar faqat tilshunoslik manbasi emas, balki o‘tmish jamiyatining ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida ham baholanadi. Ular orqali dehqonlar sinfining yashash joylari, zodagonlarning mulklari yoki qirollikka qarashli yerlarning geografik chegaralari haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Bundan tashqari, joy nomlarida saqlanib qolgan fonetik va semantik o‘zgarishlar tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini qayta tiklash imkonini beradi. Har bir toponim, aslida, o‘sha davr tili va talaffuz tizimining jonli namunasi sifatida qaraladi. Keltcha ildizlar, masalan *pen* (tepalik), *aber* (daryo quyilishi), *tre* (aholi manzili) kabi so‘zlar Britaniya orollarining eng qadimiy qatlamlariga mansub bo‘lib, orollarda kelt xalqlarining keng yashagan davriga ishora qiladi. Keyinchalik bu nomlarga anglo-saksoncha unsurlar – *ton* (qishloq), *ham* (uy-joy, aholi maskani), *bury* (qal’a, mustahkam joy) kabi elementlar qo‘shilgan. Bu ikki qatlamning bir hududda birgalikda mavjudligi Britaniya orollarining ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli tarixini yaqqol namoyon etadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu hodisa juda muhim, chunki u tillararo ta’sir va so‘z boyligining o‘zaro boyish jarayonini ko‘rsatadi. Kelt, anglo-sakson,

skandinav va normand madaniyatlari bir necha asr davomida o‘zaro ta’sirda bo‘lgan, natijada joy nomlari o‘zida turli til qatlamlarini uyg‘unlashtirgan. Masalan, ba’zi joylarda keltcha ildiz ustiga anglo-sakson qo‘shimcha, keyinchalik esa normandcha talaffuz qatlami qo‘shilgan. Bu esa toponimlarning murakkab tuzilishini va ularning tarixiy davrlar osha o‘zgarib, lekin ma’nosini yo‘qotmasdan yashab qolganini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Britaniya orollarining joy nomlari – bu ming yillik tarix, til va madaniyatning yashirin xotirasi, xalqning o‘z o‘tmishini eslab turuvchi til yodgorligidir. Har bir toponim – o‘z davrining tarixiy haqiqatini, tabiiy sharoitini va ijtimoiy tuzilmasini ifodalovchi tirik belgidir. Ular orqali o‘tmish sivilizatsiyalarining yashash tarzi, yer egaligi tizimi, diniy markazlarning joylashuvi, qadimiy yo‘llar va savdo aloqalarining yo‘nalishlari haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Shu bilan birga, toponimlar tilning evolyutsion jarayonlarini, fonetik va semantik o‘zgarishlarni ham aniq ko‘rsatadi, bu esa ularni lingvistik tarixni tiklashda muhim manba sifatida qadrlaydi.

Joy nomlarini tizimli o‘rganish orqali inson va tabiat o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar, turli xalqlarning madaniy aloqalari hamda ijtimoiy hayotning murakkab tuzilmasi ochib beriladi. Masalan, kelt, anglo-sakson, skandinav va normand qatlamlarining joy nomlarida birgalikda uchrashi orollarning ko‘p madaniyatli va ko‘p tilli tarixini yoritadi. Bu esa Britaniya toponimikasini nafaqat lingvistik, balki madaniy merosni saqlash vositasi sifatida ham muhim ilmiy soha darajasiga ko‘taradi.

Toponimik tadqiqotlar tilshunoslik, tarix, arxeologiya, etnografiya va geografiya fanlari kesishgan nuqtada joylashgani bois, ular fanlararo tahlilning yorqin namunasidir. Joy nomlari orqali o‘rta asr iqtisodiy hayoti, qishloq xo‘jaligi tizimi, aholining joylashuvi, savdo markazlari va hatto siyosiy hokimiyatning geografik chegaralari haqida ham xulosalar chiqarish mumkin. Shuning uchun toponimika fani nafaqat o‘tgan davrni o‘rganish, balki zamonaviy jamiyatning tarixiy ildizlarini anglash uchun ham beqiyos manba hisoblanadi. Britaniya orollarining toponimik manzarasi bu hududlarning madaniy xotirasini saqlab turgan murakkab tizimdir. Har bir joy nomi insoniyat tarixining bir bo‘lagi bo‘lib, o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prikni tashkil etadi. Shu sababli, joy nomlarini ilmiy asosda, tarixiy, lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish Britaniya orollarining o‘tmishini yanada to‘liq va haqqoniy tushunish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Ekwall, E. (1960). *The Concise Oxford Dictionary of English Place-Names.* Oxford University Press.
2. Mills, A. D. (2011). *A Dictionary of British Place Names.* Oxford University Press.
3. Gelling, M., & Cole, A. (2000). *The Landscape of Place-Names.* Shaun Tyas.
4. Cameron, K. (1996). *English Place Names.* B.T. Batsford Ltd.
5. Nicolaisen, W. F. H. (1976). *Scottish Place-Names: Their Study and Significance*. Birlinn Press.

6. Rivet, A. L. F., & Smith, C. (1979). *The Place-Names of Roman Britain.* Batsford.

FARG‘ONA VODIYSI O‘ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI

Karimboyeva Salomatxon Isaboyevna
Namangan davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
behzodisxakov2782886@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining moddiy madaniyatiga doir qarashlar etnologik tahlil qilinadi. Tadqiqotda moddiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari – turar joylar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, oziq-ovqat mahsulotlari – nafaqat tavsifiy jihatdan, balki ularning ijtimoiy hayot va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi asosida o‘rganiladi. Moddiy madaniyat namunalarida aks etgan ramzlar, belgilar, diniy-falsafiy qarashlar va e’tiqodiy tasavvurlar etnosning ijtimoiy turmush tarzini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, milliy uy-joy me’morchiligi, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, shuningdek, o‘zbeklarning qadimiy urf-odat va e’tiqodlari keng yoritiladi. Tadqiqotda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, B. Malinovskiy kabi mutafakkir va olimlarning nazariy qarashlari asosida moddiy madaniyatni ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida baholash ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, o‘zbeklar, moddiy madaniyat, turar joy, kiyim-kechak, taqinchoqlar, oziq-ovqat, ramz, e’tiqod, etnologiya, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье рассматриваются этнологические аспекты материальной культуры узбеков Ферганской долины. В исследовании анализируются основные компоненты материальной культуры – жилища, одежда, украшения, продукты питания – не только в описательном плане, но и в их тесной связи с общественной жизнью и ценностными ориентирами. Символы, знаки, религиозно-философские взгляды и верования, отражённые в образцах материальной культуры, служат важным источником для понимания социального уклада этноса. Особое внимание уделяется национальной жилищной архитектуре, факторам её формирования – экологическим, социальным и экономическим, а также традиционным обычаям и верованиям узбеков. В работе на основе идей Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины, Б. Малиновского обосновано понимание материальной культуры как составной части общественной жизни.

Ключевые слова: Ферганская долина, узбеки, материальная культура, жилище, одежда, украшения, продукты питания, символ, вера, этнология, национальные ценности.

Abstract: The article explores the ethnological aspects of the material culture of the Uzbeks of the Fergana Valley. The study analyzes the main components of material culture – dwellings, clothing, jewelry, and food – not only in a descriptive

manner but also in relation to their close connection with social life and cultural values. Symbols, signs, religious-philosophical views, and beliefs embodied in material culture serve as essential sources for understanding the social way of life of the ethnos. Particular attention is given to national housing architecture, the ecological, social, and economic factors influencing its development, as well as the traditional customs and beliefs of the Uzbeks. Drawing on the theoretical perspectives of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, and B. Malinowski the research substantiates the interpretation of material culture as an integral part of social life.

Keywords: Fergana Valley, Uzbeks, material culture, dwelling, clothing, jewelry, food, symbol, belief, ethnology, national values.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hudud o‘zining qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham vodiyning moddiy madaniyati – xalqning yashash tarzi, xo‘jalik faoliyati, uy-joy qurilishi, kiyim-kechak, hunarmandchilik, an’anaviy mehnat vositalari va boshqa kundalik hayotiy buyumlarida o‘z aksini topgan. Moddiy madaniyat – bu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va uning hayoti, urf-odatlari hamda ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining moddiy madaniyati nafaqat ularning turmush tarzini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma’naviy olamini ham o‘zida mujassam etadi. Mazkur mavzu bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar Farg‘ona vodiysi aholisi hayotida moddiy madaniyatning o‘rnini aniqlash, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy davrda tutgan ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalqning milliy o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida moddiy madaniyatni o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Etnologik tadqiqotlarda moddiy madaniyatni o‘rganish xalq turmush tarzining eng muhim jihatlarini ochib berishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda turar joylar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar va oziq-ovqat mahsulotlari odatda grafik tasvirlar, chizmalar, rangli fotosuratlar va rejalar asosida batafsil tavsiflanadi. Biroq bu ma’lumotlar etnologik tadqiqotlarning asosiy maqsadi emas, balki asosiy ilmiy g‘oyalarni yoritishga yordam beruvchi tavsifiy vosita sifatida qaraladi. Moddiy madaniyatning ilmiy tahlilida jahon etnologiyasida shakllangan nazariy yondashuvlar muhim o‘rin egallaydi. Mashhur antropolog B. Malinovskiy “Madaniyatning ilmiy nazariyasi” asarida madaniyat insonning biologik ehtiyojlarini qondirish jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turar joy qurilishi, kiyim-kechak tikish va oziq-ovqat tayyorlash insonning oddiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, biroq bu jarayonda ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy aloqalar vujudga kelib, madaniyatning mazmunini belgilaydi. Fransuz olimi M. Majet esa moddiy buyumlarni faqat utilitar predmet sifatida emas, balki ularni yaratgan va foydalanuvchi kishilarning ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi va diniy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda tadqiq etish lozimligini ta’kidlagan.

Sharq mutafakkirlari ham moddiy madaniyatning mazmunini keng ilmiy asosda yoritib berganlar. Abu Nasr Forobiy turar joy qurilishi ko‘plab geometrik uslublarga ega bo‘lishini qayd etib, me’morchilikni “tarx tuzish san’ati” sifatida izohlaydi. Abu Ali ibn Sino esa uy qurilishida shamol yo‘nalishi, suv manbalarining sifati va atrof-muhitning inson salomatligiga ta’sirini inobatga olish zarurligini alohida ta’kidlagan. Bu qarashlar moddiy madaniyatning nafaqat maishiy, balki falsafiy, ekologik va ijtimoiy qirralarini ochib beradi. Metodologik nuqtai nazardan moddiy madaniyatni o‘rganishda bir qator yondashuvlar qo‘llaniladi. Birinchidan, tavsifiy-etnografik metod orqali turar joylar, kiyim-kechaklar va taomlar tashqi ko‘rinishi va funksional xususiyatlari bo‘yicha qayd etiladi. Ikkinchidan, funksional tahlil buyumlarning inson ehtiyojlarini qondirishdagi vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, ramziy-semantik yondashuv moddiy buyumlarda mujassam bo‘lgan timsollar, e’tiqodiy tasavvurlar va qadriyatlarni ochib beradi. To‘rtinchidan, ekologik-etnologik metod moddiy madaniyatning shakllanishida tabiiy-geografik muhit va ekologik sharoitlarning ta’sirini tahlil qiladi. Nihoyat, qiyosiy tarixiy metod orqali vodiy o‘zbeklari moddiy madaniyati boshqa xalqlar tajribasi bilan solishtiriladi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, moddiy madaniyatni faqat tavsiflash bilan chegaralanmasdan, uni xalqning turmush tarzi, diniy-falsafiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va milliy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish etnologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Etnologik tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar va oziq-ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, rejalar, chizmalar va rasmlar, rangli fotosuratlar ko‘magida batafsil ta’riflash va tavsiflash va ilmiy jihatdan tahlil qilish o‘ziga xos an’anaga aylanib bo‘lgan. Lekin, aslida bu ma’lumotlar ilmiy etnologik tadqiqotlarning bosh maqsadi emas, balki eng asosiy maqsadni isbotlashga ko‘maklashuvchi tavsifiy bir vosita sifatida xizmat qiladi. Etnos moddiy madaniyatini etnologik yo‘nalishda tadqiq etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘rganilayotgan obyektning xalq ijtimoiy turmush tarzi bilan aloqadorligini yoritib berishdan iboratdir[1. Токарев 1970: 3].

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar moddiy madaniyatning faqat tavsifiy xususiyatlari bilan chegaralanib qolganida edi, ilmiy ishlardagi o‘ziga xoslik juda tez muddatda unutilib ketar edi. Kiyim-kechaklarni etnografik aspektda ilmiy jihatdan tadqiq etish bichish-tikishga doir qo‘llanmaga, taomlarni o‘rganish bo‘lsa oziq-ovqatlar retseptlari to‘plamiga, turar joylar va manzilgohlarni tadqiq qilish – arxitektura darsligining biron-bir bo‘limiga aylanib qolar edi. Xuddi shu masalada biz uchun jahonga taniqli antropolog B. Malinovskiyning madaniyat nazariyasiga doir qarashlari nihoyat darajada qiziqarli bo‘lib, uning “*Madaniyatning ilmiy nazariyasi”* nomli mashhur kitobida “madaniyat faqatgina insonlarga xos biologik xususiyat bo‘lsa-da, insonlar ham tirik jonzot hisoblanadi. Shu boisdan u o‘zining biologik ehtiyojini qondirish maqsadida oziq-ovqat va yonilg‘i singari kundalik ehtiyoj buyumlarini qidirib topadi, uy-joy quradi hamda kiyim-kechaklarni tikib kiyadi. Demak, u mazkur amallari orqali o‘z atrofida ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantiradi, bu holat fanda madaniyat deb yuritiladi. Turli madaniyatlar orasidagi o‘zaro farq insonlarning turfa xildagi oddiy ehtiyojlarini

qondirish usullari bilan izohlash mumkin. Shu sababdan ham madaniyat moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi” deb yozgan edi [2. Аширов А., Атаджанов Ш. 2007: 57 – 58.].

Shuningdek, taniqli fransuz olimi Marsel Majet haqli ravishda ta’kidlaganidek, “etnologlar uchun odamlar uchun ahamiyatga ega bo‘lmagan (faqat moddiy jihatdan) predmet mavjud emas”. Biron-bir predmetni tadqiq qilish jarayonida, deb yozgan edi u, bu obyektni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, tarqatish, sotish va foydalanish imkoniyati, huquqi hamda vazifasiga ega bo‘lgan barcha shaxslar e’tibordan chetda qolmasligi kerak[3.Majet 1953: 15-16].

Moddiy ashyo va buyumlar etnolog uchun predmetning ijtimoiy taomilga kirishi, ya’ni uni yaratgan va foydalanuvchi kishilarning ushbu narsaga munosabati va eng muhimi, bu predmet orqali o‘zaro aloqalari, dunyoqarashi, diniy-falsafiy qarashlarsiz unchaligam qiziqarli bo‘lmasligi shak-shubhasizdir. Shu boisdan ham etnologiya ilmi turli-tuman jonsiz predmetlar, ashyolar xususidagi emas, balki odamlarning turmush tarzi to‘g‘risidagi alohida fan sifatida talqin etiladi.

Insoniyat moddiy madaniyatning muhim qismlaridan birini uy-joylar tashkil qiladi. Tarixiy va etnografik adabiyotlardan ham juda yaxshi ma’lumki, milliy uy-joylarni tiklash hamda jihozlash usullari mahalliy tabiiy shart-sharoitga, ko‘chmanchi, yarimko‘chmanchi, yarimo‘troq, o‘troq etnik guruhlarning turmush tarzi, xo‘jaligi yo‘nalishi, turli urf-odatlari, diniy e’tiqodi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Buyuk mutafakkir Abu Nosir Farobiy uy-joy qurilishi nihoyatda ko‘pdan-ko‘p geometrik uslublarda bo‘linishi, ularning orasida “quriladigan me’moriy obida tarxini tuzish san’ati” mavjudligini ta’kidlagan edi[4Нозилов 1981: 24]. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino turar joy me’morchiligida qurilajak uyning joyini, uning shamol yo‘liga nisbatini, barpo etiladigan uy-joy yonidan o‘tadigan suvning tarkibini, va yaqin atrofda turmush sharoitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalar bor-yo‘qliginiyam e’tiborga olish zarurligini alohida uqtirgan. O‘rta Osiyoda har bir shahar va turarjoy me’morchiligi mana shu hududning tabiiy-ekologik sharoiti va iqlimi, xalqning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayoti ta’sirida asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, rivojlanib borgan.

Milliy qishloq turar-joylari shakllanishi jarayonida ko‘plab juda muhim hayotiy omillar bilan birga tashqi tabiiy-geografik muhitning, ya’ni, ekologiyaning ham ta’siri sezilarli holatda ekanligini esa etnolog olim N. Cheboksarov “Ekologiya va an’anaviy qishloq uy-joylari turlari” nomli asarida nihoyat darajada jiddiy tahlil qilgan edi[5. Чебоксарев.1984: 34–64].

Farg‘ona vodiysi tog‘oldi qishloqlarida uy-joy poydevori tog‘ yoxud soy toshlaridan samarali foydalangan holda quriladi. Chunki, shu tog‘li hududlarda boshqa joylardagiga nisbatan ancha-muncha arzon va topilishi juda oson xomashyo hisoblangan toshlar yordamida yerto‘lali uylarni qurish imkoniyati mavjud bo‘lgan.

Turar-joyni ekologik nuqtayi nazardan o‘rganish oilaviy munosabatlar, xo‘jalik va maishiy turmushning boshqa sohalari haqida ko‘plab o‘ziga xos muhim ma’lumotlar beradi. Milliy uy-joylarning qurilishi va rejasi ko‘plab omillarga bog‘liq. Geografik muhit, iqlim va suv yo‘llarining bor-yo‘qligi ularga birlamchi darajada ta’sir qilgan bo‘lsa, ikkinchidan ijtimoiy-iqtisodiy daraja, dushman

xavfining mavjud bo‘lishi, ko‘plab xalqlarning inson yashashi qulay bo‘lmagan joylarda ham uy-joy qurib yashashga majbur etgan. O‘zbeklarda yangi uyning joylashish o‘rniga hamisha alohida e’tibor berilgan. Turar-joylarni doimo xosiyatsiz hisoblangan qabriston, ziyoratgohlar va aziz-avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga harakat qilingan. Qabriston va ziyoratgohlar aholining nazdida marhumlar ruhi to‘planadigan maxsus bir joy hisoblangan. O‘zbekistonda turar-joylar bilan bog‘liq qarashlarda ajdodlar kultiga bo‘lgan e’tiqod ham o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘lgan. Aynan shu nuqtayi nazardan vodiy o‘zbeklari har bir eski uyni buzib, yangisini qurish jarayonida poydevorni tiklashdan avval bu xonadonda yashab o‘tgan qadimgi ajdodlarning “mardona ruhi”ga bag‘ishlab marosimiy jihatdan qurbonlik qilib, is chiqarilgan[6. Ashirov 2007: 34].

Turli kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillaridan biri bo‘lishi bilan birga urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba’zi bir elementlari, diniy e’tiqod, nafosat va estetik me’yorlarni ham o‘zida ba’zida yaqqol, ayrim hollarda pinhona aks ettiradi. Kiyim – inson tanasini tashqi muhit ta’siri va turli mexanik ta’sirlardan asraydigan vositalar to‘plamidir. U jins va yosh, milliylik va boshqa turli xususiyatlarniyam o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek xalqining milliy kiyimlari va taqinchoqlari ham moddiy madaniyatning mushtarak muhim qismini tashkil etib, xalqning milliy xususiyatlari, urf-odatlari hamda estetik didini namoyon etib kelgan. Boshqa xalqlarning liboslari kabi o‘zbeklarning milliy kiyimlari ham o‘ta uzoq tarixiy jarayon davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, urf-odat, marosim, an’analar ta’sirida davrlar o‘tishi davomida o‘ziga xos tarzda shakllanib va rivojlanib kelgan. Elshunos olima N. Sodiqova ta’biri bilan aytganda, kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillaridan biri bo‘lishi bilan birga turli urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba’zi bir elementlari (unsurlari), diniy e’tiqod, nafosat va estetik me’yorlarni ham o‘zida yaqqol aks ettiradi[7. Содиқова. 2003: 6].

Umuman olganda, qadim davrlardan boshlab kiyim-kechak va matolar marosimlarda asosan, quyidagi vazifalarni bajargan:

1)Xavf-xatardan himoya, chegara, poklanish, muqaddaslik;

2)Bir yosh-tabaqa bosqichidan yo ma’lum ijtimoiy darajadan boshqasiga o‘tishni boshqalarga anglatuvchi ramziy bir vosita;

3)Qimmatbaho ashyo, sovg‘a, to‘lov, “qurbonlik”.

Bu funksiyalarning birini ikkinchisidan ajratib, alohida talqin qilish anchagina mushkul. Shu sababdan ham, quyida vodiy aholisi milliy marosim kiyimlari va ular bilan bevosita bog‘liq urf-odatlarni ham tadqiq qilish asnosida kiyimlarning ushbu funksiyalari hamda u bilan bog‘liq qarashlarini qiyosiy jihatdan ham tahlil qilishga harakat qildik.

XX asrning 90- yillaridan keyin mamlakatning dunyo jamoatchiligi bilan erkin, doimiy aloqada bo‘lishi natijasida vohada ba’zan mahalliy an’analarga yot bo‘lgan turli kiyim-kechaklar ham kirib keldi. Jumladan, Respublikamiz istiqlolga erishganidan keyin bir tarafdan, inson tanasini yarim yalang‘och holda ko‘rsatuvchi asosan g‘arb dunyosiga tegishli kiyimlar, boshqa tomondan bo‘lsa,

hamma tomonlari berk, qop-qora rangdagi sharq hijoblari urf bo‘lgan edi. Aslida esa bunday libos diniy emas, balki, kelib chiqishi jihatidan tabiiy-geografik muhit bilan bog‘liq bo‘lgan libosdir. Hijob arablar istiqomat qiladigan hududda keng tarqalgan bo‘lib, tabiiy-geografik sharoit ularni shunday kiyinishga majbur qilgandi. Chunki, ushbu mintaqalarda doimiy bo‘lib turadigan chang-to‘zonlar, keskin issiq, jazirama havo ularni muttasil tarzda o‘z tanasining barcha qismini o‘rab yurishlarini taqozo etgan. Biroq, arablarning mavjud iqlimga mos libosi ayrim shaxslarning xato tashviqoti ta’sirida diniy kiyim sifatida targ‘ib qilinmoqda. Aslida esa ushbu libosning islom dini tartib-qoidalari bilan mutlaqo aloqasi yo‘q[8. Давлатова 2005: 138–139].

Umuman olganda, voha o‘zbeklarining milliy milliy kiyim-kechaklari bilan bog‘liq mulohazalar yakunida shuni alohida ta’kidlash joizki, kiyim-boshlar o‘ta uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, u yoki bu etnos yashagan geografik muhit, uning xo‘jalik turmush tarzi hamda ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, etnik qatlamlari va boshqa qator omillar bilan bir qatorda kiyimlarni bichish, tikish va kiyish bilan bog‘liq turli xil marosimlar, urf-odatlar ham shakllanib borgan. Kiyimlar bilan bog‘liq urf-odatlarda nafaqat xalqona tasavvurlar, balki, qadimiy afsungarlik hamda totemistik e’tiqodlar bilan birga islomiy qarashlar asosida ham tarkib topgan va milliy meros tarzida ajdodlardan-avlodlarga an’ana tarzida o‘tib kelavergan.

Farg‘ona o‘zbeklari moddiy madaniyati ekologik jihatlari masalasiga xulosa o‘rnida aytish mumkinki, moddiy madaniyat eng asosiy komponentlarini tashkil qilgan – xalqona turar-joy, milliy kiyimlar va milliy taomlarda insoniyat sivilizatsiyasining eng dastlabki alomatlari alohida aks etishi bilan birga, ulardagi tabiiy-geografik muhit, xo‘jalik turmush tarzi, etnik jihatdan o‘ziga xoslik hamda turli davrlarga xos bo‘lgan diniy e’tiqod shakllari ham saqlanib qolavergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Токарев С. А. К методике этнографического изучения материальной культуры // СЭ. 1970. – № 4. – С. 3.
2. широв А., Атаджанов Ш. Этнология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
– Б. 57 – 58.
3. Maget M. Guide detude directed escomportement sculturels. – Paris, 1953.
– P. 15 – 16.
4. Нозилов Д. Чиғаноқ ичида марварид // Совет Ўзбекистони санъати. 1981. № 9. – Б. 24.
5. Чебоксаров Н. Экология и типы традиционного сельского жилища / Типология основных элементов традиционной культуры. – М., 1984. – С. 34 – 64.
6. широв А. Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 34.

7. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 6.
8.
авлатова С. Ўзбек миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 138 – 139.

ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

Ilmiy rahbar: Oriental Universiteti
‘‘Ijtimoiy-gumanitar fanlar’’ kafedrasi
o‘qituvchisi U.Sattorov
Oriental universiteti talabasi
Rahimjonova Nozima

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Arab xalifaligi davri (632–1258 yillar) tarixi va tarixiy geografiyasi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar va geografik xaritalar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Arab xalifaligi siyosiy jihatdan kengayib, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Ispaniyaga ta’sir qilgan, savdo yo‘llari va shaharlar iqtisodiy va madaniy rivojlanishni rag‘batlantirgan. Maqola hududiy kengayish, strategik joylashuv va ilm-fanning rivojini chuqur tahlil qiladi.

KALIT SO’ZLAR: Arab xalifaligi, tarix, geografiya, Rashidun, Umaviy, Abbosiy, hudud, savdo, shahar, madaniyat.

ANNOTATION: This article examines the history and historical geography of the Arab Caliphate period (632–1258). During the research, historical sources and geographic maps were analyzed. The results indicate that the Arab Caliphate expanded politically, influencing the Middle East, North Africa, and Spain, while trade routes and cities stimulated economic and cultural development. The article provides an in-depth analysis of territorial expansion, strategic location, and the development of science.

KEYWORDS: Arab Caliphate, history, geography, Rashidun, Umayyad, Abbasid, territory, trade, city, culture.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются история и историческая география периода Арабского халифата (632–1258 гг.). В ходе исследования были проанализированы исторические источники и географические карты. Результаты показывают, что Арабский халифат политически расширялся, оказывая влияние на Ближний Восток, Северную Африку и Испанию, а торговые пути и города стимулировали экономическое и культурное развитие. В статье проводится глубокий анализ территориальной экспансии, стратегического расположения и развития науки.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Арабский халифат, история, география, Рашидун, Умайяды, Аббасиды, территория, торговля, город, культура.

KIRISH

Arab xalifaligi davri (632–1258 yillar) insoniyat tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr nafaqat siyosiy va harbiy jihatdan, balki madaniy, iqtisodiy va ilmiy sohalarda ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Arab xalifaligi ilk bosqichda Rashidun xalifaligi (632–661) sifatida shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi Islom dinini mustahkamlash va yaratilgan siyosiy tizimni barqarorlashtirish edi. Keyinchalik Umaviylar (661–750) va Abbosiylar (750–1258) davrida xalifa hokimiyati nafaqat Arab yarimorolida, balki Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Ispaniya hududlariga ham ta’sirini o‘tkazdi.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Arab xalifaligi hududiy kengayish bilan bir qatorda savdo yo‘llari va shaharlar orqali iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ham rag‘batlantirdi. Savdo tarmoqlari faqat ichki iqtisodiy hayotni jonlantiribgina qolmay, balki boshqa mintaqalardagi sivilizatsiyalar bilan madaniy va ilmiy almashinuvlarni kuchaytirdi. Ilm-fan, adabiyot, geografiya va tabiatshunoslik sohalarida ham sezilarli yutuqlar kuzatildi. Abbosiylar davrida poytaxt Bag‘dod kabi yirik markazlar ilmiy va madaniy markazlarga aylanishi, kitoblar kutubxonalarining tashkil etilishi va ilmiy maktablarning rivojlanishi, xalifalikning ilm-fanga bo‘lgan e’tiborini yaqqol ko‘rsatadi.

Arab xalifaligi strategik jihatdan muhim hududlarda joylashgan bo‘lib, bu holat uning siyosiy va iqtisodiy kuchini oshirishga xizmat qildi. Xalifa davlatining hududiy kengayishi, savdo tarmoqlarining rivojlanishi va madaniy aloqalar, u davr shaharlarining shakllanishi va o‘sishida muhim omil bo‘ldi. Arab xalifaligi davri nafaqat Islom tarixida, balki butun dunyo tarixida muhim o‘rin tutadi va tarixiy geografiya nuqtai nazaridan ham o‘rganishga arziydi.

Ushbu maqola Arab xalifaligi davrining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatlarini tahlil qilish, uning hududiy kengayishi, strategik joylashuvi va savdo yo‘llarining rivojlanishiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Arab xalifaligi davrini o‘rganish tarixshunoslikda alohida o‘rin tutadi. Bu mavzu nafaqat Arab sivilizatsiyasining rivojlanishi, balki butun dunyo tarixidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni tushunishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotchilar asosan uchta asosiy davr – Rashidun, Umaviy va Abbosiy xalifaliklarini tahlil qiladilar, chunki har bir davrning o‘ziga xos siyosiy tizimi, hududiy kengayishi va madaniy yutuqlari mavjud.

Chet el olimlari orasida Alfred Guillaume (1902–1966) Arab xalifaligi tarixi va islomiy manbalarni chuqur o‘rgangan[131]. Uning fikricha, Rashidun xalifaligi Islomni siyosiy tizim bilan birlashtirishda birinchi va eng muhim qadam bo‘lib, bu davrning siyosiy barqarorligi keyingi Umaviy va Abbosiy davrlarning kengayishiga asos yaratgan. Marshall Hodgson (1912–1995) esa Arab xalifaligining madaniy va ilmiy jihatlariga e’tibor qaratib, Abbosiylar davrida ilm-fan markazlari, kutubxonalar va savdo yo‘llarining rivojlanishini chuqur tahlil qilgan. U Arab xalifaligi nafaqat siyosiy birlik, balki madaniy uyg‘unlik va ilmiy rivojlanish manbai bo‘lganini ta’kidlaydi.

[131] Guillaume A. Islam. – Harmondsworth: Penguin Books, 1954. – 349 p.

O‘zbek olimlari ham Arab xalifaligi tarixi va geografiyasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratganlar. Masalan, A. Sultonov Arab xalifaligi hududiy kengayishi va strategik joylashuvini batafsil tahlil qilgan[132]. U yozishicha, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlariga ta’sir qilish orqali Arab xalifaligi savdo tarmoqlarini kengaytirgan va shaharlarni madaniy rivojlanish markazlariga aylantirgan. B. Xo‘jayevning tadqiqotlarida Arab xalifaligi davrida shaharsozlik, savdo va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, ilmiy markazlar va kutubxonalar faoliyati yoritilgan[133]. Bu ishlar Arab xalifaligi hududiy kengayishi va siyosiy boshqaruv tizimini tushunishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlarni tahlil qilganda, ko‘plab tarixiy manbalar – xususan, Al-Tabari, Ibn Xaldun, Al-Mas’udi va boshqa islomiy tarixchilar kronikalari – o‘z vaqtida sodir bo‘lgan voqealarni batafsil qayd etgan[134]. Ularning ma’lumotlari siyosiy kengayish, savdo yo‘llari, shaharlar va madaniyatning rivojlanishiga doir aniq dalillarni beradi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari Arab xalifaligi davrida hududiy siyosat, iqtisodiy integratsiya va ilmiy markazlarning shakllanishini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Arab xalifaligi tarixi va geografiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlar sharxi nafaqat tarixiy voqealarni qayd etish, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Chet el va o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Arab xalifaligi hududiy kengayishi, strategik joylashuvi, savdo va ilm-fanning rivojlanishi bo‘yicha kompleks va puxta tasavvur beradi. Mazkur adabiyotlar Arab xalifaligi davrini o‘rganish va uning tarixiy geografik jihatlarini chuqur tushunishda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Arab xalifaligi davri (632–1258 yillar) tarixi va tarixiy geografiyasini o‘rganish tadqiqotining asosiy obyekti – Arab xalifaligi va uning hududi, predmeti esa siyosiy tuzilma, hududiy kengayish, shaharlar, savdo yo‘llari va tarixiy-geografik xususiyatlar hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Arab xalifaligi davrida siyosiy va hududiy kengayish jarayonlarini aniqlash, ularning strategik joylashuvi va tabiiy resurslar bilan bog‘liqligini o‘rganish hamda hududiy kengayishning iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojga ta’sirini tahlil qilishdir. Shu maqsadga erishish uchun tadqiqot bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- Arab xalifaligi davrining siyosiy bosqichlarini – Rashidun, Umaviy va Abbosiy xalifaliklarini aniqlash;
- hududiy kengayish, shaharlar va savdo yo‘llari tarixi bilan tanishish;
- tarixiy manbalar va xaritalar orqali geografik xususiyatlarni tahlil qilish;
- madaniy va ilmiy rivojlanish omillarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotda bir nechta ilmiy usullardan foydalaniladi.

Birinchisi – tarixiy manbalarni tahlil qilish usuli bo‘lib, bunda Arab xalifalar davriga oid kronikalar, tarixiy yozuvlar va kitoblar, masalan, Al-Tabari va Ibn

[132] Sultonov A. Arab xalifaligi tarixi va geografiyasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 256 b.
[133] Xo‘jayev B. Arab xalifaligi davrida shaharsozlik va madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2005. – 312 b.
[134] Al-Tabari. The History of al-Ṭabarī (Ta’rikh al-rusul wa’l-mulūk). – Albany: State University of New York Press, 1985–2007. – Vol. 1–40.

Khaldunning asarlari o‘rganiladi. Bu manbalar siyosiy voqealar, hududiy kengayish va shaharlar rivojini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchisi – arxiv va kartografiya tahlili bo‘lib, u orqali Arab xalifaligi hududi xaritalari, shaharlar va savdo yo‘llari aniqlanadi, hududiy kengayish va strategik joylashuv tahlil qilinadi.

Uchinchisi – komparativ tahlil usuli bo‘lib, turli manbalar orasidagi ma’lumotlar solishtiriladi va ularning ishonchliligi aniqlanadi, masalan, Rashidun va Umaviy xalifaliklaridagi hududiy kengayish va siyosiy tuzilma farqlari.

To‘rtinchisi – kvantitativ tahlil bo‘lib, unda hududiy kengayish hajmi, aholi soni, shaharlar soni va savdo yo‘llari statistikasi o‘rganiladi; misol tariqasida Bag‘dod va Kordoba shaharlarining iqtisodiy va strategik ahamiyati keltirilishi mumkin.

Beshinchisi – tarixiy-geografik usul, u orqali hududiy kengayish va geografik resurslar bilan siyosiy tuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi, Arab xalifaligi hududining tabiiy resurslari, daryolar, tog‘lar va savdo yo‘llariga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, Arab xalifaligi davri siyosati va geografiyasining o‘rganilishi hududiy kengayish, shaharlar rivoji va strategik joylashuv bilan bog‘liq yangi ilmiy tahlillarni beradi. Natijalar tarixiy-geografik ta’lim, Arab dunyosi tarixi va strategik hududlar bo‘yicha amaliy tadqiqotlarda qo‘llanishi mumkin. Tadqiqot metodologiyasi orqali Arab xalifaligi davrining siyosiy va geografik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish, uning iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini chuqur tushunish imkoniyati yaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Arab xalifaligi davri (632–1258 yillar) o‘zining siyosiy kengayishi, hududiy strategik joylashuvi va tarixiy-geografik xususiyatlari bilan tarixda muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Arab xalifaligi siyosiy jihatdan uch asosiy davrga bo‘linadi: Rashidun (632–661), Umaviylar (661–750) va Abbosiylar (750–1258) xalifaliklari. Har bir davr hududiy kengayish va siyosiy tuzilma jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Rashidun xalifaligi davrida Arablar Yaqin Sharq hududini birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi, Umaviylar davrida esa hududlar shimoliy Afrikaga, Ispaniyaga va Markaziy Osiyoga kengaydi. Abbosiylar davrida esa siyosiy markaz Bag‘dodga ko‘chirilib, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida rivojlantirildi.

Hududiy kengayish va strategik joylashuv tahlili shuni ko‘rsatadiki, Arab xalifaligi siyosiy va iqtisodiy kuchga ega bo‘lishining asosiy sababi uning geografik pozitsiyasi edi. Hudud Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va Shimoliy Afrikani qamrab olgan, daryolar, tog‘lar va dengiz yo‘llari orqali savdo va transportni rivojlantirishga qulay edi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muhim shaharlar – Bag‘dod, Kufah, Damashq, Kordoba – siyosiy markaz sifatida emas, balki savdo, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ham o‘z ahamiyatini oshirgan. Savdo yo‘llari, xususan Ipak yo‘li va Arab dengizi orqali amalga oshgan dengiz savdosi, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan va hududiy birlashuvni ta’minlagan.

Madaniyat va ilmiy rivojlanish nuqtai nazaridan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Abbosiylar davrida Bag‘doddagi Bayt al-Hikma ilm markazi geografik strategik joylashuv tufayli ilm-fan va madaniyat rivojining markaziga aylangan. Bu hududdagi ilmiy tadqiqotlar astronomiya, matematika, geografiya va tibbiyot sohalarida sezilarli yutuqlarga olib kelgan.

Natijalarni muhokama qilish jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, hududiy kengayish faqat siyosiy qudratni oshirmagan, balki madaniy integratsiya va ilmiy taraqqiyotga ham xizmat qilgan. Arab xalifaligi hududi tabiiy resurslar, strategik joylashuv va savdo yo‘llarining uyg‘unligi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan barqarorlikka erishgan. Bu esa Arab xalifaligi davrining tarixiy va geografik ahamiyatini yanada oshiradi.

Tarixiy-geografik manbalar va xaritalar asosida Arab xalifaligi hududining siyosiy va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga imkon berdi. Natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, hududiy kengayish, shaharlar rivoji va strategik joylashuv bir-birini to‘ldirgan va Arab dunyosining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlagan. Hamda Arab xalifaligi ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ham rivojlanib, keyingi davrlarda Yevropa va Osiyo tarixi bilan uzviy bog‘lanishlarni shakllantirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Arab xalifaligi davri (632–1258 yillar) siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan muhim bosqich bo‘lgan. Hududiy kengayish, shaharlar rivoji va strategik joylashuv Arab xalifaligi siyosiy qudratini mustahkamlab, savdo va ilmiy taraqqiyotga turtki bergan. Rashidun, Umaviy va Abbosiy xalifaliklari davrida Arab dunyosi nafaqat Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada, balki Ispaniya va Markaziy Osiyo hududlarida ham o‘z ta’sirini kuchaytirgan. Hududiy kengayish va shaharlar rivoji, shuningdek, savdo yo‘llari va tabiiy resurslar Arab xalifaligi iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Bag‘doddagi Bayt al-Hikma kabi ilmiy markazlar madaniyat va ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Bundan kelib chiqib quyidagi takliflarimni berolaman:

- ❖ Arab xalifaligi hududiy kengayishini o‘rganishda tarixiy manbalar bilan bir qatorda arxeologik va kartografik tadqiqotlarni ham kengroq qo‘llash tavsiya etiladi.
- ❖ Shaharlar va savdo yo‘llari tarixini o‘rganishda iqtisodiy va madaniy omillarni ham birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.
- ❖ Arab xalifaligi hududi va siyosiy tuzilmasining ilmiy-geografik tahlili kelgusida tarixiy-ta’lim dasturlarida va akademik tadqiqotlarda qo‘llanishi mumkin.
- ❖ Hududiy kengayish va strategik joylashuvning global tarixdagi ahamiyatini chuqurroq o‘rganish orqali Arab dunyosining iqtisodiy va madaniy integratsiyasi haqida yangi ilmiy natijalar olish mumkin.

Tadqiqot Arab xalifaligi davrining siyosiy, geografik va madaniy rivojlanishini tizimli tahlil qilishga imkon beradi va kelajakdagi ilmiy ishlarda asosiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. Guillaume A. Islam. – Harmondsworth: Penguin Books, 1954. – 349 p.
2. Guillaume A. The Life of Muhammad: A Translation of Ibn Ishaq’s Sirat Rasul Allah. – Oxford: Oxford University Press, 1955. – 815 p.
3. Hodgson M.G.S. The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – Vol. 1–3.
4. Sultonov A. Arab xalifaligi tarixi va geografiyasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 256 b.
5. Xo‘jayev B. Arab xalifaligi davrida shaharsozlik va madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2005. – 312 b.
6. Al-Tabari. The History of al-Ṭabarī (Ta’rikh al-rusul wa’l-mulūk). – Albany: State University of New York Press, 1985–2007. – Vol. 1–40.
7. Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History. – Translated by Franz Rosenthal. – Princeton: Princeton University Press, 1967. – Vol. 1–3.

QARLUQLARNING JOYLASHUVI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti “Tarix” ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi
bahtiyorovaruxshona76@gmail.com
Tel:99894-546-11-13
Ilmiy rahbar: Djunayev Farxod Abduxamidovich

Anotatsiya: Maqolada Qarluqlarning kelib chiqishi, joylashuvi va ularning Markaziy Osiyo tarixidagi o’rni tahlil etiladi. Qarluqlar davlati siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan turkiy davlatlardan biri bo’lib, ular Yettisuv, Farg’ona vodiysi va Sharqiy Turkiston hududlarida istiqomat qilgan. Maqolada Qarluqlarning tarixiy geografiyasi, siyosiy markazlari va ularning keyingi davrlardagi ta’siri haqida ilmiy manbalarga asoslangan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Qarluqlar, Yettisuv, Bolasog’un, Suyob, Turk xoqonligi, tarixiy geografiya, Buyuk Ipak yo’li, Qorag’oniylar.

Аннотатция: В данной статъе рассматривается происхождение, расселение и историческая роль карлуков в Централной Азии. Карлукское государство являлосъ одним из развитых тюркских образований,занимавших территорию Семиречъя, Фарганской долины и Восточного Туркестана. В работе анализируются историко-географические особенти, политические центры и кулътурное значение карлуков на основе писъменных источников.

Ключевые слова: Карлуки, Семиречъе, Баласогун, Суяб, Тюркский каганат, истореческая география, Великий шелковый путъ, Караханиды.

Annotation: This article analyzes the origen, settlement, and hictorical role of the Karluks in Central Asia. The Karluk state wash one of the most developed Turkish formations, located in the regions of Semirechye, the Fergana Valley, and

Easten Turkistan. The study presents hictorical and geographical aspects, potical centers, and the cultural significance of the Karluks based on written sources.

Keywords: Karluks, Semirechye, Balasagun, Suyab, Turkic Khaganate, historical geography, Great Silk Road, Karakhanids.

Kirish. Markaziy Osiyoning Vl-lX asrlar oralig'idagi tarixiy jarayonlarini o'rganishda Qarluqlar davlati va ularning joylashuv geografiyasini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Qarluqlar turkiy xalqlarning qadimiy tarmoqlaridan biri bo'lib, ular O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Yettisuv hududlarida uzoq vaqt davomida siyosiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Qarluqlar davlat tarixini o'rganish orqali biz nafaqat o'sha davr siyosiy tuzimini, balki Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanish jarayoni ham chuqur anglash imkoniga ega bo'lamiz.

Qarluqlar haqida ilk ma'lumotlar xitoy solnomalarida ("Tan shu", "T'ang-shu") uchraydi. Unda qayd etilishicha, Qarluqlar dastlab Oltoy tog'lari atrofida yashagan, keyinchalik Yettisuvga ko'chib o'tganlar. Shu davrda ular Turk xoqonligi siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan.[1]

Asosiy qism. Qarluqlar turkiy xalqlarning qadimgi urug'laridan bo'lib, ular dastlab Oltoy va Irtish daryosi havzalarida yashaganlar. Ularning nomi ilk bor Vl asr manbalarida uchraydi.Qarluqlar dastlab uchta asosiy qabila- bulak, chigil va tuxsilardan tashkil topgan bo'lib, ular turk xoqonligining g'arbiy qanotiga bo'ysunga[2]. Qarluqlar Vlll asrda o'zlariga xos siyosiy tuzumni shakllantirdilar. Ularning markazi dastlab Suyob shahri bo'lgan. Bu Shahar Yettisuvdagi eng yirik siyosiy markazlardan biri sifatida tarixda tilga olinadi. Suyob shahridan tashqari Bolasog'un ham Qarluqlarning muhim siyosiy va iqtisodiy markazi bo'lgan[3].

Qarluqlar davlati shimolda Ili daryosi, janubda Farg'ona vodiysi, g'arbda Sirdaryo bo'ylariga, sharqda esa Sharqiy Turkistongacha cho'zilgan. Bu hududlarning barchasi savdo yo'llari-xususan, Buyuk Ipak yo'li orqali bog'langan edi. Shu bois Qarluqlar davlati xalqaro savdo va madaniyat almashinuvida muhim o'rin tutgan. Qarluqlar iqtisodiy jihatdan yarim ko'chmanchi turmush tarzida yashaganlar. Ular asosan chorvachilik(ot, tuya, qo'y, qoramol) bilan shug'ullangan, ammo Yettisuv va Farg'ona vodiysi singari unumdor yerlarda dehqonchilik ham rivojlangan edi. Xitoy va arab manbalarida qayd etilishicha, Qarluqlar ipak, teri, ot va boshqa mahsulotlarni Markaziy Osiyo hamda Xitoy bilan almashganlar[4]. Madaniy hayotda esa ular turkiy yozuvdan foydalangan, qadimgi turk bitiklari va run yozuvlari bu davrda keng tarqalgan. Qarluqlar islom dinining ilk ta'sirini Vlll-lX asrlarda qabul qilgan bo'lsalar-da, uzoq vaqt davomida tengricha e'tiqodni saqlab qolganlar. Qarluqlar turkiy xalqlarning keying siyosiy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Qoraxoniylar davlati Qarluqlar asosida tashkil topgan. Qoraxoniylar saltanatining ilk hukmdorlari Qarluqlardan chiqqan bo'lib, bu ularning siyosiy va etnik asosiy rolini tasdiqlaydi[5]. Shuningdek, Qarluqlar O'rta Osiyo xalqlarining etnogenizida ham muhim o'rin egallagan. Ularning avlodlari bugungi qig'iz, qozoq, uyg'ur va o'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan. Qarluqlar davrida madaniy hayotning yuksalishi bilan bir qatorda, ijtimoiy tabaqalanish ham kuchaygan. Jamiyatda harbiy zodagonlar, ruhoniylar va oddiy dehqon-chorvador qatlamlari mavjud bo'lgan.

Harbiy tabaqa davlat boshqaruvida muhim rol o’ynagan, ular asosan xoqon davrida mustaqil siyosiy kuchga aylantirgan. Qarluqlarning madaniyatida turkiy yozma an’ana muhim o’rin tutgan. Ular o’z davrida O’rxon-Enasoy bitiklariga yaqin yozuv tizimdan foydalanganlar. Arxeologik topilmalarda Qarluqlarga oid tosh yozuvlar, belgilar va tamg’alar uchraydi. Bu belgilar keyinchalik Qoraxoniylar, hatto Saljuqiylar davridagi tamg’alarda ham davom etgan. Bu holat Qarluqlarning yozuv va ramz madaniyati keying turkiy xalqlar uchun asos bo’lganini ko’rsatadi.[6] Qarluqlar davlati o’z davrida kuchli harbiy tuzilmaga ega bo’lgan. Ularning qo’shini asosan otliq lashkarlardan tashkil topgan bo’lib, har bir qabila o’zining alohida harbiy birligiga ega edi. Harbiy tartibda qat’iy intizom saqlangan, lashkarboshilarga “tarxon”, “yabg’u” yoki “eltiber” unvonlari berilgan. Qarluqlarning bu harbiy tizimi keyinchalik Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatining harbiy tuzilmasiga asos bo’lgan. Xitoy manbalarida qatd etilishicha, Qarluqlar jangovor mahorati, tartibi va otliq qo’shinlarining tezkorligi bilan boshqa turkiy qavmlardan ajralib turgan. Qarluqlar diplomatik siyosatda ham mohirlik ko’rsatganlar. Ular Vlll-lX asrlarda Xitoy Tang imperiyasi, Tibet davlati, shuningdek arab xalifaligi bilan elchilik aloqalari o’rnatgan. Ba’zi xitoy solnomalarida Qarluqlar elchilari saroyga sovg’alar va otlar olib kelgani evaziga ipak va boshqa qimmatbaho buyumlar olgani qayd etiladi. Bu holat Qarluqlarning xalqaro siyosatida faol ishtirok etganidan dalolat beradi. Ularning diplomatik faolligi tufayli Yettisuv va Farg’ona vodiysi orqali Sharq bilan G’arbni bog’lovchi yo’llar xavfsiz saqlanib turgan. Madaniy hayotda esa Qarluqlar o’z davrining yuksak sivilizatsiyalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Ularning shaharlarida maktab va madrasalar, shuningdek diniy markazlar paydo bo’lgan. Islom dini kirib kelganidan so’ng arab yozuvi, Qur’on ta’limoti va shariat qonunlari asta-sekin joriy etila boshlagan. Bu jarayon natijasida Qarluqlar orasida ilk islomiy ulamolar, mudarrislar va yozuvchilar shakllandi. Shu tariqa Qarluqlar madaniy jihatdan qadimiy turkiy an’analar bilan yangi islomiy qadriyatlarni uyg’unlashtira olgan xalq sifatida tarixda qoldilar. Qarluqlar shuningdek san’at va xalq og’zaki ijodida ham iz qoldirganlar. Ularning xalq qo’shiqlari, doston va afsonalari keyinchalik “O’g’uznoma” hamda “Manas” eposlariga o’xshash turkiy dostonlarning shakllanishiga zamin yaratgan. Arxeologik topilmalarda hayvon shaklidagi bronza haykalchalar, naqshli spool idishlar, marjonlar va metal qurollar topilgan bo’lib, bu ularning badiiy didi va hunarmandchilik darajasining yuksakligidan dalolat beradi.

Xulosa. Qarluqlar Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy va madaniy rol o’ynagan turkiy qabilalardan biri sifatida e’tiborga loyiqdir. Tarixiy manbalarga ko’ra, dastlab ular Yettisuv, Ili va Chu daryolari oralig’idagi mintaqada joylashgan bo’lib, bu hududlar o’zining qulay tabiiy-geografik sharoiti bilan ko’chmanchi va yarim ko’chmanchi qabilalar uchun ideal yashash maydoni bo’lgan. Qarluqlar siyosiy va harbiy kuchi orqali mustaqil davlat tashkil etib, keyinchalik Qoraxoniylar davlati shakllanishida muhim rol o’ynagan. Ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Shu bois, Qarluqlar tarixiy geografiyasini o’rganish nafaqat ularning o’z tarixini, balki butun mintaqaning tarixiy rivojlanishini tushunishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.B. Ahmedov, O’zbekiston tarixi, 1997-y

2. Бартольд.В.В. Туркистан в эпоху монголъского нашествия.-Санкт-Петербург. 1898. -607с

3.B. Ahmadov, “O’rta asrlar O’rta Osiyo tarixi”, Toshkent, 1999-y.

4.Narshahiy, “Buxoro tarixi”, lX asr

5.Rashididdin, “Jome’ ut-tavorix” Xlll asr.

6.Sh. Kamoliddin. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. Toshkent, 2010-y

DUNYO MIQIYOSIDA TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING SAMARQAND TURIZM SALOHIYATIDAGI AKS ETTIRILISHI

Kadirov Farhod Mamarajabovich
Oriental universiteti 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi
Email: farhodq045@gmail.com
ORCID**:** 0009-0004-8334-7161
Tel nomer: 94 6404188

ANNOTATSIYA. So‘nggi o‘n yillikda turizm global iqtisodiyotda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Xususan, 2015–2025 yillar oralig‘ida xalqaro sayyohlar soni sezilarli darajada oshdi, ekologik, madaniy va tibbiy turizm turlariga bo‘lgan talab kuchaydi. Dunyo bo‘ylab turizmga oid infratuzilmaviy loyihalar, raqamli xizmatlar va turizm marketingi yondashuvlari sezilarli darajada o‘zgardi. O‘zbekiston ham mazkur tendensiyalarga mos ravishda o‘z turizm strategiyasini ishlab chiqdi va ayniqsa, Samarqand shahri global sayyohlik markazlaridan biriga aylanish sari jadal qadamlar tashlamoqda. Ushbu maqolada turizmning jahon miqyosidagi rivojlanish yo‘nalishlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlili va ular Samarqand viloyati turizm salohiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani yoritiladi. Tadqiqot metodlari sifatida statistik tahlil, kontent tahlil, qiyosiy yondashuvlar qo‘llanildi. Maqola yakunida Samarqand viloyatining xalqaro turizmda raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: global turizm, sayyohlik salohiyati, Samarqand, raqamli turizm, barqaror rivojlanish, madaniy meros, iqtisodiy ta’sir.

АННОТАЦИЯ. За последнее десятилетие туризм стал одной из самых динамично развивающихся отраслей мировой экономики. В период с 2015 по 2025 годы количество международных туристов значительно увеличилось, возрос интерес к экологическому, культурному и медицинскому туризму. По всему миру наблюдается активное внедрение цифровых сервисов и реализация инфраструктурных туристических проектов. Узбекистан также активно развивает туристический сектор, принимая во внимание мировые тенденции, и город Самарканд становится одним из главных центров притяжения иностранных туристов. В данной статье рассмотрены основные направления развития мирового туризма, проведён анализ социально-

экономических факторов и их влияние на туристический потенциал Самаркандской области. В качестве методов исследования использованы статистический анализ, контент-анализ и сравнительный подход. В заключительной части статьи даны научно обоснованные выводы и предложения по повышению конкурентоспособности Самарканда на мировом туристическом рынке.

Ключевые слова: глобальный туризм, туристический потенциал, Самарканд, цифровой туризм, устойчивое развитие, культурное наследие, экономическое воздействие.

ANNOTATION: Over the past decade, tourism has become one of the most dynamically developing sectors of the global economy. Between 2015 and 2025, the number of international tourists has increased significantly, with growing interest in ecological, cultural, and medical tourism. The widespread adoption of digital services and the implementation of tourism infrastructure projects are being actively observed worldwide. Uzbekistan is also steadily developing its tourism sector by taking global trends into account, and the city of Samarkand is emerging as one of the key destinations attracting foreign tourists. This article examines the main directions in global tourism development and provides an analysis of socio-economic factors and their impact on the tourism potential of the Samarkand region. Statistical analysis, content analysis, and a comparative approach were applied as research methods. The final section of the article presents scientifically grounded conclusions and recommendations aimed at strengthening Samarkand's competitiveness in the global tourism market.

Keywords: global tourism, tourism potential, Samarkand, digital tourism, sustainable development, cultural heritage, economic impact.

KIRISH. Jahon bozorida turizm sohasining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hisobotlariga koʻra, 2023 yilga kelib xalqaro sayyohlar soni 1,3 milliarddan oshgan. Bu koʻrsatkich 2015 yildagi 1 milliardga yaqin boʻlgan natijadan keskin yuqori. Turizmning iqtisodiy, madaniy va ekologik yoʻnalishlarda tutgan oʻrni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji bilan yanada kuchaymoqda. Global tendensiyalar qatorida raqamli xizmatlar, interaktiv sayyohlik platformalari, madaniy merosga asoslangan sayohatlar alohida ajralib turmoqda.

Oʻzbekistonning turizm sohasi ham soʻnggi yillarda keskin oʻsishga erishmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar asosida, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish boʻyicha 2019–2025 yillarga moʻljallangan strategiyalar ishlab chiqildi. Ayniqsa, Samarqand shahri va viloyatida amalga oshirilayotgan yirik turizm loyihalari global tendensiyalar bilan uygʻunlashgan holda olib borilmoqda. Bu esa ushbu hududda sayyohlar oqimini koʻpaytirish, yangi ish oʻrinlari yaratish, infratuzilmani takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Maqolaning maqsadi – jahon turizmidagi asosiy yoʻnalishlar va ularning tahlilini berish hamda ularning Samarqand viloyati turizm salohiyatidagi aks ettirilishini ochib berishdir. Bu orqali viloyatdagi amaliyot va strategiyalarni xalqaro tajriba bilan qiyoslab, ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi.

Jahon turizmida oxirgi o‘n yillikda barqaror rivojlanishga urg‘u berildi. Sayyohlik xizmatlarida ekologik muvozanatni saqlash, mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olish, an’anaviy madaniyat va qadriyatlarni asrashga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNWTO tomonidan ilgari surilgan “Barqaror turizm” konsepsiyasi bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar tomonidan qabul qilindi. Bunda energiya samaradorligi, chiqindisiz sayohatlar va “yashil” transport vositalarining qo‘llanishi asosiy mezon sifatida qaralmoqda.

Raqamli texnologiyalar turizmda innovatsion yondashuvlarni yuzaga keltirdi. Elektron vizalar, QR-gidlar, virtual ekskursiyalar, onlayn bron qilish tizimlari zamonaviy turizmning ajralmas qismiga aylandi. COVID-19 pandemiyasi davrida aynan raqamli xizmatlar asosida turizm barqarorligini saqlab qolish imkoni tug‘ildi. Bu tajriba turizmni “aqlli boshqaruv” asosida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi.

Samarqand shahrida olib borilayotgan islohotlar va yirik loyihalar aynan global tajribalarga asoslangan. “Silk Road Samarkand” majmuasi, Imom Buxoriy majmuasi, yangi aeroport infratuzilmasi hamda xalqaro brend mehmonxonalarining ochilishi natijasida turizmda yangi bosqich boshlab berildi. Bu holat Samarqandni Osiyo bo‘yicha eng jadal rivojlanayotgan sayyohlik markazlaridan biriga aylantirmoqda.

Tadqiqot metodlari sifatida 2015–2025 yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlar tahlili, turistik oqimlar dinamikasi, O‘zbekiston va UNWTO hisobotlari, mahalliy hukumat qarorlariga tayangan holda kontent tahlil amalga oshirildi. Qiyosiy tahlillar asosida Samarqand tajribasi Malayziya, Turkiya, Gruziya kabi davlatlar bilan solishtirilib, o‘ziga xos jihatlar ajratib ko‘rsatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Samarqand turizmini rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro marketing kampaniyalari hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. 2022 yilda Samarqandga kelgan sayyohlar soni 1,1 milliondan oshdi, bu 2015 yildagi ko‘rsatkichdan 2 baravar yuqoridir. Shuningdek, turizmga oid xizmat ko‘rsatish darajasi 2023 yilda 1,8 trillion so‘mni tashkil etdi.

Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri ham ortmoqda. Yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, xususiy tadbirkorlik subyektlari faollashmoqda, xizmat ko‘rsatish sifati oshmoqda. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlari rekonstruksiya qilinib, ularning jahon turizmiga integratsiyasi ta’minlanmoqda.

XULOSA. Turizm sohasining jahon miqyosida jadallik bilan rivojlanib borayotganligi uning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. 2015–2025 yillar oralig‘ida xalqaro sayohatlarning ko‘lami ortishi, turizm mahsulotlariga bo‘lgan talabning diversifikatsiyalashuvi va raqamli xizmatlarning kengayishi global miqyosda turizmning yangi bosqichga chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu esa mamlakatlar uchun turizmni milliy darajada rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini asrash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va investitsion muhitni yaxshilashdek dolzarb masalalarni ilgari surmoqda.

Samarqand viloyatida turizm salohiyatining kuchayishi global tendensiyalar bilan uyg‘unlikda kechmoqda. Xususan, tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar, diniy ziyorat maskanlari va mahalliy milliy an’analarning turistik mahsulotga aylanishi,

xorijiy sayyohlarning oqimini sezilarli oshirmoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan infratuzilmaviy loyihalar, aeroport va mehmonxonalar tarmog‘ining kengaytirilishi, raqamli gid xizmatlarining joriy qilinishi Samarqandni xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm markaziga aylantirmoqda. Bu borada davlat siyosatining izchil yuritilishi, Prezident qarorlariga asoslangan turizm dasturlarining amalda natija berayotganini ko‘rish mumkin.

Kelgusida Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, barqaror ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish, turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifati va kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Turistik faoliyatda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, sayyohlar xavfsizligini ta’minlash, hududlararo turistik integratsiyani kuchaytirish orqali Samarqand turizmining global maydondagi mavqei yanada mustahkamlanishi mumkin. Shu asosda maqolada keltirilgan ilmiy natijalar amaliyotga yo‘naltirilgan takliflar bilan mustahkamlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Ruziev I.X. *Turizm iqtisodiyoti asoslari*, Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 42–50. ruzievix@edu.uz
2. World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism Highlights 2015–2024*. – Madrid, 2024. – P. 18–35. info@unwto.org
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4095-sonli qarori, 2019 yil. – www.lex.uz. – Sah. 4–12. info@lex.uz
4. Madrahimov B.M. *Samarqand turizm imkoniyatlari*. – Samarqand, 2020. – B. 63–78. madrahimovbm@samdu.uz
5. Shodiyev U. *Barqaror turizm nazariyasi va amaliyoti*, Toshkent: Innovatsiya, 2023. – B. 88–102. shodiyevu@edu.uz
6. UNDP Uzbekistan. *Tourism and Development in Central Asia*, 2022. – P. 55–70. info@undp.uz
7. Xusanov A.A. *Samarqand viloyatining sayyohlik infratuzilmasi*. – Jurnal: Turizm va iqtisodiyot, 2024, №2. – B. 31–39. xusanova@turizm.uz

XI SHO‘BA: TARIXIY TOPONIMIKA: JOY NOMLARI

ТУРОН ТОПОНИМИ ИЛК СОСОНИЙЛАР ДАВРИДА

Ш. С. Камолиддин
Т.ф.д., профессор
Email: shamskamol55@gmail.com
Tel. / Tgr.: +998 90 990 41 41

Турон Ўрта Осиёнинг қадимги номларидан бири бўлиб, бу ном қадимги Эрон мифологиясида, ўрта асрларга оид форсча диний ва тарихий адабиётларда, ҳужжатларда ҳамда ўрта асрларга оид форс-араб ва Ўрта Осиё тарихий географик адабиётларида тилга олинади. Бироқ, Сосонийлар даврида Осиё субминтақасининг жанубида жойлашган кичик бир ҳудуд ҳам Турон деб аталган. Бу ҳудуд номининг Ўрта Осиёга алоқаси бўлганми, ёки йўқми? Мазкур мақолада бу саволга ойдинлик киритишга ҳаракат қиламиз.

242-271 йилларда ҳукмронлик қилган шаҳаншоҳ Шопур I нинг милодий 262 йилларга тўғри келадиган Форс вилояти (Истахр шаҳри яқинидаги – Персеполис харобалари) Нақши Рустам манзилгоҳида битилган «Каъба Зардушт» (ŠKZ) деб аталувчи уч тилли (парфия, ўрта форсча ва грек тиллари) битикларида унга тегишли бўлган ерлар орасида Турон (Turan) ёки Туристон / Тургистон (Turistan / Turgistan) номи ҳам тилга олиниб, бу жой Сакастон (Sakastan) ва Макуран (Makuran) орасида жойлашганлиги айтилади [Chaumont 1975: 134 – 136].

293-302 йилларда ҳукмронлик қилган шаҳаншоҳ Нарсеҳнинг Ироқ Курдистонидаги Хониқин шаҳри шимолидаги Паикули (NPK) минорасида 293 йилларга тўғри келадиган икки тилли (парфия ва ўрта форсча) битигининг якуний қисмида Нарсеҳнинг тахтга ўтириши муносабати билан унга ҳурмат-эҳтиром кўрсатиш учун келган ҳукмдорлар орасида «Кушон подшоҳи» (kwšn MLKA) ва «Макуран подшоҳи» (mkwl’n MLKA) билан бирга «Турон подшоҳи», яъни Туроншоҳ ҳам тилга олинади [Herzfeld 1924: 119].

Буюк Шопур II (309-379 йиллар) нинг 311 йилларга оид Персеполис (Pers I), битигида у «саклар подшоҳи» (Sakan-šah)», унинг ўғли Растшапур эса, «Ҳинд (Hind), яъни Синд, Сакастон (Sakastan) ва Турон (Turan) ёки Тургистон (Turgistan) подшоҳи» деб аталади [Wiesehöfer 1996: 145].

Лондонда сақланаётган Аҳмад Саййидийнинг III – IV асрларга оид сосонийлар босма муҳрларидаги пахлавий ёзувларида Сакастон (skstn), Синд (snd) ва Завулистон (zwlstn) жой номлари билан бирга Tur<an> (*twl[n]*) топоними ҳам қайд этилган бўлиб, у Сосонийларнинг тошбитикларидаги Турон (Turan) ёки Туристон / Тургистон (Turistan / Turgistan) топоними билан бир бўлиши мумкин деб тахмин қилинади [Gyselen 2002: 174; 2019: 192].

Шундай қилиб, Турон ёки Туристон / Тургистон (Turan / Turistan / Turgistan) Сосонийларнинг 3 та тошбитиклари: Шопур I (ŠKZ), Нарсеҳ (NPK) ва Шопур II (Pers I) да қайд этилади. Сосонийларнинг III – IV

асрларга оид муҳрларидаги пахлавий ёзувларида қайд этилган Tur<an> (*twl[n]*) топоними эса Сосонийларнинг тошбитикларидаги Турон ёки Туристон / Тургистон топоними билан бир бўлиши мумкин. Мазкур 3 та тошбитиклардаги Turan, Turistan ва Turgistan номлари остида Ўрта Осиё эмас, балки Ҳинд дарёсининг қуйи оқими ҳавзасида, ундан ғарбда жойлашган кичик бир ҳудуд назарда тутилган бўлиб, у баъзан маркази Қандабил шаҳри бўлган Budahah чўлини ҳам ўз ичига олган.

Бу ҳудуд Шопур I нинг кушон ерларига юриши (245-249 йиллар оралиғида) даврида забт этилган бўлиб, ерларнинг бир қисми кейинчалик сосоний шаҳзодалари томонидан бошқарилган «Ҳинд, Сакастон ва Туристоннинг денгиз соҳилигача» бўлган шарқий ҳудуд таркибига киритилган. Бизга уларнинг номлари ва IV асрнинг биринчи ярмигача бўлган ҳукмронлик даври маълум. Нарсеҳдан кейин «Ҳинд, Сакастон ва Туристоннинг денгиз соҳилигача подшоҳи» унвонига тахтнинг кейинги ворислари Варахран, Хормизд ва 311 йилдан 327 йилгача ҳукмронлик қилган унинг ўғли Шопур II эга бўлишган. Бу унвон IV аср ўрталаригача мавжуд бўлиб, ундан кейин Сосонийларнинг расмий ёзувларида қайд этилмайди.

Турон / Тургистон дастлаб (III асрда) Сосонийларга қарам бир мулк бўлиб, кейин Сакастон ва Ҳинд билан бирга саклар мамлакати таркибига кирган (III – IV асрлар), VI асрда эса Сосонийлар салтанатининг вилоятларидан бири (*ostan*) бўлган. Турон шарқда Ҳинд дарёси, шимоли-ғарбда – Sagistan ҳудуди, шимоли-шарқда – Pardan вилояти, жануби-ғарбда – денгиз бўйида жойлашган Makuran вилояти билан чегарадош бўлган, жанубда эса, Турон / Тургистон вилояти денгиз соҳилига – Турон кўрфазига чиққан.

Turan, Turistan ва Turgistan вилояти ҳукмдори Сакастон ҳукмдори Саган-шоҳга бўйсунган. Ўша даврдан бир кумуш танга (*драхма*) сақланган бўлиб, унинг юза қисмида шаҳаншоҳ Ардашир I ва саклар шоҳи Ардашир Сакан-шоҳ тасвири туширилган. Баъзи ёзувларда эса у мустақил ҳукмдор сифатида алоҳида тилга олинади. Бу икки вилоят, яъни Сакастон ва Тургистон (Турон)да кўчманчи қабилалар яшаган ва улар “эрон хунлари” деб аталган. Улар Сосонийларга қўй ва от етиштириб берувчи асосий қабилалардан бўлган.

Тургистон номи кейинги давр манбаларидаги Туркистон номининг ўрта форсча шакли эканига ҳеч қандай шубҳа йўқ. Турон ва Туристон деб ҳам аталган бу вилоят саклрнинг Сакастон вилоятига туташ жойлашгани ва Сосонийлар салтанати таркибида битта вилоятни ташкил этиши қадимги форсларнинг турклар ва сакларни уларнинг тилига қараб фарқлашганини кўрсатади. Улар илк Сосонийлар даврида, эҳтимол ундан ҳам олдинроқ даврларда эроний тилли кўчманчи қабилаларни “сак”, туркий тилли кўчманчиларни эса “тур” деб аташган.

Шу ўринда, қандай қилиб турклар ўзлари яшаган Ўрта Осиё минтақасидан шунчалик узоқ ерларда бориб қолганлар, деган савол туғилади. Бунда X аср араб тарихчиси ал-Маъсудийнинг туркларнинг Тибет ва Ҳиндистон соҳилларига кўчиши ҳақидаги маълумотлари муҳим

аҳамиятга эга. Ривоятга кўра, “ ‘Амур [ибн Субил] ибн Йафас ибн Нуҳ авлодларининг бир қисми Балх дарёсидан ўтиб, ас-Син диёрига йўл олиб, Хутталон, Русан, ал-Ушрусана, ас-Суғд, Фарғона, аш-Шош, Истижоб, ал-Фороб ва бошқа юртларга тарқалиб кетишган. Улар шаҳар ва қишлоқлар бунёд этишди, сўнг уларнинг бир қисми чўлларга кўчиб, у ерларда яшай бошлашди. Улар Кушон шаҳрига эгалик қилган турклар, хазлажлар ва тағазғазлар эди. Бу мамлакат Хуросон ва ас-Син ўртасида жойлашган. Бизнинг даврда, яъни ҳижрий 332 йил (милодий 943-44 йиллар)да унинг ҳукмдори Эрхон ҳисобланади. Улар монийликка эътиқод қиладилар. … *Хоқон ал-ҳавоқин* («хоқонлар хоқони») уларнинг олий ҳукмдори бўлиб, туркларнинг барча хоқонлари унга бўйсунган. Форсда ҳокимиятни қўлга киритган Фросиёб ат-Туркий хоқонлардан бири бўлган… Турклардан бир гуруҳ одамлар ажралиб, ал-Ҳинд чегараларигача етиб борган. У ерларнинг (иқлими) бу одамларга таъсир қилиб, уларнинг (терисининг) ранги туркларнинг рангидан фарқ қила бошлади ва ҳиндларнинг рангига ўхшаб кетди. Улар воҳа ва саҳроларнинг эгаларидир. Уларнинг бир қисми ат-Туббат мамлакатига бориб жойлашди. Уларнинг турк хоқонига бўйсунувчи ҳукмдори бўлган. Хоқон ҳокимияти ағдарилгач, ат-Туббат аҳолиси ўз подшоҳини *хоқон ал-хавоқин* – «ҳоқонлар ҳоқони» унвонига эга бўлган туркларнинг қадимги подшоҳларига тақлид қилиб, «хоқон» деб атай бошлади. ‘Амур авлодларининг аксарият қисми денгиз қирғоқларига йўл олиб, ас-Син чегарларига етиб боришди, ва ўша юртлар ва ерларга тарқалиб кетишди” [Macoudi I: 286 – 288, 289 – 290].

Бизнингча, бу маълумот ҳақиқатда юз берган воқеаларнинг акс-садосидир. Яъни бу ривоят қадимда туркларнинг маълум бир қисми жанубга кўчиб, Тибетда қўним топганлиги, Ҳиндистон чегаралари ва Ҳинд океани соҳилларигача етиб борганлигини кўрсатади. Маълумки, милоддан аввалги II асрда Ўрта Осиёдан кўчманчи сак қабилаларининг Ҳиндистонга кўчиши юз берган. Бу ривоятда Ўрта Осиёдан жанубга кўчган қабилаларнинг “турк” деб аталиши сак қабилаларининг ҳеч бўлмаганда бир қисми туркий тилли бўлганини кўрсатади. Ўрта Осиёдан жанубга кўчган айнан ана шу турклар илк Сосонийлар (III – IV асрлар.) даврига оид тошбитиклар ва муҳрларда тилга олинган Турон / Туристон / Тургистон ўлкасига асос солган бўлиши мумкин.

Шаҳаншоҳ Папакнинг ўғли Ардаширнинг «Карнамак» китобида ёзилишича, Шопурнинг ўғли Ормазд ҳокимият тепасига келиб, “бутун Эроншаҳрни битта давлатга бирлаштирди турли вилоятлар ҳокимларини ўзига бўйсундирди... ва Рум қироли, хўжайин, Кобул тегини, ҳинд подшоҳи, турк хоқони (Turk <i> xākān) ва турли мамлакатларнинг ҳукмдорлари уни қутлаш учун саройга келдилар” [Kârnâmak: 23 (198)].

Бу маълумотда тарихий хатолик бор дейилади: турк ҳоқони Шопурнинг ўғли Ормазд (тахминан 271/272 – 272/273 йилларда ҳукмронлик қилган)нинг олдига келган бўлиши мумкин эмас, чунки III асрда турклар бўлмаган. Бироқ юқорида келтирилган Турон / Тургистон вилояти ҳақидаги маълумотлар шаҳаншоҳ Ормазд I олдига келган турк хоқони ҳақидаги

хабарнинг тарихий хато эмаслигидан, аксинча тарихий воқеъликка тўлиқ мос келишидан далолат беради.

Ат-Табарийга кўра, Арташир ўзининг иккинчи юришида Сакастон, Гургон, Абаршаҳр, Марв, Балх, Хоразм – «Хуросоннинг чекка чегараларигача» бўлган ҳудудларни босиб олган. У Марвдан Парсга қайтгач, "Кушон подшоҳи, Турон подшоҳи ва Мукрон подшоҳининг элчилари унинг қабулига итоат изҳор қилиш учун келишди" [at-Tabari I: 819 – 820]. Ибн Хордадбеҳ Ардашир «шоҳлар» деб атаган ҳукмдорлар – Сижистон-шоҳ, Макрон-шоҳ (ас-Синдда), Ҳиндувон-шоҳ, Кабулон-шоҳ ва бошқалар қаторида "турклар (мамлакатида) ги Турон-шоҳ" ни ҳам тилга олади [Ibn Khordadhbeh: 17]. Тахмин қилинишича, бу ерда Ардаширга бўйсунган Ҳинд ва Ҳилменд дарёлари оралиғида жойлашган туркларнинг кичик вилоятининг ҳукмдори назарда тутилоқда.

Ибн Хордадбехнинг Турон-шоҳ «турклар ҳукмдори» бўлгани ҳақидаги кўрсатмаси эътиборга оладиган бўлсак, "Карнамак" да тилга олинган "турк хоқони" Сосонийлар салтанатининг шарқий чегарасида, Ҳинд дарёсининг ғарбида, Сакастоннинг жанубида ва Мукроннинг шимолида жойлашган Турон / Туристон / Тургистон вилоятининг ҳукмдори бўлган бўлиши керак.

Ас-Синд мамлакатидаги Турон вилояти шунингдек, мўғуллардан олдинги давр ислом географлари (ал-Истахрий, Ибн Ҳавқал, ал-Муқаддасий, «Ҳудуд ал-'олам», Беруний, ал-Идрисий, Ёқут ал-Ҳамавий, Абу-л-Фида ва бошқалар)нинг асарларида ҳам тилга олинади. Ислом тарихчилари келтирган маълумотларга кўра, VII асрнинг ўрталари – иккинчи ярмида Туронда турклар истиқомат қилган ва араб қўшинларига қаршилик кўрсатган. VIII аср бошларида Сижистонда *ўғуз* ва *халаж* турклари яшаган. 82/701-72 йилларда Сижистонга тайинланган ҳоким Абдураҳмон ибн Муҳаммад ибн ал-Ашъас у ерда яшаган ўғузлар ва халажлар билан жанг қилишга мажбур бўлган. Кейинги асрларда Сижистондаги ҳокимият ҳали ҳам халажларга тегишли бўлиб, уларнинг ҳокимиятига фақат Яъқуб ибн ал-Лайс чек қўйган. 255/869 йилда Кобулга юриш қилган Яъқуб ибн ал-Лайс у ердан қайтаётганда Сижистонда кўплаб турклар ва халажларни учратган [Та'рих-и Систан: 215].

Шундай қилиб, манбаларда келтирилган маълумотлар бизга қуйидагича хулоса қилиш имконини беради:

- 245 ва 249 йиллар оралиғида шаҳаншоҳ Шопур I (242 – 271 йилларда ҳукмронлик қилган) шарққа юриш қилиши натижасида, Кушонлар шоҳлигидан ерларининг бир қисми тортиб олинди, кейинчалик у ерлар «Ҳинд, Сакастон, Туристоннинг денгиз қирғоғигача» бўлган шарқий ўлкаси таркибига киритилди, шундан кейин тахминан 100 йил давомида IV аср ўрталаригача Сосонийлар сулоласи шаҳзодалари унга ҳукмронлик қилиб келган. Турон ёки Туристон / Тургистон вилояти ушбу ўлка таркибига кирган, унинг ҳукмдори Туроншоҳ деб аталиб, Саканшоҳга бўйсунган. Бу икки вилоят, яъни Сакастон ва Турон (Туристон / Тургистон)да кўчманчи қабилалар яшаган ва улар "эрон хунлари" деб аталган. Улар Сосонийларга қўй ва от етказиб берган.

- Юқорида келтирилган маълумотлар Ўрта Осиёдан жанубга кўчган сак қабилаларининг бир қисми туркий тилли бўлган деб тахмин қилиш имконини беради. Тургистон номи кейинги давр манбаларидаги Туркистон номининг ўрта форсча шакли эканига ҳеч қандай шубҳа йўқ.

Турон ва Туристон деб ҳам аталган бу вилоят сакларнинг Сакастон вилоятига туташ жойлашгани ва Сосонийлар салтанати таркибида битта вилоятни ташкил этиши қадимги форсларнинг турклар ва сакларни уларнинг тилига қараб фарқлашганини кўрсатади. Улар илк Сосонийлар даврида, эҳтимол ундан ҳам олдинроқ даврларда эроний тилли кўчманчи қабилаларни "сак", туркий тилли кўчманчиларни эса "тур" деб аташган.

- Туронликлар, яъни турклар, шаҳар ва қишлоқларда яшаган ўтроқ ҳиндулар билан ёнма-ён яшашган. Улар Сакастон ва қўшни вилоятларнинг чўл-даштларида кўчиб юриб, VI – VIII асрларгача чорвачилик ва зотли отларни кўпайтириш билан шуғулланганлар. Кейинги асрларда ҳам Сакастон ва унинг атрофидаги ҳокимият турклар қўлида бўлган. Фақат Яъқуб ибн ал-Лайс 255/869-йилда уларнинг ҳокимиятига чек қўйган. X асрда бу чўл-даштларда дравид қабилалари, кейинчалик эроний тилда сўзлашувчи балуж қабилалари яшаган. Лекин X – XI аср бошларидаги Синд топонимиясида Турон вилояти номи ҳали сақланган эди, ҳатто унинг соҳили бўйлаб чўзилган кўрфаз ҳам "Турон" деб номланган, бироқ ўша даврда бу ерда турклар борлиги тилга олинмайди. Умуман олганда, туронликлар, яъни турклар, Сакастон даштлари ва унинг атрофларида тахминан 1000 йил давомида яшашган. IX аср охирларида турклар ўз даштлари устидан ҳукмронликни йўқотгач, улар шимолий вилоятлар – Тохаристон ва Хуросон ерларига кўчиб кетишган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Chaumont 1975 – Chaumont M.-L. "États vassaux dans l'empire des premiers Sassanides", *Monumentum H. S. Nyberg I* (Acta Iranica, 4). Leiden – Teheran, 1975, p. 89 – 156.

2. Gyselen 2002 – Gyselen, Rika. Nouveaux materiaux pour la geographie historique de l'empire Sassanide: Sceaux administratifs de la Collection Ahmad Saeedi (SI, Cahier 24). Leuven: Peeters Publishers, 2002.

3. Gyselen 2019 – Gyselen, Rika La géographie administrative de l'Empire sassanide. Les témoignages épigraphiques en moyen-perse (Series: Res Orientales, 25). Leuven: Peeters Publishers, 2019.

4. Herzfeld 1924 – Herzfeld E. Paikuli. Monument and Inscription of the Early History of the Sasanian Empire. Vol. 1 – 2. Berlin: Dietrich Reimer / Ernst Vohsen, 1924 (Forschungen zur islamischen Kunst, 3). (NPK)

5. Ibn Khordadhbeh – Abu'l-Kasim Obaydallah ibn Abdallah Ibn Khordadhbeh, Kitab al-Masalik wa'l-mamalik / Ed. M. J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni Batavorum: E. J. Brill, 1889, p. 1 – 183.

6. Kârnâmak – Kârnâmak-i Artakhshîr-i Pâpakân. Memoirs of king Ardashîr, the founder of the Sassanian dynasty / The Pehlvi text transliterated in Roman characters and translated into Gujârati. With a corresponding account of his

life, taken from the Shah Nameh of Firdosi / Ed., with copious notes by Kaikobâd Adarbâd Dastûr Nosherwân. Bombay: Education Society's Steam Press, 1896.

7. Macoudi – Macoudi. Les prairies d'or / Text et traduction C. Barbier de Meynard, t. I – IX. Paris: Societe Asiatique, 1861 – 1877.

8. at-Tabari – Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, Annales / Ed. M. J. de Goeje, I – III series, Lugduni Batavorum: E. J. Brill, 1879 – 1901.

9. Та'рих-и Систан – Та'рих-и Систан (История Систана) / Перевод, введение и комментарий Л. П. Смирновой (ППВ, XLII). М.: Наука, 1974.

10. Wiesehöfer 1996 – Wiesehöfer, Josef. Ancient Persia from 550 BC to 650 AD (transl. by A. Azodi). London: J. B. Tauris & Co., 1996 (2001).

QANG' DAVLATI TASHKIL TOPISHI BO'YICHA FIKRLAR TAHLILI

Xolmatova Umida.
Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktaranti.
uholmatova58@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoning qadimiy davlatlaridan biri – Qang (Kang, Kangyuy) davlati tarix sahnasida shakllanishi, rivojlanishi va uning siyosiy hamda madaniy hayotdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda arxeologik topilmalar, yozma manbalar, xususan, Xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar asosida Qang davlatining miloddan avvalgi III asr – milodiy III asrlar oralig'ida Sirdaryo havzasida vujudga kelgani tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Qang davlatining boshqaruv tizimi, iqtisodiy hayoti, qo'shni xalqlar – Xitoy, Yuezhi va Kushonlar bilan bo'lgan siyosiy aloqalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qang davlati, Kangyuy, Sirdaryo, qadimgi tarix, Yuezhi, Kushon, sug'diylar, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования и развития одного из древнейших государств Средней Азии – Канг (Кангюй). На основе археологических находок и письменных источников, в частности китайских хроник, анализируется возникновение государства Канг в III веке до н.э. – III веке н.э. в бассейне реки Сырдарья. В статье освещаются вопросы государственного управления, экономической жизни, а также политические отношения Канга с соседними народами – Китаем, юэчжи и кушанами.

Ключевые слова: государство Кан, Кангюй, Сырдарья, древняя история, юэчжи, Кушаны, согдийцы, Центральная Азия.

Annotation: This article explores the formation and development of one of the ancient states of Central Asia – Kang (Kangju, Kangyuy). Based on archaeological findings and written sources, particularly Chinese chronicles, the study analyzes the emergence of the Kang state in the 3rd century BCE – 3rd century CE in the Syr Darya basin. The article discusses the system of governance, economic life, and political relations of Kang with neighboring peoples – China, the Yuezhi, and the Kushans.

Keywords: Kang State, Kangju, Syr Darya, ancient history, Yuezhi, Kushans, Sogdians, Central Asia.

Yevroosiyo mintaqasi o'zining geografik joylashuvi va tabiiy xususiyatlariga ko'ra asosan o'troq va ko'chmanchi ukladli xo'jalik asosida shakllangan davlatlar hukmronligidagi mintaqa hisoblanadi. Ushbu davlatlar esa aksariyat hollarda daryo bo'ylari hamda madaniy rivojlanganvohalarda shakllangan. Ilk davlat uyushmalari taxminan mil.avv. IV-III mingyilliklarda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hisndiston, Xitoyda vujudga kelgan. Mzazkur davlatlarda muqaddaslashtirilgan hukmdor shaxsi davlatni jipslashtiruvchi va birlshtiruvchi siymo bo'lib, u ilohlar va fuqaro orasida "vositachi" hisoblangan hamda o'zining xarizma xususiyati bilan jamiyat barqarorligi hamda ravnaq topishini ta'minlagan [Boboyorov 2012 : 66].

E.V.Rtveladze yozma manbalar va arxeologik materiallarning talqinlari asosida O'zbekiston hududidagi davlatlarning shakllanishini va ilk davlatchilik jarayonlarini quyidagi to'rtta davrga bo'ladi: birinchi davr – mil.avv II ming yillikning ikkinchi yarmi –O'zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o'xshash tuzilmaning tashkil topishi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda o'z aksini topgan deyish mumkin; *ikkinchi davr*- mil.avv. I ming yillikda 539-yil- Baqtriya, Sug'd, Xorazm tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanish: *uchinchi davr*- mil.avv. 300-yil- Ahamoniylar bosqini va O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi tufayli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus; *to'rtinchi davr* mil.avv. IV asr oxiri mil.avv. II asrning ikkinchi yarmi boshi – O'rta Osiyoni Aleksandr Makedonskiy bosib olgandan boshlab (329-327) ellinlar siyosiy hukmronligi oxirigacha, *beshinchi davr* mil.avv. II asrning ikkinchi yarmi-yangi eraning I asr boshi – mahalliy davlatlar: Qang', Xorazm podsholigi, Buxoro, Sug'd, Dovon mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi, Yuechji davlatining qaror topishi va uning hokimiyatining Gandhari (Hindiston yarim orolining shimoli-g'arbiy qismi)ga qadar yoyilishi; oltichi davr- yangi eraning I asri boshi – III asri birinchi yarmi – antic davrda mahalliy davlatychilikning qaror topishi [Rtveladze, Saidov, Abdullayev, 2001:51].

Qang' davlati ham bir necha yirik qabila ittifoqlarining birlashuvi natijasida paydo bo'lgan konfederatsiya bo'lib, u haqida manbalarda ba'zi ma'lumotlar yetib kelgan. [bu fiktni soha mutaxassislari ham e'tirof etishadi (qarang Klyashtorniy. 2008:14-21]. Jumladan, Qang' davlati to'g'risida ilk ma'lumotlardan biri Xan imperiyasi (mil. avv. 202 – milodiy 220 yillar) tarixchisi Sima Tsyan (mil. avv. 148–86 yillar)ning "Shi tszi" ("Tarixiy yillnomalar") asarida keltirilgan [Kyuner 1961: 103-104]. Xitoy sayyohining bergan ma'lumotlariga ko'ra, Qang' davlati janubi-sharqdan Dovon (Farg'ona), shimoli-sharqdan Yettisuv, g'arbdan Baqtriya davlatlari bilan chegaralanadigan mintaqada joylashgan. Uning asosiy aholisi ko'chmanchilardan iborat bo'lib, Farg'ona, Sug'd kabi o'troq vohalarda yashovchi aholisi dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qang' to'g'risidagi ma'lumotlar zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da ham keltirilgani bilan ahamiyatli. Qang' to'g'risida "Avesto" da quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

"Ардви Сура шаънига-О, муқаддас Ардви Сур
Кўксини от ёли узраҚўрқмас Варсакининг

Ташлаб, намоз йўлладиАвлодларини енгай.
Довюрак жангчи Туса. ...Муқаддас Қангхадаги
Ва тағин Ардвига:Хшатросуктанглиги
Менга бер омад, - деди, (Ичра тўқнашган чоғда)” [Is’hoqov 2001 : 22-23].

Keltirilgan ma’lumotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, Qang‘ davlati o‘z harbiy va dovyurak jangchilariga ega bo‘lgan davlat bo‘lgan. “Avesto”da keltirilgan Qangxa bu Qang‘ davlati ekanligiga shubha yo‘q. Chunki bu davrda ushbu nomdagi boshqa davlat mavjud bo‘lmagan. Faqatgina ushbu davlatning qaysi hududlarga to‘g‘ri kelishi masalasida bahslar mavjud.

Eron va Turon xalqlari madaniyatiga doir yozilgan Abulqosim Firdavsiy (934–1024)ning “Shohnoma” asarida ham keltirilgan bo‘lib, unda Qangdiz afsonaviy Siyovushning yurti bo‘lgani qayd etiladi [Shohnoma 1971:736]. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar umumiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularda Qang‘ning aynan qaysi geografik arealda va qaysi omillar asosida shakllangani keltirilmagan. Shu bois, sohaga doir tadqiqotlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

S.P. Tolstov fikrlariga ko‘ra, Qang‘ davlati Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlariga to‘g‘ri keladi. Aniqrog‘i, olim Xorazm hududlarini Qang‘ davlatini lokalizatsiyalashda asos qilib olgan [Tolstov 1948: 21-22]. P. Zohidov esa Xorazm vohasi tangalarini tadqiq etgan holda S.P. Tolstov fikrlariga qarshi holdaXorazm Qang‘ davlati tarkibiga kirmagan deb hisoblaydi. B.I. Vaynberg Qang‘ konfederatsiyasi chegaralari Shimoliy Kaspiybo‘yidan Farg‘onagacha va Janubiy Uralbo‘yidan shimolda Qoraqumgacha cho‘zilganini ilgari suradi. A. Muhammadjonovga ko‘ra, Qang‘ yurtlari Dovan (Farg‘ona), shimoliy-sharqda Usun (Uyg‘ur) va Yuechji (Tohar) qabilalari yerlariga, shimoliy-g‘arbda Sirisu daryosi, g‘arbda Yaksart (Sirdaryo)ning quyi oqimi va Xorazm bilan chegaralangan.

Turkshunos olim L.N. Gumilev ham xitoylarning “Tsian Xan-shu” yilnomasiga tayangan holda (bunda olim Qang‘ sharqda hunlarga bo‘ysungan degan ma’lumotga asoslangan) Qang‘ davlatining vujudga kelgan hududlari to‘g‘risida ma’lumot keltirib, ta’kidlaydiki, Qanguy Sharqiy Qozog‘iston dashtlarida, Balxash va Irtish ko‘llari oralig‘ida joylashgan.[Гумилев 1960: 166-167].

Ilk o‘rta asrlar davriga oid xitoy yilnomalari asosida N.Ya. Bichurin Sug‘d, Xorazm va Sirdaryoning o‘rta hamda quyi oqimlari ham Qang‘ davlati tarkibida bo‘lganini keltiradi [Бичурин. 1950: 147-152]. Bu turli-tuman talqinlar Qang‘ning vujudga kelgan geografik mintaqasini aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu bois ham Qang‘ davlatining aynan qayerda vujudga kelganligi to‘g‘risida barqaror fikr mavjud emas.

Siyosiy tuzilma sifatida Qang‘ davlati Qang‘ar qabilalari boshliqlari homiyligida birlashgan ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalarning konfederatsiyasi bo‘lib, ular miloddan avvalgi II asrgacha ham shakllangan bo‘lishi mumkin. Dastlab bu kichik ittifoq bo‘lib, janubda Yuechjilar hokimiyatini tan olgan, sharqda esa Hunlarga qaram bo‘lgan. Ammo asta-sekin, mil.avv. II

asrdan eramizning II asrigacha u qudratli davlatga aylangan, unga ko'plab qo'shnilari qaram bo'lib qoldi. Jumladan, Xoy Xan-shu yilnomasiga ko'ra, *sarmat-alan* (Yantsay) qabila ittifoqi ham Qang' davlati tarkibida bo'lgan. G'arbda ,uxitoyga qarshi urushda Dovonning kuchli ittiqfoqchisi sifatida harakat qilgani ma'lum. [Litvinskiy. 1968 : 1819]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Boboyorov 2012 –** Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi: tarix fanlari doktori aftareferati. Toshkent. Sharqshunoslik instituti, 2012
2. **Rtveladze, Saidov, Abdullayev, 2001-** Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev B. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. ..
3. **Is'hoqov 2001** – Vesto: Yasht kitobi M. Is'hoqov tarjimasi. Toshkent: Sharq, 2001.
4. **Shohnoma 1971 – Abul**qosim Firdavsiy Shohnoma. 1-tom Fors tilidan Sh.Shomuhammedov tarjimasi. Toshkent: adabiyot va san'at. 1971.
5. **Tolstov 1948-** Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологических исследований. Москва: Наука, 1948. табл. 85. С. 21-22.
6. **Гумилев 1960: -** Гумилев Л.Н. Хунну. Средняя Азия в древние времена. Москва: Издательство Восточной литературы, 1960.
7. **Бичурин. 1950: -** Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. Москва-Ленинград: Изд. АН СССР, 1950. Том I.
8. **Litvinskiy. 1968 -** Литвинский Б.А. Кангюско-сарматский фарн (к историко-культурным связям племен России и Средней Азии). Душанбе: Дониш, 1968. С. 1819.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОНИМИКА РЕГИОНОВ АЛТАЙ И АЛА-ТОО (ПАРАЛЛЕЛИ)

Дуйшеев Женишбек Аматысакович
Кандидат исторических наук,
профессор кафедры философии
Международного университета
имени К.Ш.Токтомаматова
г.Манас, Кыргызстан
duysheev@mail.ru
orcid: 0009-0006-1179-5533

ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОНИМИКА РЕГИОНОВ АЛТАЙ

Аннотация: В статье рассматриваются параллели в исторической топонимике регионов Алтай и Ала-Тоо, как двух значимых культурно-географических зон Центральной Азии. Анализируются лексико-семантические особенности наименований, происхождение корней *алта/алата* и *ала*, их этимологическая и символическая связь. Особое

внимание уделяется общим тюркским элементам, отражающим древнюю этнокультурную близость народов Алтая и Тянь-Шаня. На основе сравнительно-исторического анализа выявляются сходные модели формирования топонимов, их функции в отражении природных особенностей и сакральных представлений. Делается вывод, что параллели в топонимике свидетельствуют о древних миграционных, культурных и языковых связях между регионами.

Ключевые слова: Алтай, Ала-Тоо, топонимика, этимология, тюркские языки, параллели, этнокультура, историческая лингвистика.

Аннотация: Мақолада Алтай ва Ала-Тоо минтақалари топонимикасининг тарихий параллеллари ўрганилади. Бу икки маданий-географик ҳудуд Марказий Осиёнинг қадимий этник ва тил бирликларини ифода этади. Тадқиқотда *алта/алата* ва *ала* илдизларининг этимологияси, уларнинг маънавий ва рамзий боғлиқлик жиҳатлари таҳлил қилинади. Тўрк тилли халқлар топонимларидаги умумий лексик элементлар, табиий муҳитни ифода этиш ва муқаддас маъноларни сақлаб қолиш хусусиятлари кўрсатилади. Хулоса сифатида, Алтай ва Ала-Тоо топонимларидаги ўхшашликлар қадимги маданий ва тил алоқаларининг изи эканлиги таъкидланади.

Калит сўзлар: Altay, Ala-Too, toponimiya, etimologiya, turkiy tillar, parallel, etnomadaniyat, tarixiy lingvistika.

Abstract: The article examines the parallels in the historical toponymy of the Altai and Ala-Too regions, two significant cultural and geographic areas of Central Asia. The study analyzes the lexical and semantic features of place names, the etymology and symbolic meaning of the roots *alta/alata* and *ala*, and their reflection of ancient Turkic linguistic unity. Using comparative-historical methods, the research identifies similar models of toponymic formation and explores their role in expressing natural features and sacred concepts. The results suggest that the parallels in toponymy reflect ancient cultural, linguistic, and migratory connections between the Altai and Ala-Too regions.

Keywords: Altai, Ala-Too, toponymy, etymology, Turkic languages, parallels, ethnoculture, historical linguistics.

Топонимика – это важный источник сведений о прошлом народов, их переселениях, языковых и культурных контактах. Регион Алтая и горная система Ала-Тоо с древнейших времён были центрами формирования тюркских этносов. Несмотря на географическую удалённость, эти регионы имеют поразительное сходство в топонимических моделях. В обоих случаях название связано с лексемой *ала* – «пёстрый, разноцветный», что может отражать как природное описание горных склонов, так и символическую многослойность культуры.

Историко-лингвистические параллели

1. **Общий корень и значение.**

Корни *ала* и *алта/алата* встречаются в большинстве тюркских языков. В топонимах они часто обозначают «пёстрые горы» – сочетание снежных вершин и каменистых склонов.

2. **Мифологический контекст.**

В древнетюркской мифологии горы Алтай и Ала-Тоо считались священными, символизировали связь неба и земли, место, где обитают духи предков.

3. **Этнокультурные связи.**

Совпадение топонимов указывает на древние миграции тюркоязычных племён, общие архетипические представления и географическое наследие.

Семантический анализ топонимов

- *Алтай* – от древнетюркского «ал» (алая, красная) и «тай/та» (гора, место), возможное значение – «пёстрая/священная гора».
- *Ала-Тоо* – букв. «пёстрые горы» (ала – разноцветный, тоо – гора).

Оба топонима сохраняют древнюю символику священных вершин и природных ориентиров.

Параллели формирования топонимов

Характеристика	**Алтай**	**Ала-Тоо**
Лингвистический корень	*алта / ала*	*ала*
Языковая принадлежность	Тюркская, с древними слоями	Тюркская
Семантика	«Пёстрый, горный, высокий»	«Пёстрые горы»
Культурное значение	Мифологический центр, прародина	Символ родной земли
Тип наименования	Ороним (горная система)	Ороним (горная система)

Эти совпадения показывают не случайное сходство, а системное наследие древних топонимических моделей.

Заключение

Историческая топонимика Алтая и Ала-Тоо демонстрирует глубокие параллели в языковой структуре, семантике и культурной символике. Эти регионы связаны не только общими корнями в тюркской топонимической традиции, но и единой духовной картиной мира, где гора – сакральный центр Вселенной. Изучение таких параллелей позволяет восстановить древние культурные связи и расширяет понимание историко-лингвистического пространства Центральной Азии.

Список литературы

1. Гумилев. Байыркы түрктөр. Бишкек. 1999;
2. Жаманкулова Г. Алтай тектүү элдердин цивилизациясы. Бишкек. 2018;
3. История Сибири. Том I. Новосибирск. Издательство Института археологии и этнографии СО РАН. 2022;
4. Конокобаев К. Топонимия Южной Киргизии. Фрунзе.1980;
5. Табалдиев К.Ш. *Древние этнокультурные связи Алтая и Тянь-Шаня.* – Бишкек: Илим, 2017;

6. Худяков Ю.С., Табалдиев К.Ш. Древние тюрки на Тянь-Шане. Новосибирск. 2009.

ИЛК ВА РИВОЖЛАНГАН ЎРТА АСРЛАРДА КУШОНИЯ ШАҲРИНИНГ ТАРИХИЙ ТОПОГРАФИЯСИ ВА ЛОКАЛИЗАЦИЯ МАСАЛЛАРИ

Сандибоев Алишер Назарбекович
Яҳё Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти
alisher.sandiboyev@inbox.ru

Аннотатция: Самарқанднинг ғарбий қисмида жойлашган Кушония шаҳри Хитой манбаларида Хэ (Кушония), араб манбаларида Кушония деб номланиб, ёзма манбалар, шунингдек, кортагарафик тадқиқотлар натижасида унинг таркибида бўлган Зармон қишлоғи Зормон ўрнида, Хушуфағн - Сарпул, Размаз - Қуйиробод - Пастработ, Косадон-Косагарон, Искарон - Пускарон кабилар ўрнида бўлганлиги борасида сўз юритилган. Мавжуд манбаларнинг илмий таҳлили асосида Кушония шарқда Иштихон билан, ғарбда Бухоро билан чегарадош бўлганлиги борасида фикр мулоҳазалар қилинган.

Калит сўзлар: Суғд, Самарқанд, Кушония, Иштихон, Зармон, локализация, топография, картография.

Аннотатция: В статье рассматривается историческая топография Кушания, расположенного в западной части Самаркандского оазиса, а также проводится анализ городов и поселений, входивших в состав данного владения. В китайских источниках, Кушания упоминается под названием Хэ, а в арабо-персидских – как Кушания. На основе письменных свидетельств и картографических данных локализованы поселения, входившие в его состав: Зармон - Зормон, Хушуфағн - Сарпул, Размаз - Қуйиробод - Пастработ, Косадон-Косагарон, Искарон - Пускарон, являющиеся археологическими памятниками данного региона. Научный анализ имеющихся данных позволяет предположить, что Кушония граничила на востоке с Иштихоном, а на западе - с Бухарой.

Ключевые слова: Согд, Самарканд, Кушония, Иштихан, Зармон, локализация, топография, картография**.**

Abstract: This article examines the historical topography of Kushaniya, located in the western part of the Samarkand oasis, and provides an analytical overview of the cities and settlements that once formed part of its territorial and administrative structure. In Chinese sources, Kushaniya appears under the name He, while in Arabic–Persian texts it is referred to as Kushaniya. Based on written evidence and cartographic data, several settlements that were part of its territory have been localized: Zarmon – Zormon, Khushufagn – Sarpul, Razmaz – Quyi Robod – Past Robat, Kosadon – Kosagaron, and Iskaron – Puskaron, which are archaeological sites of this region. The scholarly analysis of the available data suggests that Kushoniya bordered Ishtikhon in the east and Bukhara in the west.

Keywords: Sogd, Samarkand, Kushoniya, Ishtikhon, Zarmon, localization, topography, cartography.

Кириш. Илк ўрта асрлар даврида турк-суғд муносабатларининг ривожланиши Суғд ва унинг таркибида бўлган бир қатор мулкликларнинг сиёсий барқарорлигига, ижтимоий-иқтисодий тараққиётига ва маданий ҳаётини юксалишига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатди (Отахўжаев 2010: 107). Бу даврда Суғд конфедерацияси таркибидаги бўлган мулкларнинг ички бошқарувини мустақил амалга оширган бўлиб, уларнинг савдо муносабатлари, сиёсий тарихи ва маданияти тўғрисида қисман, аммо муҳим маълумотларни Хитой манбалари сирасига кирувчи “Бэй шу” (Шимолий хонадонлар тарихи) (386–618), “Суй шу” (Суй сулоласи тарихи) (581–618 йиллар) ва “Тан шу” (Тан сулоласи тарихи) (618–907 йиллар) каби йилномаларда ҳамда хитой роҳиби Сюань Цзан (629–645 йиллар) асарида, сайёҳ Хой Чао эсдаликларида учратиш мумкин [Бичурин 1950: 271–276, 280–281, 310; Сюань Цзан 2012: 31, 42; Chavannes 1903: 132–147; Малявкин 1989: 103, 223, 256–257]. Жумладан, “Бэй шу” ва “Суй шу” йилномаларида келтирилишича, Кан (Самарқанд) қудратли давлат бўлиб, унга Ми (Маймурғ), Ши (Кеш), Цао (Иштихон), Хэ (Кушания), Кичик Ан (Бухоро), Нашебо (Насаф), Унахэ ва Му каби мулкликлар бўйсунган. Бу ўлканинг иқлими илиқ, барча дон ўсимликларини экишга қулай, боғдорчилик яхши йўлга қўйилган. Одамларининг кўзлари чуқур, қиррабурун, серсоқол, савдо ишларида чаққон, жиноятчиларга ибодатхонада сақланаётган Хулар қонуни мажмуаси доирасида жазо берилган [Бичурин 1950: 271, 281; Хўжаев 2015: 93–94].

Манбалар таҳлили ва муҳокама. Бэй-шу йилномасида қайд этилишича, “*Кан (Самарқанд)га қарашли бўлган Хэ (Кушония) ҳукмдорлигининг қароргоҳи Нами (Зарафшон) дарёсидан бир неча ли жанубда жойлашган. Бу жой Кангюйнинг собиқ ерларидир. Ҳукмдор Чжаову деб номланади. У ҳам Кан (Самарқанд) уруғидаги ҳукмдорлардан келиб чиққан. Уни Дунь деб номланган. Қароргоҳининг айланаси икки ли мунтазам жангчиларининг сони 1000 киши атрофида. Ҳукмдор қўй шаклдаги олтин тахтга ўтиради. Шарқда Цао (Иштихон) ҳукмдорлигигача 150 ли, ғарбда Кичик Ань ҳукмдорлигигача 300 ли”* [Бичурин II 1950: 286-287]. Тан-шу йилномасида эса Хэ ўлкаси Кюйшуан ва Гуйшуанни деб аталиб, у *қадимги Кангюй (давлати) таркибидаги кичик ҳукмдор Фума шаҳрининг эски ҳудудидир. Шаҳарнинг сўл томонида икки қаватли бино бор. Унинг шимолий деворида бўёқ билан қадимги Ўрта давлат (Хитой) императорларининг, шарқий томонидаги деворда Тукюе (турк) ҳукмдори ва хоқонлари билан Ҳинд (Браҳман) ҳукмдорлари, ғарбий томонида Босы (Форс) ва Фолинь (Византия) ва бошқа ажнабий ҳукмдорларнинг расми чизилган. Ҳукмдор тонгда ушбу бинога таъзим қилгани келиб-кетади* [Ўзбекистон тарихи (Хрестоматия) 2014: 43]. Яъни, Хитой манбаларида келтирилишича, Кушония Цао (Иштихон) ва Кичик Ан (Кармана) ҳукмдорликлари ўртасида жойлашган бўлиб, ҳукмдор қароргоҳи дарёсига яқин бўлган.

Муғ тоғи Суғдий ҳужжатлари ҳам Суғднинг илк ўрта асрлар даври

иқтисодий-сиёсий, ижтимоий ва маданий ҳаётини ёритувчи муҳим маълумотлар берилган. Мазкур ҳужжатларда Суғднинг Панж, Визкарт, Навзандак, Кушония ва Самарқанд Суғдига қарашли бўлган бир қатор жой номлари келтирилган. Жумладан, А-5 рақамли Муғ тоғи Суғдий ҳужжатда Панч саройида хизмат қилган аъёнлар, турли лавозимдаги кишилар учун пул сарфи рўйхатида "*Фсарга манашу драхмалардан Афтикка от учун 200 (драхм), Кажмонакка 32, Махрга 12, Ванга молларни боқиш учун – 6, яна Пухарга 5, кушонияликка 10 драхм*" сарфланганлиги қайд этилган [Лившиц 2008: 216; Исҳоқов 1992: 51].

Кушония араб-форс манбаларида шаҳар сифатида таърифланиб, у Самарқанддан 12 фарсах узоқликда жойлашганлиги тўғрисида маълумотлар учрайди. Жумладан, ибн Ҳавқалнинг қайд этишича, "*Кушония Суғд шаҳарлари орасида энг аҳолиси кўп шаҳардир. Кушония катталиги жиҳатидан Иштихонга яқин, аммо унинг бош шаҳри каттароқ ва қишлоқлари ва аҳолиси кўпроқ, одамлари бойроқ, билимли ва меҳрибондир. Кушония қишлоқларининг узунлиги тахминан икки кунлик йўл, кенглиги эса бир кунлик йўлни ташкил этади. Иштихон рустоқларининг ҳудудлари кенгроқдир. Чунки Иштихон ҳудуди Соғарж тоғларидаги Йағон орқасидан бошланиб, Кушония ҳудудигача узунлиги тахминан икки кунлик йўл, кенглиги эса тахминан бир кунлик йўлни ташкил қилади. Бу иккала шаҳар Суғд дарёсидан шимолида жойлашган, дарёсининг жанубида Дабусия ва Арбинжон шаҳарлари жойлашган* [Ибн Ҳавқал 2011: 65]. Шунингдек, асарда Суғд дарёсидан ҳар бир қишлоққа ариқлар ажралиб чиқиб, унинг аҳолисига ҳаёт бағишлайди. Ал-Кушония ариқларидан кейин дарё ундан ўтиб, Бухоро девори ҳудудларига етиб боради [Ибн Ҳавқал 2011: 60]. Ал-Истахрийнинг маълумотига кўра, Иштихондан ғарбда жойлашган Кушониягача 5 фарсаҳ, Кушониядан Рабинжангача эса 2 фарсаҳни ташкил этган [Истахрий 2019: 161-190]. Бу икки мурриҳнинг маълумотига эътибор берадиган бўлса, Суғд дарёсидан (Зарафшон) жанубда, Карманадан ўтганидан кейин Катта Хуросон йилида Дабусия ва Рабинжон шаҳарлари, дарёдан шимолда эса Кушония ва Иштихон шаҳарлари жойлашган. Ибн Ҳавқалнинг Мовароуннаҳр харитаси таснифида Бухородан Самарқандга келишда йўл устидаги шаҳарларнинг номларни келтириб ўтган. Жумладан, Катта Хуросон йўли устида Бухоро шаҳри, кейин чапга қараб Тавовис, Кармана, Дабусия, Арбинжан, Самарқанд шаҳарлари кетма кет тасвирланган. Иккинчи йўл бўйлаб эса Байканд, Муғкон, Қоратакин қишлоғи, Хужода, Намижкат, Мадйомижкат, Харғонкат, Кушония, Иштихон, Фаранкат, Кайанжкат, Видор, Дизаклари жойлашган [Ибн Ҳавқал 2011: 14].

Ал-Муқаддасийнинг ёзишча, вазир ал – Жайҳоний ўзининг китобида Суғд одам чизмасига ўхшашини ёзиб, унда боши Бунжикас, оёқлари Кушония, бели Абғар, қорни Кабузанжакас ва Туркасфи, қўллари Маймурғ ва Бузмажондир [al-Moqaddasi 1967: 269; Ас-Самъани: 2018. 194].

Ас-Самъонийнинг қайд этишича, Кушония унча катта бўлмаган шаҳар бўлиб, Самарқанддан 12 фарсаҳ узоқликда жойлашганини, унга яқин бўлган Искарон, Исмитан, Хушуфағн, Размаз, Зармон, Шикистон номли қишлоқлар

бўлган [Ас-Самьани 2018: 189-190]. Ан-Насафий ҳам Кушония атрофида Хушуфағн, Шава ва Фай номли қишлоқлар бўлганини зикр этган [Камолиддин 2014: 89-90]. Номаълум муаллиф томонидан ёзилган “Ҳудуд ул-олам (Мовароуннаҳр таснифи)” асарида Зармон Армон тарзида қайд этилиб, у Кушонияга қарашли бўлган [Ҳудуд ул–олам 2008: 12].

Француз картографи Ж. Делил(1675-1726)нинг 1724 йилдаги “Map of Persia” харитасида Кушония ва Иштихон шаҳарлари дарёнинг ўнг томонида, Дабусия, Арбинжон эса дарёнинг чап томонида жойлашган [De L’Isle’s 1724; Иневаткина, Сучилин 2016: 80, рис.4] (1-расм).

Э. фон Цамбауранинг маълумотига кўра, Қорахонийлар даврида 34 зарбхона фаолият кўрсатган бўлиб, улар орасида Суғднинг Самарқанд, Дабусия, Кушония, Иштихон, Кеш, Кармана ва Бухоро номлари учрайди ва уларда тангалар 413–431/1022–40 ҳ. йилларда зарб этилган (Кочнев 2005: 44, 49, 176; Lurje 2014: available at http://www.iranicaonline.org/articles/koshaniyeh).

Кушониянинг марказий шаҳри ўрни сақланиб қолмаганлиги боис тадқиқотчилар ўртасида мунозарага сабаб бўлмоқда. Жумладан, В.В. Барьтолд Кушонияни Каттақўрғон туманида жойлашган Кошонота билан локализация қилган бўлса [Бартольд 1963: 147], Г.А. Пугаченкова унинг марказий шаҳри Оқдарё ва Қорадарёнинг ғарбий қисмида, дарёларнинг қўшилиш дельтаси яқинида жойлашганлигини, аммо уни сув ювиб кетиши натижасида сақланиб қолмаганлигини қайд этади [Пугаченкова 1989: 183]. В. И. Распопова ва Г. В. Шишкиналар Кушония марази Самарқанддан 100 км узоқликда жойлашганлигини, унинг майдони 120 гектарга тенг бўлганини зикр этган [Распопова, Шишкина 1999: 53]. Аммо тадқиқотчилар ушбу жой қайси ҳудудда жойлашганлигини ва ёдгорлик номи тўғрисида аниқ маълумот бермаган. М. Исамиддинов ва Б. Ронделлилар Кушонияни Каттақўрғон туманида жойлашган Қозокота номли қишлоқнинг жануби-шарқий томонида жойлашган Қозоқота археологик ёдгорлиги билан локализация қилган. Ушбу ёдгорликнинг сақланиб қолган сақланиб майдони 200х150 метр бўлиб, марказида 70х65 метр ўлчамдаги арк жойлашган. Унинг баландлиги 12 метр. Кўтарма материаллар асосида ёдгорлик сўнги антик ва ривожланган ўрта асрлар билан даврлаштирилган [Исамиддинов, Ронделли 2006: 118]. Бизнинг хулосамизга кўра, Кушония ўрни Кошонатадан унча узоқ бўлмаган Шамби135 қишлоғи ўрнида бўлиб, шаҳар маркази бўлган археологик ёдгорлик устида ҳозирда аҳоли турар жойи сифатида тўлиқ ўзлаштирган (2-расм). Ушбу ёдгорликнинг шимол томони Оқдарёнинг суви ювиб кетганлиги боис кесма ҳосил бўлган ва ушбу кесмада илк ва ўрта асрлар даври маданий қатлам излари мавжуд. Юқоридагилардан келиб чиқиб, Кушония маркази шаҳри эҳтимол ҳозирги Шамби қишлоғининг ўрнида бўлган. Ушбу жойнинг бир қисмини дарё ювиб кетган, сақланиб қолган қисми эса аҳолининг турар – жойлари остида қолиб кетган.

Номаълум муаллиф томонидан ёзилган “Ҳудуд ул-олам (Мовароуннаҳр

135 Самарқанд давлат университети ўқитувчиси PhD Ғ. Махамадиев талабаларнинг дала археологик амалиёти давомида ушбу ёдгорлини топган.

таснифи)” асарида Зармон Армон тарзида қайд этилиб, у Кушонияга қарашли бўлган [Ҳудуд ул–олам 2008: 12]. Ат-Табарий 730 йилда турк хоқонлигининг қўшинлари Зормон қишлоғи яқинида ал-Жунайд бошчилигидаги арабларнинг йўлини тўсиб, ўз иттифоқчилари билан бирга унга ҳужум қилганлигини қайд этади [Ат-Табарий 1987: 219]. Ас Самъоний Зармон Самарканддан 7 фарсах узоқликда жойлашгани зикр этган [Ас-Самьани 2018: 210]. Ал-Истахрий ва ибн Ҳавқалларга кўра, Зармон Самарқанддан бир марҳала узоқликда жойлашган [Истахрий 2019: 83; Ибн Ҳавқал 2011: 82]. Шунингдек, “Китаб ал-масалик вал-мамалик”нинг Сулаймонияда сақланаётган форсий нусхасида Зармон Суғд дарёсининг чап томонида жойлаштирилган [Истахрий 2019: 84]. Ибн Хурдадбеҳга кўра, рмон Арбинжандан 5 фарсах, Самарқанддан эса 10 фарсах масофада жойлашган бўлиб, Самарқанд ва Зормон ўртасида Қаср Алқама номли карвонлар тўхтаб ўтадиган жой бўлган [Ибн Хурдадбех 1986: 64]. Манбаларнинг илмий таҳлили асосида В.В. Бартольд Зрмонни ҳозирги Чимбой қишлоғи ўрнида, Қаср Алқамани эса Имом ота ўрнида бўлганини қайд этади [Бартольд 1963: 148]. Зармоннинг марказий шаҳри Чимбой қишлоғидан 1-1,5 км шимол томонда Чимбойтепа (Қоравултепа) ёдгорлиги билан локализация қилинган. Ушбу ёдгорликнинг умумий майдони 18-20 гектарни ташкил этади [Асланов 2022: 15]. 1800 йилга оид бўлган бўлган вақф ҳужжатида Самарқанд вилояти Анҳор туманидаги Мулло Имом (Ҳазрат Имом Алқама) хонақоҳига тегишли ерлар Бухоро амири Амир Шоҳмурод (1785-1800) томонидан тасдиқланган (муҳр босилиб, ушбу муҳрда 1215/1800 санаси кўрсатилган). Ушбу ҳужжатда мазкур хонақоҳ “Ҳазрат Имом Алқама хонақоҳи”, деб номланган [Амонов 2020]. Абу Тоҳирхўжанинг “Самария” асарида Имом ота мозори Анҳор туманида жойлашганлигини қайд этган [Абу Тоҳирхўжа 1991: 55]. Манбаларда қайд этилган Қаср Алқама – Имом ота ўрни Пастдарғом тумани Имом ота қишлоғида жойлашган бўлиб, бу ердаги тепаликда қадимги қабристон ва масжид жойлашган.

Кушонияга қарашли бўлган **Хушуфағн** қишлоғи Самарқанддан 10 фарсаҳ узоқликда, Кушония ва Иштихон ўртасида жойлашган [Ас-Самьани 2018: 212]. Бу қишлоқ XII асрда “Раъс ал-қантара”, яъни, “Кўприк боши” деб ҳам номланиб номланиб Суғднинг энг яхши қишлоқларидан бири бўлган. Мазкур қишлоқдан алломалар Хушуфағний тахаллуслари билан ижод этган. Жумладан, имом ва ҳофиз ал-ҳадис (юз минг ҳадисни ёддан билувчи) Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ал-Бужайрий ал-Хушуфағний шулар жумласидандир [Ан-Насафий 2001: 109]. Шунингдек, Уструшонада ҳам Хушуфағн номли рустоқ бўлиб, у Самарқанддан 8 фарсах узоқликда жойлашган, унга чўл орқали (Катвон) ўтиб борилган (Ибн Хурдадбех 1986: 64). *Xušufayn* суғдча – *“олти ибодатхона ёки “Окс ибодатхонаси”* англатади [Лурье, 2004: 31, 209, 212]. Кушония яқинидаги Хушуфағн XIII асрдан бошлаб Сарипул - “*Кўприк боши*” номи билан тилга олиниб, у Каттақўрғон марказидан 6-8 км шимолда жойлашган [Бартольд 1963: 186; Чехович 1974: 388; Смирнова 1971: 92–93]. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида 1501 йилда Заҳириддин Бобур билан Шайбонийхон ўртасидаги жанг

ҳам Сарипулда бўлиб ўтган ва бу жангда Бобур қўшини енгилади [Заҳириддин Муҳаммад Бобур 2008: 33, 51,100]. 1887 йилгдаги Каттақўрғон уезди харитасида Сарипул Қорадарёнинг чап томонида, Фароғат қишлоғининг яқини жойлашган (3-расм). Ушбу қишлоқ маркази сифатида ҳозирда Каттакўрпа ҚФЙ қишлоғининг шимолий томонида жойлашган Сарипултепа археологик ёдгорлиги билан локализация қилиш мумкин.

Ас-Самъонийнинг қайд этишича, **Размаз** қишлоғи Кушония ва Иштихон ўртасида, Самарқанддан 7 фарсах узоқликда жойлашган [Ас-Самьани 2018: 211]. XV-XVI асрларга оид бўлган вақф ҳужжатларида Каттақўрғон шаҳри шимолида Размаз номли қишлоқ ва каналнинг номи тилга олинган (Чехович 1974: 31). Жумладан, Хожа Аҳрор Валийга қарашли бўлган 1489 йилдаги вақф ҳужжатларида Сарипул наҳиясига қарашли бўлган Размаз таркибида Деҳи Мавлонои Мирак, Деҳи Ҳайдаршоҳ (Хайдаршоҳ) ва Деҳи Хожа Калон, Навейи Фай ҳамда Асбоби Маволий (Қуйи рабод ва Пастработ) ерлари кирган. Шунингдек, унинг таркибида Дийук кўли жойлашган. Размаз ерларига Оби Кўҳак (Қорадарё), Фай, Дами Мухтар, Иски ва Қози Ало ариқлари чегарадош бўлган (Чехович 1974: 182). Дийук кўлини В. Л. Вяткин Чархкўл билан, Размаз каналини эса Даштак ариқ билан локализация қилган [Вяткин 1902. 51-52]. 1887 йилгдаги Каттақўрғон уезди харитасида Сарипулдан ғарб ва шимоли-ғарб томонида Размар таркибида бўлган Қуйи рабод, Пастработ қишлоқлари ҳамда Чарх кўли, Дашт ариқларининг номи келтирилган (3-расм). Ушбу жойлар хозирда Зарқўрғон маҳалласи таркибига киради. Дамак, Сарипулнинг ғарбий, шимоли-ғарбий томонида Размаз қишлоғи жойлашган. Шу ўринда Ас-Самъонийнинг қайд этишича, Хушуфағн (Сарипул) Самарқанддан 10 фарсах, Размаз эса 7 фарсаҳ узоқликда жойлашган. Яъни, Ас-Самъоний бўйича, Самарқанддан боришда дастлаб Размаз унидан кейин Хушуфағн (Сарипул) жойлашган. Аммо вақф ҳужжатлари ва картографик манбаларда Размаз ўрни Хушуфағнга туташ ва ундан кейин жойлашганлигини кўрсатмокда.

Ас-Самъонийнинг қайд этишича Фай Кушония ва Иштихон орасида жойлашган қишлоқ бўлган [Ас-Самьани 2018: 189-190]. Ибн Ҳавқалнинг қайд этишича, Самарқандан тахминан икки кунлик йул масофа ўтгандан кейин дарёдан **Фай** номли ариқ ажралиб чиқиб, икки кунлик йўлдан ортиқ майдонни суғорган [Ибн Ҳавқал 2011: 59]. Фай ариғи кейинчалик Наҳр Пай, Нарпай деб номланган.

Файнинг марказининг маркази борасида тадқиқотчилар ўртасида мунозарали қарашлар мавжуд. Жумладан, В.А. Шишкин Файни Нарпай туманида жойлашган Кофирқалъа ёдгорлиги билан [Шишкин 1969], Ш. Т. Адилов ва Ж. Мирзаахмедовлар Оқтош яқинидаги Лангартепа ёдгорликги билан локализация қилган [Адылов, Мирзаахмедов 1996: 128-149]. Тадқиқочилар томонидан таклиф этилган ёдгорликлар ёзма ва вақф ҳужжаларидаги маълумотларга тўғри келмайди. Жумладан, 1489 йилга оид бўлган вақф ҳужжаларида Размазга қарашли бўлган Навейи Фай номли ерлар ҳақида маълумот берилиб, у қибла ва жануб томонидан Фай билан, шимол томонидан Размаз канали, шарқ томонидан Казиён (Иска ва Қорадарё

орасидаги) қишлоғига туташган бўлган [Чехович 1974: 182]. Яъни, Фай Размазга қарашли бўлган Навейи Файга яқин, унинг жануб ва ғарб томонларида жойлашган. Юқоридагилардан келиб чиқиб, Фай Каттақўрғондан ва Нарпай туманлари орасидан излаш излаш мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, Ас-Самъоний асарида Самарқандга қарашли бўлган **Косадон** номли қишлоқ ҳам қайд этилган [Ас-Самъоний 2017: 97. 12-13]. Мазкур қишлоқ Бухоро амирлигининг аҳоли рўйхатида Косагарон деб номланган бўлиб, у Зиёвуддин беклигига қарашли қишлоқ бўлган [Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) 2001: 76]. Мазкур ҳозирда ҳам Косагарон деб номланиб, Ёнариқ ва Мирбозор орасида жойлашган.

Искарон қишлоғи Дабусиядан 1-2 фарсаҳ узоқликда жойлашган бўлиб, аммо бу қишлоқ Кушонияга қарашли бўлган. Мазкур қишлоқдан етишиб чиққан алломалар Искораний тахаллуслари билан ижод этган. Жумладан, Бакр ибн Ҳанзала ал-Искораний ас-Суғдий шулар жумласидандир (981йилда вафот этган) [Ас-Самъоний 2017: 163]. Искарон қишлоғи XIX асрнинг охири XX бошларидаги Бухоро амирлигининг аҳоли рўйхатида Пускарон тарзда келтирилиб, мазкур қишлоқ Зиёвуддин беклигига қарашли Чақар қишлоғи яқинида жойлашган (Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) 2001: 106). Мазкур қишлоқ ҳозирда ҳам Пускарон деб номланиб, Нарпай туманига қарашли бўлган Мирбозор ва Чақар қишлоқлари орасида жойлашган ва бу қишлоқ Дабусия қинида жойлашган.

Шу ўринда Ас-Самъоний асарида Бухорода **Куфин** номли қишлоқ ёки мавзе бўлиб, унда фақиҳ Имом Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Муҳаммад ал-Куфиний ал-Ҳоким яшаганлигини қайд этади [Ас-Самьани 2018: 201: Ас-Самъоний 2017: 123]. Абдураззоқ Самарқандий “Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн” асарида қайд этишича Мирзо Улуғбек 1419 йилнинг 28 ноябрида Бухоро мадрасага келиб илм олувчи талабаларга иномлар улашган ва Самарқандга қайтишда Куфин қишлоғида бўлганлиги қайд этилган [Абдураззоқ Самарқандий 2008: 354]. Куфин Бухоро Суғдига қарашли бўлган қишлоқ бўлиб, у Хатирчи туманида жойлашган. Демак, ҳозирги Хатирчи тумани ўрта асрларда Бухоро Суғдига қарашли бўлган ва у Марказий суғднинг Кушония ва Дабусия шаҳарларига чегарадош бўлган.

Кушония эса Суғднинг ғарбий қисмида жойлашган бўлиб, унинг қишлоқлари Иштихон билан чегарадошдир. Бу икки ҳудудни бир-биридан Суғд дарёси ажратиб турган. Кушониянинг Зармон (Зормон), Хушуфағн (Сарпул), Размаз (Қуйиробод ва Пастработ, Хайдаршоҳ–Хайдар), Косадон-Косагарон ҳамда Искарон (Пускарон) қишлоқлари Суғд дарёсининг жанубий томонида жойлашган бўлиб, ҳозирги Зормондан Мирбозоргача бўлган ҳудудда қайд этилган. Улар ғарбий тарафдан Добусия, жанубий тарафдан эса Рабинжан шаҳарлари билан чегарадош бўлган. Кушония маркази эса икки дарё оралиғида, унинг қуйи қисмида, Иштихондан ғарбда жойлашган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Манбалар

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. II-жилд, I-қисм. / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2008. – 632 б.

2. Абу Тоҳирхўжа. Самария / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Хуршид Даврон. (Мерос туркуми). Тошкент: Камалак, 1991.

3. Ас-Самъаний. Китаб ал-ансаб. Важный источник по истории и культуре Средней Азии / Шамсиддин Камолиддин. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2018. 389 б.

4. Ас-Самъаний. Насабнома (ал-Ансоб). VIII–XII асрларда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида / Араб тилидан таржима А. Бухорий ва К. Раҳимовлар. Тошкент: Hilol-nashr, 2017. 336 b.

5. Ат-Табари. Тарих ар-русул вал-мулук (История ат-Табари). / Перевод с арабского В. И. Беляева, дополнения О. Г. Большакова, А. Б. Халидова. Ташкент: “Фан”, 1987. 439 с.

6. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена / Ред., текст и коммент. А. Н. Бернштама и Н. В. Кюнера. Т. II. М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1950. 336 с.

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Ўзбек тилига таржима В. Раҳмонов ва К. Муллахўжаева. Тошкент: Ўқитувчи, 2008. 288 б.

8. Истахрий. Китаб ал-масолик вал-мамалик (Йўллар ва ўлкалар китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. Тошкент: Фан, 2019.

9. Ибн Навқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. 400 б.

10. Ибн Хурдадбех. Книга путей и стран. / Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н. Валихановой. Баку: “Элм”, 1986. 428 с.

11. Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Централной Азии: тексты и исследования. Новосибирск: Наука, Сибирское отделение, 1989. 432 с.

12. Нажмиддин ан-Насафий. Ал-қанд фий зикри уломои Самарқанд (Самарқанд уломалари хотирасига доир қанд(дек ширин китоб)). / Араб тилидан ўзбек тилига У. Темурхон ўғли ва Б. Набихон ўғли таржимаси. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2001. 304 б.

13. Сюан Цзан. Записки о Западных странах (эпохи Великой Тан) (Да Тан си юй цзи) / Введение, перевод с китайского и комментарий Н. В. Александровой. М.: Восточная литература, 2012. 463 с.

14. Нудуд ул-олам (Моваройуннаҳр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. Тошкент: O‘zbekiston, 2008. 64 б.

15. Чехович О. Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. О владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане / Факсимиле, критический текст, перевод, введение, примечания и указатели О. Д. Чехович. М.: Наука, 1974. 631 с.

16. Shamsaddin Abu Abdallah Mohammad ibn Ahmad al-Moqaddasi. Descriptio imperii Moslemici / Ed. M.J. de Goeje. BGA. III. Lugduni Batavorum: E.J. Brill, 1967. S. 269;

Адабиётлар

1. Амонов М. Аждодлари эъзозланган юрт // Самарқанд зиёратгоҳлари туркумидан. 2020. https://www.bukhari.uz/?p=10357

2. Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д. К. Новые мате-риалы к изучению рустака Файй // ИМКУ. Вып. 27. Самарканд: “Регистан”, 1996. 127-147 с.

3. Асланов А. Суғднинг ўрта асрлар даври тарихий топографияси // Тарих фанлари бўйича фалсафа докторли (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022. 50 б.

4. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. I. М.: Восточная литература, 1963. 761 с.

5. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самарканского вилаета // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 7. Самарканд: “Товарищества”, 1902.

6. Иневаткина, О.Н., Сучилин, А.А. Транспортные пути самаркандских земел (по картографическим и археологическим источникам) // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материалной культуры. Алманах. T, V. M,: Собрание, 2016. 76–108 с.

7. Камолиддин Ш. Новый источник по исторической географии Средней Азии. Новейшие исследования сочинения «ал-Канд фи зикр ‘улама’ Самарканд» Абу Хафса ‘Умара ибн Мухаммада ан-Насафи. Saarbrücken: LAP, 2014. 364 с.

8. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209 гг.). Ч.1. Источниковедческое исследование. М., 2005. 314 с.

9. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречье. СПб., 2008. 414 с.

10. Исҳоқов М.М. Унитилган подшоликдан хатлар. Тошкент: “Фан”: 1992. 56 б.

Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. Ташкен: Университет, 2001.

11. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизатsiясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент: ART-FLEX, 2010. 220 б.

12. Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля (из работ Узбекистанской искусствоведческой экспедиции). Ташкент: Фан, 1989. 204 с.

13. Раимқулов А. А. Катта Суғд – Суғдиёна. Тошкент: Iqtisod moliyachi, 2017. 208 б.

14. Распопова В.И., Шишкина Г.В. «Согд» // Средняя Азия в раннем средневекове. М.: Наука, 1999. С. 50–77.

15. Смирнова И. О. Места домусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимки) // Страны и народы Востока: Средняя и Центральная Азия. География, этнография, история. Вып. X. М.: “Наука”, 1971. С. 90–108.

Ўзбекистон тарихи (Хрестоматия). 2-жилд. 1-китоб. V–XI асрлар. Тошкент, 2014.

16. Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). Тошкент: Наврўз, 2015. 332 б.

17. Lurje P. “KOŠĀNIYA” // Encyclopædia Iranica, online edition, 2014. Available at: http://www.iranicaonline.org/articles/koshaniyeh (accessed 30 December 2014).

Картографик манбалар

18. Delisle G. Map of Persia (Iran, Iraq, Afghanistan) – Geographicus – Persia-delisle,

19. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. СПб.: Императорская академия наук, 1903. С. 380.

İSLAM FETHLERİNDEN HAREZMŞAHLAR DÖNEMİNE KADAR GENCE ŞEHRİ

Arzu Bebirova
AMEA. Tarih ve Etnografya Enstitüsü Doktora Öğrencisi
bebirovaarzu@gmail.com

Summary: The paper is devoted to the study of Ganja, the ancient city of Azerbaijan, and its historical periods of development. Starting from the 10th century, the city of Ganja became an important political and socio-economic center. Natural disasters, particularly earthquakes, the relocation of the capital to a southern city of Azerbaijan, as well as the Mongol invasions, partially reduced the city's importance. The article explains the reasons for the increase and decrease in the importance of a city using the example of Ganja.

Key words: Azerbaijan, Ganja, Islam, Seljuk, Khwarazmians, Seljuk, Mongol

Аннотация: Статья посвящена исследованию Гянджи, древнего города Азербайджана, и периодов её исторического развития. Начиная с X века город Гянджа превращается в важный политический и социально-экономический центр. Стихийные бедствия, в частности землетрясения, перенос столицы в южный город Азербайджана, а также монгольские нашествия частично снизили значение города. В статье на примере Гянджи объясняются причины роста и снижения значимости города.

Ключевые слова: Азербайджан, Гянджа, ислам, Сельджуки, Хорезмийцы, Сельджуки, Монголы.

Annotatsiya: Ushbu maqola Ozarbayjonning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Ganja hamda uning tarixiy rivojlanish davrlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. X asrdan boshlab Ganja shahri muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy markazga aylangan. Tabiiy ofatlar, xususan zilzilalar, poytaxtning Ozarbayjonning

janubiy shahriga ko‘chirilishi, shuningdek, Mo‘g‘ullar bosqinlari shaharning ahamiyatini qisman pasaytirgan. Maqolada shahar nufuzining ko‘tarilishi va pasayishi sabablari aynan Ganja misolida tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: Ozarbayjon, Ganja, Islom, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Mo‘g‘ullar.

Azerbaycan'ın en kadim şehirlerinden biri olan Gence'nin adı erken orta çağ Pehlevi kaynaklarında geçmektedir (Müntəxəbat 2014: 168). Hiç şüphesiz bu şehir, Azerbaycan topraklarında kurulan Albanya devletinin en önemli şehirlerinden biriydi. Arap fetihlerinden sonra uzun zaman gözden uzak kalan Gence şehrinin önceki ihtişamı X. yüzyıldan itibaren yeniden kendine geldi. Bir süre Şeddadiler devletinin temel merkezi olan Gence'nin adı birçok ilk kaynakta, özellikle de Arap müelliflerin eserlerinde geçmektedir. Arap müellifleri eserlerinde Gence şehrini Arran bölgesinin en büyük şehri olarak adlandırırlar.

El-Mukaddesi, "Ahsenü't-Tekasim" adlı eserinde şöyle yazar: "Rıhab adlı bölge üç kısma ayrılır ve bu kısımları birbirinden ayırmak çok zordur. Azerbaycan, Arran ve Ermeniyye şehirleri iç içedir. Gence, Arran'ın en büyük şehirlerinden biridir." (el-Mukaddesi 2015: 385) Bu görüşleri diğer Arap müellifleri de doğrular. Yakut el-Hamevi, "Mu'cemü'l-Büldan" eserinde şöyle yazar: "Gence ve Beylekan, Arran şehirlerindendir. Gence, Arran'ın başkentidir. Burası şairlerin ve alimlerin yaşadığı büyük bir şehirdir." (Əliyeva 2020: 210-211). Anonim "Hududü'l-Alem" eserinde yazılır: "Gence, bol nimetli ve verimli bir şehirdir. Bu şehirde güzel ve her türden eşyalar hazırlanır." (Hudûdü'l-Âlem 2018: 142-143). Hiç şüphesiz, X-XI. yüzyıllarda Gence hem Şeddadiler hem Selçuklu İmparatorluğu, aynı zamanda Atabeyler devleti için önemli olduğu için ilk tarihi kaynaklarda daha çok anılmaktadır.

XII. yüzyıldan itibaren tarihi kaynaklarda Gence şehrinin adı az geçer ki, bu da Gence'nin artık eskisi gibi etkileyici bir gücünün olmadığını gösterir. Gence'nin biraz gözden uzak kalmasının ve bu nedenle kaynaklarda adının az geçmesinin üç temel sebebi mevcuttur.

İlk sebep, Azerbaycan topraklarında kurulan devletlerin başkentlerinin Aras'ın güneyindeki şehirlere geçmesidir. Gözlemlerden şu sonuca varmak mümkündür ki, Atabeyler zamanında başkent önce Nahçıvan, ardından Tebriz şehri, İlhanlılar devleti zamanında Meraga, Tebriz ve Sultaniye şehirleri, Karakoyunlular ve Akkoyunlular zamanında ise Tebriz olmuştur. Bu da temel ekonomik gücün kuzeyden güneye geçtiğini gösterir. Bu durum, Azerbaycan'ın kuzeyinde yer alan şehirlerin hem siyasi hem de ekonomik açıdan kenarda kalmasına yol açtı.

Bu nedenle başta Gence şehri olmak üzere birçok Kuzey Azerbaycan şehri hakkında ilk kaynaklar daha az bilgi verdi, ya da hiç bilgi vermediler. Değerli Farsça kaynaklar olan Hamdullah Kazvini'nin "Tarih-i Güzide", Ata Melik Cüveyni'nin "Tarih-i Cihangüşa", Nizamüddin Şami'nin "Zafernâme" ve Muhammed Kaşani'nin "Tarih-i Olcaytu" eserlerinde bu isme hiç rastlanmaz. Fazlullâh Reşideddin'in "Cami'ü't-Tevarih" eserinde ise sadece iki defa Gence adı geçmektedir (Rashiduddin 1999: 259, 756).

Gence şehri hakkındaki bilgilere, Farsça kaynaklardan farklı olarak Arapça ve Türkçe kaynaklarda ve "Selçuknâmeler"de az da olsa rastlanır. Zekeriya Kazvini

"Asarü'l-Bilad" eserinde şöyle yazar: "Bu şehrin insanları silah üretimi ve kullanımında meşhurdur. Halkın hepsi ipek böceği yetiştirir. Burada üretilen iplikler başka yerlerdekilerden daha kalitelidir. Nizami buradan(dır)." (Vəlixanlı 2015: 338) Ebü'l-Fida "Takvimü'l-Büldan" ise eserinde şöyle yazar: "Bu şehrin adı Arran ile birlikte anılır. Gence, Berde'den iki konak uzaktadır, düz bir arazidedir, bostanlarıyla zengindir. Oraya bölgenin merkezidir. Burada hastalığa sebep olan incir yetişir." (Ebü'l Fidâ 2017: 308).

Gence şehri ile ilgili bilgiler daha çok Moğol yürüyüşleri ve Harezmşahlar dönemine aittir. Şihabeddin bin Fazlullah el-Ömeri, "Mesalikü'l-Ebsar" eserinde Harzemşah Celaleddin'den bahsederken Gence'nin adını zikreder (el-Ömerî 2014: 258, 355). Ahmed bin Mahmud "Selçuknâme" eserinde Gence'yi, bir süre bağımsız beylik gibi faaliyet gösteren Şeddadilerin merkezi şehri olarak gösterir (Ahmed bin Mahmud 1977: 26). Bununla birlikte Zahireddin Nişapuri "Selçuknâme", Mirhond'un "Ravzatü's-Safa", Ravendi'nin "Rahatü's-Sudur ve Ayetü's-Sürur", İbn Bibi'nin "El-Evamirü'l-Alaiyye fi'l-Umuri'l-Alaiyye" ve Anonim "Selçuknâme" gibi eserlerde de Gence şehri bir Selçuklu şehri olarak anılır, ancak önceki şöhretinden bahsedilmez (Quliyev 2022: 24-26).

Gence şehrinin gözden uzak kalmasının ikinci sebebi doğal süreçlerle ilgilidir. Gence'nin sosyal-ekonomik açıdan gerilemesinin temel sebebi doğal felaket olmuştur. 1139 yılında Gence şehrinde meydana gelen güçlü deprem, onun uzun süre kendine gelememesine neden oldu. 30 Eylül'de Gence şehrinde meydana gelen 9 şiddetindeki deprem sonucunda Kepez Dağı çökerek Ağsu çayının önünü kesmiş ve Göygöl, Maralgöl, Ceyrangöl, Ördekgöl, Zeligöl, Ağgöl, Karagöl ve Şamlıgöl oluşmuştur. Bazı kaynaklara göre 230 bin, bazılarına göre ise 300 bin insan hayatını kaybetti. Gence depremi hakkında ilk kaynaklardaki bilgiler ilgi çekici.

Yerli müellif olan Mıhitar Goş, "Alban Salnamesi" eserinde şöyle yazar: "Areg ayının 18. günü, Cuma gününden Cumartesi'ye geçen gece (30 Eylül 1139, Cumartesi günü) Allah'ın şiddetli gazabı dünyaya döküldü. Yerin hiddeti ve kuvvetli yıkımı korkunç gazapla bu Albanya toprağına ulaştı. Bunun sonucunda onun başkenti Gence de kendi sakinlerini yutarak cehenneme atıldı. Dağlık mahallelerde birçok köy ve kale, ahalinin başına yıkılan manastır ve kiliselerle birlikte dağıldı. Viran olmuş kalelerin altında sayısız insan telef oldu." Mıhitar Goş, deprem sonrası Gürcü yağmasından bahseder: "(Gürcüler) acımasızca ve kaba bir şekilde davranıyor, sağ kalanların üstüne hücum ediyor ve onları ya kılıçtan geçiriyor ya da kendilerine köle ediyorlardı [satıyorlardı]. Onlar, bu önemli şehrin birden cehenneme dönüşmesini, yığın yığın altın ve insan cesetleri yığınının birbirine karışmasını görseler de şehre karşı merhametli olmak hakkında düşünmediler, altın ve gümüş hazinelerini kazıp götürdüler, baskınlar ve işkenceleriyle [halka] depremin kendisinden daha çok eziyet veriyorlardı." (Kalankatuklu 2006: 390-391). Deprem, görkemli Azerbaycan şairi Nizami Gencevi'nin eserlerinde de yankı bulmuştur. Nizami Gencevi, "Hamse"sine dahil olan "İskendername" poemasının "İkbalname" bölümünde Gence depremi hakkında yazıyordu:

"Koptu bir zelzele, göğü oynattı,

Şehirler dağılıp yerlere battı.
Dağ-taş sarsılarak kopup uçarken
Felek toz altında kaldı bir anda...
Felek zincirinin halkaları tek
Yerin de bendleri ayrıldı tek tek.
Yollarını şaşırdı gür akan sular,
Dağlar çarpışmaktan bitap oldular.
Hiçbir göz selamet kalmadı inan
Matem sürmesine gark oldu cihan
O kadar hazine battı o gece,
O cumartesi gecesi yok oldu Gence." (Gəncəvi 2004: 33-34)

Sadece yerli kaynaklarda değil, yabancı kaynaklarda da dehşetli Gence depremi hakkında bilgi verilir. İbnü'l-Esir, "El-Kâmil fi't-Tarih" eserinde şöyle yazar: "Bu yıl (1139) Azerbaycan'a bağlı Gence ve bir sıra yerlerde, Arran'da deprem oldu. Ama en güçlüsü Gence'de oldu. Sayılamayacak kadar adam öldü. Rivayete göre 230 bin adam ölmüştü ve ölenler arasında Azerbaycan hâkimi Kara Sungur'un iki oğlu da vardı." (İbnü'l Esir 2015: 70) İlk kaynakları gözden geçirdiğimizde felaketin etkisini açıkça görmek mümkündür.

Gence'nin biraz geri plana düşmesinin üçüncü sebebi ise şehrin yabancı işgalcilerin yıkımlarına maruz kalmasıdır. Moğolların ilk yürüyüşünden sağ kurtulan Gence şehri, onların sonraki yürüyüşü sırasında Çormağun Noyan bu bölgeleri ele geçirdiler ve büyük yıkımlar yaptılar. Bu konuda en doğru bilgiyi Genceli Kirakos verir. O, "Tarih" eserinde şöyle yazar: "Onlar etraftaki bütün üzüm bağlarını yerle bir edip şehrin kale duvarlarını mancınık ile yıkmaya başladılar. Tam bir hafta şehri muhasarada tutarak bekleme mevkiinde durdular. Şehrin teslim olacağını gören ahali evlerine dönüp yurtlarına od vurdular. Yanması gereken her şey yandığı için onlar eli boş kalmışlardı." (Əliyarlı 2007: 179-180). Vurgulamak gerekir ki, bir şehrin ister siyasi, isterse sosyal-ekonomik açıdan gerilemesi savaşların neticesinde gerçekleşmiştir.

XIV-XV. yüzyıllara dikkat ettiğimizde Gence'nin yeniden canlandığını gözlemlemek mümkündür ki, bu da yeniden siyasi süreçlerin Azerbaycan'ın kuzeyinde daha aktif olarak cereyan etmesi sonucundadır. Ebu Bekir Tihrani, "Kitab-ı Diyarbakriyye" eserinde 1447-48 olaylarından bahsederken Cihanşah'ın Diyarbakır'a yürüyüşü ve onun bir süre Gence'de ikamet ettiğinden yazar (Tihranî 2014: 121).

Siyasi süreçlerin içinde olmak veya onlardan kenarda kalmak, savaşlar ve doğal felaketler bir şehrin önemini artırıp azaltabilirler. Bunlar ayrı ayrı büyük bir etkiye sahip olmasalar da aynı sebepler bir yerde baş gösterirse o zaman ciddi bir değişiklik meydana gelebilir.

Ədəbiyyat

1. el-Mukaddesi 2015 - Muhammed b. Ahmed el-Mukaddesi. Ahsenüt-taksim. Çeviri ve notlar: Ahsen Batur. İstanbul, 2015

2. Vəlixanlı 2015 - Vəlixanlı N. Azərbaycan VII-XII əsrlərdə: tarix, mənbələr, şərhlər. Bakı, Elm, 2016

3. Müntəxəbat 2014 - Azərbaycanın qədim tarixinə dair yazılı mənbələr. Bakı: Turxan, 2014

4. Əliyeva 2020 - Əliyeva N.A. "Mucəm əl-buldən" əsərində Azərbaycan və Qafqaz. Bakı, "Elm və təhsil" 2020

5. Hudûdü'l-Âlem 2018 - Hudûdü'l-Âlem Mine'l-Meşrik İle'l-Magrib. Çevirmenler Murat Ağarı, Abdullah Duman. İstanbul: Ayışığı kitapları, 2018

6. Rashiduddin 1999 - Rashiduddin Fazlullah`s Jami ut-Tawarikh. Compendium of Chronicles. The history of Mongols / English translation and annotation by W. M. Thackston. Harvard: Harvard University Department of New Eastern Languages and Civilizations, 1999

7. Ebü'l Fidâ 2017 - Ebü'l Fidâ Coğrafyası (Takvimü`l-Büldan). Tercüme ve yayına hazırlayan Ramazan Şeşen. İstanbul: Yeditepe yayınevi, 2017

8. el-Ömerî 2014 - Şihabeddin b. Fazlullah el-Ömerî. Türkler Hakkında Gördüklerim ve Duyduklarım (Mesaliku'l Ebsar). Çeviren D. Ahsen Batur. İstanbul, Selenge Yayınları, 2014

9. Ahmed bin Mahmud 1977 - Ahmed bin Mahmud. Selçukname: 2 ciltte, İstanbul, 1977

10. Quliyev 2022 - Quliyev B. N. XIII – XV əsrlər Azərbaycan elm və mədəniyyət tarixi, Bakı, 2022

11. Kalankatuklu 2006 - Moisey Kalankatuklu. Albaniya tarixi., Mxitar Qoş. Alban Salnaməsi. Tərcümə edən, müqəddimə, qeyd və şərhlərin müəllifi Ziya Bünyadov. Bakı: "Avrasiya press", 2006

12. Gəncəvi 2004 - Gəncəvi N. İskəndərnamə. İqbalnamə. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004

13. Əliyarlı 2007 - Azərbaycan tarixi üzrə qaynaqlar. İkinci nəşrin tərtibçisi və redaktoru S. Əliyarlı. Bakı: "Çıraq", 2007

14. İbnü'l Esir 2015 - İbnü'l Esir. İslam Tarihi (el-Kamil fi't-Tarih Tercümesi) . 11.cilt. İstanbul, Bahar yayınları, 2015

15. Tihranî 2014 - Ebu Bekr-i Tihranî. Kitab-ı Diyarbekriyye. Çeviren Mürsel Öztürk. Ankara: Türk Tarih Kurumu yayınları, 2014

"POP" ATAMASI HAQIDA

Qo'ldashev Sherali Temiralievich
Oriental universiteti v.b. professori, tarix fanlari doktori
+998909268360
sherali.kuldashev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada, Namangan viloyatidagi Pop shaharining qadimiy nomi tahlil qilingan. "Bob, Bop, Pob" shaklidagi bu toponim tarixiy geogorafiyadagi muammoli masalalardan biri sifatida beriladi. Ushbu atamani arab, sug'diy, fors, xitoy va turkiy tillardagi nomlari tahlil qilingan. Uning "darvoza", "daryo kechuvidagi shahar", "qal'a", "qulay, bop" ma'nolari bilan birga, Turkistonda islom dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan allomalar ismiga

“bob” soʻzi qoʻshilganligi berilgan. Manbalardagi ma'lumotlar tahlil qilinib xulosa berilgan.

Kalit soʻzlar: Pop, Bob, tarix, geografiya, toponim, darvoza, qal'a, tahlil, xulosa.

Аннотация. В статье анализируется древнее название города Поп в Наманганской области. Этот топоним в форме «Боб, Боп, Поб» представлен как один из проблемных вопросов исторической географии. Проанализированы наименования этого термина в арабском, согдийском, персидском, китайском и тюркских языках. Наряду со значениями «ворота», «город у переправы», «крепость», «удобный, боп», отмечается, что слово «боб» добавлялось к именам учёных, внёсших большой вклад в распространение ислама в Туркестане. Проанализированы сведения в источниках и сделан вывод.

Ключевые слова: Поп, Боб, история, география, топоним, ворота, крепость, анализ, заключение.

Abstract. The article analyzes the ancient name of the city of Pop in the Namangan region. This toponym in the form of “Bob, Bop, Pob” is presented as one of the problematic issues in historical geography. The names of this term in Arabic, Sogdian, Persian, Chinese and Turkic languages are analyzed. Along with its meanings of “gate”, “city at the river crossing”, “fortress”, “convenient, bop”, it is noted that the word “bob” was added to the names of scholars who made a great contribution to the spread of Islam in Turkestan. The information in the sources is analyzed and a conclusion is drawn.

Keywords: Pop, Bob, history, geography, toponym, gate, fortress, analysis, conclusion.

Pop haqida oʻrta asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda koʻplab ma'lumotlar uchraydi. Manbalarda “Pop” atamasining dastlabki koʻrinishi “Bob” (باب) shaklida keltiriladi. Arab oʻrta asrlar geografiyasi fanining ilk taniqli vakillaridan biri Istaxriy (IX–X) Fargʻona vodiysida “Bob” nomli shahar mavjudligini yozib qoldirgan[Al-Istakhri, 1967: 336]. Qariyb xuddi oʻsha davrlarda (taxminan, 982-yili) yozilgan “Hudud al-olam” asarida Popga oid quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz: *“Bob – atrofida ekinzorlar koʻp, ash-Shosh daryosi (Sirdaryo nazarda tutilmoqda – muallif) boʻyida joylashgan katta va boyliklarga moʻl shahardir. Turmuqonda turklarning hujum qilish xavfi boʻlgani tufayli karvonlar u yerda toʻxtamay, Bobga borganlar. Yonidan Uzkand va Xatlom daryolari oqib oʻtadi”[*Hudud ul-olam, 2007: 24*]*.

Xuddi shu asarning boshqa nashrida: *“Yana biri Oʻzgand daryosi. Xallux togʻi yon bagʻridan boshlanadi. Oʻzgand, Bob (Pop) shahri, Axsikat, Xoʻjand, Banokatdan oqib oʻtadi. (Soʻngra) Choch hududiga yetadi. Sutkand, Porob kabi koʻpgina shaharchalardan oʻtadi. Jand va Javora yerlariga oqib boradi hamda Xorazm dengizi (Orol dengizi nazarda tutilgan) ga quyiladi.*

Yana biri Xatlam daryosi (Norin daryosi). Maniso togʻi(Oʻrta Tyanshan tizmasi)dan Xallux(Fargʻona va Oloy tizmalari) va Yagʻma (Oʻrta Tyanshan togʻi

*tizmalaridan biri) oʻrtasidagi chegaradan boshlanadi. Xatlam shahridan oqib oʻtib, Bob yaqinigacha boradi va Oʻzgand daryosiga quyiladi" [*Hudud ul-olam, 2007: 9*]*.

Boshqa arab manbalarida ushbu shaharning geografik joylashuv oʻrni haqida ham axborot uchraydi. Ibn Xoʻrdodbeh Bob shahri Turmuqondan *uch farsax (1 farsax 6-7 chaqirim)* deb yozgan [Ibn Khordadhbeh,1967 :30] boʻlsa, Muqaddasiy fikricha, u Axsikatdan 2 *barid* yoki 4 *farsax* masofada joylashgan[Al-Moqaddasi,1877: 341].

Tadqiqotchi Lur'ening fikricha, "Pop" atamasini arab va sugʻdiy tillardagi manbalarni tahlil qilgan holda ikki hil ma'nodagi soʻz deb biladi. Birinchisi "daryo kechuvi" boʻlib, aynan Pop qal'asini oldida azim Sirdaryodan kechib oʻtish mumkin boʻlgan joy ma'nosida qoʻllagan. Ikkinchisi "qal'a" degan ma'noni anglatadi. Pop qal'asi tabiiy oʻsha davrda atrofi devor bilan oʻralgan qal'a boʻlgan.

Manbalarda keltirilishicha, hijriy 118-yili (736) bobliklar va sugʻdlar turk xoqonining qoʻshini tarkibida arablarga qarshi kurashgan[At-Tabari,1964: 1609].

Ayrim tadqiqotchilar Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy kabi oʻrta asr mualliflarining asarlariga tayangan holda "Pop" atamasi arabcha "darvoza", "eshik" ma'nosini anglatadi, deyishadi. Ular Pop shahri vodiyning gʻarb tomonidan kirib kelishdagi birinchi shahar, deb hisoblaydi [Qoraev, 1978:101]. Muhammad Gʻiyosiddin ibn Jaloliddinning "Gʻiyos ul-lugʻatat" asarida: "Bob deb arab tilida darvozani aytiladi. Ammo turkiy va forsiy tilda esa mutanosib, muvofiq, loyiq degan ma'nolarini bildiradi"[Roʻzinov B., Rajabova S., Ismoilov Yu., Kasimov N, 2013: 12].

Biroq, qadimiy Pop shahri deb faraz qilingan Qirqhujra yoki Munchoqtepa yodgorliklari shimoliy Fargʻona hududida, vodiyning kirish yoʻlagidan ancha shimolroqda joylashgan. Tadqiqotchilar aytgandek boʻlganda edi, qadimiy Popga karvonlar koʻproq Qurama tizmasidagi Kandir yoki Qamchiq dovonlari orqali oʻtib kelmas edi. Oʻrta Osiyoning, jumladan, Fargʻona vodiysining boshqa joy nomlari ham arab yoki fors tilidan olingan nomlari etimologik ma'nolari asosida talqin qilingan. Arablar bostirib kelmasidan oldin ham bu joy nomlari mavjud boʻlgan. Shuning uchun bu hududdagi joy nomlarining ma'nolarini balki turkiy va shu atrofdagi mintaqalarga keng tarqalgan sugʻdiy tildan ham axtarish zarurdir. Rus sharqshunosi A. N. Bernshtam "Qadimgi Fargʻona" asarida bu fikrni quvvatlab: *"Ehtimol, hozirgi Pop qishlogʻining nomi qadimiy, hatto arablargacha boʻlishi mumkin"*, deb yozadi[Bernshtam, 1961: 32].

"Pop" atamasining paydo boʻlishi toʻgʻrisida xalq orasidagi rivoyatlar va afsonalar hamda shevadagi soʻzlarda ham ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Tilshunos tadqiqotchi O. Sharipov bu borada shunday deydi: *"Pop aholisi oʻzining tarixi haqida quyidagicha fikr yuritadi: Xitoy askarlari shu yerga kelgan ekanlar. Ulardan besh-oʻntasi endi qarib qolibmiz, deb shu yerda qolgan ekanlar. Ular oldingi uygʻurlardan ekan. Bir kuni Pop soyiga chiqib qarasa, yaxshi joy ekan. Ular mana shu yer biz* ***"bop"*** *joy ekan, deb qolgan ekanlar"[* Sharipov, 1962: 10*]*.

Bu misolda “pop” atamasi turkiydagi *“qulay”*, *“bop”* ma'nosini anglatmoqda. Tarixiy manbalarda, uzoq oʻtmishda Xitoy davlati qoʻshini Fargʻona vodiysiga bostirib kelgani haqida ma'lumotlar uchraydi[Sima-Syan, 1975]. Lekin ularning xalq ogʻzaki naqllari bilan tarixiy bogʻliqligi aniq isbot talab qiladigan holatdir. Shunga qaramay, Pop tumanidagi uygʻurlar bilan bogʻliq “Uygʻur”, “Oxunlar mozori” (Gʻurumsaroyda) va “Bochinyon” (Chodakda) joy nomlari mavjudligi bu rivoyatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo qiladi[Bahromzoda, 2000: 22]. Biroq ular “Pop” atamasining kelib chiqishini aniqlash uchun hozircha hech qanday ilmiy asos boʻla olmaydi. Aksincha, tadqiqotchi ular ushbu masala yechimini chigallashtirib yuborishi mumkinligidan ehtiyot boʻlishi lozim.

V.V. Bartold yozishicha, Turkistonda islom dinining tarqalishiga katta hissa qoʻshgan allomalar ismiga *“bob”* soʻzi qoʻshilgan[Bartold, 1967: 118]. Masalan, Langar Bob, Arslon Bob kabi. X asrda Pop shahrida ulugʻ shayx va donishmand Umar Bob Fargʻoniy yashagan. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Movarounnahrda yashagan ilm va tasavvuf ahli haqida xabar beradi. Ular orasida Umar Bob Fargʻoniyning nomi ham tilga olinadi[Navoiy, 2001: 150]. Abdurahmon Jomiy Umar Bob Fargʻoniyning ilm olamidagi salohiyatini tarannum etib she'r bitgan[Xalilbekov, 2007: 14].

Xullas, bu aytilganlarning barchasi “Pop” atamasi atrofidagi yozma va xalq orasida ogʻzaki tarzda saqlanib qolgan ma'lumotlardir. Kelajakda tadqiqotchilar bu borada amalga oshiradigan izlanishlarida ulardan foydalanishlari va muammoga koʻproq oydinlik kiritishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. al-Beladsori, Ahmed ibn Jahja ibn Djabir, Liber expugnationis regionum, quem e codice Leidensi et codice Musei Britannici / Ed. M.J. de Goeje, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1866 (Islamic geography, ed. F.Sezgin, vol. 42. Francfurt-em-Main, 1992). r. 420].
2. al-Moqaddasi, Abu ʻAbdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Descriptio Imperii moslemici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-Batavorum: :E.J.Brill,1967. (1877). r. 262].
3. Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903.
4. Hudūd al-ʻĀlam, the Regions of the World. A Persian geography / Translated and explained by V. Minorsky. – London, 1970. - p. 72, 73, 113
5. Ibn Khordadhbeh, Abu-l-Kasim ʻObaydallah ibn ʻAbdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967.
6. Al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967.
7. Alisher Navoiy. Nasoim ul-muhabbat. Mukammal asarlar toʻplami. 17 jild. –Toshkent: Fan, 2001.

8. Бабур-наме. Записки Бабура / Перевод М.Салье. Отв. ред. С.А.Азимджанова. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958 (1992). 4б, 5а, 7б ... 234аб варақлар].
9. Бартольд В. В. Сочинения, т. 5. – Москва., 1967.
10. Бернштам А. Н. Древняя Фергана. Изд. АН УзССР. – Тошкент: 1961.
11. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон. 1978.
12. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдий-ской топонимии. Диссертация. к. филол. н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004. – С. 90, 95].
13. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Касимов Н. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган., 2013.
14. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. 3. Хозяйственные документы//Чтение, перевод и комментарии М.Н.Боголюбова и О.И.Смирновой. М.: Изд-во вост. лит-ры, 1963. – С. 101 – 102].
15. Сыма-Цянь. Исторические записки (Ши цзи). Пер. с кит. Р.В. Вяткина и Таскина. Т. I-IV. – Москва., 1975.
16. Ўлмас Баҳромзода. Чодак (қишлоқ тарихидан лавҳалар). Наманган, 2000.
17. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган, 2007.
18. Ҳудуд ул-олам / Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов. – Тошкент: O’zbekiston, 2007.
19. Шарипов О. Ўзбек тилининг Поп шеваси. Ф. ф. к. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1962.

QASHQADARYO VILOYATIDA URUG‘ NOMLARI BILAN BOG‘LIQ TOPONIMLAR

Oriental universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi katta o’qituvchisi
Kabulov Rustam Jumaniyozovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati hududida shakllangan urug‘-qabila nomlari bilan bog‘liq toponimlarning kelib chiqishi, ularning tarixiy-etnografik zaminlari va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qarluqlar, chigillar, barloslar, qo‘ng‘irotlar, qipchoqlar, mang‘itlar kabi o‘zbek xalqining etnik tarkibiga kiruvchi asosiy urug‘larning joy nomlaridagi aks-sadosi ko‘rsatib beriladi. Toponimlarning shakllanishi, rivoji, fonetik va semantik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar hamda mahalliy geografik materiallar asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: toponimika, etnonim, o‘zbek urug‘lari, Qashqadaryo, qabila, geografik nomlar, tarixiy-etnografiya.

Annotation: This article analyzes the origin of toponyms associated with clan names formed in the Kashkadarya region, their historical and ethnographic

foundations and linguistic features. The study shows the echo of the main clans of the Uzbek people, such as the Karluks, Chigils, Barlos, Kun'gorats, Kipchaks, and Mangits, in place names. The formation, development, phonetic and semantic features of toponyms were studied on the basis of scientific literature and local geographical materials.

Keywords: toponymy, ethnonym, Uzbek clans, Kashkadarya, tribe, geographical names, historical-ethnography.Аннотация: В данной статье анализируются происхождение топонимов, связанных с названиями родо-племенных объединений, сформировавшихся на территории Кашкадарьинской области, их историко-этнографическая основа и лингвистические особенности. В ходе исследования показано отражение в системе географических названий основных родов, входящих в этнический состав узбекского народа, таких как карлуки, чигили, барласы, кунграты, кипчаки, мангиты. Формирование, развитие, фонетические и семантические особенности топонимов изучены на основе научной литературы и местных географических материалов.

Ключевые слова: топонимика, этноним, узбекские роды, Кашкадарья, племя, географические названия, историческая этнография.

Kirish. Toponimika – ma’lum bir hududdagi joy nomlarini, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ma’nosini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, arxeologiya, antropologiya kabi fanlar bilan mustahkam aloqaga ega. O‘zbekistonning yirik viloyatlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryo hududi ham toponimik tarkibining murakkabligi, ko‘pqavatliligi va qatlamdorligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, urug‘ nomlariga bog‘liq toponimlar viloyat tarixining muhim belgisi sifatida alohida o‘rganishni talab qiladi.

Qashqadaryo vodiysi qadimdan turkiy qabilalar, xususan qarluqlar, chigillar, qipchoqlar, qo‘ng‘irotlar, barloslar, jaloyirlar, naymanlar va boshqa urug‘larning muhim manzilgohlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu holat o‘z navbatida toponimik tizimda ko‘plab etnonimlarning aks etishiga sabab bo‘lgan. Urug‘ nomlari asosida shakllangan toponimlar nafaqat geografik obyektlarni belgilabgina qolmay, balki tarixiy-etnografik jarayonlar haqida ham muhim ma’lumot beradi.

Ushbu maqolada Qashqadaryoda uchraydigan etnonim asosidagi toponimlar tarixiy ildizlari, lingvistik xususiyatlari hamda ularning shakllanish omillari asosida batafsil tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1. Qashqadaryo viloyatining etnografik tarkibi va toponimik qatlam

Qashqadaryo viloyati o‘zining tabiiy-geografik jihatdan qulay joylashuvi tufayli qadimdan yirik etnik guruhlar to‘planadigan hudud sifatida shakllangan. Arxeologik va tarixiy manbalarga ko‘ra, bu hududda milodning boshlaridan boshlab turli urug‘ va qabilalar yashab, o‘zlarining chorvachilik, dehqonchilik hamda savdo an’analarini rivojlantirib kelgan.

Turkiy qabila ittifoqlari – qarluqlar, chigillar, qipchoqlar, jaloyirlar, barloslar va boshqalar Movarounnahr hududida siyosiy, iqtisodiy va demografik jihatdan muhim o‘rin tutgan. Ularning hududiy joylashuvi asta-sekin toponimik tizimda o‘z

aksini topgan. Natijada qishloq, mahalla, tepa, soy, daryo nomlarida urug‘ va qabila nomlari keng qo‘llanila boshlagan.

2. Qashqadaryoda urug‘ nomlari bilan bog‘liq asosiy toponimlar

Quyida viloyatda keng tarqalgan etnonim asosidagi toponimlar va ularning shakllanishiga oid qisqa izohlar beriladi.

2.1. Barlos

Barlos urug‘i Amir Temur davrida eng nufuzli etnik guruhlardan biri bo‘lib, uning ajdodlari aynan Qashqadaryo – Shahrisabz hududida yashagan. Shuning uchun bu yerda “Barlos”, “Barlosobod”, “Barlossoy”, “Barlos qishlog‘i” kabi nomlar keng tarqalgan. Ushbu toponimlar mahalliy tarixning temuriylar davri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2.2. Qarluq / Karluk

Qarluqlar VIII–X asrlarda mintaqada keng yashagan turkiy qabila bo‘lib, tarixiy manbalarda Qashqadaryo vodiysiga ko‘chib kelganlari qayd etiladi. Viloyatning bir qancha hududlarida “Qarluqtepa”, “Karluk”, “Qarluqobod”, “Qarluq qishlog‘i” nomlari uchraydi. Bu toponimlar qabila nomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha qadimgi manzilgohlarda uchraydi.

2.3. Qipchoq

Qipchoqlar O‘rta Osiyo etnogenezida muhim rol o‘ynagan, keng tarqalgan o‘zbek urug‘laridan biri hisoblanadi. Qashqadaryoda ham “Qipchoq”, “Qipchoqobod”, “Qipchoqtepa”, “Qipchoq arig‘i” kabi nomlar mavjud. Bu nomlar ko‘pincha chorvachilik bilan bog‘liq hududlarda uchraydi.

2.4. Qo‘ng‘irot

Qo‘ng‘irotlar o‘zbek xalqidagi eng yirik urug‘lardan biri bo‘lib, Qashqadaryoning bir qancha tumanlarida qo‘ng‘irot nomli mahalla va qishloqlar mavjud. “Qo‘ng‘irotobod”, “Qo‘ng‘irot qishlog‘i”, “Qo‘ng‘irot arig‘i” kabi toponimlar bu qabilaning hududiy keng tarqalganini ko‘rsatadi.

2.5. Jaloyir

Jaloyirlar mo‘g‘ul davlati davrida yirik siyosiy kuch bo‘lgan. Ularning O‘rta Osiyo hududiga kirib kelishi va bu yerda qo‘nim topishi natijasida “Jaloyir”, “Jaloyirsoy”, “Jaloyir qishlog‘i” kabi toponimlar yuzaga kelgan.

2.6. Ming / Mink / Mingari

“Ming” o‘zbek xalqining asosiy urug‘laridan biri bo‘lib, viloyatda ham bu nomga oid ko‘plab toponimlar uchraydi: “Mingari”, “Ming qishlog‘i”, “Mingbuloq”, “Mingari mahallasi”. Bunday toponimlarning aksariyati qadimgi manzilgoh va suv manbalari atrofiga joylashgan.

2.7. Nayman

Naymanlar turkiy urug‘ bo‘lib, qadimdan O‘rta Osiyoda yashagan. Qashqadaryoda “Nayman” nomi bilan ataluvchi qishloq, tepa va soy nomlari mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha tog‘ etaklarida uchraydi.

2.8. Mang‘it

Mang‘itlar Buxoro amirligi tarixida muhim o‘rin tutgan. Ularning Qashqadaryo hududida joylashuvi natijasida “Mang‘it”, “Mang‘itobod”, “Mang‘it qishlog‘i” kabi toponimlar shakllangan.

3. Urug‘ nomlari asosida shakllangan toponimlarning lingvistik xususiyatlari

3.1. Affikslar orqali yasalishi

Ko‘plab toponimlar quyidagi affikslar yordamida shakllangan:

-obod: Qipchoqobod, Qo‘ng‘irotobod

-soy: Jaloyirsoy, Barlossoy

-tepa: Qarluqtepa, Qipchoqtepa

-buloq: Mingbuloq

Bu affikslar toponimning nafaqat etnik kelib chiqishini, balki tabiiy-geografik obyekt turini ham ko‘rsatadi.

3.2. Fonetik o‘zgarishlar

Zamon o‘tishi bilan ayrim toponimlarda fonetik o‘zgarishlar kuzatilgan:

Qo‘ng‘irot → Qo‘ng‘rot

Karluk → Qarluq

Jaloyir → Joloyir (ba’zi talaffuzlarda)

Bu jarayonlar mahalliy lahja, geografik omillar va til taraqqiyoti bilan bog‘liq.

3.3. Semantik kengayish

Ba’zi toponimlar avval faqat qabila nomi bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan mahalla, ariq, soy, qishloq nomlariga ko‘changandi. Bu hududiy rivojlanish jarayonini ko‘rsatadi.

4. Urug‘ nomlari bilan bog‘liq toponimlarning tarixiy-etnografik ahamiyati

Urug‘ nomlari asosida shakllangan toponimlar quyidagi ma’noda ahamiyatga ega:

1. Etnogenetik jarayonlarni tiklashga yordam beradi.

Qaysi urug‘ qayerda yashaganini aniqlashga imkon beradi.

2. Tarixiy migratsiyalar haqida ma’lumot beradi.

Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabila harakatlari toponimlarda o‘z fodasini topgan.

3. Mahalliy aholining madaniy xotirasi saqlanadi.

To‘ponimlar xalq og‘zaki ijodi va tarixiy an’analar bilan bog‘liq.

4. Hududiy identifikatsiya shakllanadi.

Mahallalar va qishloqlar o‘z nomi orqali o‘z tarixini avlodlarga yetkazadi.

Xulosa

Qashqadaryo viloyatidagi toponimlarning muhim qismini turkiy urug‘-qabila nomlari asosida shakllangan nomlar tashkil etadi. Bu toponimlar viloyatning qadimiy tarixiy-etnografik manzarasini tiklashda, o‘zbek xalqining etnogenez jarayonini o‘rganishda, qabila va urug‘larning hududiy joylashuvini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Qarluqlar, barloslar, qipchoqlar, qo‘ng‘irotlar, minglar, jaloyirlar, naymanlar yoki mang‘itlar nomi bilan bog‘liq toponimlar Qashqadaryo toponimik tizimining asosiy qatlamlaridan biri bo‘lib, ular til, tarix va geografiya fanlari kesishmasida o‘rganilishi zarur bo‘lgan boy madaniy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Abulg’ozi Bahodirxon. Shajarai turk.-T.:Cho’lpon,1992.-180 bet

2. Begaliyev N. O’zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004.- 90 bet.

3. Do’simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izihli lug’ati.-T.: 1977.-174 bet.

4. Qarayev S. O’zbekiston toponomikasi. – T.:Fan, 1991.
5. Nafasov T. O’zbek nomnomasi. – Qarshi, Nasaf. 1993.-154-bet

TARIXIY TOPONIMIKA VA FARG‘ONA VODIYSI JOY NOMLARINING SHAKLLANISHI

Ilmiy rahbar: falsafa fanlari bo’yicha (PhD)
dotsent Abdullayeva Nasiba Arabovna
Muallif:Abdug’ofurov Muhammadqodir
Andijon Davlat Pedagogika Instituti,
Tarix yo‘nalishi, 2-bosqich magistranti
Tel №+998908217570
Tel №+998945271793

Anotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy toponimika fanining mazmuni va Farg‘ona vodiysi hududidagi joy nomlarining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Unda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida uchraydigan toponimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamda davrlar o‘tishi bilan yuz bergan o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida joy nomlarining milliylik va tarixiylik tamoyillari asosida qayta tiklanishi, toponimikaning madaniy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: toponimika, Farg‘ona vodiysi, joy nomlari, tarix, madaniyat, etimologiya, mustaqillik, geografik nomlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность исторической топонимики и процесс формирования названий местностей Ферганской долины. Анализируются происхождение и этимология топонимов, встречающихся в Ферганской, Андижанской и Наманганской областях, а также изменения, происходившие с ними на протяжении времени. Особое внимание уделено восстановлению исторических и национальных названий в период независимости и культурному значению топонимики.

Ключевые слова: топонимика, Ферганская долина, названия мест, история, культура, этимология, независимость, географические названия.

Abstract: This article analyzes the essence of historical toponymy and the process of formation of place names in the Fergana Valley. It examines the origin and etymology of toponyms found in Fergana, Andijan, and Namangan regions, as well as their historical transformations. Special attention is given to the restoration of national and historical names during the independence period and to the cultural significance of toponymy.

Keywords: toponymy, Fergana Valley, place names, history, culture, etymology, independence, geographical names.

Toponimika – bu joy nomlarining kelib chiqishini, ularning tarixiy, tilshunoslik va madaniy asoslarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Tarixiy toponimika esa joy nomlarining shakllanishi va davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishlarini tahlil qiladi. Har bir joy nomi xalqning tili, dunyoqarashi, hayot tarzi va madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston hududi, xususan, Farg‘ona vodiysi toponimik jihatdan nihoyatda qadimiy va murakkab mintaqa hisoblanadi. Bu hududda turli davrlarda yashagan xalqlar, ularning tillari va madaniyatlari joy nomlarida o‘z izini qoldirgan. Farg‘ona vodiysi toponimlari ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, ularning shakllanishida turkiy, fors-tojik, arab, va hatto qadimgi hind (sanskrit) unsurlari ishtirok etgan.

Masalan, “Farg‘ona” nomi qadimiy “Parg‘ana” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, sanskrit tilida “serhosil yer” ma’nosini bildiradi. “Qo‘qon” toponimi turkiy “ko‘kan” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘k rangli joy” yoki “yashil maskan” ma’nosida ishlatilgan. “Namangan” esa forscha “nam” (ho‘l) va “ganj” (xazina, joy) so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan “Andijon” nomi esa “Andigan” yoki “Andukan” shaklida uchrab, fors tilidagi “pastlikdagi joy” degan ma’noni anglatadi.136

“Marg‘ilon” nomining kelib chiqishi haqida bir nechta qarashlar mavjud. Ba’zi manbalarda u “murg‘” (qush) so‘zidan olingan deb ko‘rsatiladi, ya’ni “qushlar joyi” degan ma’noni bildiradi. “Chortoq” esa “chor” (to‘rt) va “to‘q” (yo‘l, burchak) so‘zlaridan tarkib topib, “to‘rt yo‘l kesishgan joy” ma’nosini anglatadi.137 Bu kabi toponimlar o‘sha hududning tabiiy sharoiti, relyefi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi.

Toponimlar shakllanishida diniy e’tiqod ham muhim rol o‘ynagan. Masalan, “Shohimardon” nomi islom tarixidagi “Shohi Mardon Ali” nomi bilan bog‘liq bo‘lib, bu joy diniy ziyorat markaziga aylangan. “Oltiariq”, “Oqtepa”, “Toshloq”, “Buvayda”, “Rishton” kabi nomlar esa hunarmandchilik, tabiiy manzara va inson faoliyatini ifodalaydi.138

Farg‘ona vodiysi toponimik tizimi tarixiy jihatdan uch bosqichda rivojlangan: qadimgi davr, o‘rta asr va yangi davr. Qadimgi davr toponimlari asosan tabiiy belgilar va qadimiy til qatlamlariga asoslangan bo‘lsa, o‘rta asrlarda arab-fors unsurlari kirib kelgan. Sovet davrida esa mafkuraviy nomlar paydo bo‘ldi, masalan “Leninobod”, “Kommunizm”, “Oktyabr” kabi. Mustaqillikdan so‘ng esa milliy va tarixiy nomlar tiklandi: “Leninobod” o‘rniga “Asaka”, “Kommunizm” o‘rniga “Navbahor”, “Oktyabr” o‘rniga “Yangi hayot” deb o‘zgartirildi139.

Bu holat toponimik tizimning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Joy nomlari xalqning o‘zligini tiklashda, tarixiy xotirani saqlashda va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim vositadir.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi toponimlarini o‘rganish faqat tarixiy emas, balki madaniy va turistik ahamiyatga ham ega. Chunki joy nomlari orqali mintaqaning madaniy merosi, qadriyatlari va tabiiy muhitiga doir qimmatli ma’lumotlar tiklanadi. Shunday qilib, Farg‘ona vodiysi toponimlari o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, tili, madaniyati va ruhiy dunyosini ifodalovchi bebaho manba sifatida qadrlanadi. Tarixiy toponimika fani bu boy merosni ilmiy

136 Qayumov A. O‘zbekiston toponimiyasi: tarix va zamon talqinida. – Toshkent: Fan, 2010.
137 Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi va toponimika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
138 Rahmonov M. Farg‘ona vodiysi toponimlari va ularning kelib chiqishi. – Farg‘ona, 2018.
139 Tursunov O. Til va tarixiy nomlar uyg‘unligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

o‘rganish, tahlil qilish va kelajak avlodlarga yetkazishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Tarixiy toponimika – xalqning o‘tmishidan darak beruvchi, tarixiy xotirani saqlab qoluvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. Farg‘ona vodiysi toponimlari bu jihatdan o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ular o‘zbek xalqining tili, madaniyati va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi.Joy nomlarining o‘rganilishi milliy o‘zlikni anglash, ma’naviyatni boyitish va hududlarning tarixiy qiyofasini tiklashda muhim manba hisoblanadi.Mustaqillik yillarida toponimik siyosatning milliy tamoyillarga asoslanib shakllanishi natijasida tarixiy nomlarning qayta tiklanishi xalqning tarixiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.Shunday ekan, tarixiy toponimika fani Farg‘ona vodiysi va umuman O‘zbekistonning madaniy-tarixiy merosini ilmiy asosda o‘rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Qayumov A. O‘zbekiston toponimiyasi: tarix va zamon talqinida. – Toshkent: Fan, 2010.

2. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi va toponimika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

3. Rahmonov M. Farg‘ona vodiysi toponimlari va ularning kelib chiqishi. – Farg‘ona, 2018.

4. Tursunov O. Til va tarixiy nomlar uyg‘unligi.Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

ТОПОНИМЫ В ПУТЕВЫХ ЗАМЕТКАХ ВАСИЛИОСА ВАТАТЗИСА «ПЕРЕТИГОН». КРАТКИЙ ОБЗОР.

Сайдуллаев Гуламжон Авзарович
преподаватель кафедры «Общественных наук» Ташкентского государственного медицинского университета.
gulamjansaydullaev@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена анализу топонимов в путевых заметках Василиоса Вататзиса «Перетигон». Исследуются географические названия Центральной Азии, Поволжья и Кавказа XVIII века, их языковые, этнические и культурные особенности. Анализ показывает, как топонимы фиксируют торговые маршруты, миграции народов и социально-политическую структуру регионов. Рассматриваются тюркские, арабо-персидские и славянские топонимические слои, а также трансформация названий до современного времени.

Ключевые слова: Василиос Вататзис; Перетигон; топонимы; географические названия; Центральная Азия; торговые маршруты.

Annotatsiya: Ushbu maqola Vasilios Vatazisning *Peretigon* sayohat yozuvlaridagi toponimlarni tahlil qiladi. 18-asrda Markaziy Osiyo, Volga havzasi va Kavkazdagi geografik nomlarning lingvistik, etnik va madaniy xususiyatlari o‘rganiladi. Tahlil natijalari toponimlarning savdo yo‘llarini, aholi migratsiyasini va hududlarning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini aks ettirishini ko‘rsatadi. Turk, arab-

fors va slavyan toponimik qatlamlari, shuningdek, zamonaviy davrgacha nomlarning o‘zgarishi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar : Vasilios Vatazis; Peretigon; toponimlar; geografik nomlar; Markaziy Osiyo; savdo yo‘llari.

Abstract

This article examines the toponyms in the travel notes of Vasilios Vatatzēs' *Peretigon*. It explores the geographical names of Central Asia, the Volga region, and the Caucasus in the 18th century, focusing on their linguistic, ethnic, and cultural characteristics. The analysis demonstrates how toponyms reflect trade routes, population migrations, and the socio-political structure of the regions. Turkic, Arab-Persian, and Slavic toponymic layers are discussed, along with the transformation of place names into modern times.

Keywords: Vasilios Vatatzēs; Peretigon; toponyms; geographical names; Central Asia; trade routes.

«Перетигон» Василиос Вататзиса – это путевые заметки XVIII века, описывающие маршруты от Поволжья через Кавказ и Центральную Азию до Хивы и Бухары[1]. Топонимы текста фиксируют географические объекты, а также отражают культурно-этническую структуру регионов, торговые и политические связи, историческую память о миграциях и контактах народов. Изучение этих топонимов позволяет проследить восприятие пространства путешественником и служит важным источником для исторической географии и ономастики.

Для анализа топонимов использовались следующие подходы:

1. Лингвистический метод: сопоставление топонимов с тюркскими, персидскими, арабскими и славянскими корнями для выявления языковых пластов и исторических изменений[2].

Картографический метод: сопоставление топонимов с современными картами маршрутов Центральной Азии и Поволжья для определения точного географического положения объектов[3].

Историко-культурный метод: анализ этнического, торгового и политического контекста на основе упоминаний городов, рек и племён, с привлечением исследований Шамсиддина Камолиддина о макротопонимии региона[6].

Анализ топонимов в «Перетигоне» Василиоса Вататзиса показывает богатое разнообразие географических названий Центральной Азии, Поволжья и Кавказа XVIII века. Эти топонимы фиксируют ключевые торговые и политические центры, водные артерии, а также поселения различных этнических групп.

Хива – один из главных узлов караванных маршрутов. В XVIII веке город являлся центром торговли хлопком, шелком и другими товарами между Россией, Ираном и Китаем. Топоним имеет тюркские корни и сохранил свою форму до современности. Хива также отражает культурное влияние персидских и арабских традиций в архитектуре и письменности.

Бухара – исторический центр культуры и религии. Название имеет персидское происхождение и указывает на важность города как торгового и

политического узла. В «Перетигоне» Вататзис отмечает маршруты караванов и расположение медресе и рынков. Современное название полностью сохранилось.

Ургенч – город, находящийся на пересечении торговых путей в долине Амударьи. Топоним арабо-персидского происхождения. В XVIII веке Ургенч служил ключевым центром торговли шелком и другими товарами. В современном Узбекистане город сохранил историческое имя.

Кунград – поселение кочевых племён, важное для контроля над степными маршрутами. Топоним тюркского происхождения и до сих пор используется в современном Узбекистане для обозначения района и этнической общины

Реки и водные объекты;

Волга – крупнейшая река европейской части России, важная транспортная артерия. Вататзис описывает её как границу между различными этническими и административными территориями, что отражает политическую карту региона XVIII века.

Амударья и Сырдарья – главные реки Центральной Азии, которые служили природными границами и основными транспортными путями. Топонимы сохраняют тюркские корни, и их современная форма близка к исторической. Вататзис подчёркивает важность этих рек для торговли и миграций кочевых племён.

Этнические топонимы:

Калмыки – этническая группа, упомянутая как отдельный регион. Название фиксирует территориальное расселение кочевых калмыцких племён. Лингвистический и культурный анализ

Топонимы «Перетигона» демонстрируют сочетание различных языковых пластов: тюркских, арабо-персидских и славянских. Это отражает культурное и торговое многообразие регионов. Некоторые названия имели несколько вариантов написания, что указывает на устное распространение и различия в письменной фиксации. Современные соответствия

Сравнение с современными картами показывает, что большинство топонимов сохранилось до сегодняшнего дня, хотя некоторые из них претерпели фонетические изменения. Например, Хива, Бухара и Ургенч практически не изменились, а названия некоторых кочевых поселений видоизменились или исчезли в результате административных реформ и миграций.

Результаты анализа демонстрируют, что топонимы «Перетигона» являются ценным источником для изучения исторической географии и этнографии. Они фиксируют торговые маршруты, миграции народов, этнические расселения и социально-политическую структуру регионов XVIII века. Такой подход позволяет реконструировать историческое пространство и выявить закономерности в изменении географических названий до современного времени.

Топонимы «Перетигона» выполняют несколько функций:

1. Этническая функция: отражают присутствие различных народов и миграции кочевых племён.
2. Историческая функция: фиксируют политическое и торговое деление региона XVIII века.
3. Культурная функция: демонстрируют взаимодействие языков и культур, сохраняют память о кочевниках и торговцах.
4. Практическая функция: помогают ориентироваться в пространстве, выполняя навигационную роль для путешественников.

Работы Камолиддина подтверждают, что топонимы Центральной Азии сохраняют информацию о происхождении народов, исторических событиях и экономических связях[6]. Различие вариантов одного и того же названия указывает на устное распространение топонимов и различные формы фиксации в письменных источниках.

Топонимы в «Перетигоне» – это комплексный источник информации о торговых, этнических и культурных связях XVIII века. Анализ помогает реконструировать маршруты, выявить исторические изменения названий и понять восприятие пространства путешественником. Привлечение исследований Камолиддина делает возможным междисциплинарное изучение топонимов, объединяя географию, историю, лингвистику и этнографию.

Список литературы

1. “VATATZES, Vasilios.” *Encyclopaedia Iranica.* (iranicaonline.org)
2. Kordosis S. *The Western Mongol World in the Early Eighteenth Century: Kalmyks and Oirats in Vasilis Vatatzēs’s Periēgētikon and His 1732 Map of Central Asia.* Crossroads, Vol. 22 (1-2), 2023.
3. Barthold V. V. *Turkestan Down to the Mongol Invasion.* – London: Luzac, 1928.
4. Khazanov A. M. *Nomads and the Outside World.* – Madison: University of Wisconsin Press, 1994.
5. Суперанская А. В. *Общие вопросы топонимики.* – М.: Просвещение, 1973.
6. Камолиддин Ш. С. *Историческая макротопонимия Центральной Азии. // Markaziy Osiyo tarixi / История Центральной Азии / History of Central Asia (Ташкент).* – 2023, № 1. С. 35–54.

OLMALIQ SHAHRI TARIXIY GEOGRAFIYASI

Bekmuradov Sanjar Tursunmamatovich,
Toshkent amaliy fanlar universiteti v.b. Dotsenti, PhD
Tel.: +998 99 882 21 07
Email: stb.uz.com@gmail.com

ANNATATSIYA

Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan Olmaliq shahri tarixiy geografiyasi hududi uchun tabiiy-geografik sharoitlarning o‘zgarishi, aholining

joylashuvi, savdo yo‘llari tizimi hamda mintaqaviy siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘langan tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tarixiy shahar VII/XIII asrlarda tashkil topgan. Chig‘atoy ulusi tarkibida bo‘lgan davr ham alohida ahamiyat kasb etgan.

KALIT SO‘ZLAR: *Olmaliq, Karluk, Chingizxon, Buzar, Sig‘noq-Tegin, Chig‘atoyxon, Chig‘atoy ulusi.*

АННОТАЦИЯ

Историческая география города Алмалыка, занимающего важное место в истории Центральной Азии, включает исторические этапы, тесно связанные с изменением природно-географических условий территории, размещением населения, системой торговых путей и региональными политическими процессами. Этот исторический город был основан в VII-XIII веках. Особое значение имеет также период его вхождения в состав Чигатайского улуса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Алмалык, Карлук, Чингизхан, Озар, Сикнак Текин, Чагатайхан, Чагатайский улус.*

ANNOTATION

The historical geography of the city of Almalyk, which occupies an important place in the history of Central Asia, includes historical stages closely related to the change in natural and geographical conditions for the territory, the location of the population, the system of trade routes, and regional political processes. This historical city was founded in the 7th/13th centuries. The period when it was part of the Chagatay ulus is also of particular importance.

KEYWORDS: *Almalyk, Karluk, Genghis Khan, Ozar, Siknak Tekin, Chagatay Khan, Ulus of Chagatay.*

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan Olmaliq[140] – Xitoyning hozirgi G‘uljadan (Qulja, Inin) shimoli-g‘arbda, Ili daryosi bo‘yida joylashgan Yettisuvdagi shahar bo‘lgan. Aniqroq aytganda u Ili daryosi vodiysida, zamonaviy Olmaotadan taxminan 300 km sharqda, Olmaota viloyati chegarasida joylashgan Olmaliq qishlog‘i yaqinida va Xorgos qishlog‘idan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan joy nomidir. Umumiy maydoni 25 km² bo‘lgan qadimiy Olmaliq xarobalari bugungi Xitoy Xalq Respublikasi hududida, Sinszyan-Uyg‘ur avtonom viloyatining Ili Qozoq avtonom prefekturasi, Xocheng okrugida joylashgan.

Ushbu tarixiy shahar hijriy VII/ milodiy XIII asrda tashkil topgan. Dastlab u G‘ulja viloyatining markazi sifatida tilga olingan. Mazkur joy mo‘g‘ullar istilosi davrida Chig‘atoy ulusi xonlarining [17, 112] bosh qarorgohi (markazi, poytaxti) sifatida foydalanilgan. Olmaliq Oltin O‘rda va O‘rta Osiyoni Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘lagan karvon yo‘lida savdo markazi rolini o‘ynagan [2, 344]. Biroq, XVI asrga kelib, shahar allaqachon vayronaga aylanib ulgurgan. Rus sharqshunosi V.V.Bartold uni Qutlug‘-Temur qabri joylashgan G‘ulja viloyatidagi Alimtu trakti bilan belgilaydi [12, 80]. Biroq, Bernshtam aniqlaganidek, Alimtu

[140] Ili vodiysida, Qo‘lja shahrining shimoli-g‘arbida, Sayram ko‘li va Talki dovoni janubida joylashgan yirik o‘rta asr savdo shahri. Fuqarolar nizolari va feodal urushlari natijasida 14- asrda parokandalikka uchradi. – Jamol al-Qarshi. Mulhakat as - Surax . Arab tilidan tarjimasi va A. Saidov eslatmalari . Dushanbe : Irfon . 2006. – B. 118 .

Olma-Ota shahri yaqinida joylashgan va uning fikricha, Olmaliq va Alimtu turli shaharlar bo‘lgan [12,79-81].

Olmaliq dastlab Turk xoqonligining Karluk shaharlaridan biri bo‘lgan. Olmaliq haqidagi eng qadimgi saqlanib qolgan ma’lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Ulardan biri daos rohibi Chang Chunning Mo‘g‘ul imperiyasi bo‘ylab sayohatlari haqidagi yozuvlarida mavjud. Chang Chunning xabar berishicha, 1221-yilda u mahalliy musulmon Qarluq hukmdorining poytaxti bo‘lgan va mo‘g‘ul noibi tomonidan boshqarilgan [9, 1-42]. Chingizxon vafotidan va uning imperiyasi o‘g‘illari o‘rtasida bo‘linganidan so‘ng, Olmaliq Chig‘atoy ulusining poytaxtiga aylangan [9, 1-42].

Mahalliy iqtisodiyotning gullab-yashnashi haqida ko‘plab dalillar mavjud, bu Chang-Chunning hikoyasidan boshlanadi: “*Ular bizga g‘arbdagi mevali bog‘da turar joy berishdi. Mahalliy aholi mevalarni a-li-ma [ya’ni olma] deb atashadi va shahar o‘z nomini shu mevalarning mo‘lligidan olgan. Aynan shu yerda ular tu-lu-ma [paxta] deb nomlangan momiqni yetishtirshadi, bu esa “yerga ekilgan qo‘y junidan” tayyorlangan material haqidagi mashhur rivoyatga sabab bo‘lgan. Endi biz undan qishki kiyimlar yasash uchun yetti bo‘lak sotib oldik. Tashqi ko‘rinishi va tuzilishi jihatidan u xitoy tol po‘stlog‘iga o‘xshaydi - juda nozik va toza. Undan ip, arqon, mato va paxta yasashadi. Dehqonlar dalalarini kanallar bilan sug‘oradilar; ammo bu joylar aholisi suv olish uchun qo‘llaydigan yagona usul - ko‘zani botirib, uni boshga ko‘tarish... Har kuni odamlar bizga tobora ko‘proq sovg‘alar olib kelishdi”.*

Chingizxonning bosh maslahatchisi Yelu Chutsayning[141] sayohat yozuvlariga ko‘ra, Olmaliq shahri Tyan-Shan tog‘lari va Ili daryosi orasida joylashgani aytiladi. Olmaliq atrofida ko‘plab qisqichbaqa olma daraxtlari bo‘lganligi bilan ta’riflanadi. Mahalliy xalq ularni “Olmaliq” deb atagan va shu tariqa shaharga shunday nom berilgani aytiladi.

Olmaliq haqidagi ma’lumotlar shuningdek, “Yuan sulolasi tarixi”, tarixchi Jamol al-Qarshiyning “al-Mulhaqot bi-s-Suroh” asarida, shunigdek, Muhammad Haydar Dug‘lat, Rashid ad-Din, Juvayniy, Bobur asarlarida va arman shohi Xetumning qo‘lyozmalarida ham mavjud.

“Al-Mulhaqot bi-s-Suroh” (“Suroh lug‘atiga ilovalar”) asarining muallifi Jamol Qarshiy Sharqiy Turkiston shaharlari, jumladan, Olmaliq shahri haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. U shunday deb yozadi: *“Men Olmaliq shahridan boshladim va undan boshlashga haqliman, chunki u mening tug‘ilgan yurtim, chaqmoqtoshdan olov chiqaradigan qilichimning tagi, mening vatanim va do‘stlarimni topgan maskan, hayot yo‘limning bir qismi, shon-shuhratimning ibtidosi, mamlakat poytaxti, din markazi, hukmdorlar va xoqonlar maskani...”* [18, 44]

[141] Yelu Chutsay (Yelü Chucai – mo‘g‘ulchada Urtu Saqaltu “Uzun soqol”, 1190-yil 24-iyul – 1244-yil 20-iyun), Lyao sulolasining imperatorlik urug‘idan bo‘lgan Xitan davlat arbobi bo‘lib, Konfutsiy an’analariga ko‘ra ilk Mo‘g‘ul imperiyasining faol maslahatchisi va ma’muri bo‘lgan. U Chingizxonning birinchi tarafdorlaridan biri bo‘lib, mo‘g‘ul bosqinlari va istilolari davrida siyosatni shakllantirgan. Shuningdek, u Chingizxon va uning o‘g‘li va vorisi O‘qtoy hukmronligi davrida Shimoliy Xitoyda ko‘plab ma’muriy islohotlarni amalga oshirgan.

Manbalarning ta’kidlashicha, o‘rta asrlarda Olmaliq shuningdek, turkiyzabon qabilalar yashaydigan yirik savdo markazi bo‘lgan. XIII asrda Olmaliq siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazga aylangan. Mazkur shahar bir vaqtlar Xitoyga olib boradigan asosiy yo‘llardan birida “buyuk savdo shahri” bo‘lgan. G‘arb ma’lumotlarida bu haqda so‘z borganda uning yuqori ahamiyati xususida aytilib, u yerga Rim-katolik yepiskopi va ehtimol Nestorian metropoliteni ham tayinlangani haqida aytadi. Biroq, 1339-yilda u yerda bir qator fransiskan rohiblari o‘ldirildi, bu voqea, ehtimol, mahalliy taxtda butparast salafiy o‘rniga musulmon hukmdorning o‘rnini egallashi bilan bog‘liq bo‘lgandir [26].

Olmaliqning birinchi xoni Buzar (Ozar) bo‘lgan va uning o‘limidan so‘ng, hokimiyat uning o‘g‘li Sig‘noq-Teginga meros bo‘lib o‘tgan. XIV asrda Olmaliq shahri xarobaga aylana boshlagan.

Fors tarixchilarining hikoyalarida aytilishicha, 1211-yilda Buzar Chingizxonning hukmronligini tan olgan. Keyinchalik u Qoraxitoyning Gurxoni tomonidan o‘ldirilgan. Chingizxon uning o‘g‘li Sig‘noq-Teginga Olmaliq hukmdori bo‘lishni buyurgan va unga katta o‘g‘li Jo‘jining yagona qizini turmushga bergan. 1219-yilda Chingizxon o‘z qo‘shinini Eronga yurishga boshlaganida, Sig‘noq-Tegin unga ergashgan [25, 344]. Olmaliq hukmdori va Chingizxonning nabirasi o‘rtasidagi mazkur nikoh shaharning o‘sha paytdagi yuqori ahamiyatini ko‘rsatadi.

Chingizxonning vorisi O‘qtoy davrida, mahalliy sulola o‘z o‘rnida qolgan bo‘lsa-da, Olmaliq va g‘arbdagi boshqa hududlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruv va soliq yig‘ish Xorazmlik Mahmud Yalavach qo‘liga o‘tkazilgan.

Shunigdek, XVI asr mualliflari Mirzo Muhammad Haydarning “Tarix-i Rashidiy” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida keltirilgan ma’lumotlarida ham Olmaliq shahri o‘rta asrlarda Mo‘g‘ulistonda gullab-yashnagan shahar, Markaziy Osiyodan Sharqiy Turkistonga olib boradigan qadimgi karvon yo‘lidagi yirik savdo markazi bo‘lgan deb ta’kidlanadi. Ularga ko‘ra, shaharda asosan *vusun* va *hun* qabilalari yashagan. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Olmaliq Yettisuvning bir nechta yirik shaharlari, jumladan, Bolasog‘un, Taraz, Olmaota, Qoyaliq, Ilibaliq va Ikkiog‘uz nomi bilan atalgan. Chig‘atoy Ulusining tashkil topishi davrida Olmaliq bu ulusning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markaziga aylangan. Keyinchalik Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qarshi yurishlari natijasida Olmaliq XIV asrda o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

Turli etnik kelib chiqishi va dinlariga mansub odamlar yashaydigan bu shahar taxminan 1351-yildan 1363-yilgacha Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur hukmronligi davrida muhim islom markaziga aylangan. Tug‘luq Temurning qabrini hali ham shaharda ko‘rish mumkin. Uning maqbarasi Olmaliqning sharqiy qismida joylashgan. Mirza Muhammad Haydar o‘zining asarida Tug‘luq Temurning islom dinini qabul qilishiga doir bir qator sahifalarni bag‘ishlagan va buni mahalliy so‘fiylik ordenlarining faoliyati bilan bog‘lagan. Haydar davrida Olmaliq barcha mahalliy urushlar tufayli tanazzulga yuz tutgan bo‘lsa-da, u Tug‘luq Temurning qabri u yerda joylashganligiga alohida e’tibor qaratgan.

Tug‘luq Temur qabridagi yozuvlarda, shuningdek, XIV asrning uchinchi choragida shaharda nestorian xristianlari borligi ko‘rsatilgan [6, 487-503]. 1254-

yilda Kilikiya Armanistonining qiroli Xetum I Qoraqurumdagi mo‘g‘ullar saroyiga ketayotganda Olmaliqdan o‘tib, mintaqada Nestorian xristian jamoalarini, jumladan, Nestorian qabrlari va yozuvlarini saqlaydigan Ilibaliq shahri haqida ta’kidlagan [3, 183-185].

XIV asrda Olmaliqda bir qator katolik missionerlari, jumladan, Jovanni de’ Marignolli ham faoliyat olib borgan. Shu kabi, o‘rta asrlar Xitoyidagi ko‘plab yevropaliklar sayohat paytida u yerda to‘xtab o‘tishgan. Shahar ularning ma’lumotlarida “Armalek” nomi bilan tanilgan.

O‘rta asr fors tarixchisi Mahmud ibn Vali Olmaliqni uyg‘ur shaharlarining eng chekkasi va Movarounnahrga esa eng yaqini deb ataydi [18, 16-17]. Chingizxon Olmaliqdan Jayhungacha bo‘lgan barcha yerlarni Movarounnahrga tegishli deb hisoblab, ularni ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga *suyurg‘ol* sifatida bergan. Asarda keltirilgan rivoyatga ko‘ra, Chingizxon Xuroson to‘quvchilarining yetmish yettita oilasini Turonga olib kelganida, ular u yerda ipak kiyimlar to‘qishga qanchalik urinmasin Xuroson kiyimlariga o‘xshamagan. Buning uchun ular iqlimni ayblab, Chingizxonga murojaat qilishadi. Shundan so‘ng, ularga butun Turon bo‘ylab sayohat qilish va Xurosonga o‘xshash iqlimga ega bo‘lgan joylarda joylashish buyrug‘i beriladi. Ular darhol Turonzamin shaharlari va hududlariga yo‘l olishadi va Xurosonga o‘xshash iqlimni Olmaliqdan topib, uni doimiy yashash uchun tanlaydilar [18, 16-17].

Mahmud ibn Valining ta’kidlashicha, Turonda ixtiro qilingan birinchi yozuv uyg‘ur yozuvi bo‘lib[142], u hali ham ba’zi Sharq mamlakatlarida ma’lum va qo‘llaniladi. Bu shahar aholisi ilgari siyak[143], raqamlash, muhosiblik bilan shug‘ullangan va Turon xonlari hamda Xitoy hukmdorlariga xizmat qiluvchi kotiblar va amaldorlar shu shahardan tanlangan.

Muallifning aytishicha, XVI asrga kelib, mazkur shaharda tarixiy asarlar va risolalarda keltirilganlardan boshqa hech narsa qolmagan. Faqat ushbu shaharning dashtlari va vodiylarining ayrim qismlarida *qalmiqlar* yashagan, yana ba’zi joylarida vaqti-vaqti bilan qirg‘iz va qozoq qabilalari kelib qo‘nim topishgan. Biroq, uning binolaridan asar ham qolmagan. Yerlari va dashtlarining ba’zi qismlari sug‘oriladi va ekin ekiladi xolos [18, 17].

XX asr boshlarida rus tadqiqotchisi N.N.Pantusov qadimgi Olmaliq joylashgan hududga tashrif buyurgan. Mahalliy aholi unga Kegen daryosi (Ilining o‘ng irmog‘i, Mozor qishlog‘i va Tog‘luq-Temur maqbarasining g‘arbida) bo‘yida topilgan bir qator qadimiy buyumlarni olib kelishgan. Pantusov u yerda qazishmalar uyushtirgan. Topilgan buyumlar orasida qadimgi shaharda nasroniy aholisi borligidan dalolat beruvchi ko‘plab nasroniy qabr toshlari aniqlangan [20, 161-188].

[142] Afsusku muarrixning mazkur ma’lumotiga shubha qarashga majburmiz, zero ma’lumki, yozma til turkiyzabon xalqlar orasida milodiy I asrlarida paydo bo’lgan edi. Biz bu yerda Orxon-Yenisey, ya’ni runik yozuv haqida gapirayapmiz. Ammo bu S.Remezov, F.Strahlenberg va D.Messerschmidt tomonidan 1696–1722-yillarda Yeniseyda va N.M.Yadrintsev tomonidan 1889-yilda Orxon daryosida (Mo‘g‘uliston) topilgan qabr toshlaridagi yozuv bo‘lib, xronologik jihatdan I-VIII asrlarni qamrab olgan. Runik yozuvdan so‘ng, nafaqat Sharqiy Turkistonda, balki Movarounnahrda ham keng tarqalgan So‘g‘d yozuviga asoslangan uyg‘ur yozuvi paydo bo‘ldi.

[143] Maxsus raqamlardan foydalanib, (ham pul, ham don) sanash fani.

1950-yilda Olmaliq xitoylik arxeolog Xuan Venbi va Shinjon tarix muzeyining arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan. Qazish ishlari natijasida loy va chinni idishlar, oltin va kumush tangalar, shuningdek, turkiy tilda yozuvlari bo‘lgan Nestorian qabr toshlari topilgan.

Olmaliqdagi arxeologik qazishmalar natijasida temir va misdan yasalgan qurollar, oltin va kumush tangalar va bo‘yalgan kulolchilik buyumlari topilgan. Bu topilmalar shaharda metallga ishlov berish va turli hunarmandchilik rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Bernard O‘Kane, “Chaghatai Architecture and the Tomb of Tughluq Temür at Almaliq,” Muqarnas: An Annual on the Visual Culture of the Islamic World, 21 (2004): 277-287.
2. Bretschneider E. Medieval Researches From Eastern Asiatic Sources. Volume 1. London, K. Paul, Trench, Trubner&co., ltd. 2016. – 344 p.
3. Kirakos Gandzakets'i. History of Armenia. Trans. Robert Bedrosian, Chapter 58. – New York: Sources of the Armenian Tradition, 1986.
4. History of the Armenians, Volumes I and II Kirakos Gandzakets’i. Translated by Robert Bedrosian Sophene Books, Los Angeles 2022, hb, 282pp (Volume I) and 372pp (Volume II).
5. Baumer, Christoph. The Church of the East: An Illustrated History of Assyrian Christianity. – London: I.B. Tauris, 2016. – P. 183-185.
6. Pier Giorgio Borbone. Syroturcica 2: The Priest Särgis in the White Pagoda // Monumenta Serica 56, 2008. – 487-503.
7. Spuler B. Die Mongolen in Iran: Politik, Verwaltung und Kultur der Ilchanzeit 1220-1350. – Leipzig: 1939.
8. The encyclopaedia of islam. New edition. Edited by an editorial committee consisting of H.A.R.Gibb, J.H.Kramers, E.Levi-Provencal, J.Schacht. Assisted by S.M.Stern as secretary general (pp. 1-320). Volume I. – Leiden: E.J.Brill, 1986.
9. The Travels of an Alchemist: The Journey of the Taoist Ch’ang-Ch’un from China to the Hindukush at the Summons of Chingiz Khan. Recorded by His Disciple Li Chih-Ch’ang. Tr. and introd. by Arthur Waley (London: Routledge, 1931).
10. Alaaddin Ata Melik Cuveyni. Tarih-i cihan güşa. Çevıren: Doç.Dr. Mürsel Öztürk. Ankara, 1988.
11. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.
12. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. Сочинения. Т. II. Ч. I. Москва: Наука, 1963.
13. Бартольд В.В. Поездка в Туркестан. Сочинения. Т. VIII. Москва: Наука, 1973. – С. 98-101.
14. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I. Москва: Наука, 1963.
15. Бернштам А.Н. Памятники старины Алма-Атинской области. Известия АН КазССР. Серия археологическая. Выпуск №1. 1948.

16. Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-Сурах. Рукопись №2, Фонд духовной наследие имени Махдума Восилий в районе Мархамат города Андиджан.

17. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – Москва: Наука, 1988.

18. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, пер., прим., указ. Б.А.Ахмедова. Отв. Ред. А.К.Арендс. – Ташкент: Изд-во «Фан» УзССР, 1977. – 168 с. (Библ.-255 назв. Рис.-16.)

19. Мирза Хайдар. Мулхакат ас-Сурах. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. Ташкент: Фан, 1996.

20. Пантусов Н. Город Алмалык и Мазар Туглук Тимур хана. «Кауфманский сборник, изданный в память 25 лет, истекших со дня смерти покорителя Туркестанского края, генерал-адъютанта К. П. фон-Кауфмана I-го.». – Москва, 1910. – С. 161-188.

21. Рашид ад-дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И.Смирновой, примечания Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. 1. Кн. 2. Москва, Ленинград: Наука, 1952.

22. Саидова А. Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах. Перевод с арабского и примичания А.Саидова. Душанбе.: Ирфон. 2006. – С. 118.

23. Bekmuradov S.T. “Al-Mulhakat Bi-S-Surah” and Translations with Notes of the Chapter about History of Mongols // International Journal of Central Asian Studies. Korean University of International Studies. №22. – South Korea, 2018. – P. 171-192.

24. Бекмурадов С.Т. Чиғатой улуси бошқарувида аёлларнинг ўрни // Шарқ машъали. – Тошкент, 2020. №2. – Р. 147-159.

25. Bretschneider E. Mediaeval researches from Eastern Asiatic sources: fragments towards the knowledge of the geography and history of Central and Western Asia from the 13th to the 17th century: with a map of Middle Asia / by E. Bretschneider: Trubner & Co., 1888. – 334 c.

26. Daniel C. Waugh. Almaliq // The Silk Road. Vol. 16. 2018.

XII SHO‘BA: ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX MASALALARI

XII – XIII ASRLAR XORAZM ANUSHTEGINIYLAR DAVRI ETNOSIYOSIY JARAYONLARIDA DASHTI QIPCHOQ.

Innovation University tarix fani
Raximbayev Xurmat Xursand o’g’li – Urgench o’qituvchisi.

Annotatsiya: XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlati juda ko’plagan etnik birliklarni o’zida birlashtirgan bo’lib, bu holat davlat siyosiy jarayonlarga ham bevosita o’z ta’sirini o’tkazib kelayotgan edi. Ayniqsa, mo’g’ul bosqini arafasida xorazmshoh – anushteginiylar davlati ichki va tashqi siyosatiga mazkur etnosiyosiy jarayonlarning ta’siri masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. **Mazkur maqolada** XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlarning mazmun – mohiyati, sulola so’nggi vakillarining, shu jumladan, Jaloliddin Manguberdining qaysi etnik guruhga mansubligi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib **berilgan.**

Kalit so’zlar: Xorazmshoh-anushteginiylar, Jaloliddin Manguberdi, Oychechak, Turkon xotun, qipchoq, qang’li, yemek, boyovut, uron, Nasaviy, Juvayniy, Rashididdin, Ibn al-Asir, Juzjoniy, V.V. Bartolьd, P.Pelьo, Z.Buniyodov, S.M. Axinjanov, D.M. Timoxin, V.V. Tishin, Ya. Pilipchuk.

Аннотация: В конце XII – начале XIII века Хорезмшахско-Ануштагинское государство, занимавшее огромные территории, объединяло большое количество этнических единиц, и эта ситуация оказала непосредственное влияние на политические процессы государства. Особенно накануне монгольского нашествия вопрос о влиянии этих этнополитических процессов на внутреннюю и внешнюю политику государства хорезмшахов-ануштегинцев является одной из наиболее актуальных проблем. В данной статье анализируется содержание и сущность этнополитических процессов, происходивших в государстве Хорезмшахов-Ануштегинидов в конце XII - начале XIII века, этнической приналеждности последних представителей династии, в том числе Джелал ад-дина. Менкбурни, а мнения, сложившиеся в истории по этому вопросу до сих пор, поясняется, что выводы были сделаны.

Ключевые слова: Хорезмшахи-Ануштегиниды, Джелал ад-дин Менкбурни, Айчичек, Туркан-хатун, Кыпчак, Кангли, Йемек, Байавут, Уран, Насави, Джувейни, Рашид ад-дин, Ибн ал-Асир, Джузджани, В.В. Бартольд, П. Пелъо, З. Буниядов, С.М. Ахинджанов, Д.М. Тимохин, В.В. Тишин, Я. Пилипчук.

Annotation: At the end of the 12th century - the beginning of the 13th century, Khorazmshah - the Anushtaginian state, which occupied huge territories, united a large number of ethnic units, and this situation had a direct impact on the political processes of the state. Especially on the eve of the Mongol invasion, the question of the impact of these ethno-political processes on the domestic and

foreign policy of the Khorezmshah-Anushtegin state is one of the most urgent problems. In this article, the essence of the ethno-political processes that took place in the Khorezmshah-Anushtagin state in the late 12th - early 13th centuries, the ethnic group of the last representatives of the dynasty, including Jela ad-din Menkburni, and the views formed in the field of history until now have been analyzed, and new conclusions have been reached regarding this problem.

Key words: Khorezmshakhs-Anushteginids, Jela ad-din Menkburni, Ay-Chichek, Terken Khatun, Kypchak, Kangli, Yemek, Bayavut, uran, Nesevi, Juveini, Rashid ad-din, Ibn al-Athir, Juzjani, V.V. Barthold, P. Pello, Z. Bunyadov, S.M.Axinjanov, D.M. Timokhin, V.V. Tishin, Y.Pilipchuk.

KIRISH (INTRODUCTION). Rasman XII asr boshlarida hokimiyatga kelgan xorazmshoh Anushteginiylar sulolasi vakillarining etnik kelib chiqishi masalasida ikkita muammoli vaziyat mavjud bo'lib, chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Jumladan, sulola ilk vakillarining etnik mansublik muammosi bo'lsa, ikkinchisi sulola so'nggi vakillarining qaysi etnik guruhga mansubligi muammosi hisoblanadi. Mo'g'ullar bosqini arafasidagi Xorazmda kechgan etnik jarayonlar tarix fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, aynan shu jarayonlar xorazmshoh – anushteginiylar sulolasining mo'g'ullar tomonidan tugatilishining sabablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorazmshoh – anushteginiylar davlatining so'nggi vakili, vatanparvar sarkarda, mo'g'ullarga qarshi tolmas kurashchi Jaloliddin Manguberdining qaysi urug' – qabilaga mansubligi haqida manbalarda va tarixiy tadqiqotlarda turli qarashlar, turli – tuman va ziddiyatli ma'lumotlar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ulkan hududlarni egallagan Xorazmshoh – anushtaginiylar davlatida kechgan etnosiyosiy jarayonlar masalasiga bag'ishlangan alohida yozma manba yo'q. Xuddi shunday bu masalada alohida tarixiy talqiqotlar ham olib borilmagan. Faqat shunisi ma'lumki, bu muammo yozma manbalarda biror-bir siyosiy voqea bilan bog'liq holda qisman keltirilib o'tilgan xolos. SHu jihatdan olganda yozma manbalarda jumladan, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin va Juzjoniy [] kabi asosiy manbalarda bu masalada bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan. SHu jihatdan olganda, eng avvalo, mazkur manbalarni chuqur ilmiy tahlil qilish zarur.

Umuman olganda bu masala yuzasidan qilingan alohida ilmiy tadqiqot deyarli yo'q. Faqat qozoq tarixchi olimi S.M. Axinjanovning xorazmshoh – anushtaginiylar davlatining Dashti Qipchoq ko'chmanchilar dunyosi bilan etnik va siyosiy munosabatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarini hisobga olmaganda [2]. Bu mavzu yuzasidan asosan bir qancha maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, M.Bayramov, V.V. Bartold, Z. Buniyodov, P.Pel'o, Ya.Pilipchuk, J.M. Sabitov, D.M.Timoxin, V.V. Tishin [3; 4-5; 6; 10; 12; 14] va shu kabi tadqiqotchilar maqolalarida bu mavzu yuzasidan manbalarni tahlil qilish asosida ma'lum bir fikr – mulohazalar bildirib o'tilgan bo'lsada, ammo, bu maqolalar mualliflarining yakuniy xulosalari turlicha yoki bir – biriga qarama – qarshi. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha yuqoridagi yozma manbalar eng asosiy manbalar hamda

xorazmshoh – anushteginiylar tarixi, jumladan, Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati haqida ko’proq to’xtalib o’tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V. Bartold, P.Pel’o, Z. Buniyodov, S.M. Axinjanov, D.M. Timoxin, V.V. Tishin va Ya. Pilipchuklar tadqiqotlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Endi bu masala yuzasidan, Xorazm vohasida X – XIII asrlarda kechgan etnosiyosiy jarayonlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, XI asr boshlaridan ko’p turkiy zabon qavmlar Xorazmga kirib kelganligining hamda bu vohada etnik jarayonlarni tezlashtirganligini kuzatish mumkin.

1017 yilda Maxmud G’aznaviy Oltintoshni Xorazmshoh unvoni bilan Xorazmni boshqarish uchun tayinlaydi. Natijada Xorazmga ko’p sonli turk-saljuqiy qabilalar shiddat bilan kirib kelgan. 1043 yildan saljuqiylarning Xorazmni istilo qilishi bilan rang-barang etnik guruhlar kirib joydashadilar. Saljuqiylar bilan birga Xorazmga o’g’uzlar ham kirib kelgan. Ular eftalitlarning VI-VII asrlar davomida Yettisuvdan kirib kelgan haqiqiy turk elementlari bilan qo’shilib ketgan edi [3, 56].

O’g’uz qabilalari Buyuk Xorazmshoh Otsiz davrida faoliyat olib borgan harbiy qo’shin tarkibida faol qatnashib, aholining mahalliy tiliga ham o’z ta’siri ham muhim bo’lgan.

SHunday ko’chmanchi qabilalardan biri yabg’u hisoblanadi. XI asrda yabg’u qabilasi taraqqiyoti jihatidan ancha yuqori turgan. Yabg’u qabilalari Yangikent atroflarida istiqomad qilib, ular iqtisodiyotida chorvachilik ustunlik qilgan. O’z yerlarini kengaytirishdan manfaatdor bo’lgan yabg’ular musulmon mulklariga, shuningdek, Buxoro va Xorazmga ham ko’chib keldilar. Orol-Kaspiy dashtlari uchun kurashda ular Xorazmliklardan yengiladilar va Otsiz Xorazmshoh ularning yerlarini Xorazmga qo’shib oladi. Qozoq olimi CH.Valixonov o’z asarlaridan birida o’zbek qabilalarining joylashishi haqida ma’lumotlar keltirar ekan, bir qancha viloyatlar qatorida “Xivada va Qo’qonda yabg’ular istiqomat qilishlari”ni eslatib o’tadi [3, 183].

Turkiy qabilalar o’troq, tub aholi tarkibiga tez aralashib borar edilar. Otsiz Xorazmshoh Jand bilan Mang’ishloqni o’z yerlariga qo’shib olgandan so’ng ko’chmanchi qo’shnilar bo’lgan-qipchoqlar va turkmanlarni ham o’z ta’siriga bo’ysundiradi. Otsiz Xorazmshoh davrida qipchoqlar kuchli harbiy armiyani tashkil etgan bo’lsalar, Otsizning nevarasi Takash davrida saljuq aslzodalari yirik yerlarga egalik qiladilar. Qipchoqlar harbiy va davlat ishlariga aralashib Xorazmning siyosiy hayotida muhim rol o’ynay boshlaydilar[6, 90; 247].

Takash tashqi siyosatida Xorazm geografiyasini kengaytirishda Otsizning siyosatini davom ettirishi natijasida mamlakat sarhadlari ikki marta kengaydi. Yaqin, O’rta va O’rta SHarq xududlari bosib olinda. Lekin, keyinchalik butun hokimiyat ishlariga qipchoq harbiy aslzodalarining aralashishi mamlakatni zaiflashtiradi. CHunki bu qipchoqlar Turkan xotun himoyasida bo’lib, uning o’zi qipchoqlarga qarindosh bo’lgan qiniqli urug’idan va Takashning rafiqasi edi.

Qipchoqlarning saroyda mavqeidan foydalanib, taxt uchun kurashi, buyuk siyosiy birlashmaning tarix sahnasidan abadiy barham topishiga sababchi bo'lganligini alohida qayd qilish joiz [6, 90; 247].

Abulg'ozixon turk shajarasi to'g'risida yozar ekan, turk elida beshta urug' bo'lib, uyg'ur, qipchoq, qalach, qorluq va qiniqli deb eslatib o'tadi. Muallif sanab o'tgan beshta urug' ham X asrgacha Xorazm yerlarida joylashgan edilar. Bu davrda yashagan xorazmiylarni qang'li va turkman qabilalarining hukmron sulolalari bilan qarindoshlik aloqalari bo'lgan. XII asr boshlarida Xorazmshohlar bu qabilalardan qiz olib, qiz berganlar. Abulg'ozixon asarida qayd qilingan ma'lumotlardan ma'lumki, "Qiniqli-Turkman birlan birga o'lturur edilar. Urganch podshohlaridan Takashxon qiniqlining bir urug'ining qizin oldi. Turkan otliq Sulton Muxammad Xorazmshoh ul qizdan tug'ildi. Qiniqli xalqidin har kimki ul zaifaga qarindosh erdi, bir-bir sulton xizmatiga kelib, sulton xizmatina turdilar. Sulton Muxammad Xorazmshohga qiniqlidan kelib navkar bo'lgan ellik va oltmish ming bor edi. Turkon xotunning akasi Xumortegin sulton xizmatiga keldi. Sulton anga Urganchni dorug'alikga berdi" [1, 31]. Turkan xotunning amakivachchasi Inalchiqqa butun Turkiston viloyatini in'om etadi. Bu fakt shuning uchun diqqatga sazavorki, Xorazmga turkiy etnik qavmlarni juda katta miqdori XII asrlarda kirib kelganligidan dalolat beradi. Demak, XII asrda turkiy qavmlar Xorazm yerlarida mustahkam o'rnashib olganlar. Ular juda ko'pchilikni hosil qilib, o'troq aholi bilan omuxtalashganlar.

Ettisuvda o'z davlatiga asos solgan qoraxitoylar ham Xorazmga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Takashxon xuddi shu qoraxitoylar yordamida Xorazm taxtini egallab, Xuroson va SHarqiy Eronni o'z davlatiga qo'shib oldi. XI asrda "g'ulomlar" armiyada asosiy o'rinni egallagan bo'lsalar, XII-XIII asrlarda yollanma turk kontingentlari asosiy harbiy kuchni tashkil etadilar. Samarqandni CHingizxon hujumidan himoya qilgan Xorazmshoh Muhammad qo'shinining yarmidan ko'pini turklar tashkil etgan. "SHaharni mudofaa qilish uchun - deb yozadi X.Vamberi, –Xorazmshoh 110.000 kishi qoldirdi. Bulardan 60 mingi turk, 50 ming tojik edi", deb qayd qilgan [7, 159-163; 8, 353-355; 11, 206-208; 13,65-66]. Yarmi yollangan, yarmi qullardan iborat bo'lgan, shaharlarda yashagan bu qo'shinlar tub aholi bilan aralashib, turklashish jarayonini tezlashtirganlar. Demak, Xorazmda turk qavmlarining joylashishi jihatidan eroniy, forsiy qatlamlardan ustunlik qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi. Xorazm aholisining etnik tarkibi boyib va takomillasha boshladi. Miloddan avvalgi I ming yillik oxirlarida Jayhun aroflariga shimoldan ko'chib kelgan turkiyzabon xalqlar, IV-V asrlardagi xioniy, eftal, kidariylar, VI-VII asrlardagi Turk hoqonligi xalqlari Xorazm aholisi etnik tarkibi muhim o'rin egallaganlar. X-XII asrlarda ko'chib kelgan talay qabilalar turgash, to'xsi, qorluq, chigil, yabg'u va o'g'uzlar o'lkaning sharqiy Eron va turk tillarida so'zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi. Bu davrda o'g'uz shevasi shakllanadi. SHunday bo'lsada, Anushteginiylar sulolasining o'g'uzlarning bekdili urug'idan kelib chiqqanligi bahsli masala bo'lib, bu sulola vakillarining, ayniqsa sulolaning

so’nggi vakillarining turkman xalqiga mansubligi masalasi manbalarda o’z aksini topmagan va demak, haqiqatga to’g’ri kelmaydi. Ya’ni, yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo’lsak, Oychechak va uning o’g’li Jaloliddin Manguberdi umuman turkman qabilasiga mansub bo’lmaganligi aniq[12, 83-103; 14, 125-185]. Ular qipchoq qabila uyushmasiga mansub yemek qabilasi urug’laridan (bayot-boyovut va uron urug’laridan tashqari) birining vakili bo’lganliklari haqiqatga yaqin.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. – 125 б.

2. Ахинджанов С.М. Из истории взаимоотношений кипчаков и Хорезма в 12-нач.13в. – Алма-Ата: Изд-во АН КазССР, 1973. – 136 с.

3. Байрамов М. Об этнической принадлежности Джелал ад-дина Менгуберди и династии хорезмшахов-ануштегединов. - Ашхабад, 2018// http://turkmen-horezm.blogspot.com/2018/07/blog-post_31.html?view=timeslide

4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия //В.В. Бартольд. Сочинения. – М.: Наука, 1963. Т.1. – 760 с.

5. Бартольд В.В. Сочинения. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов// В.В. Бартольд. Сочинения. – М.: Наука, 1968. Т.5. – 759 с.

6. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштагинидов 1097–1231 г. – М: Наука, 1986. – 247 с.

7. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2015. – 504 б.

8. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории /Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.

9. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. 612 с.

10. Пилипчук Я.В., Сабитов Ж.М. Очерки этнополитической истории кыпчаков. – Астана, Гылым, 2015. – 248 с.

11. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.

12. Тимохин Д.М., Тишин В.В. Происхождение Теркен-хатун, матери хорезмшаха Ала ад-Дина Мухаммада: к проблеме соотношения этнонимов в восточном Дешт-и Кыпчаке в XII-начале XIII вв. в исторических источниках// Материалы II-й научной конференции средневековой истории Дешт-и Кыпчака. Павлодар: ТОО НПФ “ЭКО”, 2018. – С.83-103.

13. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.: O’zbekiston, 2006. – 384 б.

14. Pelliot P. A propos des Comans // Journal Asiatique. 1920. XI série. T. XV. №1. P. 125–185.

ETNIK TARIXNI O‘RGANISH KONSEPSIYALARI: TARIXSHUNOSLIKDA ETNOGENEZ MUAMMOSI

Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
University of Business and Science
Toshkent filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada etnogenez va etnik tarixni o‘rganishga doir turli nazariy yondashuvlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Unda etnik shakllanish jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar, ilmiy konsepsiyalarning rivojlanishi hamda ularning zamonaviy tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Etnogenez, etnik tarix, tarixshunoslik, nazariy konsepsiyalar, etnik jarayonlar, xalq shakllanishi, madaniyat, antropologiya, millat, tarixiy taraqqiyot.

Abstract: The article analyzes various theoretical approaches to the study of ethnogenesis and ethnic history from the perspective of historiography. It highlights the factors influencing the processes of ethnic formation, the development of scientific concepts, and their significance in modern historical research.

Keywords: Ethnogenesis, ethnic history, historiography, theoretical concepts, ethnic processes, nation formation, culture, anthropology, nation, historical development.

Аннотация: В статье анализируются различные теоретические подходы к изучению этногенеза и этнической истории с точки зрения историографии. Выявляются факторы, влияющие на процессы этногенеза, развитие научных концепций и их значение в современных исторических исследованиях.

Ключевые слова: Этногенез, этническая история, историография, теоретические концепции, этнические процессы, формирование нации, культура, антропология, нация, историческое развитие.

Etnik tarixni o‘rganish konsepsiyalari insoniyat taraqqiyoti jarayonida xalqlarning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixshunoslikda etnogenez muammosi turli nazariy maktablar va ilmiy yo‘nalishlar tomonidan turlicha talqin etilib, bu borada ko‘plab konseptual yondashuvlar shakllangan. Etnogenez masalalari faqat biologik yoki madaniy omillar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, siyosiy va geografik sharoitlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Mazkur maqolada etnik tarixni tadqiq etishning asosiy nazariyalari, ularning shakllanishi va tarixshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Etnos nazariyasi – XX asr va XXI asrning boshlarida rus fanida etnologiya (etnografiya)ning hodisasi va o‘rganish ob’yekti sifatida etnos (xalq) mohiyatini tavsiflovchi fikr va mulohazalar yig‘indisidir. Ushbu mulohazalarning o'ziga xos xususiyati primordializm va biologizm edi. Etnos nazariyotchilari etnosning tabiati

(uni ijtimoiy-madaniy yoki biologik deb hisoblashlari) to'g'risida, ular etnologiyani gumanitar yoki biologik fanlar toifasiga nimalar bilan bog'laganliklariga qarab bahs yuritganlar.

Rus fanida etnosning (yunoncha ethnos – xalq, qabila) etnografiya predmeti sifatidagi birinchi ta’rifini N.M. Mogilyanskiy “Etnografiyaning predmeti va vazifalari” (1916) maqolasida bergan. Olim etnosni ‘‘fizik (antropologik) xususiyatlarning umumiy xususiyatlari, umumiy tarixiy taqdirlari va nihoyat, umumiy til bilan bir butunga birlashgan shaxslar yig'indisi’’ deb ta'riflagan[1]. Bundan tashqari etnosni ‘‘butun dunyoqarashning, xalq psixologiyasining, bir so‘z bilan aytganda, butun ma’naviy madaniyatning mushtarakligi” – deb ta’riflaydi. Etnos konsepsiyasining nazariy rivojlanishiga bag'ishlangan birinchi monografiyasida etnograf S. M. Shirokogorov quyidagi ta'rifni bergan: ‘‘Etnos – bu bir tilda gaplashadigan, kelib chiqishi umumiyligini tan oladigan, urf-odatlar majmuasiga, turmush tarziga ega bo‘lgan, an’analar bilan saqlanib qolgan va muqaddaslangan va boshqa guruhlardan ajralib turadigan odamlar guruhidir. Bu etnik birlik, etnografiya fanining ob'ektidir»[2]. So‘nggi paytlarda berilgan ta’riflar etnosning yuqorida qayd etilgan belgilarining barchasini yoki bir qismini o‘z ichiga oladi, xususan, o‘z-o‘zini anglash (etnik o‘ziga xoslik), o‘xshash jismoniy va antropologik xususiyatlar, umumiy til, madaniyat, kelib chiqish, psixologiya va xulq-atvor shakllari.

Etnos nazariyasi kelib chiqishi haqidagi ilmiy qarashlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Peterburgda shakllandi. U Sankt-Peterburg universitetining geografiya va etnografiya kafedrasi va Rossiya antropologiya jamiyati kabi muassasalar atrofida birlashgan olimlar, shuningdek, MAE va Rossiya muzeyining etnografiya bo'limida ishlagan ba'zi hodimlar tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tadqiqotchilarni asosan fransuz fanidan kelib chiqqan antropologiya g‘oyasiga amal qilib, etnografiya uning bir qismi bo‘lishi kerak bo‘lgan umumlashtiruvchi tabiiy-tarixiy fan sifatida birlashtirgan asosiy xususiyatlar: tabiiy fanlarga yo'naltirilganlik, tabiat va jamiyatni boshqaradigan biosotsial qonunlarning pozitivistik g'oyasi; jismoniy antropologiya bo'yicha mutaxassislik; geografiyaga e'tibor ‘‘geografik determinizm’’; fransuz va nemis antropologiyasi nazariyalarini faol o'zlashtirish va tushunish edi. Etnik guruhning birinchi ta'rifi muallifi N. M. Mogilyanskiyga jismoniy antropolog, etnograf va arxeolog F. K. Volkov eng katta ta'sir ko'rsatdi.

F. K. Volkov va N. M. Mogilyanskiylar Kichkina Rossiya deb ataluvchi Ukraina davlati aholisi va Ukraina milliy harakati faollari edi. Bu harakatning muhim yutuqlaridan biri F.K.Volkov, M.S.Grushevskiy, M.M.Kovalevskiy, F.E.Korsh, A.E.Krimskiy, M.I.Tugan Baranovskiy va A.A. Shaxmatov muharrirligida yaratilgan ikki jildlik “Ukraina xalqi o‘tmishi va buguni” (1914–1916) edi. Bu asarning barcha mualliflari ukrainaliklarning etnik qarashlarini u yoki bu darajada muhokama qilishga urindilar. Volkovning ushbu nashrda chop etilgan "Ukrain xalqining antropologik xususiyatlari" va "Ukrain xalqining etnografik xususiyatlari" maqolalari ukrainlar misolida etnik guruhni tushunish uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Volkovning ta'kidlashicha, ukrainlar jismoniy va antropologik nuqtai nazardan ‘‘juda bir xil qabila’’. Etnografik jihatdan

ukrainlar, tashqaridan chuqur ta'sirga duchor bo'lmagan va bolgarlar va serblarga eng yaqin bo'lgan qadimgi slavyan etnografik va antropologik xususiyatlarini saqlab qolgan ‘‘bitta etnik butunlik’’ni ifodalaydi. Mogilyanskiy Ukraina va ukrainlar haqidagi asarlarida Volkovning xulosalarini to‘liq qo‘llab-quvvatladi[3]. Etnos g'oyasining rivojlanishida 1910-1920-yillarning boshlarida faoliyat yuritgan Rossiyaning etnografik xaritalarini tuzish komissiyasi ham muhim rol o'ynadi. Komissiya tarkibiga F. K. Volkov, D. A. Zolotarev, N. M. Mogilyanskiy, S. I. Rudenko, D. K. Zelenin, S. M. Shirokogorov va boshqalar kirgan. Komissiyaning asosiy vazifasi ilgari jismoniy antropologiya ma’lumotlarining geografik taqsimotiga asos bo’lgan etnografik prinsipga qo’shimcha ravishda moddiy va ma’naviy madaniyat va turmushning umumiyligini ko’rsatadigan tillar va lahjalarning lingvistik xaritalarini tuzish edi. Umumiy xarita turar-joy turlari, kiyim-kechak, tillar va boshqalarni taqsimlovchi xaritalarini birlashtirishi kerak edi. Shunday qilib bu komissiya xalqlarning geografik taqsimlanishini ochib beradi. Komissiya ishi Birinchi jahon urushi va inqilob tufayli to'xtab qoldi. Uning faoliyatining eng muhim natijalari qatorida, Volkovning ko'rsatilgan asarlaridan tashqari, uning shogirdi S. I. Rudenkoning ikki jildli ‘‘Bashkirlar’’ deb nomlangan monografiyasini ham nomlash mumkin[4].

Etnos nazariyasi bilan ilmiy ish olib borgan olimlardan biri S.M.Shirokogorov edi. U F.K Volkov va N. M. Mogilyanskiy singari peterburglik antropologlarning qatoriga mansub edi, u bir muddat Parijda yashab, tahsil oldi. 1910-yilda Rossiyaga qaytgach, 1918-1922- yillarda MAEda ishladi. Vladivostok va Shanxayda yashab ijod qilgan, so‘ngra nihoyat Xitoyga ko‘chib o‘tib, u yerda umrining oxirigacha turli universitetlarda dars bergan, va shomanizm dinini va tungus-manchjur xalqlarini o‘rganish sohasida mashhurlikka erishgan asarlar nashr etgan[5]. Volkov va Mogilyanskiydan farqli o‘laroq, Shirokogorov etnografiyani etnik guruhlarning moddiy, ijtimoiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganuvchi gumanitar fan deb hisoblagan. Biroq, uning etnik guruhlar va ularning madaniyatini insoniyatni tashkil qilishning asosiy usuli va etnik guruhlar o'rtasidagi ‘‘mavjudlik uchun kurash’’ deb tushunishida biologik metaforalar muhim rol o'ynadi. Ushbu kurashni tasvirlash uchun u hudud, aholi zichligi va etnik guruhlar madaniyati darajasi kabi o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi matematik tenglamalarni taklif qildi. Ushbu tenglamalarni shakllantirgan etnologiya Shirokogorovga ‘‘inson bilimining toji’’ bo'lib tuyuldi. Bu nazariya kuchli assimilyatsiya bosimini boshdan kechirgan, ammo hayot tarzini saqlab qolgan Evenki guruhlari o'rtasidagi dala ishlari tajribasi asosida shakllangan[6]. Bundan tashqari, bu nazariya Shirokogorovning siyosiy falsafasi bilan monarxizm va millatning organik g’oyasining uyg'unligi bo'lgan[7].

SSSRda bunday tushunchalar qabul qilinishi mumkin emas edi: ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda biologiyaga har qanday murojaat ‘‘biologizatsiya’’ deb hisoblangan. 1920-1930-yillar oxirida etnologiyada ham boshqa fanlarda bo'lgani kabi, burjua fanini tanqid qilish kampaniyasi bor edi. Volkovning eng ko'zga ko'ringan shogirdlari D. A. Zolotarev va S. I. Rudenko qatag'on qilindi, Rudenkoga qarshi kampaniya paytida Rudenko biologizm va irqchilikda ayblandi. Etnologiyaning eng radikal tanqidchisi V. B. Aptekar madaniyat va etnik

tushunchalarni millatchilik va irqchilik bilan tenglashtirgan. Natijada “etnos” atamasi 1930–1940-yillarda marksistik etnografiyada g‘oyaviy jihatdan nomaqbul bo‘lib qoldi va amalda foydalanilmay qoldi. Biroq, urushdan keyingi davrda etnograflar etnos nazariyasi g'oyalariga Stalinning millat nazariyasini etnografiyada qo'llash shaklida qayta boshladilar. P. I. Kushner etnosni «bu xalqlarning oldingi tarixiy hayoti va geografik muhitning ularga ta'siri tufayli xalqlarning turmush tarzidagi o'ziga xos farqlar to'plamidir» deb ta'riflagan[8]. Rossiya-Ukraina chegarasidagi vaziyatni tahlil qilar ekan, u bu holatda yagona etnik farqlovchi xususiyat etnik o'zini o'zi anglash ekanligini tan oldi[9].

1950-yillarning oxiri – 1960-yillarning boshlarida etnograflar Etnografiya instituti (IE) devorlarida tanqid qilingan Stalinistik millat nazariyasidan tashqariga chiqishga intilib, etnik jamoalar turlarini muhokama qila boshladilar. Etnograflar va faylasuflar yana jamiyatning organizm sifatidagi metaforasiga murojaat qilishdi, bu esa Fanlar akademiyasi rahbarlari tomonidan e'lon qilingan tabiiy va gumanitar fanlarning yangi yaqinlashuviga yordam berdi. 1966-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Tarix bo'limida tarixchi E.M.Jukov boshchiligidagi Milliy munosabatlarni o'rganish komissiyasi paydo bo'ldi va ‘‘Tarix savollari’’ jurnalida millat tushunchasi haqida munozara boshlandi. Xuddi shu 1966-yilda tarix bo'limining ilmiy kotibi va slavyan tarixchisi Yu. V. Bromley Iqtisodiyot instituti direktori bo'ldi.

Yu.V.Bromleyning ‘‘Etnos va endogamiya’’ nomli birinchi nazariy maqolasi etnik endogamiyaga etnosning ‘‘barqarorlashuvi’’ omili sifatida e’tibor qaratdi, bu munozarali reaksiya va "biologizatsiya" ayblovlarini keltirib chiqardi, ammo Etnografiya instituti xodimlarining ko‘pchiligi Bromleyni qo‘llab-quvvatladi. Keyinchalik Bromley etnos nazariyasining o'ziga xos versiyasini ishlab chiqdi. U ‘‘etnos’’ tushunchasining ikkita ma'nosini ajratishni taklif qildi: etnikos (so'zning tor ma'nosida etnos) va etno-ijtimoiy organizm (EIO), ya'ni siyosiy, iqtisodiy va hududiy birlikka ega bo'lgan va harakat qiladigan millat (kapitalizm va sotsializm davrida) yoki qabila (ibtidoiy jamiyatda) shakli – etnos. Bromleyning fikriga ko'ra, etnos-etniklar ‘‘ma'lum bir hududda tarixan shakllangan, shunga o'xshash shakllanishlardan (o'z-o'zini anglash), o'z nomida (etnonimida) mustahkamlangan, madaniyat (shu jumladan til) va ruhiyatining nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo'lgan, shuningdek, ularning birligi va farqini anglaydigan barqaror avlodlar to'plami’’. Bundan tashqari, Bromley etnik va etnografik guruhlar, subetnos, etnos va metaetnik jamoa tushunchalarini o'z ichiga olgan tipologiyani ham taklif qildi. Bromley jamiyatni o‘rganishda marksistik yondashuvni tan oldi, lekin sinfiy tuzilma va davlatdan mustaqil bo‘lgan madaniyat va etniklikning diaxronik xususiyatlariga aniq urg‘u berdi.

Bromleyga parallel va mustaqil ravishda tarixchi L. N. Gumilyov o'zining etnos nazariyasini ishlab chiqdi. Unda u turli g‘oyalar va fanlarga – genetikadan V. I. Vernadskiy nazariyalarigacha va siyosiy g‘oyalardan A. L. Chijevskiyning biofizikasigacha tayangan. Uning nazariyasi markazida etnosning biologik organizm sifatidagi metaforasi bo'lib, u o'z rivojlanishida (etnogenezida) har qanday biologik organizmlar kabi bir xil tug'ilish, o'sish va tanazzul bosqichlarini bosib o'tadi. Gumilyov etnik guruhlarni tabiiy biologik hodisalarga bog‘lab, o‘zini

etnologiyaning marksizm klassiklari o‘rnatgan “jamiyat” taraqqiyot qonuniyatlaridan farqli bo‘lgan etnik guruhlarning rivojlanish qonuniyatlarini ochgan nazariy fan asoschisi deb hisobladi. Gumilyov etnik guruhlarning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchini "ehtiroslilik" - kosmik nurlanish ta'sirida yuzaga keladigan, shaxslarga o'ziga xos kuch va fidoyilik beradigan genetik mutatsiya deb hisobladi. Etnik guruhning odatiy hayotga aylanishi davri taxminan 1200 yil va bu davr tug'ilish, gullash va asta-sekin o'lishga mos keladigan yuksalish, akmatik faza, parchalanish, inertial faza, qorong'ulash, memorial faza va gomeostaz kabi fazalarni o'z ichiga oladi. Gumilyovning nazariy qarashlari biologik qarash ekanligi tanqid qilindi, turkiy xalqlar va Rossiya tarixiga oid tadqiqotlari mutaxassislar tomonidan shubha bilan qarshi olindi. Shunga qaramay, muallifning yorqin adabiy tili va xarizmasi tufayli Gumilyovning qarashlari so'nggi sovet va postsovet davrida mashhur bo'ldi.

Sobiq Sovet Respublikasi davrida etnos nazariyasi bir necha yo‘nalishda rivojlandi. N. N. Cheboksarov va S. A. Arutyunov ‘‘infokontaktlar’’ chastotasi yoki ularning fikricha, etnik guruhlar ichida eng yuqori va ularning chegaralarida kam uchraydigan turli xil aloqa turlari g'oyasini ilgari surdilar. Z. P. Sokolova Xanti va Mansining nikohi haqidagi statistik ma'lumotlar asosida etnik guruhlarning endogamiyasini empirik tarzda isbotlashga harakat qildi. V.V.Pimenov etnosning tarkibiy nazariyasini taklif qildi (1977). Etnos nazariyasiga asoslangan eng ulug'vor loyiha M. V. Kryukov va N. N. Cheboksarov boshchiligida tarixchi va filologlar V. V. Malyavin, L. S. Perelomov va M. V. Sofronov ishtirokida amalga oshirilgan olti jildlik xitoylarning etnik tarixini o'rganish edi. Ularning yondashuvi markazida etnik o'z-o'zini anglashni eng muhim "etnobarqarorlashtiruvchi omil" sifatida tahlil qilish, o'zida etnosning eng muhim xususiyatlari va uning a'zolarining qadriyat yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan. Etnik o'z-o'zini anglash etnik guruh belgisi sifatida uning turli tarkibiy qismlari va darajalarini ajratib ko'rsatgan rus etnograflari asarlarida tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. V. I. Kozlov etnosning eng muhim xususiyati sifatida ushbu “sub’ektiv” atributning o‘rnatilishida katta rol o‘ynadi. Kryukov va uning hammualliflari ‘‘qabila - millat – millat’’ triadasini ‘‘o'lik’’ deb tan oldilar va eng muhim ‘‘etnik xususiyat’’ sifatida o'z-o'zini anglashga asoslangan etnik guruhlar tipologiyasini qurishga chaqirdilar. Etnograflardan farqli o'laroq, ‘‘tarixiy’’ faylasuflar (milliy masalani tarixiy materializm ta'limoti doirasida ko'rib chiqqanlar) o'rtasida milliy masala bo'yicha mutaxassislar ‘‘etnos’’ va ‘‘etnik’’ atamalarining o'zaro munosabatda xalqlarga nisbatan qo'llanilishiga tubdan qarshi edilar. 1970–1980-yillarda xalqning eng ko‘zga ko‘ringan nazariyotchisi M.I.Kulichenko ta’kidlaganidek, sinfdan oldingi jamiyatga borib taqaladigan etnik an’analar sinfiy jamiyatda etnik guruhlar va millatlarning shakllanishi jarayonida shu qadar o‘zgarib ketganki, birini ikkinchisidan turlicha bo‘lib bo‘lmaydi.

Qayta qurish davrida milliy masala ochiqroq muhokama qilina boshladi. Ushbu jarayonning boshlanishi E. A. Bagramovning Marksizm-Leninizm institutida "Zamonaviy sharoitda milliy masala" (1987) ma'ruzasi, shuningdek, 1988 yilda Iqtisodiyot institutida bo'lib o'tgan uchrashuvlar bilan asos solingan. Etnograflar va faylasuflar millatchilik tuyg'ularining kuchayishi, milliy

respublikalar tizimidagi xalqlarning tengsizligi, ularning titulli va titulsiz bo'linishini nazarda tutgan muammolarni muhokama qildilar. 1989-yildan Iqtisodiyot instituti direktori V. A. Tishkov etnos nazariyasining obyektiv yondashuvini tanqid qildi, shu sababli tadqiqotchilar millatchilikning safarbarlik salohiyatini baholay olmadilar. Tishkov Shirokogorov, Gumilyov va Bromleyning primordializmini postsovet millatchi ziyolilar tomonidan qo‘llanilgan xavfli nazariya sifatida ko‘rdi. Ayrim faollarning roli va ularning mafkuralarini ta'kidlagan konstruktivizm va instrumentalizm, uning fikricha, postsovet millatchiligini ham, sovet davlat qurilishini ham tahlil qilish uchun ancha mos edi. Tishkov “etnos” tushunchasini ommaviy va akademik nutqlardan chiqarib tashlashga chaqirdi. 20 yil o'tgach, u sovet etnografiyasi ijtimoiy-madaniy antropologiyaga aylantirilganini va etnos nazariyasidan ozod qilinganligini aytdi, ammo bu nazariya tarixchilar, faylasuflar, psixologlar, genetiklar, boshqa fanlar vakillari va publitsistlar orasida o'z tarafdorlarini topishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Могилянский Н. М. Предмет и задачи этнографии // Живая старина. – 1916. – № 1.
2. Широкогоров С. М. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений. – Москва : URSS : ЛИБРОКОМ, 2012.
3. Алымов С. С. Украинские корни теории этноса // Этнографическое обозрение. – 2017. – № 5.
4. Алымов С. С. Этнос на карте: географическое воображение школы Ф. К. Волкова / Алымов С. С., Подрезова С. В. // Этнографическое обозрение. – 2017. – № 5.
5. Alymov S. S. Etnos Thinking in the Long Twentieth Century / Alymov S. S., Anderson D. G., Arzyutov D. V. // Life Histories of Ethnos Theory in Russia and Beyond. – Cambridge, UK : Open Book Publishers, 2019.
6. Anderson D. G. Notes from His «Snail’s Shell»: The Siberian Fieldwork of Sergei M. Shirokogoroff and the Groundwork for Ethnos Thinking // Life Histories of Ethnos Theory in Russia and Beyond. – Cambridge, UK : Open Book Publishers, 2019.
7. Arzyutov D. V. Order out of Chaos: Political Intrigue and the Anthropological Theories of Sergei M. Shirokogoroff // Life Histories of Ethnos Theory in Russia and Beyond. – Cambridge, UK : Open Book Publishers, 2019.
8. Кушнер П. И. Этнические территории и этнические границы. – Москва : Издательство АН СССР, 1951. – 6с.
9. Кушнер П. И. Этнические территории и этнические границы. – Москва : Издательство АН СССР, 1951. – 70-77с.

“NUROBOD TUMANI ETNOIQTISODIYOTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK TAHLILI”

Shodiyorov Umrzoq Ibodullo o‘g‘li
UBS Toshkent filiali stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyati Nurobod tumanining etnoiqtisodiy taraqqiyoti tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil etilgan. Unda an’anaviy xo‘jalik shakllari, mahalliy iqtisodiy modelning evolyutsiyasi hamda zamonaviy islohotlarning etnik jarayonlarga ta’siri tarixshunoslik nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Nurobod tumani, etnoiqtisodiyot, an’anaviylik, zamonaviylik, tarixshunoslik, manbashunoslik, iqtisodiy taraqqiyot, etnik jarayonlar, Samarqand viloyati, madaniy meros.

Annotation: The article analyzes the ethno-economic development of the Nurabad district of Samarkand region based on historical sources and modern research. It covers traditional economic forms, the evolution of the local economic model, and the impact of modern reforms on ethnic processes from the point of view of historiography.

Key words: Nurabad district, ethnoeconomics, tradition, modernity, historiography, source studies, economic development, ethnic processes, Samarkand region, cultural heritage.

Аннотация: В статье на основе исторических источников и современных исследований анализируется этноэкономическое развитие Нурабадского района Самаркандской области. Рассматриваются традиционные формы хозяйствования, эволюция местной экономической модели, а также влияние современных реформ на этнические процессы с точки зрения историографии.

Ключевые слова: Нурабадский район, этноэкономика, традиция, современность, историография, источниковедение, экономическое развитие, этнические процессы, Самаркандская область, культурное наследие.

Nurobod tumani aholisining iqtisodiy hayoti, turmush tarzi va xo‘jaligi haqidagi ma’lumotlar XIX asr yarmi va oxirlarida nashr etilan rus olim va sayyohlari asarlarida uchraydi. Ular jumlasiga 1843 yilda nashr etilgan rus sayyoh olimi V.N.Xanikov”[1] (1843), G.A.Arandrenko[2] (1889)ning asarlarini misol sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Dastlabki guruhga taaluqli adabiyotlarda jumladan, XX asr boshlaridagi Nurobod tumani aholisining etnik tarkibi, dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, qishloqlardagi iqtisodiy-ijtimoiy turmush, hayot farovonligi darajasi hamda oila byudjetiga tegishli ayrim statistik ma’lumotlar bayon etilgan[3].

Ta’kidlash lozimki, XX asrning boshlarida yaratilgan ishlarda etnoiqtisodiyot masalasi maxsus mavzu sifatida emas, balki geografik, iqtisodiy, statistik, ma’muriy masalalar bilan birgalikda o‘rganilgan. Mazkur adabiyotlarning qiymati ularning shaxsiy kuzatuvlarga asoslanib yozilganligi va yuqorida tilga olingan

tadqiqotchilarning ishlari Nurobod tumani aholisining xo‘jaligi, etnoiqtisodiy jarayonlarning xalq turmush tarziga ta’siri haqida boshqa manbalarga nisbatan to‘liqroq, shu bilan birgalikda, haqiqatga yaqin ma’lumotlar bergani bilan belgilanadi.

XX asr boshlarida O‘rta Zarafshon (Nurobod tumani)ni o‘rganish maqsadida tashrif buyurgan tadqiqotchilar o‘z xizmat vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, mintaqa aholisining etnik tarkibi, turmush tarzi va savdo munosabatlariga ham qiziqqanlar. Xususan, aholining etnik tarkibi, xo‘jalik mashg‘ulotlari va turmush tarzini o‘rganish bilan birga, o‘sha davrda kechgan etnoiqtisodiy jarayonlar xususida ham muhim ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

Nurobod tumani aholisining etnik tarkibi, turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va an’analari, umuman kundalik hayotiga doir dastlabki ma’lumotlar, ilmiy kuzatishlar Rossiya imperiyasining davriy nashrlarida ham uchraydi. Jumladan, Rossiya imperiyasi ma’muriyati tomonidan muntazam chop etib boriladigan “Samarqand viloyat ma’lumotnoma kitobchasi”da Zarafshon vohasning ma’muriy bo‘linishi, tabiiy sharoiti, siyosiy va aholining iqtisodiy ahvoliga oid ma’lumotlar, aholi sonining o‘sishi, milliy tarkibi, volost, qishloq jamoalari va qishloqlar aholisining etnik tarkibi, dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va xo‘jalikning boshqa turlari, mehnat qurollari, savdo-sotiq, oilaviy – maishiy turmushi hamda urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilingan ushbu to‘plamlarda Rossiya imperiyasi ma’murlari, olimlar, tadqiqotchilarning maqolalari va hisobotlari berib borilgan.

Samarqand viloyati harbiy gubernatori bo‘lgan N.S.Likoshin tadqiqotlarida dehqonchilik uchun yaroqli yerlar miqdori, tuproq tahlili, dehqonchilik va sug‘orish tizimi, chorvachilikning holati, savdo, xalq ta’limi xususidagi statistik ma’lumotlar keltirilgan. Muallif asarlarining yana bir muhim jihati unda iqtisodiy muammolarning ham o‘rin olganligidadir[4].

Muallifning qayd etishicha, “Turkiston o‘lkasi bo‘yicha yozilgan umumiy geografik asarlardagi ayrim bo‘shliqlarni imkon qadar to‘ldirish, o‘lka haqida qisqacha umumiy ma’lumot berish, O‘rta Osiyoga qiziquvchi va u bilan hech qanday maxsus maqsadlarsiz tanishmoqchi bo‘lgan kishilarga yordam berishni, rus hukmronligi davrida qilingan ishlarning xulosalari va kelgusida qilinishi lozim bo‘lgan tadqiqotlarga yordam berish”ni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan. Mazkur asarda O‘rta Osiyo va shu jumladan Nurobod tumaniga qo‘shni hududlar aholisi xo‘jalik turlari, iqtisodiy hayotiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Sovetlar davrida nashr etilgan adabiyotlar va amalga oshirilgan tadqiqotlar turkumi. Ikkinchi guruhga tegishli bo‘lgan tarixiy, etnografik va etnologik ishlarda aholining milliy va etnik tarkibi, an’anaviy xo‘jalik xususiyatlari, qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmush farovonligiga to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, Arasimovich T. V, I.I. Zarubin, N. A. Kislyakov, O. A. Suxareva, M. A. Bikjanova, A. F. Monogarova, B. X. Karmisheva, K.SH. Shoniyozov, N. P. Lobachyova, T. X. Tashbayeva va M. D. Savurov, X. Toshevlarning etnik tarkib, an’anaviy xo‘jalik, oila va oilaviy marosimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlari[5] da aksari qishloq oilasi o‘rganilgan bo‘lib, tog‘li hududlarda kechgan etnoiqtisodiy jarayonlar etnograflar nazaridan chetda qolgan. Shunga qaramay, bu davrdagi

tadqiqotlar kuzatuvga asoslangan keng ko‘lamdagi va noyob ma’lumotlarning mavjudligi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, jamoa xo‘jaliklari – kolxozning tashkil topishi munosbati bilan ulardagi turmush tarzi va oila munosabatlarini o‘rganishda ular o‘ziga xos o‘ringa ega. Ushbu tadqiqotchilarning xizmatlari ularni, oila maishiy turmushi, marosimlarning an’anaviy shakllarini birinchilardan bo‘lib ko‘rsatib beribgina qolmasdan, bu muammolarni o‘rganish usullarini ham yaratganlaridir.

XX asrning 20-yillaridan o‘zbeklarning an’anaviy xo‘jalik hayotida tub o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Ayniqsa, 1920–1930-yillarda olib borilgan agrar islohotlar, qishloq xo‘jaligini jamoa(kolxoz)lashtirish individual mehnat faoliyatidan xo‘jalikni jamoaviy asosda yuritishga o‘tish qishloqning ijtimoiy tarkibini o‘zgartirib yubordi[6].

Rasmiy nashrlardan yana biri 1926 yilda chop etilgan ― “Materiali po rayonirovaniyu Uzbekistana” nomli ma’muriy-xo‘jalik rayonlashtirish to‘plamidir[7]. Unda qishloq xo‘jaligida yuqori daromad keltiruvchi bog‘dorchilik va uzumchilik xo‘jaligi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berilgan[8].

Nurobod tumani aholisini etnografik o‘rganilishida tadqiqotchi olima B.X.Karmishevaning tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Masalan, etnograflarning tadqiqotlari jamlangan “Etnograficheskiye ocherki uzbekskogo selskogo naseleniya” (O‘zbek qishloq aholisining etnografik ocherki) nomli ilmiy monografiyada aks etgan etnografik materiallar, xulosalar, ulardagi metodlar hozirgacha o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu monografiya oldingi nashrlarga qaraganda ilmiy yondashuvlarning yuqoriligi hamda mafkuraviy ta’sirlardan muayyan darajada holi ekanligi bilan ajralib turadi. Bu monografiyada qishloq hayotida dehqonchilik xo‘jaligini yuritishning o‘tmishi va rivojlanish tarixi, moddiy madaniyati hamda ijtimoiy-maishiy turmushning zamonaviylashuvi, zamonaviy urf-odatlarning shakllanish jarayoni haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan.

O‘zbeklarning turmush tarzi va madaniyatiga bag‘ishlangan navbatdagi ilmiy to‘plam[9] da 1917 yilgacha va sovet davridagi xo‘jalikning yangi sotsialistik formaga o‘tish jarayonlari, o‘zbeklarning moddiy madaniyati, oilaviy va jamoaviy turmush tarzi hamda ishlab chiqarishga oid bir qancha muammoviy masalalar yoritilgan. To‘plamda xo‘jalik masalalari yoritilgan maqolalar orasida X. Toshevning o‘rta Zarafshon o‘zbeklarining an’anaviy chorvachiligi[10] masalalariga bag‘ishlangan maqolasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Muallif Zarafshon vohasida tabiiy-geografik sharoitdan kelib chiqib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining an’anaviy chorvachiligi masalalari haqida dala etnografik ma’lumotlarini taqdim etdi. Maqolada chorvachilikning faqat qo‘ychilik sohasiga oid ma’lumotlar tahlil etilgan, qorako‘lchilik va qo‘y xo‘jaligi, chorvachilik xom ashyosidan tayyorlanadigan mahsulotlar hamda ularning iqtisodiy ahamiyati haqidagi ma’lumotlar batafsil keltirilgan.

Uchinchi guruhga mansub bo‘lgan mustaqillik yillarida mavzuga oid nashr etilgan ilmiy asar va adabiyotlar[11] mazmun-mohiyati jihatidan sobiq Sho‘rolar davri adabiyotlaridan farq qiladi. XX asrning 90-yillaridan amalga oshirila boshlagan etnografik tadqiqotlar mintaqaviy (Farg‘ona vodiysi, Toshkent,

Zarafshon, Nurota, Xorazm vohalari va Janubiy O‘zbekiston hududlari), muammoviy-mavzuviy (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik) yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Etnoiqtisodiyot mavzusida tadqiqotchi A.Bababekov so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning Qashqadaryo, Nurota, Zarafshon, Surxondaryo tog‘li tumanlari misolida turli mintaqalar orasidagi etnoiqtisodiy jarayonlar masalalari qiyosiy o‘rganilgan bir qancha muammoviy-hududiy tadqiqotlar ham amalga oshirilgan bo‘lib, bir qancha monografiya va risolalar ham chop etildi.

Shunday tadqiqotlardan biri O‘zR FA Tarix instituti olimlari tomonidan e’lon qilingan “O‘zbekiston hududida an’anaviy etnoslararo jarayonlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)” nomli jamoaviy monografiya hisoblanadi. Unda O‘zbekistonning janubiy mintaqalari va Farg‘ona vodiysida yashagan o‘zbeklar va boshqa qator etnografik guruhlarning etnik tarixi hamda etnoslararo jarayonlarida an’anaviy xo‘jalik, savdo-sotiq aloqalari muhim o‘rin tutganligi etnografik materiallar asosida yoritilgan.

Shunday qilib, xulosa qiladigan bo‘lsak, shu kunga qadar bu etnoiqtisodiyot yo‘nalishida chop etilgan adabiyotlar, olib borilgan tadqiqotlar va nashr etilgan ilmiy maqolalarni yangi konseptual metodologik talablardan kelib chiqib ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Etnoiqtisodiyotning nazariy jihatlari yoritilgan adabiyotlar va davriy matbuot nashrlari. 2. Dala etnografik va sotsiologik tadqiqotlari natijalari umumlashtirilgan monografik adabiyotlar va ilmiy ishlar.

Birinchi guruhga asosan klassik etnologlar (Y. Bromley, L. Gumilyov, B.Malinovskiy) asarlari, shuningdek iqtisodchilar (Kochetov E, Lebedeva N.N., Lomovseva O.A., Ovchinnikov V.N., Kolesnikov Y.S. boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari kiritilib, ularda etnoslardagi xo‘jalik va iqtisodiy faoliyatga doir tushunchalar, iqtisodiy tizimlarning globalizatsiya sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari, mazkur jarayonning etnoiqtisodiy aspektlari haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchi guruhga oid adabiyotlarda etnolog olimlarning tadqiqotlari natijalari va ilmiy xulosalari o‘rin olgan. Ularda mazkur masalaga ko‘proq ana’anviy xo‘jalikni, u bilan bog‘liq marosim hamda urf-odatlarni yoritish nuqtai nazaridan yondoshilgan. Masalan, S.M. Abramzon tadqiqotida O‘rta Osiyo chorvador qabilalari turmush tarzi masalasi tadqiq etiladi. Ayniqsa taniqli olima B.X.Karmishevaning asarlarida o‘zbek xalqining an’anaviy mashg‘ulotlari, turmush sharoiti atroflicha o‘rganiladi. Mashhur etnolog olimlarimiz K. Shoniyozov, I. Jabborov, A. Ashirovlarning etnoslar xo‘jaligiga oid tadqiqotlarida etnoiqtisodiyotning amaliy muommolari qamrab olingan. Shuningdek, etnologlar T.Salimov, A.Bobobekovlar etnoiqtisodiyot muommolariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Zarafshon vohasi chorvadorlarining XX asr boshlaridagi turmush tarzi, an’ana va tajribalari aks etgan ilmiy tadqiqot ishi X.Toshev tomonidan amalga oshirilgan. Unda chorvadorlarning turmushi, xo‘jalik yuritish borasidagi an’analari batafsil ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843.
2. Арандаренко. Г.А. Досуги в Туркестане. С-Пб., 1889. – С. 99.
3. Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1893–1912; Арасимович Т. В. Очерки экономики каракуловодства УзССР. Т. 1923. – С. 8.
4. Лыкошин Н.С. Чапкуллукская волост Ходжентского уезда... – С. 61–32.
5. Зарубин И. И. Население Самаркандской области. Его численность, этнографической состав и территориальное распределения. – Л.: РАН, 1925. – 223 с.; Кисляков Н. А. К вопросу об этнографическом изучении колхозов // СЭ, №1. – М., 1952, - С. 146-152. Бикжанова М.А. Семья в колхозах Узбекистана. На материалах колхозов Наманганской области. – Ташкент: АН УзССР, 1959. – 136 с.; Моногарова А.Ф. Семья и семейный быт / Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – С. 193-243.; Кармышева Б.Х. Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – 294 с.; Шаниязов К. Узбеки-карлуки (Историко-этнографический очерк). – Ташкент: Фан, 1964. – 195 с.; Ўша муаллиф. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: Фан, 1974. – 312 с.; Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Ташкент: Фан, 1989. – 163 с.; Тошев Х., Ўроқов М. XIX аср охири ва XX аср бошларида Зарафшон воҳаси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилиги. – Тошкент: Фан, 1981. – 110 б.; Тошев Х. XIX аср охири – XX аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг хўжалиги ва ижтимоий турмуши. –Тошкент: Фан, 1987. – 100 б..
6. Узбеки. – М.: Наука, 2011. – С. 195.
7. Материалы по районированию Узбекистана / Комис. ЦИК УзССР по районированию. – Самарканд: ЦКРЗУз, 1926. – 26 с.
8. Материалы по районированию Узбекистана... – С. 9–12.
9. Этнографическое изучение быта и культуры узбеков / Отв. ред. Зияевва Х. З., Лунин Б. В. – Ташкент: Фан, 1972. – 161 с.
10. Тошев Х. Традиционное животноводство узбеков Среднего Зарафшана // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 51–68.
11. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 143 б.; Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2006. – 178 б.; Толипов Ф. Мозийга бўйлашган маскан (Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола). – Тошкент: Ниҳол. 2008. – 192 б.; Узбеки / Отв.

ред. С.Н.Абашин, Д.А.Алимова, З.Х.Арифханова: Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Узбекистана. – Москва: Наука, 2011. – 688 с.;

12. Ўзбекистон ҳудудида анъанавий этнослараро жараёнлар (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Yangi nashr, 2011. – Б. 8–65; Салимов Т.Ў. Нурота ва нуроталиклар.

O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXIGA OID MUHIM MANBALAR

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich, ass.o‘qituvchi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
Samarqand, O‘zbekiston.
e-mail: norbotirovich@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xalq shakllanishi jarayonidagi turli manbalarni tahlil qiladi. Tadqiqotda yozma manbalar, o‘rta asr tarixiy asarlari, arxeologik topilmalar va lingvistik ma’lumotlar asosiy ilmiy material sifatida ko‘riladi. Maqolada o‘zbek etnogenezining murakkabligi, turkiy unsurlar uyg‘unligi, mahalliy aholi bilan etnik sintez jarayonlari, shuningdek, siyosiy va madaniy integratsiya roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalqi, etnogenez, etnik tarix, turkiy unsurlar, Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, arxeologik manbalar, o‘rta asr manbalari, madaniy meros.

Аннотация. Целью данной статьи является изучение этногенеза и этнической истории узбекского народа, анализ различных источников в процессе национального формирования. В качестве основного научного материала в исследовании рассматриваются письменные источники, средневековые исторические труды, археологические находки и лингвистические данные. В статье освещаются сложность этногенеза узбеков, гармоничное сочетание тюркских элементов, процессы этнического синтеза с местным населением, а также роль политической и культурной интеграции.

Ключевые слова: узбекский народ, этногенез, этническая история, тюркские элементы, археологические источники, Беруни, Махмуда Кашгари, средневековые источники, культурное наследие.

Abstract. This article is aimed at studying the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people, analyzing various sources in the process of national formation. The study considers written sources, medieval historical works, archaeological finds and linguistic data as the main scientific material. The article highlights the complexity of Uzbek ethnogenesis, the harmony of Turkic elements, the processes of ethnic synthesis with the local population, as well as the role of political and cultural integration.

Keywords: Uzbek people, ethnogenesis, ethnic history, Turkic elements, Beruni, Mahmud Kashgari, archaeological sources, medieval sources, cultural heritage.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish masalasi nafaqat tarixshunoslik, balki etnologiya, arxeologiya, antropologiya va tilshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va milliy o‘zligini anglashida etnogenez jarayonini to‘g‘ri yoritish hal qiluvchi omil sanaladi. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon miloddan avvalgi qadimgi turkiy, so‘g‘diy, baxtariy, xorazmiy va boshqa mahalliy etnik guruhlarning o‘zaro aralashuvi natijasida boshlangan [G‘ulomov, 1987: 45]. Keyinchalik turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta’sirida bu etnik birliklar yagona xalq – o‘zbek xalqining shakllanishiga zamin yaratgan. Mazkur mavzu doirasida turli davrlarda yozilgan tarixiy manbalar, xususan, “Avesto”, “Behistun yozuvlari”, qadimgi yunon va rim tarixchilari asarlari, shuningdek, o‘rta asr sharq mualliflarining asarlari o‘zbek xalqining kelib chiqishini o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Abulg‘ozi Bahodirxon, Mirzo Ulug‘bek, Sharafuddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar asarlarida xalqning etnik shakllanish jarayoniga oid qimmatli ma’lumotlar uchraydi [Beruniy, 1968: 125]. So‘nggi yillarda mustaqillik davrida milliy tarixshunoslikda o‘zbek xalqining etnik tarixini chuqur ilmiy asosda o‘rganishga bo‘lgan e’tibor ortdi. Jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti olimlarining izlanishlari natijasida etnogenez jarayonining asosiy bosqichlari, etnik qatlamlar va ularning shakllanish omillari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

“Etnogenez” atamasi yunoncha “ethnos” – xalq va “genesis” – kelib chiqish so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’nosi xalqning paydo bo‘lishi, shakllanish jarayonini anglatadi. Etnogenez jarayoni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u uzoq tarixiy davr davomida turli etnik guruhlar, qabila va elatlarning o‘zaro aralashuvi va birlashuvi orqali amalga oshadi [Alekseev, 1985: 12]. O‘zbek xalqining etnogenezi Markaziy Osiyo tarixidagi eng murakkab jarayonlardan biridir. Chunki bu hudud qadimdan turli xalqlar, qabila va madaniyatlarning chorrahasida joylashgan. Shuning uchun ham o‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni bir necha ming yillik davrni o‘z ichiga oladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘zbek xalqining ildizlari so‘g‘diylar, xorazmiylar, baxtariylar, saklar, massagetlar, parkana, qang‘lar kabi qadimgi elatlar bilan bog‘liq. Miloddan avvalgi I ming yillikda bu elatlar O‘zbekiston hududida yashagan va o‘ziga xos madaniyat, til hamda urf-odatlarni shakllantirganlar. Keyinchalik bu hududga turkiy qabilalarning kirib kelishi etnik tarkibga yangi qatlamlarni olib keldi. Turkiy qabilalarning Movarounnahrga kirib kelishi V–VI asrlarda Turk xoqonligi davrida boshlangan. Shundan so‘ng o‘zbek xalqining etnik shakllanishida turkiy unsurlar ustun mavqega ega bo‘la boshladi. Shunga qaramay, o‘zbek xalqining shakllanishida eronzabon, turkiyzabon va mahalliy qabila-elatlarning o‘zaro sintezi muhim rol o‘ynagan. IX–XII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Saljuqiylar davrida etnik tarkib yanada boyidi, mahalliy aholi bilan turkiy qabilalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar kuchaydi. Ayniqsa, Qoraxoniylar davrida turkiy til davlat tili darajasiga ko‘tarilib, keyinchalik o‘zbek xalqining madaniy va til birligi shakllanishiga asos bo‘ldi. XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi natijasida

Markaziy Osiyoda siyosiy va etnik jarayonlar keskin o‘zgardi. Mo‘g‘ul istilosidan keyin hududda o‘zbek nomi bilan atalgan etnik birlik asta-sekin mustahkamlanib bordi. XIV–XV asrlarda Shayboniylar davrida “o‘zbek” atamasi aniq etnik mazmun kasb eta boshladi va bu nom Movarounnahr hamda Xorazm aholisi uchun umumlashgan etnonimga aylandi. Shunday qilib, o‘zbek xalqining etnogenezi uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lib, qadimgi mahalliy aholi va turkiy qabilalarning birlashuvi, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy va madaniy integratsiya natijasida yuzaga kelgan. O‘zbekiston hududida o‘zbeklarning shakllanishi jarayonida urbanizatsiya, savdo yo‘llari, siyosiy markazlar va madaniy almashinuv katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayonlar faqat xalqning genetik tarkibini emas, balki til, urf-odat va madaniy an’analarni ham shakllantirgan [Gafurov, 1989: 136]. Shu sababli, etnogenez tushunchasi o‘zbek xalqining tarixiy o‘ziga xosligini tushunishda muhim ilmiy vosita hisoblanadi.

O‘zbek xalqining etnik tarixini tadqiq qilishda eng muhim vositalardan biri tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar hisoblanadi. Ular xalqning shakllanish jarayoni, turli qabilalar va madaniy kontaktlarni aniqlashga imkon beradi. Yozma manbalar etnogenez jarayonini o‘rganishda eng qadimiy manba hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilar va lingvistlar Markaziy Osiyodagi turkiy va eroniy xalqlarni, ularning ijtimoiy tuzilishi va etnik o‘ziga xosligini batafsil bayon qilgan [Mahmud Qoshg‘ariy, 1980: 101]. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariy Divan lug‘at at-turk asarida turkiy qabilalarning geografik tarqalishi va urf-odatlarini yozib qoldirgan bo‘lsa, Beruniy o‘z asarlarida turoniy va sog‘diy xalqlarning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yoritgan. Shuningdek, arab va fors manbalari ham Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy harakatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Xususan, Tabariy, Ishtaxriy va Narshaxiy kabi tarixchilar o‘rta asrda mintaqada yashovchi turkiy qabilalarning harakatlari va siyosiy integratsiyasi haqida ma’lumot bergan [Tabariy, 1960: 46]. Bu manbalar yordamida o‘zbek xalqining etnik tarkibi va uning turkiy va mahalliy elementlar bilan qanday boyigani aniqlanadi.

Arxeologik manbalar ham o‘zbek etnogenezini tushunishda muhimdir. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa hududlardagi qadimgi shaharlarda o‘tkazilgan qazishmalar natijasida turli madaniy qatlamlar aniqlangan. Masalan, O‘zbekiston hududidagi temir davri qabristonlari va shaharlardagi topilmalar qadimgi turkiy va mahalliy madaniyatning uyg‘unligini ko‘rsatadi [Gafurov, 1983: 106]. Shuningdek, turli asbob-uskuna, sopol idishlar va binolar etnik sintez jarayonini, turli qabilalarning o‘zaro aloqasini tasdiqlaydi. Lingvistik manbalar ham etnogenezni o‘rganishda qo‘llaniladi. Mahmud Qoshg‘ariy va boshqa tilshunoslar tomonidan qoldirilgan turkiy til xazinalari, leksik va fonetik xususiyatlar o‘zbek tilining shakllanish jarayonini aniqlashda muhimdir. Til va leksika orqali turli xalqlar o‘rtasidagi etnik va madaniy aloqalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, manbalarning birlashgan tahlili o‘zbek etnogenezining murakkab, ko‘p qatlamli jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Yozma, arxeologik va lingvistik manbalarni solishtirish orqali tarixchilar o‘zbek xalqining qadimiy qabilalardan tortib, XVI asrga qadar shakllanish jarayonini aniqlash imkoniga ega bo‘ladi.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda o‘rta asr manbalari eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu manbalar orqali turkiy va mahalliy xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalarni, shuningdek etnik sintez jarayonini aniqlash mumkin. O‘rta asr manbalari ikki asosiy turga bo‘linadi: tarixiy-yozma manbalar va geografik-manaviy asarlar. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy Temuriylar davri siyosiy va etnik harakatlarini batafsil tahlil qilib, o‘zbek etnogenezining asosiy jarayonlarini ochib beradi. Geografik va etnografik asarlar, xususan, Ishtarxiy va Tabariy kabi olimlarning asarlari, Markaziy Osiyodagi qabilalar tarqalishi, ularning migratsiyalari va iqtisodiy faoliyatini yoritadi.

O‘rta asr manbalarini ilmiy tahlil qilish jarayonida tadqiqotchilar bir nechta metodlardan foydalanadi. Xronik tahlil orqali tarixiy hodisalar va qabilalar harakatining vaqt o‘qi aniqlanadi; komparativ tahlil orqali turli manbalardagi ma’lumotlar solishtiriladi; lingvistik tahlil esa til va leksika orqali turkiy va eroniy unsurlarni aniqlash imkonini beradi [Alekseev, 1985: 61]. Bu usullar birgalikda o‘zbek xalqining ko‘p qatlamli etnogenezini tushunishga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘rta asr manbalari faqat tarixiy faktlarni emas, balki xalqning madaniy va etnik xususiyatlarini ham yoritadi. Bu ma’lumotlar orqali o‘zbek etnogenezining shakllanish bosqichlari, turkiy va mahalliy unsurlar uyg‘unligi hamda siyosiy va madaniy integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Natijada, o‘rta asr manbalarini ilmiy tahlil qilish o‘zbek xalqining tarixiy o‘ziga xosligini, etnik tarkibini va madaniy merosini chuqur tushunishga imkon beradi. Bu manbalar zamonaviy tarixshunoslikda o‘zbek etnogenezini aniqlash va uning ilmiy asoslarini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi [Gafurov, 1989: 136].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek etnogenezi turli tarixiy davrlarda turkiy va eroniy unsurlar aralashuvi, mahalliy aholi bilan ko‘chmanchi qabilalarning integratsiyasi hamda siyosiy va madaniy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Yozma manbalar va arxeologik topilmalar o‘zbek xalqining etnik tarkibi va madaniy xususiyatlarini chuqur yoritadi. Manbalarni ilmiy tahlil qilish orqali turkiy va eroniy unsurlar uyg‘unligi, ijtimoiy va siyosiy integratsiya jarayonlari hamda xalqning madaniy merosi aniqlanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni faqat genetik yoki siyosiy hodisa sifatida emas, balki madaniy, til va urf-odatlar jihatidan ham boy va ko‘p qatlamli jarayon sifatida amalga oshgan. Bu holat o‘zbek etnogenezini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi va tarixshunoslikda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi [Barthold, 1968: 78]. Natijada, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat xalqning kelib chiqishini, balki uning madaniy merosi, urf-odatlari va ijtimoiy tuzilishini tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa o‘zbek tarixshunosligida o‘ziga xos ilmiy maktabni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. G‘ulomov, Y. Qadimgi O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
2. Abu Rayhon Beruniy, “Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”. – Toshkent: Fan, 1968.

3. Alekseev, A. N. Etnogenez narodov Sredney Azii. Moskva: Nauka, 1985.
4. Gafurov, B. Srednevekovaya Srednyaya Aziya: etnogenez i kul’tura. Toshkent: Fan, 1989.
5. Mahmud Qoshg‘ariy. Divan lug‘at at-turk. Toshkent, 1980.
6. Tabariy, M. Tarikh al-umam wa al-muluk. Tehran, 1960.
7. Gafurov, B. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Fan, 1993.
8. Barthold, V. Turkestan v epokhu mongolov. Tashkent: Fan, 1968.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI FONDLARIDA ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX MASALALARI

Qo`qon Davlat Universiteti Gumanitar
fanlar va tillar fakulteti Tarix yo`nalishi
2-bosqich 03/24-guruh talabasi
Xaydarova Ro`zixon +998951347616.
Xaydarovarozixon5@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan tarixiy manbalar asosida o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish masalalari yoritilgan. Milliy kutubxona – xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosini asrovchi, ilmiy tadqiqotlar uchun muhim markaz sifatida tahlil qilinadi. Maqolada kutubxona fondlaridagi qo‘lyozmalar, toshbosma asarlar hamda raqamli resurslar o‘zbek xalqining shakllanish jarayonini o‘rganishda qanday manba vazifasini bajarishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, raqamli kutubxona loyihalarining etnik tarixni o‘rganishdagi yangi imkoniyatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so`zlar. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, etnogenez, etnik tarix, manbashunoslik, qo‘lyozma manbalar, o‘zbek xalqi, tarixiy xotira, raqamli kutubxona, madaniy meros.

Abstract: This article discusses the issues of studying the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people based on historical sources stored in the funds of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. The National Library is analyzed as an important center for scientific research, the custodian of the historical memory and cultural heritage of the people. The article considers how manuscripts, lithographs and digital resources in the library funds can serve as a source in studying the process of the formation of the Uzbek people. It also shows new opportunities for digital library projects in studying ethnic history.

Keywords: National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, ethnogenesis, ethnic history, source studies, manuscript sources, Uzbek people, historical memory, digital library, cultural heritage.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа на основе исторических источников, хранящихся в фондах Национальной библиотеки Узбекистана имени

Алишера Навои. Национальная библиотека рассматривается как важный центр научных исследований, хранитель исторической памяти и культурного наследия народа. В статье рассматривается, как рукописи, литографии и цифровые ресурсы фондов библиотеки могут служить источником для изучения процесса формирования узбекского народа. Также показаны новые возможности проектов цифровой библиотеки в изучении этнической истории.

Ключевые слова: Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои, этногенез, этническая история, источниковедение, рукописные источники, узбекский народ, историческая память, цифровая библиотека, культурное наследие.

Har bir xalqning o‘z tarixiy shakllanish jarayoni, milliy o‘zlikni anglash darajasi va madaniy merosi uning etnogenez va etnik tarixini o‘rganish orqali to‘liq yoritiladi. O‘zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni ming yillik tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.[Muhammadjonov 1994:36].

Bu jarayonni o‘rganishda yozma manbalar, arxeologik topilmalar va etnografik ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid manbalarni to‘plash, saqlash va tadqiq etish bo‘yicha beqiyos ilmiy markaz sifatida xizmat qilmoqda.[natlib.uz 2024].

Milliy kutubxona – bu nafaqat kitoblar xazinasi, balki millatning tarixiy xotirasini saqlovchi, milliy o‘zlikni tiklash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi muassasadir. Unda saqlanayotgan qo‘lyozma asarlar, qadimiy hujjatlar, tarixiy risolalar va etnografik tadqiqotlar orqali O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning kelib chiqishi, etnik shakllanish bosqichlari va madaniy aloqalari to‘g‘risida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.[Karimov 2010:27].

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 1870-yilda tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy-ma’naviy markazlardan biri hisoblanadi.[O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2001:118].

Kutubxona fondida bir milliondan ortiq nashrlar, jumladan 40 mingdan ortiq noyob qo‘lyozmalar, toshbosma asarlar va litografiyalar saqlanadi.

Bu fondlarda o‘zbek xalqi etnogeneziga bevosita taalluqli manbalar – “Tarixi Rashidiy” (Mirzo Muhammad Haydar), “Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Abdullanoma”, “Sharafnomayi shohiy”, shuningdek, arab, fors va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlar mavjud.[Ahmedov 2001:63].

Ushbu manbalar orqali Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Turkiston vohalarida yashagan qabilalar, ularning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin.

O‘zbekiston xalqlarining etnogenezini o‘rganishda yozma manbalar asosiy dalillardan biri sifatida xizmat qiladi. Milliy kutubxona fondlarida saqlanayotgan qadimiy asarlar orasida o‘zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan turkiy qabilalar, so‘g‘d, xorazm va forsiy unsurlar haqida ma’lumotlar keng o‘rin olgan.

Masalan, “Zayn al-axbor” va “Hudud al-olam” asarlarida O‘rta Osiyo xalqlari etnik tarkibi haqida dastlabki yozuvlar uchraydi. “Boburnoma”da esa XVI asr

boshlarida Movarounnahrda yashagan turkiy qavmlar, ularning urf-odatlari, til va madaniyatdagi o‘ziga xos jihatlar bayon qilingan.[Qodirov 2015:42].

Milliy kutubxonaning Qo‘lyozmalar markazida saqlanayotgan ayrim manbalar hali to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, ular o‘zbek xalqining qadimgi davrlardan boshlab shakllangan etnik qiyofasini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda Milliy kutubxona fondlarining raqamlashtirilishi natijasida etnogenez va etnik tarixga oid manbalarni o‘rganish yanada qulaylashdi. “Milliy raqamli kutubxona” loyihasi orqali tarixiy qo‘lyozmalar, eski toshbosmalar, kartografik hujjatlar va fotosuratlar elektron shaklda tadqiqotchilarga taqdim etilmoqda.[Qodirov 2015:78].

Bu jarayon o‘zbek xalqining etnik tarixini o‘rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni joriy etish, tarixiy manbalarni saqlash va keng ommaga yetkazish imkonini bermoqda. Shuningdek, kutubxona doirasida o‘tkaziladigan ilmiy konferensiyalar, ko‘rgazmalar va ma’rifiy loyihalar orqali yosh tadqiqotchilar etnik tarixning manbashunoslik asoslarini o‘rganishga keng jalb etilmoqda.

Maqola so`ngida xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, madaniy merosi va etnik o‘zligining eng yirik ilmiy markazidir. Unda saqlanayotgan manbalar o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini yoritishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Milliy kutubxona fondlaridagi qo‘lyozmalar, toshbosma asarlar va zamonaviy raqamli resurslar yordamida tadqiqotchilar o‘zbek xalqining kelib chiqishi, etnik tarkibi va madaniy aloqalari haqida yanada chuqurroq ma’lumot olish imkoniga ega. Shu bois, bu maskan nafaqat ilmiy, balki ma’naviy merosni asrab-avaylovchi milliy qadriyatlar xazinasi sifatida ham alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy sayti – www.natlib.uz

2. Muhammadjonov A. O‘zbek xalqining etnogenezi masalalari. – Toshkent: Fan,1994.

3. Ahmedov B. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – “Etnografiya” bo‘limi.

5. Karimov M. Manbashunoslik va tarixiy manbalar tahlili. – Toshkent, 2010.

6. Qodirov R. Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixi. – Samarqand: Registon, 2015.

MUNDARIJA

KIRISH……4
“TURKISTON ILK O‘RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI–VIII VA IX–XIII ASRLAR)” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN…….6
Sanjar Bekmuradov - MANBALARNI TILGA KIRITGAN OLIM……7

TURK XOQONLIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

E.A. Axundjanov - ПЕРИОДИЗАЦИЯ ЭТНИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ……16
Кубатин Андрей Викторович - ДРЕВНЕТЮРКСКИЕ ТИТУЛЫ В СВЕДЕНИЯХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК» МАХМУДА КАШГАРИ……..……...22
A’zamova Mahliyo - TURK VA TURKISTON ATAMASINING TARIXI VA GEOGRAFIYASI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA……...27
Одинаев Наим Абдулҳафизович - ТУРКИЙ ҚАБИЛАЛАРИНИНГ СУЛОЛАЛАРИ ВА ДАВЛАТЧИЛИГИ ВАСФИ ИБН АЛ-АСИРНИНГ “АЛ-КОМИЛ ФИТ-ТАРИХ” АСАРИДА……33
Raximjonov Mirzohid - QADIMGI TURKLAR TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI……..39
Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘gli – TURK XOQONLIGIDA SUG‘DIYONANING AVTONOM HUQUQLARI……44
Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи – ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ РЕКОНСТРУКЦИЯ ПОЛИТИКО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА НА ОСНОВЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ, НУМИЗМАТИЧЕСКИХ И ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКОВ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ……...47
Baltayeva Ma’mura, Ermatova Umida Kenjaboy qizi – “TURK XOQONLIGI TARIXI VA TARIXIY JARAYONLAR”……..50

UYG‘UR XOQONLIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

Дустмуродов Маъруфжон Мансур ўғли - УЙҒУР ХОҚОНЗОДАСИ ҚАРИ ЧОР ТИГИН АНТРОПОНИМИ ХУСУСИДА (Циан битиги матни асосида)……...54

ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI

Babayeva Turan - TÜRKISTANIN EMEVILER TARAFINDAN FETHI……60
Azamat Sharipov - QUR’ONIY (ISLOM) DAVRDA ARABISTON TARIXIY GEOGRAFIYASI (SAYID MUZAFARUDDIN NADVIYNING “QUR’ONNING TARIXIY GEOGRAFIYASI” ASARI ASOSIDA)……65
Baltayeva Ma’mura, Raimberganova Farangiz Mansur qizi – “ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA EVOLUTSIYASI”……....76

Muyassarxon Djaxongirova Anvarovna - ARAB XALIFALIGIDA ISLOM DINI VA BOSHQA DINLARNING TARQALISH GEOGRAFIYASI……78
Azimqulov Javohir Zafarzoda - ARAB XALIFALIGIGA QARAMLIK DAVRIDA TURONDA TANGA-PUL MUOMALASI. (VII ASR O‘RTALARI-IX ASR BOSHLARI)……..86
Jo’rayev Ziyovuddin Muhitdinovich - X –XI АСРЛАР АББОСИЙЛАР ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИДАН – АБУЛҲАСАН МОВАРДИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ, СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР.....92
Salohiddinova Mohira Shahobiddin qizi - ARAB XALIFALIGI DAVRIDA JAMIYATDA AYOLLARNING O’RNI.....102

SOMONIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich - SOMONIYLAR DAVRIDA ILMIY MUHIT VA UNING TARIXIY AHAMIYATI……..106
Umarov Baxtishod Baxridin o‘g‘li - SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHRI TARIXIY TOPOGRAFIYASI……..112

QORAXONIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

Derya Soysal - THE FIRST UZBEK RENAISSANCE: SCIENTIFIC, LITERARY, AND PHILOSOPHICAL ACHIEVEMENTS UNDER THE KARAKHANIDS……..119
Ғайбулла Бобоёров - БОЛАСОҒУН ШАҲРИНИНГ ЎРНИ ҚАЕРДА БЎЛГАН?.....124
Asadova Ra’no Baymanovna - QORAXONIYLAR DAVRINING SIYOSIY, MADANIY VA SAVDO ALOQALARI: MARKAZIY OSIYO VA HINDISTON O‘RTASIDAGI TARIXIY-GEOGRAFIK BOG‘LIQLIK……...132

G‘AZNAVIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

Koraboyev Murodjon Oldashovich - G‘AZNAVIYLAR DAVLATI TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI……137

SALJUQIYLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

Sapayeva Marxabo Achilovna – SALJUQIYLAR DAVLATINING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI (X ASR OXIRI – XI ASR BOSHLARI)……140

XORAZMSHOHLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOEGRAFIYASI

Raximov Sherbek Kamolovich - XORAZMSHOHLAR SALTANATINING TARIXIY-SIYOSIY GEOGRAFIYASI……...144
Allaberganov Azizbek Saparboyevich - XORAZMSHOHLAR DAVRIDA TARIXIY GEOGRAFIYA……147
Mehmonaliyeva Mohiraxon Muhammadjon - XORAZMSHOHLAR DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI……...151

Shomurotov Otojon Xamidovich - ANUSHTEGINIYLAR DAVRI XORAZM VOHASI SHAHARLARINING IJTIMOIY HAYOTI……153
Karimov Yashin - XORAZMSHOHLAR DAVRI KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SUV YO‘LLARINING TUTGAN O‘RNI……158
D. Erkinjonova – XORAZMDA XIV–XV ASRLAR IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI TAHLILI.....162

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI

Жалолиддин Зайниевич Мирзаев - ШАМСИДДИН КАМОЛИДДИН МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИ ЎРГАНИЛИШИНИНГ ЕТАКЧИСИ.....168
Хушвақов Наби Олимович - ГАУРГОНЛАР ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ ДАХМАСИ……...173
Jahongir Kamolov - EFTALIYLARDA DAVLAT MAFKURASI, HUQUQ VA MUDOFAA TIZIMI HAQIDA MANBALAR TAHLILI.....180
Rahimova Umidaxon Tursunaliyevna – TURKISTONNING ILK O’RTA ASRLAR DAVRI TARIXI……...186
Ganixodjayev Yashnar Abbasovich - ABU BAKR NARSHAXIY “BUXORO TARIXI” ASARIDA SAMARQAND TARIXIGA OID MA’LUMOTLAR TAHLILI.....191
Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi – IMOM BUXORIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI. MANBAASHUNOSLIK TAHLILI…….195
Акобир Тоиров – МУҲАММАД ИБН НАЖИБ БАКРОН ВА УНИНГ АЛОУДДИН МУҲАММАДГА БАҒИШЛАНГАН “ЖАҲОННОМА” АСАРИ ТЎҒРИСИДА.....199
Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich - O‘RTA ASR ALLOMALARI ILMIY FAOLIYATINI YEVROPADA O‘RGANILISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR.....205
Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna - SHARQ VA G‘ARB ILMIY MULOQOTINING SHAKLLANISHIDA O‘RTA ASR ALLOMALARINING O‘RNI.....209
Jurayev Sherzod – HUSAYN BAYQARA DAVRIDA XUROSON GEOGRAFIYASI……..213
Нодира Холмонова - ХИВА ХОНЛИГИДАН РОССИЯГА ЮБОРИЛГАН ЭЛЧИЛИКЛАРГА ОИД АЙРИМ ҚАРАШЛАР……...216
Nodira Xolmonova, Muhammadqodir Murodov - SHARQ VA G‘ARB MAMLAKATLARI TARIXSHUNOSLIGIDAGI ASOSIY TAFOVUTLAR (XV-XVI ASRLAR)……..224
Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna – LAGATURMAN – THE LAST TURK SHAHI RULER (BASED ON BERUNI’S “KITAB AL-HIND)…….228
Lala A. Aliyeva - "THE BOOK OF DEDE KORKUT" AS A HISTORICAL SOURCE: GEOGRAPHY, ETHNICITY, AND METHODOLOGICAL APPROACHES…….233
Sunatillayeva E‘zoza Ma‘ruf qizi - AMIR TEMURNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI……..238

Jurayev Sherzod, Omonkulova Moxinur – ABU SAID MIRZO TEMURIYLAR DAVLATINI QAYTA BIRLASHTIRGAN SO`NGI HUKMDOR.....242
Bahadirova Robiya Ikrom qizi - QALAM VA QILICH EGASI: UBAYDULLAXON DAVRINING MO'JIZASI.....246
Hasanova Saida Namik - ON THE DİPLOMATIC RELATİONS OF THE OTTOMAN STATE WITH SHIRVAN JUDGE HAJI DAVUD KHAN.....251
Guzal Xidirova Rustam qizi - ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА МОВАРОУННАҲР ОРОНИМЛАРИ(XVI АСР БИРИНЧИ ЯРМИ).....256
Sharipov Shohruz Faxriddin o`g`li - XVIII–XIX ASRLARDA CHAHOR VILOYATINING SIYOSIY VA IJTIMOIY RIVOJLANISHI: MAYMANA XONLIGI MISOLIDA TAHLIL.....262
Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o'g'li - MUHOJIR ZIYOLILARNING "YOSH TURKISTON" JURNALIDA MUNAVVARQORI SIYMOSINING YORITILISHI.....268
Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi - ABDULLA NOSIROV VA AL-MARJONIYNING "G'URFAT AL-HAVOQIN" QO'LYOZMA NUSXASI HAQIDA.....271
Муминов Темур Аброр угли – ИБРАГИМ МУМИНОВ - КАК ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФСКОЙ ШКОЛЫ……...276
Mamatqulov Bekzod Sherozovich - O'ZBEKISTON SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI ASOSIDA O'RGANILISHI (XIX–XX ASRLAR).....279
Karimjonova Dilorom Qobuljonovna - O'ZBEKISTON XALQLARINING SHAKLLANISH JARAYONI VA TARIXIY MANBALARDAGI AKS ETISHI.....283
Bazarbayeva Shohsanam Muratovna - XX ASR BOSHLARI TURKISTON VETERINARIYA TIZIMI: HUJJATLAR VA AMALIYOT……..287
Soipova Orzugul - "TUSHUNCHALAR TAHLILI" METODIKASINI TARIX FANINING TARKIBIY QISMI BO'LGAN: TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARINI O'RGANISH TIZIMIDAGI SAMARASI……..291
Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi - TURKIY TILLAR TARIXIDAGI DOLZARB MUAMMOLARNI O'RGANISH……294
Zarnigor Omonova - TARIXNI O'RGANISH METODIKASI…….298
Омонова Зарнигор Туражон кизи - КАНООТ КАК ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИЕ……..303

TARIXIY KARTOGRAFIYA: XARITALAR VA GLOBUSLAR

Qo'chqorov Temirbek Baxromjon o'g'li - SOSONIYLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYO TARIXIY GEOGRAFIYASI……309
Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi – TURKISTON ILK O'RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI – VIII VA IX – XIII ASRLAR)……..316
Kalandarova F.A. - "TARIXI SALOTINI MANG'ITIYA" ASARIDA TARIXIY GEOGRAFIYAGA OID MA`LUMOTLAR.....319

Mahmuda Zokirova Ravshan qizi - BRITANIYA OROLLARIDAGI JOY NOMLARI ORQALI TARIXIY, IJTIMOIY VA TILSHUNOSLIK MANBALARNI O‘RGANISH.....323
Karimboyeva Salomatxon Isaboyevna - FARG‘ONA VODIYSI O‘ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI.....328
Sattarov Ulug‘bek, Rahimjonova Nozima – ARAB XALIFALIGI DAVRI TARIXI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI.....334
Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi – QARLUQLARNING JOYLASHUVI VA TARIXIY GEOGRAFIYASI ….....339
Kadirov Farhod Mamarajabovich - DUNYO MIQIYOSIDA TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING SAMARQAND TURIZM SALOHIYATIDAGI AKS ETTIRILISHI……342

TARIXIY TOPONIMIKA: JOY NOMLARI

Ш. С. Камолиддин - ТУРОН ТОПОНИМИ ИЛК СОСОНИЙЛАР ДАВРИДА……346
Xolmatova Umida. - QANG’ DAVLATI TASHKIL TOPISHI BO’YICHA FIKRLAR TAHLILI…….351
Дуйшеев Женишбек Аматысакович - ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОНИМИКА РЕГИОНОВ АЛТАЙ И АЛА-ТОО (ПАРАЛЛЕЛИ)……354
Сандибоев Алишер Назарбекович - ИЛК ВА РИВОЖЛАНГАН ЎРТА АСРЛАРДА КУШОНИЯ ШАҲРИНИНГ ТАРИХИЙ ТОПОГРАФИЯСИ ВА ЛОКАЛИЗАЦИЯ МАСАЛЛАРИ……...357
Arzu Bebirova - İSLAM FETHLERİNDEN HAREZMŞAHLAR DÖNEMİNE KADAR GENCE ŞEHRİ.....366
Qo‘ldashev Sherali Temiralievich - “POP” ATAMASI HAQIDA.....370
Kabulov Rustam Jumaniyozovich – QASHQADARYO VILOYATIDA URUG‘ NOMLARI BILAN BOG‘LIQ TOPONIMLAR……...374
Abdullayeva Nasiba Arabovna - TARIXIY TOPONIMIKA VA FARG‘ONA VODIYSI JOY NOMLARINING SHAKLLANISHI……..378
Сайдуллаев Гуламжон Авзарович - ТОПОНИМЫ В ПУТЕВЫХ ЗАМЕТКАХ ВАСИЛИОСА ВАТАТЗИСА «ПЕРЕТИГОН». КРАТКИЙ ОБЗОР.....380
Bekmuradov Sanjar Tursunmamatovich – OLMALIQ SHAHRI TARIXIY GEOGRAFIYASI.....383

ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX MASALALARI

Raximbayev Xurmat Xursand o’g’li - XII – XIII ASRLAR XORAZM ANUSHTEGINIYLAR DAVRI ETNOSIYOSIY JARAYONLARIDA DASHTI QIPCHOQ.....390
Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li - ETNIK TARIXNI O‘RGANISH KONSEPSIYALARI: TARIXSHUNOSLIKDA ETNOGENEZ MUAMMOSI.....395
Shodiyorov Umrzoq Ibodullo o‘g‘li - “NUROBOD TUMANI ETNOIQTISODIYOTINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK TAHLILI”.....401

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich - O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXIGA OID MUHIM MANBALAR.....406
Xaydarova Ro‘zixon - ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI FONDLARIDA ETNOGENEZ VA ETNIK TARIX MASALALARI.....410

Aral
Bukara
Morv